34
H84

342(585.1)
(07)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

O.T. HUSANOV

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

DARSLIK

90350929

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2012-yil 26-dekabrdagi 597-sonli buyrug'iga asosan
5240100-yurisprudensiya yo'nalishida tahsil
olayotgan talabalarga darslik uchun tavsiya etilgan.

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
372909
Axborot Resurs Markazi

Toshkent
"Adolat"
2013

UO'K: 342.4(075)
KBK: 67.400(5O')
H-89

Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent:
H-89 Adolat, 2013. – 552 b.

ISBN 978-9943-394-74-2

UO'K: 342.4(075)
KBK: 67.400(5O')

Taqrizchilar: Sh. Jalilov – yu.f.d., professor
X. Ro'zmetov – yu.f.d.
Sh. Zulfiqorov – yu.f.n., dotsent

Konstitutsiyaviy huquq bo'yicha tayyorlangan darslik oliy yuridik o'quv yurtlarining bakalavr bosqichi ta'lim standartlari asosida yaratilgan.

Darslikda Konstitutsiyaviy huquq fani predmeti doirasiga kiruvchi mavzular yoritilgan. Darslikning tuzilishi (tizimi) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tuzilishiga ham mos keladi. Unda Konstitutsiyaga 2011-yil 12-dekabrgacha kiritilgan barcha o'zgarishlar e'tiborga olingan.

Darslik oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan boshqalar ham Konstitutsiyani o'rganishda foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-394-74-2

© Husanov O.T., 2013.
© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti, 2013.

Mazkur darslikni yoshlarga bilim berish va tarbiyalashda uzoq yillar mehnat qilgan otam – Tillaboy Husanov va onam – Gulnora Husanovalarning yorqin xotirasiga bag'ishlayman.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining huquqiy fanlar tizimida "Konstitutsiyaviy huquq" fani alohida o'rin tutadi. Chunki, bu fan orqali huquq tizimida yetakchi huquq hisoblanuvchi "Konstitutsiyaviy huquq" o'rganiladi.

Konstitutsiyaviy huquq yetakchi huquq tarmog'i bo'lishi bilan birga, alohida, o'z predmetiga ega huquq tarmog'i hamdir.

Konstitutsiyaviy huquq normalari jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy masalalarni, ularning asoslarini tartibga soladi. Bular xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish jarayonidan kelib chiqadigan "fuqaro-jamiyat-davlat" o'rtasidagi munosabatlar hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq – Konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, jamiyat va shaxs munosabatlarini, ma'muriy hududiy va davlat tuzilishi masalalarini, hokimiyatni tashkil etish va ularning faoliyati bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat huquq tarmog'idir.

Ana shu masalalar va ularni tartibga soluvchi huquqiy normalar esa, Konstitutsiyaviy huquq fani tomonidan o'rganiladi.

Konstitutsiyaviy huquq fani, mavjud ijtimoiy munosabatlarga, huquq normalarining mos kelishi masalasini o'rganib, ijtimoiy munosabatlarni yanada to'g'riroq tartibga solish, ularning rivojlanishiga imkon beradigan huquq normalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqishni maqsad qilib qo'yadi.

Konstitutsiyaviy huquq doirasida olib borilgan tadqiqotlar, Konstitutsiyaviy munosabatlar va huquq normalarining takomillashuviga olib keladi.

Konstitutsiyaviy huquqning ta'lim jarayonidagi vazifasi Konstitutsiyani o'quvchilarga chuqur o'rgatishdir. Bu fan orqali Konstitutsiyaning ahamiyati, vazifasi, funksiyasi, yuridik tabiati, davlat tuzilishi, hokimiyatni tashkil etish, shaxsning huquqiy holati, jamiyat, fuqaro, davlat munosabatlari o'rganiladi.

Konstitutsiyaviy huquq fanining vazifasi faqat Konstitutsiyaviy huquq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish bilan cheklanmay, u o'quvchilarda qonunga, Konstitutsiyaviy tuzumga, boshqa fuqarolarga nisbatan hurmat hissini shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Konstitutsiyani chuqur bilish orqaligina Vatanga sadoqat, jamiyatga hurmat paydo bo'lib, belgilangan burchlarni ixtiyoriy bajarishga intilish vujudga keladi.

Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning sakkiz yilligi munosabati bilan o'tkazilgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti so'zlagan nutqida "Nima uchun Konstitutsiyani o'rganish kerak?" degan savolni o'rtaga tashlab, "Ming afsuski bu sir emas – ko'pchiligimiz Konstitutsiyaning ma'no-mazmunini yaxshi bilmaymiz, uni sinchiklab o'rganmaymiz. Vaholanki, agar Konstitutsiyamizning mohiyatiga kirib borsak, mag'zini chaqsak, bugun oldimizda turgan ko'pgina savollarga, muhim muammolarni yechishda javob topishimiz mumkin", – deb javob bergan edi.

Shundan so'ng Konstitutsiyani o'rganishga e'tibor yanada kuchaytirildi. 2001-yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyish qabul qildi. Unga asosan ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalarida "Konstitutsiyani o'rganish maxsus kursi" o'qitilishi belgilandi. Bu maxsus o'quv kursini o'rganish uchun yaratilgan o'quv dasturlari va qo'llanmalarida o'rganish zarur bo'lgan bilimlar asosiga Konstitutsiyaviy huquqdagi bilimlar tayanch qilib olindi.

"Konstitutsiyani o'rganish maxsus kursi" barcha noyuridik o'quv muassasalarida o'qitilib, Konstitutsiyani o'rganishni maqsad qilib qo'ysa, yuridik yo'nalishlardagi ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Konstitutsiyaviy huquq" fani ham o'z oldiga shu maqsadni qo'yadi.

Mazkur darslik 2013-yilda tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Shuning uchun unda faqat Konstitutsiyaviy huquq predmeti doirasidagi mavzularni yoritishga harakat qilindi. Darslikda Konstitutsiyaviy huquqning huquq tizimidagi predmeti va Konstitutsiyaviy huquq fani predmetini aniqlashtirishga, Konstitutsiya prinsiplari bilan Konstitutsiyaviy prinsiplarni aniqlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki, avvalgi nashr etilgan Konstitutsiyalarda shu masalalarda noaniqliklar uchrar edi.

Darslik tizimi asosan Konstitutsiya tizimiga mos tushadi. Lekin, ayrim mavzular aniq Konstitutsiyada belgilangan tartibda emas, ijtimoiy hayotdagi o'rniga qarab ketma-ketligi belgilanib. yoritildi. Masalan, Saylov tizimi Konstitutsiyada davlat hokimiya' tarmoqlaridan keyin berilgan. Lekin hokimiyat tarmoqlari asosan saylov yo'li bilan yoki saylov ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun ularni o'rganishni saylovdan boshlash uslubiy jihatdan, o'rganuvchilarga yaxshiroq yordam berishi mumkin. Yoki Konstitutsiyamizda Prezident instituti Oliy Majlis – Parlament institutidan so'ng tartibga solingan. Darslikda Prezident instituti hokimiyat tizimiga bag'ishlangan bo'limda birinchi o'rinda berildi. Sababi, hozir Prezident ijro hokimiyati tizimiga kirmaydi, u barcha hokimiyat tarmoqlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi va hamkorligini ta'minlash vakolatiga ega eng yuqori hokimiyat subyekti – davlat boshlig'idir. Undan tashqari Prezident Parlamentni ham, Vazirlar Mahkamasini ham, Sud hokimiyatini ham tashkil etishda ishtirok etadi. Shuning uchun Prezident institutining birinchi o'rinda berilishi mantiqiy, uslubiy jihatdan to'g'ri deb hisoblandi.

Darslikda 2003-yil 24-apreldan 2011-yil dekabrgacha Konstitutsiyaga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartishlar, shu davrda mamlakatimizda davlat qurilishi va boshqaruvi, sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlar, erkinlashtirish, ularning inson huquq va erkinliklariga ta'siri o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruza, asarlari, ayniqsa, "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"dagi ko'rsatmalar, g'oyalar darslikning nazariy asosini tashkil etadi.

Jumladan, ushbu Konsepsiya asosida O‘zbekiston Respublikasining “ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)”gi, “Saylov erkinligi yanada ta’minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi qonunlarining qabul qilinishi Konstitutsiyaviy huquq fani predmetining takomillashuviga asos bo‘ldi.

BIRINCHI BO'LIM

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI VA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

I bob. Konstitutsiyaviy huquqning umumiy tasnifi

1-§. Konstitutsiyaviy huquq tushunchasi

"Konstitutsiyaviy huquq" huquqshunoslikda tez-tez uchrab turadigan va bir necha tushunchalarga nisbatan ishlatiladigan atamadir. Avvalo, "Konstitutsiyaviy huquq" atamasi turli mamlakatlarning huquq tizimida alohida o'ringa ega bo'lgan huquq tarmog'iga nisbatan ishlatiladi va mamlakatning, jumladan: "O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqi", "Qozog'iston Konstitutsiyaviy huquqi", "Rossiya Konstitutsiyaviy huquqi" deb ataladi. Ikkinchidan, "Konstitutsiyaviy huquq" atamasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi alohida huquqiy fanga nisbatan ishlatiladi ("O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi" fani, "Qozog'iston Konstitutsiyaviy huquqi" fani, "Rossiya Konstitutsiyaviy huquqi" fani) va u boshqa fanlarga xos barcha xususiyatlarga ega. Uchinchidan, "Konstitutsiyaviy huquq" fuqarolarning Konstitutsiyalarda belgilab qo'yilgan asosiy huquqlariga nisbatan ishlatiladi. Bu uch tushuncha turli ma'noda ishlatilsa-da, ular bir-biri bilan bog'liqdir. Konstitutsiyaviy huquqning huquq tarmog'i sifatida mavjudligi uning huquqshunoslar tomonidan o'rganilishi zaruratini tug'diradi, bu o'z navbatida, "Konstitutsiyaviy huquq" fanining mavjud bo'lishini taqozo etadi, fan esa, faqat bilim berishnigina nazarda tutmay, huquq tarmoqlarining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishini, bir-biri bilan mosligini, muammolarni o'rganadi, huquqni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar uchun asos bo'ladi.

"Konstitutsiyaviy huquq" tarmog'i bir necha huquqiy institutlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan biri shaxsning huquqiy holatidir. Shaxsning huquqiy holatida fuqarolarning asosiy huquqlari Konstitutsiyaviy huquqlar deb atalib, ular konstitutsiyaviy-huquqiy normalarda mustahkamlanadi. Bu esa, fuqarolarning konstitutsi-

yaviy huquqi tushunchasi, konstitutsiyaviy huquq (huquq tarmog'i) va konstitutsiyaviy huquq fani tushunchalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

"Konstitutsiyaviy huquq" fani konstitutsiyaviy huquqni huquq tarmog'i sifatida ham, fuqarolarning asosiy huquqlari sifatida ham o'rganadi.

Aynan mazkur paragrafda va keyingi paragraflarda "Konstitutsiyaviy huquq"ning huquq tarmog'i sifatidagi xususiyatlarini o'rganamiz.

Konstitutsiyaviy huquq O'zbekistonda ham huquqning alohida tarmog'i bo'lib, mamlakat huquq tizimining tarkibiga kiradi, shu bilan birga, u huquq tizimida yetakchi huquq hisoblanadi. Shuning uchun unda barcha huquq tarmoqlariga xos umumiylik mavjud va shu bilan birga, boshqa huquqlardan ajralib turadigan xususiyatlarga ham ega. O'xshashlik, umumiylik shundaki, "Konstitutsiyaviy huquq" ham huquq normalari yig'indisidan iborat. Alohida xususiyat uning yetakchi huquq ekanligi uning normalari boshqa huquqlar uchun asos bo'lishida ko'rinadi.

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, Konstitutsiyaviy huquq ma'lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat. Bu ijtimoiy munosabatlar jamiyat, inson, davlat o'rtasida vujudga keladi. Konstitutsiyaviy huquq bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlar tizimida asosiy, rahbariy, bosh munosabatlardan iborat bo'ladi va boshqa ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun asos, tayanch vazifasini o'taydi. Masalan, Konstitutsiyaviy huquq mulkiy munosabatlarning asoslarini belgilashi bilan mulkiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo'ladi. Bundan tashqari, turli huquq tarmoqlari alohida-alohida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan chegaralansa (fuqarolik huquqi – mulkiy munosabatlarni, mehnat huquqi – mehnat munosabatlarini va hokazo), Konstitutsiyaviy huquq turli sohalarga taalluqli (mulkiy, mehnat, moliya, soliq) ijtimoiy munosabatlarni asoslarini tartibga soladi. Ya'ni, Konstitutsiyaviy huquqning tartibga soluvchi obyektlari doirasi boshqa huquq tarmoqlariga nisbatan keng va xilma-xildir.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, Konstitutsiyaviy huquq mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, jamiyat va shaxs munosabatlarining (jamiyatning iqtisodiy negizi, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalari) asoslarini, mamlakatning davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi asoslarini, davlat hokimiyatini tashkil etish asoslarini belgilovchi, o'rnatuvchi huquqiy normalar yig'indisidir. Bu huquqiy normalar xalqaro shartnomalar, Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, joriy (oddiy) qonunlar va boshqa qonun osti hujjatlarida o'z o'rnini topgan. Bu Konstitutsiyaviy huquqni huquq tarmog'i va yetakchi huquq sifatida ko'rsata oladigan eng oddiy va tushunarli ta'rifdir.

Konstitutsiyaviy huquq normalari jamiyatdagi eng muhim masala – inson va davlat munosabatlarini tartibga soladi. Buning eng muhim masala deb hisoblanishi jamiyatning rivoji yoki aksincha inqirozi, inson va davlat munosabatlarining to'g'ri o'rnatilganligiga bog'liqdir.

Konstitutsiyaviy huquq o'z normalari orqali inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'taradi, shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligini belgilaydi, ijtimoiy adolat prinsipini bosh prinsip darajasiga ko'taradi, hokimiyat tuzilmalari tashkil qilinishining aniq tartibini belgilaydi va ularning faoliyatini qonun doirasida chegaralaydi.

Konstitutsiyaviy huquqqa, shulardan kelib chiqib, hokimiyat va erkinlik o'rtasidagi munosabatda mutanosiblikni o'rnatuvchi, ta'minlovchi vosita deb ham ta'rif bersa bo'ladi. Chunki, insoniyat tarixi shu ikki narsa: "hokimiyat" va "erkinlik"da ustunlikka erishish uchun va ularning mutanosibligini ta'minlash uchun qilingan harakatlar tarixi, desak xato bo'lmaydi.

Demokratik tuzum hisoblanuvchi mamlakatlarning konstitutsiyaviy huquqlari "hokimiyat" va "erkinlik" o'rtasida mutanosiblikni, muvozanatni ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Buni O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqiga nisbatan ham aytish mumkin.

Konstitutsiyaviy huquqning mazmun-mohiyatini, vazifasini to'g'ri anglash, tasavvur qilish uchun har bir mamlakatning kons-

titutsiyalarini yaxshi bilish zarur. Chunki, konstitutsiyaviy huquq normalarining aksariyati, mutlaq ko'pchilik desa ham bo'ladi, konstitutsiyalarda belgilangan va o'z o'rnini topgan.

Shuning uchun keyingi tegishli mavzularda bu masalalar maxsus yoritiladi.

2-§. Konstitutsiyaviy huquqning predmeti

Konstitutsiyaviy huquq tushunchasini aniqlashda yoki uni yaxshiroq tushunishda uning huquq sifatidagi predmetini aniq bilish muhim hisoblanadi. Har bir huquq tarmog'i o'zining alohida predmeti bilan boshqa huquq tarmoqlaridan farq qiladi.

Har qanday huquqning predmeti shu huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquqning predmeti ham konstitutsiyaviy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Konstitutsiyaviy huquq qanday ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishini aniqlashda bu huquq siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalarga (ya'ni, bir necha sohalarga) taalluqli munosabatlarning asoslarini tartibga solishini nazarda tutish zarur. Boshqa huquqlar esa, yuqoridagi alohida-alohida sohalarni tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquqning predmetiga xos yana bir xususiyat shundaki, u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar boshqa huquq tarmoqlari tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun asos, baza bo'lib xizmat qiladi. Masalan, yer huquqi, fuqarolik huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi, parlament huquqi, ma'muriy huquq va boshqalar.

Konstitutsiyaviy huquqning predmeti ijtimoiy munosabatlarning ikki yo'nalishi (sohasi)ni tartibga solishi bilan xarakterlanadi. Bu sohalar, ijtimoiy hayotda eng muhimlari bo'lib, boshqa masalalarga ham ta'sir etadi.

Konstitutsiyaviy huquqning birinchi tartibga soladigan masalasi bu – inson huquq va erkinliklari, inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar bo'lsa, ikkinchisi davlat tuzilishi va davlat hokimiyatini tashkil etish, ya'ni hokimiyatchilik munosabatlaridir.

Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan boshqa barcha munosabatlar shu ikki sohaning birortasi tarkibida mavjud bo'ladi. Masalan, jamoat birlashmalari faoliyati, oilaviy munosabatlar, bank-moliya munosabatlari va boshqalar.

Inson va davlat munosabati konstitutsiyaviy huquq tartibga soladigan asosiy munosabatlardir. Lekin shuni ham bilish kerakki, inson va davlat munosabatlari juda keng va ko'p qirrali, shuning uchun bu munosabat faqat konstitutsiyaviy huquq bilangina tartibga solinmay, boshqa huquq tarmoqlari bilan ham tartibga solinadi (mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq, moliya huquqi va boshqalar). Lekin konstitutsiyaviy huquq asos, baza bo'lish xarakteriga ega huquqiy normalardan iborat bo'lib, ular shaxsning huquqiy holatini belgilaydi.

Inson huquqlari eng ko'p e'tibor talab qiladigan, shu bilan birga, murakkab hodisadir. Inson huquqlarini e'lon qilish, e'tirof etish, hujjatlarda aks ettirish oson, lekin ularni ta'minlash o'ta murakkab masaladir. Sababi huquq va erkinlik burch bilan bog'liq, huquq va erkinlikning ta'minlanishi ayrim majburiy xarakterdagi harakatlarni qilishni yoki qilishdan tiyilishni taqozo etadi. Burch shaxslarning bir-biri oldida emas, davlat va jamiyat oldida ham vujudga keladi. Bundan tashqari, erkinlik hech vaqt mutlaq bo'lishi mumkin emas. Ayrim holatlarda va sharoitda uni cheklashga zarurat tug'iladi.

Inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda faqat davlat tomonidan huquq va erkinliklarni o'rnatish muhim emas, ularning bajarilishi uchun kafolatlarning yaratilishi, mexanizmlarning yaratilishi muhimdir. Shuning uchun davlat inson huquqlarini ta'minlashda katta majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi va bu majburiyatlar konstitutsiyaviy huquq normalari orqali mustahkamlab qo'yiladi.

Davlat hokimiyatining tuzilishi faqat davlat hokimiyatining turli tarmoqlarini amalga oshiruvchi davlat organlarini tuzish bilangina cheklanmay, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishni ham nazarda tutadi. Faqatgina o'rnatilgan to'g'ri hokimiyatchilik munosabatlarigina inson manfaatlariga mos tushishi mumkin, shuning uchun konstitutsiyaviy huquq shu vazifani bajarishni o'zining maqsadi deb hisoblaydi.

Hokimiyatchilik munosabatlarining to'g'ri va samarali bo'lishini nazarda tutib, konstitutsiyaviy huquq normalari bilan barcha hokimiyat organlari kompetensiyalari, vakolatlari, vazifalari aniq belgilab qo'yiladi.

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy huquqning predmeti bu – shaxs huquqiy holatini belgilash (shaxs va davlat munosabati) va hokimiyatchilikni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Bularning tarkibi keng va xilma-xil munosabatlardan iborat bo'ladi.

Bunda turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy huquqi predmeti aynan o'xshasa-da, predmet tarkibiga kiruvchi munosabatlar doirasi har xil bo'lishiga e'tibor berish kerak. Masalan, bizning konstitutsiyaviy huquqimiz oila masalasini alohida tartibga solsa, boshqa mamlakatlarda oila munosabatlari konstitutsiyaviy huquq bilan emas, huquqning boshqa tarmoqlari bilan tartibga solinishi mumkin. Yoki, O'zbekiston tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining mavjudligi, u bilan O'zbekiston munosabatini tartibga solish zarurati konstitutsiyaviy huquqning predmetidagi o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi.

3-§. Konstitutsiyaviy huquq – huquqning yetakchi sohasi

Har bir mamlakatning, jumladan, O'zbekistonning ham huquq tizimi mavjud. Huquq tizimi turli tarmoq huquqlari yig'indisidan iborat bo'lib, har bir huquq tarmoqlarining o'z vazifasi va tartibga soluvchi predmeti mavjud.

Boshqa huquq tarmoqlaridan farq qilib, konstitutsiyaviy huquq ikki xususiyatga ega: birinchisi, uning mustaqil huquq tarmog'i bo'lsa, ikkinchisi, yetakchi huquq hisoblanishidir.

Konstitutsiyaviy huquqning yetakchilik roli uning normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati, yetakchiligi, boshqa huquqlar bilan tartibga solinadigan munosabatlar uchun asos, tayanch bo'lishi bilan belgilanadi. Konstitutsiyaviy huquq shaxs va davlat munosabatlarining asoslarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, davlat va hokimiyat tuzilishini, ularni tashkil etish tartibi va faoliyatining prinsiplarini,

davlatning nodavlat tashkilotlar bilan munosabati asoslarini o'rnatar ekan, ana shu masalalarni tartibga soluvchi barcha tarmoq huquqlari uchun yetakchilik rolini o'ynaydi.

Yana konstitutsiyaviy huquqning yetakchilik roli boshqa huquqlarning konstitutsiyaviy normalar orqali vujudga kelishida ham ko'rinadi va nihoyat, konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbai konstitutsiya ekanligi ham uning yetakchiligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning 36-moddasi har bir kishining mulkdor bo'lish, meros huquqi qonun bilan kafolatlanishini, 53-modda xususiy mulk daxlsiz ekanligi va davlat himoyasida bo'lishini belgilar ekan, bu bilan mulkiy masalalarni tartibga soluvchi "Fuqarolik huquqi"ga asos soladi. 53-modda tadbirkorlik faoliyatini belgilashi bilan, "Tadbirkorlik huquqi" uchun asos bo'ladi. Xuddi shuningdek, konstitutsiyaviy huquqning boshqa normalari ham boshqa huquqlar uchun asos bo'ladi yoki boshqacha qilib aytganda, boshqa huquqlar o'zining boshlang'ich nuqtasini, tayanchini konstitutsiyaviy huquq normalaridan oladi. Har qanday boshqa huquq tarmoqlari tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlarning asosi konstitutsiyaviy huquq normalari bilan mustahkamlangan. Boshqa huquq tarmoqari konstitutsiyaviy huquq normalarida mustahkamlangan ijtimoiy munosabatlarni kengaytirib, aniqlashtirib, amalga oshirish mexanizmlarini belgilab, tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquq nafaqat moddiy huquq uchun asos bo'ladi, balki protsessual huquqlar: jinoyat protsessual huquqi, fuqarolik protsessual huquqlari uchun ham asos bo'lib hisoblanadi. Masalan, Konstitutsiyaning 26-moddasida sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun sharoit yaratilishi, 116-moddasida ayblanuvchi himoya bilan ta'minlanish huquqiga ega bo'lishi ko'rsatilgan ekan, bu qoidalar tegishli protsessual huquqlarda o'z ifodasini topadi.

Konstitutsiyaviy huquq huquq tizimida alohida, ya'ni yetakchi o'ringa ega ekanligini yana boshqa holatlar ham ko'rsatadi. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar konstitutsiyaviy huquq normalarida aks etishi bilan huquqning boshqa tarmoqlari rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda amal qilib turgan konstitutsiyaviy huquq normalari O'zbekistonning davlat suverenitetini, shaxsning oliy qadriyat ekanligini, milliy davlatchilikning o'ziga xos xususiyatlarini, bozor iqtisodiyoti xususiyatlari va tamoyillarini o'zida aniq aks ettirgan bo'lib, ular boshqa huquq tarmoqlarida ham o'z ifodasini topgan.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular orqali:

- O'zbekistonning suverenligi, mustaqilligi to'la ta'minlangan;
- inson huquq va erkinliklari xalqaro andozalarga mos ravishda belgilangan;
- shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligi hisobga olingan;
- demokratik asoslarda va tamoyillarda hokimiyat tizimi va hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi mustahkamlangan;
- eng asosiysi, konstitutsiyaviy huquq normalari har qanday mafkuradan ozod qilingan.

4-§. Konstitutsiyaviy huquq – huquq tarmog'i

Tartibga solish zarur bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning turlicha bo'lishi huquqlarning ham turli tarmoqlarga, sohalarga bo'linishi shartligini keltirib chiqaradi. Har bir huquq tarmog'i o'ziga mos ravishda alohida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini o'taydi. Har bir mamlakatda ijtimoiy munosabatlarning ko'lami huquq tarmoqlarining doirasini belgilaydi va huquq tizimini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlar ko'lami, yangi munosabatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi yangi huquq tarmog'ini vujudga keltiradi. Masalan, O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi bir necha huquq tarmoqlarining vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Jumladan, soliq huquqi, bojxona huquqi, bank huquqi, tadbirkorlik huquqi va boshqalar.

Konstitutsiyaviy huquq O'zbekiston huquq tizimida yetakchi huquq hisoblanishi bilan birga, alohida huquq tarmog'i ham hisoblanadi, chunki, faqat uning o'zi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlari, ya'ni predmeti mavjud. Konstitutsiyaviy huquqning

alohida tarmoq huquqi sifatida mavjud bo'lishiga ijtimoiy munosabatlarga taalluqli asosiy munosabatlar umumiy tarzda tartibga solinishi zarurligi sabab bo'ladi. Buni boshqacha qilib, ijtimoiy hayotda konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solish zarur bo'lgan ijtimoiy munosabatlar mavjud, deb aytish mumkin.

Konstitutsiyaviy tuzum asoslari bilan bog'liq munosabatlar (davlat suvereniteti, hokimiyatchilik), shaxs huquqiy holati asoslari, davlat tuzilishi, ma'muriy-hududiy tuzilish asoslari, jamiyatdagi nodavlat tuzilmalar faoliyati asoslari, hokimiyat asoslari, hokimiyat organlari tizimi va faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Konstitutsiyaviy huquq normalarining boshqa huquq tarmoqlariga xos xususiyatlarga egaligi ham, bu huquqni alohida huquq tarmog'i sifatida gavdalantiradi.

Boshqa huquq normalari kabi konstitutsiyaviy huquq normalari ham imperativ va dispozitiv bo'ladi.

Imperativ xususiyati deganda, huquq normalarida belgilangan qoida subyektga boshqa hech qanday harakat uchun imkoniyat qoldirmay, aniq bajarilishi shart bo'lgan topshiriq qo'yishi tushuniladi. Bunga Konstitutsiyaning 91-moddasidagi: "Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas", – degan normani yoki 98-moddadagi: "Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi", degan normani misol qilib keltirish mumkin.

Dispozitiv xarakterdagi normalarda esa subyektda shu normadagi qoidadan foydalanish imkoniyati mavjud bo'ladi yoki u shu norma ko'rsatmasidan o'z xohishiga qarab foydalanadi. Konstitutsiyaning 95-moddasi normasida tegishli vaziyatlar vujudga kelgan vaqtda Oliy Majlis palatalaridan biri yoki ikkala palata Prezident tomonidan tarqatib yuborilishi mumkinligi ko'rsatilgan qoida bunga misol bo'ladi, imperativ va dispozitiv xarakterdagi normalarni boshqa moddalarda ham ko'rish mumkin.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy huquq huquqning mustaqil tarmog'i, u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar turli sohalar-

ga taalluqli bo'lib, konstitutsiyaviy huquq normalari ularning asoslarini belgilaydi, tartibga soladi.

5-§. Konstitutsiyaviy huquq normalari, institutlari, munosabatlari va ularning subyektlari

Har qanday huquq tarmog'ini tasniflash uchun uni tashkil etadigan normalarning xususiyatlarini bilish, aniqlash zarur. Konstitutsiyaviy huquq normalarini aniqlar ekanmiz, birinchidan, ularga ham boshqa huquq tarmoqlari normalariga xos umumiy belgilar, xususiyatlar xos ekanligi va ikkinchidan, faqat shu tarmoq huquqiy normalariga xos xususiyatlar ham mavjudligini hisobga olish zarur.

Konstitutsiyaviy huquq normalari shu huquqning predmeti hisoblanuvchi ijtimoiy munosabatlar (huquqiy munosabatlar)ni tartibga soladi. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar boshqa tarmoq huquqiy munosabatlaridan mazmuni, manbasi, o'ziga xos turi, ta'sis xarakteri, amalga oshirishning alohida mexanizmi, subyektlarning o'ziga xos xususiyati, tuzilishining o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

Barcha konstitutsiyaviy-huquqiy normalar quyidagi asoslar bo'yicha turlarga bo'linadi.

1. Mazmuniga qarab, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish doirasiga qarab. Ayrim normalar konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, ayrimlari shaxsning huquqiy holati asoslarini va hakozolarni tartibga soladi.

2. Yuridik kuchiga qarab, bu huquqiy norma qaysi manbalarda, hujjatlarda mustahkamlanganligiga bog'liq.

3. Hududiy amal qilishiga qarab. Asosan konstitutsiyaviy-huquqiy normalar mamlakatimizning butun hududida amalda bo'lsa-da, ayrim holatlarda ma'lum hududgagina tegishli normalar qabul qilinishi mumkin. Yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlari shu hududdagina amalda bo'ladi.

4. Ko'rsatmasi, o'rnatishiga qarab. Ayrim normalar vakolat bersa, ayrim normalar majburiyat yuklaydi, ayrim normalar esa taqiqlaydi.

5. Imperativ va dispozitiv xarakteradgi normalar. Imperativ xarakterdagi norma aniq ko'rsatma bajarilishi shartligi

bo'lsa, dispozitivda subyektga imkoniyat beriladi, u asosida ma'lum harakatni qilishi yoki qilmasligi mumkin.

6. Maqsadi va amalga oshirish mexanizmiga ko'ra. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning ayrimlari jarayonlarni tartibga solishni maqsad qilib qo'ygan. Masalan, Reglament qoidalari.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarda bir emas bir nechta normalarning harakati orqali maqsadga erishiladi. Shuning uchun normalar maqsadi, xarakteri, o'xshashligiga qarab birlashtiriladi. Har bir normani qaysi birlikka (guruhga) kiritish, ularning mansubligini aniqlash muhim masaladir.

Turdosh huquqiy normalarning majmuasi konstitutsiyaviy-huquqiy institut deb ataladi. Huquqiy institut aniq bir ijtimoiy munosabat bo'yicha yoki umuman shu munosabatning barcha tomonlari bo'yicha vujudga kelishi mumkin. Masalan. shaxsning huquqiy holati masalasi yirik konstitutsiyaviy huquqiy institut bo'lsa, fuqarolik uning tarkibidagi kichikroq institutdir. Yoki, davlat hokimiyati organlari yirik konstitutsiyaviy institut hisoblansa, qonunchilik hokimiyati, ijro hokimiyati, sud hokimiyati, saylov tizimi uning kichik institutlari hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar turli manbalardan (konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun, qonun, farmon, qarorlaridan) iborat bo'ladi.

Ana shu konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning amal qilishi natijasida konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar vujudga keladi. Ularda ham boshqa huquqiy munosabatlarga tegishli umumiy xususiyatlar mavjud. Umumiylik shundaki, har qanday ijtimoiy munosabatlar huquq normasi bilan tartibga solingandagina huquqiy munosabat bo'ladi. Huquqiy munosabat orqaligina huquq normalari amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati (boshqa huquqiy munosabatlardan farqi) quyidagilarda ko'rinadi:

1. Ular o'zining alohida mazmuniga ega. Bu munosabatlar faqat konstitutsiyaviy huquq predmeti hisoblanadi.

2. Bu munosabat alohida subyektlar tarkibiga ega.

3. Barcha konstitutsiyaviy-huquqiy normalar ham aniq konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Masalan,

Toshkent Axborot Texnologiyalari Univ...
372909
Axborot Resurs Markazi

prinsip-normalar. Ular o'zining tartibga soluvchi ta'sirini qoida, normalar orqali amalga oshiradi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar, konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ularning mazmuni subyektlar o'rtasidagi yuridik aloqalar hisoblanadi va bu aloqalar tegishli huquqiy normalarda ko'zda tutilgan o'zaro huquq va burch shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar boshqa huquqiy munosabatlarga nisbatan xilma-xildir. Asosan huquqiy munosabatlar qoida, normalarning amal qilishi orqali vujudga keladi. Ular asosida aniq munosabatlar vujudga kelib, unda munosabatning aniq subyektlari va ularning huquq hamda majburiyatlari aniq bo'ladi.

Prinsip-normalar, maqsad normalar, deklarativ normalar boshqacharoq munosabatlarni vujudga keltiradi va shu orqali tegishli normada yotgan ko'rsatma, ta'kidlar hayotga tatbiq qilinadi. Bu huquqiy munosabatlar umumiy xarakterda bo'lib, aniq subyektlari yo'q bo'lgan taqdirda ham ularning huquq va burchi o'rnatilmaydi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar doimiy yoki vaqtincha bo'lishi mumkin. Doimiyning muddati belgilanmagan va ba'zi sabablar bilan u to'xtatilishi mumkin. Masalan, fuqaroning vafot etishi.

Ayrim vazifalar bajarilganda ham munosabatlar tugashi mumkin. Masalan, saylov kampaniyasi tugashi bilan saylovchi va komissiyalar o'rtasidagi munosabatlar tugaydi.

Huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, tugashida yuridik fakt muhim rol o'ynaydi. Yuridik fakt huquqiy munosabatni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan, tugatadigan voqea yoki harakatdir.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchilar subyektlar deb atalib, bu huquqiy munosabat subyektlari doirasi juda keng. Subyektlar qatoriga fuqaro, shaxs, xalq, millat, davlat, deputat va senatorlar, davlat organlari, nodavlat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlari kiradi. Saylov kampaniyasi davrida subyektlar miqdori yanada kengayadi, ularga saylov komissiyalari, kuzatuvchilar, vakillar, nomzodlarni kiritish mumkin.

Umumiy tarzda aytish mumkinki, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarga asosan huquq va burchga ega bo'ladiganlar hisoblanadi.

Ayrim hollarda chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham munosabatlar subyekti bo'lishi mumkin. Masalan, fuqarolikni so'rab murojaat qilganda.

6-§. Konstitutsiyaviy huquq manbalari

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar turli shakllarda ifoda etilgan bo'lib, ular konstitutsiyaviy huquq manbalari hisoblanadi. Ular konstitutsiya, qonun, farmon va boshqa huquqiy hujjatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy huquq shakllari (manbalari) bir-biri bilan bog'liq va biri ikkinchisi uchun yuqori yuridik kuchga ega. Masalan, konstitutsiya boshqa qonunlar, farmonlar uchun yuqori yuridik kuchga ega bo'lsa, Prezident farmoni hukumat qarori uchun yuqori kuchga ega.

Konstitutsiyaviy huquq manbalarining har biri o'z vazifasiga ega va ular biri birining o'rnini egallashi mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda Konstitutsiya bilan tartibga solinishi kerak bo'lgan masalani qonun bilan, farmon bilan yoki qonun bilan tartibga solinadigan masalalarni esa, hukumat qarorlari bilan tartibga solib bo'lmaydi.

U yoki bu hujjatni huquq manbasi sifatida e'tirof etish ma'lum bir huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Chunki bunday hujjat fuqaro uchun ma'lum huquqlarni yoki burchlarni o'rnatishi mumkin, fuqaro esa, unga asosan o'z huquqini himoya qilishni talab etishi mumkin.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari orasida Konstitutsiya alohida o'rin egallaydi. Chunki Konstitutsiya faqat konstitutsiyaviy huquq manbasigina emas, balki boshqa huquqlar uchun ham manbadir. Konstitutsiyaning huquq manbalari orasida alohida mavqeini uning davlatning asosiy qonuni ekanligi ham belgilaydi.

Konstitutsiya eng muhim norma va prinsiplarni o'rnatadi hamda keyinchalik ulardan boshqa huquqiy tartibga solish shakllari vujudga keladi (turli sohadagi qonunlar, farmonlar). Ayrim

Konstitutsiyaviy normalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilib, qo‘shimcha tartibga solishga muhtoj emas.

Masalan, Konstitutsiyaning 92-moddasiga binoan, Prezident Oliy Majlis yig‘ilishida qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi, degan qoidani amalga oshirish uchun hech qanday qo‘shimcha norma, hujjat zarur emas.

Konstitutsiya normalarini o‘zgartirishining alohida tartib va qoidalari o‘rnatilganligi ham Konstitutsiyaning huquq manbasi sifatidagi alohida maqomini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari orasida qonunlar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi, Konstitutsiyaviy qonunlar, ikkinchisi, oddiy qonunlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday masalalar bo‘yicha Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilish kerakligi belgilanmagan. Ayrim mamlakatlar Konstitutsiyalarida qanday masalalar yuzasidan Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinish zarurligi belgilangan. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 13 ta moddasida Konstitutsiyaviy qonun qabul qilishga doir masalalar berilgan. Bizning qonunchilik tajribamizda har qanday holatga konkret yondashilib, konstitutsiyaviy darajada hal qilinishi mumkin bo‘lgan masalalar yuzasidan Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinadi. Hozirga qadar mamlakatimizda quyidagi Konstitutsiyaviy qonunlar amalda: “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunlar ham Konstitutsiya kabi to‘liq konstitutsiyaviy huquq manbasi bo‘ladi.

Keyingi manba bu – qonunlar. Yuqoridagilardan farq qilib, faqat konstitutsiyaviy-huquqiy mazmundagi qonunlargina konstitutsiyaviy huquq manbasi bo‘ladi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunlar va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy mazmundagi farmon va farmoyishlari konstitutsiyaviy huquq manbalari hisoblanadi. Masalan, hukumat tarkibi (tayinlash, vazifasidan ozod qilish), markaziy davlat idoralarini tuzish, Konstitutsiyada belgilangan boshqa mansabdor shaxslarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi farmonlar va shu kabi bir qator hujjatlar.

Oliy Majlis palatalarining ayrim, ya'ni konstitutsiyaviy-huquqiy mazmundagi qarorlari ham konstitutsiyaviy huquq manbasi bo'lishi mumkin. Ular tomonidan qabul qilingan reglamentlar ham manba hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari qatoriga yana hukumat qarorlari, sud qarorlari (Konstitutsiyaviy sud), mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari ham kiritilishi mumkin. Faqat shunga alohida e'tibor berish kerakki, bu hujjatlar konstitutsiyaviy huquq tartibga soluvchi munosabatlar doirasida qabul qilingan, hamma uchun majburiy xarakterga ega, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bo'lsagina konstitutsiyaviy huquq manbasi bo'ladi.

Konstitutsiyalarning muqaddimasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinishi e'tirof etilgan, shu sababli, aytish mumkinki, xalqaro huquq normalari ham konstitutsiyaviy huquq manbasi bo'lishi mumkin.

7-§. Konstitutsiyaviy huquq tizimi

Konstitutsiyaviy huquq konstitutsiyaviy-huquqiy institutlardan tashkil topadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy institut – o'xshash turdagi, lekin alohida mustaqil munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar birikmasidir. Har bir konstitutsiyaviy huquqiy institut manbasi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, prezidentlik instituti manbasi, Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy qonun, qonunlar hisoblansa, Vazirlar Mahkamasi (hukumat) institutlarining manbasi Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy qonun, qonunlar, Prezident farmo-

ni, Konstitutsiyaviy sud qarori bo'ladi. Xuddi shunday, shaxsning huquqiy holati, saylov institutlari manbalari ham turlicha bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar mustaqil turdagi normalardan iborat bo'lsada, barcha institutlar o'zaro bog'liq va yaqin aloqada bo'ladi. Ularni bir-biridan butunlay ajratib bo'lmaydi, ana shu asosda yagona konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy huquq tizimini katta daraxtga o'xshatish mumkin. Daraxtni shoxi, tanasi, bargi bo'lgani kabi huquq tizimida ham turli tarkibiy qismlar mavjud. Daraxtning turli qismlari turli vazifani bajaradi, lekin ularning barchasini biriktirgan, hayotiyligini ta'minlagan ildizi bor. Huquq tizimida ildiz vazifasini yagona konstitutsiyaviy prinsiplar, xalq suvereniteti, tabiiy huquqlar, huquq va erkinliklar ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mustaqil sud hokimiyati o'ynaydi. Bular barcha institutlarda o'z aksini topgan.

Konstitutsiyaviy huquq tizimi, Konstitutsiya tizimi bilan bog'liq yoki aytish mumkinki, Konstitutsiya tizimi konstitutsiyaviy huquq tizimi belgilanishida asosiy rol o'ynaydi. Konstitutsiyaviy huquq tizimini tashkil etuvchi konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar ahamiyatiga qarab, tartib bilan joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq tizimi quyidagi institutlardan tashkil topgan: konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari; inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari; jamiyat va shaxs; ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi; davlat hokimiyatining tashkil etilishi.

Bu institutlar, o'z navbatida, o'z tizimiga ega. Ya'ni, ular bir-biri bilan bog'liq, lekin mustaqil institutlardan iborat. Masalan, "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" instituti, "Fuqarolik", "Shaxsiy huquq va erkinliklar", "Siyosiy huquqlar", "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar", "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari", "Fuqarolarning burchlari"dan iborat bo'lsa, "Davlat hokimiyatini tashkil etish", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi", "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti", "Vazirlar Mahkamasi", "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari", "Sud hokimiyati", "Saylov tizimi" va boshqa institutlardan iborat.

8-§. Konstitutsiyaviy huquq – fan sifatida

Konstitutsiyaviy huquq fani ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi yuridik fanlarning tarkibiy sohalaridan biridir. Yuridik hodisalar, ularning kelib chiqishi, jamiyatdagi o'rni turli yuridik fanlar tomonidan o'rganiladi. Turli yuridik fanlar alohida masalalarni o'rganadi, shuning uchun ularning o'rganadigan predmeti alohida-alohidadir. Yuridik fanlar o'z vazifa va o'rganadigan predmetiga qarab umumnazariy, tarixiy, tarmoq, huquqiy-qiyosiy, amaliy fanlarga bo'linib ular bir-biridan farq qiladi.

Konstitutsiyaviy huquq fani tarmoq huquqiy fanlar qatoriga kiradi va nomiga mos ravishda Konstitutsiyaviy huquqni huquq sifatida o'rganish uning predmeti hisoblanadi. Shunday qilib, Konstitutsiyaviy huquq fani predmeti, u o'rganadigan huquq tarmog'i hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquq fani tegishli huquq sohasiga tegishli qonuniyatlarni, tushincha va kategoriyalarni, Konstitutsiyaviy va boshqa sohalarga taalluqli qonunlarning mazmun mohiyati, vazifasini. konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarni o'rganadi, tahlil qiladi, ular yuzasidan ilmiy fikrlar, xulosalarni vujudga keltiradi.

Konstitutsiyaviy huquq fani konstitutsiyaviy-huquqiy norma va institutlarni o'rganish bilan cheklanmay, ularning amal qilish jarayonini ham o'rganadi.

Shuning uchun uning predmetiga shu huquq sohasi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ham kiradi. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar qay darajada ijtimoiy munosabatlarni tartibga solayotganligi, qanday hollarda huquqiy normalar eskirib qolganligi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun yetarli emasligi masalasi fan tomonidan o'rganiladi. Shu orqali fan huquqiy normalar samarasini, ta'sir kuchini o'rganadi va tegishli ilmiy takliflarni ilgari suradi.

Davlat konstitutsiyaviy organlarini tashkil etish tartibi, faoliyati, bir-biri bilan munosabati ham Konstitutsiyaviy huquq fani tomonidan o'rganiladi.

Shaxs masalasi, uning davlat bilan o'zaro munosabati, shaxsning huquqiy holati masalalari Konstitutsiyaviy huquq o'rganadigan bosh masaladir.

Konstitutsiyaviy huquqning huquq sifatidagi predmeti, huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lsa, fanning predmeti shu ijtimoiy munosabatlar va ularni tartibga soluvchi normalar hisoblanadi. Huquq predmeti tartibga solish bo'lsa, fan predmeti o'rganish hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq fani o'rganadigan masala, hodisalar doirasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- konstitutsiyaviy huquqning umumiy tasnifi;
- konstitutsiyaviy nazorat asoslari;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning yaratilishi, mazmun-mohiyati, yuridik turi;
- konstitutsiyaviy tuzum asoslari;
- shaxs va davlat munosabati, shaxsning huquqiy holati;
- jamiyatning iqtisodiy asoslari, davlat va jamoat birlashmalari munosabatlari, oilaviy munosabatlar;
- davlat tuzilishi, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishi.

Bu yerda Konstitutsiyaviy huquq fani o'rganadigan masalalar yiriklashtirilib ko'rsatildi. Ko'rsatilgan har bir yo'nalish yoki hodisa aniq bo'laklarga bo'lib o'rganiladi. Masalan, Konstitutsiyaviy huquqning umumiy tasnifi huquqning huquq tizimidagi o'rni, huquqiy normalar, huquqiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar, huquq manbalari va boshqalarni o'rganish orqali tadqiq etiladi. Yoki shaxsning huquqiy holati fuqarolik, asosiy huquq va erkinliklar, burchlar, huquq va erkinliklar kafolatlari masalalarini o'rganish orqali kengroq yoritiladi.

Yuqoridagilarni o'rganish fan oldiga ma'lum vazifalarni qo'yadi, ya'ni Konstitutsiyaviy huquq fanining aniq vazifalari mavjud.

Uning eng asosiy vazifasi Konstitutsiyaviy huquqning mamlakat huquq tizimidagi o'rnini, ya'ni uning ham huquq tarmog'i, ham yetakchi huquq ekanligini ko'rsatishdir. Buning uchun konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning yuridik kuchi (boshqa huquq normalari uchun ustuvorligi, ta'sir kuchi, asos ekanligi) ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali ijtimoiy hayotning rivojlanishiga ta'siri orqali namoyon bo'ladi.

Fanning vazifasi ma'lum huquqiy hodisalarni o'rganish bilan cheklanmaydi, tegishli bilimlar bilan mutaxassislarni, fuqarolarni ta'minlash, ya'ni shaxsning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish ham fanning vazifasidir.

Fanning vazifasi hodisa va qonuniyatlarni passiv o'rganish bilan cheklanmaydi. O'rganish orqali vujudga kelgan ilmiy xulosa va fikrlarni hayotga joriy qilish orqali ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni takomillashtirishga faol ta'sir ko'rsatadi. Fanning xulosa va takliflari natijasida huquqiy normalar takomillashadi, yangilari vujudga keladi, eskirganlari bekor qilinadi.

Mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha belgilanayotgan ustuvor vazifalarni bajarish zarurati Konstitutsiyaviy huquq fani oldiga ham aniq vazifalarni qo'yadi. Mamlakat Prezidenti Oliy Majlis palatalarining birinchi qo'shma majlisida so'zlagan nutqida davlat qurilishi va boshqaruv sohasida eng muhim vazifalarni belgilab bergan edi[1]. Shu asosda Konstitutsiyaviy huquq fani mutaxassislari tegishli ilmiy tadqiqodlar olib borish, maqolalar tayyorlash orqali mazkur masalalar yuzasidan ilmiy xulosa va mulohazalarni bayon qildi va bu masalalarni hal qilishga ijobiy hissa qo'shdi.

2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida Prezident "Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish", "Saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish" bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi, Konstitutsiyaga kiritilishi kerak bo'lgan o'zgartirishlar haqida mulohazalar bildirdi[2]. Bu, o'z navbatida, Konstitutsiyaviy huquq fani oldiga muhim va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalarning bajarilishi, Konstitutsiyaviy huquq normalarining takomillashuviga, uning natijasi esa, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga olib keladi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 36–37-betlar.

2 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.

9-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining vazifasi va rivojlanishi

Konstitutsiyaviy huquq fani O'zbekistonning mustaqil davlat bo'lishi, mamlakatning maqsadi, demokratiya bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida shaxs-davlat munosabatlarini belgilash, hokimiyatni tashkil qilish, davlat va jamoat birlashmalari munosabatini o'rnatishda o'ziga xos yo'ldan borish bilan birga, dunyoda bu borada qo'lga kiritilgan, umume'tirof etilgan prinsiplarni rad etgani yo'q. Aksincha, ularning asosiy mohiyati va mazmunini buzmagan holda foydalanishga harakat qilindi.

Bunda konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni belgilash, ularni hayotga tatbiq etish jarayonida Konstitutsiyaviy huquq fani, uning yutuqlari, tavsiya, takliflari yordam berdi.

Konstitutsiyaviy huquq fani konstitutsiyaviy huquqni huquq tarmog'i, yetakchi huquq sifatida rivojlanishiga hissa qo'shar ekan, o'zi ham rivojlandi. Konstitutsiyaviy huquqni tartibga soladigan masalalarni o'rganish kengayib, chuqurlashib bordi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining shakllanishi yangi munosabatlarni vujudga keltirdi, ularni huquqiy tartibga solish kengayib bordi. Ana shu vazifalarni o'rganish zarurati konstitutsiyaviy huquqning vazifalarini ham kengaytirib bordi.

O'zbekistonda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligining e'tirof etilishi bu masalalarni amalga oshirish mexanizmlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka singdirish zarurligi, ayniqsa bu inson huquqlariga taalluqli bo'lgani uchun Konstitutsiyaviy huquq fani oldiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish vazifasi demokratik institutlarni, fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada takomillashtirish (bunda huquqiy asos alohida), davlat bilan nodavlat tashkilotlar munosabatini yangicha tashkillashtirish, ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya

qilishni yanada kengaytirish kabilar Konstitutsiyaviy huquq fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Bu vazifalar chuqur tadqiqot ishlari olib borish zaruratini tug'diradi.

Konstitutsiyaviy huquq fani o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun ma'lum usullarga tayanadi, ular: tarixiy, huquqiy-qiyosiy, tizimli, statistik, sotsiologik usul bo'lishi mumkin.

Tarixiy usul – bu sohadagi avvalgi huquq normalari, ularning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish orqali hozirgi kun uchun ham to'g'ri keladigan huquqiy normalarni qo'llash, takomillashtirish imkonini beradi.

Huquqiy-qiyosiy usul orqali turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy huquqi har jihatdan qiyoslanadi, tahlil qilib baholanadi va bizning sharoitga mos jihatlarini olish haqida taklif va tavsiyalar vujudga keladi.

Tizimli usul orqali konstitutsiyaviy huquq institutlarini o'rganishga tizimli yondashiladi. Ular bir-biridan mutlaqo ajralgan holda emas, bog'liq holda o'rganiladi. Bu uslub orqali konstitutsiyaviy huquqning umumiy huquq tizimidagi o'rni to'g'ri aniqlanadi.

Statistik usul orqali Konstitutsiyaviy huquq normalarining samaradorligi, ijtimoiy munosabatlarga ta'siri aniqlanadi. Statistika orqali haqiqiy ahvol aniqlanadi. Saylovlar davrida siyosiy partiyalar, ular tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar (bu saylovda muqobillikni ko'rsatadi), saylovda ishtirok etgan saylovchilar soni, demokratik jarayonlar haqida real ma'lumot beradi.

Sotsiologik usul orqali ijtimoiy munosabatlar, ularni tartibga soluvchi normalar haqida fuqarolar fikri aniqlanadi. Shu asosda nimani o'zgartirish, nimani bekor qilish, nimani yangidan o'rnatish haqida jamoatchilik fikri o'rganiladi.

10-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Biror-bir fan o'z holicha to'la mustaqil faoliyat ko'rsatmaydi. Mustaqil faoliyat olib boradigan bo'lsa, belgilangan vazifalarni to'la, bekamu ko'st bajara olmaydi.

Fanlarning o'zaro aloqada rivojlanishi bu qonuniyatdir.

Konstitutsiyaviy huquq fani birinchi navbatda ijtimoiy fanlar tizimiga kirgani uchun shu tizimdagi fanlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi tabiiydir. Masalan, barcha ijtimoiy fanlarni o'rganish usullarida umumiylik mavjud bo'lganligi uchun ular bir xil tarixiy, qiyosiy, tizimli va boshqa usullardan foydalanadi. Barcha ijtimoiy fanlar oldida maxsus vazifalar bilan birga, umumiy vazifalar ham mavjud. Ya'ni, ularning barchasi komil insonni shakllantirish, shaxslarni bir-biriga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanga sadoqat, vatanparvarlikni vujudga keltirish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Ana shunday umumiylikning mavjudligi ijtimoiy fanlar o'rtasida aloqa, hamkorlik bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Qolaversa, Konstitutsiyaviy huquq fani yuridik fanlar tizimidagi alohida bir fandir. Shuning uchun uni yuridik fanlar bilan aloqasi yanada kuchliroq va aniqroq aks etadi.

Bu aloqa ayrim yuridik fanlar bilan ularga tayanish, ulardan ozuqa olish asosiga qurilsa, ayrim yuridik fanlarga tayanch bo'lish, ularga ozuqa berish shaklida namoyon bo'ladi.

Birinchi guruh fanlariga "Davlat va huquq tarixi", "Davlat va huquq nazariyasi" fanlarini kiritish mumkin. "Davlat va huquq tarixi" fani davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, Konstitutsiyalarning vujudga kelish va rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. Konstitutsiyaviy huquq fani konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini o'rganishda tarix faniga, uning ta'limotlariga tayanadi.

Konstitutsiyaviy huquq fanining "Davlat va huquq nazariyasi" fani bilan aloqasi yanada aniqroq va kengroq aks etadi. "Davlat va huquq nazariyasi" umuman davlat va huquq, uning shakllari, turlari haqida nazariy asos bilimlarni beradi. Davlat hokimiyati, uning bo'linish prinsiplari haqidagi rahbariy bilimlar ham shu fanda beriladi, ular haqida chuqur bilmasdan, huquqiy norma, huquqiy institut, ularning tuzilishi, vujudga kelishi, huquq manbalari, huquqiy munosabatlar, huquq subyektlari haqida yetarli bilim va ma'lumotga ega bo'lmay, Konstitutsiyaviy huquq o'rganadigan masalalarni o'rganib bo'lmaydi. "Davlat va huquq nazariyasi" yuqoridagi kategoriya va hodisalarni umumiy tarzda o'rgansa, Konstitutsiyaviy huquq fani ularni aynan, konstitutsiyaviy huquq doirasida o'rganadi. Masalan, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy nor-

malar, "Davlat va huquq nazariyasi"da umumiy tarzda o'rganilsa, konstitutsiyaviy huquq konstitutsiyaviy ijtimoiy munosabatlarni, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni o'rganadi.

Ikkinchi guruhdagi fanlar tarmoq huquqiy fanlar bo'lib, ular Konstitutsiyaviy huquq faniga tayanadi. Ya'ni, ular o'rganadigan, tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning asoslari konstitutsiyaviy huquqda belgilangan va o'rganiladi. Bu guruhga barcha tarmoq va amaliy, protsessual huquqlarni kiritish mumkin, jumladan: Fuqarolik huquqi, Ma'muriy huquq, Mehnat huquqi, Yer huquqi, Soliq huquqi, Jinoyat huquqi, Jinoyat protsessual huquqi, Fuqarolik protsessi va boshqalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Konstitutsiyaviy huquq atamasi qanday ma'nolarda ishlatiladi?

2. Konstitutsiyaviy huquqning huquq sifatidagi tushunchasi qanday?

3. Konstitutsiyaviy huquqning huquq sifatidagi predmeti nima?

4. Nima uchun Konstitutsiyaviy huquq huquq tizimida yetakchi hisoblanadi?

5. Konstitutsiyaviy huquqni alohida huquq tarmog'i sifatida ko'rsatuvchi belgilari nimalar?

6. Konstitutsiyaviy huquq normalari nima?

7. Konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar nima?

8. Konstitutsiyaviy munosabatlar qanday munosabatlar va ularning subyektlari kimlar?

9. Konstitutsiyaviy huquqning manbalari nimalar?

10. Konstitutsiyaviy huquq tizimi qanday tuzilgan?

11. Konstitutsiyaviy huquq fani qanday fan va uning predmeti nima?

12. Konstitutsiyaviy huquq fanining vazifasi nimalardan iborat?

13. Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa fanlar bilan munosabati qanday?

II bob. Konstitutsiyaviy nazariya asoslari

1-§. Konstitutsiya va davlat

Hozirgi kunda konstitutsiyani davlatsiz, davlatni konstitutsiyasiz tasavvur qilish qiyin. Lekin ular ijtimoiy taraqqiyotning turli davri mahsulidir. Davlat konstitutsiya paydo bo'lgan davrdan ancha ilgari vujudga kelgan va konstitutsiyasiz faoliyat ko'rsatgan. Konstitutsiya atamasi konstitutsiya Asosiy qonun bo'lgunga qadar ham mavjud bo'lgan. Bu atama baynalmilal atama bo'lib, lotin tilidan olingan va "o'rnataman", "tasdiqlayman" degan ma'noni beradi. Konstitutsiya atamasi hozirda "tuzilish" degan ma'noda ham ishlatiladi. Yuridik jihatdan Rim imperatorlarining ko'rsatmalari ham konstitutsiya deb atalgan davrlar bo'lgan.

Biz o'rganadigan konstitutsiya esa, davlatning asosiy qonuni sifatida qaraladi.

Davlatlar paydo bo'lgan davrdan boshlab davlat va shaxs o'rtasida munosabatlar mavjud bo'lgan va munosabatlar o'lchovida davlat manfaati doimo ustun bo'lib kelgan (ma'lum vaqtgacha). XVII–XVIII asrlarda fuqarolarning o'z erki uchun, huquq uchun kurashi nihoyatda kuchaygan. Feodal tuzum o'rnida vujudga kelgan burjua tuzumi ham shu kurashlar natijasidir. Ana shu davrlarda eski tuzum o'rniga kelgan burjua tuzumi progressiv xarakterda bo'lib, bu davrda, eng avvalo insonlarning huquq va erkinliklarini qonunlarda mustahkamlash amalga oshirib borildi.

Shu davrdagi demokratik revolyutsiyalar natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni alohida qonunlar doirasida mustahkamlash zarurati tug'ildi. Bunday qonun sifatida konstitutsiya paydo bo'ldi. Dastlabki Konstitutsiya hisoblanuvchi AQShning 1787-yilgi Konstitutsiyasi davlatning asosiy qonuni sifatida o'rnatildi.

U qonunchilik, ijro, sud hokimiyatini tashkil etish prinsiplari va tartibi, federatsiya tarkibiga kiruvchi subyektlar huquqlarini belgilash bilan cheklangan edi. Fuqaro, shaxs huquqlari unda belgilanmadi, faqat Kongress fuqarolar huquq va erkinliklariga zid keluvchi qonunlar qabul qilishi mumkin emas degan qoida unda o'z aksini topgan. Konstitutsiya yaratuvchilarning fikricha "nima

taqiqlanmasa, shu mumkin" degan g'oya, prinsip fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishi, ta'minlashi mumkin edi.

Lekin xalq bunga rozi bo'lmadi, ular asosiy qonunda huquq va erkinliklarni alohida mustahkamlab qo'yishni talab qilib chiqdi va ularning talabi asosida ikki yil ichida konstitutsiyaga o'nta qo'shimcha kiritildi va bu qo'shimchalar inson huquqlariga taalluqli bo'lib, "Huquqlar haqida Bill" deb tarixga kirdi.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni, cheklanmagan davlat hokimiyati xavfli ekanligini anglagan davlat falsafasining ma'lum elementi bo'lib qoldi. Hokimiyatning cheklanmaganligi og'ir oqibatlarga, to'ntarishlarga, inqirozga olib kelishini oddiy xalq emas, hukmronlar ham tushunib yetdi va davlat hokimiyatini cheklash vazifasi konstitutsiyaga yuklandi. Natijada turli davlatlarda konstitutsiyalar qabul qilinishi natijasida uzoq davr hukm surayotgan va jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan mutlaq davlat hokimiyatini cheklash belgilandi. Bu, o'z navbatida, jamiyatning boshqa a'zolari – xalqni huquq va erkinliklar bilan ta'minlashga olib keldi. Konstitutsiya hokimiyat va erkinlik, davlat va shaxs o'rtasida mutanosib muvozanat bo'lishini ta'minlovchi vosita bo'lib maydonga chiqdi.

Lekin Konstitutsiyalar vujudga kelishi, davlatlar tomonidan qabul qilinishi hamma vaqt yoki hamma joyda ko'zlangan natijani bermadi yoki bermaydi. Chunki, eng demokratik prinsiplar va ko'pchilik manfaatiga mos qoidalardan iborat Konstitutsiyalar ham, tegishli tuzumlarning, xususiyatlaridan, hokimiyatdagi hukmronlarning xohish-irodasidan kelib chiqib, tor doira manfaatlariga xizmat qilishi mumkin. Buni Sobiq Ittifoq konstitutsiyaviy tajribasidan ham aniq ko'rish mumkin.

Shuning uchun "Davlat va Konstitutsiya" deganda ularni faqat do'stlikda, hamkorlikda deb qarash uncha to'g'ri emas. "Davlat va Konstitutsiya" o'rtasida qarama-qarshilik bo'lishi ham tabiiydir.

Lekin, jamiyat mavjud qarama-qarshiliklarni hech kuch ishlatmay hal qilish yo'lini topsa, bunday qarama-qarshiliklar xavfli bo'lmaydi.

Demokratik davlatlar – konstitutsiyaviy davlatlardir. Lekin, har qanday konstitutsiyaga ega davlatni konstitutsiyaviy yoki demokratik davlat deb bo'lmaydi. Davlatni ham demokratik, ham Konstitutsiyaviy deb atash uchun demokratik prinsip va qoidalardan iborat konstitutsiyasi bo'lishi va konstitutsiyaning barcha normalarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Barcha dunyo mamlakatlarining konstitutsiyalarini ko'rsak, ularni yo xalq qabul qilgan, yoki xalq nomidan qabul qilingan, degan iboralarni uchratamiz. Masalan, AQSh Konstitutsiyasida "Biz AQSh xalqi...", Germaniya Konstitutsiyada "Mazkur asosiy qonunni nemis xalqi o'zini ta'sis hokimiyati kuchi bilan qabul qildi", Fransiya Konstitutsiyasida "Fransuz xalqi Konstitutsiyaviy qonunni ma'qulladi", degan so'zlar bo'lsa, O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddimasida: "o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining, mazkur Konstitutsiyani qabul qiladi", – deb qayd qilingan.

Hamma konstitutsiyalarda yo xalq nomidan, yoki ularning muxtor vakillari tomonidan qabul qilinishi ko'rsatilar ekan, tabiiy holda u xalq manfaatini ifoda etishi kerak.

Xalq manfaati ularda huquq va erkinliklarning o'rnatilishi hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ta'minlash choralarini belgilash; shu maqsadda davlat hokimiyati, uning tuzilmalarini tashkil qilishning demokratik tartibini belgilash; davlat hokimiyati faoliyatini qonun darajasida ifodalash; jamiyatning boshqa tuzilmalari bilan davlat munosabatini o'rnatish orqali ta'minlanadi.

Konstitutsiya, yana xalq suvereniteti, davlat suvereniteti, davlat hokimiyati manbalarini mustahkamlaydi. Rossiya Konstitutsiyasining 3-moddasida "Rossiya Federatsiyasida hokimiyatning yagona manbasi va suverenitet egasi yagona xalq", O'zbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir", degan qoidalar mavjud. Shundan, agar hokimiyat totalitar bo'lsa, xalqning tabiiy huquqlarini buzsa, xalqda unday hokimiyatni ag'darib tashlash huquqi bo'ladi. Bu xalq suverenitetining haqiqiy ma'nosini ko'rsatadi.

Shuningdek, konstitutsiyalar mamlakat birligini, hududlar bo'linib ketmasligini ta'minlovchi normalardan iborat bo'ladi. Konstitutsiya AQShda vujudga kelgan bo'lsada, uning rivojlanishiga barcha xalqlar hissa qo'shgan va qo'shadi.

Ijtimoiy munosabatlarning kengayib borishi, ijtimoiy hayotning rivojlanishi konstitutsiya normalari bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarning kengayib borishini taqozo etadi, bu o'z navbatida, konstitutsiyalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Bu holatni dastlabki konstitutsiyalar bilan hozirgi davrda qabul qilingan konstitutsiyalarni taqqoslasak, qiyoslasak aniq ko'ramiz.

AQSh Konstitutsiyasi faqat hokimiyat va federatsiya subyektlarining huquqiy holati, keyingi kiritilgan qo'shimchalar asosida fuqarolarning huquq, erkinliklarini tartibga solish bilan chegaralansa, keyingi davrda qabul qilingan va qilinayotgan Konstitutsiyalarning vazifasi, maqsadi juda kengdir.

Hozirgi konstitutsiyalar faqat shaxs va davlat munosabati, hokimiyat tizimini mustahkamlab qolmay, jamiyatdagi boshqa tuzilmalar faoliyatini ham tartibga solmoqda, masalan jamoat birlashmalari, oila va boshqalar. Bundan tashqari, konstitutsiyalarda inson va davlat munosabatida inson manfaatlarining ustunligini ta'minlovchi, hokimiyat faoliyatini cheklovchi, davlatga aniq majburiyatlar yuklovchi normalar kengroq o'rin olmoqda.

Har bir mamalaktning konstitutsiyasiga xos eng asosiy xususiyat bu – konstitutsiyaning asosiy qonunligidir. Konstitutsiyaning umumiy xususiyatlari ana shundan kelib chiqadi va ularga qo'yiladigan umumiy talablar bo'lishini keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga konstitutsiyalar ma'lum taraqqiyot mahsuli, ma'lum mamlakatda yashayotgan xalqning ongi, dunyoqarashi mahsulidir. Unda tarixiy taraqqiyot tajribasi, milliy qadriyatlar, xalqning ma'naviy va axloqiy turmush tarzi albatta aks etadi, bu har bir mamlakat konstitutsiyalarida umumiylik bilan birga, o'ziga xos xususiyatlar bo'lishini taqozo etadi. Bunga O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish vaqtida alohida to'xtalib o'tamiz.

Konstitutsiya insoniyat tarixida taraqqiyotning ma'lum vaqtida, yangilikning eskilik ustidan, erkinlikning haqsizlik ustidan, taraqqiyotning turg'unlik ustidan g'alabasini qonuniy mustahkam-

lagan hujjat bo'lib, u insonning or-nomusi, qadr-qimmati, mol-mulki himoyachisidir, degan ta'rif konstitutsiyaning o'rnini ko'rsata oladi va bunga e'tiroz bo'lmasa kerak.

Konstitutsiyaning vujudga kelishi insoniyat tarixi taraqqiyoti mahsuli bo'lib, u butun dunyoda rivojlanishga katta hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Prezidentining: ***"Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir"***[1], – degan so'zlari faqat O'zbekiston konstitutsiyasiga emas, umuman Konstitutsiyalarga berilgan bahodir.

2-§. Konstitutsiyaning ta'rifi mazmuni va mohiyati

Konstitutsiya davlatning oliy kuchga ega qonuni, u Asosiy qonun deb ham ataladi. Sababi, konstitutsiya davlatchilikning, qonuniylik va huquq-tartibotning, qonunchilikning asosi. Konstitutsiya, eng avvalo, yuridik hujjatdir. Uning shu xususiyatlari va sifatlari konstitutsiyaviy huquq fanining predmetini tashkil etadi.

Konstitutsiya boshqa qonunlar kabi faqat yuridik hujjat sifatidagina namoyon bo'lmay, u siyosiy hujjat hamdir. Chunki konstitutsiya jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni ham tartibga solishga ta'sir etadi.

Huquqiy davlatlar yoki shunday davlat qurayotgan mamlakatlar konstitutsiyalari g'oyaviylikdan holidir. Faqat ular ko'pg'oyaviylikning, plyuralizmning vujudga kelishi uchun, agar ular hammabop g'oya bo'lsa, sharoit yaratishi mumkin.

Shunday qilib, **Konstitutsiya deganda – oliy yuridik kuchga ega davlatning asosiy qonuni tushuniladi. Bu qonun davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, hokimiyat organlari tizimi, tarkibi, tashkil bo'lish tartibi, vakolatlari, o'zaro munosabatlari, davlatning jamoat birlashmalari bilan munosabatlari asoslarini belgilovchi normalar yig'indisidan iborat bo'ladi. Konstitutsiya davlat funksiyasi doirasini, uning**

1 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 93-bet.

shaxs va jamiyat bilan aloqasi asoslarini o'rnatish bilan konstitutsiyaviy tuzum asoslarini belgilaydi.

Konstitutsiya mohiyatini mavjud tuzumda qo'lga kiritilgan yutuqlar, ularning fuqarolar manfaatiga qanchalik mosligi belgilaydi. Shu va konstitutsiya bilan tartibga solish doirasi turli mamlakatlarda turlichaligi, konstitutsiyaviy huquq nazariyasida konstitutsiya tushunchasi, mazmuni va mohiyati haqida yagona fikr yo'qligiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari turli mamlakatlar rivojlanish taraqqiyotining har xilligi, konstitutsiya qabul qilinayotgandagi sharoitlarning har xilligi, xalqning ongi, dunyoqarashi, hatto axloqidagi farqlar ham bu masalalar yuzasidan turlicha fikrlar bo'lishi tabiiy ekanligini ko'rsatadi.

AQSh Konstitutsiyasi to'rt asr yuzini ko'rgan Konstitutsiyadir. U qabul qilingan 1787-yildagi sharoit va jamiyat taraqqiyoti XX asr oxiridagi va hozirgi sharoitdan mutlaqo farq qiladi. AQSh Konstitutsiyasi, shundan kelib chiqib, faqat hokimiyatga bog'liq masalalarnigina hal qilgan. Keyingi kiritilgan qo'shimchalargina inson huquqlariga taalluqli bo'lgan. Shuning uchun AQShning Konstitutsiyasini sof davlat (jamiyat emas) konstitutsiyasi va huquqiy hujjati desak bo'ladi. Angliyada esa hozirgacha yozilgan, ya'ni yagona shakldagi konstitutsiya yo'q.

Shuning uchun ularning konstitutsiyalariga nisbatan keyingi davrda qabul qilingan konstitutsiyalarga ishlatiladigan ta'rifni qo'llab bo'lmaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi mustamlakachilik tuzumining yemirilishi natijasida vujudga kelgan davlatlar, Sovet Ittifoqi tarqalib ketishi natijasida vujudga kelgan mustaqil davlatlar konstitutsiyalarining tartibga solish doirasi nihoyatda kengaytirildi, bu Konstitutsiyaning mohiyati mazmuniga yangicha ta'rif berishga asos bo'ladi.

Lekin, Konstitutsiya tushinchasiga beriladigan ta'riflarda, albatta, uning fuqaro va shaxs huquqiy holati, erkinligining kafolati ekanligi, davlat hokimiyatini demokratik tashkil qilish hokimiyatlar bo'linishi, prinsipida bo'lishi, xalq suvereniteti saylab qo'yiladigan vakillik organlari orqali amalga oshirilishi, konstitutsiya erkinlik va hokimiyat munosabatida mutanosiblik bo'lishini ta'minlanishi o'z ifodasini topishi kerak.

Markscha-Lenincha konstitutsiyaviy ta'limotga asosan, konstitutsiyaning mohiyatini sinfiy kurashdagi sinfiy kuchlar nisbati belgilar edi. Bu ularning asosiy ta'limotida jamiyatning sinflarga bo'linishi, albatta hukmron sinfning mavjud bo'lishi, ularning irodasi hamma narsani belgilashi, boshqalarning shu irodaga bo'ysunishga majburligi haqidagi ta'limotlariga mos edi.

U ta'limotda hokimiyat kimgadir (qandaydir) guruhga tegishli bo'lishi qat'iy e'tirof etilar, bu narsa yashirilmas edi.

Hozirgi demokratik jamiyatlarda hokimiyat mexanizmi bu kelishuvchilikdir (sheriklik), chunki jamiyatda siyosiy kuchlar turlituman bo'lib, hokimiyat uchun kurashuvchi subyektlar soni cheklanmagan. Hokimiyatdagi kelishuvchilik (sheriklik) istalmasada, ixtiyoriylik asosida bo'lib, umumiy maqsadga erishishda manfaatdorlik bo'lishidan, hokimiyat va erkinlik masalasini qonun asosida hal qilish zarurligidan vujudga keladi. Shuning uchun hozirgi konstitutsiyalar, hatto eng kuchli bo'lsa ham, ayrim, ijtimoiy sinflarning manfaati uchungina xizmat qila olmaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi sinfiylikdan holi, xalq manfaatini ifoda etuvchi konstitutsiyadir. "Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q"[1].

Hozirgi kunda, hatto, ayrim guruh yoki sinf o'z hukmronligini o'rnatgan vaqtda ham, demokratik jamiyat uchun xos bo'lgan, umume'tirof etilgan qadriyatlardan boshqa, yangi narsani taklif qilishni tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun o'rnatiladigan tuzum, u qanday bo'lishidan qat'i nazar, hukmronlar tomonidan demokratik deb e'lon qilinadi, hatto o'zi avtoritar yoki totalitar bo'lsa ham. Ular hech qachon nodemokratik konstitutsiyalar qabul qilishga tavakkal qilmaydi. Mamlakatda kelishuv faqat hokimiyat mexanizmini yaratishda bo'lishi mumkin. Inson huquq va erkinliklarini (bu konstitutsiyaning asosiy maqsadi) aniqlashda kelishuv bo'lishi mumkin emas.

Totalitar tuzum va demokratik tuzumdagi davlatlarning konstitutsiyalari bir-biridan farq qiladi. Totalitar tuzum davlatlari kons-

1 Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1992. – 37-bet.

titutsiyalarida davlatning rahbarlik roli konstitutsiyaning o'zida ko'rsatib qo'yiladi va hukmron partiyaning g'oyaviy ko'rsatmalari ta'siri iqtisodiy va siyosiy tizimga to'la tatbiq qilinadi. Shu asosda mafkura, g'oya asosiy qonun darajasiga ko'tariladi.

Demokratik jamiyatda esa, uning aksidir. Bu jamiyat hamma sohada davlat boshqaruviga, rahbarligiga muhtoj emas. Bu jamiyatda konstitutsiya davlatga jamiyatni himoyalash vazifasini yuklaydi.

Bunday jamiyatdagi konstitutsiyalarda davlatning jamiyatni himoyalash, fuqaro mas'uliyatini himoyalash vazifasi aniq belgilab qo'yiladi.

Konstitutsiyalar muqaddima qismining mavjudligi bilan ham boshqa qonunlardan farq qiladi. Muqaddima tantanali – deklarativ xarakterdagi ta'kidlardan iborat bo'lib, ular yuridik kuchga ega emas. Muqaddimada davlatning maqsad va vazifalari, davlatchilikda qabul qilinadigan, tayaniladigan qadriyatlar, xalq va kelajak avlod oldidagi mas'uliyat belgilanadi. Bu g'oyalar keyinchalik turli ko'rinish va shakllarda konstitutsiya normalarida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham, konstitutsiyalarga ta'rif berilganda, konstitutsiya qo'lga kiritilgan yutuqlarni, mavjud ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi hujjat bo'lib qolmay, maqsad va vazifalarni belgilovchi hujjat hamdir, deb ta'riflanadi.

3-§. Konstitutsiyaning prinsiplari va xususiyatlari

Har qanday mamalaktlar konstitutsiyalarining mohiyati, vazifasi, xususiyatlari uning prinsiplari orqali ma'lum bo'ladi.

Prinsip konstitutsiyaning mohiyati, yuridik tabiatiga ta'sir qiladigan ularni aks ettiradigan asosiy g'oyalardir.

Ko'p hollarda, mamlakatimizda amal qilayotgan "Konstitutsiyaviy huquq" darsliklarida ham "konstitutsiyaning prinsiplari", "Konstitutsiyaviy prinsiplar" bilan bir narsa, deb qaralib, chalkashtirib yuboriladi.

Konstitutsiyamizning birinchi bo'limi "Asosiy prinsiplar" deb nomlanganligi uchun uning har bir bobi – "Davlat suvereniteti", "Xalq hokimiyatchiligi", "Konstitutsiya va qonunning ustunligi",

"Tashqi siyosat" – konstitutsiyaning prinsiplari sifatida bayon qilinadi[1].

Aslida bular konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar bo'lib, ulardagi normalar shu institutlarning, aniqrog'i, konstitutsiyaviy tuzumning prinsiplaridir. Shuning uchun, "konstitutsiyaviy prinsip – bu konstitutsiyada mustahkamlangan va konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning prinsiplaridir. Konstitutsiya prinsipi esa, konstitutsiyani xarakterlovchi, mohiyati, vazifasi, yuridik tabiatini, maqsadini belgilovchi asosiy g'oyalar hisoblanib, ular konstitutsiyaning o'zida aniq yozilgan bo'lishi shart emas. Masalan, "insonparvarlik" prinsipini konstitutsiyaning barcha qoidalarida his qilish mumkin.

Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari bir-biri bilan bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi, davom ettiruvchi g'oyalardan iborat bo'lib, ular barcha demokratik davlatlar konstitutsiyalariga xos bo'ladi va shuning uchun ular O'zbekiston Konstitutsiyasi uchun ham xosdir. Shuning uchun, konstitutsiyaning asosiy prinsiplarini O'zbekiston Konstitutsiyasi misolida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Asosiy qonunimizning prinsiplari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Demokratizm prinsipi. Demokratiya insoniyat tarixida vujudga kelgan va unga barcha xalqlar bab baravar intiladigan tartibotdir. Demokratiya uzoq vaqt davomida shakllanadigan, o'zida xalqlarning qadriyatlarini mujassamlagan, ko'pchilik uchun mos va qulay tartib hisoblanadi. Demokratizm ana shu tartibning (demokratiyaning), hayotda qo'llanilishi mexanizmidir. Demokratiya deganda xalq hokimiyatchiligi tushunilsa-da, uning mazmuni ancha keng. Demokratizm mavjud bo'lganda xalq suvereniteti – xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi amalga oshishi mumkin. Shuning uchun, demokratizm O'zbekiston Konstitutsiyasining barcha prinsip va qoidalariga singdirilgan yoki boshqacha qilib aytganda, demokratizm Konstitutsiya normalari orqali qonuniy mustahkamlangan. Konstitutsiya jamiyatda fikrlar xilma-xilligi uchun asos bo'ladi.

---

1 Qarang: U. Tojixonov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Sharq, 2001. – 169–178-betlar.

Konstitutsiyamizning demokratik xarakterini, u demokratizm g'oyalariga suyanganligini Konstitutsiyaning muqaddimasidan ham bilish mumkin. Demokratizm prinsipining mavjudligi Konstitutsiyaning boshqa prinsiplari mavjud bo'lishini belgilab beradi.

Insonparvarlik prinsipi. Inson, uning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati, manfaati masalasini belgilash Konstitutsiyaning asosiy prinsiplaridan hisoblanadi. Konstitutsiyamizda insonning huquq va erkinliklari, sha'nining oliy qadriyat deb belgilanishi, uning insonparvarlik xarakterini ko'rsatadi. Insonparvarlik g'oyasi Konstitutsiyadagi asosiy g'oya bo'lganligi sababli, uni Konstitutsiya prinsipi deyish mumkin. Konstitutsiyada insonning manfaatlari ustuvorligining belgilanganligi, huquq va erkinliklarni ta'minlashda davlat mas'uliyatining belgilanganligi ham shu prinsipning ta'siridir. Mamlakatda yashovchi barcha fuqaro, millat va elatlar tengligining o'rnatilishi, biror-bir kishi imtiyozga ega bo'lmasligi, yordamga muhtoj toifadagi kishilarning huquqlari davlat tomonidan alohida himoya qilinishi, ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligining o'rnatilishi Konstitutsiyaning insonparvarligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning ustunligi prinsipi. Bu prinsip Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega rasmiy hujjat ekanligidan kelib chiqadi. Davlat o'z faoliyatini Konstitutsiya prinsiplari va qoidalari asosida tashkil etadi. Shuningdek, barcha davlat organlari, tashkilot, korxona, muassasa, jamoat birlashmasi, fuqarolar, mansabdor shaxslar Konstitutsiya asosida faoliyat yuritadi.

O'zbekistonda amal qiladigan birorta ham normativ hujjat Konstitutsiyaga zid bo'lmasligi kerak, zidlik holatlari vujudga kelsa, Konstitutsiya normalari amal qiladi.

Konstitutsiyaning ustunligi yana Konstitutsiya normalari boshqa huquqiy hujjatlarning yaratilishi uchun asos bo'lishida ham ko'rinadi.

Konstitutsiyaning kelajak maqsad, rivojlanishni ko'zlashi prinsipi. Konstitutsiya faqat mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilib qolmay, u kelajakdagi vazifalarni ham belgilashi mumkin. Konstitutsiyaning muqaddimasida belgilangan kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, insonparvar demokratik davlatni barpo etishni ko'zlash, kabi da'vatlar va

ta'kidlar Konstitutsiyaning muhim g'oyalaridir. Bu maqsadlar Konstitutsiyaviy tartibda asoslantirilgan.

Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi prinsipi. Konstitutsiya normalari oliy yuridik kuchga ega bo'lishi bilan birga, ular to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi. Yoki boshqacha qilib aytganda, uning normalarini hayotga tatbiq qilish uchun (Konstitutsiyaning o'zida shu talab ko'rsatilmagan bo'lsa) qo'shimcha maxsus qonunlar yoki qonunosti hujjatlar qabul qilish shart emas.

Ayrim adabiyotlarda ko'rsatilayotgan boshqa bir qancha prinsiplar Konstitutsiyaning prinsiplari bo'lmasdan, boshqa Konstitutsiyaviy institutlarning prinsiplaridir. Masalan, davlat bilan fuqaro o'zaro mas'ulligi prinsipi Konstitutsiyaviy prinsip bo'lib, unda fuqaro manfaatining ustunligi ta'minlanadi, xalq suvereniteti prinsipi, hokimiyat bo'linishi prinsipi davlat hokimiyatini tashkil etishning konstitutsiyaviy prinsipidir yoki Konstitutsiyaning 17-moddasidagi prinsiplar davlatning tashqi siyosat olib borish prinsipi hisoblanadi. XXII bobdagi prinsiplar esa, sud va sudlov prinsiplari hisoblanadi.

Konstitutsiya masalasini o'rganishda konstitutsiyalarning xususiyatlarini aniqlash muhim masaladir. Xususiyatlar umumiy, ya'ni umuman konstitutsiyaga tegishli yoki alohida, ya'ni ayrim mamalkatlarning konstitutsiyalariga tegishli bo'lishi mumkin. Konstitutsiyaning xususiyatlari orqali uning yuridik tabiati ochiladi. Konstitutsiyalarning xususiyatlari uning huquq tizimidagi alohida o'rni, ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy tartibga solish mexanizmida aks etadi. Bu xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Konstitutsiya maxsus subyektlar tomonidan alohida tartibda qabul qilinadi (legitimlik).

2. Konstitutsiya normalari ta'sis etuvchi, rahbariy ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Konstitutsiyaning tartibga solish doirasi keng va xilmaxildir.

4. Konstitutsiya kelajak maqsadni ko'zlaydi.

5. Oliy yuridik kuchga ega, alohida tartibda qabul qilinadi va muhofazalanadi.

6. Huquq tizimi poydevori hisoblanadi.

1. Konstitutsiyalar odatda xalq nomidan yoki uning vakillari nomidan qabul qilinadi. Konstitutsiya bevosita xalq nomidan referendum orqali (Rossiya Konstitutsiyasi) yoki alohida, maxsus, faqat shu maqsadda tashkil qilinadigan organ (Germaniya Konstitutsiyasi) yoki Qonunchilik organi – Parlament (O'zbekiston Konstitutsiyasi) tomonidan qabul qilinadi.

2. Konstitutsiya normalari ta'sis etuvchi kuchga ega. Konstitutsiya konstitutsiyaviy tuzum asoslarini belgilaydi, bular shaxsning huquqiy holati asoslari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, uning prinsiplari bo'lib, shunday normalar boshqa yuridik normalarni yoki munosabatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" degan qoida davlat hokimiyatining vujudga kelishi uchun asos, ta'sis xarakteriga ega. Xuddi shuningdek, hokimiyatning bo'linishi prinsipi mustahkamlangan 11-modda, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligi belgilangan 13-moddaning qoidalarida ham ta'sis etuvchi xususiyatni yaqqol ko'rsa bo'ladi.

3. Konstitutsiyaning tartibga soluvchi predmeti doirasining kengligi uning yuridik xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Boshqa turli qonunlar alohida bir ijtimoiy munosabatni tartibga solsa (masalan, mehnat huquqi – mehnat munosabatlarini, moliya huquqi – moliya munosabatlarini), Konstitutsiyaviy huquq tartibga soladigan munosabatlar doirasi turli-tumandir. Masalan, u shaxs huquqiy holatini ham, hokimiyatni tashkil etish va faoliyatini ham, siyosiy, iqtisodiy munosabatlarni ham tartibga soladi.

4. Konstitutsiya faqat mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan cheklanmay, unga da'vat ko'rinishida bo'lsa ham, kelajak maqsadlar belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasi muqaddimasida "demokratik huquqiy davlat barpo etish" maqsadi ko'rsatilgan.

5. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi, ustuvorligi uning muhim xususiyatidir. Yuqorida tilga olingan 4 ta xususiyatning o'zi ham Konstitutsiyaning oliyligini ko'rsatadi. Konstitutsiya barcha qonunlardan yuqori turadi, uning normalariga boshqa qonunlar zid bo'lmasligi kerak. Konstitutsiyaning oliyligi, ustunligi uni qabul qi-

lish va unga o'zgartirish kiritish alohida tartibda o'rnatilganligida ham ko'rinadi. Boshqa qonunlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinsa, Konstitutsiya mutlaq ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyani himoyalash, muhofaza qilishning alohida tartibi, mexanizmi o'rnatiladi. Buning uchun hokimiyat tizimida maxsus organlar tuziladi. Masalan, Konstitutsiyaviy sud. Uning asosiy vazifasi Konstitutsiyani muhofaza qilish hisoblandi.

6. Konstitutsiyaning huquq tizimi poydevori bo'lishi masalasi keyingi bandlarda batafsil yoritiladi.

Har bir Konstitutsiya alohida mamlakatda vujudga keladi. Uning vujudga kelish sharoitlari har xil bo'lishi mumkin. Milliy qadriyatlar, xalq o'tmishi, madaniyati, tili ham konstitutsiyalarda aks etadi. Shuning uchun har bir mamlakatlarning konstitutsiyalari yuqoridagi yuridik xususiyatlarga zid bo'lmagan holda, maxsus xususiyatlarning bo'lishini ham taqozo etadi. Bu xususiyatlar mavjud masalalarning mohiyatini buzmagan holda turlicha belgilanishda, talqin qilinishda ko'rinadi. Konstitutsiyalarning tuzilishlarida ham alohida xususiyatlar uchrashi mumkin.

Masalan ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida konstitutsiyaviy tuzum asoslari alohida belgilangan (Rossiya Konstitutsiyasi). O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari qatoriga fuqarolar huquqlarining kafolatlari,oila munosabatlarining alohida bobda ko'rsatilganligi, saylov tizimi uchun, mahalliy davlat hokimiyati uchun, prokuratura organlari uchun alohida boblar ajratilganligini ko'rsatish mumkin.

4-§. Konstitutsiyaning amal qilishi va uni himoyalash

Mamlakatning taraqqiyoti konstitutsiyaviy tuzum barqarorligiga, u esa, konstitutsiyaning amal qilishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bu yerda, fuqarolarning qonunlarga itoatkorligi muhim rol o'ynaydi. Lekin jamiyatdagi barcha fuqarolar ham, ba'zida ayrim guruhlar ham Konstitutsiyaga amal qilavermaydilar. Natijada ularning faoliyati Konstitutsiyaga xavf tug'diradi. Ayrim vaqtlarda bunday xavf davlat organlari, mansabdor shaxslar tomonidan ham bo'lishi mumkin, agar ular Konstitutsiyaga amal qilmasa, uning doirasidan chiqib ketsa.

Konstitutsiyaning 15-moddasida shu maqsaddan kelib chiqib, shunday hol bo'lmasligi uchun: "Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar", deb qat'iy belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyani buzish, unga amal qilmaslik, davlatchilik asoslarini buzadi, fuqarolar o'rtasida ishonchsizlikni vujudga keltiradi. Bu esa, inson huquqlarining buzilishiga, oqibatda davlat to'ntarishiga olib keladi.

Shuning uchun davlatlar konstitutsiya qabul qilish bilan cheklanmay, unga amal qilishni ta'minlash choralarini ko'radilar. Bu birinchi navbatda konstitutsiyalarda ularning normalari hamma uchun birday amal qilishi belgilab qo'yilganligida ko'rinadi. Agar O'zbekiston Konstitutsiyasining 15-moddasida Konstitutsiyaga amal qilish davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar uchun shartligi belgilangan bo'lsa, Konstitutsiyaning 47-moddasida: "Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar", 48-moddada "Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar", – deb belgilangan.

Konstitutsiyaga amal qilmaganlik uchun javobgarlik mavjud bo'lib, konstitutsiyani qo'pol va xavfli buzishlar uchun jinoiy javobgarlik ham belgilanadi. Deyarli barcha mamalaktlarda hokimiyatni zo'rlik bilan egallash uchun harakat qilish, hokimiyatni kuch ishlatib yiqitish uchun da'vat qilish harakatlari jinoiy harakat, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi harakat, konstitutsiyani buzish deb qoralanib, ularga nisbatan jazo belgilanadi.

Konstitutsiyalarda konstitutsiyani himoya qilish vazifalari belgilab qo'yiladi.

Konstitutsiyamizning 57-moddasida: "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi", – deb belgilangan qoidalar va g'oyalar Konstitutsiya himoyasiga bevosita taalluqlidir. Chunki yuqoridagi holatlarning barchasi Konstitutsiyada belgilangan munosabatlardir.

Konstitutsiyaga amal qilishni ta'minlovchi alohida vosita sifatida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini ko'rsatsa bo'ladi. Chunki, Konstitutsiyaga amal qilish faqat uni bajarish emas, unga zid boshqa hujjatlarni ham qabul qilmaslikdir. Konstitutsiyaning 16-moddasida: "Birorta ham qonun yoki normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas", – deb belgilangan.

Konstitutsiyamizning 108-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi", – deb belgilangan bo'lsa, 109-moddada uning vakolatlari yanada aniqroq ko'rsatib o'tiladi. Unga asosan,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi, deb belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaga amal qilishda fuqarolarning bilimi ham muhim rol o'ynaydi. Konstitutsiya bo'yicha fuqarolarning bilimlarini kengaytirish maqsadida 2001-yil 4-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil qilish to'g'risida"gi Prezident farmoyishi qabul qilingan.

Unda Konstitutsiyaning o'rni, ahamiyati, ma'no va mohiyatini fuqarolarga yetkazish maqsadida maxsus o'quv kurslari tashkil etish va bilim berishning samarali mexanizmini yaratish belgilangan. Shu farmoyish ijrosi bo'yicha mamlakatimizda e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Ta'limning turli bosqichlari uchun o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari tayyorlandi. O'quv rejalariga o'quv kursi kiritildi.

5-§. Konstitutsiya – qonunchilik asosi

Konstitutsiyaning yuridik xususiyatlaridan biri sifatida uning boshqa huquqlar uchun baza, asos bo'lishi ko'rsatilgan edi. Qonun huquq ifodalanadigan asosiy hujjatlardan biri bo'lganligi sababli, uning vujudga kelishida ham konstitutsiyani asos, baza deb hisoblashimiz mumkin.

Eng avvalo shunga e'tibor berish kerakki, qabul qilinadigan qonunlar konstitutsiyaga zid bo'lmasligi kerak. Bu qonunlarni yaratishdagi asosiy prinsip. Ikkinchidan, qabul qilinadigan qonunlar konstitutsiya normalariga tayanishi, uni hayotga tatbiq qilishni nazarda tutishi, konstitutsiyada nazarda tutilgan qoidani yanada to'laroq tartibga solishni maqsad qilishi shart.

Masalan, Konstitutsiyaning 37-moddasida: "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir", – deb belgilangan. Bu mehnat munosabatlarining asoslarigina hisoblandi, mehnat munosabatlari shular bilangina tugamaydi. Ular juda keng. Endi shu asosiy mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa munosabatlar mehnat qonunlari bilan tartibga solinadi. Demak, konstitutsiya mehnat qonunini yaratish uchun asos bo'ldi.

Xuddi shuningdek, konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy ta'minot olish masalasi, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish masalalari yoki atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish masalasi, harbiy xizmatni o'tash burchlari ham har tomonlama tartibga soluvchi qonunlar bo'lishini taqozo etadi.

Konstitutsiyaning ko'pchilik moddalarida esa, shu masala qonun bilan tartibga solinishi tartibi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Masa-

lan, referendum masalasini belgilagan 9-modda, fuqarolik masalasini belgilagan 21-modda, fuqarolarning murojaat qilishi haqidagi 35-modda, Prezident saylovlariga taalluqli 90-modda, Vazirlar Mahkamasiga taalluqli 98-modda, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga taalluqli 102, 103-moddalar, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga taalluqli 105-modda, saylov tizimiga taalluqli 117-modda, Prokuratura faoliyatiga taalluqli 120-modda, qurolli kuchlar faoliyatiga taalluqli 125-moddalarida shu masalalar qonun bilan tartibga solinishi ko'rsatib o'tilgan.

Konstitutsiya qonunchilik asosi deganda konstitutsiyaning o'zida qonun qabul qilish va e'lon qilish jarayoni asoslari belgilab qo'yilganligini ham ko'rsatish mumkin.

Konstitutsiyaning 78-moddasida Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. 83-moddasida qonunchilik tashabbusiga ega subyektlar doirasi belgilangan va 84-moddada qonun yaratish jarayoni mustahkamlangan. Unga asosan, qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi. Qonunlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan, konstitutsiyaviy qonunlar mutloq ko'pchilik ovoz bilan (O'zbekistonda uchdan ikki qism ovoz bilan) qabul qilinadi.

Qonun qabul qilish jarayoni keng ravishda darslikning boshqa mavzularida bayon qilinadi.

6-§. Konstitutsiyalarning turlari

Konstitutsiyalar taraqqiyotning turli davrlarida va alohida sharoitlarda vujudga kelganligi sababli ularning turlari ham xilmaxildir. Ularning turlanishiga shakli, qabul qilinish tartibi, amal qilishi va boshqalar ta'sir qiladi.

Eng avvalo, Konstitutsiyalar yozilgan va yozilmagan konstitutsiyalarga bo'linadi. Aksariyat mamlakatlarning konstitutsiyalari alohida tartibda qabul qilingan, yagona hujjat tartibida mavjud bo'lgan Konstitutsiya bo'lib, ular yozilgan konstitutsiya deb e'tirof etiladi.

Ayrim mamlakatlarda konstitutsiyalar yagona hujjat shaklida bo'lmay, turli munosabatlarni tartibga soluvchi turli hujjatlar qabul

qilingan bo'lib, ular ham konstitutsiya hisoblanadi. Hatto konstitutsiyaviy kelishuv hujjatlari, odatlar ham konstitutsiya hisoblanadi. Bunday mamlaktlar konstitutsiyalari yozilmagan konstitutsiya deb hisoblanadi (Buyuk Britaniya, Shvetsiya va hokazo). Bunday mamlakatlarning konstitutsiyalari ham kuchli konstitutsiyaviy tuzum bo'lishini ta'minlamoqda.

Konstitutsiyalar yana qabul qilinish tartibiga qarab ham turlanadi.

Asosan konstitutsiyalar legitim vosita orqali, ya'ni ko'pchilik e'tirof etgan yo'llar bilan qabul qilinishi mumkin. Xalq tomonidan (referendum yo'li bilan) – Rossiya, Fransiya Konstitutsiyalari, konstitutsiya qabul qilish uchun maxsus chaqirilgan ta'sis majlisi tomonidan – AQSh, Italiya, Hindiston konstitutsiyalari yoki qonunchilik organi – Parlament tomonidan (O'zbekiston Konstitutsiyasi). Ayrim mamlakatlar konstitutsiyalari oldin parlamentda qabul qilinib, keyin referendum orqali qabul qilingan (Ispaniya Konstitutsiyasi). Bunday tartibda qabul qilingan konstitutsiyalar hadya qilinmagan konstitutsiyalar hisoblanib, ularni qabul qilish tartibi demokratik hisoblanadi. Jahon konstitutsiyaviy tajribasida kam uchrasa-da, oktroir (yuqoridan hadya qilingan) konstitutsiyalar ham uchraydi. O'z davlati uchun monarx davlat boshlig'i tomonidan hadya qilingan konstitutsiya bunga misol bo'ladi. Yaponiya imperatori tomonidan hadya qilingan konstitutsiya hadya qilingan konstitutsiyadir. Oktroir konstitutsiyalarining ikkinchi guruhiga mustamlakachi davlat o'z mustamlakasiga mustaqillik berayotganda qabul qilingan konstitutsiyalarni keltirish mumkin. Buyuk Britaniya o'z qaramog'idagi ko'pgina davlatlarga konstitutsiya hadya qilgan.

Konstitutsiyalarni mamlakt dohiysi, yo'lboshchisi nomi bilan atash ham tajribada ma'lum. 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasi Stalin Konstitutsiyasi, 1977-yilgi SSSR Konstitutsiyasi Brejnev Konstitutsiyasi, 1993-yilgi Rossiya Konstitutsiyasi Yelsin Konstitutsiyasi, deb ham ataladi. Sababi, shu yo'lboshchilar konstitutsiya qabul qilishda yetakchi rol o'ynagan.

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibiga qarab konstitutsiyalar "yumshoq" va "qattiq" konstitutsiyalarga bo'linadi. "Yumshoq" konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi oddiy qonunga o'zgartirish kiritish tartibiga o'xshagan bo'ladi.

"Qattiq" konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishda murakkab tartib o'rnatilgan. Masalan, shunday taklif tushgandan so'ng muhokama uchun ma'lum vaqt ajratiladi, o'zgartirish kiritish uchun mutlaq ko'pchilik ovozi talab etiladi, agar konstitutsiya federativ davlat konstitutsiyasi bo'lsa, o'zgartirishni federatsiya subyektlari ham ma'qullashi talab etiladi.

AQSh Konstitutsiyasini haqiqatan qattiq konstitutsiya desa bo'ladi. Uning qabul qilinganligiga 226 yil o'tgan bo'lsa ham, unga bor-yo'g'i 27 ta qo'shimcha kiritilgan, uning ham 10 tasi dastlabki ikki yilda – 1787–89-yillarda kiritilgan.

Rossiya Konstitutsiyasi ham qattiq Konstitutsiya hisoblanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish uchun oddiy qonunlarga nisbatan ancha murakkab tartib o'rnatilgan.

Bundan tashqari konstitutsiyalarni vaqtincha va doimiy konstitutsiyalarga bo'lish mumkin. Vaqtincha konstitutsiyalar o'tish davrida, ko'pincha davlat to'ntarishlaridan keyin qabul qilinadi va ma'lum vaqt faoliyat ko'rsatadi. Doimiy konstitutsiyalar muddati yo'q, uzoq vaqt davomida amalda bo'ladi. AQSh Konstitutsiyasi hozir IV asr yuzini ko'rgan eng keksa konstitutsiyadir.

Shunday qilib, konstitutsiya turlari: yozilgan va yozilmagan; hadya qilinmagan (legitim usulda qabul qilingan) va hadya qilingan (oktroir); qattiq va yumshoq; vaqtincha va doimiy turlarga bo'linadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Konstitutsiya va davlat munosabati qanday?*
2. *Jahonda qabul qilingan dastlabki konstitutsiyalar va ularning roli qanday?*
3. *Konstitutsiya tushunchasi qanday?*
4. *Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini nima belgilaydi?*
5. *Konstitutsiyaning prinsiplari va xususiyatlari qanday?*
6. *Konstitutsiya qanday amal qiladi va qanday himoyalanadi?*
7. *Konstitutsiyani nima uchun qonunchilik asosi deyiladi?*
8. *Konstitutsiyaning turlari qanday?*

III bob. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi va takomillashuvi

1-§. Konstitutsiyaning yaratilishiga bo'lgan zarurat

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab Sovet Ittifoqi hududida qayta o'zgarishlar uchun sharoit yuzaga keldi. Kommunistik partiyaning ko'p yillik hukmronligi darz keta boshladi. Partiyaviy boshqaruv ishlab chiqarishni rivojlantirish o'rniga rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Iqtisodiy inqiroz xalqning turmush sharoitiga o'z salbiy oqibatlarini ko'rsata boshladi. Markaz zulmi kuchayishi natijasida ittifoqdagi xalqlar aziyat chekdi, "porloq kelajakka" ishonchsizlik, turli millatlarni kamsitish holatlari kuchaydi. "Paxta ishi", "o'zbek ishi" deb uyushtirilgan kampaniyalarda barcha baravar (gunohsiz ham, aybdor ham) birdek tazyiqqa uchradi. Ayollar, yosh bolalar xo'rlandi, milliy, diniy, tarixiy qadriyatlar oyoq osti qilindi. Natijada, ittifoq tarkibidan chiqish, mustaqil davlat qurish harakati kuchaydi va bu harakat real voqelikka aylandi. Ayniqsa, mustaqillikka bo'lgan intilish Boltiqbo'yi respublikalarida kuchli namoyon bo'ldi.

Kommunistik partiya, uning shu vaqtdagi rahbarlari ittifoqni, mavjud tuzumni saqlash uchun qattiq harakat qildilar.

Yangi ittifoq shartnomalarini tuzish, shu orqali ittifoqni saqlash uchun katta urinishlar bo'ldi. Lekin Tbilisi, Vilnyusda bo'lib o'tgan voqealar, qon to'kilishlar bu maqsadning zo'ravonlik pozitsiyasi, ittifoqni saqlab qolish xom hayol ekanligini ko'rsatdi.

Sovet Ittifoqida siyosiy tizimni isloh qilish, vakillik organlarining yangi turlarini yaratish, saylov tizimini yangilash ishlari olib borildi. SSSR hududida Xalq deputatlari s'ezdi degan eng yuqori vakillik organi tashkil etildi. Shu organga bo'ladigan saylovlar birinchi marta muqobillik asosida o'tdi. Uning natijasida esa (1988-yilgi saylov), shu organga xalq dardini ochiq aytadigan, haqiqatni ko'z bo'yamachilikdan ustun qo'yadigan ko'plab kishilar saylandi. S'ezd Ittifoq miqyosidagi masalalarni hal qiladigan organdan ko'ra, ittifoqdagi muammolarni ochiq-oydin ko'tarib chiqadigan, turli xalq va millatlar o'z muammolarini yaqqol ay-

tadigan minbarga aylandi. Turli fikrlilik vujudga keldi. Natijada kommunistik partiya o'z mavqeini yo'qota bordi. Birinchi bo'lib ayrim mamlakatlardagi kommunistik partiyalar sovet ittifoqi kommunistik partiyasi tarkibidan chiqqanligi e'lon qilindi, keyinchalik respublikalar mustaqilligi e'lon qilina boshladi.

Sovet Ittifoqini saqlab qolishga bo'lgan oxirgi jiddiy urinish bu 1991-yil 19-avgustda Favqulodda holat davlat qo'mitasini (FHDQ) tashkil qilish bo'ldi. Mamlakatning amaldagi Prezidenti kasalligi sababi ko'rsatilib, vazifasidan chetlatildi va prezident vazifasini vitse-prezident egalladi. U bir guruh kishilar bilan birga FHDQga boshchilik qildi. Qo'mita barcha qo'lga kiritgan yutuqlarni yo'q qilishni maqsad qilib qo'ydi. Moskvaga tank va harbiy qo'shin kiritdi. OAV taqiqlandi. Moskva aholisining olib borgan qattiq harakati natijasida bu favqulodda organ tezda – 21-avgustda tugadi.

Ittifoq markazida bo'lgan voqealar, totalitar tuzimni tiklashga, demokratik yutuqlarni yo'q qilishga bo'lgan urinishlar ittifoq respublikalarida bundan keyin qaysi yo'l bilan borish kerakligini hal qilish zarurligini kun tartibiga qo'ydi.

1991-yil 31-avgustda bo'lib o'tayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov mamlakat mustaqilligini e'lon qildi. Bunday xabar ko'pchilik deputatlarni lol qoldirdi. Chunki, ko'pchilik mustaqillikni orzu qilsa-da, uni ochiq bayon qila olmas edi, uning oqibati nima bo'lishini tasavvur qila olmas edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining to'satdan mustaqillikni e'lon qilishi, uning jasorati natijasi hamda prezidentlik faoliyati davridagi eng katta xizmati bo'ldi.

Mustaqillik e'lon qilindi. Bu degani hamma narsa bir zumda hal bo'ldi yoki bo'ladi degani emas. Chunki, mustaqillikka erishish, rivojlanish, taraqqiyot, xalqning farovon turmushini ta'minlamasdan, aksincha, turmush tarzi nihoyatda yomonlashuviga olib kelgan holatlar tarixda uchraydi.

Shuning uchun, albatta, mustaqillikni oliy ne'mat, buyuk hodisa deyish, uni e'lon qilish oson kechdi, deyish mumkin, lekin mustaqillikni saqlash, undan faqat ijobiy foydalanish juda mushkul va mas'uliyatli ishdir.

Mustaqillikka erishgandan keyin juda ko'p masalalarni endi hech kimning yordamisiz hal qilishga to'g'ri kelar edi. Birinchi navbatda, fuqarolarning tinchligini, ularning munosib hayot kechirishini ta'minlash, buning uchun mamlakat xavfsizligini ta'minlash zarurati vujudga keldi. Mustaqillikdan so'ng qaysi yo'l bilan borishni aniqlab olish zarur bo'ldi, bu keyingi ishlarni to'g'ri hal qilishga asos bo'lardi.

Shuning uchun, O'zbekiston rahbariyati atrofda, xalqaro maydonda bo'layotgan voqealardan kelib chiqib, xalq xohish-irodasiga tayanib, mamlakatni demokratik yo'ldan rivojlantirish, demokratik mamlakatlarda e'tirof etilgan prinsiplarni qo'llash maqsadga muvofiqligini, demokratik davlat qurish yo'lini tanladi.

Buning uchun demokratik talablarga va prinsiplarga javob beradigan davlat hokimiyatini yo'lga qo'yish; bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodni tashkil etish; fuqarolar manfaatiga mos keluvchi fuqaro, jamiyat, davlat munosabatini o'rnatish, unda fuqaro manfaatlarining ustunligini ta'minlash, inson, uning huquqi, erkinligi, qadr-qimmati, sha'nini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish; mamlakatda yashovchi barcha millatlar manfaatlarini birdek ta'minlash; mamlakat xavfsizligini birday ta'minlashni nazarda tutuvchi tashqi siyosat olib borish mamlakatimiz oldidagi eng muhim vazifalar sifatida maydonga chiqdi.

Bu vazifaga erishishi uchun birinchi navbatda, huquqiy asosni yaratish, ularni huquqiy normalarda mustahkamlash zarurati paydo bo'ldi va shu vazifani bajarish uchun mamlakatimizda birinchi marta mustaqil konstitutsiya ishlab chiqishga zarurat tug'ildi.

Shunday qilib, konstitutsiya qabul qilish zarurati nima degan savolga, O'zbekiston mustaqilligi va ana shu tufayli vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurligidir, deb javob bersak xato bo'lmaydi.

2-§. Konstitutsiyaviy komissiya va uning faoliyati

O'zbekistonda yangi konstitutsiya ishlab chiqish g'oyasi mustaqillik e'lon qilinguncha, hali ittifoq mavjud vaqtdayoq vujudga kelgan edi. Shu davrdayoq yangi konstitutsiya qabul qilish uchun ma'lum sabablar, yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kela boshlagan edi. Jumladan, O'zbekistonda Prezidentlik instituti vujudga keldi, saylov tizimi o'zgartirilib, muqobil saylovlar o'tkazila boshlandi, markaz bilan Respublika munosabatida yangi holatlar vujudga keldi, kommunistik partiya hukmronligiga barham berildi.

Mustaqillik uchun qo'yilgan shahdam qadam sifatida e'tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi konstitutsiya yaratish uchun ham asos bo'ldi. Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengash sessiyasida shu hujjat prinsiplari asosida yangi konstitutsiya ishlab chiqish zarur degan xulosaga kelindi va Prezident I. Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun komissiya tuzildi. Bu ittifoq roziligisiz qilingan katta voqea edi. Komissiya keng vakillik xarakteriga ega bo'lib, uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, Toshkent shahri vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jalik rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Oliy Kengash o'ninchi sessiyasida komissiya tarkibi qisman o'zgartirildi.

1991-yil Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi kommisiyaning birinchi majlisi o'tkazilib, kommisiya a'zolari va yetakchi mutaxassislardan tashkil topgan, 32 kishidan iborat ishchi guruh tuzildi. Uning vazifasi sifatida loyiha tayyorlash bo'yicha barcha ishlarni muvofiqlashtirish belgilanib, konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash uchun 6 ta kichik guruhlar tashkil qilinib, ularning har biriga konstitutsiyaning muqaddimasini, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquq, erkinlik, burchlari, fuqaro va jamiyat, davlat tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi bo'limlarini tayyorlash yuklandi. Kichik guruhlar tarkibiga 50 nafar olimlar, ilmiy xodimlar, mutaxassislar jalb etildi.

Komissiya raisi ishchi guruh oldiga:

- konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasini o'rganish;

- boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik borasida qo'lga kiritgan yutuqlarini hisobga olish;

- keng xalq ommasi diliga yaqin va tushunarli bo'lgan siyosiy-huquqiy hujjat yaratish vazifasini qo'ydi[1].

Umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlar qoidalarini konstitutsiya normalariga singdirish masalasi ham komissiya oldiga vazifa qilib qo'yildi.

Komissiya va ishchi guruhiga jalb qilinganlar tarkibi yirik olimlar, huquqshunoslar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, davlat va jamiyat arboblaridan iborat bo'lib, ularning oldida mas'uliyatli, sharafli, shu bilan birga, o'ta murakkab va qiyin vazifa turar edi. Vazifaning qiyinligi shunda ediki, guruhlardagi hech kim avval shunday ish bilan shug'ullanmagan, ya'ni konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida ishtirok etmagan edi. To'g'ri, avval ham O'zbekiston tarixida uch marta konstitutsiya qabul qilingan edi, lekin ular markazda tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi andozasi asosida hech o'zgarishsiz tayyorlanib, qabul qilingan edi. Yangi tayyorlanayotgan loyiha esa, mutlaqo yangitdan, O'zbekiston uchun moslab tayyorlanishi kerak edi.

Komissiya va ishchi guruhlari komissiya Raisi oldilariga qo'ygan vazifani bajarishlari uchun davlat tuzilishi, boshqaruv shakli, taraqqiyot darajasi har xil bo'lgan bir necha davlatlarning konstitutsiyalarini, sobiq Ittifoqchi respublikalarda tayyorlanayotgan konstitutsiya loyihalarini, xalqaro hujjatlarni chuqur o'rganib, tahlil qilib chiqdi. Natijada xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalarining shakli, mazmuni haqida ma'lumot beruvchi qiyosiy jadval tayyorlandi. Tayyorlangan jadval komissiya raisi tomonidan o'rganib chiqildi va shu asosda loyihani tayyorlash bo'yicha foydali, asosli ko'rsatmalar berildi.

Komissiya raisi bo'lajak konstitutsiyada jahonda umume'tirof etilgan prinsiplar va g'oyalarga amal qilish bilan birga, unda o'zbek xalqining davlatchiligi, ajdodlarimiz g'oyalari, qadriyatlarimiz o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berdi. Shu tufayli Farobiy, Beruniy, Marg'inoniy, Ulug'bek asarlariga murojaat qilindi. Amir Temurning "Tuzuklar"i ko'rsatmalariga alohida e'tibor berildi. Uning adolat g'oyasi konstitutsiyaning maqsad va mazmuniga singdirildi.

---

1 Qarang: Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.3. – T.: Sharq, 2000. – 39-bet.

Konstitutsiya loyihasini ishlovchi komissiya Raisi loyiha konsepsiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berdi, chunki konsepsiya konstitutsiyaning qanday bo'lishini belgilashda muhim asos bo'lishi tajribadan ma'lum. Konstitutsiyani muqobillik asosida yaratilishining ahamiyati kuchli bo'ldi, Fanlar akademiyasining Falsafa va huquq instituti, Siyosatshunoslik va boshqaruv instituti, Prezident devonining yuridik bo'limi tomonidan uchta konsepsiya yaratilib, uchinchi konsepsiya asos sifatida olindi va boshqa ikki konsepsiyadagi ahamiyatli, muhim g'oyalar bilan boyitilib, yagona konsepsiya shakllantirildi va u asosida loyiha tayorlashga kirishildi[1].

Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991-yil noyabrda tayyorlab bo'lindi. 1991-yil 31-avgustda Respublikamizda Mustaqillik e'lon qilindi. Ittifoq davrida boshlangan ishning dastlabki varianti mustaqillik davrida tugallandi. U muqaddima, 6 bo'lim va 158 moddadan iborat edi. O'zbekistonning mustaqilikka erishishi, loyiha ustida ishlashni yanada jonlantirib yubordi. Konstitutsiyada siyosiy, iqtisodiy mustaqillik o'z aksini topishi kerak edi. Shular asosida loyiha takomillashtirilib, 1992-yil bahorida 149-moddadan iborat ikkinchi variant tayyorlandi.

1992-yil bahorida bo'lib o'tgan komissiya yig'ilishida konstitutsiya loyihasini uzil-kesil ishlab chiqish uchun 25 kishidan iborat yangi ishchi guruhi tuzilib, uning oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- O'zbekistonning demografik va ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, uning taraqqiyot tajribasini, turli ijtimoiy guruhlar madaniy-ma'rifiy markazlari hamda mulohaza va takliflarini umumlashtirish;
- Konstitutsiyaviy komissiya a'zolaridan tushgan takliflarni ko'rib chiqish va loyihaga o'zgartirish kiritish.

Ishchi guruh a'zolari shu vazifalar ustida ish olib bordilar, natijada loyihaning yanada pishiq varianti vujudga keldi.

1 Qarang: Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.2. – T.: Sharq, 2000. – 59-bet.

3-§. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi va uning qabul qilinishi

Konstitutsiya loyihasi muhokamasi bir necha bosqichda bo'lib o'tdi. **Birinchi bosqich** – bu loyiha tayyorlovchi komissiya majlisida, ishchi guruhlarda bo'lgan muhokama. Bunda muhokamaga mutaxassislar, ekspertlar jalb qilindi. Ularda konstitutsiya tuzilishi, tartibga solish doiralari aniqlab olindi.

Muhokamaning **ikkinchi bosqichi** umumxalq muhokamasi bo'lib, bu xususida alohida to'xtalamiz.

Uchinchi bosqich Oliy Kengash komissiyalari va sessiyasida deputatlar muhokamasi.

Tayyorlangan loyiha Komissiya qaroriga asosan 1992-yil 26-sentabrda ommaviy axborot vositalarida umumxalq muhokamasiga e'lon qilindi.

Umumxalq muhokamasi o'tgan davr shu vaqtda aholining faolligi kuchaygan davrga to'g'ri kelganligi bilan xarakterlanadi. Ittifoqning tarqalib ketishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi xalqning faolligiga ijobiy ta'sir qildi. Demokratik o'zgarishlardan ta'sirlangan fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etish orqali muhim masalalarga ta'sir qilish ishtiyoqi shu vaqtda, ayniqsa, kuchaydi.

Qo'rquvlardan, totalitar tuzum ta'qibidan xalos bo'lgan xalq o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ommaviy axborot vositalarida, yig'ilishlarda har xil fikrlar bayon qilishga keng imkoniyat yaratildi. Loyiha bo'yicha ko'plab takliflar tushdi. Shular asosida loyiha qayta ishlanib, takomillashgan loyiha 1992-yil 21-noyabrda ikkinchi marta umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

Mamlakatimizda konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi ikki bosqichda o'tkazilganligi, birinchi bosqich muhokamasi asosida tushgan taklif va tavsiyalar asosida loyiha takomillashtirilib, yana qayta muhokamaga qo'yilganligini, jahon konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasida yangi holat desa ham bo'ladi. Chunki, shu vaqtgacha, konstitutsiyaviy loyihalar bir bosqichda o'tkazilib kelinar edi. Bu tajriba konstitutsiyaning yanada pishiq, puxta bo'lishini ta'minladi.

Konstitutsiyaning umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif, tavsiya va mulohazalar bildirildi. Loyihani ishlovchi komissiyaning o'ziga bevosita mingdan ziyod xatlar kelib tushdi.

Muhokama natijasida tushgan takliflarda ayrim normalarni o'zgartirish, qo'shimcha qoidalar kiritish, moddalarni to'ldirish, Konstitutsiyaviy normalarni aniq ifodalash, ular ommaga tushunarli tilda bo'lishi haqida mulohaza va tavsiyalar bildirildi. Takliflar asosida loyiha matnining deyarli yarmi o'zgarishga uchradi, ularga aniqliklar kiritildi. Loyihadagi 127 moddadan deyarli 60 tasi tuzatishlarga uchradi, ularning normalariga aniqliklar kiritildi. E'lon qilingan loyiha variantidan 4 ta modda umuman chiqarib tashlandi.

Takliflar konstitutsiyaning deyarli barcha holatlariga taalluqli bo'ldi.

Umumxalq muhokamasi natijasida tushgan takliflarga komissiya Raisi, ayniqsa, katta e'tibor bilan qaradi[1].

Umumxalq muhokamasi nafaqat Konstitutsiyani takomillashtirishga xizmat qildi, u Prezident ta'riflaganidek, xalq irodasini bevosita aniqlash, muhokama natijasida to'plangan juda boy materiallarni har tomonlama va chuqur o'rganib, tahlil qilib, uni mujassam davlat irodasi sifatida Asosiy qonunda ifodalash imkonini berdi[2].

Umumxalq muhokamasi O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlarning umummaqsad yo'lida birligini namoyon qildi. Xalqimiz siyosiy sharoitlarni to'g'ri baholay olish qobiliyatiga ega ekanligi, tinch-totuv yashash uning orzusi ekanligi, siyosiy-huquqiy bilimlari, qarashlari hech bir xalqnikidan kam emasligi muhokama natijasida yanada yaqqol ko'rindi.

Loyiha har tomonlama o'ylab, takomillashtirilgandan so'ng, Konstitutsiyaviy komissiya 1992-yil 7-dekabrda bo'lib o'tgan majlisida uni ko'rib chiqishni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi

---

1 Prezidentning umumxalq muhokamasi natijalari ustida ishlash faoliyati va loyihani takomillashtirish ishlari bo'yicha faoliyati haqida batafsil qarang: Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.3. – T.: Sharq, 2000. – 57–67-betlar.

2 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1992. – 37-bet.

sessiyasiga kiritish haqida qaror qabul qildi. Komissiyaning ushbu oxirgi majlisida ham Rais taklifi bilan loyihaning ko'plab normalari takomillashtirildi.

1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasi bo'lib o'tdi. Bu sessiya tarixiy sessiya bo'lib, tarixiy ahamiyatga ega masalani muhokama qildi. Sessiyada Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya raisi I. Karimov ma'ruza qildi. Ma'ruzada Konstitutsiya loyihasi batafsil bayon qilib berildi. Shundan so'ng Konstitutsiya loyihasi deputatlar muhokamasidan o'tdi. Sessiyada loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha, aniqliklar kiritildi. Ayrim takliflar asosli tarzda rad etildi.

Loyihaning har bir moddasi, bobi, bo'limlari alohida-alohida muhokama qilinib, tegishli asosli takliflar inobatga olinib, o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng, qabul qilinish uchun ovozga qo'yildi. Deputatlar yakdillik bilan muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.

Asosiy qonunimiz xalqimiz irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki, uni ishlab chiqishda va muhokama qilishda butun xalq ishtirok etdi. "Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz xalqimiz tafakkuri va irodasining mahsulidir"[1], degan so'zlar bilan Konstitutsiyamizga ham, uni vujudga keltirgan xalqimiz ongiga ham aniq ta'rif berilgan.

Konstitutsiyamiz davlatchiligimiz tarixida qabul qilingan eng demokratik Konstitutsiya bo'ldi. Unda birinchi marta shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarda birinchi marta shaxs ustuvorligi, shaxs, uning huquqi, qadr-qimmati, sha'ni oliy qadriyat sifatida belgilandi, shaxsning yashash huquqi asosiy huquq sifatida mustahkamlab qo'yildi. Davlat mas'uliyatlari aniq ko'rsatib qo'yildi. Iqtisodiyot bozor munosabatlari tamoyillari asosida mustahkamlanishi belgilandi. Konstitutsiya asosida ko'ppartiyaviylik, fikrlar xilma-xilligi belgilandi. Hokimiyatni tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi mustahkamlandi. Fuqarolik jamiyati asosi sifatida o'zini o'zi boshqarish organlari mavqei konstitutsiyaviy darajada belgilandi.

1 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 93-bet.

4-§. Konstitutsiyada jahon konstitutsiyaviy tajribalari va milliy qadriyatlarning aks etishi

Konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasi xalqaro ahamiyatga ega. Konstitutsiyalar qaysi mamlakatda qabul qilinmasin, jahon tajribasidan foydalaniladi. Chunki, ular uzoq vaqtda qo'lga kiritilgan va hayot tajribasidan o'tgan, xalqlar qaysi millatlarga, dinga mansub bo'lmasin, ko'pchilik manfaatiga mos tushuvchi tamoyillar, tartiblar, qoidalarga tayanadi.

Jahon konstitutsiyaviy tajribalaridan foydalanish deganda, demokratik mamlakatlarda amal qilayotgan, taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilayotgan qoidalarni qo'llash tushuniladi.

Konstitutsiyamizda jahon tajribasidan foydalanganimiz quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchi. Inson va davlat munosabatlarini belgilashda. O'zbekistonda qabul qilingan barcha Konstitutsiyalarda (1927, 1937, 1978-yillar) davlat manfaatlari ustunligi belgilangan edi. Jahondagi demokratik mamlakatlar tajribasida va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda inson manfaati yuqori turishi, buni amalga oshirish uchun davlatning aniq majburiyatlari belgilangan edi. Shu g'oya Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi. U huquqiy jihatdan "Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" (2-modda), "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" (13-modda), "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" (43-modda), degan qator moddalarda mustahkamlangan.

Ikkinchi. Insonning asosiy huquq va erkinliklarini belgilash jahon tajribasidan kelib chiqib amalga oshirildi. Insonning asosiy huquqlari, avvalo, shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar guruhlariga bo'lib mustahkamlandi. Shaxsiy huquqlar qatoriga tabiiy huquqlar kiritilib, ularni ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oldi. Konstitutsiya shaxsning asosiy huquqlarini belgilabgina qolmay, ularni ro'yobga chiqarish, himoya qilish, ta'minlash mas'uliyatini

ham mustahkamlab qo'ydi. Bunga "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega" (35-modda), "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi" (44-modda), degan Konstitutsiya normalarini misol qilish mumkin.

Konstitutsiyada mustahkamlangan asosiy huquqlar doirasi kengaytirildi, yashash huquqi (24-modda), jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi, ayblanuvchiga himoyalanish huquqi kafolatlanishi, hech kim qiynoqqa solinmasligi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi, hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazish mumkin emasligi (26-modda), axborot olish, izlash, tarqatish (29-modda), mulkdor bo'lish (36-modda), tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi (53-modda) va boshqa huquqlar asosiy huquq sifatida belgilandi.

Bozor munosabatlaridan kelib chiqib fuqarolarning belgilangan soliq va yig'imlarni to'lash burchi (51-modda) kiritilib, shaxsni kamsituvchi ilgari asosiy burch hisoblangan burchlar chiqarib tashlandi va majburiy mehnat taqiqlanishi mustahkamlab qo'yildi (37-modda).

Uchinchi. Davlat hokimiyatini tashkil qilishda, jahon tajribasiga murojaat qilindi. Shu tufayli barcha demokratik mamlakatlarda hokimiyatni tashkil qilishda qo'llanilib kelayotgan prinsip – davlat hokimiyati tizimi, qonunchilik, ijro va sud hokimiyatining bo'linishi prinsipi Konstitutsiyada mustahkamlandi (11-modda).

Shunga asosan, qonunchilik, ijro va sud hokimiyatini amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari aniq tarzda belgilandi. Ularning mustaqilligini ta'minlovchi, bir-birini tiyib turishini mustahkamlovchi normalar kiritildi.

To'rtinchi. Iqtisodni bozor munosabatlari asosida tashkil qilish masalasida ham jahon konstitutsiyaviy tajribasiga murojaat qilish

zaruriyatini tug'dirdi. Shu asosda Konstitutsiyamizda unga taalluqli masalalar mustahkamlandi. Konstitutsiyaning 53-moddasida bu quyidagicha bayon qilingan: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina mulkdan mahrum etilishi mumkin".

Xususiy mulk daxlsizligining o'rnatilishi, uning davlat himoyasida bo'lishi fuqarolarning moddiy turmushi farovon bo'lishiga olib keladi.

Beshinchi. Konstitutsiya Asosiy qonun ekan, unga amal qilish va muhofaza qilishda ham alohida vositalar va tartib bo'lishi shart. Konstitutsiya o'zini muhofaza qilishni ham jahon tajribasidan kelib chiqib hal qilgan. Uning 93-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: ...O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir", deb belgilangan. 92-moddada Prezident Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilishga qasamyod qilishi belgilangan.

Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligi mustahkamlandi. Shu tizimga kiruvchi Konstitutsiyaviy sudga, Konstitutsiyani himoya qilish vazifasi yuklandi. Konstitutsiyaning 108-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi", – deb belgilangan bo'lsa, 109-moddasida ushbu vazifa va vakolatlar yanada kengroq va aniqroq mustahkamlab qo'yilgan.

Oltinchi. Konstitutsiyamiz sotsialistik tuzumda vujudga kelgan, uning ta'siri hisoblangan yakka partiya (kommunistik partiya) hukmronligiga barham berib, jahon demokratik davlatchiligi tarixida qo'llanilib kelinayotgan ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishini, bironbir mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasli-

gini mustahkamladi va ko'ppartiyaviylikka asos soldi (12-modda). Turli fikrlilik Konstitutsiyaning 34-moddasi normalari bilan yanada kengaytirildi. Unga asosan "siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligi mustahkamlab qo'yildi.

Shuning uchun ham "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi eng demokratik, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan me'yor va talablarga javob beradi"[1].

Konstitutsiyamiz jahon konstitutsiyaviy tajribasiga tayanib, undagi eng ijobiy jihatlarni o'zida aks ettiradi, u milliy qonunchiligimiz asosi, mustaqil davlatchiligimizning asosiy qonunidir. Buni Prezidentning: *"..har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi"*[2], degan so'zlari ham ko'rsatib turibdi. Shuning uchun Konstitutsiyamizda uning o'ziga xos jihatlari ham bo'lishi tabiiydir. Konstitutsiyamizning o'ziga xos jihatlari, eng avvalo, unda tarixiy davlatchiligimiz tajribasi va milliy qadriyatlarimiz aks etganligi va Konstitutsiyaga milliy ma'naviyatimiz, madaniyatimiz, axloqimiz singdirilganligidan kelib chiqadi.

Konstitutsiyamizda davlat o'z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida olib borishining belgilanganishi (14-modda) o'zbek davlatchiligi adolatga tayanishi, uni ro'yobga chiqarishga intilish an'ana bo'lib qolganligidandir.

Davlat boshqaruvida mahalliy miqyosda hokim instituti mustahkamlanganligi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvida mahalla asosiy makon deb olinishi, tarixiy davlatchilik tajribasiga murojaat qilinganligidan dalolat beradi (99, 101, 102, 103, 104, 105-moddalar).

Oila munosabatlarining Konstitutsiyada belgilanishi ham qadriyatlarimizni asrab-avaylashga qaratilgan maqsad ifodasidir. Konstitutsiyamizda bitta bob (XIV bob) "Oila" deb nomlangan. Kons-

1 Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997. – 107-bet.

2 Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –T.: O'zbekiston, 1992. – 36-bet.

titutsiyaning tegishli moddalarida oila, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi, voyaga yetgunga qadar farzandlarni tarbiyalash va boqishdagi ota-ona majburiyati, voyaga yetgan farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyati belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, Konstitutsiya qabul qilinishida o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilganlik va ijtimoiy adolatga sadoqatni namoyon qilish Konstitutsiya muqaddimasida bayon qilingan.

5-§. Konstitutsiyaning tuzilishi

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. Shuning uchun u o'ziga xos tuzilishga ega. Konstitutsiya tuzilishi Konstitutsiyada o'z o'rnini topadigan normalarning maqsad va vazifalariga qarab turkumlash va ularning ahamiyatiga qarab ketma-ketlikda joylashuvidir.

O'zbekiston Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Muqaddima – Konstitutsiyaning kirish qismi bo'lib, unda bosib o'tilgan yo'l va mamlakatning asosiy vazifalari, ya'ni nima uchun Konstitutsiya qabul qilinganligi bayon qilinadi. Undagi qoida va g'oyalar keyinchalik Konstitutsiya normalarida u yoki bu shaklda, ko'rinishda o'z o'rnini topadi.

Konstitutsiyaning birinchi bo'limi "Asosiy prinsiplar" deb atalib, u "Davlat suvereniteti", "Xalq hokimiyatchiligi", "Konstitutsiya va qonunning ustunligi", "Tashqi siyosat" boblariga ajratilgan. Umuman, Konstitutsiya normalarini asos deb e'tirof etsak, birinchi bo'lim asoslarning asosidir. Har qanday mamlakatni mustaqil davlat deyish uchun u aniq davlat shakliga, davlat suverenitetiga, uni xarakterlovchi belgi, xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ayni shu masala birinchi bobda belgilangan.

Davlatning yashashi, faoliyat ko'rsatishi uchun eng muhim masalalardan biri hokimiyat masalasidir. Davlat hokimiyati bu yerda markaziy o'rinni egallaydi. Xalq esa, davlat hokimiyatining yagona manbai bo'lib maydonga chiqadi. Hokimiyat Konstitutsiyaning eng asosiy masalasidir, desak fikrimiz uncha to'liq bo'lmaydi.

Konstitutsiyada hokimiyat va erkinlik masalasi asosiy o'rinni egallaydi, desak fikrimiz to'liq bo'ladi. Chunki, jamiyatning asosiy elementi shaxslardir. Ularning mavqei Konstitutsiyaning shu bobida belgilanadi.

Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi ta'minlanmay turib, Konstitutsiyaviy tuzum, huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolar manfaatini himoya qilish mumkin emas, shuning uchun ham mazkur munosabatlar Konstitutsiyaning III bobida mustahkamlangan.

Biron-bir davlat alohida, tashqi dunyodan ajralgan holda faoliyat ko'rsata olmaydi. Mamlakat rivoji, xavfsizligi, fuqarolar turmush sharoiti, tashqi aloqalarni to'g'ri o'rnatishga bog'liq. Shuning uchun Konstitutsiyamizning IV bobi normalarida ishonchli sinovlardan o'tgan tashqi siyosat prinsiplari mustahkamlangan.

Konstitutsiyamizning birinchi bo'limida mustahkamlangan normalar bevosita Konstitutsiyaviy tuzumga taalluqli bo'lib, ular Konstitutsiyaviy tuzum asoslarini o'rnatgan va Konstitutsiyaning keyingi bo'lim, boblaridagi normalarning belgilanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, 13-moddaning ta'sirini "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" bo'limidagi normalarda, Konstitutsiyaning 11-moddasi ta'sirini "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" bo'limida ko'rish mumkin. Shuning uchun ham Konstitutsiyaning birinchi bo'lim normalari asos normalar yoki asosiy prinsiplar mustahkamlangan normalar deyiladi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanib, ular shaxsning huquqiy holatiga taalluqli bo'lganligi uchun "Asosiy prinsiplar" bo'limidan keyin berilgan. Ikkinchi bo'limning umumiy qoidalari bobida fuqarolarning qonun oldida tengligi, davlat va fuqaroning birbiriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi, huquq va erkinliklar daxlsizligi, ulardan sud qarorisiz mahrum etish yoki cheklashga hech kimning haqqi yo'qligi; "Fuqarolik" bobida fuqarolikka ega bo'lish asoslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolarining huquqlari belgilangan. Konstitutsiyaning alohida-alohida boblarida fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari va erkinliklari hamda huquq va erkinliklarining kafolatlari va fuqarolarning burchlari belgilangan.

Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi "Jamiyat va shaxs" deb nomlangan. Uning boblarida jamiyatning iqtisodiy negizlari, ya'ni O'zbekistonda bozor munosabatlari o'rnatilishi, iqtisodiyotning negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi, xususiy mulk daxlsiz ekanligi, u davlat himoyasida bo'lishi, iste'molchi huquqi ustuvorligi, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat faoliyati erkinligi, umummilliy boyliklar doirasi va ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish belgilangan. "Jamoat birlashmalari" bobida jamoat birlashmalari tizimi (turlari), qanday jamoat birlashmalari tuzish mumkin ekanligi, davlat va jamoat birlashmalari o'zaro munosabatlarining huquqiy asoslari, siyosiy partiya va kasaba uyushmalarining asosiy vazifalari, jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish yoki faoliyatini cheklash tartibi, dinga munosabat tartibga solingan. To'rtinchi bo'lim "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi" deb nomlangan, unda mamlakatimiz ma'muriy-hududiy tuzilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati alohida-alohida boblarda belgilangan.

Konstitutsiyaning eng yirik beshinchi bo'limi "Davlat hokimiyatini tashkil etish" deb nomlangan va u XVIII–XXVI boblarni o'z ichiga olgan.

"O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi" (XVIII bob), "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti" (XIX bob) boblarida ularni saylash tartibi, vakolatlari, o'zaro munosabatlari asoslari belgilangan. "Vazirlar Mahkamasi" (XX) bobida, "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" (XXI) bobida, "O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati" (XXII) bobida tegishli organlarni tashkil etish tartibi, prinsiplari, vazifalari, sud hokimiyati, mahalliy hokimiyat tizimi mustahkamlanib qo'yilgan. XXIII bob O'zbekistonning saylov tizimi, fuqarolarning saylov huquqi prinsiplarini o'rnatgan bo'lsa, XXIV bob Prokuratura organlarining Konstitutsiyaviy maqomini belgilaydi. Konstitutsiyaning XXV bobi moliya va kredit masalalarini, XXVI bobi mudofaa va xavfsizlik masalalarini belgilagan.

Konstitutsiyaning oxirgi oltinchi bo'limi (u boblarga bo'linmagan, faqat ikki moddadan iborat) "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi"ga bag'ishlanadi.

6-§. Konstitutsiyamizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati va tartibi

Jamiyat rivoji, barqarorligi konstitutsiyaga, uning barqarorligiga bog'liq. Konstitutsiya, avval qayd qilganimizdek, eng muhim va asos hisoblanuvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlar boshqa munosabatlarga nisbatan barqaror, uzoq yashovchi, tez-tez o'zgarishga muhtoj bo'lmagan munosabatlar hisoblanadi. Shuning uchun ham konstitutsiyalar boshqa qonunlarga nisbatan kam o'zgarishlarga uchraydigan qonundir.

Lekin, hayot doimo o'zgarishga, ilgari yurishga moyil ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ijtimoiy munosabatlar ham o'zgaradi, ularni yangicha tartibga solish zarurati, turli davrdagi sharoitning xilma-xilligi konstitutsiyaga ham o'zgartirish kiritish zaruratini vujudga keltiradi.

O'zbekistonning rivojlanishi, unda olib borilayotgan islohotlar, albatta, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida olib borilayotgan islohotlar esa, hokimiyat tuzilmalari tarkibi, faoliyatini takomillashtirish, hokimiyat tizimi bo'linishi prinsipini yanada chuqurlashtirish, uning natijasida vakolatlarni yanada aniq belgilash zaruriyatini tug'dirmoqda. Demokratik jarayonlarning chuqurlashuvi, erkinlashtirish siyosati davlat boshlig'i maqomida o'zgarishlar bo'lishini, uning davlat boshlig'i sifatidagi maqomini kuchaytirib, ijro hokimiyati tarkibidan chiqarishni, ayrim vakolatlarni Parlamentga, hukumatga o'tkazish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Jamiyatda siyosiy hayotning rivojlanishi shu jarayonda ishtirok etuvchilarning faolligiga bog'liq, bu avvalo, siyosiy partiyalar rolini oshirishni taqozo etadi. Bu ham Konstitutsiyaga tegishli o'zgartirishlar kiritishni taqozo qildi. Demokratik talablarni belgilash, jahon davlatchiligi tajribasidagi ijobiy jihatlarni olishga intilish ham konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritilishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ham shu asosda amalga oshirildi.

Konstitutsiyaga birinchi o'zgartirish 1993-yilda amalga oshirilib, unga asosan Oliy Kengash deputatlarining soni 150 bo'lishi

haqidagi norma chiqarib tashlandi va qonunlarda deputatlar soni 250 ta bo'lishi belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyamizga eng katta va salmoqli o'zgartirish 2003-yil 24-aprelda kiritildi. Buning asosi va sababi 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum natijalari bo'ldi. Referendum natijasida xalq parlamentning ikki palatali bo'lishi va Prezident vakolatini 5 yildan 7 yilga o'zgartirishni ma'qulladi. Shu asosda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi[1]. Qonunning birinchi moddasida: "Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga o'zgartirish kiritish uchun asos bo'ladi", – deb mustahkamlab qo'yildi.

Shu asosda Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ularning natijasida, "Prezident bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasi Raisi bo'ladi", – degan qoida bekor qilindi, uning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga o'zgartirildi, ayrim vakolatlari Senatga o'tkazildi;

- parlament ikki palatali tizimda (quyi va yuqori palata) tashkil qilindi. Senatni shakllantirish tartibi, uning vakolatlari, Qonunchilik palatasi vakolatlari, ularning birgalikdagi vakolatlari mustahkamlandi;

- Vazirlar Mahkamasini shakllantirish, uning ishida Prezident ishtiroki masalalari yangicha hal qilindi;

- saylov tizimiga saylovlarni o'tkazish muddatini aniq belgilash, saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qilish instituti, Senat a'zolarini saylash tartibi (pog'onali saylov) belgilanishi bilan qo'shimchalar kiritildi.

2007-yil 11-aprelda Prezident tomonidan imzolangan va 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning[2] birinchi moddasida Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tuzatishlar kiritish

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 4–5-son, 60-modda.
2 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007, – 322-bet.

uchun asos bo'lishi mustahkamlab qo'yildi. Shuning asosida 2007-yil 11-apreldagi qonun bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritildi.

Ularga asosan, Prezidentning ijro hokimiyatiga boshchilik qilishi bekor qilinib, "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi", – deb belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyaviy qonunda viloyat hokimlarini tayinlash tartibi o'zgartirildi, bunda siyosiy partiyalarning, mahalliy vakillik organlaridagi guruhlari ishtiroki ko'zda tutildi. Shu holat ham Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishga sabab bo'ldi. O'zgartirishga asosan, viloyat, Toshkent shahar hokimlarini tayinlash tartibi, avvalgidek, Konstitutsiyada emas, qonunda belgilandi va Konstitutsiyada ularni lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish qonunga muvofiq amalga oshirilishi havola sifatida ko'rsatib qo'yildi.

2008-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining qabul qilinishi Konstitutsiyaga kiritilgan navbatdagi o'zgartirish va qo'shimchalarga asos bo'ldi. Ushbu o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lib, uning deputatlari soni 120 tadan 150 taga ko'paytirildi. Ularning 15 tasi O'zbekiston Ekologik harakati tomonidan saylanishi belgilangan.

2010-yil 12-noyabrdagi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida Prezident "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"[1] mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada Konstitutsiyaga anchagina o'zgartirish kiritish takliflari bayon qilindi.

Natijada Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 4-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2011-yil 25-martda ma'qullangan

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.

va 2011-yil 18-aprelda Prezident tomonidan imzolangan qonunga asosan Konstitutsiyaga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi.

Konstitutsiyaning 78-moddasi birinchi qismining 15-bandi "...shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish" degan so'zlar bilan to'ldirildi. 80-moddaning 6-bandidagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va" degan so'zlardan keyin "uning o'rinbosarlarini" degan so'zlar chiqarilib, "Hisob palatasi raisini" degan so'zlar bilan to'ldirildi. 93-modda birinchi qismining 8-bandidagi "ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi" degan so'zlar chiqarib tashlandi, 12-bandidagi "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va" degan so'zlardan keyin "uning o'rinbosarlari" degan so'zlar chiqarib tashlanib, "Hisob palatasi raisini" degan so'zlar bilan to'ldirildi. 15-bandiga "viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi" degan so'zlardan oldin "O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan" degan so'zlar kiritildi. 16-bandi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli" degan so'zlar bilan to'ldirildi. Prezidentning bu vakolati avval Konstitutsiyaning 98-moddasida ko'zda tutilgan edi. Endi bu qoida shu moddadan chiqarildi.

Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish asosida uning 96-moddasi quyidagicha bayon etildi: "O'zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi".

Konstitutsiyaning 98-moddasi mutlaqo yangi tahrirda bayon qilinib, u quyidagicha yangi holatlarni qayd qildi: "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p

deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Qonunchilik palatasi qabul qilgan va 2011-yil 5-dekabrda Senat ma'qullagan qonunga asosan Konstitutsiyaning 90-moddasiga o'zgartirish kiritildi va unga asosan Prezidentning vakolat muddati 7 yildan 5 yilga o'zgartirildi. Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartirishlarning ahamiyati, maqsadi, mazmun-mohiyati haqida keyingi boblarda kengroq to'xtalamiz.

Konstitutsiya asosiy qonun bo'lganligi uchun, unga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish alohida tartibda amalga oshirilishi Konstitutsiyaning o'zida belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning oltinchi bo'limi "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi" deb nomlangan va u ikki (127, 128-moddalar) moddadan iborat.

127-moddaga binoan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun asosida yoki referendum orqali kiritiladi. Oliy Majlisda oddiy qonunlarga o'zgartirish kiritish uchun oddiy ko'pchilik ovoz bo'lishi talab qilingan bo'lsa, Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish uchun kamida uchdan ikki qism deputatlar va senatorlar yoqlab ovoz berishi kerak.

Konstitutsiyamizning 128-moddasi o'zgartirish kiritish tartibini kengroq mustahkamlagan, unga asosan, Konstitutsiyaga o'zgartirish taklifi Oliy Majlisga kiritilgandan so'ng, 6 oy mobaynida o'zgartirish kiritish haqidagi taklif keng muhokama qilinib, so'ng qaror qabul qilinishi mumkin. Agar Oliy Majlis o'zgartirish kiritish taklifini rad etsa, bunday taklif bir yil muddatdan so'ng qayta kiritilishi mumkin.

Ayrim mamlakatlarda Konstitutsiyani o'zgartirishning yanada murakkabroq tartibi belgilangan. Rossiya Konstitutsiyasida kimlar Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish haqida taklif bilan chiqish huquqiga egaligi maxsus moddada (134 modda) ko'rsatilgan. Rossiya Konstitutsiyasining 135-moddasida, Konstitutsiyaning 1, 2, 3-boblari qoidalarini qayta ko'rish (o'zgartirish kiritish) mumkin emasligi belgilangan. Bular: "Konstitutsiyaviy tuzum asoslari", "Inson huquq va erkinliklari", "Konstitutsiyaga o'zgartirish va qayta ko'rish" boblaridir.

135-moddaning ikkinchi bandida agar Konstitutsiyaning shu boblariga o'zgartirish kiritishni, Federal Kengash (yuqori palata), va Davlat Dumasi (quyi palata) a'zolarining beshdan uch qismi qo'llasa, Konstitutsiyaviy qonunga binoan, Konstitutsiyaviy kengash chaqiriladi. Konstitutsiyaviy Kengash yo Konstitutsiyani o'zgartirmaslikni,

yo yangi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishni hal qiladi. Bu loyiha Konstitutsiyaviy Kengash a'zolarining uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi yoki umumxalq ovoziga qo'yiladi. Referendumda yarimdan ko'p saylovchilar ishtirok etib, ovoz berishda ishtirok etganlarning yarmidan ko'pi ovozi bilan ma'qullansa, Konstitutsiya qabul qilingan hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishiga qanday sabablar ta'sir qildi?

2. Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya qanday faoliyat ko'rsatgan?

3. Komissiya Raisi loyiha ishlovchilariga qanday vazifalarni qo'ygan?

4. Konstitutsiya loyihasi qanday muhokama qilingan?

5. Konstitutsiyaning yaratilishida o'zbek xalqining roli qanday?

6. Konstitutsiyani ishlab chiqishda milliy qadriyatlardan qanday foydalanilgan?

7. Konstitutsiyaning yaratilishida jahon konstitutsiyaviy tajribasidan qanday foydalanilgan?

8. O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi qanday?

9. Konstitutsiyaga nima uchun o'zgartirish, qo'shimchalar kiritiladi, uning tartibi qanday?

IKKINCHI BO'LIM

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYAVIY TUZUMI PRINSIPLARI

IV bob. Davlat suvereniteti va uning konstitutsiyaviy asoslari

1-§. Suverenitet tushunchasi

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi birinchi bo'limi "Asosiy prinsiplar" deb atalib, unda davlatning asoslari va konstitutsiyaviy tuzumning prinsiplari mustakamlangan. Mazkur bo'lim 4 ta bobining har biri alohida konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, ularning prinsiplarini mustahkamlagan. Shuning uchun "Davlat suvereniteti", "Xalq hokimiyatchiligi", "Konstitutsiya va qonunning ustunligi" va "Tashqi siyosat" konstitutsiyaning prinsiplari emas, konstitsiyaviy prinsiplar yoki boshqacha aytganda, davlating asoslari hisobalanib, ularning har biri ma'lum prinpsiplar asosida tashkil qilinadi. Bu prinsiplar esa, shu boblarning tegishli moddalarida mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning birinchi bo'limi 1-bobi "Davlat suvereniteti" deb atalgan. Davlat suvereniteti, ayrim mualliflar qayd qilganidek, prinsip emas, davlatning asosi (tayanchi) hisoblanuvchi davlat-huquqiy institutdir. Ya'ni, u prinsipdan keng, boshqacha qilib aytganda o'zining prinsiplariga ega. Prinsipni konstitutsiyaning birgina moddasida mustahkamlab qo'yish mumkin bo'lsa, masalan, davlat hokimiyati tizimining bo'linishi prinsipi (11-modda), davlat huquqiy institutlari bir nechta moddalarda mustahkamlanadi. "Davlat suvereniteti"ga taalluqli konstitutsiyaning 6 ta moddasi mavjud. Shunday qilib, suverenitet institut bo'lib, suverenitetni hurmat qilish esa, prinsip hisoblanadi.

Umuman, suverenitet atamasi baynalmilal so'z, atama, u fransuzcha so'zdan kelib chiqib, "oliy hokimiyat" degan ma'noni beradi. Suverenitet atamasi XVI asrdan beri shu ma'noda ishlatilib kelin-

moqda. Suverenitetning "oliy hokimiyat, mustaqillik" degan tushunchasi fransiyalik J. Boden tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib[1], u hozirgacha shu ma'noda barcha xalqlar davlatchiligida ishlatilib kelinadi. Ozodlik, mustaqillik uchun kurashlar "suverenitet" uchun kurash bilan mustahkamlanib, xalqaro ahamiyat kasb etgan.

Suverenitet so'zi davlat-huquqiy masalalarda xalqqa, millatga va davlatga nisbatan ishlatiladi. Davlat va mamlakat so'zlari ko'pincha aynan bir ma'noda ishlatilgani uchun davlat suverenitetini mamlakat suvereniteti deb ham tushunish mumkin. Bu yerda aynan mamlakat suvereniteti haqida gap ketib, u davlat suvereniteti orqali ifodalanadi.

Suverenitet – davlat hokimiyatining mamlakat ichkarisida oliyligi va davlatning tashqi munosabatlarda mustaqilligidir.

Davlat faqat haqiqiy suverenitetga ega bo'lgan taqdirdagina, xalqning rasmiy vakili sifatida xalq irodasini ifoda eta oladi va fuqarolarning huquqlarini, manfaatlarini to'la hajmda ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Aks holda O'zbekistonning sobiq Ittifoq tarkibidagi holati vujudga keladi. Shu paytda rasmiy suveren davlat hisoblanuvchi O'zbekiston 80-yillarning oxirida Ittifoq vakillarining zo'ravonliklaridan o'z fuqarolarini himoya qila olmagan.

Faqat O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'nggina haqiqiy davlat suverenitetiga tom ma'noda ega bo'ldi. Konstitutsiyamizning 1-moddasida "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" deb belgilanishi davlat suverenitetining huquqiy asosi hisoblanadi. 2-moddada davlat xalq irodasini ifoda etishi, 3-moddada, O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilashi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishi, davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasligining belgilanishi davlat suvereniteti real voqelik ekanligini ko'rsatadi. Hatto 4-moddada belgilangan mamlakatda davlat tili o'zbek tili ekanligi ham davlat suverenitetining amaliy ifodasidir.

Davlat suverenitetining muhim belgisi davlat hokimiyatining mamlakatning Konstitutsiyasi va qonunlaridan boshqa hech narsa

1 Bu haqda qarang: Azizxo'jaev A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: TDYuI, 2008. – 19-bet.

bilan cheklanmasligidir. Davlat suvereniteti o'rnatilgan mamlakat hududida boshqa hech qanday hokimiyat tuzilmalari bo'lmasligi kerak. Davlat suvereniteti amal qiladigan mustaqil davlatda qonuniy davlat organlarining hech qanday vakolatlariga boshqa hech qanday siyosiy va boshqa kuchlar tajovuz qilmasligi kerak.

Konstitutsiyaning 10-moddasida belgilanishicha O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emasligi davlat suverenitetining natijasidir.

Davlat suvereniteti mustaqil davlatning ajralmas xususiyati bo'lib, davlatning xalqaro huquq subyekti sifatidagi o'rnini belgilovchi shart hamdir.

O'zbekiston mustaqil mamlakat va davlat suverenitetiga ega bo'lganligi uning xalqaro munosabatlardagi teng asosda ishtirokini ta'minlaydi. O'zbekistonni BMTga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi, xalqaro shartnomalarda ishtirok etishi, shuningdek, xalqaro jarayonlarning rivojlanishiga ma'lum ta'sir qilishi davlat suverenitetiga egaligi sharofatidir.

Davlat suvereniteti, mamlakatning kelajagini belgilashda katta ahamiyatga ega. Mamlakat har jihatdan to'la mustaqil bo'lsagina, uni suverenitetga ega davlat hisoblash mumkin. Mustaqillik natijasida davlatning suverenitetga xos jihatlari namoyon bo'ladi.

1991-yil 31-avgustda respublikamiz o'z mustaqilligini e'lon qilgach, davlat suverenitetiga ega bo'ladi. Ya'ni, mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham (tashqi faoliyatda) hech kimning roziligisiz, ishtirokisiz, ko'rsatmasisiz har qanday masalalarni hal qilish imkoniyati tug'ildi. Bunga, eng avvalo, o'zimiz xohlagancha, o'zimizga mos va milliy an'analarimiz aks etgan konstitutsiyani qabul qilganimiz misol bo'ladi.

Konstitutsiya, eng avvalo, suverenitetning huquqiy asosi bo'lib, davlat suverenitetini qonuniy mustahkamladi. Konstitutsiyaning birinchi bobi "Davlat suvereniteti" deb atalishi ham suverenitetning O'zbekiston uchun ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "O'zbekiston – suveren demokratik Respublika" degan prinsip normani O'zbekistonning kelajak hayotini belgilovchi asos deyish mumkin. Bu qoida O'zbekistonning mustaqilligini o'rnatadi, mustaqillikning oliy maqsadi esa, eng avvalo, o'zbek xalqining izzatini joyiga qo'yishdir. Mustaqillik, suverenitet natijasida davlat faoliyatini yangicha qurish, xalq manfaati yo'lida xizmat qildirish imkoniyati vujudga keldi. Konstiutsiyaning 2-moddasida bu shunday ifodalanadi: "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar". Davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilishiga erishish demokratik jamiyat qurishda eng muhim shartdir.

Suverenitet natijasida O'zbekiston o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgiladi, ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish imkoniyati vujudga keldi (Konstiutsiyaning 3-moddasi). Ana shu imkoniyat tufayli O'zbekiston davlat boshqaruv shaklining demokratik ko'rinishi – respublika shaklini o'rnatdi. Davlat vakillik hokimiyati organlari tizimi: Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tizimini, sud hokimiyati tizimini, ijro hokimiyati tizimini o'rnatdi. Natijada birinchi marta sud hokimiyatning mustaqil tarmog'i sifatida e'tirof etildi.

Prezidentlik boshqaruv shakli qonuniy mustahkamlandi, mahalliy miqyosda "hokim" lavozimi joriy qilindi.

Keyingi vaqtlarda davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida erkinlashtirish siyosati olib borilayotganligi, Parlament institutining rivojlantirilganligi, ikki palatali parlamentga o'tilganligi, hukumatning vakolatlari kengayayotganligi, O'zbekistonning suverenitetga egaligi, uning natijasida ichki va tashqi masalalarni mustaqil hal qilish huquqiga egaligi natijasidir.

Mustaqillik va suverenitetning mazmun-mohiyati o'xshash bo'lsa-da, ular to'g'risida turli ta'riflar mavjud. Lekin eng lo'nda, ishonarli va tushunarli ta'rif Prezident tomonidan berilgan ta'rifdir. O'zbekiston Prezidenti mustaqillikni har tomonlama his qilgan holda "Mustaqillik bu huquqdir" deb ta'rif bergan. Haqiqatan ham, mustaqillik O'zbekistonga, uning xalqiga keng imkoniyatlar va va-

kolatlar berdi. Endigi masala ana shu vakolat va imkoniyatlardan to'g'ri, vaqtida foydalana bilish hisoblanadi.

2-§. O'zbekiston – Respublika shaklidagi davlat

Konstitutsiyaning 1-moddasida "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" deb qonuniy mustahkamlab qo'yilishi mamlakatimizni respublika shaklidagi davlat ekanligini ko'rsatadi.

Umuman dunyodagi barcha mamlakatlar, boshqaruv shakliga ko'ra, ikki turda bo'ladi, ya'ni ayrim mamlakatlar monarxiya boshqaruvida, ayrim mamlakatlar respublika boshqaruv shaklida mavjud. Boshqaruvning qaysi shaklini tanlash, shu asosda yashash mamlakatlar xalqlarining xohish-irodasiga bog'liq. Davlat boshqaruvining respublika shakli monarxiyaga nisbatan keyinroq vujudga kelgan bo'lib, ko'pincha monarxiya boshqaruv shakli xalq xohish-irodasiga to'g'ri kelmay qolgan, taraqqiyotga to'sqinlik qilgan paytlarda respublika shakliga o'zgartiriladi. Masalan, Fransiya, Eron, Italiya avval monarxiya davlati bo'lgan bo'lsa, hozir respublikadir. Bu degani boshqaruvning monarxiya shakli yomon (salbiy), respublika shakli yaxshi (ijobiy) degan xulosani keltirib chiqarmasligi kerak. Chunki, shunday monarxiya davlatlari borki, masalan, Angliya, Yaponiya, Gollandiya, Shvetsiya va hokazolar, ulardagi demokratiya respublika davlatlaridan kam emas.

Mamlakatni monarxiya yoki respublika shaklidagi boshqaruv deb hisoblashga eng birinchi va asosiy sabab, davlat boshlig'ining qanday yo'l bilan lavozimga kelishidir. Monarxiya davlatlarida monarx-davlat boshlig'i umrbodga avloddan-avlodga o'tish asosida lavozimga kelsa, respublika shaklidagi davlatlarda davlat boshlig'i faqat saylov orqali va ma'lum muddatga lavozimni egallaydi. Saylov har xil bo'lishi mumkin, prezidentlar ayrim mamlakatlarda umumxalq tomonidan, ayrim mamlakatlarda parlament tomonidan, ayrim mamlakatlarda maxsus tashkil qilinadigan organlar tomonidan saylanadi.

Prezidentni monarxdan farqi u saylagan xalq, organ oldida mas'uliyatli bo'ladi.

Davlat boshqaruv shaklida davlat boshlig'ining lavozimga kelishi usulidan tashqari, boshqa hokimiyat organlarining tashkil etilishi, shakllantirilishi va faoliyati shakllari, hokimiyat tuzilmalarining bir-biri bilan munosabati o'z xususiyatlariga ega. Ya'ni, ularga respublika yoki monarxiya shakli ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyotini respublika boshqaruv shaklida ko'rdi va respublika boshqaruv shaklini konstitutsiyada mustahkamladi.

Bu degani O'zbekistonda davlat boshlig'i Prezident bo'lib, u ma'lum muddatga, respublika fuqarolari tomonidan umumiy, to'g'ridan-to'g'ri, teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Respublika boshqaruv shaklining bir necha turlari mavjud, ayrim manbalarda uning ikki turi[1], ayrim manbalarda uch turi[2] ko'rsatiladi.

Haqiqatan ham, hozirgi davlatchilik tajribasida respublikaning uch turi prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika, respublikaning aralash shakli (yarim prezidentlik) uchrab turibdi.

Prezidentlik respublikasida prezident fuqarolar tomonidan saylanadi. Prezidentning yakka o'zi parlament ishtirokisiz hukumatni shakllantiradi (ayrim paytlarda hukumatni ham o'zi boshqaradi), hukumat faqat prezident oldida hisob beradi, parlament hukumatga ishonchsizlik votumi bildira olmaydi, prezident parlamentni tarqatish huquqiga ega bo'lmaydi, hukumat a'zolari bir vaqtning o'zida parlament a'zolari bo'la olmaydi. Bunga AQSh, Meksika davlatlarini misol qilish mumkin.

Parlamentar respublikalarda prezident parlament tomonidan saylanadi. Parlament saylovlarida eng ko'p ovoz olgan partiya rahbari hukumat boshlig'i lavozimini egallaydi va hukumatni tuzadi. Parlament hukumat faoliyati ustidan to'liq nazorat qiladi. Hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish mumkin. Bunday holda hukumat to'g'ridan-to'g'ri iste'foga chiqadi. Prezident hukumat taklifiga ko'ra parlamentni tarqatib yuborishi mumkin. Huku-

1 Qarang: Tadjixanov U. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. – T.: Sharq, 2001. 240-bet.

2 Qarang: Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации. Учебник. – М.: Норма, 1998. – С. 122–123.

mat a'zolari parlament a'zolari orasidan saylanib, parlamentdagi o'rnini ham saqlab qoladi. Bunday davlatlarga Italiya va Germaniyani ko'rsatish mumkin.

Respublikaning aralash shaklida (yarim prezidentlik) prezident fuqarolar tomonidan saylanadi, hukumatni o'zi shakllantiradi va hukumat unga hisob beradi. Parlament hukumatga ishonchsizlik votumi bildirishi mumkin. Prezident parlamentni tarqatib yuborishi mumkin. Hukumat a'zolari bir vaqtning o'zida parlament a'zosi bo'la olmaydi. Parlament hukumatni nazorat qilish vakolatiga, mexanizmiga ega bo'ladi.

Agar yuqoridagilarga e'tibor bersak, O'zbekistonda respublikaning aralash (yarim prezidentlik) shakli mavjud ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Chunki, Prezident aholi tomonidan saylanadi, hukumatni tuzishda prezident va Oliy Majlis ishtirok etadi, hukumat prezident va Oliy Majlis oldida javobgar. Hukumat faoliyatini Oliy Majlis nazorat qiladi, Oliy Majlis hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirishi mumkin. Prezident Oliy Majlis palatalarini tarqatib yuborishga haqli.

Dunyodagi barcha mamtakatlar o'z davlat boshqaruv shaklini belgilar ekan, albatta, shu boshqaruv shakli xalq irodasiga mos bo'lishini nazarda tutadi, tarixiy an'analarni hisobga oladi, jahon tajribalaridan foydalanadi.

O'zbekistonda keyingi vaqtlarda erkinlashtirish doirasida amalga oshirilgan islohotlar, davlat boshqaruv shaklining mukammal bo'lishiga, demokratik prinsiplarga mos tushishiga ta'sir qildi. Prezident, parlament, hukumat vakolatlarining qayta taqsimlanishi, ular o'rtasidagi aloqalarning chuqurlashuvi boshqaruv shaklining mukammallashuviga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan paytdan to hozirgacha bo'lgan davrda prezident maqomining o'zgarib borayotganligi, uning vakolatlari parlament va hukumatga o'tib borayotganligi, demokratlashtirishning chuqurlashib borayotganini bildiradi.

Prezidentning bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasi Raisi bo'lishi tajribasining bekor bo'lishi, keyinchalik prezidentning ijro hokimiyati boshlig'i bo'lish tajribasining bekor bo'lishi davlat boshqaruvini demokratlashtirishning ishonchli ko'rsatkichidir.

3-§. Davlat va fuqaro munosabatlari

Davlat va fuqaro munosabati davlatchilik tarixida markaziy masalalaridan bo'lib kelgan. Davlat va fuqaro munosabatini qanday tashkil qilishga davlat kimning manfaatini himoya qilishi, kimning irodasini ifoda etishi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Davlat va fuqaro munosabati davlat suverenitetiga nima aloqasi bor, degan savol tug'ilishi mumkin.

Aytish mumkinki, bu munosabatni qanday tashkil qilishga davlat suverenitetining to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bor. Faqat davlat suveren davlat bo'lgandagina fuqarolar bilan o'zi xohlagancha, manfaatlar mutanosibligi asosida munosabatni o'rnatishi mumkin.

Bundan tashqari, suverenitet faqat davlat suvereniteti bilan cheklanmaydi, xalq suvereniteti ham mavjud bo'lib, bu orqali xalq o'z irodasini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Konstitutsiyaning 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etishi, uning manfaatlariga xizmat qilishi qonuniy mustahkamlab qo'yilgan. Bu qoida davlat va fuqaro munosabatini tashkil etishda asosiy prinsip hisoblanadi. Konstitutsiyaning barcha davlat va fuqaro munosabatlariga taalluqli qoidalari, normalari shu qoidaga mos kelib, uni ro'yobga chiqarishga qaratiladi. Masalan, Konstitutsiyaning 42-moddasidagi "Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi", 43-moddasidagi "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" yoki 53-moddadagi "Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib..." degan qoida fuqaro manfaatini himoya qilishda davlat asosiy mas'ul ekanligini ko'rsatadi.

Davlatning xalq irodasini ifoda etishi (xalq bu O'zbekiston fuqarolari), uning manfaatlariga xizmat qilishi, Konstitutsiyaning 2-moddasida yanada aniqlashtirilib, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar, deb belgilab qo'yildi. Sababi, davlat organlari (vakillik, ijro, sud) davlatning aniq vazifalarini hal qiladigan, shunga yarasha davlat tomonidan yetarli vakolatlar bilan ta'minlangan tuzilmadir. Xuddi shuningdek, mansabdor shaxslar ham davlat vakilidir. Davlat organlari

va mansabdor shaxslar davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini amaliy jihatdan bajaradigan davlat vakilidir. Davlat juda keng tushuncha. Davlatning fuqarolar oldida mas'uliyati, umumiy ma'noda, deklarativ tushunchaga o'xshab qoldi. Davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati aniq usullar, mexanizmlar orqali hayotiy voqeaga aylanishi mumkin. Bu esa, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'uliyatining belgilanishi bilan davlat mas'uliyati ro'yobga chiqarishini bildiradi.

Sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan birorta konstitutsiyada davlatning, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligini belgilovchi (hatto deklarativ xarakterda bo'lsa ham) qoida va norma uchratmaymiz. Aksincha, ularda fuqarolarning davlat oldidagi mas'uliyati haqida ko'plab normalar mavjud edi.

Davlat, davlat organlari, mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligi fuqarolik jamiyatining ham asosiy shartlaridandir, faqat fuqarolik jamiyatidagina bunday mas'ullik real voqeaga aylandi.

Shuning uchun ham Prezident tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyada davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining fuqarolar oldida mas'uliyatini kuchaytirish uchun "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi va "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi[1].

Davlat organlari faoliyati qanchalik ochiq bo'lar, shuningdek, ularning faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati o'rnatilar ekan, davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati kuchayib boradi va davlat-fuqaro munosabatida fuqaro manfaati ustunligi ta'minlanadi.

Davlatning fuqaro oldidagi mas'ulligining konstitutsiya normasida belgilanishi bilan ish tugamagan, davlat organlari, mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligi boshqa joriy qonunlarda ham mustahkamlangan. Masalan, "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunda fuqarolarning murojaatlarini aniq muddatda ko'rish zarurligi belgilangan. Bunday holatlarni boshqa qonunlarda ham ko'rish mumkin.

---

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 31, 46-betlar.

4-§. Davlat suverenitetining amaliy ifodasi va mamlakat chegarasi hamda hududining daxlsiz va bo'linmasligi

Davlat suvereniteti har bir mamlakatga, har qanday masalalarni mustaqil hal qila olish imkoniyatini beradi. Eng avvalo davlatning mustaqilligi unga o'zining milliy davlat tuzilishini, ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimini mustaqil, xalq xohish-irodasidan kelib chiqib hal qilish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasida davlat tuzilishining unitar shakli o'rnatilgan. Ya'ni, respublikamizda davlatning unitar shakliga xos barcha belgilar mavjud. Shu bilan birga, O'zbekistonning davlat tuzilishi shaklini unitar deb e'tirof etish bilan, uning unitar davlat sifatida o'ziga xos xususiyati mavjudligini ham ko'ramiz. Ya'ni, mamlakatimiz tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi mavjud bo'lib, O'zbekiston bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabati federatsiya davlatida uchraydigan munosabatlar asosida bo'lmasdan, konstitutsiya doirasida tuziladigan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinishi beliglab qo'yilgan. O'zbekiston o'z ma'muriy-hududiy tuzilishini ayrim manbalarda uchrab turadigan ma'muriy-hududiy bo'linish asosida emas, mamlakatni boshqarishning qulay bo'lishi nuqtai nazaridan kelib chiqib hal qilgan. Ya'ni, O'zbekiston hududi Qoraqalpog'iston, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar va qishloqlar (ovullar) deb ataluvchi hududiy birliklardan tashkil topgan. O'zbekiston ma'muriy-hududiy birliklar sifatida shularni tanlab olgan.

O'zbekiston suveren davlat sifatida davlat hokimiyati organlari tizimi, ularning turlari, hatto nomlarini ham o'zi belgilagan. Bunda hokimiyatning tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi asos qilib olingan bo'lsa, har bir hokimiyat organining nomlanishiga, ularning har birining tizimi o'ziga xos xususiyatlarida tuzilishiga e'tibor berilgan. Hokimiyat organlari oliy (markaziy), mahalliy organlardan iborat tarkibda tuzilgan.

Qonunchilik hokimiyati organi – Oliy Majlis bo'lib, u avval bir palatali, so'ng ikki palatali qilib tashkil qilingan, ijro hokimiyati Vazirlar Mahkamasiga yuklangan. Dastlab ijro hokimiyatini

boshqarish prezidentga tegishli bo'lgan bo'lsa, keyinchalik prezidentning bu vakolati bekor qilindi. Ijro hokimiyatining markaziy organlari sifatida vazirlik, qo'mita, agentlik, kompaniyalar belgilandi.

Mahalliy miqyosda ham davlat hokimiyati vakillik va ijro hokimiyati organlari tashkil qilindi. Vakillik hokimiyati xalq deputatlari Kengashlariga, ijro hokimiyati hokimlarga yuklanib, ularning ikkalasiga hokimlar boshchilik qilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining sud tizimini (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudlari) mustaqil belgiladi. Har bir sudning tizimi ham alohida belgilandi.

O'zbekistonda, bundan tashqari, biror hokimiyat tizimiga kirmaydigan, alohida vazifalarni bajaruvchi davlat organlari ham faoliyat ko'rsatadi, masalan, Markaziy saylov komissiyasi, Prokuratura, Milliy xavfsizlik xizmati, Markaziy bank va boshqalar.

Yuqoridagilarning barchasini O'zbekiston mustaqil ravishda o'rnatgan, tashkil qilgan.

O'zbekiston davlat suverenitetiga ega bo'lgach o'zi mustaqil ravishda ichki va tashqi siyosatni amalga oshira boshladi. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati tizimini, mustaqil olib borayotgan ichki va tashqi siyosatni darslikning keyingi boblarida kengroq yoritamiz.

Davlat suverenitetining muhim xususiyatlaridan biri mamlakat chegara va hududining daxlsizligidir. Konstitutsiya qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasidagi, Prezidentimiz nutqida: *"Bugun esa Vatanimiz muayyan chegara va qiyofa kasb etdi"*[1], — deb qayd qilingan edi. Shu sessiyada qabul qilingan, hayotimiz dasturi bo'lib qolgan Konstitutsiyada esa "O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir" deb mustahkamlab qo'yildi (3-modda).

Haqiqatan ham, ma'lum hududning bo'lishi davlatning ajralmas xususiyati, shartidir. Davlat (mamlakat) aniq bir hududda faoliyat ko'rsatadi. Hudud esa, ma'lum chegaraga ega. Ana shu chegarani davlatning roziligisiz hech kim, hech qanday ichki va tashqi kuch o'zgartira olmaydi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1992. 4-bet.

O‘zbekiston chegarasini o‘zgartirish, chegara o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi respublika tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish, ularni O‘zbekiston tarkibidan chiqarish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatiga kiradi (78-modda 6, 10-bandlar). Boshqa hech kim, hech qanday organ yoki tuzilma chegara o‘zgartirish vakolatiga ega emas.

O‘zbekiston chegarasi aniq belgilangan bo‘lishi bilan birga u daxlsizdir. Bu degani uni hech qanday yo‘l bilan, hatto zo‘rlik ishlatib ham o‘zgartirish mumkin emas. O‘z navbatida, O‘zbekiston ham o‘z chegarasini boshqa davlatlar hududi, chegarasi hisobiga kengaytirishga urinmaydi. Chunki, Konstitutsiyaning 17-moddasida boshqa davlatlar hududi, chegarasining daxlsizligini hurmat qilish belgilangan.

O‘zbekiston severen davlat sifatida o‘z hududining bo‘linib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Hududi bo‘linishi uchun qilinadigan har qanday harakatlarga qarshi tegishli choralarni ko‘radi.

O‘zbekistonning suverenligi hududining, chegaralarining daxlsizligini barqaror saqlash imkonini berdi. Rasmiy ravishda mustaqil respubika hisoblanib, Ittifoq tarkibida turgan vaqtda, markazning ko‘rsatmasi, irodasi bilan ayrim hududlarni boshqa respublikalarga o‘tib ketish hollari uchrab turar edi. Bu boshqa respublikalar misolida ham tez-tez uchrab turgan. Respublikalarni chegara va hududlarini Markaz tashabbusi bilan, ayrim hollarda faqat bir kishining istagi bilan osongina o‘zgartirish mumkinligining o‘zi har qanday respublika rasmiy mustaqil davlat hisoblansada, aslida suveren huquqi bo‘lmaganligini ko‘rsatuvchi isbotdir.

O‘zbekiston, haqiqatan ham, suveren davlat bo‘lgach, bunday o‘zboshimchalik barham topdi.

5-§. Davlat tili, boshqa millatlarning tili, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishi

Til insonni boshqa jonzotlardan ajratib ko‘rsatuvchi asosiy vositadir. Undan tashqari u – millatni aniqlashdagi asosiy vosita ko‘rsatgich. Tilning rivojlanishi, uning davomiyligi, boqiyligi undan

foydalanuvchi millatning ma'naviyatiga bog'liq. Lekin, til qo'shimcha himoya qilinmasa, zaiflashib, oqibatda yo'qolib ketishi mumkin. Buning misoli sifatida ittifoq davrini eslash mumkin. O'zbek tili, sho'rolar davrida faqat turmushda ishlatiladigan tilga aylanib qoldi. Natijada ko'plab o'zbek millati vakillari boshqa tilni yaxshi o'rganishga e'tibor berib, o'z ona tilini esdan chiqara boshladi. O'zbek tili davlat miqyosida emas oilalardan ham siqib chiqarildi.

Shuning uchun Ittifoqning oxirgi yillarida ilg'or fikrlovchi ziyolilar, demokratik kuchlar o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish orqali o'zbek tilining mavqeini saqlab qolish uchun kurash olib bordi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurash mustaqillik uchun kurashning debochasi bo'ldi. Natijada 1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu Ittifoq davrida mustaqillik uchun, suverenitet uchun qilingan eng katta harakat edi. Shu paytdan boshlab o'zbek tili rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi.

Amaldagi Konstitutsiyamizning 4-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir", – deb belgilandi. Bu qoida "Davlat suvereniteti" bobida bejiz belgilanmadi. Ma'lumki, davlat tiliga ega bo'lish suveren davlatga xos xususiyat. O'zbekistonning suveren davlat bo'lishi bir tomondan o'zbek tilining ta'minlanishi, rivojlanishiga imkon yaratsa, o'z navbatida aniq tilning (o'zbek tilining) davlat tili maqomiga ega bo'lishi suverenitetni ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Suverenitet va davlat tili bir-biri bilan bog'liq hodisadir (kategoriyadir).

O'zbek tilining davlat tili maqomiga ega bo'lishi, **birinchidan,** barcha qonunlar, qonunosti hujjatlari davlat tilida tayyorlanishini va amal qilishini ta'minlaydi. Bu narsa fuqarolarga qonunlarni yaxshi tushunish imkoniyatini yaratadi. **Ikkinchidan,** barcha davlat idoralarida ish yuritish, hujjatlarni tayyorlash o'zbek tilida olib borilishini ta'minlaydi. Bu ham aholi ko'pchilik qismining davlat idoralarida o'zi tushunadigan, biladigan tili orqali zarur ishlarda, tadbirlarda ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi. **Uchinchidan,** o'zbek tilining davlat tili hisoblanishi bu tilni boshqa millat vakillari tomonidan ham o'rganish zaruratini vujudga keltiradi, o'zbek tili mamlakat doirasidan chiqib, boshqa davlatlar hududida

ham o'z o'rniga ega bo'ladi. O'zbekiston bilan aloqa qiluvchilar, o'zbek tilini o'rganishga e'tibor beradi.

Xalqaro munosabatlarda, anjumanlarda o'zbek tilida ma'ruzalar qilish ham O'zbekiston suverenitetining to'la ifodasi bo'ladi.

O'zbekiston demokratik jamiyat qurar ekan, taraqqiyotga xavf soluvchi millatchilik va buyuk davlatchilik shovinizmining har qanday ko'rinishlarini rad etdi va bular mamlakatimizda hech qachon bo'lmasligining choralarini ko'rdi. O'zbekiston ko'p millatli davlat hisoblanadi. Mamlakatda yashovchi barcha millat va elatlarning tengligini ta'minlamay turib, barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Millat va elatlarning tengligi faqat qonunlarda belgilab qo'yish bilangina emas, amalda ta'minlansa, ijobiy natija beradi. Millat va elatlarning jamiyat hayotida tengligini ta'minlashda ko'plab vositalar mavjud bo'lib, ular orasida barcha millat va elatlarning, *birinchidan,* tillarini hurmat qilish va uning rivojlanishiga sharoit yaratish, *ikkinchidan,* millat va elatlarning an'analarini hurmat qilish, ularning rivojlanishiga sharoit yaratish ta'sirli, kuchli va samarali vositadir.

Mamlakatimizda turli (rus, qozoq, tojik, turkman) tillarda o'qish tashkil qilingan maktablarning mavjudligi, turli tillarda ommaviy axborot vositalari (jurnal, gazeta, eshittirishlar) faoliyat ko'rsatishi buning amaliy ifodasidir. Faoliyat ko'rsatayotgan turli millatlarning milliy-madaniy markazlari, kamchilikni tashkil etayotgani millatlarning milliy an'analari yo'q bo'lib ketmasligi, ularning millat sifatida yashab, rivojlanishiga yordam beradi.

Ayrim sobiq Ittifoq respublikalari (Boltiqbo'yi respublikalari) kabi O'zbekistonda boshqa millat va elatlarning tili, urf-odatlarini cheklashga qaratilgan hech qanday urinish yo'q va bunday cheklashlarni qonun hujjatlarida ham uchratmaymiz.

O'zbekiston o'z taraqqiyotini mamlakatda yashovchi barcha millatlarning tengligi, milliy madaniyatining rivojlanishi natijasida ko'radi.

O'zbekistonning davlat suvereniteti, barcha millatlarning rivojlanishiga teng imkoniyat yaratib bergan va bu Konstitutsiyada o'z ifodasini topgan. "O'zbekiston o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", – deyiladi Konstitutsiyaning 4-moddasida.

Respublikada yashovchi boshqa millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish, ular haqida hech qanday cheklovchi qoidalar yo'qligi hamda ularni himoya qilish va rivojlanishiga olib keluvchi turli jarayonlarni yaratish, tadbirlarni belgilash bilan amalga oshriladi.

6-§. O'zbekistonning davlat ramzlari. Poytaxti.

Har qanday davlat o'zining davlat ramzlariga ega bo'lib, ular davlat mustaqilligini ifodalovchi belgilardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasida davlat ramzlari sifatida bayroq, gerb va madhiya belgilangan. Davlat ramzlarida mamlakat xususiyatlari, taraqqiyot yo'li aks ettirilib, har birining tuzilish shakli, maqsadi, ishlatilishi alohida qonunlar bilan tasdiqlanadi.

Davlat ramzlaridan biri bayroq bo'lib, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan[1]. Bayroq mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxlit an'analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o'zligini aks ettirgan. Bayroqning ko'rinishi, rangi, undagi belgilarning chuqur ma'nosi bor. Bayroqdagi moviy rang osmon va musaffo suv ramzidir. Oq rang tinchlik va poklik timsoli, yashil rang O'zbekistonning go'zal tabiatini bildiradi. Bayroqdagi qizil chiziqlar hayot manbai qon ifodasidir. Yarim oy va yulduzlar osmonimiz musaffoligi va tinchligini bildiradi. Bayroqlar qachon va qayerda o'rnatilishi, bayram va boshqa munosabatlar sababli o'rnatilishi qonunda belgilab qo'yilgan.

Davlat ramzlaridan yana biri gerb bo'lib, u davlatning rasmiy emblemasi hamdir. U muhrlarda, turli rasmiy hujjat nusxalarida, pul birligida aks ettiriladi. Uning ko'rinishi va ishlatilishi ham maxsus qonun bilan belgilanib, bunday qonun 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan[2].

---

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 1-son, 27-modda.
2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 1-son, 328-modda.

O‘zbekiston gerbining markazida afsonaviy humo qushi tasviri o‘rin olgan bo‘lib, u baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Gerbdagi sakkiz qirrali yulduz respublikamizning sobit qadamliligi va barqarorligi timsolidir. Undagi quyosh yo‘limizni hamisha yorug‘ va nurafshon bo‘lishini bildirsa, oltin boshoq rizqimizning bus-butun bo‘lishi orzuimiz ekanligini bildiradi. Gerbdagi paxta O‘zbekistonning milliy boyligiga ishoradir. Boshoq va paxtadagi tasma esa, xalqlarimiz do‘stligi, hayot rishtalari orqali bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Davlat ramzlaridan yana biri madhiyadir. Davlat madhiyasi fuqarolarga vatanparvarlik g‘oyasini singdiruvchi chaqiriqdir. Madhiya she’r va musiqa vositasida ifodalanadi. Davlat madhiyasi tantanali marosimlarda, davlat tomonidan o‘tkaziladigan marosimlarda ijro etiladi. Madhiya matni, musiqasi va qo‘llanish tartibi qonun bilan belgilangan bo‘lib, shunday qonun, 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan[1]. Davlat ramzlarining ahamiyati, muhimligi hisobga olinib, Jinoyat kodeksining 215-moddasida davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Davlatga xos belgilardan biri – bu davlat poytaxtining mavjudligidir. Poytaxt mamlakatning bosh shahri hisoblanadi va uning alohida maqomi belgilanadi.

Konstitutsiyamizning 6-moddasi poytaxt masalasiga bag‘ishlanib, unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahridir. Shu qoidaning o‘zi Toshkent shahri maqomiga ta’sir qiladi.

Poytaxt bosh shahar hisoblanishi bilan birga, ma’muriy markaz hamdir. Qoidaga asosan, poytaxtda davlat boshlig‘i idorasi (Prezident Mahkamasi), hukumat, parlament va markaziy sud idoralari joylashadi. Moliya muassasalarining markaziy idoralari markazda joylashadi. Poytaxt ma’lum bir viloyat hududida joylashsa-da, u markazga bo‘ysunadi, ya’ni u viloyatga teng keladigan daraja – ma’muriy-hududiy tuzilish maqomiga egadir.

O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shahri bo‘lib, u poytaxtga tegishli barcha belgi va xususiyatlarga ega. Toshkent O‘zbekiston-

1 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 1-son, 52-modda.

ning eng katta (aholi soni, hududi jihatidan ham) shahridir. U eng yirik siyosiy va iqtisodiy markazdir. Unda barcha markaziy davlat va jamoat idoralaridan tashqari, madaniy-ma'rifiy muassasalarning ham asosiy qismi joylashgan. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 20 foizga yaqini poytaxt – Toshkentda ishlab chiqariladi.

Toshkentda xorijiy mamlakatlarning vakolatxonalari, BMT va uning tizimidagi UNESCO, UNISEF kabi xalqaro tashkilotlar, YeXHT vakolatxonalari joylashgan.

Keyingi vaqtlarda Toshkentda olib borilayotgan ishlar, Toshkentning poytaxt sifatidagi qiyofasi, vazifasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston xalqi hisobida davlatning suverenitetga erishishi natijasida xaqiqiy mustaqillik namoyon bo'lishi eng muhim voqeadir.

Mamlakatimizdagi hamma o'zgarishlarning asosi davlat suverenitetiga ega bo'lishlikdir. Bu masala Konstitutsiyada yetarli darajada mustahkamlandi.

Hozirgi paytda ham suverenitetni mustahkamlash, u bilan bog'liq xavfsizlikni, mamlakat chegaralarini saqlash ishlari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida to'la huquqli ishtirokchiga aylanishi ham suverenitet natijasidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Suverenitet nima?

2. Davlat suvereniteti nima?

3. O'zbekiston qachon davlat suverenitetiga ega bo'ldi?

4. O'zbekistonning suverenitetga ega bo'lishi ahamiyati qanday?

5. O'zbekistonning davlat suvereniteti qanday masalalarni hal qilish imkonini beradi?

6. O'zbekiston chegarasi va hududlari bo'linmas va daxlsizligining ahamiyati qanday?

7. Davlat tili va suverenitet masalasi qanday bog'liq?

8. O'zbekistonda boshqa millat, elatlarning tili, urf-odatlari qanday muhofaza etiladi?

9. Davlat ramzlari nimalar, ularning ahamiyati qanday?

10. Poytaxtning maqomi qanday?

V bob. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari

1-§. Hokimiyat tizimida davlat hokimiyati

Hokimiyat ijtimoiy kategoriya (hodisa) bo'lib, kishilik jamiyatining barcha davrida (hatto davlat bo'lmagan davrda ham) mavjud bo'lgan. Hokimiyat doimiy ravishda ijtimoiy munosabatlarga, shaxsiy munosabatlarga ta'sir qilib keigan.

Hokimiyat boshqalarga nisbatan ustun turish, buning uchun kuchga ega bo'lish va boshqalarga nisbatan ta'sir qila olishdir[1].

Agar hokimiyatga tushunish oson bo'lgan eng oddiy ta'rif beradigan bo'lsak, u ijtimoiy hodisa; kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan va jamiyat rivojlanishi bilan rivojlanib borgan; hokimiyatning rivojlanishi jamiyat rivojiga yoki aksincha, jamiyat rivoji hokimiyatga ta'sir etgan; hokimiyat munosabatida ikki tomon: birinchisi – hokimiyat subyekti yoki hokimiyat egasi, ikkinchi tomon – shu subyektga bo'ysunuvchi tomon bo'ladi; hokimiyat, albatta, kuchga ega bo'ladi. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, hokimiyat boshqalarga nisbatan huquqqa ega bo'lish, kuchga ega bo'lish va boshqalarga ta'sir qilishdir. Boshqalar deganda alohida shaxs yoki shaxslar, jamoa, oila, jamiyatni tushunish mumkin. Shuning uchun hokimiyatning turlari, ko'rinishi turli-tuman.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarda hokimiyat ongga asoslanadi va u ongli hokimiyatdir. Ongga asoslanmagan, instinktga asoslangan hokimiyat ham bo'lishi mumkin: hayvonlar to'dasida kuchli hayvon o'z ta'sirini boshqalarga o'tkazishi ham hokimiyatdir.

Hozirgi kunda davlat mavjud bo'lgan davrda ham davlat hokimiyati bilan birga boshqa hokimiyatlar ham mavjud. Oilada oila boshlig'i hokimiyati, jamoat birlashmalaridagi hokimiyat, diniy tashkilotlaridagi hokimiyat va hokazolar.

Ta'sir doirasiga qarab siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hokimiyat bo'lishi mumkin.

Bu yerda asosiy e'tiborni siyosiy hokimiyatga qaratamiz, chunki siyosiy hokimiyat davlat tomonidan amalga oshiriladi.

---

1 Hokimiyat masalasi "Davlat va huquq nazariyasi"da kengroq o'rganiladi.

Davlat hokimiyatining ta'sir doirasi eng keng va kuchli hokimiyatdir. Uning asosiy belgilaridan biri hokimiyatni amalga oshirishda oshkora kuch ishlatishning mavjudligi, majburlov uchun maxsus organlardan foydalanish (militsiya, armiya, maxsus xizmatlar), hokimiyat ta'siri, mamlakatning barcha hududida o'z kuchiga ega bo'lishi, uning ko'rsatmasini bajarish barcha uchun majburiy ekanligi (davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar) hisoblanishidir. Davlat hokimiyati o'z ifodasini, erkini majburiy ravishda qonun, farmon, qaror asosida hayotga tatbiq qiladi. Turli majburlov vositalaridan foydalanadi. Davlat hokimiyati faqat qonun asosida tashkil etilgan organlar tomonidan, qonunga asosan amalga oshiriladi. Davlat hokimiyati qonunchilik hokimiyati, ijro hokimiyati, sud hokimiyati orqali ijtimoiy hayotga tatbiq qilinadi. Davlat hokimiyati yakka boshchilik: monarxiya, diktatura shaklida yoki kollegial (jamoa) asosda, yakka boshchilik asosda ish olib boruvchi, xalq tomonidan saylab qo'yilgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyati qo'llanish metodiga qarab hukmronlik, zo'ravonlik yoki demokratik ko'rinishga bo'linishi mumkin.

O'zbekiston demokratik davlat bo'lganligi uchun davlat hokimiyati qonuniy asosda saylab qo'yilgan organlar: prezident, parlament, hukumat, sudlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa maxsus muassasalar (prokuratura) tomonidan amalga oshiriladi.

Ular tomonidan amalga oshiriladigan barcha faoliyat xalq manfaatiga mos tushishi zarur. Amalga oshiriladigan kuch ishlatish va boshqa tazyiqlar ham xalq manfaati yo'lida bo'lishiga harakat qilinadi.

O'zbekistonda davlat hokimiyati davlat mustaqilligini saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlash, xalqning farovon turmush tarzini yuksaltirish vazifasidan kelib chiqib, o'z faoliyati yo'nalishlarini belgilaydi va ishni tashkil etadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, davlat hokimiyati uchun xos quyidagi belgilarni ko'rsatish mumkin:

1. Davlat hokimiyati boshqa hokimiyatlardan ta'sir doirasining kengligi bilan farq qiladi. Ya'ni, faqat davlat hokimiyatigina mamlakatning barcha hududida, barcha aholiga ta'sir qiladi. Davlat

hokimiyati mamlakat hududida yashayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham ta'sir qiladi.

2. Davlat hokimiyati maxsus subyektlar, professionallar, davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Davlat hokimiyati hamma uchun umummajburiy qoidalar yaratadi, ularni qo'llaydi va o'zi ham o'rnatilgan qoidalarga amal qiladi.

4. Davlat hokimiyati majburlovda real kuchga tayanadi, jazo choralarini qo'llaydi.

5. Davlat hokimiyati doimiy, uzluksiz amal qiladi.

6. Davlat hokimiyati xalq irodasiga tayanadi.

2-§. Davlat hokimiyatining manbai va davlat hokimiyatini amalga oshirish

Hozirgi davrda jamiyat hayotini, fuqarolar tinchligi, farovonligini davlatsiz, hokimiyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyatning ma'lum bosqichida davlat yo'q bo'ladi, degan g'oyalar xomxayol ekanligi hozirgi kunda aniq bo'lib qoldi.

Amalda barcha davlatlar o'zini demokratik davlat deb hisoblaydi (diktatura, avtoritar davlat bo'lsa ham) va buni konstitutsiyalarida mustahkamlab qo'yishgan.

O'zbekiston ham o'z taraqqiyotini demokratiya bilan bog'ladi va konstitutsiyada O'zbekistonning demokratik respublika ekanligi belgilab qo'yildi.

Demokratiya atamasi turli ma'nolarda ishlatilsa ham, uning mag'zini "xalq hokimiyati" tushunchasi tashkil etadi.

Demokratik davlat hokimiyat xalqqa tegishliligini bildiradi. Bunda hokimiyat nafaqat xalqqa tegishli, balki hokimiyatning o'zi xalqdan vujudga kelishi, uning yagona manbai xalq ekanligi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston – demokratik davlat. Bu xalq hokimiyati amal qilishini bildiradi. Davlat siyosiy hokimiyatini amalga oshirar ekan, xalqdan vakolat oladi. Konstitutsiyaning "Xalq hokimiyatchiligi" bobida: "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir", – deb belgilangan (7-modda).

Demokratik jamiyat hisoblanuvchi O'zbekistonda hokimiyat xalqqa tegishli. Ana shu hokimiyat samarali ishlashi, undan barcha manfaatdor bo'lishi uchun u to'g'ri tashkil qilinishi kerak. Xalq hokimiyatini to'g'ri va samarali tashkil qilish vositalaridan eng samaralisi va sinovdan o'tgani hokimiyatni davlat hokimiyati orqali amalga oshirishdir. Chunki, davlat uzoq yillar davomida hokimiyatni amalga oshirish bilan shug'ullanadi va katta tajriba to'plagan. Bu faoliyatni yaxshiroq amalga oshirish maqsadida davlat faoliyati, tuzilishi takomillashtirilib boriladi.

Xalq davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organ va mansabdor shaxslarni saylashda, tayinlashda bevosita yoki vakillari orqali ishtirok etadi. Ular xalq oldida mas'uliyatli hisoblanadi. Vakolatni xalqdan olgach, o'zlarining faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qilishga qaratadi. O'zbekistonda davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan yo'l ham xalq hokimyatini kuchaytirishga qaratilgandir.

Xalqning xohish istagi davlat siyosatini belgilashda hal qiluvchi o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida, barcha demokratik davlatlar singari, davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va Respublika Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi (7-modda).

Demak, birinchidan, davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlashi kerak, ikkinchidan, davlat hokimiyati konstitutsiya va maxsus qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiya davlat hokimiyatining uch turdagi hokimiyat tarmoqlari: qonunchilik, ijro, sud organlari tomonidan amalga oshirilishini belgilagan. Asosiy qonunda davlat boshlig'i – Prezident, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi Oliy Majlis va uning palatalari vakolatlari belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyadan tashqari yana bir necha qonunlar mavjud bo'lib, ularda davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar vakolatlari belgilangan, jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunlarda.

Bu Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunlarda tegishli hokimiyat organlarining vakolatlari, ularni amalga oshirish usul va vositalari, hokimiyatni amalga oshirish jarayonida bir-biri bilan munosabati, xalq oldidagi mas'uliyati belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarga e'tibor bersak, eng oddiy xulosa shundan iborat bo'ladiki, davlat hokimiyati xalq manfaatiga zid harakat qilmasligi va hokimiyatni qonun vakolat bermagan hech qanday organ amalga oshirmasligi kerak.

Konstitutsiya qabul qilish vaqtida Prezidentimiz tomonidan aytilgan: *"O'zbekistonda davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalq bo'lib, davlat xalqning irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi"*,[1] – degan so'zlar konstitutsiyada ham o'z o'rnini topdi va amalda ham namoyon bo'lmoqda.

Davlat hokimiyati faqat qonun vakolat bergan organlar tomonidan amalga oshirilishi demokratik huquqiy davlat shartlaridan biridir. Davlat hokimiyati jamiyat hayotiga kuchli ta'sir qiluvchi vosita ekan, u ham turli ta'sirlardan o'zini himoya qilishi kerak.

Bu, eng avvalo, boshqa qonunda belgilanmagan organlar va tartibda davlat hokimiyatini amalga oshirishga yo'l qo'ymasligi bilan ta'minlanadi.

Konstitutsiyamizning 7-moddasida: "Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi", deb belgilanib, bu masala huquqiy tomondan hal qilingan.

Bu yerda bir necha harakat qonunsiz hisoblanib, taqiqlangan. Bular: birinchidan, davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish. Bu degani bir hokimiyat organini boshqa hokimiyat organi vakolatini egallab olishi yoki boshqa tuzilmalar, jamoat birlashmalari tomonidan hokimiyat organlarining vakolatlarini egallab olishi nazarda tutilgan. Ikkinchidan, asossiz ravishda hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki butunlay tugatish. Uchinchidan, Konstitutsiya va qonunlarda ko'rsatilgandan tashqari yangi or-

1 Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1992. 38-bet.

ganlar tuzish yoki mavjud organlarga o'xshash organlar tuzish. Bunday harakatlar qonunga xilof hisoblanadi. Sababi har qanday qonuniy tuzilmalarni (organlarning) faoliyatini to'xtatish yoki tugatish, vakolatlarini o'zlashtirish, yangi organlar tuzish konstitutsiyaviy tuzumga xavf soladi, boshqaruvni izdan chiqaradi, natijada, fuqarolar xavfsizligiga va barqarorlikka putur yetkazadi.

Bunday noqonuniy tuzilmalarni tuzish, qonuniy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini to'xtatishga urinish hollari O'zbekistonda bo'lgan. Namanganda bir guruh kimsalar 90-yillarning boshida o'zlaricha tartib o'rnatish maqsadida qonunsiz tuzilmalar tuzib, hokimiyat organlari vakolatlarini egallab, jazolovchi organlarning o'rnini bosishga harakat qilishgan. Natijada, Namanganda beboshlik vujudga kelgan, faqat qonuniy hokimiyat organlarining aralashuvi natijasida qonuniy hokimiyat organlarining o'rnini bosishga qaratilgan harakat o'z vaqtida to'xtatilgan va ko'plab qon to'kilishlarining oldi olingan.

Hokimiyat vakolatlarini o'zlashtirish, faoliyatini to'xtatish yoki tugatish, noqonuniy tuzilmalar tuzish og'ir oqibatlarga olib kelishi tufayli, ana shunday holatlarda qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Bunday harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan beshinchi bo'limida jinoiy javobgarlik belgilangan[1].

3-§. Davlat hokimiyati tizimining bo'linishi prinsipi

O'zbekiston o'z taraqqiyotiga jahon davlatchilik taraqqiyotidagi eng ijobiy xususiyatlarni, prinsiplarni amalda qo'llash orqali erishishni maqsad qilib qo'ygan.

Davlatni tashkil etish, davlat hokimiyatini amalga oshirish masalasida ham barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasida qo'l-

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 125–148-betlar.

lanilib kelinayotgan va amalda o'zini oqlagan davlat hokimiyati tizimining hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipini konstitutsiyada mustahkamlash va amalda qo'llash yo'lidan bordi.

Hayotda va ayrim yuridik manbalarda "hokimiyat bo'linishi prinsipi" degan atama uchrab turadi. Aslida esa, davlat hokimiyati yagona, u bo'lnmaydi. Bo'linish deganda faqat davlat hokimiyati tizimining tarmoqlarga bo'linishi tushunilishi kerak.

Agar davlat hokimiyatini bir katta daraxt deb olsak, daraxtning shoxlari shu hokimiyatning tarmoqlaridir. Daraxt shoxlarga bo'linishi bilan butunlay bo'linib ketmaganidek, hokimiyat tizimining tarmoqlarga bo'linishi bilan hokimiyatning yagonaligiga putur yetmaydi, chunki u bo'linib ketmaydi. Davlat hokimiyatini alohida tarmoqlar tomonidan amalga oshirilishi hokimiyatning samarasini oshiradi. Chunki ular shu ishga ixtisoslashgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mustaqillikning birinchi huquqiy asosi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991-yil 31-avgust Qonunida birinchi marta hokimiyat tizimi hokimiyatning bo'linishi prinsipida tashkil qilinishi ko'rsatilgan.

Keyinchalik Konstitutsiyaning 11-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi", – deb belgilandi. Shu asosda O'zbekistonda hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi barpo etildi.

Mamlakatimizda qonunchilik hokimiyati Oliy Majlis, ijro hokimiyati Vazirlar Mahkamasi va hokimlar, sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy Xo'jalik sudi va hududiy tuzilishlardagi sudlar orqali amalga oshiriladi.

Hokimiyatning bo'linishi prinsipidan kelib chiqib, har bir alohida hokimiyat tuzilmalarining vakolatlari aniq belgilab qo'yiladi.

Hokimiyat bo'linishi prinsipi faqat vakolatlarni aniq belgilab qo'yishnigina nazarda tutmaydi. Hokimiyat bo'linishi prinsipi:

- vakolatlarni biror-bir organ yoki shaxs qo'lida haddan ortiq, asossiz to'planishiga barham beradi;

- hokimiyat tuzilmalarining bir-birining vakolatini egallash, ishiga asossiz aralashuviga chek qo'yadi;

- turli hokimiyat organlari bir-birini nazorat qilib borishini ta'minlaydi.

Hokimiyatning bo'linishi prinsipini joriy qilish faqat hokimiyat tuzilmalarini normal, yaxshiroq, malakaliroq ishlashini ta'minlash uchungina emas, avvalo bu prinsip hokimiyatni to'g'ri tashkil qilish natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'la ta'minlash, manfaatlarini kengroq, to'laroq ifodalashni maqsad qilib qo'yadi. Chunki, har bir hokimiyat tuzilmasi o'z vazifasini to'la va malakali bajarsa, huquq buzilishlariga barham beriladi.

Hokimiyatning bo'linishi prinsipi hokimiyat tuzilmalarini bir-biridan holi, mustaqil bo'lishiga imkon yaratadi. Demokratik davlatda bu, ayniqsa, muhimdir.

Hokimiyatning bo'linishi prinsipi aslo davlat hokimiyatining yagonaligiga putur yetkazmaydi. Yagona davlat hokimiyati kuchli funksiya va vazifalarni amalga oshirish zarurligidan kelib chiqib, uning qonunchilik, ijro etish, sud faoliyatini kuchli, shu sohaga ixtisoslashgan organlar olib borishini nazarda tutadi. Ularning mustaqilligi esa, o'zlariga yuklangan vazifalarni to'la bajarish imkoniyatini yaratadi.

Hokimiyatning bo'linishi prinsipining qonuniy asoslari mavjud. Lekin bu prinsipni yanada kengroq amalga joriy etish uchun ko'plab qo'shimcha tadbirlar o'tkazilmoqda.

Mamlakatimizda ikki palatali parlamentga o'tish, quyi Qonunchilik palatasini professional asosda doimiy ishlovchi organga aylantirish ham, eng avvalo, hokimiyatning bo'linishi prinsipini chuqurroq joriy etishni ko'zlagan.

Olib borilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar ham hokimiyatning bo'linishi prinsipi asosida sudlarni haqiqiy mustaqilligiga erishishni nazarda tutadi.

Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipini mahalliy davlat hokimiyati organlariga nisbatan ham joriy etish mahalliy davlat organlari ishini takomillashtirishga olib kelishi haqidagi fikrlar hozirgi kunda o'z isbotini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro hokimiyatining boshlig‘i vakolatining bekor qilinishi hokimiyatning bo‘linishi prinsipini yanada kengroq qo‘llash imkoniyatini tug‘dirdi.

Demokratiya jarayonlarini rivojlanishi davlat qurilishi va boshqaruvini yanada erkinliklashtirish siyosati hokimiyatning bo‘linishi prinsipini yanada chuqurroq qo‘llash imkonini berdi.

Bu haqda Prezident shunday fikr bildirgan: *“...davlat hokimiyatining uchta subyekti, ya’ni davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda”*[1].

4-§. O‘zbekiston xalqi. Xalqning jamiyat va davlat hayotida ishtiroki. Xalq nomidan ish olib borish

Konstitutsiyaning 8-moddasida: “O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”, degan qoida belgilanib, unda “xalq” tushunchasiga aniq, qisqa huquqiy ta’rif berilgan.

Xalq tushunchasini aniqlash huquqiy munosabatlarda muhim o‘rin egallaydi. Chunki, O‘zbekistonda kimlar yashashidan qat’i nazar, davlat boshqaruvida faqat xalq ishtirok etadi, xalq esa, O‘zbekiston fuqarolaridir. O‘zbekiston fuqarosi bo‘lmagan shaxslar, ya’ni xorijiy mamlakat fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar davlat boshqaruvida, idora ishlarida ishtirok etmaydi. O‘zbekiston xalqi, ya’ni fuqarolarigina davlat boshqaruvida ishtirok etadi.

O‘zbekiston xalqini davlatni boshqarish ishlarida ishtiroki ularning siyosiy huquqlari hisoblangani uchun bunday huquqlar siyosiy huquqlarga taalluqli Konstitutsiya normalarida belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 32-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendum-

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 10-bet.

lar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu yerda xalqning davlat hayotida ishtirok etish yo'llari aniq belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 9-moddasida: "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi", – deb belgilangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda, haqiqatan ham, eng muhim masalalar xalq muhokamasiga taqdim etilganligini, shuningdek referendumga qo'yilib, hal qilinganligini ko'ramiz.

Bularni misollar bilan ko'rsatish mumkin. Agar Konstitutsiyaning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ko'radigan bo'lsak, undan muhim hech narsa yo'q. Konstitutsiya loyihasi ishlangach, u uzoq vaqt xalq muhokamasiga qo'yildi. Muhokama natijasida tushgan fikr-mulohazalar asosida loyihaga ko'pgina tuzatishlar, qo'shimchalar kiritildi. Muhokama asosida xalq Konstitutsiyani yaratishda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yoki, keyingi vaqtda qabul qilinayotgan ko'plab qonun loyihalari, albatta, xalq muhokamasiga qo'yildi va ularning istak-mulohazalari qonunlarning qabul qilinishida inobatga olindi.

O'zbekiston mustaqil davlat bo'lgach, davlat rivojlanish tarixida referendum degan hodisa (voqelik) uchraydigan bo'ldi. Uning natijasida, mustaqilligimiz xalq tomonidan ma'qullandi, prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga o'zgartirildi va nihoyat, ikki palatali parlament tashkil qilindi.

Demak, eng muhim masalalarga xalq o'z munosabatini bildirdi, xalqning ovozi shu masalalarni hal qilishda asosiy rol o'ynadi.

Xalq davlat boshqaruvida muhokamalarda, referendumda ishtirok etish bilan qatnashar ekan, bular haqida aniqroq tushunchaga ega bo'lish zarur.

Umumxalq muhokamasi nima, umumxalq ovozi (referendum) nima, degan savollar tez-tez uchrab turadi.

Umumxalq muhokamasida ma'lum bir masala yoki loyiha ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi. Xalq uni o'rganib, o'z istak, mulohaza, takliflarini ommaviy axborot vositalari orqali bildiradi yoki pochta orqali yoki shaxsan tegishli organlarga yetkazadi. Muhokamada loyihani u yoki bu qoida, normalariga

o‘zgartirish, biror qo‘shimcha kiritish, mavjud norma, qoidalarni olib tashlash haqida fikr bildiriladi, qanday fikr-mulohazalarni inobatga olish yoki rad etish tegishli organ, komissiya vakolatiga kiradi. Muhokama bir necha kun, hafta yoki oylab davom etishi mumkin. Muhokamada qancha odam ishtirok etishi belgilab qo‘yilmaydi.

Umumxalq ovozi (referendum) masalani uzil-kesil hal qilish uchun yoki qonun loyihasini qabul qilish uchun o‘tkaziladi. Bunda masala ijobiy hal qilinadi yoki rad etiladi. Referendumda qancha xalq ishtirok etishi, qanchasining ovoz berishi masalaning hal qilinishini belgilaydi. U saylovdagi kabi ovoz berish orqali hal qilinadi. Uni saylovdan farqi, saylovda aniq nomzodlarga ovoz berilsa, referendumda aniq masalaga ovoz beriladi.

Xalq davlat hayotida boshqa usullar orqali ham ishtirok etadi. Masalan: saylov orqali, davlat organlarining faoliyatini nazorat qilish orqali. Bu masalalar keyingi mavzularda o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”[1] maxsus qonun bo‘lib, u nima uchun referendum o‘tkazilishi, referendum predmeti bo‘lmaydigan masalalar doirasi, qanday hollarda referendum o‘tkazish mumkin emasligi, referendum o‘tkazishning asosiy prinsiplari va referendum o‘tkazish tartibini belgilab qo‘ygan.

Qonunga asosan referendum o‘tkazish tashabbusi huquqiga, Respublika fuqarolari, Oliy Majlisning palatalari, O‘zbekiston Prezidenti ega.

Fuqarolar referendum o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadigan bo‘lsa, bunday tashabbusni referendumda ishtirok etuvchilarning kamida besh foizi qo‘llab-quvvatlaganda, tashabbus amalga oshiriladi.

Referendum O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tayinlanadi. O‘zbekiston Prezidenti referendum o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan taqdirda, Oliy Majlisga murojaat etishi yoki referendum o‘tkazish to‘g‘risida o‘z qarorini qabul qilishi mumkin.

Referendum o‘tkazishda saylovlar vaqtidagi asosiy prinsiplar, tartiblar qo‘llaniladi.

---

1 Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2007. – 109–121-betlar.

Referendum o'tkazish, uning natijalarini aniqlash, e'lon qilishda Markaziy saylov komissiyasi ishtirok etadi.

Referendumda qabul qilingan qaror respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'ladi va davlat hokimiyati tomonidan tasdiqlanishi shart emas.

Yuqorida qayd etilganidek, xalq o'z xohish-irodasini amalga oshirishni davlatga topshirgan. Bu qonuniy asosga ega. Lekin, davlat juda murakkab tuzilma, uni harakatga keltiruvchi, yurgizuvchi ko'plab mansablar, organlar mavjud. Xalq hokimiyatning yagona manbai bo'lsa-da, hamma vaqt, hamma joyda to'g'ridan-to'g'ri harakat qila olmaydi. Buning imkoniyati ham yo'q. Shuning uchun, xalq nomidan harakat qiluvchilar doirasi aniq chegaralab qo'yilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 10-moddasida: "O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin", – deb mustahkamlab qo'yilgan. Bu sharafli va mas'uliyatli vazifani Oliy Majlis bilan Prezident mamlakat ichkarisida ham, tashqi munosabatlarda ham amalga oshiradi.

Nima uchun faqat Oliy Majlis va Prezident?

Oliy Majlis ham, Prezident ham xalq vakilligining oliy ko'rinishi. O'zbekiston Oliy Majlisi ikki palatadan iborat bo'lib, quyi palata – Qonunchilik palatasi xalq tomonidan bevosita saylangan deputatlardan iborat bo'lsa, yuqori palata – Senatning a'zolari – senatorlar xalq saylagan mahalliy Kengash deputatlaridan va Prezident tayinlagan senatorlardan iborat. Quyi palata deputatlarini saylashda xalq bevosita ishtirok etsa, Senatni shakllantirishda vakillari orqali ishtirok etadi. Oliy Majlis oliy vakillik va yagona qonunchilik organidir. Shuning uchun ularning xalq nomidan ish olib borishi asoslidir.

Prezident – davlat boshlig'i. O'zbekistonda Prezident bevosita xalq tomonidan saylanadi, u xalqdan to'g'ridan-to'g'ri vakolat oladi. Prezidentning bunday vakolatga egaligi Konstitutsiyaning yana boshqa moddasida ham ko'rsatilgan: "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi" (93-modda). Prezidentning ham xalq nomidan, ham davlat nomidan ish olib borishining

ma'nosi bor. Chunki, davlat xalq hokimiyatini tasarruf etuvchi tuzilma bo'lsa, Prezident xalq saylagan, ma'qullagan davlat boshlig'i.

Konstitutsiya xalq nomidan ish olib boruvchilarni aniq belgilab qo'yar ekan, shu bilan boshqa hech qanday tuzilmalar bunday vakolatga ega emasligini ham ko'rsatib qo'ygan. Chunki, jamiyatda bulardan tashqari boshqa tashkilot va tuzilmalar ham mavjud.

Shuning uchun, Konstitutsiyaning 10-moddasi ikkinchi bandida: "Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas", – deb qayd qilingan. Bu qoida jamiyatda o'zboshimchalikni, jamiyatning buzilib ketishini, hokimiyat uchun noqonuniy kurashlarning oldini oladi va hech qanday siyosiy kuchlarga imtiyoz berilishiga yo'l qo'ymaydi.

5-§. Siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi

Bizning xalqimiz rasmiy jihatdan sotsialistik respublika deb hisoblangan davlatda yashagan. U davlatda qonun hukmronligi emas, mafkura hukmronligi o'rnatilgan edi. Mafkura ham yagona kommunistik mafkura bo'lib, u o'zbek xalqi ma'naviyatiga, turmush tarziga, qadriyatlariga mutlaqo zid edi. Shu saboqlardan to'g'ri xulosa chiqarib, mustaqil davlatchiligimizni shakllantirishda, uning huquqiy asosi bo'lmish Konstitutsiya qabul qilinganda mafkura hukmronligiga, ya'ni yakka mafkuraning jamiyatda amal qilishiga barham berildi.

Natijada, Konstitutsiyada: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas", – degan qoida o'rnatildi (12-modda). Bu ijtimoiy hayotdagi munosabatlarda, Konstitutsiyaviy tuzumda mutlaqo yangi rivojlanishni, taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omil edi.

Siyosiy institutlar xilma-xilligining amaliy ifodasi sifatida, jamiyatda ko'ppartiyaviylik vujudga keldi. Nodavlat tashkilotlar tizimi shakllandi va ular ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Davlat siyosiy institutlar uchun normal siyosiy makon yaratib berishi, ular esa, ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalashi va himoya qilishga qodir bo'lishi zarur. Prezidentimizning "Siyosiy partiyalar mavjud bo'lishining asosiy va birdan-bir prinsipi davlatning konstitutsiyaviy me'yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etishdan iborat bo'lmog'i lozim"[1], – degan so'zlari siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy tuzumdagi o'rniga berilgan to'g'ri bahodir.

O'zbekiston Konstitutsiyasida mafkuraga munosabat ham huquqiy davlat nazariyasidan kelib chiqib hal qilingan.

Mafkura jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qoidalar, fikrlar va g'oyalar majmuidir[2], deb e'tirof etsak, albatta, u turli-tuman bo'lishi kerak, degan xulosa paydo bo'ladi. Barchaga yagona mafkurani singdirish ularning qarashlariga zid holat bo'ladi. Shuning uchun, O'zbekistonda mafkura va fikrlar xilma-xilligi konstitutsiyaviy darajada o'rnatildi. Bu yagona mafkuraning hukmron bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Biron mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi totalitarizmga olib keladi.

Ijtimoiy hayot mafkuralar xilma-xilligi asosida rivojlanishining belgilanishi mafkuraning ajralmas qismi bo'lmish fikrlarning xilma-xilligini ta'minlaydi.

Jamiyat rivojini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri fikrlar xilma-xilligi. bahs-munozaralardir.

Siyosiy institutlarning xilma-xilligi fikrlar xilma-xilligini ta'minlovchi vositalardandir.

Siyosiy, iqtisodiy masalalarni to'g'ri hal qilishda turli fikrlar bo'lishi, albatta, zarur. Fikrlar xilma-xilligi hamma sohada foydalidir. Ayniqsa, turli fikrlilik parlament faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Uning natijasida mukammal qarorlar qabul qilinadi, xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmaydi.

Fikrlar xilma-xilligiga amal qilmagan jamiyat, davlat inqirozga mahkum bo'ladi. Bu sobiq Ittifoq misolida o'z isbotini topgan. Qaysi mamlakatda erkin fikrlash, xilma-xil qarashlar mavjud

1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston. – 175-bet.

2 Qarang: Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik. – T.: Akademiya, 2005. – 35-bet.

bo‘lsa shu mamlakatlarning rivojlanayotganligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun mamlakatda barcha jabhalarda, hokimiyat miqyosida, siyosiy faoliyatda fikrlar xilma-xilligi bo‘lishiga ahamiyat berilmoqda. Buning natijasida fuqarolar ham jamiyatda o‘z o‘rniga ega ekanligini his qiladi. Ularning fikri, so‘zi inobatga olinishiga ishonch hosil qiladi, erkin shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda siyosiy institutlar va fikrlar xilma-xilligi Konstitutsiyada hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas, degan qoida asosida kafolatlanadi. Biror-bir mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilsa, unda fikrlar xilma-xilligi to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas. Chunki, bunga hukmron mafkura aslo yo‘l qo‘ymaydi.

6-§. O‘zbekistonda demokratiya prinsiplari va shakllari

Ijtimoiy hayotda eng ko‘p ishlatiladigan so‘z demokratiya bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi yunoncha “democratia” – xalq hokimiyati, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat so‘zidan kelib chiqadi.

Hozirgi davrda mazkur atama asl ma’nosiga ta’sir qilmaydigan tarzda, turli tushunchalarga tatbiq qilinadi. Ba’zi manbalarda demokratiyaga xalq hokimiyati siyosiy liberalizmga, fuqarolar tinchligi va erkinligiga asoslangan inson huquqlaridan mahrum qilmaydigan davlat tuzilmasining shakli sifatida qaralsa[1], ba’zi manbalarda demokratiyaga xalqni hokimiyat manbasi sifatida e’tirof etgan siyosiy tuzum[2], deb qaraladi

Har ikki tushuncha ham demokratiyaning mazmunini ochib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti demokratiyaga hozirgi zamon talablaridan, milliy xususiyatlardan kelib chiqib quyidagi ta’rifni beradi: “Haqiqatan ham, demokratiya faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo‘lib qolmay, shu bilan birga, xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an’analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlari hamdir”[3].

---

1 Qarang: Энциклопедический юридический словарь – М.: ИНФРА–М, 1997. – Т. 72.

2 Qarang: Юридический словарь. – М.: Olma Press, 2005. – С. 14.

3 Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 185-bet.

Konstitutsiyamizning 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi", – deb belgilangan.

Demokratiya to'g'risida turli fikrlar bo'lgani singari, uning belgilari, prinsiplari to'g'risida ham shuncha fikrlar mavjud. Ayrim manbalarda demokratiyaning belgisi, prinsiplari qatoriga ko'pchilik hokimiyati va unda ozchilikning huquqini hurmatlash; asosiy davlat organlarining saylab qo'yilishi; fuqarolarning erkinligi va siyosiy huquqlarining mavjudligi; qonun ustuvorligi; hokimiyat bo'linishi prinsipining mavjudligi ko'rsatilsa, boshqa manbalarda bularga qo'shimcha qilib, hukumatning xalq irodasi bilan tuzilishi; fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari mavjudligi; erkin va halol saylovlarning mavjudligi; odil sudlovning mavjudligi; hukumatni konstitutsiyaviy cheklashning mavjudligi; ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy liberalizm mavjudligi ko'rsatiladi. Bular demokratiyaning qay darajada ekanini belgilovchi belgilar hisoblanadi.

Prezidentimiz demokratiyani u yoki bu mamlakatda qay darajada ekanligini belgilovchi belgilarni umumlashtirib shunday xulosaga keladi: "Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanli-gini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular – xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlarining xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir"[1]. Bu mezonlarda xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishni ta'minlovchi asosiy holatlar ko'rsatilgan.

Demokratiyaning prinsiplari to'g'risidagi tushunchaga qaytsak, O'zbekistonda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi Konstitutsiyamizda aniq ko'rsatib qo'yilgan. Bular: inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlarning oliy qadriyat hisoblanishidir. Shu prinsiplar asosida mamlakatimizda demokratiyaga amal qiladi.

---

1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 181-bet.

Demak, demokratiyaning hamma joyda e'tirof etilgan prinsiplari bo'lib, bu – inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishidir. Boshqa barcha hodisa, voqealar shularga bo'ysundiriladi. Eng oliy qadriyat sifatida inson va uning huquqlari deb e'tirof etilishi, demokratiyaning umuminsoniy prinsipi bo'lib, shu narsa Konstitutsiyamizning inson huquqlariga taalluqli boshqa barcha normalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Demokratiya haqida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning shakllari haqida tasavvurga ega bo'lish lozim.

Demokratiyaning umume'tirof etilgan ikki shakli mavjud, birinchisi, bevosita demokratiya, ikkinchisi, vakillik demokratiyasi. Bular xalqning irodasini bildirishi, davlat ishlarida ishtirokining ko'rinishi, usullaridir.

Bevosita demokratiya bir necha ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Bular: saylovda ovoz berish, saylanish, saylov kampaniyasida turli tadbirlarda ishtirok etish; umumxalq muhokamasida, referendumda ishtirok etish; turli organlar, mansabdor shaxslarning faoliyatini nazorat etish; davlat organlariga murojaat qilish va boshqalar. Bevosita demokratiyada har bir fuqaro davlat ishlarida bevosita, to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadi.

Vakillik demokratiyasi – saylov orqali prezidentni, deputatlarni saylash va ularga o'z nomidan ish ko'rish vakolatini berishda namoyon bo'ladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, saylovda demokratiyaning har ikki shakli namoyon bo'ladi. Bevosita demokratiyada saylovda ovoz berishda, saylov tadbirlarida ishtirok etilsa, vakillik demokratiyasida saylov natijasida fuqarolar nomidan ish ko'ruvchi vakillar vujudga keladi.

Vakillik demokratiyasining rivojlanishida, siyosiy partiyalar nodavlat tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. "Zero, siyosiy partiyalarsiz va jamoatchilik harakatlarisiz respublikada vakillik demokratiyasini tasavvur qilib bo'lmaydi"[1].

Demokratiya ijtimoiy hayotda o'z o'rnini to'la topishi, undan barcha bahramand bo'lishi uchun uning har ikki shaklidan to'g'ri foydalanish, ular o'rtasida barqaror mutanosiblikka erishish zarur.

1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 174-bet.

7-§. Davlat o'z faoliyatida tayanadigan prinsiplar

O'zbekiston o'z taqdirini belgilovchi asosiy hujjat – Konstitutsiya qabul qilishdan ko'zlangan maqsadlardan biri sifatida demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatni namoyon qilish ekanligini e'tirof etgan.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi (14-modda).

Davlatning faoliyati, eng avvalo, jamiyat farovonligini ko'zlashi xalq xohish-irodasiga to'la mos tushadi. Bu yo'lda davlatning tashkilotchilik qobiliyati, undan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat farovonligiga erishish yo'lida iqtisodiy asoslarni yaratish, bozor munosabatlarini shakllantirish borasida davlatning o'tkazayotgan tadbirlari konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq qilishdir.

O'zbekiston faqat demokratik huquqiy davlat emas, balki demokratik odil davlat qurishni ham maqsad qilib qo'ygan[1].

Jamiyatda adolat o'rnatilmasa, boshqa amalga oshirilayotgan tadbirlar o'z samarasini bermaydi. Adolat hamma jabhalarda: siyosiy hayotda, iqtisodda, turmushning barcha munosabatlarida o'rnatilishi zarur.

Adolatning buzilishi og'ir oqibatlarga, fojiaga sabab bo'ladi. Ijtimoiy adolatni buzish aholini shunday ham tang ahvolini yanada og'irlashtirib, jiddiy ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin[2].

O'zbekiston bir tuzumdan boshqa tuzumga o'tdi. Ushbu davrda odamlarning moddiy ahvoli yomonlashuviga olib keladigan, nomatlub, keskin qarorlar qabul qilishga ham to'g'ri keldi. Ana shunday paytda aholining kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini turli choralar bilan qo'llab-quvvatlash ijtimoiy adolat prinsipiga amal qilish natijasi bo'ldi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – 13-bet.

2 O'sha joyda.

Umuman O'zbekistonning rivojlanishini belgilovchi tamoyillar orasida kuchli ijtimoiy himoyani tashkil qilish doimo o'zini sezdirib turadi.

Adolat prinsipining namoyon bo'lishi, mamlakatimiz xalqining munosib, farovon va erkin hayotini ta'minlashga, har bir kishi huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Adolat prinsipining amal qilishi natijasida respublikamizda osoyishtalik va barqarorlik saqlanib turibdi.

Adolat prinsipiga amal qilish, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llashga erishish davlatga juda qimmatga tushadi. Buning uchun juda katta mablag'lar zarur bo'ladi, lekin, Yurtboshimiz aytganlaridek: "Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari, mehnat va uy-joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari, qo'yingki, hayotimizning hamma jabhalari ana shu zaminga tayanishi zarur"[1].

Adolat prinsipi davlatchilik tariximizda azaldan qo'llanib, mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan.

Hokimiyat masalasi davlatchilikda muhim masala bo'lib, har qanday davlatning ajralmas qismini tashkil etadi. Davlat hokimiyatining qanday tashkil etilishi u tayanadigan prinsiplarga bog'liq.

O'zbekiston huquqiy davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan ekan, o'z faoliyatida qonuniylik va adolat prinsiplariga tayanadi. Ularning real bo'lishi esa, fuqarolar taqdiriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Amaldagi O'zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning xalq manfaatiga mos tarzda tashkil etilishi uni tom ma'noda xalq hokimiyatchiligi deb atash uchun asos bo'ladi.

---

1 Qarang. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – 13-bet.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Hokimiyat nima?
2. Davlat hokimiyati nima?
3. Davlat hokimiyatining manbai kim?
4. Davlat hokimiyatini kimlar amalga oshiradi?
5. Hokimiyatni amalga oshirishda nimalar taqiqlanadi?
6. Hokimiyatning bo'linishi prinsipi nima?
7. O'zbekiston xalqi kim? Ular davlat va jamiyat hayotida qanday ishtirok etadi?
8. Xalqning nomidan kim ish olib boradi?
9. Referendum nima, u qanday tashkil qilinadi?
10. Siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi nima uchun kerak?
11. Davlat tayanadigan demokratik prinsiplar qanday?
12. Demokratiya shakllari qanday?

VI bob. Konstitutsiya va qonunning ustunligi

1-§. Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda ularning tan olinishi va bajarilishi shartligi

Konstitutsiya va qonunning ustunligi deganda nimaga nisbatan ustunlik va nima uchun ustunlik bo'lishini aniqlash lozim.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi boshqa qabul qilinadigan barcha hujjatlarga nisbatan (qonunosti hujjatlariga) qaratiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning qonunga nisbatan ham ustunligi mavjud.

Konstitutsiyaning qonunga nisbatan ustunligi deganda, boshqa birorta qonun, ularning normalari konstitutsiyaga zid bo'lmasligi, qonunning ustunligi deganda esa, boshqa birorta qonunosti hujjatlarining qonunga zid kelmasligi tushuniladi. Qabul qilinadigan har qanday boshqa hujjatlar Konstitutsiya, qonun normalarini o'zgartirishni emas, ularning amal qilishini ta'minlashi zarur. Konstitutsiya va Qonunning ustunligi ularning huquqiy tabiatidan kelib chiqadi.

Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega alohida tartibda qabul qilinadigan davlatning asosiy qonunidir. U xalq tomonidan (referendum orqali) yoki oliy vakillik organi – Oliy Majlis (parlament) tomonidan qabul qilinadi[1]. Konstitutsiya O'zbekiston hududida birdek kuchga ega. O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va uni ijro qilish uchun qabul qilinadi.

O'zbekiston qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilinadi.

Bu boradagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni asosida tartibga solingan bo'lib, "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosi sifatida 2012-yil 24-dekabrda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning turlari, ularning kim

1 Konstitutsiya qabul qilish tartibi darslikning I bobida berilgan.

tomonidan qabul qilinishi, bir-biri bilan munosabatlari, huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi belgilab qo'yilgan[1].

Konstitutsiya va qonunning ustunligi yana bu masala konstitutsiyada maxsus belgilanganligida ham ko'rinadi. Konstitutsiyaning III bobi "Konstitutsiya va qonunning ustunligi" deb nomlanib, bu konstitutsiyaviy tuzumning asoslari, asosiy prinsipi sifatida belgilanganligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning ustunligi – bu Konstitutsiyaning prinsiplaridan biridir.

Konstitutsiya va qonunlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ularning barcha qoidalarining bajarilishi, bu qoidalarning bajarilishi shartligi davlatga, davlat organlariga, fuqarolarga, jamoat birlashmalariga, barcha nodavlat tashkilotlariga taalluqlidir.

Konstitutsiya va qonunning asosiy xususiyati ham ularning qoidalari bajarilishi shartligidir. Buning uchun jamiyatning barcha a'zolari, tuzilmalari Konstitutsiya va qonunlarni so'zsiz tan olishi kerak. Konstitutsiya va qonunlarni tan olish uchun ular-ni bilish zarur. Konstitutsiya va qonunlar jamiyat a'zolariga turli shakldagi bilimlar berish, tashviqot-targ'ibot olib borish natijasida yetkaziladi. Bunda, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining roli katta.

Qonunlarni tan olish ularni so'zsiz bajarish demakdir. Qonunlarni bajarish majburiy, lekin ular ongli, ixtiyoriy bajarılganda samarasi ko'proq bo'ladi.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi va so'zsiz tan olinishi konstitutsiyaning o'zida konstitutsiyaviy qoida sifatida belgilab qo'yilgan bo'lib, bu mazkur qoidaning ahamiyatini yanada oshiradi (15-modda).

Konstitutsiya va qonunning ustunligi deganda, ularning norma va qoidalari boshqa har qanday huquqiy hujjatlardan yuqori turishi tushuniladi. Boshqa barcha huquqiy hujjatlar farmon, qaror, farmoyish, buyruq, yo'riqnoma, nizomlar ularga mos bo'lishi shart.

---

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 96–102-betlar.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi, boshqa qonunosti hujjatlari bilan Konstitutsiya hamda qonun normalari orasida ziddiyatlar, kelishmovchiliklar kelib chiqqanda, Konstitutsiya va qonunlarning amal qilishi bilan ta'minlanadi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda, birinchidan, qonunlarni bilish muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi muhim sharti, qonunlarni hurmat qilishdir. Bunga juda katta va keng qamrovli tushuntirish, targ'ibot-tashviqot olib borish bilan birga, shaxsiy o'rnak ko'rsatish orqali erishiladi. Shaxsiy o'rnak ko'rsatish har qanday tashviqot va targ'ibotdan ham samarali bo'lishi mumkin.

Har bir shaxs, u mansabdor shaxsmi, davlat xizmatchisimi, oddiy xizmatchimi yoki oddiy fuqaromi, qonunlarni hurmat qilib, har qanday holda ham ularni bajarsa, bu boshqalarga ibrat bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, mansabdor shaxslarning qonunlarning ustunligini e'tirof etishi va bajarishi boshqa xodimlarning ham qonunlarga shunday munosabatda bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Qonunlarni bajarmaslik, ularga rioya qilmaslikni oqlovchi hech qanday bahona, sabablar bo'lmasligi qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Hech narsa, ya'ni davlat manfaatimi, jamoat manfaatimi, jamoat birlashmalari manfaatimi qonun buzilishiga olib kelmasligi kerak.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini so'zsiz tan olish huquqiy davlatning sharti hisoblanadi. Bu fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil qilish, konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligini ta'minlash, bozor munosabatlarini shakllantirish garovidir. "Huquqiy davlatning asosiy belgisi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidir"[1].

Konstitutsiya va qonunning ustunligini so'zsiz tan olish konstitutsiyaviy qoida sifatida o'rnatilgan bo'lsa-da, hayotda shu qoidaga amal qilmaslik hollari uchrab turadi. Bu qonunlarni bilmaslik yoki bilib turib unga bepisandlik bilan qarash, shaxsiy hamda idora manfaatlarini ustun qo'yish natijasida vujudga keladi.

---

1 Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1992. – 38-bet.

Idoraviy manfaatlarni ustun qo'yish natijasida ba'zi qonunosti hujjatlarini Konstitutsiya va qonunlarga zid tarzda qabul qilish hollari uchrab, bu umumiy manfaatga zarar yetkazishi mumkin.

Shuning uchun Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipini buzish huquqbuzarlik hisoblanib, javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashda turli tuzilmalar ishtirok etib, bunda Konstitutsiyaviy sud alohida o'rin tutadi.

2-§. Barchaning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishi zarurligi

Bu qonuniylik prinsipidan kelib chiqadi. Qonuniylik prinsipi davlat faoliyati prinsipi bo'lib, u ijtimoiy hayotning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiluvchi shartdir.

Qonuniylik prinsipi orqali davlat o'z faoliyatini yuritib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Qonuniylik prinsipi – bu barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, xizmatchilar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlari va fuqarolarning qonun va boshqa qonuniy hujjatlarga og'ishmay amal qilishidir. Bundan qonunlarga amal qilish barchaning vazifasi ekanligi tushuniladi.

Prezidentimiz: "Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi"[1], – deb qonuniylikning ahamiyatini aniq ko'rsatib bergan.

Konstitutsiyaning 16-moddasidagi: "Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas", – degan qoida ham qonuniylik prinsipini ta'minlovchi vositadir.

Davlat qonun yaratar ekan, avvalo, shu qonunlarga davlatning o'zi rioya qilishi zarur.

---

1 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 17-bet.

Davlat hokimiyatining amalga oshiruvi qonunchilik (vakillik hokimiyati), ijro, sud hokimiyati, o'z faoliyatini tashkil etishi, vakolati, bir-biri bilan munosabatida faqat qonunlarga rioya qiladi. Qonunlarni bevosita o'zlari bajaradi yoki ularning bajarilishi choralarini ko'radi.

Qonuniylik prinsipi osoyishta hayot, rivojlanish va taraqqiyot, yuksak turmush tarzi ozuqasidir. Qonuniylik prinsipi amal qilganda xavfsizlik, fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanadi. Har bir fuqaro o'z o'rniga ega bo'ladi.

Jamiyat va fuqarolar farovonligining muhim shartlaridan biri bozor munosabatlari bo'lsa, ana shu munosabatlarda ham qonuniylik prinsipi amal qiladi.

Davlatning iqtisodiy sohaga aralashuvini cheklovchi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi, mulk shakllarining tengligini ta'minlovchi, iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi qonunlarga amal qilish qonuniylik prinsipining ajralmas qismidir.

Oila munosabatlarining Konstitutsiya va qonunlar bilan tartibga solinishi, shu qonunlarga rioya qilish zarurligi qonuniylik prinsipi doirasining juda ham kengligini ko'rsatadi.

Qonuniylik prinsipiga amal qilish qonunlarning obro'sini kuchaytiradi.

Shuning uchun jamiyat a'zolarini faqat qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash o'ta muhimdir. Bunda ham eng ta'sirli, samarali chora shaxsiy o'rnakdir.

Barcha mansabdorlar, xizmatchilarning mansab darajasidan, jamiyat va davlat oldidagi xizmatlaridan qat'i nazar, qonunlarga rioya qilishi oddiy fuqarolar uchun katta o'rnak va saboq bo'ladi.

O'zi qonunlarga rioya qilmaydigan, uni har damda buzadigan, chetlab o'tadigan rahbarlarni, boshqalarning qonunga rioya etishi haqidagi da'vati, ko'rsatmasi hech qanday natija bermaydi.

Qonuniylikka erishishning ko'plab vositalari qatorida har qanday qonun buzilishiga (u kattami, kichikmi) tegishli chora ko'rish muhim o'rin tutadi.

Jamiyatda qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik kayfiyatini shakllantirish, qonun buzilishlariga qarshi ko'ri-

layotgan choralarni ommaviylashtirish, qonuniylikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin.

Bu, eng avvalo, qonuniylik prinsipining amaliy ifodasidir. Qonunlar turli qoidalarni o'rnatadi. Qonun qoidalari xalq xohish-irodasining hujjatda aks etishidir. Ana shuning uchun ham ularga amal qilish, qonunlarga muvofiq ish olib borish zarurdir.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga nazar solsak, albatta shu mamlakatda davlat faoliyati, uning organlari faoliyati, mansabdor shaxslar va xizmatchilar faoliyati, jamoat birlashmalari, barcha nodavlat tashkilotlari qonunlarga muvofiq ish ko'rganining guvohi bo'lamiz.

Qonunga amal qilish rivojlanish va farovonlik garovi ekanligi tajribada isbotlangan. Shuning uchun Konstitutsiyaning 15-moddasida: "Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar", – degan qoida o'z o'rnini topgan. Bu qoidani qonuniylik prinsipining asosiy sharti deyish ham mumkin.

Jahon davlatchilik tajribasiga o'zining ma'lum hissasini qo'shgan milliy davlatchiligimiz rivojlanish tarixida ham qonun va belgilangan tartib-qoidalarga amal qilish muhim masala hisoblanganligi ma'lum.

Sohibqiron Amir Temur davlatining rivojlanishi tartib-qoidalarga amal qilish natijasida bo'lganligi, keyinchalik u barpo etgan saltanatning tarqalib ketishi va nihoyat mustamlaka asoratlariga tushib qolishimizda qonun-qoidalarga rioya qilish susayganligi ma'lum sabablardan bo'lgan.

Qonunlarga muvofiq ish ko'rmaslik, oqibat natijada, har qanday davlat organlari faoliyatining buzilishiga olib kelib, bu davlat organlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Qonunlarga rioya qilmaslik kimgadir ma'lum vaqt yoki muddat davomida manfaat keltirishi mumkin. Lekin, keyinchalik esa, bu katta zararlar keltirishi, fuqaro, xalq manfaatiga katta ziyon yetkazishi mumkin.

Qonunga rioya etish barcha organlar uchun zarur, ayniqsa, bu huquq-tartibot organlari, qonuniylikni ta'minlovchi organlar faoliyatida o'ta zarurdir.

Qonunlarda inson hayoti, sog'lig'i, boyligi, xavfsizligi haqidagi qoidalar belgilangani uchun ularga rioya qilmaslik inson hayoti, sog'lig'i, xavfsizligi, boyligiga katta zarar yetkazadi. Qonun hujjatlariga rioya qilmaslik faqat bir rasmiy hujjatni bajarmaslikning o'zi emas, u inson, uning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati, xavfsizligi, mol-mulkiga taalluqli bo'lganligi uchun ularga amal qilmaslik yuqoridagilarning barchasiga tajovuzdir.

Jamiyatda qonunlarni qabul qilish asosiy maqsad emas, unga amal qilish asosiy maqsad bo'lib qolishi zarur. Shuning uchun ham Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish zarur. Bu konstitutsiyaviy burch ham hisoblanadi. Rioya etish ixtiyoriy amalga oshirilmaganida majburlov choralari orqali ta'minlanadi.

Qonuniylikda yana bir muhim masala boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga zid kelishi mumkin emasligi bo'lib, bu qoida Konstitutsiyaning 16-moddasida o'z aksini topgan.

3-§. Konstitutsiya normalarini talqin etish va uning qonun hamda boshqa normativ hujjatlar bilan munosabati

Konstitutsiya qoidalari uning turli moddalarida mustahkamlanib, eng oliy huquqiy norma sifatida rasmiylashtirilgan. Shuning uchun Konstitutsiyaning har qanday normasini, qoidasini hayotga tatbiq qilish, qo'llash fuqaro hayotida, jamiyat hayotida, davlat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya qoidalarini hayotda qo'llash uchun ularning mazmun-mohiyatini, maqsadini aniq bilishi zarur. Shundagina Konstitutsiya qoidalari to'g'ri talqin qilinishi, hayotda qo'llanishi mumkin. Konstitutsiya qoidalarini nafaqat noto'g'ri qo'llash, hatto uning normalarini noto'g'ri talqin qilish ham konstitutsiyaning buzilishiga olib kelishi, mamlakat manfaatiga zarar yetkazishi mumkin.

Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 16-moddasi birinchi bandida: "Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas", – deb yozib qo'yilgan.

Konstitutsiya qoidalari nafaqat mamlakat manfaatlariga, balki, fuqarolar, jamiyat manfaatiga zarar yetkazadigan tarzda tal-

qin qilinmasligi kerak. Bu Konstitutsiyaning ustunligi prinsipining muhim shartlaridan biridir.

Konstitutsiyadagi barcha qoidalar mamlakat, fuqaro, jamiyat manfaatlariga mos tarzda qabul qilingan. Shuning uchun shu qoidalarni ularning zarariga, ularga zarar yetkazadigan darajada talqin qilish aslo mumkin emas. Shunday hol ro'y bersa (Konstitutsiya qoidalari noto'g'ri talqin qilinsa), bu narsa faqat Konstitutsiyani buzish, unga zarar yetkazish emas, O'zbekistonning mustaqilligi, davlat suverenitetiga, xalq xohish-irodasiga qarshi harakat hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 16-moddasi ikkinchi bandida: "Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas", – deb belgilab qo'yilgan.

Bu Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlovchi muhim prinsip va amaliy choradir.

Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat Konstitutsiyaga, balki, qonunlarga ham zid kelmasligi kerak. Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar deganda Prezident farmoni, qarori, farmoyishi, hukumat qarori va farmoyishi, mahalliy hokimiyat organlari hujjatlari, markaziy idoralar tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar tushuniladi. Konstitutsiya va qonunga normativ-huquqiy hujjatlargina emas, har qanday boshqa hujjatlar ham zid bo'lmasligi kerak. Sud, prokuratura organlarining qabul qilgan hujjatlari, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlarning hujjatlari ham Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi, ularga zid kelmasligi kerak.

Konstitutsiya va qonunlarga har qanday hujjatlarning mos bo'lishi turli usul va vositalar orqali ta'minlanadi. Bunda prokuratura faoliyati, Konstitutsiyaviy sud faoliyati alohida muhimdir.

Sud hujjatlari: hukm, ajrim, qarorlar bekor bo'lishining asosiy sababi ularning Konstitutsiya va qonunlarga mos kelmasligi, zidligidir.

Davlat o'z faoliyatida tayanadigan prinsiplardan biri adolat bo'lsa, ikkinchisi qonuniylikdir. Qonuniylik prinsipida Konstitutsiya va qonun ustuvorligi alohida muhim rol o'ynaydi. Bu masalani jamiyat, fuqaro, davlat hayotida muhimligini uning Konstitutsiyada maxsus bobida mustahkamlanganida ham ko'rish mumkin.

Mamlakatning, taraqqiyoti unda qonunlarning ko'plab qabul qilinishiga emas, mavjud qonunlarga amal qilishga bog'liqdir. Bunda fuqarolarning huquqiy ongi yuksak bo'lishi muhimdir.

Mansabdor shaxslar, davlat xizmatchilarining huquqiy ongi, bilimi, huquqiy madaniyati yuqori darajada bo'lishi kerak. Chunki, ko'p hollarda, Konstitutsiya va qonunlarda zid hujjatlar idoraviy manfaatlarni ko'zlab qabul qilinadi. Aslida esa, hamma uchun umumdavlat manfaati, xalq manfaati, fuqaro manfaati yuqori turishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Konstitutsiyaning ustunligi nima?

2. Qonunning ustunligi nima?

3. Konstitutsiya, qonun, normativ hujjatlarning munosabati qanday?

4. Qonuniylik nima?

5. Qonuniylik prinsipi qanday ta'minlanadi?

6. Konstitutsiya va qonunning ustunligi qanday ta'minlanadi?

7. Konstitutsiya va qonunlarga amal qilmaslik qanday oqibatlar keltirib chiqaradi?

8. Konstitutsiya va qonunga zid hujjat qabul qilinsa, nima bo'ladi?

9. Davlat organlari, mansabdor shaxslar va barcha tashkilotlar nimaga asosan ish yuritadi?

10. Konstitutsiya qoidalarini noto'g'ri talqin qilish nimaga olib keladi?

VII bob. Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari

1-§. Tashqi siyosat yuritish davlatning muhim vazifasi

Har qanday davlatning ichki va tashqi funksiyasi mavjud bo'lib, bu masala keng ravishda "Davlat va huquq nazariyasi" fanida o'rganiladi.

Davlatning tashqi funksiyasi, o'z navbatida, tashqi siyosat olib borish zaruratini vujudga keltiradi. Ayniqsa, hozirgi "globallashuv" davrida to'g'ri tashqi siyosat olib borish davlatning o'ta muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Har qanday davlatning tashqi siyosati, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligiga erishish, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topishiga qaratilgandir.

Tashqi siyosat harbiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni vujudga keltiradi va mamlakat manfaatiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, dunyodan ajralib emas, dunyodagi barcha mamlakatlar bilan tenglik asosida hamkorlik qilish, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishiga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosati o'zaro hurmat, manfaatlar muvozanatiga asoslanadi.

Yuqorida tilga olingan tashqi siyosatning asosiy vazifasi milliy xavfsizlikni, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun jahondagi imkoniyatlardan foydalanish, xorijiy mamlakatlarda qulay bozorlar topish hisoblanadi.

Bu maqsadda (mudofaa maqsadida) O'zbekiston o'z Qurolli Kuchlarini shakllantirdi. Ularni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minladi. Bu borada boshqa davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Tashqi siyosat natijasida chet el investitsiyalarining O'zbekistonga kelishi uchun imkoniyat va sharoitlar yaratildi. Ko'plab xorij davlatlarning korxona va tashkilotlari bilan qo'shma korxonalar tashkil qilindi va bu ish davom etmoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosati insonparvarlikka asoslangan. Uning natijasida mamlakatimiz turli tabiiy ofatlarga uchragan davlatlarga iqtisodiy yordam berish ishlarini amalga oshirdi.

O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi eng asosiy masala qo‘shni davlatlar bilan tinch-totuv yashash, keng hamkorlik qilish hisoblanadi. Lekin bu O‘zbekistonning uzoqda joylashgan mamlakatlar bilan aloqasiga to‘sqinlik qilmaydi. Hozirgi kunda O‘zbekiston dunyoning barcha joylarida, Afrika, Amerika, Yevropada joylashgan davlat bilan o‘zaro manfaatdorlikda hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekistonning tashqi siyosatini belgilashda, yuritishda Oliy Majlis va Prezident tegishli vakolatlarga ega. Masalan: Oliy Majlis Konstitutsiyaning 78-moddasining tegishli bandlariga binoan, tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi hamda davlat strategik dasturlarini qabul qiladi; xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qiladi; Prezidentning urush e’lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlaydi; Oliy Majlis Senati chet davlatlaridagi diplomatik va boshqa vakillarni tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashqi siyosat sohasida quyidagi vazifa va vakolatlarga ega: O‘zbekistonning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etishga doir choralarni ko‘radi; xalqaro muzokaralar olib boradi, shartnoma, bitimlarni imzolaydi, ular asosidagi majburiyatlarning bajarilishini ta’minlaydi; diplomat va boshqa chet el vakillaridan ishonch yorliqlarini qabul qiladi; diplomat va boshqa vakillarni tayinlash uchun Senatga taqdim etadi; tashqi siyosatning eng muhim masalalari yuzasidan Oliy Majlisga ma’ruza taqdim etadi; tashqaridan hujum yoki tajovuz bo‘lganda yoki mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatidan kelib chiqib, zarurat bo‘lsa, urush holati e’lon qiladi. Oliy Majlis va Prezidentning xalq nomidan tashqi aloqalarda ishtirok etishini avvalgi boblarda aytib o‘tgan edik.

Tashqi siyosatda Vazirlar Mahkamasi ham ishtirok etib, Konstitutsiyaning 98-moddasiga asosan, Prezidentning topshirig‘iga binoan Bosh vazir xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi.

Tashqi davlat siyosatini yo‘lga qo‘yish va olib borishda O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi muhim rol o‘ynaydi[1].

1 Ularning faoliyati “Ma’muriy huquq” fanida keng o‘rganiladi.

2-§. O'zbekiston – xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti

Davlat suvereniteti har qanday mamlakatga xalqaro munosabatlarning to'la subyekti bo'lish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston ham davlat suverenitetiga erishgach, shunday imkoniyatga ega bo'ldi. Hali Konstitutsiyamiz qabul qilinmasdan, mamlakatimizning suverenitetini e'lon qilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi to'g'risida"gi tarixiy hujjatdayoq O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli a'zosi bo'lib, xalqaro munosabatlarda suveren davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida ishtirok etadi, deb belgilab qo'yilgan.

Lekin, har qanday mamlakatning o'z hujjatlarida suveren davlat deb belgilab qo'yishning o'zi uni xalqaro munosabatlarning subyekti deb hisoblash uchun yetarli emas. O'zini suveren davlat deb e'lon qilgan davlatni boshqa davlatlar rasman tan olishi zarur.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini tez orada chet davlatlar tan olib, diplomatik munosabatlar o'rnatdi.

1992-yil 2-martda, O'zbekiston dunyodagi eng nufuzli xalqaro tashkiloti – to'la huquqli a'zo sifatida qabul qilindi. Bu tarixiy voqea edi.

Davlatning BMT a'zoligiga qabul qilinishi, shu davlatni boshqa BMT a'zo davlatlarining ham davlat suverenitetini tan olishi hisoblanadi. BMTda O'zbekistonning shu tashkilotga qabul qilinishini yoqlab ovoz bergan davlatlar o'z-o'zidan O'zbekistonni tan olishidir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston dunyodagi eng nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning jumladan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati, Parlamentlararo Ittifoq, Interpol, Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Shanxay hamkorlik tashkiloti a'zosidir. NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi ishida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi yo'li xalqaro iqtisodiy, savdo, moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikka qaratilgandir. Shu asosda jahondagi eng nufuzli moliya tashkilotlari va banklari bilan hamkorlik o'rnatilgan.

O‘zbekistonning davlat suverenitetiga ega bo‘lishi uning mustaqil tashqi siyosat yuritishiga imkoniyat yaratdi va davlatning suverenligi tashqi siyosat olib borishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning xalqaro huquqning to‘la huquqli subyekti sifatidagi xususiyatlari quyidagilarda yaqqol ko‘rinadi:

- xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning teng huquqli a’zosi sifatida tan olinganligi;
- ko‘plab xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik va konsullik munosabatlarini o‘rnatganligi;
- O‘zbekiston jahonda mavjud eng muhim xalqaro shartnoma va konvensiyalarga qo‘shilganligi, ko‘plab ikki tomonlama shartnoma va kelishuvlar ishtirokchisi ekanligi;
- mamlakatda xalqaro hamkorlikning huquqiy ba’zasi yaratilganligi.

Bulardan tashqari, O‘zbekistonni dunyodagi eng muhim muammolarni hal qilish bo‘yicha, masalan, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, narkotik moddalarni tarqatishga to‘sqinlik qilish, Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish, Afg‘onistondagi ahvolni tinch yo‘l bilan hal qilish, Orol dengizi havzasidan vujudga kelayotgan oqibatlarni bartaraf etish va boshqa taklif, tavsiyalari xalqaro miqyosda foydali takliflar sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekistonning davlat suverenitetiga ega bo‘lishi, u orqali mustaqil tashqi siyosat yuritishi natijasida xalqaro huquq subyekti sifatida faoliyat yuritishi, albatta, sharafli ish. Lekin, O‘zbekistonning xalqaro huquqning subyekti sifatida namoyon bo‘lishi uning oldiga katta mas’uliyat ham qo‘yadi. Ya’ni, xalqaro huquqning to‘la huquqli subyekti sifatida xalqaro tashkilotlarga qabul qilingan, ko‘p tomonlama, ikki tomonlama shartnomalarda ishtirok etayotgan ekan mamlakatimiz oldida shu shartnomalarni bajarish yuzasidan ko‘plab majburiyatlar ham vujudga keladi. Ularni qay darajada bajarilishiga qarab jahon hamjamiyatida mamlakatimizga baho beriladi, shu orqali uning jahondagi o‘rni aniqlanadi.

3-§. Tashqi siyosat prinsiplarining Konstitutsiyada mustahkamlanishi

Yuqorida qayd qilinganidek, har qanday davlatning ichki va tashqi funksiyasi mavjud. Tashqi funksiya tashqi siyosat orqali amalga oshiriladi. Davlatning tashqi siyosati uning mustaqilligiga, geografik joylashuviga, iqtisodiy salohiyatiga ham bog'liq bo'ladi. Uning qanday siyosat yuritishi ichki rivojlanishiga ham ta'sir qiladi.

O'zbekistonning mustaqilligi tashqi siyosatni mustaqil, o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib belgilash imkoniyatini vujudga keltirdi. Bu konstitutsiyaviy tuzumning muhim qismi davlat suverenitetiga taalluqli bo'lganligi tufayli konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Konstitutsiyaning IV bobi "Tashqi siyosat" deb nomlanib, undagi 17-moddada tashqi siyosat prinsiplari belgilangan.

Shu moddada belgilangan prinsiplarni quyidagicha ajratish mumkin:

- davlatlarning suveren tengligini e'tirof etish;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;
- mamlakatlarning chegaralarini va daxlsizligini e'tirof etish;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarini tan olish.

Bular birgalikda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati prinsiplari tizimini tashkil etadi va mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tinch-totuv yashashini, ijodkorlik bilan shug'ullanishini ta'minlaydi.

Bu prinsiplarning asosiy maqsadi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tinch-totuv yashashini ta'minlash hisoblanadi. Konstitutsiyada belgilangan mazkur prinsiplar xalqaro hujjatlar va xalqaro huquq normalariga to'la mos keladi.

Mazkur prinsiplarga amal qilish O'zbekistonning jahon miqyosida alohida mavqeyga ega bo'lishini ta'minlab, tinch, osoyishta jarayonda ichki rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Chunki, xalqaro miqyosda tinchlikka erishish ichki imkoniyatlardan, yaratuvchanlik yo'lida foydalanishga imkon beradi.

O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lgandan boshlab biror-bir mamlakatga hududiy e’tirozlar qilmaganligi, o‘z navbatida, o‘zining mavjud hududi daxlsizligini saqlash uchun, xalqaro huquq doirasida harakat qilayotganligi mamlakatimizning Konstitutsiyaga amal qilib ish ko‘rayotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlatning faqat ichki tartibi, vazifasini belgilash bilan cheklanilmaganligi, davlatning tashqi faoliyati ham konstitutsiyaviy darajada o‘rnatilganligi konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligini ta’minlash ichki va tashqi faktorlarga bog‘liqligidan kelib chiqadi.

O‘zbekistonning tashqi siyosat prinsiplarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

a) davlatning suveren tengligi deganda, har qanday davlat u qayerda joylashganligidan, aholisining sonidan, davlat tuzilishi va boshqaruv shaklidan, davlatning iqtisodiy qudrati darajasidan qat’i nazar, xalqaro munosabatlarda ular bilan bir xil munosabatda bo‘lish, ularning suveren davlatligini e’tirof etish, hurmat qilish, zarur bo‘lsa, teng hamkorlik qilish hisoblanadi;

b) kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi turli qirg‘inbarot urushlar bo‘lishining oldini oladi, ko‘plab qon to‘kilishi, vayronagarchilikka uchrash holatlari xavfini bekor qiladi;

d) chegaralarning daxlsizligi prinsipi. O‘zbekiston o‘z Konstitutsiyasida o‘zining chegaralari, daxlsizligi, ajralmasligini belgilab, buni davlat suverenitetining ajralmas xususiyatlaridan biri sifatida o‘rnatgan. Xuddi shunday boshqa davlatlarning chegaralari daxlsizligini ham hurmat qiladi. O‘z hududini boshqa davlatlar chegarasi hisobiga kengaytirishni maqsad qilib qo‘ymaydi. Sobiq Ittifoq davrida milliy chegaralanishi natijasida vujudga kelgan qo‘shni mamlakatlar va o‘z chegaralarini tan oladi.

e) mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim prinsiplari qatoriga yana nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslikni kiritish mumkin.

Har qanday masalada kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish yo‘li tanlangan. Bu faoliyat muzokaralar olib borish, sabr-toqat bilan ishlashni taqozo etadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda diplomatik sohada ham ma-

horatli, yuqori malakali kadrlar tayyorlanmoqda, ular tajribalarga ega bo'lmoqda va natijada har qanday nizolarni tinch yo'l bilan hal etish imkoniyatlari kengaymoqda.

O'zbekiston boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipini dasturilamal qilib olgan va uni amaliyotda to'liq qo'llamoqda.

Yuqoridagi prinsiplar O'zbekistonning tashqi siyosat prinsiplarining konstitutsiyaviy asoslari bo'lib, ularning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga mos tushishi bu prinsiplarga yanada hayotiylik bag'ishlaydi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston tashqi siyosatda xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan qoidalari va normalariga asoslanishi ham Konstitutsiyada yozib qo'yilgan (17-modda).

4-§. Ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish

O'zbekiston tashqi siyosati, yuqorida qayd etilganidek, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun Konstitutsiyaning "Tashqi siyosat" bobi 17-moddasida: "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin", – deb belgilab qo'yilgan.

Demak, bu qoida O'zbekistonning xavfsizlik maqsadida turli birlashmalarga birlashishi mumkinligini konstitutsiyaviy asosda mustahkamlaydi.

1991-yil 21-dekabrda Qozog'istonning Olma-ota shahrida Ozarbayjon, Armaniston, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston, Ukraina davlat boshliqlari uchrashuvida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkil qilindi.

Bu Sobiq Ittifoq tarkibidan chiqib, mustaqillikka erishgan davlatlarning dastlabki xalqaro tashkiloti edi. Bu tashkilotning tuzilishi a'zo mamlakatlarning taqdirida ijobiy rol o'ynaydi. Bu hamdo'stlik Sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasida turli qurolli to'qnashuvlar, bir-biriga chegara xususida e'tirozlar bildirish ka-

bi masalalarning oldini oldi. Hamdo'stlikning tashkil topishi Ittifoq davlat – Yugoslaviyaning tarqalib ketishidagi kabi qon to'kilishlarining oldini oldi. Siyosatchilarning ta'kidlashicha, agar MDH tuzilmaganda Sobiq Ittifoq hududida Yugoslaviyadagidanda dahshatliroq urushlar bo'lishi va u hozirgacha davom etishi mumkin edi. MDH siyosiy tashkilot bo'lmay, ixtiyoriy iqtisodiy uyushma edi.

MDH uyushmasi O'zbekistonga shu uyushma a'zolari bilan tenglik asosida ikki tomonlama aloqalar o'rnatishga katta imkoniyat yaratdi.

MDH uyushmasi doirasida kollektiv xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati vujudga keldi va mamlakatimiz bu yo'nalishda ham ishtirok etdi.

2001-yil 15-iyunda Xitoy Respublikasining Shanxay shahrida, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston davlat boshliqlarining uchrashuvida yangi tashkilot tuzilib, u Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) degan nom bilan xalqaro munosabatlarda o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Bu tashkilotning tuzilishi XXI asrning boshlanishidagi eng muhim xalqaro voqealardan biri bo'ldi. Tashkilot doirasida a'zo davlatlar xavfsizlikni birga hal qilish, bir-biriga ishonchni, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohada hamkorlikni kuchaytirishga ahd qildilar.

Hozirgi kunda bu tashkilot doirasida a'zo davlatlar iqtisodiy, madaniy masalalarda hamkorlik qilib, anchagina yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, bu tashkilot doirasida narkotrafik, terrorizmga qarshi kurash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Toshkentda tashkilotning terrorizmga qarshi kurash mintaqaviy ijro qo'mitasi qarorgohi joylashgan, bu esa mamlakatimiz mazkur tashkilot faoliyatida teng asosda ishtirok etishini yana bir bor ko'rsatadi.

O'zbekiston xalqaro siyosiy-harbiy tashkilot – NATOning tinchlik va xavfsizlik yo'lida hamkorlik dasturida ham ishtirok etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng (1992-yildan 2000-yilgacha) juda ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlikka kirishdi, teng asosda shartnomalar tuzdi[1].

1 Bu haqda batafsil qarang: Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. – T.: Sharq, 2000. – 528–535-betlar.

Eng muhimi, boshqa davlatlar qanday davlat bo'lishidan qat'i nazar tenglik asosida hamkorlik o'rnatish asosiy vazifa deb qaraldi. Prezidentimizning: "Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston uchun juda muhimdir"[1], – degan so'zlari har qanday hamkorlikda tenglik, O'zbekiston manfaati yotishiga alohida e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishgan paytdan to hozirgacha olib borayotgan va Konstitutsiyaga asoslangan tashqi siyosati natijasi hozirgi kunda aholining tinch-totuv yashayotganida, har qanday davlatlar bilan tenglik asosida hamkorlik qilayotganida ko'rinib turibdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tashqi siyosat yuritish nima uchun zarur?

2. O'zbekiston xalqaro huquqning to'la huquqli subyekti hisoblanishiga nimalar ta'sir qildi?

3. Tashqi siyosatning asosiy prinsiplari tizimi qanday?

4. Davlatlarning suveren tengligi qanday e'tirof etiladi?

5. Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi nima?

6. Chegaralarning daxlsizligi qanday e'tirof etiladi?

7. Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishning ahamiyati qanday?

8. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi nima?

9. Ittifoqlar tuzish va turli uyushmalarga a'zo bo'lishning maqsadi nima?

10. O'zbekiston qanday tashkilotlar tarkibida ishtirok etadi?

---

1 Bu haqda batafsil qarang: Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. – T.: Sharq, 2000. – 528–535-betlar.

UCHINCHI BO'LIM

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

VIII bob. Shaxs va fuqarolikka taalluqli umumiy qoidalar. Fuqarolik

1-§. Shaxsning huquqiy maqomi

Konstitutsiyaviy huquqda shaxsning huquqiy maqomi masalasi markaziy masalalardandir. O'zbekiston Konstitutsiyasida shaxsning huquqiy maqomiga taalluqli yetarli darajada normalar mavjud.

Shaxs huquqiy maqomining qanday bo'lishiga, eng avvalo, Konstitutsiyaning 13-moddasidagi qoidalar ta'sir etadi. Bu shaxsning huquqiy holatini belgilashda bosh prinsipdir. Unga asosan, inson, uning erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Inson va shaxs tushunchalari asosan bir ma'noni berishini nazarda tutsak, bu qoida insonga ham taalluqlidir.

Shaxsning huquqiy maqomi deganda, shaxsning huquqlari, erkinliklari, burchlari yig'indisi tushuniladi. Har bir jamiyatda shaxs bilan davlat o'rtasida o'rnatilgan munosabat shaxsning huquqiy maqomiga ta'sir qilsa, boshqa tomondan shaxsning huquqiy maqomi davlat munosabatiga ta'sir qiladi.

Shaxsning huquqiy holati masalasida uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hamda burchlari darajasi, miqdori muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, shaxsning huquqiy holatini aniqlashda fuqarolik masalasi alohida ahamiyatga ega.

Bu masalalar O'zbekiston Konstitutsiyasida yetarlicha tartibga solingan.

Shaxsning huquqiy holati Konstitutsiyaning V bobi (Umumiy qoidalar) 18-moddasida quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi,

shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar". Bu shaxsning (birinchi navbatda, shaxs fuqarodir) mavqeyini, tengligini ta'minlovchi asosiy huquqiy normadir. Bu yerda shaxsning tengligiga qonun oldidagi tenglik sifatida qaralmoqda. Har bir kishining qonun oldidagi tengligi adolat prinsipining o'zagidir.

Shaxsning qonun oldida tengligiga hech qanday holat (bu holatlar Konstitutsiyada sanab o'tilgan) ta'sir qila olmaydi. Qonun oldida tenglik shaxsning huquq, erkinliklardan foydalanishda ham teng ekanligini, shuningdek burchlarni bajarishda ham tenglik bo'lishini nazarda tutadi. Demak, bu norma shaxsning huquqiy holatini belgilashda asosiy o'lchovdir.

Shu bilan birga, jamiyat va davlatning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning o'zida, adolat prinsiplariga mos ravishda, ayrim shaxslarga imtiyozlar belgilanishi ham ko'rsatib qo'yilgan. Bunda imtiyozlar faqat qonun asosida bo'lishi alohida qayd qilinadi (18-moddaning ikkinchi xatboshisi).

Imtiyozlar qonun asosida bo'lishining, ijtimoiy adolat prinsiplariga mos tushishi, mamlakatda yashovchi yordamga muhtoj, jismoniy jihatdan zaif toifali kishilargagina imtiyoz berilishini nazarda tutadi.

Konstitutsiyaga asosan, qonuniy asosda O'zbekistonda ayollar, bolalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar imtiyozga ega bo'lib, bu imtiyoz asosan iqtisodiy jihatdan qo'llaniladi.

Shaxsning huquqiy holatini huquqlar, erkinliklar hamda burchlar yig'indisi deb aytgan edik. Bu masala ya'ni huquq va burchlarning o'zaro bog'liqliligini Konstitutsiyaning 19-moddasi qoidalarida ham ko'rish mumkin. Unda qayd qilinishicha, fuqarolar va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Ya'ni, fuqaro huquqqa ega bo'lsa, uni ta'minlash burchi davlatda bo'ladi. Fuqarolarni, konstitutsiyaviy burchlarga ega bo'lishi, davlatni fuqarolardan shu burchlarga amal qilishini talab qilish huquqini keltirib chiqaradi.

Konstitutsiyaning shu moddasi qoidalari yana fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquqlari daxlsiz ekanligini, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligini belgilaydi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy va boshqa qonuniy huquqlari daxlsizligi konstitutsiyaviy asosda belgilangan. Demak, ulardan mahrum qilishga, cheklashga hech kimning haqqi yo'q. Konstitutsiya fuqarolarning huquqini faqatgina sud tartibida cheklashga ruxsat beradi. Cheklash qonuniy, asosli bo'lishi kerak, bu sud qarorida asoslantirilishi zarur.

Konstitutsiyaning 20-moddasida: "Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart", – deb mustahkamlangan.

Boshqalarning manfaatiga (fuqaro, jamiyat, davlat manfaati) zarar yetkazilsa, zarar yetkazgan fuqaroning huquqi cheklanadi, sud qaroriga asosan shunday hollarda hamda xavfsizlik nuqtayi nazaridan fuqarolar huquqlarining cheklanishi mumkinligi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham qayd qilingan bo'lib, Konstitutsiyaning mazkur normasi xalqaro normalarga ham to'la mos keladi.

2-§. Fuqarolik tushunchasi. Yagona fuqarolik

Shaxsning huquqiy holatini aniqlashda fuqarolik muhim omil ekanligi e'tirof etilgan qoida.

Har qanday mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda yashovchi aholining asosiy qismi O'zbekiston fuqarolaridan iborat bo'lib, aholining ma'lum qismi O'zbekiston fuqarosi bo'lmasligi mumkin. Ular O'zbekistonda turli sabablar bilan yashayotgan, ishlayotgan, o'qiyotgan, safarga kelgan, xorijiy mamlakatlar fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin.

Shaxs ma'lum davlatga mansub bo'lsagina u fuqaro hisoblanadi. Bu tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi.

Fuqarolik – Konstitutsiyaviy institut. Uning asoslari Konstitutsiyada belgilangan.

Konstitutsiyaning VI bobi "Fuqarolik" deb nomlangan. O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi" (Konstitutsiyaning 21-moddasi).

Shu moddada fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi, deb ko'rsatilgan. Shunga asosan, O'zbekistonda fuqarolik masalalari "O'zbekiston Respublikasining "fuqaroligi to'g'risida"gi[1] 1992-yil 2-iyul Qonuni bilan tartibga solinadi. Qonunning 1-moddasida fuqarolikning huquqiy tushunchasi berilgan bo'lib, unga asosan, – O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqalar ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi. Demak, fuqarolik shaxsning davlatga huquqiy mansubligi va uning natijasida fuqaro – shaxs bilan davlat o'rtasida ma'lum munosabat, o'zaro huquq va burchlar vujudga keladi.

O'zbekistonda yakka fuqarolik o'rnatilgan, yakka fuqarolikning siyosiy ahamiyati ham katta. Fuqarolik shaxs bilan davlat o'rtasida siyosiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Fuqarolik natijasida shaxs ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'libgina qolmay, ma'lum burchlarga ham ega bo'ladi. Natijada shaxsning davlat oldidagi mas'uliyati oshadi.

Ma'lum mamlakatlarda yashovchi hamma kishilar, albatta, fuqaro deb qaralmasligi kerak, mamlakatda yashovchilar aholi bo'lishi mumkin. Aholi tarkibiga fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet el fuqarolari ham kiradi. Ularning huquqiy holatida sezilarli tafovutlar mavjud. Shaxsning ma'lum davlatda yashashining o'zigina uni fuqaro deb hisoblashga asos bo'lmaydi, shaxs fuqaro bo'lishi uchun shaxs bilan davlat o'rtasida alohida munosabatlar mavjud bo'lishi kerak. Fuqarolik davlat bilan shaxs munosabatlarining alohida tartibda amalga oshishini ta'minlaydi. Umumiy asosda davlat qonun yo'li bilan kim shu davlatning fuqarosi hisoblanishini, fuqarolikka ega bo'lish, uni yo'qotish asoslari va tartibini belgilab qo'yadi. Har bir shaxsning fuqaroligi alohida hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. O'zbekistonda bunday hujjat shaxslarning

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 9-son, 338-modda.

pasportidir. Fuqarolik shaxs bilan davlatning barqaror munosabatlarini vujudga keltiradi.

Fuqaro va davlat munosabatlarini belgilashda xalqaro huquq normalari ham e'tirof etiladi. O'zbekistonda fuqarolikni quyidagicha xarakterlash mumkin.

O'zbekistonda yakka fuqarolik e'tirof etilgan. Konstitutsiya va qonunda bu mustahkamlangan. O'zbekiston fuqarolari O'zbekiston fuqaroligidan chiqmasdan turib boshqa mamlakatlarning fuqaroligini qabul qilishi mumkin emas va aksincha.

O'zbekistonda fuqarolik tenglikka asoslangan, ya'ni fuqarolikka ega bo'lish qanday asoslarda bo'lmasin (tug'ilish bilan bo'ladimi, keyinchalik fuqarolikka o'tganmi) ular hamma sohada tengdir.

O'zbekistonda fuqarolikka ega bo'lish ochiq va erkinlikka asoslanadi. Ya'ni, O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lish uchun ortiqcha cheklovlar o'rnatilmagan. Fuqarolik to'g'risidagi qonun, mamlakatda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning borgan sari kamayishini nazarda tutadi, ya'ni O'zbekiston hududida yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bola O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikning ochiqligi, erkinli, har qanday O'zbekiston Fuqarosi o'z xohishi bilan O'zbekiston fuqaroligidan voz kechishi mumkinligi qonunlarda mustahkamlangan.

Hech kim o'z qarashlariga ko'ra fuqarolikdan majburiy ravishda chiqarilishi mumkin emasligining o'rgatilishi fuqarolikning muhim prinsiplaridan biridir. Fuqarolikdan qarashlari, fikrlashlariga qarab majburiy chiqarish Sovet tuzumida tez-tez qo'llaniladigan hodisa edi. Bu xalqaro hujjatlarga mutlaqo ziddir. Chunki, ularda fuqarolikdan majburiy chiqarish ko'zda tutilmagan.

O'zbekiston fuqarolari mamlakat tashqarisida yashayotgan vaqtlarda ularning manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Chet mamlakatlarda ham ular davlat homiyligida bo'ladi.

O'zbekiston fuqarolari kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoli, irqi va millati, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, mashg'ulotlarining turi va sohasi hamda boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun oldida tengdir.

Konstitutsiyaga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Ular O'zbekiston fuqaroligini olish uchun hech qanday harakat sodir etmaydi.

giga qabul qilish uchun shunday istak bildirgan shaxslar oldiga ba'zi talablar qo'yiladi.

Bunday shaxslar:

1. Chet el fuqarolari bo'lsa, chet el fuqaroligidan voz kechishlari kerak.

2. So'nggi besh yil davomida O'zbekistonda doimiy yashayotgan bo'lishi kerak.

3. Qonuniy tirikchilik manbalariga ega bo'lishi kerak.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini tan olishi va bajarishi kerak.

Ba'zi hollarda bu talablar ayrim kishilarga tatbiq qilinmasligi ham mumkin. Masalan, O'zbekiston fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxs O'zbekistonda tug'ilgan bo'lsa yoki ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O'zbekistonda tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, unga nisbatan O'zbekistonda besh yil yashagan bo'lishi degan qoida tatbiq qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan ham alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan-texnika va madaniyat sohasidagi katta yutuqlari bo'lgan, shuningdek, O'zbekiston uchun zarur kasb yoki malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslarga ham fuqarolikka o'tuvchilar oldiga qo'yiladigan talablar qo'yilmasligi mumkin.

Tug'ilishi bilan fuqarolikka ega bo'lish bir necha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin va ular qonunda belgilab qo'yilgan.

Tug'ilgan paytda ota-onasi O'zbekiston fuqarosi bo'lgan bola u qayerda – O'zbekistondami, chet mamlakatdami tug'ilishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'ladi.

Ota-onalari turli davlat fuqarosi bo'lganlar farzandlarining fuqaroligi esa, turli yo'l bilan hal qilinadi. Ota-onaning fuqaroligi har xil bo'lganda, agar bola O'zbekistonda tug'ilsa, O'zbekiston fuqarosi bo'ladi, bola respublikadan tashqarida tug'ilsa-yu, ota-onasidan biri shu vaqtda O'zbekistonda doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa, bola O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston fuqarosi bo'lgan bo'lsa, agar bu vaqtda ota-ona O'zbekistondan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega

bo‘lgan bo‘lsalar, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida tug‘ilgan bolaning fuqaroligi ota-onaning yozma tarzda ifodalangan kelishuvi asosida belgilanadi.

Ota-onasidan biri bola tug‘ilgan paytda O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan, boshqasi esa, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lgan yoki noma’lum bo‘lgan taqdirda, bola qayerda tug‘ilgan bo‘lishidan qat’i nazar, O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Onasining fuqaroligi bo‘lmagan bolaning otasi belgilanib, u O‘zbekiston fuqarosi bo‘lsa, 14 yoshga yetmagan bola qayerda tug‘ilgan bo‘lishidan qat’i nazar, O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

O‘zbekiston fuqaroligiga o‘tishni istovchi shaxsning iltimosi, agar u konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik ishlatib o‘zgartirishni oqlayotgan bo‘lsa, faoliyati Konstitutsiyaga zid partiyalar va boshqa tashkilotlarga a’zo bo‘lsa, jazoga tortilgan bo‘lsa va jazoni o‘tayotgan bo‘lsa, rad etiladi.

Avval O‘zbekiston fuqarosi bo‘lib, so‘ng undan qonunga asosan chiqqan shaxslar ham fuqarolikka qayta tiklanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan erkak yoki ayolning chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan nikohdan o‘tishi er yoki xotinning fuqaroligi o‘zgarishiga sabab bo‘lmaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining chet elda yashashi ham O‘zbekiston fuqaroligining to‘xtatilishiga olib kelmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida mamlakat fuqarosi bo‘lgan shaxsning chet davlat fuqaroligiga mansubligi tan olinmaydi.

4-§. Fuqarolikning to‘xtatilishi

Fuqarolik davlat tomonidan tartibga solinadigan munosabat. Shuning uchun bu haqdagi qonun fuqarolikka ega bo‘lish asoslari, bu boradagi imtiyozlarni belgilash bilan birga, fuqarolikni to‘xtatish asoslarini ham belgilab qo‘ygan.

Qonunning 19-moddasiga asosan quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini to‘xtatish asosi hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish;
- fuqarolikni yo‘qotish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;

- ushbu qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish ixtiyoriy bo'lib, shaxsning iltimosiga (fuqaroning) ko'ra, belgilangan tartibda fuqarolikdan chiqishga ruxsat etiladi. Fuqarolikdan chiqishni so'rab murojaat qilgan shaxs oldiga davlat, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib ba'zi shartlar (talablar) qo'yiladi.

Fuqarolikdan chiqishni iltimos qilgan shaxsning davlat oldida yoki fuqarolar yoxud davlat va jamiyat tashkilotlari oldida mulkiy majburiyatlari bo'lsa, shaxs shu majburiyatlarni bajarmagunicha fuqarolikdan chiqarish rad etiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqmoqchi bo'lgan shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa yoki unga nisbatan kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa, shaxsning fuqarolikdan chiqishi respublikaning davlat xavfsizligi manfaatlari zid bo'lsa, ya'ni shaxs davlat sirlaridan voqif bo'lsa, fuqarolikdan chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston fuqaroligidan chiqishda bu masala shaxsning ixtiyori, roziligi bilan hal qilinadi.

Fuqarolikni yo'qotish shaxsning roziligi bilan bo'lmay boshqa sabablar asosida amalga oshiriladi. Qonunga asosan shaxs:

- chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik idoralariga yoki davlat hokimiyati idoralariga ishga kirsa;

- chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston fuqarosi 5 yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa;

- O'zbekiston fuqaroligi soxta ma'lumot va hujjatlarga asosan olingan bo'lsa, fuqarolik yo'qotiladi.

Ota-onaning har ikkalasi O'zbekiston fuqaroligidan chiqqan vaqtda ularning 14 yoshga to'lmagan bolalari ham fuqarolikdan chiqqan hisoblanadi.

Ota-onalardan biri O'zbekiston fuqaroligidan chiqsa, boshqasi esa, O'zbekiston fuqarosi bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston fuqaroligini saqlab qoladi.

Ota-onalarning fuqaroligi o'zgargan taqdirda, shuningdek, farzandlikka olinganda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning fuqaroligi bolalarning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

"Fuqarolik to'g'risida"gi Qonunda fuqarolarni siyosiy qarashlari, e'tiqodlariga qarab fuqarolikdan mahrum qilish holatlari ko'zda tutilmaganligi qonunimizning xalqaro hujjatlar talabiga mos ekanligini ko'rsatadi.

Sobiq Ittifoq davrida sotsialistik tuzumga qarshilik qilish emas, uni tanqid qilganlik uchun, kommunistik jamiyat haqida o'z fikrini bildirganlik uchun ko'plab kishilar, shu jumladan, xalq orasida katta obro'-e'tiborga sazovor kishilarni fuqarolikdan mahrum qilish, mamlakatdan quvg'in qilish hollari tez-tez uchrab turadigan holat bo'lib qolgan edi.

O'zbekistonda bunday holatni ko'rmaymiz, chunki qonun bunga yo'l qo'ymaydi.

5-§. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish

Shaxs fuqaro bo'lgach, fuqaro va davlat o'rtasida ma'lum munosabatlar orqali uzviy bog'lanish vujudga keladi. Bu bog'liqlik o'zaro huquq va majburiyatlar orqali mustahkamlanadi.

Fuqaroning davlat oldidagi majburiyatlari uning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan burchlari orqali amalga oshirilsa, o'z navbatida, davlatning fuqaro oldidagi majburiyatlari ham Konstitutsiyada belgilangan mas'uliyati orqali amalga oshiriladi.

Davlatning fuqaro oldidagi mas'ulligi konstitutsiyaviy tuzum prinsiplari darajasiga ko'tarilganligi (2-modda) mamlakat ichkarisida ham, tashqarida ham davlat faoliyatini fuqarolarning huquqlarini, manfaatini himoyalashga yo'naltirishga asos bo'ladi.

Konstitutsiyaning 22-moddasida bu masalani qonuniy ifodasi o'z o'rnini topgan. Unga asosan, "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi".

Fuqarolarni mamlakat hududida himoya qilish turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Bular:

- fuqarolar huquq va erkinliklarining Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilishi;

- fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi, buzilgan huquqlarni tiklovchi davlat organlar tizimining o'rnatilishi;

- fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tuzilmalari faoliyatiga ko'maklashish.

Avval aytilganidek, fuqarolar huquqlarini ta'minlashda sud organlarining faoliyati alohidadir. "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda sudlarning asosiy vazifasi fuqarolar huquqlarini himoya qilish deb ko'rsatilgan. Boshqa davlat organlarining faoliyatiga tegishli qonunlarda ham fuqarolarning huquqlari, xavfsizligini ta'minlash vazifasi mavjudligini ko'ramiz.

Konstitutsiyaning 100-moddasida, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiritilgan vazifalar qatorida, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash ko'rsatilgan, bu "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda yanada kengroq ifodalangan. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligi tarkibida inson huquqlarini himoya qiluvchi maxsus tuzilmalar tashkil qilingan va ular samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

2011-yil 23-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, Adliya vazirligining asosiy vazifalaridan qilib belgilandi.

O'zbekistonda fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlar tizimi yaratilgan. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynovchi milliy institutlardandir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari, manfaatlari nafaqat mamlakat ichkarisida, balki, boshqa mamlakatlar hududida ham davlat tomonidan himoya qilinadi. Bu vazifani bevosita O'zbekistonning chet mamlakatlardagi diplomatik va konsullik idoralari bajaradi. O'zbekiston fuqarolari chet ellarda surishtiruv, tergov, sud organlari tomonidan javobgarlikka tortilsa, davlat ularni huquqiy himoya qilish, advokatlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish mumkin.

Bularning barchasi O'zbekiston Konstitutsiyasining 43-moddasida mustahkamlangan: "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonun-

larda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi", – degan qoidaning amaliy ifodasidir. Davlatning fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash mas'uliyati mamlakat ichkarisida ham, xorijiy mamlakatlarda ham amalga oshiriladi.

Fuqarolar huquqlarini himoya qilishda Ombudsman instituti muhim rol o'ynaydi, bu haqda Prezidentimiz shunday degan edi: "Oliy Majlis tarkibida inson huquqlari masalasi bilan shug'ullanuvchi vakillik tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylayman. Bu Oliy qonunchilik organimiz maqomiga mos keladi. Muhimi, u jamiyatimizda inson huquqlari muammosini hal etishni yangi sifat darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi"[1].

2004-yil avgustda "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonunda Vakilni saylash tartibi takomillashtirildi. Shuningdek, uning huquqiy maqomi birmuncha aniqlashtirildi. Uning asosiy vazifasi sifatida fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish belgilandi. Bundan tashqari, Vakilning huquqlari va shikoyatlarni ko'rib chiqish chog'idagi huquqlari alohida tartibda belgilandi.

Xuddi shuningdek, 1996-yil 31-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy Markazi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda alohida o'ringa ega. Unga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga ko'maklashish;
- inson huquqlari sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
- mamlakatda inson huquqlari ahvoli haqida milliy ma'ruzalar tayyorlash va boshqalar. Markazga fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, fuqarolarni huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlash borasida ham ko'plab vazifalar yuklatilgan.

---

1 Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – 24-bet.

6-§. O'zbekistonda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqini ta'minlash

O'zbekistonda faqat O'zbekiston fuqarolarigina emas, umuman har qanday shaxsning huquq va erkinliklari ta'minlanadi. Shuning uchun Konstitutsiyada faqat fuqaro emas, shaxs, uning hayoti, qadr-qimmati, sha'ni va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, deb ko'rsatilgan.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan bo'lib, ana shuning o'zi huquq va erkinliklar fuqaro bo'lmaganlarga ham taalluqli ekanligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekiston xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olishi belgilangan. Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalarida esa, har qanday shaxs, qayerda yashashidan, qaysi mamlakatning fuqarosi bo'lishidan qat'i nazar, huquq va erkinliklari ta'minlanishi belgilangan.

Xalqaro huquq qoidalaridan kelib chiqib, Konstitutsiyamizga "O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar", degan qoida kiritilgan (23-modda).

O'zbekiston ishtirok etgan xalqaro va ikki tomonlama shartnomalarda inson huquqlarini hurmat qilishga sodiqlik mavjud va u mamlakatimizda turli sabablar bilan yashab turgan, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga asos bo'ladi.

Xalqaro huquq qoidalarini e'tirof etish mamlakatimizdagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga barcha shaxsiy, iqtisodiy huquqlaridan foydalanishga imkoniyat yaratilganligini bildiradi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yashash, daxlsizlik, vijdon erkinligi, mehnat qilish, bilim olish va hokazo huquqlarga ega va ular davlat tomonidan ta'minlanadi.

Sud organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ham huquqlarini ta'minlash, himoya qilish vazifasi yuklatilgan.

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi va boshqa sabablar bilan O'zbekistonda bo'lib turgan chet el fuqarolarining huquqlari shu mamlakatlarning O'zbekistondagi vakolatli organlari tomonidan ham qo'shimcha himoya qilinadi, ta'minlanadi. Bu borada xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qilinadi.

Yuqorida tilga olingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) mamlakatimizda yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlarini ta'minlashda ishtirok etadi. Unga bu borada tegishli vakolatlar va vazifalar yuklangan. "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasiga asosan, u O'zbekistonda yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari buzilishi yuzasidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Shikoyat yuzasidan, uni hal qilish maqsadida, o'z tekshiruvini o'tkazadi. Shikoyat asosli bo'lsa, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning talabi qondiriladi, bu esa, uning huquqi buzilishining oldini oladi yoki huquqi buzilgan bo'lsa, buzilgan huquqi tiklanadi.

7-§. Fuqarolik masalasi bilan shug'ullanuvchi davlat organlari

Fuqarolik masalasi konstitutsiyaviy institut bo'lganligi uchun unga taalluqli ko'pgina masalalar Konstitutsiyada belgilangan, bularga yuqorida to'xtalib o'tdik. Fuqarolik masalalarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti alohida rol o'ynaydi. Konstitutsiyamizning Prezidentning vazifa va vakolatlari belgilangan 93-moddasi 22-bandida Prezidentning Respublika fuqaroligi masalasini hal qilish vakolati ko'rsatilgan.

"Fuqarolik to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasida fuqarolik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi respublika davlat idoralari ro'yxati berilgan.

Unga asosan fuqarolik ishlari quyidagilar tomonidan yuritiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, Respublikaning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari.

Qonunda ularning vakolatlari ko'rsatib qo'yilgan.

Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublikamiz hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni mamlakat fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida; chet ellarda yashayotgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishli iltimosnoma bilan murojaat qilgan taqdirda ularni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida; O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash to'g'risida; O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarish to'g'risida; O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Ichki ishlar vazirligi va uning vakolatli idoralari O'zbekistonda doimiy yashovchi shaxslardan O'zbekiston fuqaroligiga o'tish haqida arizalar qabul qiladi. Fuqarolikka o'tish uchun keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi. Arizani zarur hujjatlar bilan Prezident huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaga yo'llaydi. O'zbekiston hududida yashovchi shaxslarni mamlakat fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi. Respublikada yashovchi shaxslarning mamlakat fuqaroligini yo'qotganlik holatini qayd etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, diplomatik va konsullik muassasalari quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- chet ellarda doimiy yashovchi shaxslardan O'zbekiston fuqaroligiga o'tish haqida arizalar qabul qiladi;
- shu masala bo'yicha keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;
- arizalarni zarur hujjatlar bilan birga Prezident huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaga yo'llaydi;
- chet elda doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;
- chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston fuqaroligini yo'qotganligini aniqlaydi;
- O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi.

Fuqarolikka oid arizalar faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozilib, ariza doimiy istiqomat qiladigan ichki ishlar idoralariga, chet elda esa, tegishli diplomatik yoki konsullik muassasalariga topshiriladi.

Fuqarolik masalasini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiyasi muhim rol o'ynaydi.

Bu komissiyani Prezident tuzadi va u fuqarolikka oid masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi.

Komissiya fuqarolikka oid ariza va taqdimnomalarni ko'rib chiqish paytida ariza beruvchining dalillarini, taqdimnomaning mazmunini, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining xulosalarini va boshqa hujjatlarni xolisona baholaydi.

Agar fuqarolikka o'tayotgan shaxs Qoraqalpog'iston Respublikasiga borib yashamoqchi bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining shu masala yuzasidan fikrini e'tiborga oladi, shuningdek Qoraqalpog'istonda unga ish, turar joy berish imkoniyatini ham e'tiborga oladi.

Komissiya ko'rilayotgan ish bo'yicha tegishli davlat idoralaridan, jamoat tashkilotlaridan qo'shimcha materiallar talab qilib olishga haqli.

Komissiya har bir ariza yoki taqdimnoma yuzasidan Prezidentga taklif kiritadi, taklif fuqarolikka qabul qilish yoki rad etish mazmunida bo'lishi mumkin.

Fuqarolik masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlar qabul qiladi. Farmonda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, fuqarolikdagi o'zgarishlar (qabul qilish, tiklash, to'xtatish) farmon chiqarilgan kundan e'tiboran boshlanadi. Takroriy ariza, qoida tariqasida, shu masalaga oid avvalgi ariza ko'rib chiqilgandan so'ng bir yil o'tgach ko'rib chiqiladi.

Fuqarolik masalalari bo'yicha ariza berish tartiblari "Fuqarolik to'g'risida"gi Qonunda batafsil belgilangan.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, Konstitutsiyaga asosan, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan burchlarni bajarishga majbur.

Ko'rinib turibdiki, fuqarolik shaxsning huquqiy holatini aniqlashda muhim shart hisoblanadi. Shaxs fuqaro bo'lsagina u barcha

huquqlardan to'la foydalana oladi va jamiyatning rivojlanishi, mamlakatning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan burchlarni bajaradi.

Shaxsning fuqaroligi uni dunyoning qayerida yashashidan qat'i nazar, huquq va manfaatlarining himoya qilishga asos bo'ladi.

Ya'ni, fuqarolarning fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan himoyalanish imkoniyatlari kengroqdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shaxsning huquqiy holati nima?

2. Shaxs huquqiy holatining konstitutsiyaviy asoslari qanday belgilangan?

3. Fuqarolik nima?

4. Shaxs fuqaro bo'lgach qanday imkoniyatlarga ega bo'ladi?

5. Fuqarolarning qonun oldida tengligi nimani bildiradi?

6. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklash mumkinmi?

7. Yagona fuqarolik nima, uning ahamiyati nimada?

8. Fuqarolikka qanday ega bo'linadi?

9. Fuqarolik qanday hollarda yo'qotiladi?

10. Fuqarolarning huquqlari mamlakat ichkarisida qanday himoya qilinadi?

11. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari qanday himoya qilinadi?

12. Fuqarolarning huquqini himoya qiluvchi qanday davlat va nodavlat tashkilotlarini bilasiz?

IX bob. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari

1-§. Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi

Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasini aniqlashdan avval umuman, huquq, erkinlik degan tushunchalarni aniqlash lozim. Huquq davlat tomonidan ta'minlanadigan, himoya qilinadigan nimadir qilish, amalga oshirish, munosib yashash sharoitiga ega bo'lish, zo'rliklardan himoya qilinishning tabiiy imkoniyatidir. Erkinlik esa, biror-bir narsada (xulq-atvorda, faoliyatda) qonun bilan taqiqlanmagan, biror-bir cheklashning yo'qligidir. Ya'ni, huquqda asosiy masala imkoniyatga ega bo'lish, erkinlikda esa, cheklashning yo'qligidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari uch guruhga bo'lib mustahkamlangan. Bular: "Shaxsiy huquq va erkinliklar", "Siyosiy huquqlar", "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar".

Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ustuvor huquq hisoblanadi va bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida birinchi o'rinda berilganligidan ham ko'rinadi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, e'tiqodi bilan bog'liqdir. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonni shaxs sifatida namoyon etuvchi imkoniyatdir.

Shaxsiy huquq va erkinliklarni, odatda, tabiiy huquqlar ham deb yuritiladi. Ular inson tug'ilishi bilan vujudga keladi. Ularni davlat bermaydi. Faqat shu huquqlarni davlat ta'minlaydi va shunga majbur. Shaxsiy, ya'ni tabiiy huquqlar barcha mamlakatlarda mavjud va davlat tomonidan ta'minlanadi. Shaxsiy huquq va erkinliklar xalqaro hujjatlar bilan ham himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda fuqarolarning shaxsiy huquqlari belgilangan xalqaro hujjatlar, jumladan, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qoidalariga amal qilindi.

Natijada birinchi marta, Konstitutsiyada yashash huquqi qayd qilinib, bu huquqni ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oldi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar, boshqa huquqlardan farq qilib, ularni cheklash mumkin emas. Alohida hollarda cheklash zarurati bo'lsa, bu Konstitutsiya asosida, unda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Ya'ni, ba'zi hollarda cheklash qonunga asosan amalga oshirilishi belgilangan.

Lekin shunday huquqlar borki, ularni aslo cheklash, ulardan mahrum qilish mumkin emas. Masalan, yashash huquqi.

Shaxsiy huquqlardan barcha shaxslar, fuqaroligidan qat'i nazar, foydalanadi va davlat ham barchaga, fuqaroligidan qat'i nazar, shaxsiy huquq va erkinliklardan foydalanishga imkon yaratadi.

Konstitutsiyaga asosan shaxsiy huquq va erkinliklar bilan bog'liq insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi ham bu huquqlarning huquq va erkinliklar tizimida ustuvor hisoblanishiga olib keladi.

2-§. Yashash huquqi. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi

Insonning hayoti, shaxsi va erkinligi daxlsizdir[1], – deb qayd qilingan Konstitutsiya qabul qilinayotgan Oliy Kengash sessiyasida va shu g'oya Konstitutsiyada to'la o'z ifodasini topgan.

Inson hayoti Konstitutsiyada yashash huquqining belgilanishi va har tomonlama ta'minlanishi bilan kafolatlanadi.

Konstitutsiyaning 24-moddasida: "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir", – deb belgilangan.

Insonning yashash huquqi qonunlar bilan himoya qilinadi. Yashash huquqi hayot kechirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun inson hayotiga har qanday tajovuz qonunga asosan jazolanadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida inson hayotiga qilingan tajovuzlarga jazo belgilangan. Kodeksning 97-moddasida qasddan odam o'ldirish uchun, 98-moddada kuchli ruhiy hayojon natijasida qasddan odam o'ldirish uchun, 99-moddada onaning o'z chaqalog'ini (bolasini) o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgi-

1 Qarang. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston 1992. – 39-bet.

langan. Xuddi shuningdek, Jinoyat kodeksida ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib odam o'ldirish uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan.

Og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarni o'lim jazosi orqali hayotdan mahrum qilish masalasi ham yashash huquqi bilan bog'liq hodisa. Bu ayrim davlatlarda oxirgi chora tariqasida qo'llaniladigan jazo. Mamlakatimizda demokratlashtirish jarayoni chuqurlashib borishi bilan bu masalaga ham yondashuv o'zgarib bormoqda. O'zbekiston XXI asrga ijtimoiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish vazifasi bilan kirib keldi. Bu borada 2001-yil ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 6-sessiyasida qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun[1] muhim rol o'ynaydi.

Umuman O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'lim jazosini qo'llashni kamaytirishga harakat qildi. Mustaqillikka erishgan vaqtda Jinoyat kodeksining 30 dan ortiq moddalarida o'lim jazosi belgilangan bo'lsa, 1994-yilda 13 ta moddada, 1998-yilda 8 ta moddada, 2001-yilda 4 ta moddada o'lim jazosi ko'zda tutildi.

2005-yil 28-yanvarda Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida: "Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala – bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir"[2], – deb qayd etdi. Shuni hayotga tatbiq etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida tegishli qonunlarga o'zgartirish kiritildi va o'lim jazosi mutlaqo bekor qilindi. Bu amalga oshirilayotgan ishlar bevosita insonning Konstitutsiyada belgilangan yashash huquqini ta'minlashni kuchaytirishga qaratilgandir.

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001-yil, 9–10-son, 165-modda.
2 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 48-bet.

Insonning yashash huquqi to'la-to'kis bo'lishi, yashashi, hayoti davomida hayotdan to'la bahramand bo'lishi va o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanishi uchun unga, albatta, erkinlik va daxlsizlik zarur. Shuning uchun Konstitutsiyaning 25-moddasida: "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas", – deb belgilangan.

Erkinlik shaxsning o'z ixtiyori bo'yicha yashash, hayot kechirish imkoniyati bo'lib, faqat shaxs qonunlarga itoat etishi zarur. Mamlakatimizda har bir kishining erkinligi, uning shaxsiy daxlsizligi bilan ta'minlanadi. Daxlsizlik degani shaxsning erkinligini cheklovchi hech qanday harakatlarga yo'l qo'yilmasligidir. Qonunda belgilangan asoslardan tashqari hech kimning erkinligi cheklanishi, erkinlikka zarar yetkazilishi mumkin emas. Qonun tegishli hollarda kishilarning erkinligini cheklashga yo'l qo'yadi. Ya'ni, ular jinoiy harakat sodir etsa yoki shunday harakat sodir etishda gumon qilinsa, shaxsni jamiyatdan ajratishga zarurat tug'iladi. Lekin, har qanday erkinlikni cheklash qonunga asosan va qonun vakolat bergan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlari ma'lum muddatga shaxslarni ushlab turishi. sud organlari qamoqqa olish haqida sanksiya (rozilik) berishi va ozodlikdan mahrum qilish yoki boshqa erkinlikni cheklovchi jazolar berishi mumkin.

Mamlakatimizda har bir kishining erkinligini yanada kengroq ta'minlash maqsadida va jahon tajribasiga tayangan holda shaxsni ushlab turish (ya'ni erkinligini cheklash) masalasini adolatli hal qilish uchun: "Boshqa demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish. shuningdek, boshqa protsessual majburlov choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqini ham sudlarga o'tkazish kerak, deb o'ylayman"[1], – deb Prezident bu masalani kun tartibiga qo'ygan edi. Ushbu masalani hayotga tatbiq qilish uchun 2005-yil 8-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Farmon[2] qabul qilindi va uning asosi-

1 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 47-bet.

2 Xalq so'zi, 2005-yil avgust.

da tegishli qonunchilikka o'zgartirish kiritildi. Natijada shaxsning daxlsizligini ta'minlash kuchaytirildi.

Bu masalaning mohiyati to'g'risida Prezidentimiz shunday degan edi: "Bu borada "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi"[1].

3-§. Shaxsni aybdor deb topish. Sudda himoya bilan ta'minlanish huquqi

Konstitutsiyaning 26-moddasida: "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas", – deb belgilab qo'yilgan.

Har qanday kishini aybdor deb topishning faqat sud organlari vakolatiga berilishi demokratik huquqiy davlatga xos xususiyat bo'lib, bu shaxsni himoyalashning muhim vositasidir.

Jahon huquqshunoslik tajribasida "aybsizlik prezumpsiyasi" degan so'z ishlatiladi. Bu degani, shaxsning aybi aniq isbotlanib, aybli ekanligi sud tomonidan e'tirof etilmaguncha unga hech qanday ayb qo'ymaslik va aybdor deb e'lon qilmaslikdir. Shaxsning aybi qonunlarda belgilangan tartibda, sudda ko'rib chiqilib isbotlansagina u aybdor deb topilishi mumkin. Bunda yana bir muhim shart sudda ishning oshkora ko'rilishi hisoblanadi. Sudda ishni oshkora ko'rish deganda, manfaatdor tomonlarni oldindan sudda ish ko'rish vaqti va joyi haqida ogohlantirish, sud majlislarida ishtirok etishga to'sqinlik qilmaslik, sud majlislarida jamoatchilik vakillari, ommaviy axborot vositalarining ishtirokiga imkoniyat yaratish tushuniladi.

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 22-bet.

Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish, aybsizligini isbotlash uchun barcha tegishli imkoniyatlar yaratiladi. Ular dalillar taqdim qilishi, suddan guvohlarni chaqirishni va boshqa harakatlar sodir etishni so'rashi mumkin.

Sudda ayblanayotgan shaxsning himoyaga bo'lgan huquqini ta'minlashni Konstitutsiyaning 116-moddasi ham ko'zda tutgan, unga asosan "Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi".

"Aybsizlik prezumpsiyasi" yana ayblanayotgan shaxsga o'z aybsizligini isbotlash majburiyatini yuklamaydi (bu tegishli organlarning majburiyati), shuningdek gumonlar isbotlanmasa, bunda gumonlar ayblanuvchi foydasiga hal etilishini ko'zda tutadi.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotining eng muhim jihatlaridan biri advokatlar rolini oshirish, ularning holatini davlat ayblovchilari bilan tenglashtirishga qaratilgan bo'lib, u shaxs manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Shaxsning aybini isbotlash uchun uni qiynoqqa solish, unga nisbatan zo'ravonlik qilish, insonning qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday harakat sodir etish, tazyiq o'tkazish qat'iyan taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 206, 235-moddalarida shunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shunday harakatlar sodir etilgudek bo'lsa, aybdor shaxslar jazolanadi. Shunday harakatlarni sodir etmaslik jinoyat qonunlarimizning muhim prinsiplaridan biri deb belgilangan.

O'zbekiston Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga sodiqligini namoyon etib, 1995-yil 31-avgustda "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya"ga qo'shilgan.

Jahon tajribasida shaxsning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazish shaxsning qadr-qimmatiga qaratilgan qonunsiz harakat deb e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham bunday tajribalar taqiqlanadi. Shaxsning roziligisiz unda turli tajribalar o'tkazilishi natijasida insonlar naqadar xo'rlanganligini, hayotdan, sog'liqdan mahrum bo'lganligini Ikkinchi jahon urushida Konslagerlarda fashistlar qilgan ishlardan bilamiz. Shunday holatlar takrorlanmasligi uchun bizning mamlakatimizda kuchli huquqiy asoslar mavjud.

4-§. Har kimning sha'ni, obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joy daxlsizligi huquqi, yozishma va so'zlashuvlarni sir saqlanish huquqi

Konstitutsiyaning 27-moddasida: "Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas", – deb mustahkamlangan.

Inson boshqa mavjudotlardan sha'ni, qadr-qimmatiga, obro'ga egaligi bilan farq qiladi. Qadr-qimmati qadrlangandagina, u o'zining hayotini munosib qura oladi. Shuning uchun insonning sha'ni, obro'si himoya qilinadi. Har bir kishi o'z hayotini o'zi xohlagancha tashkil qiladi. Bunda u boshqalarga zarar yetkazmasligi, qonun-qoidalar asosida yashashi, foydali mehnat bilan shug'illanishi zarur. Insonlarning sha'ni, obro'siga zarar keltiruvchi har qanday harakat taqiqlanadi. Biror-bir harakat natijasida insonning sha'ni, obro'siga zarar yetsa, unga tegishli choralar ko'riladi.

Demokratik mamlakatimizda har bir kishi o'zining sha'ni, qadr-qimmati, obro'sining buzilishiga olib keluvchi xatti-harakatlardan himoyalanish huquqiga ega.

Kishilarning sha'ni, obro'sini himoya qiluvchi tegishli vositalar bo'lib, ular orasida sud alohida muhim rol o'ynaydi. Har bir kishi o'zining sha'ni obro'sini himoya qilishni so'rab sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Insonning sha'ni, obro'siga turmush sharoitida, xizmat vazifasini bajarish jarayonida putur yetishi mumkin. Shunday hollarda ular sudga murojaat qilishlari mumkin. Sud ishni ko'rib, inson sha'ni, obro'sining buzilishi hollarini aniqlasa, tegishli choralar ko'radi. Bunday choralar natijasida aybdorlarga turli jazolar berilishi, zarar ma'naviy va moddiy tomondan qoplanishi mumkin. Ko'pincha inson sha'ni, obro'siga tuhmat natijasida zarar keltiriladi. Ko'ra olmaslik hasad kabilar ham inson sha'ni, obro'siga tajovuzni tug'diradi.

Jamiyat bir jamoa hisoblanib, uning a'zolari umumiy manfaati, unda yashash qoidalariga amal qilish zarurligi bilan birga, har bir kishi o'z hayotini qonun doirasida o'zicha tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun har bir shaxsning shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi.

Har bir kishining normal hayot kechirishida turar joyi muhim rol o'ynaydi. Turar joy – insonlarning asosiy hayot makoni.

Kishilarning turar joyi daxlsizdir. Bu degani hech kimning turar joyiga uning roziligisiz kirish, tintuv o'tkazish, biror narsani olib ketish mumkin emas. Qonun xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish yoki unga qarshi kurashish uchun turar joylarga kirish, tintuv o'tkazishga ruxsat beradi va qanday hollarda, kimning ruxsati bilan shunday harakatlarni sodir etish tartibini belgilab qo'yadi.

Qonunga asosan, zarurat bo'lganda, prokurorning sanksiyasi (roziligi) bilangina, kishilarning turar joyiga kirish, tintuv o'tkazish mumkin.

Xuddi shuningdek, hech kimning yozishmalari, telefonda so'zlashuvlari oshkora qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Hech kim yozishma, telegrammalarni o'qishga, telefonda so'zlashuvlarni eshitishga haqli emas. Chunki, bu narsalar har bir alohida shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqlidir.

Ayrim hollarda, ya'ni qonunda belgilangan tartibda va tegishli organlarning roziligi bilan yozishmalar o'rganilishi, so'zlashuvlar eshitilishi mumkin. Bu ham xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadida amalga oshiriladi.

5-§. Yashash joyini erkin tanlash huquqi

Demokratik mamlakatda shaxsning erkinligi e'lon qilinib qolinmasdan, u turli vositalar orqali ta'minlanadi. Har bir kishiga yashash joyini erkin tanlash huquqining berilishi ham buning isbotidir. Konstitutsiyaning 28-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir" deb mustahkamlangan norma erkin yashash huquqining Konstitutsiyaviy asosidir.

Har kim yashash joyini ixtiyoriy tanlaydi. Respublikaning xohlagan yerida yashash joyi tanlashi mumkin. Bu huquq fuqarolarga o'zi uchun yashash sharoiti, mehnat qilish imkoniyati qulayroq joylarda istiqomat qilish uchun imkoniyat yaratadi. Yashash joyini tanlashda kishilarning sog'lig'iga mos tabiiy muhit bo'lishi ham ta'sir qiladi. Ayrim kishilarning sog'lig'i shahar sharoitida yashashga to'g'ri kelmasligi, ayrim kishilarning issiq joylarda yoki namlik ko'p joylarda yashashi sog'lig'iga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shunday paytlarda yashash joylari o'zgartiriladi. Ayrim kishilarning mutaxassisligi, kasbi, hunari tegishli joylarda yashash joyini tanlashga ta'sir qilishi mumkin.

Xuddi shuningdek, chet ellarda yashayotgan O'zbekiston fuqarolari mamlakatimizga har qanday vaqtda qaytib kelib, doimiy yashash joyini erkin tanlashi mumkin.

O'zbekiston fuqarolarining o'z xohishi bo'yicha chet ellarda yashash uchun ketishi ham taqiqlanmaydi. Tegishli huquqiy hujjatlarda O'zbekiston fuqarolarining chet ellarga shaxsiy, jamoat ishlari bilan doimiy yashashga, sayohatga, o'qishga, ishga, davolanishga chiqishi erkin huquq ekanligi belgilangan.

Faqat Konstitutsiyaning yuqoridagi moddasida ko'rsatib o'tilganidek, yashash joyini tanlashda, chet ellarga yashash, o'qish, ishlash uchun ketishda, O'zbekiston hududiga kirishda qonun bilan ba'zi cheklashlar o'rnatiladi. Bu cheklashlar xavfsizlik, ishchi kuchlari ortiqcha bir yerda to'planib qolishining oldini olish, boshqa fuqarolarga yashash uchun normal sharoit yaratish nuqtai nazaridan hal qilinadi.

6-§. Fikrlash, so'z, e'tiqod erkinligi. Axborot olish, tarqatish, hujjatlar bilan tanishish huquqi

Fikrlash qobiliyati – insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi xususiyat. Insonning fikrlashi natijasida taraqqiyot davom etadi. Dunyo rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson faqat erkin fikrlaganda, erkin fikrlash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgandagina, taraqqiyot bo'lishi mumkin. Fikrlashning cheklanishi, taraqqiyotni cheklashdir.

Erkin fikrlash bo'lsa-yu, u ro'yobga chiqarilmasa, fikrlar bildirilmasa, undan hech qanday naf bo'lmaydi. Erkin fikrlashni amalga oshirish, uning samarasidan foydalanish uchun albatta so'z erkinligi ham bo'lishi kerak. Bu degani, har bir shaxs o'z fikrini har qanday joyda va vaqtda so'z orqali bayon qila bilishiga imkoniyat yaratilishi kerak.

Bunday imkoniyatning huquqiy asosi, Konstitutsiyaning 29-moddasi hisoblanadi. Unda "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin", deb belgilangan.

Inson erkin fikrlash va uni so'z orqali erkin bayon qilish uchun axborotga ega bo'lishi kerak. Shu sababli fuqarolarning o'zi uchun zarur axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlanadi.

Masalan, o'quvchilarga internetdan foydalanish imkoniyatining berilishi axborot olish, izlash, tarqatish huquqini amalda ta'minlovchi kuchli vositadir.

Bu huquq yana Konstitutsiyaning 30-moddasi bilan ham kafolatlangan. Ya'ni, Konstitutsiyaning mazkur moddasi axborot olish imkoniyatini kengaytiradi. Unga asosan "O'zbekiston Respublikasining barcha organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim". Bu bilan Konstitutsiya barcha organ va mansabdor shaxslarga fuqarolarning huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun aniq majburiyat yuklaydi.

Konstitutsiya normalarida nafaqat fikrlash, so'z erkinligi, shuningdek, e'tiqod erkinligi ham belgilangan. Bu orqali fuqarolar o'z dunyoqarashlariga ega bo'ladi, bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini bildiradi. E'tiqod erkinligi dinga, siyosatga munosabatda namoyon bo'ladi.

Konstitutsiya normalari fuqarolarning fikrlash, so'z, e'tiqod erkinligi hamda axborot olish, izlash, tarqatish huquqini mustahkamlar ekan, bu erkinlik aslo konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilmasligi, uning buzilishiga olib kelmasligini nazarda tutadi.

Chunki, konstitutsiyaviy tuzum xalq manfaatiga mos keluvchi tartiblarning Konstitutsiya bilan mustahkamlanishi natijasidir. Konstitutsiyaviy tuzumning buzilishi og'ir oqibatlarga, qon to'kilishlariga olib keladi. Shuning uchun ham faqat xalq manfaati, konstitutsiyaviy tuzum manfaati, yo'lida ba'zi cheklashlar, man qilishlar o'rnatiladi.

Yana xavfsizlik nuqtai nazaridan kelib chiqib, erkin fikr yuritish va ifodalash erkinligi davlat va boshqa sirlarga taalluqli bo'lmasligi belgilangan.

Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligidagi ba'zi cheklovlar davlatlar tajribasida uchraydi. Chunki, shunday bo'lmasa, davlat kuchsizlanib qoladi, kuchsiz davlat esa, fuqarolarning huquq-erkinliklarini, manfaatini himoya qila olmaydi. Sirlari oshkor bo'lib, zaif bo'lgan davlatlarga boshqa davlatlar, qo'shni davlatlar har xil tazyiqlar o'tkazishga, o'z shartlarini qo'yishga harakat qiladilar. Shuning uchun Konstitutsiyadagi erkinliklarni ayrim hollarda, qonun asosida cheklashlarni aslo huquq va erkinliklarning chegaralash emas, aksincha huquq va erkinliklarni keng amal qilishiga yaratilgan imkoniyat deb qarash kerak.

Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklari demokratik jamiyat asoslaridan biri ekanligi Prezident Konsepsiyasida alohida ta'kidlandi. ".....fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi"[1].

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. 28-bet.

7-§. Vijdon erkinligi

Fuqarolarning vijdon erkinligi orqali dinga munosabat aniqlanadi. Mamlakatimizdagi barcha shaxslar uchun (millati, irqidan qat'i nazar) vijdon erkinligi kafolatlanadi. Bu Konstitutsiyaning 31-moddasida quyidagicha ifodalangan: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi".

Demak, vijdon erkinligi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

har bir fuqaroning xohlagan diniga e'tiqod qilishi;

yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmasligi;

hech qanday diniy qarashlarni majburiy singdirilishiga yo'l qo'yilmasligi.

Har qanday dinda insonni ma'naviy-axloqiy kamol topishga, birodarlik, bag'rikenglikka undovchi ijobiy ma'lumotlar mavjud. Shuning uchun ham dinga e'tiqod qilish, uning qoidalariga amal qilish taqiqlanmaydi. Shuningdek, biror-bir dinga e'tiqod qilish uchun da'vatlar qilish, targ'ibot qilishga, ma'lum bir dinning ustunligini ko'rsatishga ham yo'l qo'yilmaydi.

Vijdon erkinligi xalqaro miqyosda e'tirof etilgan erkinlik bo'lib, u "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da ham mustahkamlangan.

Vijdon erkinligi Konstitutsiyamizdan tashqari boshqa qonunlarda ham belgilangan bo'lib, bu qonunlar fuqarolarning Konstitutsiyaviy vijdon erkinligini ta'minlashni, kafolatlashni nazarda tutadi.

1998-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu Qonun har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Qonun qoidalari fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik huquqini ta'minlashni nazarda tutish bilan birga, diniy rasm-rusumlar, marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka o'z ixtiyori bilan yondashishni ko'zda tutadi.

Vijdon erkinligi fuqarolarga diniy ta'lim olish, din namoyandasi bo'lish imkoniyatlarini ham beradi. Faqat hech kim o'z ixtiyoriga zid tarzda diniy ta'limot olishga majbur qilinmaydi.

Dinni niqob qilib olib, insoniyatning hayotiga xavf soluvchi, ongini zaharlovchi turli g'oyalarni kishilar ongiga kiritishga harakatlar taqiqlangan bo'lib, bunday taqiqlar aslo vijdon erkinligiga zid bo'lmay, aksincha uning to'la namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi.

Mamlakatimizda muqaddas diniy bayramlarimizni nishonlashning belgilanishi, kishilarning ibodat qilishi uchun masjid va cherkovlarning faoliyat ko'rsatayotganligi, diniy bilimlar olish uchun turli bosqichda diniy o'quv muassasalarining mavjudligi vijdon erkinligining amal qilishidir.

Fuqaro va shaxslarning shaxsiy huquq va erkinliklari huquq va erkinliklar tizimida yetakchi o'rinda turadi. Chunki, bu huquqlar tabiiy huquqlar bo'lib, insonning tug'ilishi bilan vujudga keladi. Davlat esa, ana shu huquqlarni ta'minlashga majbur. Shuning uchun bu vazifani bajarish maqsadida O'zbekiston davlati barcha choralarni ko'rgan. Shaxsiy huquq va erkinliklar Konstitutsiyamizda keng va mukammal belgilangan va ularning amalga oshishini ta'minlovchi kuchli tizim barpo etilgan. Hamda bu tizim muntazam ravishda takomillashtirilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fuqaroning shaxsiy huquqi nima?
2. Fuqaroning shaxsiy erkinligi deganda nima nazarda tutiladi?
3. Nima uchun shaxsiy huquq va erkinliklar ustuvor hisoblanadi?
4. Yashash huquqi nima?
5. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik deganda nima tushuniladi?
6. Shaxs qachon aybdor deb topiladi?
7. Shaxsning huquqi sudda qanday himoyalanadi?
8. Turar joy daxlsizligi nima?
9. So'zlashuv, yozishmalar qanday sir saqlanadi?
10. Shaxs o'z huquq va erkinligini qanday himoya qiladi?
11. Yashash joyini erkin tanlash huquqi nima?

12. Fikrlash, so'z, e'tiqod erkinligi nima?
13. Axborot olish huquqi qanday ta'minlanadi?
14. Vijdon erkinligi nima?

X bob. Siyosiy huquqlar

1-§. Siyosiy huquqlar tushunchasi

Siyosiy huquqlar fuqarolik bilan bog'liq bo'lib, u tegishli davlatning fuqarolariga davlat va jamiyat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Siyosiy huquqlarga faqat mamlakat fuqarosi ega bo'lishi mumkin.

Siyosiy huquqlar orqali fuqarolar tegishli davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etish, davlat organlari va mansabdorlar faoliyatini nazorat qilish, qonunlar yaratilishida ishtirok etish, siyosat va davlat faoliyati haqida o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agar shaxsiy huquqlar insonning ajralmas huquqi bo'lib, undan inson fuqaroligidan qat'i nazar foydalansa va davlat har qanday hollarda ularni ta'minlashga majbur bo'lsa, siyosiy huquqlar davlatning xarakteridan kelib chiqib, o'z fuqarolari uchungina o'rnatiladi. Davlat qanchalik demokratik bo'lsa, siyosiy huquqlar ko'proq bo'ladi va ulardan foydalanish kengroq bo'ladi. Aksincha, davlat nodemokratik bo'lsa, siyosiy huquqlar doirasi torroq bo'ladi va mavjud huquqlarni ham turli vositalar bilan cheklash hollari uchrab turadi.

Siyosiy huquqlar eng avvalo davlatni boshqarishda ishtirok etish, davlat faoliyatiga ta'sir etish imkoniyatini yaratuvchi huquqlar bo'lgani uchun ularning miqdori, amalga oshirish chora-tadbirlar doirasi qanday bo'lishini davlat belgilaydi.

Shaxsiy huquqlardan farq qilib, siyosiy huquqlarga asosan ma'lum yoshga yetgan fuqarolar ega bo'ladi. Shuningdek, siyosiy huquqlardan foydalanishda ayrim hollarda chegaralar o'rnatilishi mumkin. Masalan, saylash huquqi 18 yosh qilib belgilangan bo'lsa, yana saylovlarda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar, degan qoida Konstitutsiyada (117-modda) ko'rsatilgan. Saylanish huquqidan foydalanish uchun ham ma'lum yoshga yetgan bo'lish kerak. Masalan, O'zbekiston Respublikasida fuqarolar Oliy Majlis deputatligiga 25 yoshdan, Prezidentlikka

35 yoshdan saylanish huquqiga ega. Bundan tashqari, saylov qonunlarida harbiy xizmatchilar, diniy arboblar uchun ham qonun doirasida cheklashlar o'rnatilgan.

Siyosiy huquqlarni amalga oshirishda o'rnatiladigan ayrim cheklashlar boshqa xorijiy mamlakatlar qonunchiligida ham mavjud.

2-§. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish huquqi

Siyosiy huquqlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishini ta'minlaydi. Konstitutsiyaning 32-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi", – deb belgilangan.

Demak, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtiroki, eng avvalo, davlat va jamiyatni boshqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, bu davlat va jamiyat ishlarini boshqarish huquqidir. Ana shu huquq turli shakllar, vositalar orqali ro'yobga chiqariladi.

Konstitutsiyaning o'zida qayd qilinishicha, fuqarolar davlatni boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etadi. Fuqarolarning davlatni boshqarishdagi ishtirokini ta'minlovchi huquq, eng avvalo, saylov huquqidir.

"Erkin saylov va o'z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat ho-kimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi"[1].

O'zbekiston fuqarolari ma'lum yoshga yetgach, saylov huquqidan foydalanadi. Bu saylash huquqi va saylanish huquqidir. Saylovlarda fuqarolarning bevosita ishtirok etish huquqi ham, vakillari orqali ishtirok etish huquqi ham ta'minlanadi. Agar fuqarolarning saylovda ovoz berishi, saylov komissiyalari faoliyatida ishtirok etishi bevosita ishtirokiga misol bo'lsa, fuqarolar tomonidan

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 35-bet.

saylangan deputatlar, Prezident xalq nomidan ish ko'rishi sababli xalqning vakillari orqali ishtirokiga misol bo'ladi.

Senatorlarni fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri saylamasa-da, ular ham vakillik ifodasidir, ularni xalq saylagan deputatlar o'z orasidan saylaydi. Davlat organlari ishida hamma fuqarolarning bevosita ishtirok etishiga imkoniyat yo'q, shuning uchun bir guruh fuqarolar yoki shaxslar davlat organlarida davlatni boshqarishda bevosita ishtirok etsa, (deputat, Senator, Prezident), bir guruh fuqarolar ularning vakili sifatida ishtirok etadi (yana deputatlar, senatorlar, Prezident).

Fuqarolar davlat va jamiyat hayotiga taalluqli muhim masalalar yuzasidan referendumda (ovoz berishda) ishtirok etish, qonun loyihalari muhokamasida ishtirok etish orqali ham davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etgan hisoblanadi. O'zbekistonda oxirgi referendum 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilib, unda Parlamentning ikki palatali strukturasiga o'tish, Prezidentning vakolat muddatini besh yildan yetti yilga o'zgartirish masalasi hal qilindi. Referendumda ham saylovdagi kabi ma'lum yoshga yetgan fuqarolar ishtirok etadi.

"O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi Qonun 2001-yil 30-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan bo'lib, unga asosan referendum xalq irodasining bevosita ifodasi hisoblandi.

Mamlakatimizda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtiroki huquqini ta'minlovchi vositalardan biri o'zini o'zi boshqarish faoliyati hisoblanadi. O'zini o'zi boshqarish organlari butun mamlakat hududida qishloq, shaharcha va shahardagi mahallalarda tuziladigan fuqarolar yig'ini bo'lib, ular barcha 18 yoshga yetgan fuqarolarni qamrab oladi. Fuqarolar fuqarolar yig'ini ishida ishtirok etib, uning organlarini tuzishda qatnashadi va shu asosda jamiyat ishlarida ishtirok etadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanib borishi bilan fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etish yo'llari kengayib bormoqda.

2010-yil 12-noyabrda Prezident tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasida

jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” Qonun qabul qilish zarurligi aytib o‘tildi[1].

Bu fuqarolar davlat va jamiyat ishlarida faqat davlat organlarini tuzishda ishtirok etish bilan chegaralanmay, ularning faoliyatini nazorat qilishda ham qatnashishini ko‘rsatadi.

3-§. Mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi

Har qanday mamlakatning (jamiyatning) taraqqiyoti ham, tanazzuli ham fuqarolar faoliyatiga bog‘liq. Mamlakatda bo‘layotgan siyosiy voqealarda, iqtisodiy jarayonlarda, xalqaro masalalarda fuqarolar kuzatuvchi sifatida emas, shu jarayonlarning ishtirokchisi sifatida o‘z o‘rnini topsa, jamiyat rivojlanadi va bu rivojlanish fuqarolar taqdiriga ijobiy ta’sir qiladi. Demak, fuqarolarning siyosiy faollik asosida jamiyat hayotida ishtirok etishi zaruratdir.

Fuqarolarning siyosiy faolligi ularga konstitutsiya va qonunlar asosida beriladigan va kafolatlangan siyosiy huquqlar orqali ta’minlanadi.

Fuqarolarning siyosiy faolligi ularga berilgan ayrim huquqlar orqali amalga oshiriladi.

Jahon mamlakatlari tajribasida fuqarolarning jamiyat va davlat taraqqiyotiga ta’siri turli shakllarda amalga oshiriladi. Fuqarolar voqea-hodisalarga ta’sir etuvchi vositalarga erishish uchun uzoq vaqt kurash olib borishgan, natijada ularga miting, namoyish, yig‘ilish o‘tkazish huquqi berilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham demokratiyaning ajralmas xususiyatlaridan bo‘lgan va fuqarolar faoliyatini ta’minlovchi miting, namoyish, yig‘ilish o‘tkazish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan. 33-moddada: “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xafvsizlik nuqtayi nazaridangina bunday tadbirlar

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 46-bet.

o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega", – deb belgilangan.

Shu moddaning mazmuniga e'tibor bersak, birinchidan, miting, yig'ilish, namoyish fuqarolarning ijtimoiy faolligini namoyon qilish usullari hisoblanadi. Ikkinchidan, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar faqat qonunga asosan o'tkaziladi.

Miting, yig'ilish, namoyishlar o'tkazish natijasida boshqa kishilarning, fuqarolarning manfaati, huquqi buzilmasligi kerak. Masalan, shunday tadbirlar o'tkazilishi natijasida transport harakati to'xtab qolsa yoki fuqarolar o'zlari uchun zarur mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, buni boshqa fuqarolarning manfaatiga zarar keltiruvchi harakat deb qarash mumkin.

Miting, yig'ilish, namoyishlar vaqtida qonun doirasidan chiqib ketish natijasida turli-tuman zararli holatlar, ya'ni mol-mulklarning nobud bo'lishi, fuqarolarga jismoniy zarar yetkazish hollari uchrab turadi. Yoki ko'pchilik to'plangan vaqtda ularni tartibli ushlab turish imkoniyati bo'lmay qolishi natijasida chegaradan chiqib ketish oqibatida xavfsizlikka ziyon yetkazilishi mumkin.

Bu holatni keyingi vaqtda arab mamlakatlarida bo'layotgan voqealar ham tasdiqlaydi.

Shuning uchun Konstitutsiyaning o'zida hokimiyat organlari xavfsizlik nuqtayi nazaridangina miting, yig'ilish, namoyishlar o'tkazishni to'xtatib qo'yishi, taqiqlashi mumkinligi belgilangan.

Miting, yig'ilish, namoyish o'tkazish tashkilotchilari bu tadbirlar nima uchun, qaerda, qachon o'tkazilishi haqida hokimiyat organlariga xabar berishi va tadbir o'tkazishga ularning roziligini olishi qonun doirasida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 217-moddasida "Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazish tartibini buzish" uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Miting, yig'ilish va namoyishlarning xavfsizlikka va fuqarolar manfaatiga zarar yetkazmasligi nuqtayi nazaridan, ularni o'tkazishga ruxsat berish yoki to'xtatish, taqiqlash tartibi boshqa mamlakatlarning qonunlarida ham uchraydi.

4-§. Jamoat birlashmalariga birlashish va ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi

Fuqarolar davlat va jamiyat ishlarida turli vositalar orqali ishtirok etadi. Shulardan biri fuqarolarning turli jamoat birlashmalari, harakatlarini tashkil qilish, ularga a'zo bo'lib kirish huquqlaridir.

Konstitutsiyaning 34-moddasi birinchi qismida fuqarolar kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egaligi mustahkamlangan.

Tashkilot, korxona, muassasalarda fuqarolar o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilashni yo'lga qo'yish maqsadida kasaba uyushmalariga birlashadi.

Fuqarolar o'z siyosiy qarashlari, manfaatlaridagi umumiylik asosida siyosiy partiyalarga birlashadi va ularning faoliyati orqali mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etadi.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat qurishni shunchaki vazifa qilib qo'ymasdan, demokratik davlatga xos barcha xususiyatlarning bo'lishi choralarini ko'rdi. Jumladan, yakka partiya hukmronligiga barham berildi va ko'p partiyali tizim shakllantirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokragik partiyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'ppartiyaviylik tizimi fuqarolarning siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish huquqini ta'minlabgina qolmasdan, har bir fuqaroga o'z qarashlariga mos ravishda siyosiy partiyaga a'zo bo'lish imkoniyatini beradi. Bu fikrlar xilma-xilligi, fikrlash erkinligi g'oyalarini amalda ta'minlaydi.

Siyosiy partiyalarning prezidentlikka, vakillik organlariga nomzod ko'rsatish huquqiga egaligi, vakillik organlarida partiya fraksiyalarini tuzish mumkinligi fuqarolarga siyosiy partiyalar orqali jamiyat va davlat ishlarida real ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, fuqarolar jinslari, yoshlari, o'zlarining kasbi, qobiliyatiga qarab ham jamoat birlashmalariga uyushishi mumkin. Bular "Xotin-qizlar qo'mitasi", "Yozuvchilar", "Basta-

korlar", "Jurnalistlar" uyushmalaridir. Jamoat birlashmalaridan tashqari, fuqarolar ma'lum maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega.

Yoshlar, talabalar "Kamolot" harakati faoliyatida ishtirok etish bilan o'quv muassasasi hayotida ishtirok etadi. O'zlarining qobiliyatlarini turli sohalarda namoyon qilish, muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Konstitutsiyaning 34-moddasi ikkinchi qismida bayon qilingan "Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy hara-katlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas", degan qoida esa, siyosiy huquqlarga barcha fuqarolar bir xilda egaligini bildiradi va huquqlar amalga oshishining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

5-§. Vakolatli organlarga murojaat etish huquqi

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish shakllaridan biri davlat organlariga, muassasalariga, mansabdor shaxslarga, xalq vakillariga murojaat etish huquqidir.

Murojaat orqali fuqarolar davlat va jamiyat ishlarida bevosita ishtirok etadi.

Vakolatli davlat organlariga fuqarolarning murojaat etish huquqi O'zbekiston mustaqilligi natijasida Konstitutsiyaviy huquq maqomida mustahkamlandi. Sovet Ittifoqi davridagi konstitutsiyalarda bunday huquq ko'zda tutilmagan edi. Hatto bu masala qonunlar asosida hal qilinmay, farmonlar bilan hal qilingan edi.

Fuqarolar murojaati orqali davlat va jamiyat hayotiga ta'sir etishining muhimligi hisobga olinib, shu huquq konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi.

Konstitutsiyaning 35-moddasida "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart" – deb belgilangan.

Bularni kengroq yoritadigan bo'lsak, fuqarolar yakka tartibda yoki boshqa fuqarolar bilan birgalikda vakolatli organlarga, muassasalarga, xalq vakillariga murojaat qilish huquqiga ega.

Murojaatlar turlicha bo'lib (murojaat turlari), ular ariza, taklif yoki shikoyat ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Arizalar orqali fuqarolar o'zlarining turli huquqlarini ro'yobga chiqarishni so'raydi. Masalan: ishga kirish, ishdan bo'shash, o'qishga kirish, ta'til olish, ta'minot olish va hokazolar.

Takliflar orqali fuqarolar ko'proq ijtimoiy muammolarni hal qilish yo'llari, ishlab chiqarishni takomillashtirish, o'quv jarayonini takomillashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, qoidalarni takomillashtirish, atrof-muhitni sog'lomlashtirish, moddiy va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

Shikoyatlar orqali buzilgan huquqlarini tiklash, aybdorlarga chora ko'rish, zararni qoplash talab etiladi. Arizaning asosini iltimos tashkil etsa, shikoyatning asosini talab tashkil etadi. Shikoyatlar orqali sodir etilgan yoki sodir etilayotgan, etilishi mumkin bo'lgan qonunsiz harakatlar to'g'risida xabarlar berilishi mumkin.

Fuqarolarning murojaatlari yozma yoki og'zaki bo'lishi, ular aloqa vositalari orqali, ommaviy axborot vositalari orqali taqdim qilinishi yoki shaxsan topshirilishi mumkin.

Konstitutsiyada murojaatlarni ko'rish tartibi va muddati qonun asosida hal qilinishi belgilangan. O'zbekistonda fuqarolarning murojaatlarini ko'rish tartibi va muddati, bu boradagi vakolatli organlar, mansabdor shaxslarning huquq-burchlari "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi 2002-yil 13-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan qonunda belgilab qo'yilgan.

Fuqarolarning murojaat qilish huquqi amalga oshishida eng muhim masala – murojaat qanday hal qilinishidan qat'i nazar, vaqtida asosli, ishonchli javob olish hisoblanadi. Vaqtida va ishonchli javob olinmasa takror murojaatlar, yuqori organlarga murojaatlar soni ortib boradi.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rish tartibi sud organlarida o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, bu masala O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni va Fuqarolik protsessual kodeksi asosida tartibga solinadi.

Fuqarolar murojaat qilish huquqidan boshqalarga tuhmat qilish, boshqaruv tartiblarini izdan chiqarishda foydalanmasligi, g'arazli niyatlarni amalga oshirishga urinmasligi kerak. Shunday hollar bo'ladigan bo'lsa, aybdor shaxslar jazolanadi.

Fuqarolarning murojaat qilish huquqi Konstitutsiyaning "Siyosiy huquqlar" bobida shu turdagi huquqlar tizimida berilgan.

Umumiy qoidalarga asosan siyosiy huquqlardan faqat fuqarolar foydalanishi kerak. Lekin bu yerda shu qoida istisno tariqasida amal qilmaydi. Sababi, murojaat qilish huquqi davlat ishida ishtirokni ta'minlashdan ancha kengroq vazifalarni, ya'ni iqtisodiy turmush, o'zining qadr-qimmati, sha'nini himoya qilishni ham ko'zlaydi.

Avvalgi boblarda O'zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonunida Ombudsman chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning murojaatlarini ko'rishi mumkinligi belgilanganligini ko'rdik. Chet el fuqarolari faqat ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilishi mumkin. Taklif bilan murojaat qila olmaydi. Taklif davlat hayotiga tegishli masalalar bo'yicha beriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Siyosiy huquq va erkinliklar orqali fuqarolar nimaga erishadi?

2. Siyosiy huquqlarga kimlar ega?

3. Qanday siyosiy huquq va erkinliklar Konstitutsiyada belgilangan?

4. Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolar qanday ishtirok etadi?

5. Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini qanday shakllarda amalga oshiradi?

6. Qanday hollarda miting, namoyish va yig'ilishlar o'tkazish to'xtatilishi yoki taqiqlanishi mumkin?

7. O'zbekistonda jamoat birlashmalari nima maqsadda tashkil qilinadi?

8. Jamoat birlashmalarining qanday turlari bor?

9. Fuqarolarning murojaat qilish huquqi qanday huquq va u qanday ta'minlanadi?

10. Murojaat turlari qanday?

XI bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

1-§. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasi

Fuqarolarning normal hayot kechirishi, tabiiy va ma'naviy boyliklardan foydalanishi, bilim olishi, mehnat qilishi, sog'lig'ini saqlashi uchun tegishli imkoniyatlar bo'lishi shart. Bu imkoniyatlar davlat tomonidan yaratiladi va ulardan foydalanish uchun qonun doirasida huquqlar o'rnatiladi. Bunday huquqlarning asosiylari Konstitutsiyada belgilanadi.

Fuqarolarning mulkka egalik qilish, mehnat qilish, dam olish, nafaqa olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy yutuqlardan foydalanish kabilarga bo'lgan huquqlari "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb belgilangan. Bu huquqlar davlat tomonidan o'rnatilib, davlatning iqtisodiy qudrati oshib borishi, imkoniyatlarining kengayishi natijasida kengayib boradi. Bu huquqlardan foydalanish orqali fuqarolar o'z yashash sharoitini o'zi ta'minlaydi. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobi "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb atalib, uning alohida moddalarida belgilangan qoidalar, fuqarolarning turmush tarzi normal bo'lishini ko'zda tutadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar doirasi, qo'llanish tarzi hech qanday demokratik davlatlardan kam emas va belgilangan qoidalar xalqaro hujjat normalariga va ularda belgilangan talablarga mosdir.

O'zbekiston fuqarolari uchun belgilangan ayrim iqtisodiy huquqlar, O'zbekistonning demokratik yo'ldan borayotganligi, jahon tajribasiga tayanish, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish maqsadining haqiqiy isbotini ko'rsatadi. Masalan, "Mulkdor bo'lish huquqi". Ayrim iqtisodiy huquqlar esa, yuqoridagi holatlarga asosan yangicha mazmunda, sharoitga mos ravishda talqin qilindi. Masalan, "Mehnat qilish huquqi" Sobiq tuzum davrida ham "Mehnat qilish huquqi" bo'lsa-da, albatta, mehnat qilish burch sifatida ham belgilab qo'yilgan edi. Bu erkin mehnat qilish tamoyiliga zid edi.

Mustaqillik davrida Konstitutsiyada belgilangan iqtisodiy-ijtimoiy huquqlardan foydalanish natijasida fuqarolar o'z hayotini o'zi xohlagancha qurish, moddiy ne'matlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

2-§. Mulkdor bo'lish huquqi

Mulkdor bo'lish huquqiga O'zbekiston fuqarolari va mamlakatimizda yashovchi boshqa shaxslar mustaqillik natijasida erishdi, deb aytilsa xato bo'lmaydi. Chunki, sobiq tuzum davrida qabul qilingan birorta Konstitutsiyada bunday huquq yo'q edi. Sotsialistik tuzum umuman xususiy mulkni inkor etar edi. Mulk esa, xususiylik bilan bevosita bog'liq.

Sobiq tuzumda jamiyatdagi notenglikni xususiy mulkka ega bo'lish keltirib chiqaradi, mulk kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilish, ezish sababi deb ko'rsatilar edi. Aslida esa, mulkka ega bo'lish, mulkdor bo'lish insonlarning erkinligi, har narsada o'z fikri bo'lishini ta'minlovchi vositadir.

Shuning uchun ham O'zbekiston mulk masalasiga, unga egalik qilish masalasiga boshqacha, aniqrog'i, to'g'ri yondashdi. Mamlakatda olib borilayotgan mulkdorlar sinfini shakllantirish siyosati ham, har bir kishini boyitish va u orqali mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishni ko'zlaydi.

Konstitutsiyaning 36-moddasida "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi", – deb belgilangan.

Bu moddadagi qoidalar birdaniga bir necha masalani hal qilgan.

Birinchi, har bir kishining mulkdor bo'lishi, ya'ni mulkka ega bo'lishini, ikkinchi, mulkning ajralmas qismi bo'lgan bankka qo'yilgan omonatlarning sir saqlanishini, uchinchi, mulk bilan bog'liq masala – meros huquqining qonun bilan kafolatlanishini.

Mulkka ega bo'lish har bir insonning faqat farovon hayot kechirishni emas, erkinligini, kelajakka ishonch bilan qarashini, avlodlar oldida obro'sini ta'minlovchi shartlardan hisoblanadi. Respublikamizda mulkdor bo'lish huquqi Konstitutsiyadagina bel-

gilanib qolinmasdan, shu huquqni ro'yobga chiqaruvchi, aniqrog'i, kishilar mulkdor bo'lishini ta'minlovchi ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi va tadbirlar o'tkazildi.

Iqtisodiy islohotlarning turli bosqichlarida amalga oshirilgan turli mulklarni davlat tasarrufidan chiqarib, xususiylashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yaratilgan boshqa sharoitlar natijasida aholining ko'plab qismi mulkka ega bo'ldi va jamiyatda barqarorlik shartlaridan biri bo'lgan, mulkdorlar tabaqasi shakllandi va rivojlanmoqda.

Mulkiy masalalarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi" normalari mulk masalalarini belgilashga, bozor sharoitidan kelib chiqib yondashdi va mulkdor bo'lish huquqining kafolatlarini kuchaytirdi. Endi mulk faqat mehnat qilish evaziga orttirilgan daromadlar bilan cheklanmay (sobiq tuzum davridagi kabi), boshqa turli qonuniy faoliyat turlari orqali ham mulkka ega bo'lish mumkinligi qonunda mustahkamlandi.

Konstitutsiyaga asoslanib qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, banklar mijozlarning bankdagi omonatlari miqdorinigina emas, amalga oshirgan har qanday bank operatsiyalari hisob raqamlarini sir saqlash majburiyatini oladi.

Xuddi shuningdek, "Meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi", degan konstitutsiyaviy qoidani amalga tatbiq etish uchun qonunchiligimizda aniq va keng normalar mavjud. Mulkdorning mulki vasiyat bo'yicha yoki qonunda belgilangan tartibda merosxo'rga qoldirilishi meros huquqining kafolatidir.

Mulkdor qonunsiz mulkidan mahrum qilinishi mumkin emas.

3-§. Mehnat qilish huquqi. Majburiy mehnatning taqiqlanishi

Mehnat har qanday sharoitda ham daromadlar manbaidir. Aksariyat kishilar o'z turmushini mehnat orqali vujudga keladigan daromadlar hisobiga quradi. Shuning uchun mehnat qilishga bo'lgan huquqning Konstitutsiyada belgilanishi va boshqa qonunlar asosida uning ta'minlanishi fuqarolar va jamiyat uchun muhim masaladir.

Har bir mehnatga layoqatli shaxsni shu huquq bilan ta'minlash va ishsizlikdan himoyalash davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 37-moddasi mehnat huquqi va u bilan bog'lik masalalarni mustahkamlagan. Unga ko'ra, "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi".

Bu moddaning qoidalari kishilarga faqat mehnat qilish huquqini berib qolmay, har bir kishiga o'z imkoniyati, qobiliyati, bilimiga qarab kasb tanlashda erkinlik beradi, adolatli qulay sharoitlarda mehnat qilish imkoniyati bo'lishligini belgilaydi va nihoyat kishilarni ishsizlikdan himoya qilishni nazarda tutadi. Yuqorida ham aytib o'tilganidek, har bir kishini, albatta, mehnat qilishi shartligini belgilovchi biror bir qoida yoki ko'rsatma mazkur moddada yo'q.

Qanday hollarda kishilarni majburiy mehnat qilishga jalb etish ham aniq ko'rsatilgan. Bu – kishilarni faqat sud hukmiga ko'ra majburiy mehnat qildirish yoki qonunda belgilangan holdagina kishini o'z ixtiyoridan tashqari mehnatga majburiy jalb qilish mumkin, degan qoidada ko'rinadi.

Mehnat qilish huquqi natijasida har bir shaxs mamlakat qonunlari bilan taqiqlanmagan har qanday ishni qilishi, o'ziga ma'qul faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin. Mehnat qilish huquqining mavjudligi shunday imkoniyatni vujudga keltiradi.

Mehnat qilish huquqi orqali shaxslar davlat organlari, tashkilot, korxona, muassasalarida, jamoat birlashmalarida, nodavlat notijorat tashkilotlarida, tijorat tashkilotlarida, shaxsiy xo'jaligida mehnat qilishi mumkin.

Bozor munosabatlariga xos xususiyatlardan biri ishsizlikdir. Biror-bir davlat bu muammodan holi emas, ishsizlik barcha davlatlarda uchraydi. Hech qanday davlat aholining barchasini ish bilan ta'minlay olmaydi. Lekin ishsizlikdan himoya qilish, ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish davlat vazifalaridandir.

Mehnat qilaman deganlarni ish bilan ta'minlash, buning uchun ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatiga yordam berish davlat zimmasida bo'lib qolaveradi.

Erkin kasb tanlash huquqini amalga oshirish uchun ham davlat ko'plab ishlarni amalga oshiradi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimida kasb-hunar kolleji orqali mutaxassislar tayyorlash va har bir kollejda bir yo'la bir necha kasbga ega bo'lish imkoniyatining mavjudligi Konstitutsiyada ko'rsatilgan erkin kasb tanlash huquqidan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Oliy o'quv yurtlarida xalq xo'jaligi, boshqaruv uchun yetarli kadrlar tayyorlanishi yo'lga qo'yilgan.

Mehnat huquqining amal qilishi natijasida ko'plab mehnat munosabatlari vujudga keladi, ya'ni ishga kirish, normal sharoitlarda ishlash, mehnatni muhofaza qilish; ishdan bo'shash yoki bo'shatish va boshqalar. Mehnat qilish huquqining amalga oshishi doirasidagi shunday munosabatlar mehnat qonunchiligi, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

4-§. Dam olish huquqi

Har bir inson sarflagan kuch-g'ayratini, aqlini, albatta, qayta tiklashi, yangi mehnat faoliyatini boshlaganda (jismoniy, aqliy) yetarli ish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun har bir kishi ma'lum vaqtda dam olishi kerak. Shuning uchun dam olishga bo'lgan huquq ham konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning 38-moddasida "Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi", – deb belgilangan. Konstitutsiya normasi mazmuniga e'tibor bersak, dam olish huquqi avvalo ish vaqtiga mehnat faoliyatiga bog'liqligini ko'ramiz. Turli toifadagi mehnat qiluvchilarning ish hajmi, mehnat sharoiti, jismoniy yoki aqliy mehnat faoliyati turlariga qarab bir ish kuni tugagandan keyingi ish kuni boshlanguncha bo'lgan vaqt fuqarolarining o'z ixtiyorida bo'lib, shu paytda ular xohlagancha dam oladi. Hafta tugashi bilan ham ayrim sohalarda bir kunlik, ayrim sohalarda ikki kunlik dam olish belgilanadi.

Mehnat qiluvchilar mehnat kuni, mehnat staji, mehnat sharoitlari hisobga olingan holda yillik ta'til (dam olish) olish huquqiga ega. Bu dam olish huquqining yana bir muhim xususiyati unga haq to'lanadi. Xodim qonunda belgilangan muddatda mehnat ta'tilida bo'lib, dam olayotganda shu muddatga haq oladi.

Ish vaqti, dam olish vaqti muddatlari, mehnat ta'tiliga haq to'lash mehnat qonunchiligi asosida amalga oshiriladi. Qonunchilikda kimlar, qayerda qancha ishlashi, qancha muddatdagi ta'tilga chiqishi, unga qancha haq to'lanishi belgilangan. Ayrim toifadagi xodimlarga umumiy belgilangan ish vaqtidan boshqacharoq vaqt miqdorlari belgilangan. 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan, I va II guruh nogironlari bo'lgan xodimlarga ham haftasiga 36 soatdan oshmagan ish haftasi belgilanadi. Zararli ish joylarida ishlovchi hamda 3 yoshgacha farzandi bo'lgan xodimlarning ham ish vaqti qisqartirilgan holda belgilanadi. Pedagog xodimlarning ham ish haftasi qisqartirilgandir.

Mehnat ta'tillari ham turli toifadagi va yoshdagi xodimlar uchun turlicha belgilangan bo'lib ular 24 kundan 48 kungacha bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda turli sanalar, voqealar bilan bog'liq kunlar bayram deb e'lon qilinib, dam olish kuni hisoblangan. 1 yanvar – Yangi yil, 8 mart – Xotin-qizlar kuni, 21 Mart – Navro'z bayrami, 9 may – Xotira va qadrlash kuni, 1 sentabr – Mustaqillik kuni, 1 Oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni, 8 dekabr – Konstitutsiya kuni, Ro'za va Qurbon hayiti diniy bayramlarining birinchi kunlari dam olish kuni hisoblanadi. Bularning barchasi fuqarolarning dam olish huquqi ro'yobga chiqqanligidir.

5-§. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi

Fuqarolarning mehnat qilish qobiliyati yo'qolganda yoki pasayganda davlat ularni qo'llab-quvvatlashi, xalqaro hujjatlar talabidan, davlatning insoniylik g'oyasiga sodiqlik prinsipidan kelib chiqadi.

Kishi o'zining kuch-quvvatini, aqlini, qolaversa, ularning ma'lum qismini davlat idora, korxona, muassasalarida mehnat qilishga sarflash bilan nafaqat o'zining moddiy ehtiyojini qondiradi, shu

bilan birga, davlatga uning korxona, tashkilot, muassasalarining rivojlanishiga, moddiy jihatdan mustahkamlanishiga ham hissa qo'shadi. Shuning uchun kishilar qariganda yoki boshqa sabablar bilan vaqtincha yoki butunlay mehnat qobiliyatini yo'qotganda, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Konstitutsiyada fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish huquqi belgilanishi fuqarolarni ijtimoiy tomondan qo'llab-quvvatlashning huquqiy asosi hisoblanadi. Konstitutsiyaning 39-moddasida bu quyidagicha belgilangan: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazar-da tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas".

Bu konstitutsiyaviy normaga asosan ijtimoiy ta'minot olish huquqiga qariganda, ya'ni ma'lum yoshga yetganda; mehnat layoqatini yo'qotganda; boquvchisidan mahrum bo'lganda hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ega bo'linadi. Bu masalalar huquqiy jihatdan Mehnat kodeksi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Fuqarolar qariganda qarilik pensiyasini olish huquqiga ega, qarilik pensiyasini olish huquqi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh qilib belgilangan hamda qonunlar ayrim toifa xodimlariga bundan-da qisqartirilgan yoshlarda qarilik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lishni belgilaydi. Masalan, 5 va undan ko'p bola parvarishlagan ayollar 50 yoshdan, ayrim faoliyat turlarida mehnat qiluvchi erkaklar 55 yoshdan, ayollar 50 yoshdan shunday huquqqa ega bo'ladi.

Fuqarolar mehnat layoqatini yo'qotganda ta'minot olish huquqiga ham turli sharoitlarda ega bo'ladi. Bunday ta'minot turlari vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganda yoki butunlay mehnat qobiliyatini yo'qotganda vujudga keladi.

Konstitutsiya yosh bolalarning to'la-to'kis voyaga yetishini nazarda tutgan holda boquvchisini yo'qotish hollarida tegishli shaxslarning ijtimoiy ta'minot bilan qo'llab-quvvatlanishini nazarda tutadi.

Shuningdek, Konstitutsiyada, qonunda ko'zda tutilgan boshqa hollarda ham fuqarolar ijtimoiy ta'minot olish huquqiga egaligi belgilangan. Bu farzand tug'ish va uni ma'lum yoshigacha parvarish qilish muddatidagi nafaqa; tabiiy ofat yoki boshqa falokatlar tufayli jiddiy iqtisodiy va boshqa zarar ko'rganlarga beriladigan nafaqalar; kam ta'minlanganlarga beriladigan nafaqalar va hokazolardir.

Mamlakatimiz iqtisodiy qudratining ortib borishi, fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqi kengayib borishiga, ijtimoiy ta'minlash imkoniyati kuchayib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buni pensiya va boshqa ta'minot miqdorlarining bosqichma-bosqich oshib borayotganligidan ko'rish mumkin. Bundan tashqari pensiya ta'minotini yanada takomillashtirish uchun qo'shimcha choralar ko'rilmoqda. Pensiya jamg'armalari tuzilgan.

Umuman, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning bir turi bo'lib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash esa, Prezident ilgari surgan mamlakat rivojlanishini ta'minlovchi besh prinsipidan bittasidir.

6-§. Tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi

Konstitutsiyaning 40-moddasi "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega"ligini mustahkamlagan.

Bu huquq insonning hayotga, yashashga bo'lgan huquqining qo'shimcha kafolatidir. Inson sog'-salomat, jismoniy kamchiliksiz yashasa, baxtli hayot kechirishi mumkin. Inson o'z sog'lig'iga o'zi turli yo'llar bilan g'amxo'rlik qiladi va bunda davlatning ko'magiga, yordamiga tayanadi.

Davlat insonning sog'lig'ini himoya qilib, ularga malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga imkoniyat yaratib beradi. Bu huquq amal qilganda mamlakatda inson salomatligini saqlovchi, tiklovchi muassasalarni malakali, bilimli mutaxassislar tizimi (kasalxona, poliklinika, sanatoriylar) faoliyat ko'rsatadi. Ular zamonaviy texnik vositalar orqali jihozlanadi. Inson salomatligini tiklovchi, saqlovchi muassasalarni ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oladi. Fuqarolarga tez yordam ko'rsatish xizmati ta'minlanadi.

Bu huquqning amal qilishi natijasida har bir kishi tibbiy muassasalarga o‘z muammolari bilan murojaat qilishi va ulardan tegishli yordam, maslahat olishga haqlidir.

Sog‘lom fuqarolar har bir mamlakatning eng qimmatli boyligi hisoblanadi. Shuning uchun ham sog‘lik uchun davlat mas’ul va o‘z vazifasini bajarish uchun tegishli choralarni ko‘radi. Bunday choralar qatorida aholi o‘rtasida profilaktika, emlash ishlari olib boriladi.

O‘zbekistonda 2005-yilning “Sihat-salomatlik yili” deb belgilanishi va u asosda tibbiy xizmat ko‘rsatish choralarining amalga oshirilishi, tibbiyotni isloh qilish bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadbirlar insonlarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini kengaytirib, tibbiy xizmatning yanada malakali bo‘lishini ta’minlashga qaratildi.

Mamlakatimizda 2006-yilning “Homiylar va shifokorlar yili” deb belgilanishi va unda ko‘zda tutilgan tadbirlar ham tibbiyot sohasini takomillashtirishga, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga, tibbiy yordamga muhtojlarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratilishini ta’minladi.

Davlatimizning sog‘lom avlod uchun qayg‘urishi va bu borada qilayotgan ishlari boshqa davlatlar uchun ham ibrat bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lgach, orden va medallarni ta’sis etar ekan, “Sog‘lom avlod uchun” ordenini birinchi ordenlar qatorida ta’sis etishi ham, mamlakatning inson sog‘lig‘i uchun, tibbiyot sohasidagi huquqlarni ta’minlash uchun alohida e’tibor berayotganligini ko‘rsatadi.

“Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”, “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”, “Vich (OIV infeksiyasi) infeksiyasiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (2013-yilda yangi tahrirda qabul qilindi) “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa qabul qilingan huquqiy hujjat va davlat dasturlari fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlarini ta’minlashning huquqiy asoslaridir.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va bu boradagi ishlarning davom ettirilishi natijasida sezilarli va katta ahamiyatli ishlar olib borilmoqda, natijada, ko‘plab sog‘liqni saqlash muassasalari zamonaviy meditsina texnika vositalari bilan ta’minlandi; aholiga xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanib bormoqda.

Bularning amaliy ifodasini Respublikamiz aholisining umr ko'rish ko'rsatkichi yuqorilab borayotganligida, bolalar va onalar o'limi kamayib borayotganligida, bolalarni turli kasalliklarga qarshi emlash davlat hisobidan amalga oshirilayotganligida ko'rish mumkin.

7-§. Bilim olish huquqi

Bilim insonni yuksak darajaga ko'taribgina qolmasdan, u yashayotgan mamlakatni ham yuksaltiradi. Jahon tajribasi ham faqat bilim orqaligina ko'plab muammolarni hal qilish mumkinligini ko'rsatadi. Bilimli kishilarning qobiliyati va yutuqlari bilan ko'p mamlakatlar rivojlanmoqda. Shuning uchun har bir uzoqni ko'zlovchi mamlakat o'z fuqarolarining bilimli bo'lishidan manfaatdor va shu yo'lda harakat qiladi. Fuqarolarning bilimli bo'lishiga esa, bilim olish qanday yo'lga qo'yilganligi, unga qanday sharoit-imkoniyatlar yaratilganligi ta'sir qiladi. Bunda ta'lim tizimining qandayligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonda har bir shaxsning bilim olish huquqini ta'minlash maqsadida mukammal ta'lim tizimi shakllantirildi va takomillashtirilmoqda.

Konstitutsiyaning 41-moddasiga asosan: "Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

Har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, mamlakatda yashovchi barcha aholi fuqaroligi, millati, irqi, dini, jinsi va boshqalardan qat'i nazar shu huquqdan foydalanishini bildiradi.

Konstitutsiyada belgilangan bilim olish huquqi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi orqali to'la ta'minlanadi, ro'yobga chiqadi.

Milliy dasturda ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlarining vazifalari, ta'limning uzluksizligi belgilab qo'yilgan.

Ta'limning har bir bosqichi uchun davlat ta'lim standartlari belgilangan. Shu asosda ta'lim muassasalari uchun yo'nalishlariga mos ravishda o'quv rejalari tuzilib, shular asosida bilim berish yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizda keyingi vaqtlarda ta'limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalar asosida bilim berishni tashkil qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

2012-yil 17-fevralda Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan o'tkazilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyada yurtimizda ta'lim sohasida olib borilgan islohotlarga atroflicha to'xtalib o'tildi. Konferetsiyada Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, dunyoning turli qit'alaridagi 40 dan ziyod mamlakatdan ishtirokchilar tashrif buyurdi. Prezident I.A. Karimov o'z ma'ruzasida ishtirokchilarni yurtimizda qabul qilingan dasturga muvofiq, amalga oshirilgan ishlar bilan tanishtirdi. "Mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning prinsipial xususiyati shundaki, umumta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2–3 ta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni ham egallaydi.

O'zbekistonda 12 yillik ta'lim barcha uchun majburiy ekani qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Yana bir bor ta'kidlayman – bu biz uchun prinsipial masala hisoblanadi. Ayniqsa, olis qishloq joylarda, to'g'risini aytganda, hamma ham 12 yil o'qishni xohlamaydi. Bugungi kunda o'sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lim olish bilan birga, aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo'lishi kerak. Bu, ayniqsa, qizlarimiz uchun muhimdir. Chunki, yosh oilaning mustahkamligi, avvalo, qizlarning biror-bir mutaxassislikni egallab, hayotda o'zining mustaqil fikri va o'rniga ega bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham barcha zarur fanlar bo'yicha umumiy bilim beradigan umumta'lim maktablarida 9 yil ta'lim olganidan keyin yoshlarimiz majburiy tarzda 2–3 ta zamonaviy mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarga ega bo'lishiga biz alohida e'tibor qaratmoqdamiz"

Konstitutsiyada bepul ta'lim olish davlat tomonidan ta'minlanishi belgilangan. Mamlakatimizda boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta'lim bepul bo'lib, barcha xarajatlar davlat hisobidan ta'minlanadi.

Oliy ma'lumot olishda (bakalavr va magistratura) bepul ta'lim bilan to'lov-kontrakt asosida ta'lim olish qo'shib olib boriladi. Ya'ni, oliy o'quv yurtlariga qabul qilinadigan talabalar belgilangan kvotalar bo'yicha davlat hisobidan ta'minlash asosida bepul ta'lim oladilar. Bularni kirish sinovlarida yuqori natijaga erishganlar tashkil etadi. Davlat budjeti doirasida aniqlangan miqdor uchun yetarli ball to'play olmagan talabgorlar orasidan yuqori ko'rsatkichlarga erishganlari o'z ixtiyori bilan to'lov-kontrakt asosida oliy o'quv yurtiga qabul qilinishi mumkin. To'lov miqdori davlat tomonidan belgilanadi. To'lovni talabalar shaxsan yoki ota-onalari jamg'armasidan to'lashi mumkin. Davlat tashkilotlari budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan, nodavlat tashkilotlari esa, o'z jamg'armasidan o'z xodimlarining o'qishi uchun belgilangan to'lov summasini to'lashi mumkin.

Fuqarolarning bilim olish huquqini ro'yobga chiqarish uchun davlat xohlovchilarga kredit berishni yo'lga qo'ygan.

Shunday qilib, bilim olish huquqi bepul yoki to'lov-kontrakt asosida ta'lim olish bilan amalga oshadi.

Maktab ishlari davlat nazoratida, degan konstitutsiyaviy qoida ta'lim muassasalarining mulkchilik shaklidan qat'i nazar (ular davlat muassasasi bo'ladimi, xususiymi, chet davlatlarga qaraydimi), davlat tomonidan nazorat qilinishini bildiradi. Davlat ta'lim muassasalari to'laligicha davlat tomonidan boshqarilib, nazorat qilinsa, nodavlat ta'lim muassasalari o'quv dasturlari va rejalarining talab darajasida bo'lishi, bilim berish saviyasining yuqori bo'lishi nazorat qilinadi. Attestatsiya (sinovlardan o'tgan) natijalariga ko'ra, nodavlat ta'lim muassasalari Akkreditatsiya qilinadi va litsenziya beriladi. Litsenziyaga ega o'quv muassasalari davlat tomonidan tasdiqlangan va yuridik kuchga ega bitiruv haqidagi hujjatlar berish huquqiga ega.

8-§. Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi

Konstitutsiyaning 42-moddasi ikki banddan iborat bo'lib, birinchi bandda "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi" – deb ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchi bandda "Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi" – deb mustahkamlangan.

Shu moddaning ikkinchi bandida belgilanganidek, jamiyatning madaniy, ilmiy va texnik rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishni davlat o'z zimmasiga olar ekan, bu vazifa fuqarolarga ilm-texnika, madaniy sohada erkinlik bermasdan ta'minlanishi mumkin emas.

Jamiyatning rivojlanishi uning har bir a'zosi o'z imkoniyatlaridan qanchalik to'la va keng foydalanishiga bog'liq. Ijod natijasidagina fan-texnika yutuqlariga ega bo'lish mumkin. Turli sohalarda tegishli qobiliyatga ega shaxslarga o'z qobiliyatini to'la namoyon qilish imkoniyati yaratilib berilgandagina, ijobiy natijaga erishish mumkin.

Bu imkoniyat esa, shu sohadagi huquqlarning kafolatlanishidir.

Ilmiy-texnikaviy ijod erkinligi orqali mamlakatimizda ahamiyatli kashfiyotlar, ixtirolar, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, mamlakatni jahonga ko'rsatish imkoniyati vujudga keladi.

Fuqarolar madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi orqali madaniyat, san'at namunalaridan foydalanib, ma'naviy ozuqa olish bilan o'z ehtiyojlarini qondirmoqda. Shu bilan birga, madaniyat, san'at sohasidagi yutuqlar jahonga namoyon qilinmoqda.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilar ekan, bu sohada ijodkorlar, mualliflar, ixtirochi, kashfiyotchilarning huquqlarini samarali himoyalash tizimini yaratgan.

Mualliflar, ixtirochilar, kashfiyotchilar huquqi davlat tomonidan himoya qilinishi orqali ularning natijasidan avvalo muallif, kashfiyotchi, ixtirochilar manfaatdor bo'lsa, ularning mehnati natijalari jamiyatning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir qilganligi sababli bundan davlat ham manfaatdordir.

Ijodkorlar, mualliflar, ixtirochilar, kashfiyotchilar huquqlari himoya qilinishi bilan, birga ular davlat tomonidan turli rag'batlantirishlarga ham ega bo'ladi. Bu ham ijod erkinligi kafolatidir.

O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar Konstitutsiyada alohida tur huquqlar sifatida ko'rsatilgan va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tizimining ajralmas qismidir. Bu huquq va erkinliklardan foydalanish orqali fuqarolar o'zlarining turmush sharoitini farovonligini ta'minlaydi. Davlatning iqtisodiy qudrati qanchalik kuchli bo'lsa, iqtisodiy huquqlardan foydalanish imkoniyati ham shuncha kengayib boradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquq nima uchun zarur?

2. Mulkdor bo'lish huquqi nima va u O'zbekistonda nima sababdan o'rnatildi?

3. Fuqarolarning bankdagi omonatlari qanday saqlanadi?

4. Mehnat qilish huquqi va uning erkinligi qanday ta'minlanadi?

5. Dam olish huquqi qanday ta'minlanadi, dam olish turlari qanday?

6. Ijtimoiy ta'minot olish huquqidan kimlar foydalanadi?

7. Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi deganda nima tushuniladi?

8. Bilim olish huquqi qanday ta'minlanadi?

9. Siz o'zingiz shu huquqdan qanday foydalanmoqdasiz?

10. Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi nima uchun kerak?

11. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlardan yanada kengroq foydalanishga nima ta'sir qiladi?

XII bob. Huquq va erkinliklarning kafolatlari

1-§. Huquq va erkinliklar kafolatlari tizimi

Huquq va erkinliklar masalasida, eng muhimi, Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni kafolatlash, ya'ni amalga oshishini ta'minlashdir. Buning uchun mukammal tizim yaratilishi kerak. Huquq va erkinliklarning kafolatlari Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni ta'minlashni nazarda tutuvchi huquq normalari va maxsus mexanizmdan iborat bo'ladi. Huquqiy normalar mavjud bo'lsa-da, ularning amalga oshishini ta'minlovchi mexanizm bo'lmasa, huquq va erkinliklar qog'ozda qolib ketaveradi.

Huquq va erkinliklarni ta'minlash masalasi jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor vazifa deb qaralishi, inson huquqlari va erkinliklarini so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilish zarurligi haqidagi Prezidentimiz fikrlari[1] huquq va erkinliklarni ta'minlash muhim masala ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlarini xalqaro normalarga mos ravishda belgilar ekan, uni kafolatlashga alohida e'tibor bergan va uni doimo takomillashtirib bormoqda.

Konstitutsiyaning o'zida "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari" uchun alohida (X-bob) ajratilganligining o'zi kafolatga e'tiborning kuchli ekanligini ko'rsatadi. Hamma mamlakatlar Konstitutsiyasida ham kafolatlar uchun maxsus bob ajratilmagan. Konstitutsiyaning ko'plab moddalarida huquq va erkinliklar shunchaki belgilab qolinmasdan, ular kafolatlanishi maxsus ko'rsatilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 42-moddasida qayd qilinishicha, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi. Ayrim moddalarda tegishli huquq va erkinliklarni amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi ko'rsatilgan. Masalan, 35-moddada arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart, – deb belgilangan.

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 2002. – 21-bet.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari quyidagilardan iborat:

Huquq va erkinliklarning huquqiy kafolati. Bu – huquq va erkinliklarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishi hamda ularni ta'minlashga, amalga oshirishga qaratilgan boshqa huquqiy hujjatlarning mavjudligi hisoblanadi;

Huquq va erkinliklarning siyosiy kafolati. Bu – huquq va erkinliklarning davlat tomonidan ta'minlanishi. Huquq va erkinliklarni ta'minlashga qaratilgan tegishli maxsus vakolatli davlat tuzilmalarining tuzilishi va faoliyat ko'rsatishi;

Huquq va erkinliklarning iqtisodiy kafolati. Bu – huquq va erkinliklarni iqtisodiy tomondan ta'minlash, ularning amalga oshishi uchun zarur moddiy-moliyaviy manbalarni vujudga keltirish.

Agar davlatda yetarli iqtisodiy, moddiy, moliyaviy manbalar, imkoniyatlar bo'lmasa, huquqlarni amalga oshirish uchun sharoit bo'lmaydi. Davlat qanchalik iqtisodiy tomondan kuchli bo'lsa, huquq va erkinliklardan foydalanish imkoniyati ham shuncha kuchayib boradi.

Bilim olish, ta'minot olish, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi davlatning iqtisodiga bevosita bog'liqdir.

Bulardan tashqari, huquq va erkinliklarning kafolatlanishida jamoatchilik nazorati ham alohida o'rin tutib, bunda nodavlat tashkilotlar ham ishtirok etadi.

Demak, huquq va erkinliklarning kafolatlari deganda, ularni ta'minlash, amalga oshishi uchun yetarli asoslar va zarur mexanizm mavjudligi tushuniladi.

Huquq va erkinliklarning kafolatlari tizimi huquqiy, siyosiy, iqtisodiy asoslardan va ularning amalga oshishini ta'minlay oladigan mexanizmdan iborat bo'ladi.

2-§. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda milliy huquq tizimining o'rni

Inson huquqlari masalasi davlatning faqat ichki masalasi bo'lmasdan, xalqaro ahamiyatga egadir. Inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro tashkilotlar, ular tomonidan qabul qilingan hujjatlar alohida rol o'ynaydi.

Lekin, har bir shaxs, inson asosan biror-bir mamlakat hududida yashaydi va ko'pincha ma'lum mamlakatning fuqarosi hisoblanadi. Shuning uchun alohida shaxslar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda davlat markaziy o'rinda turadi.

Davlat buning uchun, eng avvalo, insonlarning huquqini ta'minlovchi huquq tizimini yaratadi. Ya'ni, inson huquqlarini ta'minlovchi huquq tizimi milliy huquq tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlovchi milliy huquq tizimida O'zbekiston Konstitutsiyasi alohida o'rin tutadi.

Konstitutsiyada inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari mustahkamlanadi, ularni ta'minlash yo'llari belgilanadi. Konstitutsiya insonlarga tegishli barcha huquqlarni qayd qila olmaydi, faqat inson uchun eng zarur hayotiy huquq va erkinliklarni mustahkamlab qo'yadi. Konstitutsiyamiz ishlab chiqilayotgan vaqtda inson huquqlari bo'yicha xalqaro ahamiyatga ega eng asosiy hujjatlar: "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi", "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Pakt, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Pakt va unga qo'shimcha (fakultativ) Protokollarning qoidalaridan keng foydalanildi. Bundan tashqari, inson huquqlariga taalluqli xalqaro hujjatlar: "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya va boshqa hujjatlarga qo'shilish bilan mamlakatimiz shu hujjatlar ko'rsatmalarini bajarish va hujjat qoidalarini milliy qonunchiligimizga singdirish majburiyatini oldi.

Agar xalqaro hujjatlardagi qoidalar mamlakatlarning bajarishi uchun ko'rsatma bo'lsa, har bir mamlakat, jumladan, O'zbekiston milliy qonunchiligida ana shu ko'rsatmalarni amalga oshirish choralari ham belgilanadi va shu bilan inson huquqlarini ta'minlash real voqelikka aylanadi.

Inson huquqlari, ularning asosiylari Konstitutsiyamizda ko'rsatilgan bo'lib, ularni ta'minlash yo'llari haqida konstitutsiyada ko'rsatmalar bo'lsa, shu huquqlarni yanada kengroq ta'minlash imkoniyati Konstitutsiya asosida qabul qilingan boshqa qonunlarda belgilangan.

Mamlakatimizning inson huquqlarini ta'minlovchi qonunlari qatorida "Fuqarolik to'g'risida"gi, "Saylov to'g'risida"gi barcha qonunlar, Mehnat kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Ijtimoiy ta'minot to'g'risida"gi va ko'plab boshqa qonunlarni ko'rsatish mumkin.

Ular Konstitutsiyada qayd qilingan inson va fuqarolarning huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini ham yaratgan.

Bulardan tashqari, ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar, idoraviy hujjatlar inson huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va milliy huquq tizimini boyitadi.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan har qanday normativ-huquqiy hujjatlar inson huquqlari, manfaatlari ustuvorligi prinsipini ta'minlashni nazarda tutadi.

3-§. Huquq va erkinliklarning davlat tomonidan ta'minlanishi

Davlatning asosiy vazifasi huquq va erkinliklarni belgilab qo'yish bilan cheklanmaydi. Bu masalada muhimi, huquq va erkinliklarni davlat tomonidan ta'minlashdir. Bu borada davlat o'z zimmasiga katta mas'uliyat oladi.

Davlatga baho berishda mamlakat qonunlarida huquq va erkinliklarning belgilab qo'yilishi holatidan tashqari, ularning amalga oshishi uchun qanday imkoniyatlar yaratib berganligi e'tiborga olinadi.

Ayrim huquq va erkinlarni belgilash davlatning ixtiyori bo'lsa, ayrim huquqlarni ta'minlash uning to'g'ridan-to'g'ri majburiyati hisoblanadi. Bunga misol qilib yashash huquqi, daxlsizlik erkinligiva boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Davlatning fuqarolarning huquq va erkinlarini ta'minlash vazifasi (majburiyati) Konstitutsiyada belgilangan bo'lib, 43-moddada "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi", deb qayd qilingan. Bu borada davlat tegishli va yetarli vakolatlarga ega.

Davlat tomonidan huquq va erkinliklarni ta'minlovchi qonunchilikning yaratilishini, huquq va erkinliklarni ta'minlovchi organlar tizimining o'rnatilishi huquq va erkinliklarni ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir. Barcha hokimiyat tarmoqlaridagi davlat or-

ganlarida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash vazifasi va vakolati mavjud.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini davlat tomonidan ta'minlashni amalga oshirish tizimida O'zbekiston Prezidenti alohida rol o'ynaydi. Chunki, u fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishining kafili ekanligi Konstitutsiyaning 93-moddasi 1-bandida belgilangan. Bu bilan Prezidentga juda katta mas'uliyat yuklangan. Fuqarolarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan ta'minlanishini ko'plab huquqni muhofaza qiluvchi organlar amalga oshiradi. Bular Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Prokuratura va boshqalardir. Bu organlar fuqarolar huquqlarini ta'minlashda maxsus tuzilmalari faoliyatiga tayanadi. Adliya vazirligining "Inson huquqlarini himoya qilish", "Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish" va boshqa boshqarmalari bevosita inson huquqlarini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Bulardan tashqari, turli hokimiyat tarmoqlarida huquq va erkinliklarni ta'minlovchi maxsus organlar mavjud, masalan, "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)", hukumat tizimidagi "Inson huquqlarini himoya qilish Milliy markazi". Bulardan xulosa chiqarish mumkinki, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mas'uliyati davlatga tegishli bo'lib, u bu ishga barcha davlat organlarini, milliy institutlarni jalb qilish bilan birga, nodavlat tashkilotlarning ham faoliyatidan foydalanadi. Bu borada, ya'ni inson huquqlarini ta'minlashda davlat va nodavlat tashkilotlari o'zaro hamkorlik qiladi.

4-§. Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish. Sudga shikoyat qilish huquqi

Huquqiy davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning eng asosiy va samarali vositasi huquq va erkinliklarning sud tomonidan ta'minlanishidir.

Aslida sud tomonidan huquq va erkinliklarning ta'minlanishi ham huquq va erkinliklar davlat tomonidan ta'minlanishining bir ko'rinishidir. Lekin, sudning boshqa hokimiyatlardan mustaqilligi, faqat qonunga bo'ysunishi o'rnatilganligi himoyaning samarali

bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, sud fuqarolarning huquq va erkinliklarini hatto davlatdan, uning organlaridan ham himoya qiladi. Shuning uchun, fuqarolarning huquqlari sud tomonidan himoya qilinishi, sudga shikoyat qilish huquqi kafolatning alohida, ta'sirchan shakli sifatida Konstitutsiyada maxsus moddada mustahkamlangan.

44-moddada "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi", – deb belgilangan. Bu moddaning mazmuni shuni ko'rsatadiki, fuqarolar o'zlarining har qanday huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Bunday huquq fuqarolarning huquqlari davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari tomonidan g'ayriqonuniy xatti-harakat oqibatida buzilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Kafolatlar "Sudlar to'g'risida"gi, "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi qonunlarda ko'zda tutilgan.

Sud hokimiyati organlarining asosiy vazifasi sobiq tuzumdagi singari jazolash bo'lmasdan, qonunlarga asosan fuqarolar huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish hisoblanadi.

Sudlarga shikoyat qilish tartibini belgilovchi qonun esa, har qanday hollarda sudga buzilgan huquqlarini tiklashni, tegishli organ, mansabdor shaxs, jamoat birlashmalarining noqonuniy hujjatlarini bekor qilishni so'rab murojaat qilish mumkinligini belgilagan.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklari oshkora buzilganda (agar fuqaro shunday xulosaga kelgan taqdirda), huquq va erkinlari-ning amalga oshishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lsa, zimmasiga qonunlarda ko'zda tutilmagan vazifalar yuklansa, sudga murojaat etishga haqlidir.

Qonunda shikoyatni qaysi sudga berish tartibi, sudga murojaat qilish muddatlari, murojaatni ko'rib, hal qilish tartibi va muddatlari belgilab qo'yilgan.

Sud shikoyatni ko'rib chiqib, u asosli bo'lsa, shikoyatni qondirish, qisman qondirish haqida, shikoyat asossiz bo'lsa, uning asossizligini isbotlab, qaror qabul qiladi.

Shikoyat qondirilganda sud shikoyatga sabab bo'lgan xatti-harakatni, qarorni to'xtatish, bekor qilish haqida qaror chiqaradi. Sudning chiqargan qarorini bajarish barcha organlar va mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari uchun majburiydir. Sud o'z qarorida shikoyatni qondirish bilan birga, fuqarolarga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplash choralarini ko'radi.

Fuqaro bergan shikoyati yuzasidan sudning chiqargan qaroridan norozi bo'lsa, yuqori sudga belgilangan tartibda shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga ega. Bu shikoyat endi shikoyatni ko'rgan sud xatti-harakati va qarori ustidan ham norozilikdan iborat bo'ladi.

Fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi to'la ta'minlangandagina huquq va erkinliklarning kafolati to'la bo'lishi mumkin. Shuning uchun sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar bu masalani yanada takomillashtirish choralarini belgilamoqda va shunga erishilmoqda.

Bu haqda Prezident shunday ta'kidlaydi: "Fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kuchaytirishni ta'minlash bo'yicha katta ko'lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi"[1].

5-§. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlarini himoya qilish

Har qanday mamlakatlar singari bizning mamlakatimizda ham qo'shimcha himoyaga muhtoj, huquqlarini alohida va yanada kuchli himoya qilish zarur bo'lgan aholi qatlamlari yashaydi.

Aholining himoyaga muhtoj qatlamini alohida muhofaza qilish davlat siyosatining bosh yo'nalishlaridan hisoblanadi. Chunki, O'zbekistonning davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturi-

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 17-bet.

ning besh tamoyilidan biri – kuchli ijtimoiy himoya hisoblanadi[1].

Ana shu tamoyil Konstitutsiyada ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u 45-moddada himoyaga muhtoj fuqarolarining huquqlari davlat himoyasida ekanligini qonuniy mustahkamlagan. 45-moddaga ko'ra, "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir".

Bu moddaning mazmuni shundan iboratki, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar (turli toifadagi nogironlar) va yolg'iz keksalar barcha huquq va erkinliklardan foydalanishidan tashqari, qo'shimcha ravishda ularning huquqlari davlatning alohida himoyasidadir. Bu esa, ularning huquqlarini ta'minlovchi, himoya qiluvchi qo'shimcha chora-tadbirlar mavjudligida ko'rinadi. Mazkur toifadagilarning huquqlarini ta'minlashga, himoya qilishga qaratilgan qonunlar mavjudligida ko'rinadi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonun va boshqa huquqiy hujjatlar mavjud.

Mamlakatimizda yoshlarga oid siyosat davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi ekanligi yuqorida tilga olingan qonunda mustahkamlangan bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va himoyalanishini ta'minlash, ularning ijodiy iqtidorlaridan foydalanish va yoshlar uchun hamma shart-sharoitlarni yaratishdan iborat[2].

Voyaga yetmaganlar yo'ldan adashib, noqonuniy harakat, jinoyat sodir etgan paytlarda ham ularga nisbatan jazo tayinlashda o'zgacha tartiblarning belgilanganligi ularning huquqini alohida himoya qilish natijasidir.

O'zbekiston olib borayotgan siyosat har bir kishini, jumladan, mehnatga layoqatsizlar, yolg'iz keksalarning ham to'laqonli hayot kechirishini, iqtisodiy va siyosiy turmushda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan. Bunday shaxslarning tibbiy xizmatdan foydalanish, mehnat qilish, bilim olish, dam olish huquqlari alohida imtiyozlar belgilanishi bilan yanada kuchli himoya qilinadi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston, 1993. – 42–43-betlar.

2 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O'zbekiston, 1995. – 127-bet.

Davlatimiz boshlig'i o'z farmonlari bilan muntazam ravishda bunday toifadagi kishilarga imtiyoz beruvchi, huquqlarini himoya qiluvchi tadbirlarni belgilab kelmoqda.

O'tgan har bir yilni ma'lum nomlar bilan belgilashda ham eng avvalo shunday kishilarning huquqlarini himoya qilishga e'tibor beriladi. Jumladan, "Homiylar va shifokorlar yili" deb nomlangan 2006-yilda ham shu munosabat bilan belgilangan tadbirlarda voyaga yetmaganlar, nogironlar, yolg'iz kishilarga imtiyozlarni kengaytirish orqali ularning huquqlarini himoyalashni kuchaytirish ko'zda tutildi.

Konstitutsiyaning 45-moddasi nafaqat voyaga yetmaganlar, nogironlar, yolgiz keksalarning huquqini himoyalashni, balki uning g'oyasi va maqsadi aholining barcha nochor qatlamlarini. keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi yoshlarning davlat tomonidan muhofazaga bo'lgan huquqlarini ta'minlashni ham nazarda tutadi.

6-§. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi

Konstitutsiyaning 18-moddasi fuqarolarning jinsidan qat'i nazar qonun oldida tengligini o'rnatgan bo'lsa, Konstitutsiyaning 46-moddasi "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", – deb, umuman ularning barcha sohada, munosabatda tengligini kafolatlaydi.

Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini amalda ta'minlash maqsadida ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilingan va tadbirlar belgilangan.

Bular bir tomondan ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, mehnatiga haq to'lashda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishlari uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayollarning oiladagi o'rni, jismoniy imkoniyatlari hisobga olinib, ularning mehnat qilishi, sog'lig'ini saqlashi uchun qulay sharoitlar va imtiyozlar belgilanishida ko'rinadi.

Ikki narsa, bir tomondan, teng imkoniyatlar, ikkinchi tomondan, ayollarga qo'shimcha sharoit va imtiyozlar yaratilishi bilan ayollarning teng huquqliligi ta'minlanmoqda.

Ayollarga bilim olish, mehnat qilish, siyosiy hayotda ishtirok etish huquqi, imkoniyati berilib, bu huquqlarning amalga oshishi uchun qo'shimcha imtiyozlar berilmasa, bunday teng huquqlilik ayollarga foyda keltirishdan ko'ra, ularni qiynab qo'yadi. Sababi, ayollarning oiladagi vazifasi juda katta va jismoniy qobiliyati ham erkaklarniki singari emas. Agar ayollar oila ishlariga yetarlicha vaqt ajrata olmasa, ularning eng muhim vazifasi – bola tarbiyasi zarar ko'radi. Bu jamiyat uchun ham zararlidir. Shuning uchun imtiyozlar ayollarning oiladagi o'rniga har tomonlama qulaylik yaratishni ko'zlaydi.

Ayollarning oiladagi yumushlarini yengillashtirishga qaratilgan tadbirlar natijasida turli tarmoqlarda mehnat qiluvchi ayollarning salmog'i ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy sohada, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarida ular yetakchi hisoblanadi.

Davlatimiz ayollarning davlatni boshqarish ishlarida ko'proq ishtirokini ta'minlash, rahbarlik lavozimlariga jalb qilish uchun ham tegishli imtiyozlar yaratmoqda. Saylov qonunchiligiga o'zgartirish kiritilib, siyosiy partiyalardan ko'rsatilayotgan nomzodlarning kamida 30 foizi ayollardan bo'lishining belgilanishi munosabati bilan vakillik organlari tarkibining ma'lum qismini ayol deputatlar tashkil etdi. Qonunchilik palatasi Spikeri, Senat raisi o'rinbosari ayol kishi ekanligi, qo'mitalarning raislari orasida, hukumat tarkibida ayollarning mavjudligi ayollar bilan erkaklar teng huquqliligining kafolati natijasidir.

Huquq va erkinliklar qonunlarda mustahkamlab qo'yilib, ularning amalga oshishi, ta'minlanishi uchun qo'shimcha chora ko'rilmasa, kafolatlar tizimi bo'lmasa, unda huquq va erkinliklar qog'ozda qolib ketaveradi. Davlatimiz fuqarolarning huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlarda belgilash bilan ularning amalga oshishini ta'minlovchi kuchli kafolatlar tizimini ham yaratgan va uni takomillashtirish bo'yicha muntazam ish olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Maxsus qismi VII bobining "Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar" deb nomlanishi, ko'plab harakatlar uchun jinoiy javobgarlikning belgilanishi ham huquq va erkinliklar

davlatning alohida e'tiborida ekanligini ko'rsatadi va kafolatlarni kuchaytiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Huquq va erkinliklarning kafolatlari deganda nimani tushunasiz?

2. Huquq va erkinliklar kafolatlari tizimi nima?

3. Qanday kafolat turlari mavjud?

4. Huquq va erkinliklar davlat tomonidan qanday ta'minlanadi?

5. Huquq va erkinliklarni himoya qiluvchi, ta'minlovchi qanday tuzilmalar mavjud?

6. Huquq va erkinliklar sud tomonidan qanday himoya qilinadi?

7. Sudga shikoyat qilish huquqi nima va u qanday hollarda amalga oshiriladi?

8. Mamlakat aholisining himoyaga muhtoj qismining huquqi qanday himoya qilinadi?

9. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi qanday ta'minlanadi?

10. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari haqida Konstitutsiyada alohida bob mavjudligining ahamiyati qanday?

11. Huquq va erkinliklarni ta'minlashda nodavlat tashkilotlarning ishtiroki qanday?

XIII bob. Fuqarolarning asosiy burchlari

1-§. Asosiy burchlar tushunchasi

Davlatda fuqarolarning huquqiy holati faqat ularning huquqlari mavjudligi bilan aniqlanmasdan, ularning aniq belgilangan burchlari mavjudligi bilan ham belgilanadi.

Burch ijtimoiy hayotda zarur kategoriyadir. Ayniqsa, fuqaro va davlat munosabatlarini to'g'ri tashkil etishda, manfaatlar mushtarakligini ta'minlashda burch zarur bo'lib, u davlatda ham, fuqarolarda ham bo'ladi. Mamlakatda jamiyat, fuqarolar, davlat manfaatidan kelib chiqib, burchlar o'rnatiladi. Bu yerda fuqarolarning burchi, aniqrog'i, asosiy burchi to'g'risida fikr yuritamiz.

Mamlakat qonunlarida fuqarolarning burchlari o'rnatilib, ular fuqarolarning huquqlari buzilmasligi, davlat manfaatlariga ziyon yetmasligi nuqtayi nazaridan belgilanadi.

Burch asosan qoidalardan kelib chiqadi, u doimiy yoki muddatli bo'ladi; davlat tomonidan belgilanadi va bajarilishi talab etiladi. Burch ixtiyoriy bajarishga xavola qilinadi, ixtiyoriy bajarilmaganda jinoiy, ma'muriy jazolar qo'llaniladi.

Burchni bajarish barcha uchun majburiy, ayrim burchlar esa, alohida fuqarolarga taalluqlidir. Masalan, harbiy xizmatni o'tash burchi hammaga ham taalluqli emas. Xuddi shuningdek, qonunda belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni hech qanday daromadga ega bo'lmaganlar to'lamaydi.

Fuqarolarga yashash, mehnat qilish, bilim olish va boshqa faoliyatlari bo'yicha ko'plab burchlar belgilangan.

Konstitutsiyada esa, jamiyat va davlat hayoti uchun umumiy va eng zarur, qilinishi majburiy yoki qilish mumkin bo'lmagan xatti-harakatlar burch sifatida belgilangan. Shuning uchun ular mazmuni, amal qilish doirasi, ahamiyati nuqtayi nazaridan asosiy burchlar deb ataladi. Fuqarolarning "konstitutsiyaviy burchi" yoki "asosiy burchi" bir ma'noda ishlatiladi va tushuniladi. Asosiy burchlarning bajarilishidan jamiyat a'zolari, davlat birdek manfaatdordir. Yana burchlar ixtiyoriy to'la bajarilishi jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining XI bobi “Fuqarolarning burchlari” deb nomlangan va olti moddani o‘z ichiga oladi. Bu burchlar siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy masalalarga taalluqli, bajarilishi majburiy xatti-harakatlardir.

Konstitutsiyada javobgarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanmay, burchlarni bajarmaganlik uchun jinoyat qonunchiligi va ma’muriy qonunchilikda jazolar belgilangan. Burchlarni bajarmaganlik uchun jazo turlari va miqdori qonunlarda belgilangan doirada sud tomonidan belgilanadi.

2-§. Konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarish. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish

Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan har qanday burch fuqarolar uchun bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatdir. 47-moddada “Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar”, deb belgilangan qoida konstitutsiyaviy burchlarning bajarilishi shart ekanligini ko‘rsatib, barcha konstitutsiyaviy burchlarning bajarilishini ta’minlashga karatilgan umumiy va rahbariy qoida hisoblanadi. 48-moddada esa, bu burch yanada aniqlashtirilgan va doirasi kengaytirilgan. Unga asosan “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”.

Demak, birinchidan, har bir fuqaro nafaqat Konstitutsiyaga, balki, barcha qonunlarga rioya etishga majbur. Bu qonuniylik prinsipini mazmun va mohiyatiga mos kelib, ana shu prinsipning amalga oshishini ta’minlashni nazarda tutadi. Ikkinchidan, har bir fuqaro boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir. Shaxs va fuqarolarning huquqiy holatiga taalluqli Konstitutsiya normalarida ham, fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning davlat va jamiyatning manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart, deyilgan qoida mavjud (Konstitutsiyaning 20-moddasi). Ana shu qoida Konstitutsiyaning asosiy burch to‘g‘risidagi normalarida ham belgilanib, uning majburiyligiga alohida konstitutsiyaviy maqom berilgan.

Fuqarolarning shaxsiy huquqlarini belgilovchi Konstitutsiya normalarida (Konstitutsiyaning 27-moddasi) har kimga o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish huquqi berilgan bo'lsa, Konstitutsiyaning 48-moddasiga asosan boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga faqat davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarigina majbur bo'lmasdan, har bir fuqaro ham majbur ekanligi ko'rsatildi.

Konstitutsiyaning bu moddalaridagi burchlar jamiyat va davlatning rivojlanishi asoslaridan hisoblanuvchi Konstitutsiya va qonunlarga to'la va og'ishmay amal qilish zarurligini, shu asosda ijtimoiy hayotni rivojlantirishni ta'minlashni nazarda tutadi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilmaslik xavfsizlikka, fuqarolar manfaatiga, davlat boshqaruviga, umuman, konstitutsiyaviy tuzumga katta va jiddiy zarar yetkazadi.

Shuning uchun Konstitutsiyaga va qonunlarga amal qilmaslik ularni har qanday yo'llar bilan buzish holatlariga nisbatan turli jinoiy va ma'muriy jazolar belgilanadi. Qonunlarda Konstitutsiya va qonunlardagi burchlarni bajarmaganlik uchun jazo choralarining belgilanishi konstitutsiyaviy burchlar ta'minlanishining kafolati hisoblanadi.

3-§. Tarixiy, ma'naviy va madaniy meroslarni avaylab-asrash

Mamlakatning boyligi faqat iqtisodiy boyliklardangina iborat emas. O'zbekiston o'zining tarixiy yodgorliklari, ma'naviy va madaniy merosi bilan ham olamga mashhur.

Tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylab, kelajakka yetkazish orqali avlodlarga o'tgan zamondagi madaniyat, qudrat, aql-zakovat mevalari taqdim qilinadi.

Ma'naviy-madaniy meroslar orqali xalqimiz o'zligini anglaydi, ularning mevasidan bahramand bo'ladi.

O'zbekiston tarixiy yodgorliklarga boy va ma'naviy-madaniy qadriyatlar kuchli shakllangan mamlakat. Shuning uchun ularni yanada yaxshiroq saqlash va kelajakka taqdim qilish maqsadida

Konstitutsiyaning 49-moddasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab, asrashga majburdirlar" degan konstitutsiyaviy burch belgilab qo'yilgan.

Tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklarimiz bo'lib, tarixiy yodgorliklar, madaniy yodgorliklar, muzeylar, shu jumladan, tarixiy kitob, qo'lyozmalar, foto, kino, fotohujjatlar, arxiv materiallari hisoblanishi mumkin.

Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar dunyodagi tarixiy va madaniy yodgorliklarga eng boy shaharlar hisoblanadi. Tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat himoyasiga olingan (Konstitutsiyaning 49-moddasi).

Konstitutsiyaning 49-moddasida ko'rsatilgan boyliklarni saqlashni ta'minlash maqsadida, mamlakatimizda yetarli huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bunga 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida", "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi qonunlarni ko'rsatish mumkin.

Konstitutsiyadagi burchlarni va yuqoridagi qonunlar talablarini buzganlik uchun jinoyat va ma'muriy qonunchiligimizda yetarli darajada jazolar belgilangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixiy, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni saqlashga alohida e'tibor berib kelmoqda. Mustaqillik yillarida Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband va boshqa ulug' kishilarning sag'analari ta'mirlandi. Motrudiy, Xo'ja Ahror Valiy, Burxoniddin Marg'inoniy, al-Farg'oniy meroslarini xalqqa yetkazish uchun tadbirlar belgilandi.

Tarixiy, madaniy va ma'naviy meros hisoblanuvchi obyektlar, mulklar davlat tasarrufida bo'lib, ularni xususiylashtirish mumkin emas.

Konstitutsiya normasidan kelib chiqib, har bir fuqaro madaniy, tarixiy, ma'naviy yodgorliklardan o'zining turli ehtiyojlarini qondirishda foydalanar ekan, ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, ularni saqlashi nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki avlodlar oldidagi burch ekanligini unutmaslik kerak.

4-§. Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish

Tabiatning har bir narsasi inson hayoti uchun zarur manbadir. Insonning sog'lig'iga, qancha umr ko'rishga tabiiy muhit ham ta'sir qiladi albatta. Ana shu ta'sir ijobiy bo'lishi uchun atrof-muhit sog'lom bo'lishi kerak. Atrof-muhitning sog'lom bo'lishi har bir kishiga bog'liq. Shuning uchun Konstitutsiyaning 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", degan qoida mustahkamlangan.

Tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish xalqimizga xos xususiyat. Oqar suvlarni ifloslantirmaslik, axlat tushgan joylarni tozalab qo'yish, yashash joyini ozoda saqlash kabi amallar muqaddas dinimiz ta'limotlarida ham mavjud bo'lib, unga uzoq vaqtlar ixtiyoriy amal qilingan.

Afsuski, sobiq tuzum davridagi tartib-qoidalar, turmush sharoiti, xalqimiz ongidan ko'plab ijobiy urf-odatlarni, qarashlarni chiqarib yubordi, tabiatga, atrof-muhitga bepisandlik bilan qarashga o'rgatdi, hatto tabiat boyliklari, atrof-muhitga jinoyatkorona yondashishni oddiy hol qilib qo'ydi.

Mustaqillikka erishgach, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lmasdan, tegishli natijalarga erishish mumkin emasligi e'tirof etilgan holda ba'zi burchlar Konstitutsiyada mustahkamlandi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi asosida, ko'plab qabul qilingan qonunlar, atrof tabiiy muhitni saqlash choralarini belgilab, mazkur burchni ta'minlashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera dunyosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi qonunlar hamda Yer kodeksi va boshqa huquqiy hujjatlar tabiatni, atrof-muhitni muhofaza qilishni nazarda tutadi. Atrof-muhitga taalluqli qonunlar miqdori ko'pligining o'zi (bular hali hammasi

emas) atrof-muhitga jiddiy munosabatda bo'linayotganligini ko'rsatadi.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati faqat atrofni toza saqlash, ekologiyani buzmaslik, tabiat ne'matlariga zarar keltirmaslikkina emas, tabiatning barcha boyliklariga (yer osti manbaalari, hayvonot dunyosi) ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Chunki, ularning barchasi tabiat qismi va hayotiy manbalardir.

5-§. Soliq va yig'imlarni to'lash

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini hayotga tatbiq qilish, huquqiy munosabatlarda yangi jihatlarni vujudga keltirdi va ularni Konstitutsiyada mustahkamlash zarurati vujudga keldi.

Shu tufayli Konstitutsiyada fuqarolarning yangi huquqlari singari (mulkdor bo'lish huquqi) yangi burchlari ham belgilandi.

Davlat o'z ehtiyojlarini va fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli iqtisodiy imkoniyatga ega bo'lishi zarur. Shu maqsadda davlat budjeti shakllantiriladi. Davlat budjeti turli manbalardan shakllanib, ular ichida soliqlar alohida o'rin tutadi. Soliqlar to'lash faqat korxona, tashkilotlarning (yuridik shaxslarning) burchi bo'lib qolmasdan, bunday burch fuqarolarga (jismoniy shaxslarga) ham yuklatilgan.

Konstitutsiyaning 51-moddasida: "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar", – deb mustahkamlangan.

Demak, fuqarolar, albatta, soliq va yig'imlarni to'lashi kerak va bu to'lovlar (soliq, yig'imlar) qonunga binoan amalga oshiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 23-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; mol-mulk solig'i; yer solig'i; obodon-

lashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i; transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqlar amal qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar; Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar; davlat boji; bojxona to'lovlari; ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im singari majburiy to'lovlar joriy qilingan.

Konstitutsiyada soliqlarni to'lashning burch qilib belgilanganligi uni bajarmaganlik uchun javobgarlikni ham yuzaga keltiradi.

O'zbekistan Respublikasining Jinoyat kodeksi 184-moddasida soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari shakllanishi natijasida soliq to'g'risidagi qonunchilikka ham o'zgartirishlar kiritilib, soliq tizimini takomillashtirishga, soliq to'lash yukini yengillashtirishga harakat qilinmoqda. Soliq tizimi fuqarolarning daromad manbalari cheklamasligini, ishlab chiqarish orqali va boshqacha olinadigan daromadlarning doimiy ortib borishidan manfaatdor bo'lishini nazarda tutadi.

6-§. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish va harbiy xizmatni o'tash

Ko'p hollarda vatanni himoya qilish, harbiy va muqobil xizmatni o'tash bitta burch deb qaraladi. Aslida ular boshqa-boshqa burch. Masalan, vatanni himoya qilish barcha fuqarolarga tegishli, doimo bo'lsa, harbiy xizmatni o'tash shu ishga yaroqli fuqarolarga tegishli bo'lib, u ma'lum vaqt doirasi bilan ham chegaralanadi.

Konstitutsiyaning 52-moddasida: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar", – deb belgilangan.

Vatanni himoya qilish muqaddas burch bo'lib, u fuqarolarning jinsi, yoshi va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha fuqarolarga taalluqli. Bu burchning amal qilish vaqti ham che-

garalanmagan, u doimiy amalda bo'ladi. Vatanni himoya qilish burchiga fuqarolar Qurolli Kuchlar safida bo'ladimi, boshqa yerdami, undan qat'i nazar, amal qilishi shart. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham bu burch bajariladi.

Mamlakatning taraqqiyoti, xavfsizligi, fuqarolar xavfsizligi mamlakatning mustaqilligiga bog'liq bo'lsa, mustaqillikni saqlash vositalaridan biri – vatanni himoya qilish burchining to'la bajarilishi hisoblanadi.

Harbiy xizmatni o'tash burchi ham vatanni himoya qilishni maqsad qilib qo'ysa-da, bu burchlarni bajarish shartlari alohida qonunlarda belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunlari bu burchlarni o'tash sharoitlarini belgilaydi.

Ularda harbiy xizmatga chaqirish uchun belgilangan yosh, sog'lig'iga qo'yiladigan talab, majburiy harbiy xizmat muddati, xizmatchilarga yaratiladigan shartlar, kimlar harbiy xizmat o'tashdan butunlay yoki vaqtincha ozod qilinishi belgilangan.

Harbiy xizmatga chaqirishda faqat davlat manfaati emas, fuqarolar manfaati, oila manfaati e'tiborga olinishi qonunlarda belgilangan. Jumladan, majburiy harbiy xizmatga 18 yoshdan 27 yoshgacha, shu ishga yaroqli (sog'ligi jihatidan) fuqarolar jalb qilinadi.

O'quv yurtlarida ishdan ajralgan holda ta'lim oluvchilar, tergov, surishtiruv o'tkazilayotganda ishga daxldor fuqarolarning harbiy xizmatga chaqirilishi kechiqtiriladi. Tug'ishgan aka-ukalaridan biri muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida halok bo'lganlar, yakka-yagona o'g'il farzand bo'lgan bolalar harbiy xizmatdan ozod etiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan majburiy xizmat muddatlari ham aniq belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarish mamlakat taraqqiyotining garovi hisoblanadi. Konstitutsiyada belgilangan burchlarning har biri boshqa fuqarolar huquq va erkinliklarini buzmaslik, manfaatiga ziyon yetkazmaslik atrof-muhitni sog'lom saqlash, mamlakat iqtisodini rivojlantirish va eng muhimi, Vatanni himoya qilish orqali mamlakat mustaqilligini saqlashni ko'zda tutadi. Burchlarni bajarish fuqarolarga havola qilinib, ular ixtiyoriy

bajarilmasa, majburlov choralari orqali bajariladi. Konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarilishi aholining huquqiy ongi, huquqiy bilimiga bog'liq bo'lib, undan davlat ham, barcha fuqarolar ham manfaatdordir.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 225-moddasida "Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash" uchun jinoiy javobgarlik va jazo belgilangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Burch nima, nima uchun u asosiy yoki oddiy bo'ladi?

2. Nima uchun Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishi shart?

3. Kishilarning huquqlari va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish deganda nimani tushunasiz?

4. Tarixiy, ma'naviy va madaniy meroslarni avaylab-asrash nima uchun zarur?

5. Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish nima uchun zarur?

6. Soliq va yig'imlar to'lash burchining ahamiyati nimada?

7. Vatanni himoya qilish burchi nima?

8. Harbiy xizmat o'tash burchi kimlarga taalluqli?

9. Konstitutsiyada ko'rsatilgan burchlarni bajarmaslik qanday oqibatlarga olib keladi?

10. Burchlarning ixtiyoriy bajarilishi nimalarga ta'sir qiladi?

TO'RTINCHI BO'LIM

JAMIYAT VA SHAXS

XIV bob. Jamiyatning iqtisodiy negizlari

1-§. Iqtisodiy negiz tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi iqtisodiy munosabatlarni ham yangicha tashkil qilish imkoniyatini yaratdi. Avvalgi tuzumda iqtisodiyot to'la davlat ta'sirida bo'lib, bozor munosabatlari prinsiplarini mutlaqo rad etar va markazlashgan rejalashtirish asosiga qurilgan edi. Bu sobiq tuzumning oxirgi yillarida o'zining barcha salbiy oqibatlarini yaqqol namoyon qila boshladi. Iqtisodiyotning izdan chiqishi, inqirozga uchrashi natijasida turmush uchun eng zarur narsalarga taqchillik vujudga keldi.

O'zbekiston o'z oldiga fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib qo'ygan. Bu jamiyat kishilar tomonidan tashkil qilinadi va erkinlik, o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga tayanadi. Faqat kishilarning faoliyati davlat tomonidan ma'lum kafolatlangan bo'lishini taqozo etadi, bu kafolatlar esa, siyosiy sohada bo'lgani kabi, iqtisodiy sohalarda ham zarur bo'ladi. Davlat inson huquq va erkinliklaridan kelib chiquvchi ma'lum kafolatlarni mustahkamlab, ular amal qilishining ma'lum tartiblarini belgilaydi.

Bunday jamiyatda davlat jamiyatning iqtisodiy tuzumini o'rnatmaydi, faqat uning asosiy negizlarini himoya qiladi.

O'zbekiston jahondagi mamlakatlarning rivojlanish tajribasini o'rganish, tahlil qilish va baho berish natijasida bo'lajak iqtisodiyot bozor munosabatlari asosida bo'lishini belgiladi va bu munosabatlarda ham o'ziga xos jihatlarni qo'lladi. Mamlakatimizning iqtisodiy munosabatlari aniq ilmiy nazariya asosida tashkil qilinishiga katta e'tibor berildi.

O'zbekiston iqtisodiyotini tashkil qilish va rivojlantirish:

– respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish;

– ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich jonlantirish, tashabbuskorlikni va ishbilarmonlikni butun choralar bilan rivojlantirish, tadbirkorlikka keng erkinlik berish;

– mulk egalari huquqlarini davlat yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirish, shu asosda insonni mulkdan begonalashtirishga barham berish;

– iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik hamda monopoliyalarga barham berish, korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirish.

– davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechish asosida bo'lishi belgilandi[1].

O'zbekistonni rivojlanish dasturi besh tamoyilida ham davlat va iqtisodiyot munosabatining asosiy tamoyillari belgilandi. Unga ko'ra:

– iqtisodiy islohotlarning hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak;

– davlat islohotlarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqishi, boshqacha aytganda, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchilik bilan o'tkazishi shart[2].

O'zbekiston Konstitutsiyasining XII bobi "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" deb nomlangan va unda O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga tayanishi hamda iqtisodiyotning aniq negizlari belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizning 53-moddasida: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi", – deb mustahkamlangan.

---

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 2000. – 17–18-betlar.

2 O'sha joyda. 101-bet.

Shunga asoslanib aytadigan bo'lsak, mamlakat iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat esa, ularning tengligi bir xilda muhofaza etilishini ta'minlaydi. Konstitutsiyada xususiy mulk hamda umumiy boylik hisoblanuvchi davlat mulkining mavjudligi ko'rsatilgan.

Bozor iqtisodiyoti ma'lum prinsiplarga tayanadi. Bular quyidagilar:

- mamlakat iqtisodoyoti bozor munosabatlariga asoslanishining konstitutsiyada mustahkamlanganligi;
- mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning bab-baravar muhofaza etilishi;
- iste'molchi huquqining ustuvorligi;
- erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi;
- xususiy mulkning daxlsizligi va davlat himoyasida bo'lishi;
- mulkdan mahrum etish faqat qonunga asosan amalga oshirilishi.

Davlat ana shu prinsiplarni amalga oshirishni ta'minlaydi va jamiyat iqtisodiy negizlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash vazifasini bajaradi[1]. Shunday qilib, jamiyatning iqtisodiy negizlari, bu – xilma-xil mulk shakllari (ommaviy, umumxalq va xususiy mulk) turli qonunga muvofiq tashkil qilinadigan iqtisodiy faoliyat, barcha mulklarni bab-baravar muhofaza qilish mexanizmlaridan iboratdir.

2-§. Mulk shakllari, ularning teng huquqliligi

O'zbekiston Konstitutsiyasining 53-moddasi qoidalaridan kelib chiqilsa, O'zbekistonda mulk turli shakllarda mavjud bo'lishi ayon bo'ladi. Yana shu konstitutsiyaning shu normasida mamlakatda xususiy mulk va umummilliy boylik hisoblanuvchi davlat mulki mavjudligini ko'rish mumkin. Umummilliy boylik hisoblanuvchi obyektlar Konstitutsiyada bevosita davlat mulki deb atalmasa-da, boshqa qonunlarda ularning davlat mulki maqomi ko'rsatib qo'yilgan.

1 Bular haqida batafsil qarang: Azizxo'jayev va boshq. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlar. – T.: O'zbekiston, 2008. – 211–213-betlar.

O‘zbekistonda mulkiy munosabatlarni “Fuqarolik kodeksi” tartibga soladi[1]. Mazkur kodeksning 167-moddasi “Mulk shakllari” deb nomlanib, unda O‘zbekiston Respublikasida mulk xususiy va ommaviy mulk shaklida bo‘ladi, deb belgilangan. 168-moddasida fuqorolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlari sifatida e’tirof e’tilib, mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo‘lishi mumkinligi belgilanadi.

Kodeksning 16-bobi “Xususiy mulk”, 17-bobi “Ommaviy mulk”ka bag‘ishlangan. Kodeks normalariga asosan, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq qo‘lga kiritilgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Bu yerda mulk qonun hujjatlariga muvofiq qo‘lga kiritilgan, degan so‘zning ma’nosi keng. Chunki, qonun hujjatlarida mulkni qo‘lga kiritishning ko‘plab yo‘llari ko‘rsatilgan, masalan sotib olish, xususiylashtirish, asrash, meros olish, hadya olish, yutib olish va boshqalar.

Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

Mulkka bo‘lgan huquqning vujudga kelish asoslari Fuqarolik kodeksida belgilangan.

Mulkning ikkinchi turi ommaviy mulkdir. Respublika mulki va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo‘lgan davlat mulki ommaviy mulkdir, ya’ni ommaviy davlat mulkiga nisbatan qo‘llaniladigan atama.

Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika budjetining mablag‘lari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o‘quv, ilmiy tadqiqot muassalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budjet

1 Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (2011-yil 1-iyulgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) Rasmiy nashr – T.: Adolat, 2011.

yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, respublika mulki bo'lishi mumkin.

Respublika mulki hisoblangan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti, hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tasarruf qiladilar.

Respublika mulki bo'lgan mol-mulkni davlat yuridik shaxslarga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo'yishi mumkin.

Respublika mulki respublika budjetiga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan vujudga keladi.

Respublika mulki obyektlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda va shartlar asosida xususiy mulk qilib berilishi mumkin (214-modda).

Qonunga asosan ommaviy (davlat) mulk Respublika (umumdavlat) va munitsipal (mahalliy) mulkka bo'linadi.

Davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk munitsipal mulk bo'ladi. Bunday mulklarni, qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mahalliy hokimiyat organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadi. Munitsipal mulk xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida yuridik shaxslarga biriktirilib qo'yilishi mumkin.

Munitsipal mulk mahalliy budjetga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlardan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga muvofiq tushumlar hisobiga vujudga keladi. Munitsipal mulk obyektlari qonunda belgilangan tartibda xususiy mulkka o'tkazilishi mumkin (125-modda).

Mulk shakllari davlat tomonidan teng muhofaza qilinadi. Ular teng mavqega ega.

3-§. Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan muhofaza etilishi

70 yil davomida faoliyat ko'rsatgan sotsialistik tuzum xususiy mulk degan tushunchani mutlaqo rad etdi va iqtisodiy faoliyat umummilliy davlat, jamoat mulkiga tayanishini e'tirof etdi. Shu bilan birga, shaxsiy mulk degan tushuncha ham turmushga kiritilib, u hech qanday daromad keltirmaydigan, faqat shaxsiy ehtiyoj sifatida foydalaniladigan, o'ta cheklangan mulk hisoblanar edi. Xususiy mulk sotsialistik tuzumga yot bo'lgan, burjua tuzumiga xos va uning tayanchi, har qanday haq-huquqsizlikning, ekspluatatsiyaning asosi deb hisoblanar edi.

Sotsializm, uning g'oyalari oxir-oqibat tamom bo'ldi, o'zining hayotiy emasligini ko'rsatdi. Umumiy mulk g'oyasi asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish samara bermadi. Aksincha, bozor munosabatlariga asoslangan davlatlar rivojlanib, xalqning turmush darajasi yuksalib bordi.

Shuning uchun O'zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilar ekan, bu borada yangilik yaratishga harakat qilmay, butun dunyoda tan olingan va iqtisodiy rivojlangan, farovon turmushni ta'minlash qoidalariga tayanishga harakat qildi. Shu tufayli iqtisodiyotning negizini xilma-xil shakllardagi mulk shakllari tashkil qilishi, mulk shakllaridan biri hisoblanuvchi xususiy mulk davlat tomonidan muhofaza qilinishi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yildi. Ana shu maqsadda Konstitutsiyaning o'zida va boshqa moddalarda hamda boshqa qonun hujjatlarida tegishli qoidalar belgilandi.

Masalan, Konstitutsiyaning 53-moddasida, mulkdor faqat qonunda belgilangan tartibda mulkidan mahrum etilishi mumkinligi, 36-moddada har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega ekanligi, bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi belgilab qo'yildi. Juda ko'p sonli qonunlarda xususiy mulkni himoya qilish tartibi belgilandi.

Xususiy mulkka zarar yetkazganlik. mulkka bo'lgan huquqlarni buzish uchun turli javobgarliklar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida mulkni bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish, firibgarlik, o‘g‘rilik yo‘li bilan egallaganlik (164–169-moddalar) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bundan tashqari, mulkni qo‘riqlashga vijdonsizlarcha munosabatda bo‘lish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, transport vositalarini olib qochish uchun (172, 173, 267-moddalar) jinoiy javobgarlik belgilangan.

Jinoyat kodeksining bu moddalari avvalgi tuzumdagi kabi sotsialistik mulkni qonunsiz egallash uchun alohida og‘irroq jazo, shaxsiy mulk uchun alohida yengilroq jazo o‘rnatmay, umuman, mulkni nazarda tutgan va bu xususiy mulkning bir xilda muhofaza etilishini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizning yigirma yillik tarixini ko‘radigan bo‘lsak, xususiy mulkni rivojlantirish yo‘li olib borilayotganligini, bunga misol qilib, tadbirkorlar huquqining alohida tartibda himoya qilinishi, o‘rta va kichik biznesni rivojlantirish choralari ko‘rilayotganligi, ommaviy mulkni xususiylashtirish izchillik bilan amalga oshirilayotganligini ko‘rsatish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasi ham mulkka egalik hissini shakllantirishga qaratilganligida ko‘rinadi. “Iqtisodiy islohotlarning eng muhim yakunlaridan biri – aksariyat yurtdoshlarimizda mulkka egalik, mulkdorlik tuyg‘usining uyg‘onishi va rivojlanishi jarayoni, o‘rta qatlam, kichik va xususiy korxona egalarining, mulkning, yer uchastkalarining aksiyalarning, boshqa qimmatli qog‘ozlarning, xullas, daromad keltiradigan mulkning shakllanishidir”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida bu masalaga alohida to‘xtalib shunday dedi: “Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta’minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratashimiz zarur. Har bir tadbir-

1 Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 14-bet.

kor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir"[1].

Ma'ruzada bozor iqtisodiyotining negizi hisoblanuvchi xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlovchi "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunni ishlab chiqib, qabul qilish zarurligi ta'kidlandiki, bu qonun xususiy mulkning daxlsizligi va himoyasini yanada kuchaytiradi.

2011-yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi ham xususiy mulkning daxlsizligini, himoyasini kuchaytirish va shu orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish nazarda tutadi.

4-§. Iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari, iqtisodiy faoliyat erkin bo'lishni nazarda tutadi.

Bu, eng avvalo, iqtisodiyotga davlat munosabati qay darajada bo'lishi masalasidir. Iqtisodiy faoliyatning erkin bo'lishi unga davlat ta'siri darajasiga bog'liq. "Davlat, uning hokimiyat boshqaruv tuzilmalari to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik faoliyatiga aralashishdan chetda bo'lishi kerak"[2].

Iqtisodiy faoliyat yuritadigan shaxslarga davlat huquqiy kafolatlarini berish bilan cheklanmay, huquqlardan to'la foydalanish uchun shart-sharoit yaratish, ishbilarmonlar faoliyatiga to'sqinlik qiluvchilarning tanobini tortib qo'yish bosh masala hisoblanadi[3].

O'zbekiston Respublikasi XXI asrga mamlakatda amalga oshiriladigan vazifalarning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab kirib keldi. Prezident I.A. Karimovning "O'zbekiston XXI asrga

---

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 48-bet.

2 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 49-bet.

3 Qarang: Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – 37-bet.

intilmoqda" asarida birinchi ustuvor yo'nalish sifatida mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish belgilandi. Shu asosda xususiy mulkchilik yetakchi o'rinda turadigan ko'p ukladli iqtisodni barpo etish maqsadi belgilandi. Buning uchun, eng avvalo, erkin tadbirkorlik uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratish zarurligi, kichik va o'rta biznesni keng rivojlantirish uchun hamma yo'lni ochib berish lozimligi ko'rsatildi[1].

Uzoq yillar davomida davlat iqtisodni boshqargan, shuning uchun birdaniga uning iqtisodga aralashuvini cheklash ancha mushkul ish bo'lishi tabiiydir. Dastlabki davrlarda erkin iqtisodiy faoliyat olib borish, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga to'sqinliklar uchrab turishi ham tabiiydir. Shu tufayli iqtisodiyotni erkinlashtirish, eng avvalo, iqtisodiy faoliyat olib boruvchi subyektlarning erkinligini, mustaqilligini ta'minlash, buning uchun tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi to'siq va cheklashlarga barham berish chora-tadbirlarini nazarda tutadi.

"Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat.

Ayniqsa, xususiy biznesga ko'proq erkinlik berish lozim. Umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish zarur"[2].

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashning samarali tadbirlaridan biri davlatning iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik faoliyatini nazorat qilish vazifasini cheklash hisoblanadi. Shu tadbir izchillik bilan o'tkazib kelinmoqda va har doim ustuvor vazifalardan hisoblanmoqda. Bundan tashqari, tekshiruv natijalari bo'yicha qo'llaniladigan jazolarni ma'muriy tartibda berishdan sud tartibiga o'tkazish ham iqtisodiy faoliyatga davlat aralashuvini cheklaydi va

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 32–33-betlar.

2 Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard masadimiz. –T.: O'zbekiston, 2000. 17–18-betlar.

erkin iqtisodiy faoliyatni ta'minlaydi. Shuning uchun bu masala ham asosiy vazifa sifatida belgilangan[1].

Mamlakatimizda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Xususiy korxona to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonunlar, Konstitutsiyamizda belgilangan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini davlat muhofaza qiladi, degan (53-modda) qoidani amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2010-yil 12-noyabrdagi Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida Prezidentimiz tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish erkinligini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilish va "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida"gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish va unga ruxsat berishni yanada osonlashtirish tartibini joriy qilishni taklif etdi[2]. Konsepsiyada belgilangan ustuvor vazifalarni hayotga joriy etish maqsadida o'tgan davr mobaynida ushbu qonunlar Parlament tomonidan ishlab chiqildi va qabul qilindi. Jumladan, 2012-yil 2-mayda O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. 2012-yil 20-dekabrda esa, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Tadbirkorlik sohasini rivojlantirish borasida yurtimizda olib borilgan islohotlar samarasini Prezidentimiz I. Karimovning tashabbusi bilan 2012-yil 14-sentabrda o'tkazilgan "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro kon-

1 Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 79–80-betlar.

2 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 49-bet.

ferensiyada ko'rishimiz mumkin. Konferensiyaga nufuzli xalqaro institutlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiya-si, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot bankining vakillari, yetakchi olim va mutaxassislar, biznesmenlar, dunyoning 45 ta mamlakatidan ishtirokchilar tashrif buyurdi. Yurtboshimiz ushbu Konferensiyaning ochilish marosimida nutq so'zlab, mamlakatimizda tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tdi: "...20 yil avval O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli yo'q edi, bugun esa mavjud barcha xo'jalik sub'ektlarining 90 foizdan ortig'ini kichik biznes korxonalari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 54 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq xo'jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

...Faqat 2005-yildan 2012-yilgacha bo'lgan davrda mikrofirma va kichik korxonalar uchun aylanma mablag'dan olinadigan yagona soliq to'lovi stavkasi 2,5 barobar kamaytirilib, 13 foizdan 5 foizga tushirildi, xalq amaliy san'ati va oilaviy biznes obyektlari esa umuman soliqqa tortilmaydi yoki eng kam stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

...Faqat 2011-yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan soliq imtiyozlarining umumiy miqdori 500 million dollardan oshdi. Korxonalar ushbu mablag'ning 35 foizini ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilishga, 25 foizini ishchilarni rag'batlantirishga yo'naltirdi.

...Davlatning tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvini tubdan kamaytirish maqsadida joriy yilda ruxsat berishga oid 80 ta tartib-qoida, shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasi bekor qilindi, moliyaviy hisobotlarni topshirishning shakllari va davriyligi 1,5 barobar qisqartirildi. Bundan tashqari, 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab 65 ta statistik hisobot shakli va 6 ta soliq hisoboti shaklini bekor qilish, ularni topshirish davriyligini 2 barobardan ziyod qisqartirish haqida qaror qabul qilindi».

Amaldagi Konstitutsiyamiz avvalgi amal qilgan konstitutsiyalardan farq qilib, mehnat qilish erkinlikligini, shuningdek iqti-

sodiy faoliyat yuritish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish erkinligini belgiladi, bu esa, bozor munosabatlariga mos keladi.

5-§. Iste'molchilar huquqlarining ustunligi

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik, mehnat qilish erkinligi davlat tomonidan ta'minlanadi va mulkning barcha shakllari bir xilda muhofaza qilinar ekan, bunda iste'molchining huquqlari ustunligi inobatga olinadi, bu qoida konstitutsiyaviy qoida sifatida Konstitutsiyamizning 53-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Sababi, iste'molchi bu, eng avvalo, insonlardir. Demokratik jamiyatda barcha masalada inson manfaati ustuvorligi ta'minlanadi. Bu prinsip konstitutsiyaviy tuzum asoslaridan biri sifatida ham e'tirof etiladi. Konstitutsiyamizning 13-moddasiga binoan, mamlakatimizda inson va uning huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Ana shu prinsipning amaliy ifodasi iste'molchining huquqlari ustuvor bo'lishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida mamlakatimizda shu davrlarda bu masalada jiddiy kamchiliklar borligini ko'rsatib, bu holatlar ishlab chiqarishga, iste'molchiga, odamlarning manfaatlariga zarar yetkazayotganligini, tabiiy monopoliyalar to'g'risida qonun qabul qilish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatgan edi[1].

Shundan so'ng iste'molchi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik takomillashtirildi, kuchaytirildi, iste'molchi huquqlarini himoya qiluvchi organlar tizimi takomillashdi, bu borada jamoatchilik nazorati kuchaytirildi. Iste'molchiga o'z huquqlaridan foydalanish, huquq buzilishlari sodir etilsa, uni tiklash uchun zarur bilimlarni berish maqsadida huquqiy targ'ibot ishlari olib borildi. Jahon tajribasidan ma'lumki, iste'molchi huquqlari sog'lom raqobat bor joyda yaxshiroq, to'laroq ta'minlanadi. Raqobat esa, munosabatlarning asosidir. Prezident tomonidan ilgari surilgan

1 Qarang: Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 34-bet.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da raqobatni kuchaytirish, monopoliyaga qarshi kurashish talabini kengaytirish masalalariga ham e'tibor berilgan. Bu sohada ayrim qarashlar eskirib, hozirgi davr talablariga javob bermay qolganligi, "Raqobat to'g'risida" yangi qonun qabul qilish zarurligi, yaqin istiqboldagi eng muhim vazifalarimiz boshlagan ishimizni izchil davom ettirish – iste'mol talabini kuchaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga, taransport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berish kerakligi qayd etildi[1].

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish borasida Konsepsiyada taklif etilgan O'zbekiston Respublikasining "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi (22.12.2010-y.), "Raqobat to'g'risida"gi (06.01.2012-y.), "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi (26.04.2012-y.), "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (24.09.2012-y.) qonunlari qabul qilindi.

6-§. Mulkka egalik qilish va mulkdan mahrum qilish asoslari

Konstitutsiyaning 36-moddasiga binoan har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega. Ya'ni, mulkka egalik qilish huquqi konstitutsiyaviy huquqdir. Mulkka egalik qilish huquqi orqali shaxsning turmush sharoiti moddiy jihatdan ta'minlanadi. U hayot kechirishi uchun zarur manbalarga ega bo'ladi. Mulkka egalik qilish asosi deganda birinchi navbatda u konstitutsiyaviy asosga ega ekanligini ko'rsatish mumkin.

Mol-mulkning turlari Fuqarolik kodeksida belgilangan. Kodeksning 169-moddasida mulk huquqining obyektlari belgilangan bo'lib, unga asosan, yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 52–53-betlar.

va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk obyektlari mulk bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaning 55-moddasida umummilliy boyliklar ro'yxati berilgan bo'lib, unga ko'ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik hisoblanadi. Demak, bular xususiy mulk obyekti bo'la olmaydi. Qolgan barcha mulklar xususiy mulk bo'lishi mumkin. Ommaviy mulk obyektlari Fuqarolik kodeksining 214-moddasida yanada aniqroq, kengroq mustahkamlab qo'yilgan. Kodeksning 207-moddasiga asosan, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk obyektlari chegaralangan, lekin kodeksning shu moddasida uning miqdori va qiymati cheklanmasligi belgilab qo'yilgan.

Kodeksning 209-moddasida: "Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin", deb belgilangan.

Mulk huquqi qonunga binoan mehnat faoliyati, tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish, davlat mol-mulkini xususiylashtirish, meros olish va boshqa qonuniy asoslarda vujudga keladi (FK, 178-modda).

Qonuniy yo'l bilan vujudga kelgan xususiy mulk daxlsiz va u davlat tomonidan himoya qilinadi.

Konstitutsiyaning 53-moddasiga asosan, mulkdor (ya'ni, xususiy mulk egasi) mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina mahrum qilinishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 199-moddasida mol-mulkni mulkdordan olib qo'yish asoslari belgilab qo'yilgan. Unga asosan, mol-mulkni mulkdordan olib qo'yishga qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdorning majburiyatlari bo'yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo'l qo'yiladi.

Qarzni undirish tartibi; qimmatbaho metallar va toshlarga mulk huquqining vujudga kelishi hamda bekor bo'lish xususiyat-

lari; natsionalizatsiya, rekvizitsiya, musodara qilish va boshqa holatlar natijasida mulkni olib qo'yish Fuqarolik kodeksining "Mulk huquqining vujudga kelishi va uning bekor bo'lishi" deb nomlangan 15-bobi qoidalari bilan tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 23-moddasida ma'muriy jazo turlari qatorida ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish va ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish ko'rsatilgan. Kodeksning 26–27-moddalari shu masalalarni tartibga soladi. Musodara sud organlari, bojxona va soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar, jazolarni liberallashtirish natijasida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan jinoiy jazolar qatoridan mol-mulkni musodara qilish jazosi chiqarib tashlandi. Bu jazo sotsialistik tuzumga xos bo'lib, qo'shimcha jazo sifatida belgilanar edi. Uning natijasida jinoyat sodir etgan shaxsning o'zigina emas, oila azolari ham iqtisodiy qiyin ahvolga tushib qolar edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan mulkiy masalalardagi har qanday jazolarni ma'muriy tartibdan sud orqali qo'llashga o'tish haqidagi taklif xususiy mulk huquqini yanada to'laroq himoya qilishga olib keldi.

7-§. Umummilliy boyliklar va ulardan foydalanish hamda muhofaza qilish

Konstitutsiyaning 55-moddasida: "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", – deb belgilangan.

Umummilliy boyliklar, eng avvalo, inson qo'li bilan yaratilmagan, tabiat bilan, ona zamin – yer bilan bog'liq manbalardir, ular jonli mavjudot yashashi uchun zarur birlamchi qiymatlardir. Ularsiz hayot bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham Konstitutsiya-

mizda: "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir", – degan asosiy burch belgilab qo'yilgan.

Umummilliy boyliklar, qonunga asosan, ommaviy mulk shakliga kiritilgan. Ommaviy mulkning respublika mulki hisoblanuvchi mulklar qatorida umummilliy boyliklar mulk obyekti sifatida belgilangan. Fuqarolik kodeksining 214-moddasi respublika mulki obyektlarini belgilar ekan, ular qatoriga yer osti boyliklari, suv, havo bo'shliqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklarni kiritgan.

Umummilliy boylik hisoblanuvchi har bir obyekt alohida maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi va muhofaza qilinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi[1] yerdan foydalanish, muhofaza qilish tartiblarini o'rnatgan. Uning 1-moddasida: "Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi", – deb belgilangan. Shu moddaning o'zida yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifasi yerdan foydalanishni, yerlarni muhofaza qilishni belgilash ekanligi ko'rsatilgan.

Qonunning XI bobi yerni muhofaza qilishga bag'ishlangan bo'lsa, 90-moddasi, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanishini mustahkamlagan.

Umummilliy boylik hisoblanuvchi boshqa obyektlar to'g'risida ham maxsus qonunlar mavjud. Bundan tashqari, umummilliy boyliklardan noto'g'ri foydalanish, ularga zarar yetkazganlik uchun ma'muriy, jinoiy javobgarliklar belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida: "Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish" (60-modda), "Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish" (65-modda), "Yer berish tartibini buzish" (66-modda), "Yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish talablarini buzish" (70-modda), "Suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish" (72-modda), "Suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini buzish" (74-modda), "O'rmon fondi yerlaridan foydalanish qoi-

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi kodekslari (2013-yil 1-martgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan): to'plam. – T.: Adolat, 2013. – 909–934-betlar.

dalarini buzish" (77-modda), "Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni yig'ish" (81-modda), "O'rmon uchun foydali faunani yo'q qilib yuborish" (83-modda), "Ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning atmosfera havosiga chiqarib tashlash, unga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish" (86-modda) uchun va 90, 92, 93, 94-moddalarda hayvonot dunyosiga zarar keltirganlik uchun ma'muriy jazolar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Maxsus qismi 4-bo'limi "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar", 14-bobi "Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanib, undagi moddalarda umummilliy boyliklardan foydalanish tartibini buzganlik, ularga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Iqtisodiy negiz nima?

2. O'zbekiston iqtisodiyotining asosini nima tashkil etadi?

3. O'zbekistonda qanday mulk shakllari mavjud?

4. Mulk shakllarining teng huquqliligi qanday ta'minlanadi?

5. Xususiy mulk nima, ularning obyektlari nimalar?

6. Ommaviy mulk nima? Ularning obyektlari nimalar?

7. Xususiy mulkning daxlsizligi davlat tomonidan qanday muhofaza qilinadi?

8. Iqtisodiy faoliyat nima?

9. Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi qanday ta'minlanadi?

10. Iste'molchi kim? Nima uchun uning huquqlari ustuvor?

11. Mulkka qanday egalik qilinadi?

12. Mulkdan mahrum qilish asoslari qanday?

13. Umummilliy boyliklar va davlat mulki, ularni muhofaza qilish choralari qanday?

XV bob. Jamoat birlashmalari

1-§. Jamoat birlashmalarining tizimi, turlari, vazifasi

O'zbekistonda jamoat birlashmalari tizimiga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari kiradi, bu Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilangan. Jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatishinining asosiy sharti ular qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerakligidir. Ularni ro'yxatdan o'tkazish Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Jamoat birlashmalari eng muhim demokratik institutlardan hisoblanib, ular fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini amalda ta'minlovchi muhim vositadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 56-moddasidan tashqari yana bir necha moddalarda jamoat birlashmalarining xilma-xilligi, ko'p partiyaviylik tizimining mavjudligi jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri, bu esa, fuqarolar faolligining garovi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning 34-moddasida fuqarolarning jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish huquqi belgilangan bo'lib, shu moddaning ikkinchi bandida, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligining belgilanishi fikrlar va g'oyalar xilma-xilligining muhim garovi hamda Konstitutsiyaviy tuzumning demokratik xususiyatidir.

Jamoat birlashmalari, turidan qat'i nazar, xalqning erkin faoliyati va ijtimoiy hayotda ishtirokini ta'minlash vositasi hisoblanadi. Bu tashkilotlarning samarali faoliyatidan fuqarolar ham, davlat ham manfaatdor. Fuqarolar ularning faoliyati orqali jamiyat ishlarida, davlatni boshqarishda ishtirok etsa, o'z qarashlarini bayon etib, manfaatlarni to'la himoya qilsa, davlat o'zining ayrim funksiyalarini ularga o'tkazib, muhim masalalarni hal qilishga jalb etadi. Ya'ni, jamiyatni boshqarishda jamoat birlashmalariga tayanadi.

Davlat jamoat birlashmalari faoliyatiga yordam berib, ular bilan to'g'ri va samarali munosabat o'rnata olsa, taraqqiyot tezlashadi, farovon turmush yaratiladi. Shu bilan birga, jamoat birlashmalari faoliyatiga, ularning ishiga be-vosita aralashmagan holda davlat nazorati o'rnatiladi (Konstitutsiyaning 58-moddasi).

Jamoat birlashmalari kishilarni siyosiy qarashlari (siyosiy partiyalar), faoliyati yo'nalishiga (kasaba uyushmalari), jinsiga (xotin-qizlar qo'mitalari), yoshiga (Kamolot), qobiliyati, kasbiga (yozuvchilar, arxitektorlar ittifoqlari) qarab birlashtiradi.

Bu Konstitutsiyaning 56-moddasida quyidagicha mustahkamlab qo'yilgan: "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi".

Demak, jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatishining asosiy sharti ularni qonunda belgilangan tartib ro'yxatdan o'tkazishdir, bu ularning Ustav (nizomlarini) ro'yxatga olish bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunga asosan Respublikada amal qiluvchi jamoat birlashmalari Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Birlashma tuzish, ro'yxatdan o'tkazish uchun Adliya vazirligiga murojaat qilish, taqdim qilinadigan zarur hujjatlar qonunda belgilangan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda to'rtta siyosiy partiya va ko'plab boshqa jamoat birlashmalari mavjud va ular qonuniy ravishda jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etilgan.

Jamoat birlashmalarining faoliyati turli qonunlar, jumladan, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Barcha jamoat tashkilotlariga xos xususiyat – bu ularga a'zolik ixtiyoriyligidir. Eng yirik jamoat birlashmalari – kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalar qanday manfaatni ko'zlab tuzilishi, vazifasi, siyosiy hayotda qanday ishtirok etishi Konstitutsiyaning o'zida alohida mustahkamlab qo'yilgan (Konstitutsiyaning 59, 60-moddalari).

Jamoat birlashmalari tizimida yoshlar tashkilotining bo'lishi belgilanganligi mamlakatimizda yoshlarga alohida umid bilan qaralishining natijasidir.

O'zbekiston yoshlari o'z ijtimoiy faolligini "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati orqali amalga oshiradilar. Uning Nizomi 2001-yil 25-aprelda O'zbekiston yoshlari ijtimoiy harakati – "Kamolot"ning ta'sis Qurultoyida qabul qilingan.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanib, ixtiyoriylik asosida o'zini o'zi boshqarish prinsipida tashkil etilgan.

Yoshlar birlashmasining asosiy maqsadi – yoshlarni sog'lom turmush tarzi talablarida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini egallash uchun qo'llab-quvvatlash, yoshlar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, intellektual salohiyatlarini to'la namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish va o'sib kelayotgan avlodga har tomonlama yordam berish hisoblanadi.

Harakat o'z faoliyatini Konstitutsiya hamda qonunlar va o'z Nizomi asosida olib boradi. O'z maqsadiga erishish, oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish maqsadlari belgilangan dasturiga ega.

Harakat va uning joylardagi bo'limlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, o'zlarining nomi va tashkilot ramzi tushirilgan muhriga ega. Ya'ni, to'laqonli tashkilot sifatida faoliyat yuritadi.

Demak, tashkilotning tuzilmasi Respublika, viloyatlar (Toshkent shahri), tumanlar va shahardagi tuzilmalardan iborat.

Harakatning oliy organi – Qurultoy hisoblanadi. U besh yilda kamida bir marta chaqiriladi. "Kamolot"ning joylardagi barcha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga rahbarlik qilish uchun Qurultoy Markaziy Kengashni tuzadi. Markaziy Kengash ishiga rais rahbarlik qiladi.

Markaziy Kengash o'z ishchi organi – Ijroiya qo'mitasini saylaydi. Ijroiya qo'mita faoliyatiga Markaziy Kengash raisi rahbarlik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi harakat bo'limlari harakatning joylardagi tuzilmasi hisoblanadi. Ular yuridik shaxs huquqiga ega.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining asosi, uning boshlang'ich tashkilotlari hisoblanadi. U maktab, litsey, kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, mehnat jamoalarida tashkil qilinadi. Boshlang'ich tashkilotlar ta'sis majlisida tashkil qilinadi. Har bir boshlang'ich tashkilot o'z yetakchisiga ega va ular yoshlarning tegishli, tashkilot, muassasa faoliyatidagi, ishtirokini ta'minlaydi. Tashkilot, muassasa hayotida yoshlar "Kamolot" orqali faol ishtirok etadi.

Jamoat birlashmalari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlari alohida o'ringa ega. Ular hozirgi fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida katta tayanch sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda va bu ko'rsatkich 2000-yilga qaraganda 2,5 barobar ko'pdir[1].

Prezident tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi, deb ko'rsatildi[2].

2-§. Siyosiy partiyalarning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki

Siyosiy partiyalar, Konstitutsiyaning 56-moddasiga binoan, jamoat birlashmalari tizimiga kiruvchi jamoat birlashmalaridan biridir.

Konstitutsiyaning 60-moddasida siyosiy partiyalarning maqomi konstitutsiyaviy asosda mustahkamlab qo'yilgan. Unga asosan: "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 42-bet.
2 O'sha joyda. – 43-bet.

vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar". Bu moddaning mazmunidan kelib chiqsak, siyosiy partiyalar:

- mamlakatdagi turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydi (demak, bu siyosiy tashkilot);
- demokratik saylovlarda ishtirok etadi;
- demokratik saylov natijasida turli organlarga (Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi, mahalliy kengashlar) saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda tuzishda (hukumatni) ishtirok etadi.

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etar ekan, o'z-o'zidan ularning shu organlar faoliyatida ishtirok etishi, ularning faoliyatini nazorat qilishda ishtirok etishini vujudga keltiradi.

Siyosiy partiya mamlakatdagi kuchli tuzilmalardan bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, ularning faoliyatini moliyalashtirish ochiq, ixtiyoriy bo'lishi kerak. Siyosiy partiyalar faoliyatidan mamlakat dushmanlari foydalanishi, ularni noto'g'ri yo'lga boshlashi mumkin. Bu, asosan, siyosiy partiyalarning faoliyatini moliyalashtirish asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun, Konstitutsiyada siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish ahvoli, yo'llari haqida Oliy Majlisga hisob berib turish belgilangan.

Konstitutsiya normalaridan tashqari siyosiy partiyalar faoliyati haqida bir necha joriy qonunlar mavjud. Jumladan, "Siyosiy partiyalar to'g'risida", "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"[1] qonunlar.

"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida siyosiy partiyalarga shunday ta'rif berilgan: "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatalri to'plami. – T.: 2007. – 70–81, 205–209-betlar.

chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamiyat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir".

Qonun siyosiy partiyalarni tuzish, faoliyat ko'rsatish prinsiplarini, unga a'zolik masalasi, faoliyat kafolatlarini, faoliyatini to'xtatish, tugatish, siyosiy partiyalarning huquqlarini, vakillik organlari tarkibida fraksiyalar (guruhlar) tuzish, siyosiy partiyalarning mulki masalalarini batafsil tartibga soladi.

Siyosiy partiyalarning Prezident, vakillik organlariga saylovlarda ishtirok etish huquqlari tegishli organlarga saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan.

Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyatidagi ishtirokining eng muhimlaridan biri Prezidentlikka, vakillik organlariga deputatlikka nomzod ko'rsatishdir. Siyosiy partiyalarning hokimiyat ishlarida ishtirokining yana bir shakli Qonunchilik palatasi tarkibidagi partiya fraksiyalari, mahalliy Kengashlardagi partiya guruhlari faoliyati orqali ko'rinadi.

2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun mamlakat hayotida ham, siyosiy partiyalar hayotida ham muhim voqea bo'ldi.

Qonunning 2-moddasida Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalarning fraksiyalarini tuzish, ro'yxatga olish tartibi, fraksiya tuzishdan maqsad, fraksiyalar mavqei (ko'pchilik), bloklar tuzish, parlamentda o'zini muxolifat deb e'lon qilish, muxolifatchilarning huquqlari belgilab qo'yildi.

Qonunning 3-moddasida siyosiy partiyalar fraksiyalarining Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarlarini saylashdagi roli (nomzod ko'rsatishi, har bir fraksiya o'z vakiliga ega bo'lishi) belgilangan.

Qonunning 4-moddasida siyosiy partiyalar fraksiyalarini Bosh vazirni lavozimiga tayinlashdagi ishtiroki mustahkamlangan[1]. Bu keyinchalik o'zgardi.

---

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: – 322–324-betlar.

Qonunning 5-moddasida Bosh vazirni muddatidan avval lavozimidan ozod qilishdagi partiya fraksiyalari ishtiroki belgilandi.

Unga asosan, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan, agar bunday tashabbusni palatadagi yetakchi partiya fraksiyasi qo'llab-quvvatlasa hamda mazkur tashabbus Prezident tomonidan Oliy Majis palatalariga ovozga qo'yilganda deputatlar va senatorlarning umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozini olsa, Prezident Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qonunning 6-moddasida viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga nomzod tegishli Kengashga tasdiqlash uchun Prezident tomonidan Kengashdagi siyosiy partiya guruhlari bilan maslahatlashib taqdim qilish tartibi belgilandi.

Qonunning 7-moddasiga ko'ra viloyat va Toshkent shahar Kengashlari deputatlari guruhlari hokimning qoniqarsiz faoliyati ustidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslantirilgan xulosalar taqdim etish huquqiga ega bo'ladi. Bunday tashabbus yetakchi partiya guruhi tomonidan qo'llab-quvvatlansa, Prezident bu tashabbusni xalq deputatlari Kengashi muhokamasiga kiritadi va muhokama natijalariga muvofiq qaror qabul qiladi.

Prezident konsepsiyasidagi qonunchilik tashabbusiga binoan Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritildi. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalarida)gi qonunga asosan (2011-yil 18-aprelda Prezident tomonidan imzolangan), Konstitutsiyaning 98-moddasi yangicha tahrirda bayon qilindi. Unga asosan Bosh vazir nomzodi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

Amaldagi Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirilib, u iste'foga chiqqanda yangi Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng Oliy Majlisga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Bunday tartiblarning o'rnatilishi siyosiy partiyalarning rolini oshirib, ularning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtirokini kengaytirdi.

3-§. Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi faoliyat yurituvchi birlashmalar tuzishning taqiqlanishi

Konstitutsiya faqat huquq va erkinliklarni mustahkamlab qolmasdan, unda taqiqlar, cheklashlar ham nazarda tutiladi. O'zbekiston Konstitutsiyasi ham shunday xususiyatlarga ega.

Konstitutsiyada ko'zda tutilgan taqiqlanishlar jamiyat, fuqarolar, davlat manfaatidan, ularni turli tazyiqlardan himoya qilish nuqtayi nazaridan kelib chiqadi.

Jamiyat, fuqaro, davlat manfaatini himoya qilish, eng avvalo, Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligi, ko'p jihatdan, jamoat birlashmalarining faoliyatiga bog'liq.

Shuning uchun, Konstitutsiyaviy tuzumga, davlatga, jamiyatga, fuqarolar manfaatiga qarshi faoliyat yurituvchi jamoat birlashmalari tuzishga yo'l qo'yilmaydi, mavjudlari shunday faoliyat bilan shug'ullansa, ularning faoliyati to'xtatiladi, tugatiladi. Bu masala O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hal qilingan bo'lib, uning 57-moddasida: "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi", – deb belgilangan.

Konstitutsiya konstitutsiyaviy tuzumni o'rnatish bilan shu qonuniy tuzumni himoya qilish choralarini ham ko'radi. Shu maqsadda konstitutsiyaviy tuzumning asoslariga zarar yetkazish uchun qilingan har qanday harakat taqiqlanadi.

Konstitutsiyaviy tuzumning asoslaridan bo'lgan:

- davlat suverentiti, konstitutsiya bilan o'rnatilgan davlat boshqaruvi shakliga;
- inson, uning qadr-qimmati, sha'ni va boshqa huquqlarining oliy qadriyat ekanligiga;
- millatlarning tengligi, xalq hokimiyatining turli shakllariga;
- mamlakatning iqtisodiy negiziga;
- konstitutsiya va qonunlarning ustunligiga qarshi, ularga xavf tug'diradigan har qanday uyushma, jamiyatlarni tuzishni taqiqlaydi.

Shuningdek, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi, fuqarolarning sog'lig'iga va madaniyatiga zarar yetkazuvchi, tajovuz qiluvchi tashkilot va birlashmalarni tuzish qat'iyan taqiqlanadi.

Konstitutsiyaning tegishli moddasi harbiylashtirilgan (jangari) birlashmalarni, milliy (millatchi) va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishini taqiqlaydi. Chunki, bunday tashkilotlarning tuzilishi faqat shu mamlakat konstitutsiyaviy tuzumiga emas, umuman, barcha xalqlar taqdiriga juda katta talofat yetkazgan. Masalan, Germaniyada tuzilgan "Milliy sotsialistlar" (fashistlar) partiyasi.

Konstitutsiya har qanday maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzishni taqiqlaydi. Chunki, jahon tajribasida yashirin va maxfiy tashkilotlar tuzib, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga urinishlar ko'p bo'lgan.

Tegishli tartibda ro'yxatdan o'tmagan yoki ro'yxatdan o'tishga urinmagan, bu ishdan bosh tortgan tashkilotlarni, maxfiy tashki-lotlarni qonunsiz tashkilot deb hisoblash mumkin.

Konstitutsiyaviy tuzum tartibi, eng avvalo, fuqarolar manfaatini, o'zini (Konstitutsiyaviy tuzumni), mamlakat xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadi. Har qanday erkinlik bilan Konstitutsiyaviy tuzumni ta'minlash mumkin emas, faqat qonunga asoslangan erkinlik e'tirof etiladi.

Shuning uchun, Konstitutsiyaviy tuzum keng erkinlik va demokratiyaga sharoit yaratar ekan, albatta, o'zini himoyalashni ham esdan chiqarmasligi zarur. Aks holda unga qarshi harakatlar bo'lishi mumkin.

Keyingi paytlarda turli niqoblar ostida g'arazli niyatlar bilan tashkilotlar tuzishga harakat qilish, o'zlarini tashkilot deb e'lon qilish hollari uchrab turibdi. Ularning asl maqsadi qonuniy hokimiyatga qarshi kurashish, Konstitutsiyaviy tuzumga zarar yetkazish bo'lgani uchun bunday tashkilotlarni tuzishga ruxsat berilmaydi, ya'ni, ro'yxatga olinmaydi.

O'zbekistonning amaldagi Jinoyat kodeksi 244^2-moddasida diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligi jamiyat taraqqiyoti, fuqarolarning farovon turmushi garovidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi birinchi bo'limida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumi asoslari hamda prinsiplari belgilangan. Ularga qarshi har qanday tajovuzning oldi olinadi yoki tegishli choralar ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 159-moddasida, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish uchun, 216-moddasida jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

4-§. Davlat va jamoat birlashmalari munosabati

Davlat ham, jamoat birlashmalari ham jamiyatning tuzilmalaridir. Ularning alohida-alohida vazifalari bilan birga umumiy vazifalari ham mavjud. Davlat va uning tashkilotlari bilan jamiyat birlashmalari o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatilsagina, ijobiy natija berishi mumkin. Ana shu munosabatning huquqiy asosi Konstitutsiyada mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning 58-moddasida: "Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalari-

ning davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi" – deb belgilangan.

Davlat bilan, jamoat birlashmalari munosabatida davlat tomonidan jamoat birlashmalarini ro'yxatga olish tartibining o'rnatilishi hamda barcha jamoat birlashmalarining faoliyatini tashkil qilish, vazifasi, vakolatini belgilovchi huquqiy hujjatlarning (qonun, farmon, qarorlar) davlat tomonidan qabul qilinishi muhim rol o'ynaydi.

Davlat o'zining qonun va boshqa huquqiy hujjatlari orqali jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Qonunlarda jamoat birlashmalarining ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishlari uchun teng huquqiy imkoniyatlar belgilanadi.

Masalan, O'zbekistonning saylov to'g'risidagi qonunlarida, barcha ro'yxatga olingan siyosiy partiyalarga teng imkoniyat yaratilgan va bir xil huquq berilgan. Qonunga asosan, siyosiy partiyalar deputatlikka va Prezidentlikka nomzod ko'rsatishda, nomzodlarni tashviqot-targ'ibot qilishda teng huquqlarga ega.

Jamoat birlashmalari o'z faoliyatini mustaqil, chetdan aralashuvlarsiz olib borsa, ularning faoliyati ijobiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun, Konstitutsiyada belgilangan qoidaga asosan, davlat organlari, mansabdor shaxslar jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishi, ta'sir qilishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, jamoat birlashmalari ham davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishi mumkin emas.

Davlat jamoat birlashmalarini moddiy tomondan ham qo'llab-quvvatlash siyosatini olib boradi. 2004-yil 30-aprelda "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, barcha siyosiy partiyalarga teng imkoniyat yaratish, faoliyatini oshirish, o'z faoliyatini tashkil etishda moliyaviy qiyinchiliklarga uchramaslik uchun partiyalarni davlat tomonidan moliyaviy ta'minlash tartibi joriy qilindi.

Davlat jamoat birlashmalarining faoliyatiga aralashmagan holda ular faoliyatining qonunga mos bo'lishini nazorat qiladi. Siyosiy partiyalar o'z moliyaviy faoliyati, davlat tomonidan ajratilgan mablag'lardan to'g'ri foydalanish haqida davlatga (Oliy Majlisga)

hisobot taqdim qiladi. Umuman, har qanday jamoat birlashmalarining mablag'lari, ularning sarflanishi, soliq to'lashlari ham davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Jamoat birlashmalarining faoliyati qonun va o'z nizomlariga muvofiq olib borilishi ustidan nazoratni olib borish borasida Adliya vazirligiga alohida vakolatlar yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisidagi nutqida Prezidentimiz fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida davlat va jamoat birlashmalari munosabatlariga to'xtalib, bunday tashkilotlarning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli ortib borayotganligini ko'rsatib o'tdi[1] hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilovchi va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtiruvchi "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi Qonun qabul qilish zarurligini uqtirdi[2].

Bulardan ko'rinib turibdiki, faqat davlat va uning organlari jamoat birlashmalari faoliyatini nazorat qilishda ishtirok etish bilan cheklanmay, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining muhim ko'rinishlaridan biri – jamoat birlashmalarining nazorati olib boriladi.

Ya'ni, davlat va jamoat birlashmalari o'rtasidagi munosabatda nazorat, ularning munosabatlarini ko'rsatuvchi shartlardan bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, birinchisi, davlat organlarining jamoat birlashmalari ustidan davlat nazorati, ikkinchisi, davlat organlari ustidan jamoat birlashmalarining nazorati – bu jamoatchilik nazoratidir.

Har ikki nazoratda ham davlat organlari, jamoat birlashmalari biri-birining ishiga aralashmaydi, biri ikkinchisining o'rnini egallashga, vazifasini bajarishga harakat qilmaydi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 42-bet.
2 O'sha joyda. – 45-bet.

5-§. Kasaba uyushmalarining jamoat birlashmalari tizimida tutgan o'rni, vazifasi

Konstitutsiyada kasaba uyushmalari jamoat birlashmalari tizimida qayd qilinishi bilan birga (56-modda), ularning asosiy vazifalari ham alohida moddada ko'rsatib qo'yilgan. Konstitutsiyaning 59-moddasida: "Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir" – deb mustahkamlangan.

Shuning o'zi, ya'ni kasaba uyushmalari vazifasining Konstitutsiyada belgilanishi, uning jamoat tashkilotlari tizimida, jamiyatda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kasaba uyushmalarini tuzish, unga a'zo bo'lish, majburiyatlari va boshqa holatlar 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Kasaba uyushmalari huquqlarining va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Qonunga asosan, kasaba uyushmalari ko'ngilli jamiyat, ya'ni, uni tuzish, unga a'zo bo'lish ixtiyoriydir. Bu tashkilot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan (o'quv muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqalar) har qanday tashkilot, muassasalarda tuzilishi mumkin.

Ular qayerda tuzilishidan qat'i nazar, o'z a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizning barcha fuqarolari, ishchilar, xizmatchilar, qishloq xo'jaligi xodimlari, davlat xizmatchilari, talabalar o'z yo'nalishlari bo'yicha, o'z ixtiyori bilan kasaba uyushmalari tuzish, uning ustavi talablariga rioya etish sharti bilan kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish huquqiga ega.

Nafaqaxo'rlarning uyushmaga a'zo bo'lishi, undan chiqishi haqidagi tartib-qoidalar ustavlarda belgilangan.

Kasaba uyushmalarining ustavlarini ro'yxatga olish tartibi "O'zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan.

- kasaba uyushmalari, qayerda tuzilishidan qat'i nazar, davlat organlaridan mustaqil, ular bilan sherikchilik, hamkorlik asosida ish olib boradi;

- tashkilot, muassasa ma'muriyati tomonidan nazorat qilinmaydi, ularga hisob berilmaydi;

- ularning faoliyatiga qonunda ko'zda tutilmagan hollarda aralashuv mumkin emas va bunday aralashuv qonunsiz hisoblanadi.

Kasaba uyushmalari o'z faoliyatini belgilovchi hujjat Ustavni mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Uyushmani tarkibiy tuzilishini belgilaydi, rahbar organlarini tuzadi (saylaydi), yordamchi organlarni tashkil qiladi.

Kasaba uyushmalari o'z vazifasini kollegial, oshkoralik asosida amalga oshiradi. Masalalarni hal qilish uchun yig'ilishlar (konferensiya, plenum, qurultoy) o'tkazadi.

Kasaba uyushmalari butun dunyoda mehnatkashlarning, aholining iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini, manfaatlarini himoya qilish vazifasiga ega. Ana shu vazifani muvaffaqiyatli, samarali bajarish uchun ular dunyo miqyosida hamkorlik qilishlari mumkin. Buning uchun kasaba uyushmalari boshqa malakatlardagi kasaba uyushmalari bilan hamkorlik o'rnatishi, tajriba almashishi mumkin.

Ular kasaba uyushmalarining xalqaro tashkilotlariga a'zo bo'lishi mumkin.

Mehnatkashlarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish kasaba uyushmalarining asosiy, ya'ni konstitutsiyaviy vazifasi bo'lsa, qonunlarda ularga shu vazifani bajarish yuzasidan tegishli vakolatlar berilgan.

Ular qonunga asosan quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- jamoa shartnomalari, bitimlar tuzadi;

- mehnat va kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qiladi;

- mehnat nizolarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

- mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga doir ma'lumotlar bilan tanishadi;

- ma'muriyat tomonidan jamoa shartnomasining bajarilishini nazorat qiladi;

- ma'muriyat va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolarni hal qilishda ishtirok etadi;

- davlatlararo bitimlar tuzishda ishtirok etadi.

Kasaba uyushmalarining eng muhim faoliyati, vakolatlaridan biri, ma'muriyat qonunda ko'rsatilgan hollardan tashqari xodimni kasaba uyushmasining roziligisiz ishdan bo'shata olmasligidir.

Kasaba uyushmasi tuzilgan va faoliyat yuritayotgan idora, tashkilot, muassasa ma'muriyati, mansabdor shaxslar kasaba uyushmalarining faoliyatiga yordam berish, ko'maklashish majburiyatini oladi.

Kasaba uyushmalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish, aralashganlik uchun qonunlarda javobgarlik belgilangan.

Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, ularni moddiy qo'llab-quvvatlashda ishtirok etadi. Xodimlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi, huquqiy ongini o'stirishda qatnashadi.

6-§. Davlat va diniy tashkilotlar munosabati

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, bu – davlat va din munosabatiga ta'sir qiladi.

O'zbekiston aholisining ko'pchiligi islom diniga e'tiqod qiladi. Sobiq Ittifoqning oxirgi yillarida islom diniga qarshi katta va asossiz kurashlar olib borildi. Aholining vijdon erkinligi buzildi.

Shuning uchun markazning islom diniga, dinga e'tiqod qiluvchilarga qarshi asossiz kurash olib borayotgan bir paytda, hali mustaqillik e'lon qilinmasdan, O'zbekiston Ittifoq tarkibida turgan vaqtda, 1991-yil 14-iyunda mamlakatimizda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi[1].

Bu qonun har bir shaxsning vijdon erkinligini, diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq mu-

1 Bu qonun 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan.

nosabatlarni tartibga soldi va dinni davlatdan ajratilganligini qonuniy mustahkamlab qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi qabul qilinishida bu masalaga alohida e'tibor berildi.

Konstitutsiyaning 31-moddasida vijdon erkinligi fuqarolarning shaxsiy huquqlari qatorida mustahkamlandi.

Konstitutsiyaning "Jamoat birlashmalari" bobining 61-moddasida davlat bilan diniy tashkilotlar munosabatining konstitutsiyaviy asosi belgilab qo'yildi. Unga asosan: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi".

Demak, diniy tashkilotlar va birlashmalar (ular qaysi dinga mansubligidan qat'i nazar) davlatdan ajratilgan, ya'ni mustaqil faoliyat yuritadi:

- diniy birlashma va tashkilotlar ham boshqa jamoat birlashmalari qatorida qonun oldida teng, ya'ni qonunlarga itoat etadilar;
- davlat diniy birlashma va tashkilotlar faoliyatiga aralashmaydi.

Davlatning diniy tashkilotlar faoliyatiga aralashmasligi, ularning faoliyati nazorat qilinmaydi, degan gap emas.

Konstitutsiyaning o'zida diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligi o'rnatilgan ekan, bu ularning faoliyatiga aralashmagan holda nazorat qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz xalqining aksariyati Islom diniga e'tiqod qiladi, shuningdek, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar ham mavjud. O'z-o'zidan turli dinga mansub diniy tashkilot, birlashmalar tuzilgan bo'lib, ular qonun oldida teng.

Davlat va qonunning barcha diniy tashkilot va birlashmalarga bir xil talabi va munosabati diniy konfessiyalar o'rtasida tinchlik-totuvlik bo'lishini ta'minlaydi.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining vazifasini yuklamaydi, shuningdek, diniy tashkilot va birlashmalar ham davlat vazifalarini bajarishga urinmaydi, da'vo qilmaydi.

Konstitutsiya normalarini hayotga kengroq tatbiq etish maqsadida mamlakatimizda 1991-yil 14-iyunda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Qonun davlat bi-

lan diniy tashkilot va birlashmalarning barcha munosabatlarini atroflicha tartibga soladi.

Qonun qoidalariga asosan, diniy tashkilot va birlashmalarning Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi dushmanlik, nafrat, millatlar o'rtasida adovat keltirib chiqarishga, axloqiy negizlar va fuqaroviy totuvlikni buzishga qaratilgan, vaziyatni beqarorlashtiruvchi bo'xton, uydirmalar aholi o'rtasida vahima uyg'otuvchi xabarlarni tarqatishi, jamiyat, fuqaro, davlat manfaatlariga zid faoliyat olib borishi taqiqlanadi.

Din niqobi ostida davlat organlari, mansabdor shaxslarga biror-bir yo'l bilan tazyiq o'tkazish, yashirin diniy faoliyat olib borish aslo mumkin emas.

Davlat bilan diniy tashkilot va birlashmalarning munosabati har qanday dinning insonparvarlik, axloqiy, tarbiyaviy g'oyalaridan jamiyat rivojida unumli foydalanishga asoslanadi. Dunyoviy va diniy ta'limotlarning ijobiy jihatlaridan foydalanib, tarbiya ishlarining olib borilishida diniy tashkilot va birlashmalarning to'g'ri munosabati katta rol o'ynaydi.

Davlat va din munosabatlarida dinning foydali jihatlaridan, uning ma'naviyatga ijobiy ta'siridan, axloqiy tarbiyaviy ta'siridan, insonlarni kamtarlik, kamsuqumlik, halollik, poklikka undaydigan boshqa qadriyatlar sifatida foydalanish va dindan g'arazli maqsadlarda foydalanish, dindan siyosat, davlat ishlariga aralashishga bo'lgan harakatlarni taqiqlash, shunday hollar bo'lsa, ularga chora ko'rish alohida ahamiyatga ega.

Davlat, shuningdek, millatlararo, diniy mojarolar, qonli to'qnashuvlarning oldini olish, ularni to'xtatishda dinning hayotbaxsh o'gitlaridan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 216^2-moddasida "diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Davlatning dinga nisbatan to'g'ri munosabati tufayli bugungi kunda respublikamizdagi barcha dinlar tinch-totuv faoliyat ko'rsatmoqda va shu dinlarga e`tiqod qiluvchilar orasida totuvlik, hamjihatlik bo'lishiga o'z hissasini qo'shmoqda.

7-§. Jamoat birlashmalarining faoliyatini cheklash, taqiqlab qo'yish va tarqatib yuborish

Davlatning jamiyatdagi boshqa tuzilmalardan farqini ko'rsatuvchi asosiy xususiyatlardan biri uning hokimiyati jamiyatdagi barcha tuzilmalar uchun majburiy xarakterda ekanligidadir. Ya'ni, davlatning qarori, ko'rsatmasi barcha tuzilmalar, jumladan, jamoat birlashmalari uchun ham majburiydir.

Davlat konstitutsiyaviy tuzum, jamiyat, fuqaro, davlat manfaatidan, xavfsizlik nuqtai nazaridan kelib chiqib, taqiqlovchi, cheklovchi tartiblarni qo'llash vakolatiga ega.

Jamoat birlashmalari faqat qonun doirasida faoliyat ko'rsatishi, jamiyat manfaatining ustunligi asosida ish olib borishlari shart, aks holda Konstitutsiyada ko'zda tutilganidek, ularning faoliyati taqiqlanishi, cheklanishi yoki ular tarqatib yuborilishi mumkin. Konstitutsiyaning 62-moddasida: "Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi", – deb belgilangan.

Jamoat tashkilotlariga qo'llaniladigan chora: a) ularni tarqatib yuborish; b) faoliyatini taqiqlash; d) faoliyatini cheklashdir. Bu majburiy choralar davlat nomidan sud tomonidan qo'llaniladi, boshqa hech qanday hokimiyat organlari bunday vakolatga ega emas.

"O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq jamoat birlashmasining eng oliy organi tegishli jamoat birlashmalarini, qonunda belgilangan asosda, tarqatib yuborishi mumkin.

Demak, jamoat birlashmasining tarqatilishi ikki ko'rinishda bo'ladi, birinchisi, majburiy tarqatish, sud qaroriga asosan, ikkinchisi, ixtiyoriy tarqatish, tegishli jamoat birlashmasining oliy organning qarori bilan.

Jamoat birlashmalarini tugatishga, tarqatishga quyidagilar asos bo'lish mumkin:

- faoliyati jamiyatning axloqiy negizlari, umum e'tirof etilgan insonparvarlik qadriyatini buzishga;
- urush, zo'ravonlikni shafqatsizlikni targ'ib qilishga;

- jamiyatning bo'linishi, parchalanishiga olib keluvchi sinfiy, irqiy, milliy va diniy adovat chiqarishga qaratilgan bo'lsa;

- hokimiyat organlari, mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishni, tazyiq o'tkazishni ko'zlasa.

Bundan tashqari, jamoat birlashmalari faoliyatida dinni siyosatlashtirishga, qurolli tuzilmalar tuzishga harakat bo'lgan taqdirda ham ular tugatiladi.

Siyosiy partiyalar jamiyat hayotida katta ta'sirga ega kuch, shuning uchun siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadni ko'zlovchi ommaviy harakatlarga alohida talablar qo'yiladi. Agar ular chet davlatlardan, tashkilotlardan, ularning yuridik shaxslaridan, chet el vakolatxonalaridan, chet el fuqarolari va boshqa noma'lum shaxslardan moliyaviy va boshqacha yordamlar olgudek bo'lsa, sud qaroriga asosan tugatiladi.

Shunday qilib, jamoat birlashmalari jamiyat tuzilishida, ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim rol o'ynaydi. Ularning faoliyati orqali fuqarolar manfaati, huquq va erkinliklari amalga oshadi. Ular fuqaro huquq, erkinligi, manfaatining samarali, ishonchli himoyachisidir.

Jamoat birlashmalari qonun asosida ish ko'rib, ustavlariga to'la amal qilib faoliyat ko'rsatganda jamiyat uchun foyda beradi. Ular davlat tomonidan har tomonlama va turli usullar bilan qo'llab-quvvatlanadi. .Shu bilan birgalikda, ularning faoliyatiga aralashmagan holda, davlat qonun doirasida nazorat olib boradi.

Har qanday jamiyat rivojiga zid faoliyat ko'rsatuvchi jamoat birlashmalari qonun qoidalari asosida tugatiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Jamoat birlashmalarining vazifasi, tizimi, turlari qanday?

2. Siyosiy partiyalarning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki nimalardan iborat?

3. Yoshlar ommaviy tashkilotining tutgan o'rni qanday?

4. Qanday jamoat birlashmalari tuzish mumkin emas?

5. Jamoat birlashmalarining faoliyati qanday qo'llab-quvvatlanadi?

6. Diniy tashkilot va birlashmalarning o'rni qanaqa?

7. Qanday holda jamoat birlashmalari faoliyati to'xtatiladi, taqiqlanadi?

8. Davlat bilan jamoat tashkilotlarining munosabati nimalarga asoslanadi?

9. Jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish tartibi qanday?

10. Kasaba uyushmalarining vazifasi nimalardan iborat?

XVI bob. Oilaning konstitutsiyaviy asoslari

1-§. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini

Oila jamiyatning quyi asosiy bo'g'inidir. U insonning hayotga kelishi, tarbiyalanishidagi asosiy makon. Oila bir necha kishilarni birgalikda yashash joyi. Oila to'liq bo'lishi uchun ota-ona va farzandlar bo'lishi shart. Ularning birortasisiz ham oila bo'lishi mumkin. Lekin bunday oilada yetishmovchilik bo'ladi. Har bir oila ma'lum xonadonga mos bo'ladi.

Oila qurishdan asosiy maqsad turli jins vakillarining birgalikda hayot kechirishi va farzand ko'rish hisoblanadi.

Oila o'z ichki munosabatlariga asoslanadi. Oilaning ichki munosabatlari qonun hujjatlariga, milliy va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Oilaviy munosabatlar tabiiy, iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojni qondirish zarurati yuzasidan vujudga keladi.

Har qanday jamiyatning mustahkamligi, rivoji oilaga bog'liq. Chunki, jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning dastlabki elementi oilada vujudga keladi va shakllanadi. Oiladagi kattalarning bir-biri, boshqalar bilan atrof-muhit, mol-mulkka bo'lgan munosabati yoshlarning shu masalalarga munosabatini shakllanishi uchun o'rnak bo'ladi. Oiladagi tarbiyaning boshqa tarbiyalardan farqi, afzalligi tarbiya u yerda faqat o'rgatish, o'qitish, ta'kidlash bilangina emas, barcha narsalarda katta yoshdagilarni kichik yoshlar uchun o'rnak ko'rsatishi orqali olib boriladi.

Nima mumkin va nima mumkin emasligi, mehnatga, mol-mulkka munosabat, ovqatlanish, dam olish, kattalarga muomala, hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik qilishning dastlabki sabog'i oilada olinadi. Bola boshqa muassasalarga tarbiya, bilim olish uchun berilgunga qadar hayot alifbosi haqida ma'lumotni oiladan oladi.

Oiladagi tarbiya kishilarning axloqiga, xulqiga o'chmas qoidalarni singdiradi. Inson tarbiyasida hech qanday boshqa tuzilmalar oilaning o'rnini bosa olmaydi. Chunki, u yerdagi tarbiyaga sut, qon singari muqaddas ashyolar ta'sir qiladi.

Shularning barchasi e'tiborga olinib, bizning xalqimizga xos oiladagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash va rivojlantirishni ta'minlash uchun Konstitutsiyamizda oila uchun maxsus XIX bob ajratildi. Bunday holatni – oilani maxsus bobda ko'rsatishni boshqa mamlakatlar Konstitutsiyalarida uchratmaymiz. U yerlarda oilaga ham davlat va jamiyatning munosabati o'zgacha. Bizda oila jamiyatning ajralmas qismi va mavjud bo'lishi shart masala deb qaraladi va albatta, unda ikki jinsning, erkak va ayolning birlashuvi bo'lishi, bu birlashuv orqali dunyoga yangi insonlar kelishi nazarda tutiladi.

Ana shulardan kelib chiqib, Konstitutsiyaning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir...", – degan qoida o'z aksini topgan. Konstitutsiyada oilani jamiyatning bo'g'ini sifatida e'tirof etilishi oilasiz jamiyat kemtik bo'lishini, rivojlanish xavf ostida qolishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2011-yil dekabr oyida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasida 2012-yilni "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilar ekan, oila haqida shunday so'zlarni aytdi: "Ongli yashaydigan har bir odam yaxshi anglaydiki, bu yorug' olamda hayot bor ekan, hayot abadiyligi, bebaho ne'mat bo'lmish farzand bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha kelajagini o'ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Yangi yilga mana shunday nom berishimiz azal-azaldan xalqimiz uchun muqaddas bo'lmish, oilani hayotimiz tayanchi va suyanchi, jamiyatimizning hal qiluvchi asosiy bo'g'ini deb qabul qilishimiz zamirida, hech shubhasiz, juda katta ma'no-mohiyat mujassam. Chunki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror"[1].

2-§. Oilaning jamiyat va davlat himoyasida bo'lishi

Jamiyatning yashash, rivojlanish shartlaridan biri uning bo'g'ini, aniqrog'i asosiy bo'g'ini – oila jamiyat va davlat tomonidan doimiy va samarali muhofazaga olinsagina, tegishli

1 "Xalq so'zi", 2011-yil 8-dekabr.

maqsadga erishish mumkin. Har bir kishi o'z hayotining uzoq vaqt davom etishi uchun sog'lig'ini qanday muhofaza qilish ustida qayg'ursa, bu ish uchun mablag'larini ayamasa, insonparvar, oqil, uzoqni ko'zlovchi jamiyat ham o'zining hayotini cho'zishi, rivojlanishi uchun oilaga xuddi shunday munosabatda bo'ladi va oilani muhofaza qiladi. Konstitutsiyaning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida ko'rsatilishi bilan birga oila haqidagi qoida davom ettirilib, oila jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egaligi belgilangan. Ya'ni, oila bir tomondan jamiyat tomonidan, ikkinchi tomondan davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Konstitutsiya qoidasi jamiyat va davlatga oilani himoya qilish majburiyatini yuklaydi.

Jamiyat oilalardan iborat ekan, o'z-o'zidan ma'lumki, jamiyat mustahkamligi oilaning mustahkamligiga bog'liq va oilaning mustahkam bo'lishidan jamiyat manfaatdor. Shuning uchun oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilishni jamiyat o'z zimmasiga oladi.

Jamiyat oilalarni qo'llab-quvvatlashda, ularni muhofaza qilishda katta imkoniyatlarga ega davlat xizmatidan foydalanadi.

Oilani qo'llab-quvvatlash, muhofaza qilish davlatning konstitutsiyaviy burchidir. Davlatning oilaga g'amxo'rligi qonun asosiga qurilgan bo'lib, avvalo u Oila kodeksida belgilangan.

Bundan tashqari, oilani qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati ko'plab hujjatlar qabul qilgan. Oilani muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlashda ularni moddiy tomondan qo'llash, ularga moddiy yordam berish chora-tadbirlarining ko'rilishi muhimdir.

Davlatimiz boquvchisini yo'qotgan, ko'p bolali oilalarga moddiy yordam berishni o'z vazifasi hisoblaydi va buning amaliy choralarini ko'radi. Bunday oilalarga, farzand ko'rish va tarbiyalash uchun onalarga beriladigan mablag'lar yildan-yilga ko'payib borishi buning misolidir. Oilalarga turar-joy qurish uchun yer uchastkalarining ajratilishi, qo'shimcha manba bo'lishi uchun tomorqalar bilan ta'minlanishi doimiy tadbirlar qatoriga kiritilgan.

1998-yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi har bir oilani davlat tomonidan himoya qilish choralarini kuchaytirib, oilalarning mus-

tahkamlanishida katta samara berdi. "Oila yili" munosabati bilan belgilangan tadbirlar natijasida davlat oilalarga juda katta moddiy yordam ko'rsatdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilalarga, ayniqsa, serfarzand, kam ta'minlangan oilalarga davlat tarafidan ko'rsatilgan yordam tufayli oilalar qattiq zarbalarga uchramadi va turmushda o'z vazifasini bajarishdan chetlanmadi.

2012-yil Prezidentimiz tomonidan "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yanada kengaydi. Oilani himoya qilish mexanizmi kuchaydi[1].

"Mustahkam oila yili" munosabati bilan davlat idoralari, nodavlat tashkilotlari, hayriya jamg'armalari birgalikda ishlab chiqqan dasturda oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish ko'zda tutildi.

Shuningdek, oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha yangidan qabul qilinadigan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar bugungi va ertangi kun talablariga javob berishi, amaldagi qonun hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar esa, oila maqomini kuchaytirishi, uning jamiyatdagi o'rnini anglashga yordam berishi, oilani davlat tomonidan, boshqa fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish ko'zlangan asosiy maqsadlardandir.

3-§. Nikoh tuzish asoslari

Mamlakatimizda oila tuzish asosi nikoh hisoblanadi. Nikoh oila tuzishning qonuniy sharti bo'lib, u Konstitutsiyada belgilangan. Konstitutsiyaning 63-moddasida "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", – degan qoida o'z ifodasini topgan.

Oilaning asosi nikoh bo'lsa, nikoh birinchidan, tomonlarning mutlaq roziligi bilan, ikkinchidan, teng huquqliligi asosida tuziladi. Shundan xulosa qilib aytilsa, nikoh tuzish asoslari tomonlarning roziligi (ixtiyoriylik) va tomonlarning – er va xotinning teng huquqligidir. Nikohlanuvchilarning roziligi haqiqiy bo'lishi, biror

1 Bu haqda qarang. "Xalq so'zi", 2011-yil 8-dekabr.

tomonning roziligi har qanday tazyiq, qo'rqitish, kuch ishlatish orqali olinmasligi kerak.

O'zbekistonda nikoh munosabatlari maxsus qonun bilan tartibga solinib, unda ham nikoh tuzishning ba'zi asoslari belgilangan. Unga asosan, nikoh tuzishga kelgan shaxslar, albatta, qaramaqarshi jins vakillari (erkak va ayol) bo'lishi kerak. Nikoh tuzish uchun ma'lum yoshga yetgan bo'lishi (erkaklar 18 yosh, ayollar 17 yosh) talab etiladi.

Bundan tashqari, nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilar sog'lom bo'lishi talab etiladi. Sababi, nikoh natijasida qurilgan oilalar albatta farzand ko'rishni maqsad qilib qo'yadi. Dunyoga sog'lom farzand kelishi uchun ota va ona sog'lom bo'lishi kerak.

Shu masalani hal qilish uchun O'zbekiston hukumati "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida Nizom"ni tasdiqlagan. Ko'rikdan o'tkazish nikohlanuvchining sog'lig'ini aniqlash bilan birga ularning ruhiy kasalliklar va OITS kasalliklari bilan og'rimaganligini aniqlashdan iboratdir. Chunki, bu kasalliklar nikohlanuvchilarning biridan-biriga, farzandlariga o'tishi mumkin va og'ir oqibatlarga olib keladi. Tibbiy ko'rikdan o'tish tartibi buzilib nikoh tuzilsa, unda bunday nikoh bekor qilinishi mumkin.

Oilada sog'lom avlod vujudga kelishini ta'minlash maqsadida qonunga asosan yaqin qarindoshlarning nikoh tuzushi taqiqlanadi. Bunday holda ham meditsina nuqtai nazaridan nosog'lom farzandlar dunyoga kelishi mumkin.

Nikoh tuzishda nikohlanuvchilarning huquqi tengligi asosida oilada bir er va bir xotin bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Qonunlarimiz ko'p xotinlikka yo'l qo'ymaydi. Bu masala bir kishini faqat bir kishi bilan nikohda bo'lishi mumkinligini, avvalgi nikoh bekor qilinmasdan boshqa nikoh tuzish mumkin emasligini bildiradi.

O'zbekistonda tegishli davlat organlari tomonidan ro'yxatga olingan nikohgina qonuniy sanaladi va e'tirof etiladi. Bunday organ Adliya vazirligi tizimidagi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlaridir (FHDYo).

Bu organlar tomonidan qonuniy asoslarda berilgan hujjat nikohni isbotlovchi hujjat tariqasida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 230-moddasida "Fuqarolik holati aktlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Oila qurishda erkak va ayol tengligi ularni familiya tanlashida ham ko'rinadi. Er-xotinning ixtiyoriy roziligi bilan bir xil familiya tanlanishi yoki har kim o'zining familiyasida qolishi mumkin. Keyingi barcha munosabatlarda ham er-xotin bir xilda huquqlardan foydalanadi.

4-§. Ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyati

Ota-onaning farzandlar oldidagi burchining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi yosh avlodga bo'lgan e'tiborni ko'rsatadi. Ota-ona farzand ko'rgach uni voyaga yetkazishi, tarbiyalashi shart. Tarbiyasiz, yetarli ta'minotsiz farzand jamiyatda o'z o'rnini topishi u yoqda tursin, jamiyat uchun xavfli shaxsga aylanadi.

Konstitutsiyaning 64-moddasida: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar", – deb belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, majburiyat ikki narsani hal qilishga qaratilgan, birinchisi, farzandlarni boqish, ikkinchisi, tarbiyalash.

Farzandni boqish deganda uni voyaga yetguncha barcha moddiy ehtiyojlarini qondirish, yashashi uchun eng zarur imkoniyatlarni yaratish tushuniladi. Bu – ovqatlantirish, kiyintirish, bolalarni yashashi uchun zarur jihozlar bilan ta'minlash, o'qitish, o'qish va bilim olish uchun zarur o'quv qurollari va jihozlar bilan ta'minlashdir.

Bunda har bir ota-ona o'z moddiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, tegishli sharoitlarni yaratadi.

Ota-onaning muhim va mashaqqatli majburiyati bolani tarbiyalashdir. Maktabgacha bola to'la ota-ona ixtiyorida bo'ladi. Ayrim bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida bo'lishi ham mumkin. Bola maktabgacha ota-ona ixtiyorida bo'lganda, bolaning tarbiyasiga faqat ota-ona javobgar. Shu davrdan boshlab bolada atrofdagi va oiladagi hodisa, voqealarga munosabat shakllana

boshlaydi. Shu-ning uchun bola ongida faqat ijobiy qarashlar shakllanishi uchun ota-ona katta ishlar olib borishi, barcha yaxshi ishlar, odatlar, xislatlar, voqealar haqida bolaga tushunchalar berishi, televizorlardagi bolalar uchun ko'rsatuvlarga ularni jalb qilishi, juda ham muhim. Bola tarbiyasida ularni tabiatga, o'simlik va hayvonlarga yaxshi munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash alohida rol o'ynaydi. Tarbiya natijasida o'simlik va hayvonot dunyosiga do'stlik ruhini vujudga keltirish zarur. Bola tarbiyasi natijasida ularning bir-biriga, kattalarga hurmati, mahalla, vatanga hurmatining boshlang'ich asoslari vujudga keladi.

Bola tarbiyasida eng muhimi nafaqat tushuntirish, o'rgatish, balki, shaxsiy o'rnak ko'rsatishdir. Bola uchun ota-onaning yurish-turishidan o'rnak olish, ularga taqlid hissi juda kuchli. Ana shu narsadan to'g'ri foydalanish zarur.

Bolani boqish va voyaga yetkazish majburiyatida bolalarni o'qitish, o'qish uchun zarur sharoitlarni yaratish, bolaning qobiliyatiga qarab bilim berishni amalga oshirish, o'quv dargohidagi ishlarini kuzatib turish muhim hisoblanadi.

Oila buzilib, ota-ona ajrashgan holda ham ota-ona majburiyati bekor bo'lmaydi. Bola kim bilan qolishidan qat'i nazar ikkala tomon ham bola uchun g'amxo'rlik qilishi shart. Bu ixtiyoriylik asosida bo'lmasa, majburiy tarzda aliment undirish bilan amalga oshiriladi.

Bola voyaga yetguniga qadar barcha ehtiyojlarini imkoniyat darajasida qondirgan ota-onalar majburiyatni ado etgan hisoblanadi. Otalik, onalik majburiyatlarini bajarmaganlar qonun asosida ota-onalik huqiqidan mahrum qilinadi.

Keyingi paytlarda mamlakatimizga turli diniy oqimlarning kirib kelishi va ularning xurujlari, narkomaniya kasofatining paydo bo'lishi bulardan farzandlarimizni saqlash choralarini kengroq ko'rishni taqozo etmoqda. Bu esa, yana tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, barcha kuchni unga sarflashni, bu ishda maktab, mahalla hamkorligini o'rnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

5-§. Ota-onasizlarga davlat g'amxo'rligi

Davlat ota-onalarga farzandlarini voyaga yetguncha boqish, tarbiyalash majburiyatini yuklash bilan birga, ota-onasiz bolalarni boqishni, tarbiya qilishni, o'qitishni o'z zimmasiga oladi. Bu Konstitutsiyadagi: "Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi", – degan qoida asosida amalga oshiriladi (64-modda).

Voyaga yetgunga qadar davlat va jamiyat qaramog'ida bo'ladigan, ularning yordamiga muhtoj bolalar deganda, yetim bolalarni (ota-onasi vafot etgan bolalarni), ota-onaning vasiyligidan mahrum bo'lgan (ota-onalari tashlab ketgan yoki ota-onalik huquqidan tegishli tartibda mahrum qilinganlar) bolalarni e'tiborga olamiz. Bunday yordamga muhtoj bolalarni davlat turli tadbirlar belgilab, muntazam ravishda ular hayotda o'z o'rinlarini topishi uchun zarur sharoit yaratib beradi.

Bola ota-onasiz bo'lsa, "Mehribonlik" uylariga, maxsus muassasalarga joylashtiriladi. Turli sabablarga ko'ra bolalarning ota-onasidan tarbiya olish imkoniyati bo'lmasa, bola oilalarga farzandlikka beriladi yoki unga voyaga yetgunicha vasiylik hamda homiylik belgilanadi.

Mamlakatimizda ko'plab "Mehribonlik" uylari mavjud bo'lib, ularda yetim bolalar voyaga yetgunlariga qadar davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, kelajak hayotga tayyorgarlik ko'rishadi.

Hozirgi kunda ko'plab oilalar yetim bolalarni asrab olib, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanmoqda.

Bunday tajriba, ya'ni ota-onasiz yetim bolalarni oilasiga olib farzandlaridek tarbiyalash, topganini baravar baham ko'rish xalqimiz ma'naviyatiga xos bo'lib, urf-odatga aylangan.

Ikkinchi jahon urushi davrida urush natijasida ota-onasidan ajragan ko'plab bolalar O'zbekistonda o'z oilalarini topgan. Ayniqsa, oddiy temirchi Sh. Shomahmudov 14 ta yetim bolani tarbiyalab, jahon ahlining tahsiniga sazovor bo'lgan.

Shu davrdagi yetim bolalarni boquvchi oilalarga davlat e'tibori bilan hozirgi kundagi yetim bolalarni tarbiyalovchi oilalarga davlat e'tibori butunlay boshqacha. Hozir yetim bolalarni boquvchi oilalar davlat va jamiyat tomonidan doimiy ko'mak olib turadi.

Mamlakatimiz aholisi soniga nisbatan boshqa mamlakatlarga qaraganda "Mehribonlik" uylari kamligi, bizda ota-onasizlar ko'plab oilalarda tarbiya olishi bilan xarakterlanadi.

Ota-onasiz, yetim bolalarga jamiyat va davlat g'amxo'rligini amalga oshirishda turli jamg'armalar ham katta rol o'ynaydi. Bunday jamg'armalar O'zbekistonda yetarlicha. Bular jumlasiga: "Sen yolg'iz emassan", "Mehr-shavqat va salomatlik", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armalari kiradi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi bu tashkilotlar jamiyat nomidan yetim-yesirlarni boqish, tarbiyalash, o'qitish ishlariga katta yordam bermoqda.

Konstitutsiyaga asosan, dunyoga kelgan farzand ota-onasining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar.

"Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", degan Konstitutsiyaning 65-moddasi qoidalari, farzandlarga teng huquqlilik va teng imkoniyat bo'lishini nazarda tutadi hamda har qanday holda onalik va bolalikning davlat tomonidan himoyaga olinishini ko'rsatuvchi yana bir muhim huquqiy asosdir.

Ota-onasizlar jamiyat va davlatning ko'magi ostida hayotda o'z o'rnini topmoqda. Davlat yetim-yesirlarga faqat umumiy ta'lim olishda imtiyoz va imkoniyatlar yaratibgina qolmasdan, ularni ta'limning boshqa bosqichlarida qo'llab-quvvatlamoqda. O'quv yurtlariga o'quvchi qabul qilishda ota-onasizlarga tegishli hujjatlar asosida imtiyozlar berilgan. Ana shu imtiyozdan foydalanib ko'plab ota-onasizlar o'zlari uchun zarur kasblarga ega bo'lmoqda. Ular o'quv muassasalari tomonidan iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

2006-yilning "Homiylar va shifokorlar yili" deb e'lon qilinishi, u bo'yicha qabul qilingan hujjatlar va belgilangan tadbirlar ota-onasiz bolalarni boqish, tarbiyalash, o'qitish uchun katta imkoniyatlar yaratishni nazarda tutgan edi. Bu ham davlat va jamiyatning o'z vazifasiga jiddiy qarashini ko'rsatmoqda.

Bozor munosabati natijasida mamlakatimizda mulkdorlar ko'payib bormoqda, ular ham o'z mablag'larining ma'lum qismini ixtiyoriy ravishda ota-onasiz bolalarning tarbiyasiga sarflamoqda.

6-§. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyati

Voyaga yetgan farzandlarning ota-ona oldida ko'plab majburiyatlari bo'lib, bu majburiyatlar ota-onaga g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi. Bu burch nafaqat Konstitutsiyaviy burch, u xalqimiz qon-qoniga singgan, axloqiy qoidalarga mos urf-odatimiz hamdir.

Azaldan ota-onaga g'amxo'rlik qilingan, ularni ranjitgan farzandlar qoralangan, qarg'ishga qolgan, ulardan hamma yuz o'girib, yakkalab qo'ygan. Ana shu axloqiy qoida Konstitutsiyada qoida sifatida mustahkamlangach, endi noqobil farzandlarni nafaqat qoralash, qarg'ash, yakkalab qo'yish emas, qonun yo'li bilan jazolash imkoni tug'ildi.

Konstitutsiyaning 66-moddasida: "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari g'amxo'rlik qilishga majburdirlar", – degan qoida belgilandi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga ular birgalikda yashaydimi, alohida yashaydimi (qayerda yashashidan qat'i nazar) bundan qat'i nazar, g'amxo'rlik qilishga majbur.

Farzandning ota-onaga g'amxo'rligi nimalardan iborat? Eng avvalo ota-onaning normal yashashi uchun to'liq imkoniyat yaratish. Bu turar-joy bilan, oziq-ovqat (yegulik), kiyim-bosh bilan ta'minlash. Ota-onalarning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish, ularni tibbiy xizmatga muhtojligida tibbiy xizmatdan foydalanishini ta'minlash.

Iqtisodiy tomondan g'amxo'rlikning o'zigina ota-ona ehtiyojini qondirmaydi, unga qo'shimcha ravishda ma'naviy jihatdan ham ota-ona qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Farzandlar ota-ona ehtiyojini ixtiyoriy ravishda qondirmasa, unda ularga majburlov choralari qo'llaniladi. Moddiy majburlov choralari bu farzandlardan ota-ona hisobiga majburiy to'lov (aliment) undirishdir.

Mehnatga layoqatli, iqtisodiy imkoniyatlari yetarli, turar-joy masalasida qiyinchiligi yo'q farzandlarning ota-onalarini qariyalar

uyiga joylashtirishi xalqimizda eng yomon uyat ish, oriyatsizlik deb, qoralanadi.

Afsuski, xalqimiz ma'naviyatiga xos bo'lmagan shunday holatlar ahyon-ahyonda bizda ham uchrab turadi. Shuning uchun yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, farzandlarning ota-ona oldidagi burchini faqat huquqiy jihatiga emas, uning ma'naviy va axloqiy jihatiga ham e'tibor berilib, xalqimizning uzoq yillar davomida to'plagan eng yaxshi hislatlariga tayanish zarur. Farzandlarning ota-ona oldida majburiyatining bajarmasliklariga faqat yuridik javobgarlik bilan ta'sir qilmay, bu inson xususiyatiga xos bo'lmagan holat, eng tuban insonlar shunday qilishi mumkinligini, ota-onasini xoru-zor qilgan insonlar ikki dunyoda ham yuzi qora bo'lishi va eng muhimi hayvondan farqi bo'lmasligi o'quvchilarga yetkazilishi kerak.

Oila munosabatlarining konstitutsiyaviy asosda hal qilinishi, Konstitutsiyada unga alohida bob ajratilishi, bizda oilaga bo'lgan jiddiy munosabatning isbotidir. Oilani mustahkamlash bu jamiyatni mustahkamlash va rivojlantirish ekanligi davlatning oilaga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy holatdir. Inson o'z salomatligini saqlashga harakat qilganidek, jamiyat ham oilani mustahkamlashga harakat qiladi, chunki jamiyat sog'lig'i oila sog'lomligiga bog'liq. Oilalar sog'lom bo'lsa, jamiyat ham sog'lom bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollari:

1. Oila nima?

2. Nima uchun oila jamiyatning asosiy bo'g'ini?

3. Oila davlat va jamiyatning qanday himoyasida bo'ladi?

4. Mamlakatimizda oilaga bag'ishlangan qanday yillarni bilasiz?

5. Nikoh nima?

6. Nikoh tuzish asoslari qanday?

7. Ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyati nimalardan iborat?

8. Ota-onasizlarga davlat qanday g'amxo'rlik qiladi?

9. Farzandlarning ota-onalar oldidagi majburiyati nimalardan iborat?

XVII bob. Ommaviy axborot vositalari

1-§. Jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o'rni

Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari uchun alohida bir bobning ajratilishi ularning jamiyat hayotidagi o'rni yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi eng kuchli, jamiyat taraqqiyotining qanday bo'lishini belgilovchi vositalardandir.

Ommaviy axborot vositalari orqali inson ongiga ta'sir qilinadi. U orqali konstitutsiyada belgilangan turli fikrlilik, fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari hisoblangan so'z erkinligi, erkin fikr bildirish ro'yobga chiqadi.

"Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga yetarli darajada bog'liq bo'lib, uni shakllantirishda ... – ommaviy axborot vositalariga muhim o'rin beriladi",[1] – deb ta'kidlagan edi, Prezidentimiz.

Ommaviy axborot vositalari vazifalarini ko'radigan bo'lsak, ular:

- aholida tegishli fikrlarni shakllantiradi;
- bo'layotgan voqealar to'g'risida ma'lumot berib boradi;
- ko'p fikrlilik, so'z, fikr erkinligini ta'minlaydi;
- turli idoralar, siyosiy institutlar manfaatini ifodalaydi;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi;
- demokratik jarayonlarning chuqurlashuviga hissa qo'shadi.

"O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir"[2].

Ommaviy axborot vositalari jamiyat bilan birga rivojlanadi. U davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan, yetarli huquqiy asoslar bilan ta'minlangandagina o'z vazifasini to'la bajarishi mumkin. Shuning

---

1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 176-bet

2 Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: O'zbekiston, 2005. – 25-bet

uchun, ommaviy axborot vositalari, ularning faoliyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan chetda emas. Ularning faoliyati doimiy takomillashuvga muhtoj. 90-yillarning oxirida ommaviy axborot vositalari faoliyatini isloh qilish zarurati tug'ildi.

"Bugungi kunda O'zbekistonning ommaviy axborot vositalari faoliyatini tubdan isloh qilish zarurligi borgan sari ayon bo'lmoqda. Chunki, hozirgi o'zgarishlar, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini demokratiyalash sur'atlari qarshisida ommaviy axborot vositalarining faoliyati talabga javob bermayapti"[1].

Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, faoliyatini takomillashtirish uchun ko'pgina ishlar qilindi.

Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish, matbuot, televideniye, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlash masalalari hayotimizni isloh qilish va yangilash borasida oldimizga qo'ygan besh ustuvor vazifa va yo'nalishlardan biri etib belgilanishi, ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotida munosib o'rin egallashini ta'minladi.

Ommaviy axborot vositalari mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni, liberallashtirish siyosatini targ'ib qilish, ularning mohiyatini aholiga yetkazish bilan birga, ularning faoliyatiga ham islohotlar, liberallashtirish sezilarli ta'sir qilmoqda.

Prezident tomonidan ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da III bob "Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash" deb nomlanib, shu masalaning strategik vazifalari belgilandi. Unda qayd qilinishicha: *"Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikri va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z mu-*

1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 176–177-betlar

nosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmasligini o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz"[1].

Konsepsiyada hozirgi muhim vazifalar qatorida nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash internet tarmog'ini hayotga keng joriy qilish belgilandi.

2-§. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi va qonunga muvofiq ishlashi

Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishi, ularga tazyiq o'tkazilmaslik, ular ishining muvaffaqiyatli bo'lishi, samara berishining garovidir.

Konstitutsiyaning 67-moddasida ommaviy axborot vositalari erkinligi va qonunga muvofiq ishlashi belgilangan. Demak, ommaviy axborot vositalari erkin ishlashi va qonunlar asosida o'z faoliyatini tashkil qilishi kerak.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida ularning erkinligini ta'minlovchi qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, 1996-yil 30-avgustdagi "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", 1997-yil aprelda qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatning himoya qilish to'g'risida", 1997-yil dekabrda qabul qilingan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Bu qonunlar ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlashga, ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgandir.

Ommaviy axborot vositalarining erkinligi, eng avvalo, ularning xodimlari, aniqrog'i jurnalistlarning erkinligiga bog'liq. Jurnalist faoliyatining erkinligisiz ommaviy axborot vositalarini erkinligi bo'lishi mumkin emas. Chunki, axborot ommaviy axborot vositalarida jurnalistlar tomonidan tarqatiladi.

---

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 28-bet.

"Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun jurnalistlar faoliyati bilan bog'liq keng institutsional munosabatlarni tartibga solish bilan birga ularning erkinligini ta'minlovchi qoidalarni aniq belgilab qo'ygan.

Jurnalistning erkinligini ta'minlovchi qonun bo'lishining o'zi kifoya emas, u bu erkinlikdan to'g'ri va maqsadli foydalanishi uchun yetarli bilimga, malakaga ega bo'lishi kerak.

Shuning uchun mamlakatimizda jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini tayyorlashga, qayta tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Ularni tayyorlash jahon tajribalariga mos ravishda yo'lga qo'yilgan.

Avvalgi jurnalistlar tayyorlash maskanlari qayta tashkil qilindi, zamonaviy jihozlar bilan jihozlantirildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida xalqaro jurnalistlar tayyorlovchi fakultetlar, kurslar ochildi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-fevraldagi "Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Milliy universiteti huzurida ikki yillik maxsus Oliy jurnalistika kursini ochish to'g'risida"gi Qarori muhim rol o'ynadi[1].

Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalarining qonun asosida ishlashi belgilangan. Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga taalluqli ko'plab maxsus qonunlar mavjud, ularning ba'zilarini tilga olib o'tdik. Bundan tashqari, yana ko'plab qonunlar borki, ularda ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar faoliyatiga tegishli qoidalar mavjud. Masalan, "Axborotlashtirish to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Davlat sirlarini saqlash to'g'rsida"gi qonunlar va boshqa qonunlar.

Mamlakatimizning 22 yilligi davrida ommaviy axborot vositalari faoliyatiga taalluqli ko'plab yangi qonunlar qabul qilindi yoki mavjud qonunlarga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritildi.

Prezident tomonidan 2010-yil 12-noyabrda ilgari surilgan konsepsiya ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini takomillashtirishda yangi bosqichni boshlab beradi.

1 Bular haqida batafsil qarang: Azizxo'jaev A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: Sharq, 2008. – 259-bet.

Unda ta'kidlanishicha, birinchidan, "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" Qonun qabul qilinishi kerak. Bu fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, axborot kommunikatsiyalari sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan "Teleradioeshittirishlar to'g'risida" Qonun qabul qilish taklifi kiritildi. Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish taklif etildi[1].

Ushbu Konsepsiyada belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida zarur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2011-yil 30-dekabrda "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

3-§. Ommaviy axborot vositalarining mas'uliyati

Konstitutsiyaning 67-moddasiga asosan, ommaviy axborot vositalari bergan axborotlarining to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'rsida"gi 1997-yil 26-dekabrdagi Qonuni bu qoidani kengaytirib, "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadi.

1 Qarang. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 31–33-betlar.

Ommaviy axborot vositalari axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanadilar hamda o'zlari e'lon qilayotgan axborotning to'g'riligi va haqqoniyligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tarkibda javobgar bo'ladilar", – deb belgilab qo'yilgan.

Bu bilan ommaviy axborot vositalariga o'zi e'lon qilayotgan, tarqatayotgan ma'lumotlar to'g'ri ekanligiga javob berish mas'uliyati yuklangan.

Ommaviy axborot vositalari erkinligi, mustaqilligi ta'minlanishi bilan, undan to'g'ri foydalanish zarurligi, erkinlikni har qanday ko'rinishda suiiste'mol qilish mutlaqo mumkin emasligi qonunlar bilan belgilab qo'yilgan.

Ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma'lumotlarning to'g'riligi, haqqoniyligi uchun ommaviy axborot vositalari va shu ma'lumotlarni tayyorlagan jurnalistlar javob beradilar.

Ommaviy axborot vositalari hech qachon va hech qanday hollarda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatiga dog' tushuruvchi, tuhmat ko'rinishidagi, shaxsiy hayotga aralashuv ruhidagi ma'lumotlarni bermasligi kerak, agar shunday hol ro'y bersa, buning uchun ham ommaviy axborot vositalari, ma'lumotni tayyorlagan jurnalistlar javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi (konstitutsiyaviy tartib) turli qonuniy vositalar bilan himoya qilanadi va konstitutsiyaviy tuzum asoslariga zarar yetkazadigan ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali berilmasligi choralari ko'riladi.

Mabodo shunday hol yuz bersa, ya'ni ommaviy axborot vositalarida:

- konstitutsiyaviy tuzumning asoslariga qarshi;
- davlat suverinentiga tahdid qiluvchi;
- yaxlitlikni zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qiluvchi;
- qonuniy hokimiyatni to'ntarishga chaqiruvchi, zo'rlik yo'li bilan o'zgarishga da'vat qiluvchi;
- urush va zo'rlikni, shafqatsizlikni keltirib chiqaruvchi, ularga da'vat qiluvchi;
- milliy, diniy, irqiy adovatlarga da'vat qiluvchi;
- davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni oshkor qiluvchi ma'lumotlar berilsa, ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida “Tuhmat” (40-modda), “Haqorat” (41-modda), “Fuqarolarga ma’naviy yoki moddiy zarar yetkazuvchi ma’lumot tarqatish” (46-modda)ni nazarda tutuvchi ma’lumotlar uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida “Tuhmat” (139-modda), “Haqorat qilish” (140-modda), “Urushni targ‘ib qilish” (150-modda), “Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo‘zg‘atish” (156-modda); “Konstitutsiyaviy tuzumga xavf soluvchi ma’lumotlar tarqatish” (159-modda); “Davlat sirlarini oshkor qilish” (162-modda)ni ko‘zlovchi ma’lumotlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Jinoyat kodekslarida yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlar mavjud ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlar uchun, ommaviy axborot vositalarining va ularning xodimlari javobgarligining belgilanishi, ommaviy axborot vositalaridagi axborotlarni to‘g‘ri, haqqoniy bo‘lishini ta’minlashga qaratilishi bilan, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari himoyasiga qaratilgan faoliyat deyish mumkin.

4-§. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 29-moddasida so‘z va axborot erkinligi mustahkamlab qo‘yilishi bilan birga, axborot olish va tarqatishda ayrim cheklashlar bo‘lishi ham belgilab qo‘yilgan. Unga asosan faqat konstitutsiyaviy tuzumga qarshi axborotlarni cheklash mumkin. Shuningdek, davlat siriga taalluqli cheklashlar ham bo‘lishi belgilanadi.

Mamlakatimizda maxsus “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi qonun mavjud bo‘lib, unda: “Davlat tomonidan qo‘llaniladigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yilgan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o‘zga ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi”, – deb belgilangan. Bunday malumotlarni oshkor qilishga hech qanday jurnalist, ommaviy axborot vositalari haqli emas.

Konstitutsiyasining 67-moddasida "Senzuraga yo'l qo'yilmaydi", degan qoida mavjud. Senzura ma'lumotlarni elon qilingunga qadar o'qish, uni tarqatish, qo'shimchalar kiritish yoki umuman nashr qilishni cheklashdir. Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinayotgan ma'lumotlarda davlat siriga zid, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi ma'lumotlar bo'lmasa, ularni o'zgartirish, qo'shimcha kiritish, ayrimlarini olib tashlashga yo'l qo'yilmaydi, degan qoida shu ma'noni beradi.

Ommaviy axborot vositalarida senzuraga yo'l qo'yilmasligi qoidasining konstitutsiyaga kiritilishi sababi, avvalgi tuzum (sovet tuzumi)da ommaviy axborot vositalari nashriy faoliyati nihoyatda senzuralashgan, hech qanday ma'lumot avvaldan o'qib chiqmasdan, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritmasdan, ayrim joylari olib tashlanmasdan nashr qilinmas edi.

Senzura ommaviy axborot vositalarining erkinligini, umuman so'z, fikr erkinligini cheklovchi kuchli vosita edi. Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari faoliyatida senzuraga yo'l qo'yilmasligini belgilovchi qoidaning kiritilganligi, ommaviy axborot vositalari, umuman jamiyatda so'z, fikrlash erkinligini ro'yobga chi-qaruvchi, ta'minlovchi muhim shart hisoblanadi.

Senzuraning yo'qligi ommaviy axborot vositalari o'rtasida sog'lom raqobatning mavjud bo'lishini, kuchayishini, jurnalistlarning ijodiy tashabbuskorlik faoliyati rivojlanishini ta'minlovchi muhim vositasidir.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga taalluqli barcha qonunlarda ham senzuraga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari haqidagi qonunlarda qanday masalalarda ma'lumotlar oshkor qilinmasligi ham belgilab qo'yilgan. Bular xavfsizlik, fuqaro manfaatlaridan kelib chiqadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Jamiyat hayotida OAVning roli nimalardan iborat?

2. OAVning erkinligi qanday ta'minlanadi?

3. OAV faoliyati qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi?

4. Jurnalistlarning mas'uliyati nimalardan iborat?

BESHINCHI BO'LIM

O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIY VA DAVLAT TUZILISHI

XVIII bob. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi

1-§. Davlat tuzilishi shaklining umumiy tasnifi

Davlat tuzilishi bu davlat hokimiyatini mamalakat hududi bo'yicha tashkil qilish, hududlardagi davlat organlarining, markaziy davlat organlarining munosabatining belgilashning alohida shaklidir.

Bunday munosabatlar (markaz va hudud munosabati) kichik davlatlarda oson, hal qilinsa, yirik, ko'p millatli davlatlarda qiyin hal qilinadi. Davlat tuzilish shakli masalalari davlat va huquq nazariyasi fanida chuqur va har tomonlama o'rganiladi.

Davlat va huquq nazariyasiga binoan, davlat tuzilishining uch ko'rinishi mavjud bo'lib, ular unitar davlat, federativ davlat va konfederativ davlatdir.

Federativ davlat bu davlat tuzilishlarning ittifoqi, federatsiya ma'lum mustaqillikka ega subyektlarning ittifoqi hisoblanadi. Federatsiya subyektlari ba'zi mamlakatlarda mustaqil bo'lib, ayrim vakolatlarini federatsiyaga ixtiyoriy o'tkazadi va barcha subyektlar bir xil huquqiy maqomga ega bo'ladi. Bunday davlatlarda federatsiya hududi, subyektlar hududidan iborat bo'ladi, federatsiya subyektlarining konstitutsiyalari, fuqaroligi, alohida qonunchilik, ijro, sud hokimiyati organi bo'ladi. Bunday davlat tuzilishidagi mamlakatga AQSh, Hindiston, Braziliya, Rossiyani kiritish mumkin.

Unitar davlat bu davlat tuzilishining oddiy ko'rinishi, uning tarkibida boshqa davlat tuzilmalari yo'q, hududiy birliklari mustaqillikka ega emas. Yagona konstitutsiya, yagona fuqarolik, Oliy qonunchilik, ijro va sud hokimiyati ham markazlashgan shaklda tuzilgan va faoliyat olib boradi. Bu mamlakatlar qatoriga Fransiya, Italiya, Yaponiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmanistonni kiritish mumkin.

O‘zbekiston ham unitar mamlakatlar qatoriga kiradi. Lekin uning tuzilishida ayrim federativ davlatlarga xos xususiyatlar ham mavjud.

Masalan, O‘zbekiston tarkibida davlat tuzilishiga xos bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi mavjud. Uning o‘zining konstitutsiyasi, qonunlari, hududi, fuqaroligi, oliy qonunchilik, ijro va sud hokimiyati organlari mavjud.

Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston munosabati federativ munosabatlar asosida qurilmagan. Federatsiya bir necha teng huquqli subyektlar ittifoqi bo‘lsa, bu yerda teng huquqli federatsiya subyektlari yo‘q. O‘zbekistonning Konstitutsiyasi, qonunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida bajarilishi majburiy va Qoraqalpog‘iston qonunlari O‘zbekiston qonunlari ustunligini to‘la tan oladi.

Lekin Qoraqalpog‘istonda davlat tuzilishiga xos bo‘lgan uning mavqeini, O‘zbekistonning boshqa tuzilmalaridan farqini ko‘rsatuvchi holatlar mavjud bo‘lib, bu haqda keyingi boblarda to‘xtalamiz.

Davlat tuzilishining nazariy jihatdan uchunchi shakli konfederatsiya hisoblanadi. Bu tushuncha asosan bir necha suveren davlatlarning ittifoqiga nisbatan ishlatiladi. Bu ko‘pincha, davlat huquqiy munosabatiga nisbatan xalqaro-huquqiy munosabat xarakterida bo‘ladi. Ayrim paytlarda konfederatsiya federatsiyaga o‘tishda foydalaniladigan shakl sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, AQSh Konfederatsiyasi, AQSh federatsiyasiga aylangan. Hozirgi kunda Shveytsariya va Kanada konfederatsiya hisoblanadi, aslida esa, ular ham allaqachon federatsiyaga aylangan.

Federatsiya davlat tuzilishidan Sobiq Ittifoq foydalangan. Unda davlatning bu shakli milliy masalalarni hal qilish usuli deb qaralgan.

Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan ittifoqchi respublikalar rasman suveren respublika hisoblansada, ular mustaqil hech narsani hal qila olmagan, xalqaro munosabatlarda ishtirok eta olmagan. SSSR haddan tashqari markazlashgan ittifoq davlati bo‘lgan.

2-§. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi

Har qanday mamlakat, jumladan, O'zbekiston ham ma'lum geografik joyda belgilangan chegaralar doirasida joylashgan. Bu mamlakatning hududi hisoblanadi. Aniq chegaralangan hududga ega bo'lish davlatni davlat sifatida ko'rsatuvchi asosiy shartlardandir. Ma'lum hududsiz davlat bo'lishi mumkin emas. Davlat aniq bir hududda faoliyat ko'rsatadi va davlat faoliyati shu hududda amal qiladi.

Hudud – davlatga tegishli maydon. Hudud yer, suv, osmon chegaralaridan iborat bo'ladi.

Har bir mamlakatning hududi katta-kichikligiga, aholisining soniga qarab, tegishli bo'lakchalarga bo'lib idora etiladi. Bu bo'lakchalar bir necha pog'onadan iborat bo'lib, ularning har biri o'z hududiga (chegarasiga) ega. Mamlakat hududi bo'lakchalarga bo'linishi, davlat boshqaruvini mukammal tashkil etish bilan bog'liq bo'lganligi uchun u juda muhim davlat-huquqiy institut bo'lib, konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida to'rtinchi bo'limi va uning ikki bobi (XVI, XVII boblar) ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalariga bag'ishlangan. Uning alohida-alohida moddalarida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari huquqiy tartibga solingan.

Har bir mamlakat ma'muriy-hududiy tuzilishini belgilashda butun hududni boshqarishga oson bo'lishi, markaz ta'sirining joylarda samarali bo'lishi, xalqning davlat organlariga yaqin bo'lishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning unumli, arzon, samarali bo'lishi, sanoatni hom ashyo bilan ta'minlash darajasi, aholining urf odatlari, qadriyatlari, tarixiy tajribasini hisobga oladi va o'ziga ma'qul ma'muriy-hududiy birliklarni o'rnatadi.

Ma'muriy-hududiy tuzilish konstitutsiyaviy asosda hal qilinadigan ijtimoiy munosabatlar qatoriga kiradi.

Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat", – deb belgilangan. Bu birinchidan, O'zbekiston hududi nimalardan iborat bo'lishini, ik-

kinchidan, O'zbekiston hududining, qanday ma'muriy birliklardan tashkil topganini ko'rsatadi.

Bu hududiy birliklarning huquqiy maqomi, hududiy holati, aholisining soni, moddiy ne'matlar ishlab chiqishi yoki aholi mashg'ulotiga qarab bir-biridan farq qiladi.

O'zbekiston ma'muriy-hududiy birliklarini huquqiy maqomi, darajasiga qarab uchga bo'lish mumkin.

Birinchisi, yuqori pog'ona – bunga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, ikkinchisiga, tuman va shaharlar, uchinchisiga, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar kiradi.

Tuman va shahar bir maqomdagi ma'muriy-hududiy birlik bo'lsa-da, ular ijtimoiy hayot, kishilarning asosiy mashg'ulotlari, ishlab chiqarishdagi ishtirokiga qarab bir-biridan farq qiladi. Tumanlar, asosan, qishloq xo'jaligi bilan, shaharlar sanoat ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, tumanga bo'ysunuvchi shahar va shahar tarkibidagi tumanlar ham mavjud, ularning faoliyat doirasidan maqomi belgilanadi.

3-§. Ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil etish, tugatish tartibi

Konstitutsiyaning 69-moddasida: "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi", – deb belgilangan.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlarni tashkil qilish, qo'shib yuborish, tugatish, mamlakat iqtisodi, boshqaruv samarasi, fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishning qulay-noqulayligi hisobga olinib, umummanfaatlar ko'zlangan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu masalaning asosi Konstitutsiyada belgilangan.

Konstitutsiyaning 69-moddasida: "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining, chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bi-

lan amalga oshiriladi", – deb belgilangan qoidalar, birinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning, shaharlarning chegarasini o'zgartirish masalasini, ikkinchidan, viloyatlar, shaharlar, tumanlarni tashkil qilish, uchinchidan, ularni tugatish (qo'shib yuborish) masalalarini qanday hal qilish tartibini, asoslarini belgilagan. Har uchala holatda ham bu hududiy birliklarning chegarasini o'zgartirish, yangidan tashkil qilish, tugatish masalasi Oliy Majlisning roziligi bilan hal qilinishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 10-bandiga asosan, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari qatoriga kiritilgan. Ya'ni, ma'muriy-hududiy tuzilish va ularning chegarasini o'zgartirish faqat qonun yo'li bilan hal qilinadi.

2012-yil 12-oktabrda o'tkazilgan islohotlar natijasida ushbu qonunning mazmun-mohiyati tubdan o'zgardi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan 1996-yil 30-apreldagi qonunning nomi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish to'g'risida" deb o'zgartirildi. Shuningdek, undagi toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish munosabatlariga oid normalar chiqarib tashlandi. Bu munosabatlar "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinishi belgilandi.

Unga asosan, viloyatlarni tuzish, tugatish Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlarni tuzish va tugatish tegishli viloyat va Toshkent shahar hokimlarining iltimosiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritilgan taklifga asosan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloqlar, ovullar tuzish va tugatish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. Qishloq va ovullarni tuzish

va tugatish Qoraqalpog'istonda tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining chegarasi faqat uning roziligi bilan Jo'qorg'i Kenges qaroriga asosan Oliy Majlis tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Viloyatlar va tumanlarning chegarasini o'zgartirish tegishli viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlarning chegarasini o'zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloqlar, ovullar chegarasini o'zgartirish, aholi punktlarini birlashtirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'muriy-hududiy birliklarning markazlarini belgilash, ko'chirish ham qonun asosida amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxtini belgilash va ko'chirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlarning ma'muriy markazini belgilash va ko'chirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan, tumanlar, qishloqlar, ovullarning ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli viloyat, tegishli shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman va shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman va shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqolpog'iston Respublikasida shaharlarni Respublika bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Tuman bo'ysunuvidagi shaharlar tarkumiga, qoida tariqasida, kamida olti ming aholisi bo'lgan, sanoat korxonalari va rivojlangan infrastrukturasi mavjud shaharchalar, aholi punktlarini kiritish mumkin. Shahar yoki aholi punktini shunday punktga kiritish uchun ma'lum miqdorda aholiga ega bo'lishi, iqtisodi normal rivojlangan va tegishli rivojlanishini ta'minlaydigan darajada infrastrukturaga ega bo'lishi kerak.

4-§. Shaharlarning maqomi, ularni turkumlash

O'zbekiston ma'muriy-hududiy tuzilishi uch pog'onali ma'muriy birliklardan iborat: ***birinchisi*** – viloyatlar, Toshkent shahri; ***ikkinchisi*** – tumanlar va shaharlar; ***uchinchisi*** – shaharcha, qishloq va ovullar. Qoraqalpog'iston Respublikasi ham ma'muriy-hududiy bo'linishi nuqtai nazaridan birinchi guruhga kiradi. Demak, birinchi guruh yuqori darajali, ikkinchi guruh o'rta darajali, uchinchi guruh quyi darajali ma'muriy birliklardan iborat.

Bundan tashqari, tumanlar, viloyat tarkibidagi, ya'ni viloyatga bo'ysunuvchi, shahar tarkibidagi, ya'ni shaharga bo'ysunuvchi tumanlar hisoblanadi. Xuddi shuningdek, shaharlar ham respublikaga bo'ysunish, viloyatga bo'ysunish, tumanga bo'ysunish maqomidagi shaharlarga bo'linadi.

Respublikada bitta shahar – Toshkent respublikaga bo'ysunuvchi yagona shahardir. Shuning uchun ham uning maqomi viloyatlarga tenglashtirilgan.

Respublikamizda, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasida viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, aholisi kamida o'ttiz ming bo'lgan, muayyan ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin.

Ya'ni, shahar viloyat buysunuvidagi shahar bo'lishi uchun, u ma'lum miqdorda aholiga ega bo'lishi kerak; u muhim ma'muriy ahamiyat kasb etishi kerak; madaniyat o'chog'i bo'lishi, iqtisodiy rivojlanish istiqboli bo'lishi zarur.

Shaharlarni viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqolpog'iston Respublikasida shaharlarni respublika bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Tuman bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida yetti ming aholisi bo'lgan, sanoat korxonalari va rivojlangan infrastrukturasi mavjud shaharlar, aholi punktlari kiritilishi mumkin. Shahar yoki aholi punktini shunday turkumga kiritish uchun u ma'lum miqdorda aholiga ega bo'lishi, iqtisodi normal rivojlangan bo'lishi va tegishli rivojlanishni ta'minlaydigan darajada infrasrukturasiga ega bo'lishi kerak.

Shahar, shaharcha, aholi puktlarini tuman bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarning iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Bu masala Qoraqalpog'istonda tegishli tuman hokimining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Kamida ikki ming aholisi bo'lgan, sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari shaharchalar turkumiga kiritilishi mumkin. Bu masala tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini belgilashga qaratilgan munosabatlarda ma'muriy-hududiy birliklar va aholi punktlariga nom berish, nomini o'zgartirish tartiblari ham mazkur qonun bilan tartibga solinadi.

Qonunga binoan, viloyatlar, tumanlar, shaharlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqolpog'iston Respublikasida tumanlar va shaharlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan, Qoraqolpog'istonda – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Davlat tuzilishi shakli nima?
2. Davlat tuzilishining qanday shakllari mavjud?
3. O'zbekiston qanday davlat tuzilishi shakliga ega?
4. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi qanday?
5. Ma'muriy-hududiy birliklarni tuzish, tugatish tartibi qanday?
6. Shaharlarning maqomi qanday?
7. Ma'muriy-hududiy tuzilishni belgilashda Qoraqalpog'iston Respublikasining vakolatlari qanday?

XIX bob. Qoraqalpog'iston Respublikasi

1-§. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi

O'zbekistonning haqiqiy suverenitetiga ega bo'lishi, mustaqillikka erishishi O'zbekistan va Qoraqalpog'iston Respublikalari munosabatida ham o'z aksini topdi. Ular o'rtasidagi munosabatning asoslari qabul qilingan hujjatlarda belgilab olindi.

Bu masalaga 1990-yil iyun oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya", 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan "Qoraqalpog'iston davlat suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya"larda alohida e'tibor berildi va O'zbekiston hamda Qoraqalpog'istonning amaldagi Konstitutsiyalarida Qoraqalpog'istonning huquqiy maqomi, har ikkala respublika o'rtasidagi munosabat asoslari mustahkamlab qo'yildi.

Konstitutsiyaning 70-moddasida: "Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi", – deb mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning bu moddasi:

- Qoraqalpog'istonni suveren respublika ekanligini belgilaydi va e'tirof etadi;
- u O'zbekiston tarkibiga kirganini ko'rsatadi; Qoraqalpog'istonning suvereniteti O'zbekiston tomonidan muhofaza qilinishini belgilaydi. Shu holat bilan O'zbekiston o'ziga katta mas'uliyatni oladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi, suverenitetga egaligini tasdiqlovchi normalar ham O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Bular:

- Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga egaligi. Chunki, Konstitutsiya har qanday davlatning suverenligini ko'rsatuvchi asosiy shart (Konstitutsiyaning 71-moddasi);
- Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasini o'z ixtiyori bilan xalq xohish-irodasiga mos ravishda hech kimning aralashuvisiz Oliy hokimiyat organida qabul qilgan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z hududiga va chegarasiga ega;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi (Konstitutsiyaning 73-moddasi);

- Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining Oliy hokimiyat organlariga ega va ularni tashkil qilish o'z Konstitutsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'istonning suverenligini belgilovchi eng muhim qoida Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga egaligidir (Konstitutsiyaning 74-moddasi).

Qoraqalpog'iston Respublikasining ajralib chiqish huquqi mavjudligi xalq o'z taqdirini o'zi hal qilish imkoniyatiga egaligini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining 1993-yil 9-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyasining 1-moddasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston tarkibidagi suveren demokratik Respublika ekanligi ko'rsatilib, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning o'zaro munosabatlari asoslari, Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibidan ajralib chiqish huquqini saqlab qolganligi mustahkamlab qo'yilgan. Qoraqalpoq tili o'zbek tili bilan birga davlat tili sifatida belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini ko'radigan bo'lsak, u O'z-bekiston Konstitutsiyasiga mos kelishi bilan birga ayrim masalalarni mustaqil hal qilgan, bu esa respublikaning mustaqil huquqlari mavjudligini bildiradi.

Jumladan:

- Respublikaning qonun chiqaruvchi organi Jo'qorg'i Kenges deb, qoraqalpoq tilida talqin qilinishi;

- Konstitutsiyasining 3-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini mustaqil belgilash ko'rsatilgan shu asosda, Qoraqalpog'iston Respublikasida eng yuqori lavozim – Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi deb belgilangan va u Jo'qorg'i Kenges tomonidan, uning deputatlari

orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Jo'qorg'i Kenges vakolati muddatiga saylanishi belgilangan;

- Qoraqalpog'istonning oliy ijro organi sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi belgilangan va Vazirlar Kengashi Jo'qorg'i Kenges tomonidan tuzilishi tartibi o'rnatilgan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi sud hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sud bo'lishi nazarda tutilmagan va konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi tashkil qilingan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining Prokurori va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanashi va vazifasidan ozod qilinishi tartibi o'rnatilgan.

Bulardan tashqari, Oliy Majlis Senati Raisining bitta o'rinbosari, albatta, Qoraqalpog'iston vakili bo'lishi kerakligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi Raisi lavozimi bo'yicha kirishi Qoraqalpog'iston huquqiy maqomini ko'rsatuvchi holatdir. Bular orqali Qoraqalpog'iston O'zbekiston hayotida ishtirok etadi.

2-§. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston qonunlarining munosabati

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari huquqiy holati, bir-biri bilan munosabati asoslari Konstitutsiyaviy darajada tartibga solingan. Bu munosabatalarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining Qoraqalpog'istonda amal qilishi tartibi alohida ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaning 15-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi", – deb belgilangan qoida Qoraqalpog'istonga ham taalluqlidir. Chunki, Konstitutsiyaning 68-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat", degan qoida Qoraqalpog'iston o'z hududi bilan O'zbekistonning tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi.

Demak, shunday ekan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari Qoraqalpog‘istonda ham ustuvor ekanligi, bajarilishi majburiy ekanligi qonuniydir.

Bu bajarilishi jihatdan O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarining Qoraqalpog‘istonda ustunligini ko‘rsatsa, bu holat O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyalari va qonunlari munosabatida Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasi va qonunlari O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo‘lmasligi qoidasining belgilanishida ham ko‘rinadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 16-moddasidagi: “Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas”, – degan qoida O‘zbekistonda, shu jumladan, Qoraqalpog‘istonda qabul qilinadigan har qanday normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Konstitsiyasiga mos kelishi, unga zid bo‘lmasligini nazarda tutadi.

Bu masala O‘zbekiston Konstitutsiyasining 71-moddasida, “Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas”, 72-moddasida esa, “O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham majburiydir”, – degan qoidalar asosida hal qilingan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarini Qoraqalpog‘istonda ustunligi, so‘zsiz bajarilishi, Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasi va qonunlari O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo‘lmasligi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo‘yilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida – Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarining so‘zsiz tan olinishi alohida belgilab qo‘yilgan.

Yana shunga e’tibor berish kerakki, ayrim masalalarda Qoraqalpog‘istonda maxsus Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonuni qabul qilinmasdan, masala O‘zbekiston qonuni bilan tartibga solinaveradi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasining 21-moddasida fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi qonun bilan belgilanishi ko‘rsatilgan.

Demak, O‘zbekistonning ayrim qonunlari Qoraqalpog‘istonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi. Shu masala bo‘yicha Qoraqalpog‘iston o‘zining qonunini qabul qilishiga hojat yo‘q.

Ayrim masalalar esa, Qoraqalpog‘istonning o‘z qonuni bilan tartibga solinadi. Masalan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Qonuni mavjud, lekin bu qonun O‘zbekistonning shunday qonuniga zid emas.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari munosabatini to‘g‘ri ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi muhim rol o‘ynaydi. Konstitutsiyaviy sudning vazifalarini belgilovchi Konstitutsiyaning 109-moddasi 2-bandida Konstitutsiyaviy sud Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi deb qayd qilingan.

3-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi va chegaralarini o‘zgartirish tartibi

Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston tarkibidagi suveren Respublika deb belgilangan ekan, suverenlikning muhim xususiyati hudud va chegaradir. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida: “Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z ma’muriy-hududiy tuzilishi masalarini mustaqil hal qiladi”, – deb mustahkamlangan. Qoraqalpog‘iston chegarasi faqat uning roziligi bilan Jo‘qorg‘i Kenges qaroriga asosan Oliy Majlis tomonidan o‘zgartirilishi mumkin.

Bu birinchidan, Qoraqalpog‘istonning chegarasi va hududi uning o‘z roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emasligini o‘rnatadi. Bu Qoraqalpog‘istonning umumiy hududiga taalluqlidir. Chegara, hududning o‘zgarishi Qoraqalpog‘iston hududining kamayishi yoki ko‘payishiga olib keladi. Ikkinchidan, Qoraqalpog‘iston o‘z ma’muriy-hududiy tuzilishini ham mustaqil hal qila olishini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Konstitutsiyasining "Davlat suvereniteti"ni belgilovchi birinchi bobi, 3-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qilishi belgilangan.

Shunga mos ravishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida: "Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlar, shaharlar, shaharchalar, ovullardan iborat", – deb belgilangan. Bu Qoraqalpog'istonning ma'muriy-hududiy birligi ikki bo'g'indan iboratligini ko'rsatadi. Tuman va shahar – yuqori bo'g'in, shaharcha, ovullar – quyi bo'g'in.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "Tumanlar, shaharlar tashkil qilish va ularni tugatish, shuningdek ularning chegaralarini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi" – deb mustahkamlangan.

Shulardan kelib chiqib, "O'zbekisiton Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi Qonunda ma'muriy-hududiy masalalarda Qoraqalpog'istonning huquqlari aniq ko'rsatib o'tilgan.

Qonunning 2-moddasiga asosan, Qoraqalpog'istonda tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpog'iston hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. Shunday qoida O'zbekiston Konstitutsiyasining 69-moddasida ham nazarda tutilgan.

Ovullarni tuzish va tugatish tuman hokimining iltimosiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'istonda tumanlarni o'zgartirish tegishli tuman hokimining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Ovullar chegarasini o'zgartirish, aholi punktlarini birlashtirish tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxtini belgilash va ko'chirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Ovullar ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli tuman hokimining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarni respublika bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish hukumatning taklifiga ko'ra Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarni, aholi punktlarini tuman bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Aholi punktlarini shaharchalar turkumiga kiritish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlar, shaharlar, shaharchalar, ovullarga nom berish va ularni nomlash tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika hududi chegaralarini o'zgartirishda, ma'muriy-hududiy birliklar tashkil qilishda keng, mustaqil huquqqa ega. Ana shu huquqlarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Jo'qorg'i Kenges tomonidan hal qilinadigan ishlar. Bunga tumanlarni tuzish va tugatish, Qoraqalpog'iston poytaxtini belgilash va ko'chirishni kiritish mumkin.

Ikkinchisi, hech kimning roziligini olmay Jo'qorg'i Kenges tomonidan mustaqil hal qilinadigan ishlar, bular:

- ovullarni tuzish va tugatish;
- tuman chegaralarini o'zgartirish;
- ovullarning chegarasini o'zgartirish;
- ovullarning ma'muriy markazlarini belgilash, ko'chirish;
- shaharlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ysunuvi turkumiga kiritish;

- shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish, shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish;

- tumanlar, shaharlar, ovullarga nom berish, ularning nomini o'zgartirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasining chegarasi faqat Qoraqalpog'istonning roziligi bilan Jo'qorg'i Kenges qaroriga asosan Oliy Majlis tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

4-§. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining o'zaro munosabati. Nizolarni hal qilish tartibi

O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning o'zaro munosabati Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston tarkibiga kirishi, Qoraqalpog'iston suvereniteti O'zbekiston tomonidan muhofaza qilinishi asosiga quriladi.

Konstitutsiyaning 71-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga egaligi belgilanishi bilan birga unda: "Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas", – deb ko'rsatib qo'yilgan. Bu qoida aslo Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog'istonga xos xususiyatlarning bo'lishini inkor qilmaydi. Faqat uning normalari O'zbekiston Konstitutsiyasi prinsiplariga, normalariga zid, bo'lmasligini belgilaydi.

Konstitutsiyaning 72-moddasi esa, "O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir", – degan qoidani mustahkamlab qo'ygan. Chunki, Qoraqalpog'iston hududi ham O'zbekiston hududi hisoblanadi. Qoraqalpog'iston o'zi mustaqil ravishda qonunlar qabul qilishi mumkin. Lekin, O'zbekistonning, qonunlari ham Qoraqalpog'iston hududida bajarilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikalarining o'zaro munosabatini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasi qoidalari muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Unda: "O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi

o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi" deyilgan.

Bu yerda e'tiborli masala shundaki, birgalikdagi o'zaro munosabatlar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasida tuziladigan shartnomalar yoki bitimlar asosida tartibga solinsa, ikkinchidan, har qanday bitim va shartnoma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida Konstitutsiyaga mos ravishda tuzilishi belgilangan.

Ikkala respublikalarning o'zaro munosabatining to'g'ri tashkil qilinishi Konstitutsiya doirasida bo'lishi, umummanfaat bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi manfaati mujassamlanishi jamiyatimizning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Hozirgi davrda Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi sog'lig'iga respublikadagi sharoit – Orol dengizining qurib borayotganligi katta xavf solmoqda. Ana shu xavfning oldini olish, Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi, sanoatni rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish ishlarida O'zbekistonning ko'magi, albatta zarur. Har ikki respublikaning siyosiy-huquqiy munosabatlari ularning iqtisodiy munosabatlarining ham to'g'ri tashkil qilishga bog'liq. Hozirgi kunda munosabatlarning to'g'ri tashkil qilinishi natijasida ko'plab muammolar hal qilinmoqda.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari mustaqil respublika bo'lganligi uchun ularda umummanfaatlar bilan o'z manfaatlari bo'lishi tabiiydir. Shu tufayli ular o'rtasida nizolar kelib chiqqudek bo'lsa, nizolarni hal qilish yo'llari ham ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 75-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi", – deb belgilangan. Nizolar tinch yo'l bilan va murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal qilinishi zarur.

Nizolar turli masalalarda bo'lishi, qonunlarning bir-biriga muvofiq kelmasligi xususida bo'lishi mumkin. Bunday hollarda nizoni hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ishtirok etadi. Konstitutsiyaning 109-moddasi 2-bandiga binoan, Konstitutsiyaviy sud: "Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi”. Uning xulosasi esa, nizoni hal qilishga olib keladi.

O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi o‘quvchilarga mamlakatimiz hududi, chegarasi, u qanday bo‘laklardan iboratligini, ularning nomi hamda ularning har biri qanday tashkil qilinishi, tugatilishi haqida umumiy bilimlarni beradi.

O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘lib, u suveren respublika maqomida O‘zbekiston tarkibiga kiradi va uning suveren huquqlari O‘zbekiston tomonidan himoya qilinadi.

Qoraqalpog‘istonning O‘zbekiston hududida tegishli maqomga egaligi, uning O‘zbekiston Respublikasi bilan munosabatlari Konstitutsiyaviy asosga egaligi, ularda har ikki tomonning manfaati hisobga olinishi mavzuning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi qanday?

2. Qanday masalalarni Qoraqalpog‘iston mustaqil hal qiladi?

3. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston munosabati nimalarga asoslanadi?

4. O‘zbekiston davlat qurilishida Qoraqalpog‘iston qanday ishtirok etadi?

5. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyalari, qonunlarining munosabati qanday?

6. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston o‘rtasidagi nizolar qanday hal qilinadi?

OLTINCHI BO‘LIM

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT HOKIMIYATINI TASHKIL ETISH

XX bob. Saylov tizimi

§ 1. Demokratik jamiyatda saylovlarning ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat hokimiyatining tashkil etilishi bo‘limida avval qonunchilik hokimiyati, Prezident, hukumat faoliyati berilib, saylov tizimi keyingi boblarda berilsada, aksariyat davlat organlari saylov orqali tashkil qilinishi sababli darslikda saylov tizimini dastlab ochib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi, degan xulosaga keldik.

Saylovlar demokratik davlatlar taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida markaziy o‘rin egallab kelgan. Aynan mazkur institut orqali fuqarolar bevosita yoki o‘zlari saylagan vakillari timsolida davlat va jamiyatni boshqarish imkoniga egadirlar. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday ta’kidlaydi: *“Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o‘zaro birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani”*[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarga oid masalaga alohida to‘xtalib: *“Hayotda adolat o‘rnatish, albatta, ijtimoiy taraqqiyotning ko‘pdan-ko‘p omillariga bog‘liq. Ammo eng muhim, hal qiluvchi omillardan biri – bu erkin, odil saylov tizimidir. Ya’ni, har qaysi pog‘onada – jamoami, mahallami, korxonami, tumanmi, shaharmi, viloyatmi, davlatmi, uning rivoji va taqdiri ko‘p jihatdan munosib yoki nomunosib shaxslarni, vakolatlarga ega bo‘lgan rahbarlarni, shu jumladan,*

1 Karimov I.A. Parlament – jamiyat hayotining ko‘zgusi. // O‘zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. To‘plam. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 13-bet.

hayotimiz – kelajagimizni ishonib topshirgan noib-deputatlarni saylab olishimizga bog'liqdir"[1], – deb ta'kidlagan edi.

Odatda, davlat hokimiyati organlari ikki uslubda: saylash va tayinlash yo'li bilan shakllantiriladi. Umum e'tirof etilgan tamoyillarga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat va sudlov hokimiyati organlarining shakllantirilishi saylanadigan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Shu asosda, saylovlar davlat hokimiyati organlarining butun tuzilmasiga oliy boshlang'ich legitimlikni ta'minlaydi[2].

Davlatimizda bevosita saylov usuli bilan davlat boshlig'i – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Oliy Majlisning quyi – Qonunchilik palatasi deputatlari saylanadilar. Shuningdek, saylash uslubi bilan Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari shakllantiriladi. Saylovlar referendum kabi xalq irodasi to'g'ridan-to'g'ri namoyon etilishining qonunlashtirilgan shaklini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, fuqarolar davlat hokimiyati organlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadilar va shu tufayli ularning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqlari amalga oshadi. Shuningdek, demokratik saylovlar – hokimiyat to'g'risidagi masalani kuch bilan hal etilishining aksidir. Bu borada Prezidentimiz: *"Demokratiya sharoitlarida esa, davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi"*[3], deb ta'kidlaganda saylovlarni nazarda tutgan.

Mamlakatimizning bosh maqsadi – demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'lib, uning asosiy shartlaridan biri xalq hokimiyatchiligini ta'minlash masalasidir. Jumladan, Prezident fikriga ko'ra: *"Demokratiya hamma joyda bir xil. Uning umumiy tamoyillari hamma uchun tushunarli: bu – demokratiyaning ajralmas qismi bo'lgan xalq hokimiyati,*

1 Karimov I.A. Xalq ishonchi – yuksak mas'uliyat. // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 349–350-betlar.

2 Konstitutsiyaviy huquqda legitimlik (lotinchadan aynan legitimus – qonuniy) deb davlat hokimiyati organining yoki oliy mansabdor shaxslarning huquq va vakolatlarining qonuniy deb topilishi hamda ularni konstitutsiya va xalqning qonuniy bildirilgan irodasiga aniq mos kelishi tushuniladi.

3 Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1993. – 12-bet.

xalqning xohish-irodasi va ochiq, erkin saylovlardir. Bu oxir-oqibatda har qanday demokratiyaning eng yuqori pog'onasi bo'lgan fuqarolik jamiyatidir"[1].

Aslida, o'zining tashkil etilishi, tuzilishi jihatidan va faoliyatida xalqning irodasiga tayangan, barcha umum e'tirof etilgan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga intilgan davlat deganda tom ma'nodagi demokratik davlat tushuniladi. Bunda, demokratik davlat fuqarolarning erkinligi va hurfikrliligiga asoslangan fuqarolik jamiyatining muhim ajralmas qismidir. Mazkur davlatning legitimliligi asosini xalq suvereniteti tashkil etadi. O'z navbatida, xalq suverenitetining amalda namoyon bo'lishining asosini saylovlar orqali tashkil etilgan davlat hokimiyati ifoda etadi.

Har qanday davlatni demokratik davlat deb e'lon qilishning o'zi kifoya emas, muhimi, uning tashkil etilishi va faoliyatini tegishli huquqiy institutlar, huquqiy kafolatlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Bunda – konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning tizimida saylov huquqi instituti muhim rol o'ynaydi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishishda saylovlar bir vaqtning o'zida ikkita yirik vazifani yechishga xizmat qiladi:

birinchidan, saylovlar demokratiyani amalga oshirishning bevosita shakli bo'lib, fuqarolarni uyushgan holda o'zlari yashab turgan davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlariga safarbar etadi. Saylov xalq hokimiyatining bevosita oliy ifodasini tashkil etadi. Bunda fuqarolar har qanday jarayonning ishtirokchisi bo'lganidek, saylov jarayonida ishtirok etib, siyosiy tajriba orttiradilar. Ular, avvalambor, o'zlarining siyosiy ongini charxlab, siyosiy-huquqiy madaniyatini oshiradi va bu jarayonda ishtirok etishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirib boradilar. Shuningdek, fuqarolar uyushqoqlik, hamjihatlik bilan, o'z harakatlarini kelishuv asosida namoyon qilishlarida siyosiy tajriba va ko'nikmalarni orttirib boradilar;

---

1 Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 163-bet.

ikkinchidan, demokratik davlatning muhim belgilaridan birini vakillik demokratiyasi tashkil etadi. Vakillik demokratiyasi fuqarolarning manfaatlarini birlashtirib, qonunlar va qarorlar qabul qilishga mutlaq huquq berilgan saylanadigan muassasalar orqali xalq hokimiyatini amalga oshirishidir. Bundan kelib chiqadiki, vakillik demokratiyasining haqiqatan amalga oshishi asosan saylov jarayonining demokratik tamoyillarga amal qilishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bundan xulosa qilish mumkinki, demokratiya va saylovlar bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir.

Saylovlarning ijtimoiy hayotdagi yuqori o'rni hisobga olinib, Prezident tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyaning IV bo'limi "O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish", deb nomlanadi.

Unda qayd qilinishicha: "Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qi-luvchi ahamiyatga ega masaladir"[1]. Bu saylovlarning ahamiyatini to'la ko'rsata oladigan ilmiy va hamma uchun tushunarli ta'rifdir. Konsepsiyada O'zbekistonda o'tadigan saylovlarning yanada erkin o'tishini ta'minlovchi ko'plab fikrlar bayon qilingan va saylov qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

2-§. Saylov tizimi va saylov huquqi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saylov tizimi maxsus bobda (XIII bob) mustahkamlangan. Hamma mamlakatlarning Konstitutsiyalarida saylov tizimi uchun maxsus bob ajratilmagan, masalan, Rossiya Konstitutsiyasida. O'zbekiston Konstitutsiyasida saylov tizimining konstitutsiyaviy asosda belgilanishi bu huquqiy institutning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

---

1 Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 35-bet.

Konstitutsiyaning saylov tizimi bobi bitta, ya'ni 117-moddadan iborat bo'lib, u fuqarolarning saylov huquqini, saylov huquqi prinsiplari, qaysi organlar saylov yo'li bilan tashkil qilinishi, saylov o'tkazishning muddatlari, Oliy Majlis Senati a'zolarini saylash tartibini, kimlar saylovda qatnashmasligini belgilovchi qoidalardan iborat.

Agar Konstitutsiyamiz nuqtayi nazaridan qarasak, unda qayd qilingan shu masalalar yig'indisi saylov tizimi hisoblanadi. Haqiqatan ham shunday. Lekin, ilmiy nuqtayi nazardan qaralsa, saylov tizimi Konstitutsiyada belgilangan qoidalar yig'indisidan ancha keng. Chunki, saylov munosabatlari ancha keng bo'lib, ularning hammasini Konstitutsiya bilan tartibga solish imkoniyati yo'q. Saylov munosabati ko'plab qonun va boshqa normativ hujjatlar bilan ham tartibga solinadi. Saylov tizimi barcha saylov o'tkazilishi bilan bog'liq tartiblar va barcha tartiblarni mustahkamlovchi, o'rnatuvchi huquqiy normalar yig'indisidir. Saylov huquqi normalari fuqarolarning saylov huquqlarini, saylovni tashkil qilish va o'tkazish, ovoz berish natijalarini aniqlash masalalarini tartibga soladi. Saylov tizimi – bu saylov o'tkazilishi tartibi va shu tartiblarni mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisidir. Saylov o'tkazish tartiblari huquqiy normalar bilan belgilanadi va ular birgalikda saylov tizimini tashkil etadi.

Ba'zida saylov tizimi tor ma'noda saylovning ba'zi jihatlari, xususiyatlariga ham tatbiq qilinadi, masalan, ovoz berish natijasini aniqlashga qo'llanilganda proporsional va majoritar saylov tizimi degan tushunchalar kelib chiqadi. Aslida, majoritar va proporsional saylov deputatlikka nomzodlar ko'rsatish va ularga ovoz berish hamda natijalarini aniqlashdagi alohida tartibdir.

Proporsional tizimda ovozlar partiya ro'yxati bo'yicha berilib, deputatlik o'rni olingan ovozlarga nisbatan taqsimlanadi. Bu tizim Rossiyada parlament saylovlarida qo'llaniladi.

Majoritar tizimda saylovchi aniq bir nomzodga ovoz beradi va saylovchilarning yarmidan ko'pchilik ovozini olgan nomzodlar saylangan hisoblanadi. O'zbekistonda majoritar saylov tizimi qo'llaniladi.

Keng ma'noda saylov tizimi faqat ovoz berish, uning natijalarini aniqlash tartibi bilan cheklanmay, saylov tizimi saylov huquqi prinsiplari, qoidalari, saylov o'tkazish tartibi yig'indisi

hisoblanadi. Unda fuqarolarning saylash va saylanish huquqlari; saylov huquqining asosiy prinsiplari; turli darajadagi hokimiyat organlariga saylov o'tkazish; saylov belgilash; saylov ishtirokchilari (subektlari), kimlar saylovda ishtirok eta olmasligi kabi masalalar belgilanadi.

Saylov huquqi atamasi bir necha ma'noda ishlatiladi. Saylov huquqi deganda, birinchidan, mamlakatda saylovlarni tashkil etuvchi huquq normalari tushunilsa, ikkinchidan, fuqarolarni saylash va saylanishga bo'lgan huquqlari tushuniladi (aktiv va passiv saylov huquqi). Saylov bilan bog'liq munosabatlar, masalalar faqat Konstitutsiya normalari bilan tartibga solish bilan chegaralanmaydi, boshqa maxsus qonunlar bilan ham tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingan bo'lib, birinchi Qonun Oliy Majlisga deputat va senatorlar saylash, ikkinchi Qonun O'zbekiston Respublikasining Prezidentini saylash, uchinchi Qonun mahalliy vakillik organlariga deputatlar saylash masalasini tartibga soladi.

Bundan tashqari, "Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar ham saylov o'tkazish, fuqarolarning saylov huquqlarini qo'shimcha himoya qilish, ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach saylov tizimini demokratik mamlakatlar saylov tizimiga mos ravishda tashkil qilish imkoniyati tug'ildi. Natijada, saylovlar xalqaro andozalarga mos o'tkaziladigan bo'ldi.

Saylovlarning, ko'ppartiyaviylik asosida o'tishi, nomzodlar sonini saylanadigan deputatlar soniga nisbatan ko'p bo'lishi demokratiya tantanasi bo'ldi.

Saylovlar siyosiy jarayon bo'lib, uni tashkil qilish va o'tkazishga qarab, jahon hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar mamlakatda demokratiya qanday ekanligiga baho beradi.

2007-yil dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va 2008-yil dekabr oyida O'zbekistonda mahalliy vakillik

organlari va Oliy Majlisga bo'lib o'tgan saylovlar demokratiya tamoyillariga, xalqaro andozalarga mos ravishda o'tkazilganligini saylovlarda ishtirok etgan xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning kuzatuvchilari e'tirof etishdi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy hayotdagi islohotlar, jamiyat va davlat hayotidagi erkinlashtirishlar, saylov tizimiga ham ta'sir qildi. Bu o'zgarishlar Konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topdi.

Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida vakillik organlari va Prezident saylovi kuni aniq belgilab qo'yildi. Endi mamlakatimizda saylovlar ularning vakolati tugaydigan yilda dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladigan bo'ldi (Konstitutsiyaning 117-moddasi ikkinchi xatboshisi). Saylovlarda (Senat a'zolarini saylashda) pog'onali saylov prinsipi qo'llaniladigan bo'ldi (Konstitutsiyaning 117-moddasi uchinchi xatboshisi).

Prezident ilgari surgan Konsepsiyada har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash huquqining erkinligini kengroq ta'minlash muhim vazifa ekanligi, o'tgan davrlarda yurtimizda samarali va demokratik saylov tizimi shakllanganligi va bu boradagi ishlar davom ettirilishi zarurligi uqtirildi[1].

3-§. Fuqarolarning saylov huquqi, saylov huquqi prinsiplari

"Erkin saylov va o'z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi"[2] – deb ta'kidlaydi, Prezident.

Bu bilan erkin saylov huquqi fuqarolarning siyosiy huquqi tizimida, davlatchiligimizda muhim rol o'ynashi e'tirof etildi va saylov huquqi ahamiyatiga oqilona baho berildi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 35–41-betlar.
2 O'sha joyda. – 35-bet.

Saylov huquqi bilan fuqarolarni ta'minlash faqat milliy qonunchiligimizda belgilangan bo'libgina qolmay, saylov huquqining ahamiyati xalqaro hujjatlarda ham qayd qilingan, jumladan, "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 21-moddasida: "Har bir inson bevosita yoki erkinlik bilan saylangan vakillari vositasida o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga egadir", – deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanish huquqiga egadirlar" – deb ko'rsatilgan.

Fuqarolarning saylov huquqi – saylash va saylanish huquqidan iborat. Shu ikkala huquqqa to'la ega bo'lgandagina saylov huquqi amalga oshgan hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda fuqarolarning saylash huquqini aktiv saylov huquqi, saylanish huquqi esa, passiv saylov huquqi deb yuritiladi. Ularga ega bo'lishda ba'zi talablar qo'yiladi.

Saylash huquqiga ma'lum yoshga yetgan mamlakatning barcha fuqarolari ega bo'ladi. Konstitutsiyaga binoan sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan fuqarolar saylash huquqiga ega emas. Chunki, muomalaga layoqatsizlar aqliy tomondan ojiz, ongsiz kishilar bo'lib, ular o'z xatti-harakatining oqibatini anglay olmaydi, tushunmaydi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotganlarning saylash huquqi ma'lum davrga cheklangan, chunki, u joylarda alohida rejimda yashashga to'g'ri keladi. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozodlikka chiqqandan so'ng, ular yana saylash huquqiga ega bo'ladi.

Fuqarolarning saylanish huquqiga ega bo'lishi uchun ham ayrim shartlar, chegaralar o'rnatiladi:

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotganlar saylash huquqiga ega bo'lmaganidek, saylanish huquqiga ham ega emas;

- saylash huquqiga ega bo'lish uchun yosh chegarasi ham yuqoriroq o'rnatiladi. Masalan, O'zbekistonda Prezident bo'lib saylanish uchun 35 yoshga, Oliy Majlisga saylanish uchun

25 yoshga, mahalliy vakillik organlariga saylanish uchun 21 yoshga to'lgan bo'lish kerak. Xuddi shuningdek, saylanish huquqiga ega bo'lish uchun boshqa talablar ham o'rnatiladi. Masalan, mamlakat hududida ma'lum yil yashagan bo'lishi, til bilishi va hokazo. Bu masalalarga keyingi mavzularda kengroq to'xtalinadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqida qo'llaniladigan shartlar, chegaralar boshqa demokratik mamlakatlar qonunlarida ham belgilangan.

Fuqarolar saylov huquqlarini amalga oshirish jarayonida faqat saylash va saylanish huquqidangina emas, boshqa huquqlardan ham foydalanadi. Masalan, nomzod ko'rsatish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, nomzodlar to'g'risida ma'lumotlar olish, kuzatuvchilar tarkibida ishtirok etish va boshqalar.

Fuqarolarning saylov huquqlari qo'shimcha ravishda "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun[1] bilan ta'minlanadi. Bunday maxsus qonunning borligi mamlakatimizda fuqarolarning saylov huquqlari himoyasiga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi.

Fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirishiga turli yo'llar bilan to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik mavjudligi saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida saylov qonunlarini buzganlik uchun alohida moddalarda jinoiy javobgarlik belgilangan. Jinoyat kodeksining 146–147-moddalarida fuqarolar saylov huquqlarining har qanday buzilishiga olib keluvchi holatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Saylovlar ma'lum prinsiplarda o'tkazilib, ular demokratik talablarga, xalqaro hujjat normalariga mos bo'ladi.

Konstitutsiyada saylov umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi, har bir saylovchi bitta ovozga ega ekanligi, ovoz berishda fuqaro o'z xohish-irodasini erkin bildirishi ko'rsatib qo'yilgan (117-modda).

Ana shular saylov huquqining asosiy prinsiplari bo'lib, saylov to'g'risidagi qonunlarda har biri alohida moddalarda berilgan.

---

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 72–73-betlar.

Umumiy saylov prinsipi – mamlakatdagi barcha fuqarolarga kimligidan qat'i nazar (ya'ni, millati, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, partiyaviyligidan qat'i nazar), saylov huquqidan foydalanish imkoniyatini beradi. Umumiy saylov huquqi yosh chegarasining bo'lishi, sud yo'li bilan saylov huquqidan cheklash mumkinligiga yo'l qo'yadi. Boshqacha har qanday cheklashlar umumiy saylov huquqi prinsiplariga ziddir.

Teng saylov huquqi prinsipi – har bir saylovchining bir ovozga ega ekanligi, fuqarolar faqat bir saylov uchastkasida ro'yxatga olinib, ovoz berishda ishtirok etishi, saylovda ishtirok etuvchi partiyalarga bir xil imkoniyatlar yaratilganligini bildiradi.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi – har bir fuqaro mahalliy vakillik organlari, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga deputatlarni, shuningdek, Prezidentni saylashda bevosita o'zi shaxsan ovoz berish orqali saylovda ishtirok etishini bildiradi. To'g'ridan-to'g'ri saylov orqali fuqarolar yashab turgan joylarining o'zida ovoz beradi va ularning bergan ovozi deputatlar, Prezident saylanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Yashirin ovoz berish – bunda fuqarolarning ovoz berishiga hech kim ta'sir qila olmaydi. Fuqarolar hech kimning ta'sirisiz ovoz bersagina o'zi xohlagancha ovoz berishi mumkin bo'ladi. Yashirin ovoz berishda ovoz berish natijasi ham ma'lum bo'lmaydi, shuning uchun fuqarolar qo'rqmasdan, ikkilanmasdan, shubhalanmasdan o'zi xohlagan nomzodga ovoz beradi.

Saylovda ishtirok etishning erkinligi – fuqarolar saylovlarning hamma jarayonlarida, shuningdek, ovoz berishda ham erkin ishtirok etishini bildiradi. Ularning saylov jarayonlarida ishtirok etishga to'sqinlik qilinmaydi, ishtirok etishga, ovoz berishga ham majbur qilinmaydi.

Fuqarolar ovoz berishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etib, xohlagan nomzodga ovoz beradi yoki umuman ishtirok etmaydi. Buning uchun ular majburlanmaydi, hech qanday tazyiqlarga uchramaydi, quvg'in qilinmaydi. Faqat fuqarolar o'z siyosiy qarashlari, ongi, madaniyatiga qarab ovoz berishda ishtirok etish yoki etmaslik masalasini o'zi hal qiladi. Ovoz berishga majburlash ham, to'sqinlik qilish ham javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Oshkoralik ham saylov huquqining muhim prinsiplaridandir. Saylovlarning barcha jarayonlari oshkora o'tadi. Ommaviy axborot vositalari orqali saylov jarayonlari bo'yicha muntazam ma'lumotlar berib boriladi. Saylovlarda kuzatuvchilarning ishtiroki (xalqaro va milliy kuzatuvchilar) ta'minlanadi.

Demokratiyaning kuchayishi, saylov qonunchiligining takomillashib borishi bilan saylov huquqi prinsiplarini qo'llash kengayib boradi va prinsiplarning o'zi ham takomillashtiriladi. Amaldagi saylov to'g'risidagi qonunlardan vakillik organlarini deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqini chiqarib tashlanishi, teng saylov huquqini ta'minlashni yanada kuchaytirdi.

Oliy Majlisning ikki palatali etib qayta tashkil etilishi, uning yuqori palatasi – Senat a'zolarining mahalliy Kengashlar deputatlari orasidan, mahalliy Kengashlarning qo'shma majlisida saylanishi saylov tizimiga pog'onali saylov prinsipini kiritdi. Bu prinsipdan jahon mamlakatlari tajribasida ham foydalaniladi.

4-§. Saylov senzlari. Saylovda ishtirok etmaslik asoslari. Saylovlarda erkinlik

Saylov huquqi fuqarolarning siyosiy huquqlari hisoblanadi. Undan foydalanish siyosiy hayotda ishtirokni ta'minlab, mamlakat taqdirini hal qilishda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida fuqarolarga saylov huquqini berish, ta'minlash bilan birga kimlar saylovda ishtirok etmasligi, kimlarning saylov huquqi vaqtincha to'xtatilishi, uning asoslari ham ko'rsatib qo'yilgan. Bu Konstitutsiyamizning 117-moddasida shunday belgilangan: "Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi".

Konstitutsiyamizning bu qoidasi saylovda qatnashishni istisno etuvchi ikki asosni belgilaydi.

Birinchi – fuqaroning muomalaga layoqati cheklanganligi, aqli zaifligi natijasida. Bunday shaxslar o'zlarining harakatlarini baholay olmaydi yoki ongli harakat qilolmaydi. O'zining harakati qanday oqibatlar keltirib chiqarishini anglamaydi. *Ikkinchi* – ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, ya'ni jazo o'tayotganlar. Bularning saylov huquqi jazo o'tash davrida to'xtatiladi.

Har ikki holatda ham saylovda ishtirok etmaslikning asosi sud hujjatidir. Sud shaxsni muomalaga layoqatsizligi to'g'risida qaror qabul qiladi, shaxsni ozodlikdan mahrum qilish ham sudning hukmiga asosan amalga oshiriladi.

Konstitutsiya boshqa hech qanday holatda fuqarolarning saylov huquqini cheklashga yo'l qo'ymaydi.

Saylovlarda turli senzlar o'rnatilishi (senz cheklash ma'nosini beradi) mumkin. Hozirgi kunda butun dunyoda saylov huquqida mavjud bo'lgan senz – bu yosh senzidir. Yosh senzi fuqaroning voyaga yetgan bo'lishi, uning natijasida esa, o'z harakatiga javob bera olishni nazarda tutadi.

Aktiv va passiv saylovda yosh senzi har xil o'rnatilgan, masalan, O'zbekistonda aktiv saylov huquqiga (saylash huquqiga) 18 yoshdan ega bo'linadi. Hamma organlarga saylash huquqi 18 yoshdan vujudga keladi. Passiv saylov huquqi (saylanish huquqi) turli organlarga turlicha o'rnatilgan. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida deputatlik uchun 21 yosh, Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari uchun 25 yosh, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanish uchun 35 yosh belgilangan. Shu yoshga yetmaganlar tegishli organlarga saylana olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqa – milliy, jinsiy, irqiy, mulkiy cheklashlar nazarda tutilmagan.

Shu bilan birga aytish mumkinki, turli organlarga passiv saylov huquqida – saylanishda saylanuvchilar (nomzodlar) oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar qonuniy asosda, chunki ular tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan.

Bunday shartlar, talablar Prezidentlikka saylanuvchilar va vakillik organiga saylanuvchilar uchun alohida-alohida bo'ladi.

Konstitutsiyaning 90-moddasiga binoan, Prezident etib saylanish uchun fuqaro o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmasligi, davlat

tilini yaxshi bilishi, saylovgacha O'zbekiston hududida kamida 10 yil muqim (doimiy) yashagan bo'lishi kerak. Shu shartlar mavjud bo'lsa fuqaroning nomzodi tegishli tartibda Prezidentlikka nomzod sifatida qo'yiladi va saylovda ishtirok etadi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydigan shaxslar doirasi belgilangan. Ular quyidagilar:

- qasddan sodir etilgan jinoyatlari uchun ilgari sudlangan fuqarolar;
- o'zlariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilganligi munosabati bilan qonun tomonidan ta'qib etilayotgan fuqarolar;
- diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari (Qonunning 25-moddasi).

Konstitutsiya Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lib saylanadiganlar oldiga ayrim talablarni qo'ygan, fuqaro deputat va senator bo'lib saylanish uchun yigirma besh yoshga to'lgan va kamida besh yil O'zbekistonda muqim yashagan bo'lish kerak.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunda ham deputat bo'lib saylanuvchilarga ba'zi talablar qo'yilgan (25-modda).

- sodir etgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yohud sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;
- saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston hududida muqim yashamagan fuqarolar;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;
- diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod qilib ro'yxatga olinmaydi.

Senat a'zoligiga saylanish uchun qonunning 53-moddasida talablar qo'yilgan bo'lib, senatorlikka yigirma besh yoshga to'lgan, kamida besh yil O'zbekistonda muqim yashagan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylanadi.

"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasida shu Kengash deputatligiga nomzodlar oldiga ma'lum talablar qo'yilgan.

Quyidagilar:

- sodir etgan og'ir jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yohud sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;
- saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining, Ichki ishlar vazirligining, Davlat bojxona qo'mitasining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;
- diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydi.

Sudyalar, prokurotura organlari va hokimiyat ijroiya organlarining mansabdor shaxslari (hokimlar bundan mustasno) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'shash to'g'risida ariza berganlari taqdirdagina deputatlikka nomzod etib ro'xatga olinadi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarda boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylash, saylanish huquqlarini cheklash taqiqlanishi qayd qilingan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida "ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoli, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatiga qarab O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.

Shunday cheklashlar bo'lgan paytda aybdorlar qonunlar bilan tegishli tartibda javobgarlikka tortiladi.

Saylov cheklashlari saylov erkinligi bilan bog'liq masala. Cheklashlar qanchalik kam bo'lsa, saylovlar erkin o'tadi.

Saylov huquqi fuqarolarning siyosiy huquqi bo'lib, ularning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokini ta'minlovchi muhim vositadir. Shunday ekan, saylov huquqidan foydalanish erkinlik, ixtiyoriylik prinsipiga asoslanadi.

Konstitutsiyaning 117-moddasida: "Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi", – deyilgan. Ko'rinib turibdiki, ovoz berish erkinligi, umuman, saylovda qatnashish erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida fuqarolarning saylovoldi kampaniyasida va ovoz berishda ixtiyoriy ravishda qatnashishi, fuqarolarning xohish-iroda bildirishlari ustidan nazorat etishga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlab qo'yilgan.

5-§. Saylov jarayoni va unda ishtirok etuvchi subyektlar

Saylov, ya'ni hokimiyatining vakillik organlarini shakllantirish tartibi siyosiy-huquqiy mexanizm shaklida namoyon bo'lib, bunday mexanizmni bir vaqtda saylov huquqi va saylov jarayoni tashkil etadi. Bunda saylov huquqi, bir tomondan, saylangan vakillarning hokimiyat vakolatlariga ega bo'lishlariga tegishli bo'lib, jamiyat va davlat faoliyatining ayrim jihatlarini batafsil ifoda etsa, ikkinchi tomondan, saylov jarayoni unda subyektiv siyosiy huquqni amalga oshirishning shakli sifatida saylovchilarning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki texnologiyasini aks ettiradi.

Demokratik saylov jarayoni – bu mamlakatda o'rnatilgan siyosiy jarayon va rejimning bir qismi bo'lib, u fuqarolar saylov huquqlari amalga oshirilishining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy infratuzilmasini tashkil etuvchi demokratik institutlar rivojlanishining umumiy shartlari bilan bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari, saylov kampaniyasini boshlashdan oldin bir qancha muhim harakat va protseduralar amalga oshirilishi talab etiladi. Ularga ko'ra, saylov jarayoni nafaqat ovoz berishni tashkillashtirishning yuridik texnikasi bo'lib, balki u hokimiyatning siyosiy barqarorligi va uzluksizligi, xalqchilligi va qonuniyligini ta'minlovchi muhim huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida saylov jarayoni har qanday mamlakatlardagi kabi bir-birini to'ldirib va almashtirib boruvchi bir qancha bosqichlardan iborat. Bunda saylov jarayonining bosqichlari

deganda, saylovlarni tashkil etish va o'tkazish uchun belgilangan davrlar tushuniladi. Ular doirasida qonunlarda ko'zda tutilgan saylov harakatlari, shuningdek saylovchilar va saylovning boshqa ishtirokchilari huquqlari amalga oshirilishini ta'minlovchi saylov tartib-taomillari amalga oshirilib boriladi.

Odatda, har qanday saylov jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi: birinchi, saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qilish yoki saylovlarni tayinlash, ikkinchi, saylov okruglari va saylov uchastkalarini tuzish; uchinchi, saylov komissiyalarini tuzish; to'rtinchisi, nomzodlar ko'rsatish va ularni ro'yxatga olish; beshinchi, saylovoldi tashviqoti; oltinchi, saylovchilar ro'yxatini tuzish; yettinchi, ovoz berishni tashkil etish va saylov natijalarini aniqlash; sakkizinchi, saylov yakunlarini e'lon qilish va deputatlarni, senatorlarni, Prezidentni ro'yxatga olish. Zarurat tug'ilsa, takroriy ovoz berish hamda takroriy saylov o'tkaziladi. Bular qo'shimcha bosqichlardir. Bo'shab qolgan o'rinlarga deputatlar saylovlarini, navbatdan tashqari yangi saylovlarni o'tkazish kabi jarayonlar har qanday mamlakatlarning saylov tizimida mavjud bo'ladi.

Saylov jarayoniga oid bosqichlarning funksional vazifasi xilmaxil saylov harakatlari va tadbirlarni amalga oshirishda vaqt jihatdan ketma-ketlik va mantiqan bosqichma-bosqichlikni ta'minlashdan iborat. Ular saylovlarni va tegishli saylanuvchi shaxslarning saylanishida legitimlik jihatlarini belgilashga ko'maklashadi.

Saylov jarayonida jarayon ishtirokchilari – subyektlarni aniqlash zarur.

Saylov jarayoni subyektlari bu saylovni turli bosqich va tadbirlarida ishtirok etadigan va o'zlarining alohida vazifasi va o'rni mavjud ishtirokchilardir.

Saylov jarayoni subyektlari quyidagilardan iborat:

1. Fuqarolar. Fuqarolar saylovlar jarayonining deyarli barcha bosqichlarida ishtirok etadi. Ular saylov jarayonida bevosita o'zlari yoki tegishli tuzilmalar, organlar faoliyati orqali ishtirok etadi. Boshqa barcha saylov jarayonining subyektlari faoliyatida fuqarolar ishtirok etadi. Faqat u yerda fuqaro sifatida emas, tegishli tuzilma a'zosi, xizmatchi sifatida. Fuqarolar saylov jara-

yonining targ'ibot-tashviqot ishlarida, saylovoldi yig'ilishlarida, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida, turli saylov komissiyalari tarkibida a'zo bo'lib, ishonchli vakillar bo'lib, kuzatuvchilar tarkibida qatnashib, vakolatli vakil sifatida qatnashib, saylov jarayonining subyekti sifatida bevosita ishtirok etadi.

Ommaviy axborot vositalarida, turli davlat organlarida ishtirok etish fuqarolarning saylov jarayonida bilvosita ishtirokini ko'rsatadi.

2. Saylov komissiyalari. Vakillik organlariga saylov, Prezidentlikka saylov jarayonida saylov komissiyalari alohida rol o'ynaydi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Prezidentlikka saylovda Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi, uchastka saylov komissiyalari tuzilsa, xalq deputatlari Kengashlariga saylovda tegishli Kengashga (viloyatga, shaharga, tumanga) saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi, uchastka saylov komissiyasi tuziladi.

Markaziy saylov komissiyasi doimiy ishlaydigan Markaziy muassasa bo'lib, Oliy Majlis tomonidan tuziladi. Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binoan a'zolari tomonidan saylanadi.

Okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, uchastka saylov komissiyasi okrug saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Okrug va uchastka saylov komissiyalari saylov natijalari e'lon qilinib, deputatlar ro'yxatga olingach faoliyatini tugatadi.

Mahalliy Kengashlarga saylovlarda viloyat, tuman, shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi tegishli Kengash tomonidan tuzilib, keyingi saylov kampaniyasi e'lon qilingunga qadar faoliyat ko'rsatadi. Okrug saylov komissiyasi tegishli Kengashga saylov o'tkazuvchi komissiya tomonidan, uchastka saylov komissiyasi esa, okrug saylov komissiyasi tomonidan tuzilib, saylov natijalari e'lon qilinib, deputatlar ro'yxatga olingach, o'z faoliyatlarini tugatadi.

Markaziy saylov komissiyasining faoliyati "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi, okrug va uchastka saylov komissiyalarini faoliyati "O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalar faoliyati "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlar bilan tartibga solinadi.

3. Siyosiy partiyalar va harakatlar. Siyosiy partiyalar vakillik organlariga saylovda nomzod ko'rsatish huquqiga ega subyektdir. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod va Prezidentlikka nomzod ko'rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berilgan. Siyosiy partiyalar nomzod ko'rsatishdan tashqari, saylov jarayonida targ'ibot-tashviqot ishlarida, ovoz berish jarayoni va ovoz berish natijalarini aniqlashda o'z vakillari orqali nazorat ishlarida ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi Ekologik harakati Qonunchilik palatasiga 15 ta deputat saylash huquqiga ega.

4. Ommaviy axborot vositalari. Saylov to'g'risidagi qonunlarga asosan OAV saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o'tayotganligini yoritib boradi. OAV saylov jarayonidagi har bir tadbirni, saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingandan boshlab, saylov natijalarini e'lon qilishgacha yoritadi, ma'lumotlar beradi. Saylovlarda targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yadi, saylovning barcha ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratadi va saylovlarning oshkora o'tishini ta'minlaydi.

5. Kuzatuvchilar. Saylovlarning qonunga asosan, adolatli o'tishini ta'minlashda kuzatuvchilar instituti muhim rol o'ynaydi. Kuzatuvchilar milliy, ya'ni mamlakat ichidagi tuzilmalardan tuzilgan hamda xalqaro kuzatuvchilar, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar vakillaridan iborat tarkibda tuzilishi mumkin. Kuzatuvchilar barcha saylov tadbirlarida, shuningdek ovoz berish natijalarini aniqlashda ishtirok etishi mumkin.

Manfaatdor tashkilotlar o'z kuzatuvchilari to'g'risida okrug saylov komissiyalariga saylovga kamida o'n besh kun qolganda ma'lum qiladi. Okrug saylov komissiyasi belgilangan namunadagi mandatni ariza tushgandan so'ng besh kun ichida kuzatuvchilarga beradi.

Xalqaro kuzatuvchilarga mandatni Markaziy saylov komissiyasi beradi.

Kuzatuvchilarning huquq va burchlari saylov to'g'risidagi qonunda belgilangan.

6. Vakillar. Saylov jarayonida deputatlikka, Prezidentlikka nomzodlarning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 tagacha, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar o'n nafargacha mahalliy Kengash deputatligiga nomzodlar uch nafargacha ishonchli vakilga ega bo'ladi.

Ishonchli vakillar nomzodlarga saylov kampaniyasini o'tkazishda yordam beradi, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi, saylov kampaniyalari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan munosabatlarda nomzodlarning manfaatini ifoda etadi.

Prezidentlikka nomzodning ishonchli vakillari nomzod taqdimiga ko'ra Markaziy saylov komissiyasida ro'yxatga olinib, ularga guvohnoma beriladi.

Deputatlikka nomzodlar o'z ishonchli vakillarini o'zi belgilaydi va okrug saylov komissiyalarida ular ro'yxatga olinib, tegishli guvohnoma beriladi.

Qonunlarda siyosiy partiyalarning vakolatli vakili bo'lish belgilangan. Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatligiga nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda o'z a'zolari orasidan vakolatli vakil tayinlashga haqli.

Vakillar faoliyati, huquq va burchlari, vazifasi saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan.

7. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari saylovni o'tkazishda faol ishtirok etadi. Ular tashviqot-targ'ibot ishlarida, nomzodlar bilan uchrashuvlar tashkil qilishda, saylovchilarning ro'yxatini tuzishda, saylov kuni, vaqti, joyi haqida saylovchilarga ma'lumotlar berishda tegishli organlarga yordam beradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saylov ishtirokchisi sifatida namoyon qiladigan eng muhim narsa, ularning tuman, shahar Kengashlariga saylovda shu Kengash deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga ega ekanligidir.

8. Davlat organlari. Turli davlat organlari saylov jarayonlarida ishtirok etadi. Ular turli vazifalarni bajaradi. Mahalliy davlat

hokimiyati organlari saylov o‘tadigan joylar bilan ta’minlash, saylov uchastkalarini tegishli holatga keltirish, moddiy ta’minotiga yordam berish, saylov komissiyalari a’zoligiga nomzodlar taqdim qilish, tegishli Kengashlarga saylov o‘tkazuvchi komissiyalarni tuzish bilan saylov jarayonida ishtirok etadi.

Saylovlarning adolatli, qonun asosida o‘tishini, fuqarolar saylov huquqlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida saylov jarayonida sud va prokuratura organlarining ishtiroki ham nazarda tutilgan. Ularning vazifa va vakolatlari saylov to‘g‘risidagi qonunlarda belgilangan.

6-§. Saylov o‘tkazish muddatlari va saylov kampaniyasining boshlanganligini e’lon qilish

O‘zbekiston Respublikasining vakillik organlariga, Prezidentlikka saylov o‘tkazish muddatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan.

Saylovlar muddatli, zarurat tufayli yoki navbatdan tashqari bo‘lishi mumkin. Muddatli saylovlar Prezident va vakillik organlari (vakillik organlari deganda, Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarning barcha bo‘g‘inlari nazarda tutiladi) vakolat muddati tugashi bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati, 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi qonunga asosan, yetti yil qilib belgilangan edi. 2011-yil dekabr qonuni bilan Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishga asosan, besh yil qilib belgilandi.

Vakillik organlarining vakolat muddati besh yil qilib belgilangan. Shu muddatning o‘tishi yangi saylov o‘tkazishga sabab bo‘ladi.

Konstitutsiyaning 117-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi”, – deb belgilangan. Bunday saylov o‘tkazish muddatining avvaldan aniq belgilanishi saylovlarning har doim bir vaqtda, oldinga, orqaga surish

imkoniyatini cheklab, barqaror o'tishini ta'minlaydi, bunday tartib dunyodagi ko'plab mamlakatlar tajribasida uchraydi.

Zaruratga qarab o'tkaziladigan saylovlar deputatlik o'rni bo'shab qolgan vaqtlarda o'tkaziladigan saylovlardir. Ular besh yil mobaynida har qanday vaqtda o'tkazilishi mumkin, faqat vakillik organining vakolat muddati tugashiga olti oy qolganda, bo'shab qolgan joylarga saylov o'tkazilmasligi mumkin.

Navbatdan tashqari saylovlar Konstitutsiyaning 96-moddasida ko'zda tutilgan, ya'ni Prezident betobligi tufayli o'z vazifasini bajara olmagan taqdirda, Konstitutsiyaning 95-moddasidagi holatlar mavjud bo'lib, Oliy Majlis palatalari tarqatib yuborilganda o'tkaziladi. Bunday saylovlar uch oy mobaynida o'tkazilishi belgilangan.

"Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasiga asosan, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari lavozimi ko'rsatilgan nomzodlarni tegishli Kengashlar uch marta rad etsa, Prezident Kengashni tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda ham saylov uch oy muddat ichida o'tkaziladi.

Prezident saylovi, vakillik organlariga saylov, saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qilish orqali boshlanadi. "Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi va vakillik organlariga saylov to'g'risidagi qonunlarda saylov kampaniyasining boshlanganligini e'lon qilish vakolati Markaziy saylov komissiyasiga berilgan.

Saylov kampaniyasi boshlanganligi tegishli organlarning vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin e'lon qilinadi. Bu saylov jarayonlarining boshlanishi hisoblanadi.

Shuningdek, saylov tayinlash yo'li bilan ham o'tkaziladi, jumladan, takroriy ovoz berish, takroriy saylov yoki o'rni bo'shab qolgan okruglarda saylov o'tkazish, uning kuni, vaqti haqida qaror qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasiga takroriy ovoz berish haqida okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasini xabardor qiladi va ikki haftalik muddatda takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Takroriy saylov bir oy muddatda Markaziy saylov komissiyasi topshirig'iga binoan okrug saylov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Bo'shab qolgan o'rinlarga saylov Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov o'tkazishga bir oy qolganda tayinlanadi.

Mahalliy Kengashlarga takroriy ovoz berish, takroriy saylov yuqoridagi muddatlarda okrug saylov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Bo'shab qolgan o'rinlarga saylov esa, tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan saylov o'tkazilishiga kechi bilan bir oy qolganda tayinlanadi. Aslida, bu ishni tegishli kengashlarga saylov o'tkazuvchi komissiya zimmasiga yuklansa, to'g'ri bo'lar edi.

7-§. Saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish

Saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan, qonunlarda aniq muddatlari ko'rsatilgan tadbirlar tizimidan iborat. Bu saylov jarayoni ham deb ataladi.

Birinchi tadbir bu saylov jarayonining boshlanishiga asos soluvchi harakat, ya'ni saylov kampaniyasining boshlanganligini e'lon qilish (bo'shab qolgan o'rinlarga saylov tayinlash) hisoblanadi. O'zbekistonda barcha saylovlarda saylov kampaniyasining boshlanganligini e'lon qilish Markaziy saylov komissiyasining vakolatiga kiradi va u tegishli organlarning vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin e'lon qilinadi.

Ikkinchi. Saylov okruglari va saylov uchastkalarini tuzish.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovda mamlakat bo'yicha 135 ta okrug tuziladi, unda saylovchilarning soni teng bo'lishiga erishiladi.

Mahalliy Kengashlarga saylovda viloyatlar va Toshkent shahri uchun 60 tagacha okrug, tuman va shahar Kengashlari uchun saylovda 30 tagacha okrug tuziladi. Saylov okruglari saylovga kamida yetmish besh kun qolganda tuziladi. Qonunchilik palatasiga va Prezident saylovida okruglar, viloyatlar, Toshkent shahri hokimlari va Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi taqdimiga muvofiq Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov o'tkazishda okruglar shu Kengashga saylov o'tkazuvchi komissiya tomonidan saylovdan kamida yetmish besh kun qolganda e'lon qilinadi.

Saylov uchastkalari saylovchilarga qulay sharoit yaratish uchun saylovga kamida oltmish kun qolganda, qoida tariqasida, kamida yigirma nafar, ko'pi bilan uch ming saylovchiga tuziladi. Istisno tariqasida saylov uchastkalari olis joylarda, xorijdagi vakolatxonalarda saylovga kamida besh kun qolganda ham tuzilishi mumkin. Saylov uchastkalari okrug saylov komissiyalari tomonidan (Qonunchilik palatasi va Prezident saylovida) tuziladi.

Mahalliy Kengashlarga saylovlarda saylov uchastkalari tegishli Kengashga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov uchastkalari hokimliklar, harbiy qism qo'mondonlari taqdimnomasi asosida tuziladi. Qonunchilik palatasi, Prezident saylovida xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarda Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga asosan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov uchastkalari tuziladi va ularni qaysi okruglar tartibiga kiritish masalasini Markaziy saylov komissiyasi hal qiladi.

Uchinchi. Saylov komissiyalarini tuzish.

Qonunchilik palatasi va Prezident saylovida uch turdagi saylov komissiyalari ishtirok etadi, bular: Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi, uchastka saylov komissiyasi.

Markaziy saylov komissiyasi doimiy ishlovchi organ bo'lib, kamida 15 nafar a'zolardan iborat tarkibda Oliy Majlis tomonidan tuziladi. Uning raisi Prezident taqdimiga binoan komissiya a'zolari orasidagi komissiya majlisida saylanadi. Rais o'rinbosari, kotibi komissiya a'zolari orasidan komissiya majlisida saylanadi. Markaziy saylov komissiyasi saylovning barcha jarayonlariga rahbarlikni amalga oshiradi, majburiy harakterdagi hujjatlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasiga saylovda okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganda rais, rais o'rinbosari, kotib va kamida olti nafar boshqa a'zolardan iborat tarkibda tuziladi.

Qonunchilik palatasiga saylovda uchastka saylov komissiyalari okrug saylov komissiyalari tomonidan saylovga kamida qirq kun qolganda besh-o'n to'qqiz nafar a'zodan, shu jumladan rais,

rais o'rinbosari, kotibdan iborat tarkibda tuziladi. Agar komissiya yetti nafargacha a'zodan iborat bo'lsa, rais va kotib saylanadi.

Mahalliy Kengashlarga saylovda, viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi, tuman Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi, shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi komissiyasi va okrug saylov komissiyalari, uchastka saylov komissiyalari tuziladi.

Viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari (alohida-alohida) tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan saylovga kamida sakson kun qolganida komissiya raisi va olti-o'n to'rt nafar boshqa a'zolardan iborat tarkibda tuziladi, ular o'z vakolatlarini keyingi navbatdagi saylovlar e'lon qilinguncha davom ettiradi.

Komissiya raisi o'rinbosari va kotibi komissiya majlisida uning a'zolari orasidan saylanadi. Okrug saylov komissiyasi tegishli Kengashlarga saylov o'tkazuvchi komissiya tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganda komissiya raisi, rais o'rinbosari kotibi va olti-sakkiz nafar a'zolardan iborat tarkibda tuziladi.

Uchastka saylov komissiyasi tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida qirq kun qolganida besh-o'n to'qqiz a'zodan, shu jumladan rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. Agar komissiya tarkibi yetti nafargacha a'zodan iborat tartibda tuzilsa, rais va kotib saylanadi. Uchastka saylov komissiyasi a'zolari (hamma saylovlarda ham) ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Saylov komissiyalarining vazifalari, vakolatlarining tashkil bo'lish tartibi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunning 12–20-moddalarida, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunining 9–18-moddalarida, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 9–18-moddalarida belgilangan.

To'rtinchi. Deputatlikka nomzod ko'rsatish.

Qonunchilik palatasi deputatligiga, viloyatlar va Toshkent shahri Kengashlari deputatlariga nomzod ko'rsatish huquqiga faqat siyosiy partiyalar ega. Tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar bilan birga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham ega.

Siyosiy partiyalar saylovda ishtirok etishi uchun vakillik hokimiyati organlariga saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingunga qadar kamida to'rt oy oldin Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan bo'lishi kerak.

Deputatlikka nomzod ko'rsatish saylovga oltmish besh kun qolganda belgilanadi va qirq besh kun qolganda tugallanadi.

Siyosiy partiyalar nomzod ko'rsatishda ishtirok etish uchun qonunda belgilangan hujjatlarni Markaziy saylov komissiyasiga belgilangan muddatlarda topshirishi shart. Bu hujjatlarning orasida nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi imzo varaqalari uchun talablar qo'yilgan.

Qonunchilik palatasiga saylovda siyosiy partiyalar saylovda nomzod ko'rsatish uchun qirq ming nafar saylovchining imzosini to'plashi kerak. Bir ma'muriy-hududiy tuzilmada saylovchilarning ko'pi bilan sakkiz foizi imzosini to'plash mumkin.

Mahalliy Kengashga saylovda siyosiy partiyalardan imzo to'plash talab etilmaydi. Chunki, ularning Qonunchilik palatasi saylovi uchun to'plagan imzosi mahalliy saylov uchun ham yetarli hisoblanadi.

Siyosiy partiyalardan Qonunchilik palatasiga va mahalliy Kengashlarga saylovda har bir okrugda bittadan nomzod ko'rsatish mumkin.

Tuman va shahar Kengashlariga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tegishli hududda joylashgan har bir saylov okrugidan bittadan nomzod ko'rsatish huquqiga ega.

Nomzod ko'rsatish tartibi, ularni ro'yxatga olish, zarur hujjatlar, nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonunlarda belgilangan.

Nomzod ko'rsatish masalalari "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunning 24–26-moddalarida; Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish masalalari "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 20–26-moddalarida; mahalliy Kengashlarga deputatligiga nomzod ko'rsatish masalalari "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 20–24-moddalarida belgilangan.

Beshinchi. Saylovoldi tashviqoti. Deputatlikka nomzodlar faoliyatining kafolatlardi.

Saylovoldi tashviqot va targ'ibot ishlari saylov qonunlari bilan tartibga solingan va saylov jarayonining alohida tadbirlaridan hisoblanadi.

2012-yil 19-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunda "saylovoldi tashviqoti" tushunchasiga rasmiy ta'rif berildi. Unga ko'ra, saylovoldi tashviqoti – saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat.

Saylovoldi tashviqoti Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, mahalliy Kengashning tegishli Kengashlari deputatligiga nomzodlar tegishli Kengashlarga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlanadi.

Saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi yoki tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganida saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydi.

Vakillik organlari deputatligiga nomzodlar uchun ommaviy axborot vositalaridan teng foydalanish imkoniyati yuklatiladi.

Saylovchilar bilan uchrashuv uchun yig'ilishlarni siyosiy partiyalar mustaqil o'tkazadilar. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalar yig'ilishlar o'tkaziladigan joylarni talab darajasida jihozlashga ko'maklashadi. Yig'ilishlar ish vaqtidan boshqa vaqtlarda o'tkaziladi.

Saylov kuni tashviqot olib borishga yo'l qo'yilmaydi. Tashviqot-targ'ibot ishlarida nomzodlarning vakillari muhim rol o'ynaydi.

Prezident tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyada saylovlarda tenglikni ta'minlash maqsadida saylovoldi tashviqotining shakl, usullarini kuchaytirish, qonunlarda saylovoldi tashviqotining tushunchasiga aniq ta'rif berish, uning turlarini aniqlashti-

rish, bularni qonunlarda aks ettirish alohida ko‘rsatildi[1]. 2012-yil 19-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Saylov erkinligi yanada ta’minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Shu asosda qonunlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritiladi.

Saylov jarayonida, ayniqsa, tashviqot va targ‘ibot bosqichida nomzodlar o‘z faoliyatlarini erkin olib borishlari uchun ularning mehnat huquqlari, transportdan foydalanish huquqlari alohida muhofaza qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining roziligisiz Jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi yoki sud tomonidan beriladigan ma’muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Nomzodni majburiy yuborish, uni shaxsiy buyumlarini, yukini, transportini, turarjoy va xizmat binolarini ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Saylovoldi tashviqotida nomzodlarning huquqlari kafolatlandi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning 28, 28[1], 29-moddalarida, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 27–30-moddalarida, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 25–28-moddalarida ko‘rsatilgan. Xususan, 2012-yil 19-dekabr qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonuni 27-moddasi yangi tahrirda bayon etildi va 271, 272, 273, 274-moddalari bilan to‘ldirildi. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasi yangi tahrirda bayon etildi va 251, 252, 253, 254-moddalari bilan to‘ldirildi. Ushbu moddalar orqali caylovoldi tashviqoti tushunchasi aniq belgilandi. saylovoldi tashviqotini ommaviy axborot vositalari orqali, bosma, ko‘rgazmali, audiovizual va boshqa tash-

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 39-bet.

viqot materiallarini chiqarish hamda tarqatish orqali olib borish va saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi aniq belgilandi.

Bundan tashqari, mazkur qonunlarda deputatlikka nomzodlik maqomidan mahrum qilish, nomzodlikdan voz kechish jarayonlari ham belgilangan.

Oltinchi. Saylovchilar ro'yxatini tuzish va saylov byulletenlarini rasmiylashtirish.

Saylovchilar ro'yxati – uni tuzish, ro'yxat bilan saylovchilarni tanishtirish, ro'yxat yuzasidan kelishmovchiliklarni hal qilish munosabatlarini keltirib chiqaradi. Saylovchilar ro'yxati ovoz berish imkoniyatini beruvchi hujjat. Saylovchilar ro'yxati saylov uchastkalarida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Tuman, shahar hokimlari saylovchilarni hisobga olishni ta'minlaydi, ro'yxat tuzishga jamoatchilik vakillari jalb qilinishi mumkin. Harbiy qismlarda saylovchilarning ro'yxati qism qo'mondonligi taqdimi bilan, xorijdagi vakolatxonalarda, sog'liqni saqlash, dam olish muassasalarida saylovchilar ro'yxati tashkilot rahbarlari taqdim etgan ma'lumotlar bo'yicha tuziladi.

Saylov kuniga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan, ro'yxat tuzilayotgan vaqtda mazkur saylov uchastkasida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan fuqarolar ro'yxatga kiritiladi. Ro'yxat uchastka saylov komissiyasi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi. Ro'yxatda har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va manzili aks ettiriladi.

Ro'yxat saylovga o'n besh kun qolganda, kasalxona, dam olish uylari va boshqa uzoq joylarda yetti kun (Prezident sayloviga ikki kun) qolganda tanishish uchun saylov uchastkasida osib qo'yiladi.

Ro'yxat xususida shikoyat uchastka saylov komissiyasiga beriladi, Prezident saylovlarida shikoyat kechi bilan ikki kunlik muddatda, saylov arafasida esa, darhol ko'rib chiqilishi kerak. Vakillik organlariga saylovda shikoyat 24 soat ichida ko'rib chiqilishi kerak.

Komissiya xatti-harakati ustidan sudga shikoyat qilish ko'rsatilgan. Prezident saylovi to'g'risidagi qonunda sudga saylovdan kechi bilan uch kun oldin shikoyat qilinishi, sud shikoyati ikki kunlik muddatda ko'rib chiqilishi belgilangan.

Saylov jarayonida saylov byulletenlarini tayyorlash, yetkazib berish va rasmiylashtirish alohida bir tadbir deb qaraladi.

Saylov byulleteniga nomzodlar familiyasini, otasining ismi alifbo tarkibida kiritilib, uning tug'ilgan yili, egallab turgan lavozimi, nomzodlikka ko'rsatgan siyosiy partiya ko'rsatiladi.

Tuman, shahar Kengashiga saylovda nomzod nomzod ko'rsatgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ham ko'rsatiladi. Saylov byulletenida uni to'ldirish tartibi ham ko'rsatiladi.

Byulletenlar davlat tili, okrug saylov komissiyasining, viloyat, tuman, shahar kengashiga saylovda shu hududlar uchun saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasining qarori bilan okrugining ko'pchilik aholisi so'zlaydigan tilda nashr qilinadi.

Saylov byulletenlari saylovga kamida uch kun qolganda uchastka saylov komissiyasiga yetkazib beriladi. Olingan byulletenlar soni ro'yxatga kiritilgan saylovchilar sonidan yarim foizdan ko'p bo'lmasligi kerak. Byulletenning o'ng tomoni yuqori burchagiga uchastka saylov komissiyasining ikki a'zosi imzo qo'yadi, imzolar komissiya muhri bilan tasdiqlanadi. Shunday usulda rasmiylashtirilmagan byulletenlar sanab chiqishda hisobga olinmaydi.

Yettinchi. Ovoz berish va saylov natijalarini aniqlash – har qanday saylov jarayonining muhim bosqichi

Ovoz berish alohida jihozlangan, saylovchilar uchun qulay, yashirin ovoz berishni ta'minlaydigan darajada shakllantirilgan binolarda o'tkaziladi. Ularda yetarli miqdorda yashirin ovoz berish kabinalari bo'lib, ovoz berishga ulardan o'tib boradigan qilib joylashtiriladi.

Ovoz berish belgilangan kunda soat 6 dan 20 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish joyi, vaqti to'g'risida uchastka saylov komissiyasi saylovga kamida o'n kun qolganda saylovchilarni ogohlantiradi.

Xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarda, harbiy qismlarda, sanatoriy va dam olish uylarida, kasalxonalarda, borish qiyin bo'lgan yerlarda tuzilgan saylov uchastkalarida ro'yxatga kiritilgan saylovchilar ovoz berib bo'lgan bo'lsa, uchastka saylov komissiyasi istalgan vaqtda ovoz berish tugaganligini e'lon qilishi mumkin.

Saylov kuni ovoz berish binosida uchastka saylov komissiyasi a'zolarining uchdan ikki qismi hozir bo'lganda ochiladi. Komissiya

raisi a'zolar hozirligida saylov qutisini muhrlaydi, saylov byulletenlari va saylovchilar ro'yxatini komissiya a'zolari o'rtasida taqsimlaydi va ovoz berish boshlanganligini e'lon qiladi.

Ovoz beruvchi shaxs binoga kelib, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ko'rsatib, saylov byulletenini oladi va ro'yxatga u haqda imzo qo'yadi. Biror-bir sabab bilan saylovchi ro'yxatga kiritilmagan bo'lsa, u hujjati asosida ro'yxat ilovasiga kiritiladi.

Saylovchi byulletenni yashirin ovoz berish kabinasida to'ldiradi. Saylov byulleteni to'ldirilayotgan vaqtda uning oldida hech kim bo'lmasligi kerak. Saylovchi o'zi xohlagan nomzod familiyasi ro'parasiga belgi-krestik qo'yish bilan ovoz beradi va byulletenni qutiga tashlaydi.

Saylov kuni yashash joyida bo'lish imkoniyati yo'q saylovchi uchastka saylov komissiyasidan saylov varaqasini talab qilib olib, to'ldirib, konvertga solib, yopiq holda qoldirishi mumkin. Saylov varaqasi olganligi haqida u ro'yxatga imzo qo'yadi.

Saylovchi uzrli sabab bilan (kasallik) uchastkaga kela olmasa, uning turar joyida ovoz berish tashkil qilinadi.

Sakkizinchi. Saylov natijalarini aniqlash

Saylov natijasini aniqlashning birinchi bosqichida saylov uchastkasidagi ovozlar sanab chiqiladi.

Ovoz berish tugaganligi e'lon qilingach, saylov komissiyasi a'zolari hozirligida, varaqalar solingan konvertlar qutilarga tashlanadi, foydalanilmagan byulletenlar sanab chiqilib bekor qilinadi va quti ochiladi.

Komissiya saylovchilarning umumiy soni va byulleten olganlar sonini aniqlab, har bir nomzodga berilgan ovozlarni alohida-alohida sanab chiqadi.

Uchastka saylov komissiyasi:

- ovoz berishda ishtirok etganlarning umumiy sonini;
- har bir nomzodga yoqlab berilgan ovozlar sonini;
- haqiqiy emas deb topilgan byulleten va varaqalar sonini aniqlaydi.

Ovozlarni sanab chiqishda siyosiy partiyaning vakolatli vakili, kuzatuvchilar ishtirok etishi mumkin.

Sanab chiqish natijalari bayonnomada qayd qilinib, u rais, o'rinbosar, kotib va boshqa a'zolar tomonidan imzolanadi.

Bayonnomani bir nusxasi 48 soatdan kam bo'lmagan muddatga uchastkada osib qo'yiladi va bayonnoma okrug saylov komissiyasiga yuboriladi.

Okrugda saylov natijalari uchastka saylov komissiyasi taqdim etgan bayonnoma asosida aniqlanadi. Okrug saylov komissiyasi:

- okrugdagi saylovchilarning umumiy sonini;
- saylov byulleteni va varaqalarni olganlar sonini;
- ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar sonini;
- har bir nomzodga yoqlab berilgan ovozlar sonini;
- haqiqiy emas deb topilgan byulleten va varaqalar sonini aniqlaydi.

Bular bayonnomada ko'rsatiladi va u rais, o'rinbosar, kotib hamda barcha a'zolar tomonidan imzolanadi hamda tegishlicha Markaziy saylov komissiyasiga yoki viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalariga yuboriladi.

Qonunchilik palatasiga saylovlarda ham Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyasi bayonnomasi asosida Prezident saylovidagi kabi ishlarni bajaradi, faqat u yerda deputatning saylanishiga bir okrugdagi natija ta'sir qiladi.

Okrug bo'yicha ovoz berishda ishtirok etganlarning yarmidan ko'pining ovozini olgan nomzod saylangan hisobalandi.

Saylov okruglari yoki ayrim uchastkalarda saylov natijalariga ta'sir qiluvchi qonun buzilish hollari uchrasa, Markaziy saylov komissiyasi shu joyda saylovni haqiqiy emas deb topishi mumkin. Bunday qaror chiqqan kundan e'tiboran o'n kun ichida Prezidentlikka nomzod, deputatlikka nomzod Respublika Oliy sudiga shikoyat qilishi mumkin

Markaziy saylov komisssiyasi saylov yakunlari bo'yicha bayonnoma tuzadi.

Mahalliy Kengashga saylovning yashirin natijalari tegishlicha viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarida aniqlanadi.

Mazkur komissiyalar okrug saylov komissiyalarining bayonnomasi asosida Markaziy saylov komissiyasi qilgan ishlarni amalga oshiradi va bayonnoma tuziladi.

Barcha saylovlarda ham saylovni o'tgan deb topish, haqiqiy deb topish uchun ro'yxatga olingan saylovchilarning kamida o'ttiz uch foizi ishtirok etgan bo'lishi kerak.

Saylov jarayonida takroriy ovoz berish yoki takroriy saylov o'tkazilishi mumkinligi e'tiborga olingan.

Takroriy ovoz berish saylovda nomzodlar ikkitadan ortiq bo'lib, ularning birortasi ham ovoz berishda ishtirok etganlarning yarmidan ko'pining ovozini ololmagan bo'lsa, eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod bo'yicha ikki hafta ichida o'tkaziladi. Takroriy saylovda ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning nisbatan ko'proq ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi va bu saylovda saylovchilarning ishtirok etish foizi hisobga olinmaydi.

Takroriy saylov quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilsa;
- nomzodlar bitta bo'lib, u zarur miqdordagi ovozni to'play olmagan bo'lsa;
- deputat saylovida saylov okrugida saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, agar takroriy ovoz berish deputat saylanganligini aniqlash imkoniyatini bermasa; okrug bo'yicha ikki nomzod ovozga qo'yilib ulardan birortasi ham yetarli ovoz ololmagan bo'lsa.

Qonunchilik palatasiga va mahalliy Kengashlarga saylovda takroriy ovoz berish va takroriy saylov tegishli okruglarda o'tkaziladi. Takroriy saylov o'tkazish avvalgi saylov komissiyalariga topshirilishi yoki yangi komissiya tuzib o'tkazilishi mumkin. Takroriy saylov kechi bilan bir oy ichida o'tkaziladi. Bunda barcha saylov jarayonidagi tadbirlar qayta o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasiga saylov jarayonida qo'shimcha bir tadbir, bosqich mavjud bo'lib, u Qonunchilik palatasiga Ekologik harakatdan deputat saylash hisoblanadi[1].

Umumiy saylov jarayonining yana bir bosqichi (tadbiri) – deputatlarni ro'yxatga olish hamda saylov yakunlarini e'lon qilishdir.

Saylov jarayonining oxirgi bosqichi – saylov yakunlarini e'lon qilish hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlarini Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olib, bu haqida deputatlarni xabardor qiladi. Deputatlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinishi

1 Bu haqda, ya'ni senatorlar saylovi to'g'risida darslikning "Oliy Majlis" bobida kengroq to'xtalamiz.

bilan deputatlik maqomiga ega bo'ladi. Markaziy saylov komissiyasi saylov yakunlari to'g'risidagi axborotni, deputatlar ro'yxati va ular haqidagi ma'lumotni o'n kundan kechiktirmay matbuotda e'lon qiladi.

Viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan ro'yxatga olinib, ma'lumot ommaviy axborot vositalarida shu komissiyalar tomonidan e'lon qilinadi.

8-§. Saylovlarni moliyalashtirish. Bo'shab qolgan o'rinlarga deputat va senatorlar saylash

O'zbekiston saylov tizimi va saylov jarayonida o'z o'rniga ega, lekin umumiy saylov jarayoni doirasidan chetga chiqadigan saylov munosabatlari ham mavjud. Masalan, saylovlarni moliyalashtirish yoki bo'shab qolgan o'rinlarga saylov o'tkazish.

Moliyalashtirish saylov qonunchiligida ko'rsatilgan. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining moliyaviy ta'minoti" deb nomlangan. Unga asosan, saylov bilan bog'liq barcha harakatlar davlat mablag'i hisobidan o'tkaziladi. Prezidentlikka nomzodlarni boshqa mablag'lar hisobidan moliyaviy ta'minlash va o'zga tarzda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi. Respublikaning siyosiy partiyalari, jamoat birlashmalari, korxona, tashkilot, muassasa va fuqarolari o'z mablag'larini saylov uchun ixtiyoriy ravishda berishlari mumkin. Bu mablag'larni Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasi davrida foydalanish uchun qabul qiladi.

Xuddi shunday qoida, endi u deputatlikka nomzodlarga taalluqli "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 64-moddasida, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 48-moddasida belgilangan.

Bu moddalarning mazmunidan kelib chiqilsa, birinchi, saylovning xarajatlari davlat hisobidan, uning budjetidan qoplanadi, ikkinchi, nomzodlarni boshqacha tarzda qo'llab-quvvatlash mum-

kin emas, uchinchi, saylov o'tkazish uchun ixtiyoriy mablag' o'tkazish mumkin, lekin bu biror partiya yoki nomzod uchun emas, umuman, saylov uchun bo'ladi, undan Markaziy saylov komissiyasi teng foydalanishni belgilaydi[1].

Bu tartibning, o'rnatilishi saylanadigan Prezident va deputatlar hech qanday kuchlarga, tashkilotlarga qaram bo'lib qolmasligini ta'minlaydi.

Siyosiy partiyalarning vakillik organlariga saylovda ishtirok etilishini moliyalashtirish tartibi "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonuning 8-moddasida belgilangan. Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida mazkur moddada siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining bir deputatlikka nomzod hisobiga to'g'ri keladigan miqdori Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Davlat mablag'lari shu partiyadan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatilgach ro'yxatga olingan nomzodlar soniga muvofiq hammada siyosiy partiyaning hisob-kitob varag'iga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Qonunning shu moddasida ajratilgan mablag'lardan siyosiy partiyalar qanday va nima uchun foydalanishi ham ko'rsatib qo'yilgan.

Saylov yakunlari bo'yicha siyosiy partiya Qonunchilik palatasida partiya fraksiyasi tuzish uchun zarur miqdorda (9 kishi) deputatlik o'rnini ololmasa, shu siyosiy partiyaga saylovda ajratilgan davlat mablag'lari partiyaning boshqa mablag'lari hisobidan davlat budjetiga qaytarilishi kerak.

Saylov tizimida saylov jarayoniga bog'liq, lekin o'zi alohida vaqtlarda vujudga keladigan, hamda o'zining tegishli bosqichlardan iborat jarayoni mavjud bo'lgan voqea – saylov instituti bo'shab qolgan o'rinlarga deputatlar saylovini o'tkazishdir.

Vakillik organlarining vakolat muddati besh yil. Shu muddat davomida turli sabablar bilan deputatlik o'rinlari bo'shab qolishi mumkin, masalan:

---

1 Mahalliy Kengashlarga saylovlarda ixtiyoriy ajratilgan mablag'larni viloyat, tuman va shahar komissiyalari qabul qilib olib, teng taqsimlash choralarini ko'radi.

- deputat vafot etsa;
- deputatning vakolati haqiqiy emas deb topilsa;
- deputat chaqirib olinsa;
- boshqa mamlakat fuqaroligini olsa yoki yashash uchun boshqa mamlakatga ketsa;
- deputatlikni istisno qiladigan boshqa ishga o'tsa, Qonunchilik palatasi deputati boshqa haq to'lanadigan ishlarga tayinlansa, saylansa deputat vakolati muddatidan oldin to'xtagan hisoblanadi.

Prezidentning vakolati Konstitutsiyaning 96-moddasida ko'zda tutilgan holatda muddatidan avval to'xtatilishi mumkin.

Yuqoridagi holatlar yuzaga kelsa Markaziy saylov komissiyasi Prezident saylovini va alohida okruglar bo'yicha Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini tayinlaydi. Mahalliy Kengash deputatlari saylovi esa, tegishlicha viloyat, tuman, shahar Kengashi tomonidan saylov o'tkazilishiga bir oy qolganda tayinlaydi. Prezident saylovi uch oy ichida o'tkaziladi. Saylovlar saylov qonunlarining barcha talablariga rioya etilgan holda o'tkaziladi. Deputatlar saylovi bir oy ichida o'tkazilishi munosabati bilan, saylov tadbirlari qisqartirilgan muddatda o'tkaziladi. Bunda okrug saylov komissiyasi saylovga yigirma besh kun, uchastka saylov komissiyalari esa, o'n besh kun qolganda tuziladi. Deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish saylovga o'n besh kun qolganda tugallanadi. Deputatlarning vakolat muddati tugashiga olti oy qolganda o'rin bo'shab qolsa, shu o'ringa yangi deputat saylovi o'tkazilmasligiga ham mumkin.

O'rni bo'shab qolgan okruglarda saylov tashkil qilish va o'tkazish, nomzodlar ko'rsatish, tashviqot-targ'ibot ishlari ro'yxatini tuzish, saylovchilarni ogohlantirish, ovoz berishni tashkil etish, saylov natijalarini aniqlash saylov qonunchiligida belgilangan tartiblar asosida o'tkaziladi.

9-§. Deputat va senatorlarni chaqirib olish

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari, Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolarining vakolatini muddatidan avval tugatish yo'llaridan biri, ularni muddatdan avval chaqirib olishdir.

Deputat va senatorlarni muddatdan avval chaqirib olish masalasi 2004-yil 2-dekabrdagi "Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida"gi Qonun[1] bilan tartibga solinadi.

Qonunga asosan, deputatni, senatorni chaqirib olishga quyidagilar sabab bo'ladi:

- deputatning, senatorning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini jinoiy, fuqaroviy, ma'muriy hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa turdagi javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan tarzda buzganligi;

- deputatning, senatorning axloq, deputatlik odobining umum e'tirof etilgan normalarini qo'pol ravishda buzuvchi va deputat, senator nomiga dog' tushiruvchi hamda davlat hokimiyati vakillik organlarining obro'siga putur yetkazuvchi harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etilganligi;

- deputatning, senatorning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'z vazifalarini muntazam ravishda uzrli sabablarsiz bajarmaganligi, shu jumladan tegishli xalq deputatlari Kengashlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining majlislarida, ularning organlari ishida ishtirok etmaganligi, ularning topshiriqlarini bajarmaganligi.

Qonun hujjatlarini, axloq va deputatlik odobi normalarini buzgan, o'z vazifalarini muntazam ravishda bajarmayotgan deputatni, senatorni chaqirib olish zarurligi to'g'risidagi qaror tegishlicha xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senat (Senat Kengashi) tomonidan qabul qilinadi.

Deputatni, senatorni chaqirib olish masalasini ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar va prokuratura tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan so'rov ham asos bo'lishi mumkin.

Deputatning, senatorning qonun hujjatlarini buzganligi dalillariga oid materiallar xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 230–233-betlar.

Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senat (Senat Kengashi) tomonidan tegishlicha viloyat, tuman, shahar prokuroriga yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga dastlabki tarzda ko'rib chiqish va ushbu masala yuzasidan xalq deputatlari Kengashining, Qonunchilik palatasining yoki Senatining deputatlik odobi qo'mitasiga (komissiyasiga) xulosa taqdim etish uchun topshiriladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senat (Senat Kengashi) deputatlik odobi qo'mitasining (komissiyasining) va prokurorning xulosalarini eshitish yakunlari bo'yicha deputatni, senatorni chaqirib olish haqidagi masalaning qo'yilishi asosliligi yoxud asossizligi to'g'risida qaror chiqaradi.

Chaqirib olish to'g'risidagi masalasi qo'yilgan deputatning, senatorning hamda mazkur masalaga doir materiallarni o'rgangan va tayyorlagan prokurorning fikri xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining, Qonunchilik palatasining yoki Senatning (Senat Kengashining) majlisida eshitilishi mumkin.

Chaqirib olish to'g'risidagi taklif asosli deb e'tirof etilgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organining tegishli qarori deputatni, senatorni chaqirib olish bo'yicha ovoz berishni tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi.

Tegishli davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisida saylangan senator, eng avvalo, tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining deputati bo'lib, u tegishli davlat hokimiyati vakillik organining deputati sifatida chaqirib olinadi.

Markaziy saylov komissiyasi Senatning senatorni chaqirib olish zarurligi to'g'risidagi qaroriga muvofiq senator tegishli davlat hokimiyati vakillik organi deputati etib saylangan saylov okrugida ovoz berishni tashkil etadi. Bunda ovoz berish deputatni chaqirib olish bo'yicha o'tkaziladi.

Tegishli davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisida saylangan senator deputatlik maqomini yo'qotganidan keyin, tegishincha deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish natijalari ro'yxatga olingan paytdan e'tiboran senatorlik maqomini ham yo'qotadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq deputatni chaqirib olish u saylangan okrug saylovchilarining yashirin ovoz berishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berishni Markaziy saylov komissiyasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida va deputatni saylash uchun belgilangan tartibda tashkil etadi.

Markaziy saylov komissiyasi davlat hokimiyati vakillik organlarining deputatni chaqirib olish masalasi bo'yicha ovoz berishni o'tkazish zarurligi to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida qonunga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining deputatini, shuningdek Qonunchilik palatasi deputatini chaqirib olish bo'yicha okrug komissiyasi tuzilishini ta'minlaydi hamda ovoz berish vaqti va joyini tayinlaydi. Markaziy saylov komissiyasi bu haqda tegishincha xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashini, Qonunchilik palatasini yoki Senatni xabardor qiladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senat (Senat Kengashi) deputatni, senatorni chaqirib olish uchun ushbu Qonunning 1-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lgan materiallar tushgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatdan kechiktirmay deputatga, senatorga tushgan hujjatlarning nusxalarini ilova qilgan holda yozma xabarnoma yuboradi.

Chaqirib olish haqidagi masalasi qo'yilgan deputat saylovchilar bilan uchrashishga, saylovchilarning yig'ilishlarida, davlat hokimiyati vakillik organlarining sessiyalari va majlislarida chaqirib olinishi haqidagi masala ko'rib chiqilayotganda ishtirok etishga hamda o'zini himoya qilib so'zga chiqishga haqli.

Deputatni, senatorni chaqirib olish haqidagi masala qo'yilishiga sabab bo'lgan yolg'on axborotni bilaturib taqdim etgan shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Deputatni chaqirib olish ishlarini tashkil etish tegishli okrug komissiyasi zimmasiga yuklanadi.

Deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berishni o'tkazish uchun ovoz berishga kechi bilan yigirma besh kun qolganida ovoz

berish uchastkalari va kechi bilan yigirma kun qolganida uchastka komissiyalari tuziladi.

Tegishli saylov okrugi saylovchilarining ro'yxatlari ovoz berish kuniga kechi bilan o'n kun qolganida hamma tanishib chiqishi uchun taqdim qilinadi.

Ovoz berish uchastkalarini va komissiyalarni tuzish, komissiyalarning vakolatlari, saylovchilarning ro'yxatlarini tuzish, ovoz berishni o'tkazish "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi va "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Deputatni chaqirib olish bo'yicha yashirin ovoz berish byulletenida uning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, lavozimi (mashg'ulotning turi) ko'rsatiladi. Byulletenga alohida-alohida gorizontal qator qilib quyidagi matn joylashtiriladi. "Deputatning chaqirib olinishini yoqlayman" va "Deputatning chaqirib olinishiga qarshiman". Har bir qatorning ro'parasida, o'ng tomonga bo'sh kvadrat joylashtiriladi.

Saylovchi deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish chog'ida deputatning chaqirib olinishini yoqlashidan yoki uning chaqirib olinishiga qarshi ekanligidan kelib chiqib tegishli bo'sh kvadratga belgi-krestik qo'yadi.

Okrug va uchastka komissiyalarining vakolatlari muddati deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish yakunlari chiqarilganidan keyin tugaydi.

Ovoz berish natijalari deputatni chaqirib olish bo'yicha okrug komissiyasining majlisida, ovoz berish o'tkazilgan kunning ertasiga aniqlanib, bayonnomaga kiritiladi, bayonnoma tegishincha Markaziy saylov komissiyasiga, viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasiga yuboriladi.

Agar ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning yarmidan ko'pi deputatning chaqirib olinishini yoqlab ovoz bergan bo'lsa, u chaqirib olingan hisoblanadi.

Agar ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning yarmidan kami deputatning chaqirib olinishini yoqlab ovoz bergan bo'lsa, shuningdek ovoz berishda ovoz berish ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning o'ttiz uch foizidan kami ishtirok etgan bo'lsa, deputatni chaqirib olish rad qilingan hisoblanadi.

Deputatning chaqirib olinishini yoqlab va chaqirib olinishiga qarshi berilgan ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, deputat o'z vakolatlarini saqlab qoladi.

Markaziy saylov komissiyasi yoki tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi ovoz berish yakunlariga ta'sir qilgan qoidabuzarlikka yo'l qo'yilganligi tufayli ovoz berish natijalarini haqiqiy emas deb topishi mumkin. Bunday holda takroriy ovoz berish tayinlanib, u ushbu Qonun talablariga rioya etilgan holda kechi bilan ikki haftalik muddat ichida o'tkaziladi.

Markaziy saylov komissiyasi, tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi okrug komissiyasidan olingan bayonnoma asosida deputatni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish natijalarini besh kunlik muddat ichida ro'yxatga oladi hamda ommaviy axborot vositalari orqali xabar qiladi.

Qonunchilik palatasi deputatini chaqirib olish bo'yicha ovoz berish yakunlari to'g'risida Markaziy saylov komissiyasi Qonunchilik palatasini xabardor qiladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatini chaqirib olish bo'yicha ovoz berish yakunlari to'g'risida tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tegishli davlat hokimiyati vakillik organini va Markaziy saylov komissiyasini xabardor qiladi.

Deputatning vakolatlari, agar ovoz berish natijasida chaqirib olingan bo'lsa, uni chaqirib olish bo'yicha ovoz berish natijalari ro'yxatga olingan paytdan e'tiboran muddatdan ilgari tugatilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan senatorni chaqirib olish Qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan senatorni chaqirib olish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan amalga oshiriladi.

Deputat va senatorlarni chaqirib olishdagi qonun buzilishlar ustidan Markaziy saylov komissiyasi yoki tegishli viloyat, tuman, shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi komissiyalarga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

Deputatni, senatorni chaqirib olish bilan bog'liq hujjatlar umumiy saylovdagi kabi davlat budjeti hisobidan qoplanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Saylovlarning ahamiyati qanday?

2. Qaysi organlar saylov yo'li bilan saylanadi?

3. Saylov tizimi nima?

4. Saylov huquqi nima?

5. Saylov huquqining prinsiplari nimalardan iborat?

6. Saylov jarayoni nima?

7. Saylov jarayoni subyektlari kimlar?

8. Saylov o'tkazish muddatlari qanday?

9. Saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qilish asoslari nima?

10. Saylov senzlari nima, saylanuvchilarga qanday talablar qo'yiladi?

11. Mojoritar va proporsional saylov nima?

12. Saylov jarayonlari qanday bosqichlardan iborat?

13. Okrug, uchastkalar qanday tuziladi?

14. Saylov komissiyalari tizimi qanday, ular qanday tuziladi?

15. Saylov komissiyalarining vakolatlari qanday?

16. Prezidentlikka, deputatlikka nomzod ko'rsatish tartibi qanday?

17. Tashviqot-targ'ibot qanday olib boriladi?

18. Saylovchilar ro'yxati qanday tuziladi?

19. Saylov byulletenlari qanday tayyorlanadi, rasmiylashtiriladi?

20. Ovoz berish qanday tashkil qilinadi?

21. Saylov natijalarini aniqlash tartibi qanday?

22. Takroriy ovoz berish, takroriy saylov nima?

23. Saylanganlarni ro'yxatga olish va natijalarni e'lon qilish tartibi qanday?

24. O'rni bo'shab qolgan o'rinlarga saylov qanday o'tkaziladi?

25. Deputat, senatorlarni chaqirib olish asoslari, tartibi qanday?

XXI bob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

1-§. O‘zbekistonda Prezidentlik institutining vujudga kelishi va rivojlanishi

Dunyo miqyosida prezidentlik institutining vujudga kelishi demokratik kuchlarning g‘alabasi sifatida qaraladi. Chunki, Prezident davlat boshlig‘i sifatida paydo bo‘lgach, xalq o‘z davlat boshlig‘ni o‘zi saylab qo‘yadigan bo‘ldi yoki prezident xalq saylagan vakillar tomonidan saylanishi va bunday mamlakatlarda davlat boshlig‘i lavozimini merosga qoldirish tartibi barxam topdi. Hozirgi vaqtda BMTga a’zo bo‘lgan 192 davlatning 143 tasida prezidentlik lavozimi mavjud. Shuning o‘zi ham dunyo xalqlari o‘z taqdirini Prezident bilan bog‘laganligini ko‘rsatadi.

Turli mamlakatlarning rivojlanishida, jahon hamjamiyatida o‘rin tutishida mamlakat prezidentlari ijobiy rol o‘ynaydi. Jorj Vashington, F. Ruzvelt, Mustafo Ota Turk, Sharl De Gol, I. Tito kabi prezidentlar mamlakatlarning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib, xalqning, millatning iftixori, milliy qahramoniga aylangan.

O‘zbekistonda Prezidentlik institutining vujudga kelishi ham O‘zbekistonning mustaqilligi bilan bog‘liq va taraqqiyoti kafolatlaridan hisoblanadi.

Sobiq ittifoqning oxirgi yillaridagi ijtimoiy hayotning hamma sohalaridagi tartibsizliklar, inqirozlarga uchrash O‘zbekistonda ham yaqqol sezila boshladi.

Hamma sohalarning mutlaqo izdan chiqib ketishi respublika miqyosida yangicha boshqaruvga o‘tishni, Respublika bilan ittifoq o‘rtasida yangicha munosabat o‘rnatishni taqozo eta boshladi. Buning uchun Respublikada aholini birlashtira oladigan, markaz hujumlariga bardosh beradigan, markazning roziligisiz, ishtirokisiz vujudga keladigan davlat boshlig‘i lavozimiga ehtiyoj sezildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston shu paytda ham mustaqil respublika – davlat hisoblansa-da, davlat boshlig‘i degan lavozim (bunday lavozimlar ittifoqda ham yo‘q edi) bo‘lmagan. O‘zbekiston Konstitutsiyasi barcha davlatlar konstitutsiyalari o‘rnatgan davlat boshlig‘i degan institutni chetlab o‘tgan edi. Davlat boshlig‘i

vazifasini har doim kommunistik partiya rahbarlari bajarib kelgan edi. Bu hech bir qonunda qayd qilinmagan edi. Shuning uchun bo'xronli 90 yillarning oxirida har qanday mamlakatda ligitim davlat boshlig'i lavozimi bo'lishini davrning o'zi taqazo etdi.

Shuning uchun avval sobiq ittifoqda davlat boshlig'i – prezident lavozimi o'rnatildi va 1990-yil mart oyida O'zbekistonda sobiq ittifoqdagi respublikalar orasida birinchi bo'lib Prezidentlik lavozimi – instituti o'rnatildi.

Bu markazning roziligini olmasdan, uning taqiqlashlariga qaramasdan qilingan katta voqea bo'ldi va aytish mumkinki, Prezidentlik lavozimining o'rnatilishi O'zbekistonning mustaqillik yo'lidagi eng salmoqli va to'g'ri qadami bo'ldi.

1991-yil dekabr oyida O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov umumxalq tomonidan, muqobillik asosida Prezident etib saylandi.

Shundan keyin mamlakatda boshqaruvni barqarorlashtirish, ijro hokimiyatini kuchaytirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonni yangi Konstitutsiya loyihasi ustida ishlashi jadallashtirildi.

1991-yil 31-avgustda mamlakat Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti minbarida O'zbekistonni mustaqil davlat deb e'lon qildi. Bu katta tarixiy voqea bo'lib, o'zbek xalqining azaliy orzusi ushalishi edi. Shundan keyin Prezident rahbarligida O'zbekistonning mustaqilligini amalda saqlash chora-tadbirlari ko'riladi. Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mamlakat qurolli kuchlari tashkil qilinib, mustahkamlanib bordi. Mamlakatni iqtisodiy tizimi mustahkamlandi. Mamlakat hududidagi barcha mulklar respublika mulki deb e'lon qilindi. Hokimiyat tizimida rivojlangan mamlakatlar tajribasi qo'llanilib kelingan hokimiyat bo'linishi prinsipi qo'llanila boshlandi.

Prezident rahbarligida qilingan yana bir muhim voqea bu – mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish bo'ldi. Konstitutsiya O'zbekistonning davlat suverenitetini mustahkamladi. Xalq hokimiyatchiligini o'rnatdi, inson va uning huquqlarini oliy qadriyat deb belgiladi. Konstitutsiyada O'zbekiston demokratik, suveren respublika deb e'tirof etildi. Davlat boshlig'i

sifatida Prezident belgilandi va Konstitutsiyada Prezidentni saylash, Prezident nomzodiga qo'yiladigan talablar, Prezident vazifasi va vakolatlari belgilab qo'yildi. O'zbekiston Prezidentiga taalluqli asosiy masalalar Konstitutsiyaning "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti" degan XIX bobida mustahkamlandi. Unda Prezident davlat va ijroiya hokimiyati boshlig'i, degan qoida bilan bir qatorda, Prezident bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining ham Raisi, degan qoida o'rnatildi.

O'tish davrida, ayniqsa, ijroni ta'minlashda bu to'g'ri yo'l edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'lum davrda shu mavqeni egallab, O'zbekistonda barqarorlikni ta'minlashga, milliy totuvlikka erishishda, iqtisodiy tizimga bozor munosabatlarini joriy qilishda, mamlakat xavfsizligini, fuqarolar manfaatini himoya qilish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallashiga, xalqaro huquqning to'la huquqli subyekti sifatida e'tirof etilishiga katta hissa qo'shdi.

Mamlakatimiz XXI asrga qadam qo'yar ekan, jamiyatni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlarini Prezident rahbarligida belgilab oldi. Ustuvor yo'nalishlardan biri qilib – mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish belgilandi[1].

Erkinlashtirish davlat qurilishi va boshqaruvidagi islohotlarning asosini tashkil etib, u boshqa hokimiyat tarmoqlariga, shu jumladan, Prezidentning maqomiga ham taalluqli bo'ldi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilgan voqealardan biri 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendum va uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan qonun bo'ldi. Shular asosida Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli Oliy Majlis ikki palatali tuzilishda tashkil qilinadigan bo'ldi. Prezidentning vakolati besh yildan yetti yilga o'zgartirildi. Prezidentning ayrim vakolatlari Oliy Majlis Senatiga o'tkazildi va Konstitutsiyadan Prezidentning Vazirlar Mahkamasi Raisi haqidagi qoida chiqarildi.

Bularning barchasi demokratlashtirishning amaliy ifodasi edi.

2007-yil 11-aprelda "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 15-bet.

siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Qonun va Konstitutsiyaning 89-moddasi, 93-moddasining 15-bandi, 102-moddasi ikkinchi qismiga kiritilgan o‘zgartirishlar Prezidentning maqomiga ham sezilarli ta’sir qildi. O‘zgartirishlar asosida Prezidentning ijro hokimiyatiga boshchilik qilishi bekor bo‘lib, Prezident davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi, degan qoida kiritildi. Bundan tashqari, yuqorida tilga olingan qonunga asosan, Prezident Bosh vazir nomzodini Oliy Majlisga Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya guruhlari bilan maslahatlashib, viloyat (tuman, shahar) hokimlarini viloyat Kengashlariga tasdiqlash uchun viloyat (tuman, shahar) kengashidagi partiya guruhlari bilan maslahatlashib taqdim qilish tartibi o‘rnatildi.

Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida qilgan ma’ruzasida Prezidentimiz davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalalariga to‘xtalib: “Hozirgi paytda mamlakatimizda aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko‘ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subyekti, ya’ni davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda”[1], – deb qayd qildi va Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish haqida aniq ko‘rsatmalar berdi.

Ushbu konsepsiya asosida 2011-yil 18-aprelda Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Prezidentning maqomiga ham taalluqli bo‘ldi. Ularga asosan, saylovlarda parlamentda eng ko‘p o‘rin olgan yoki bir xil o‘rin olgan siyosiy partiyalar Bosh vazir lavozimiga nomzodni tavsiya etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqqanidan keyin o‘n kun muddat ichida uni

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 10-bet.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishga asosan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik bildirilib, u iste’foga chiqqan taqdirda, Prezident Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyalari va deputatlar guruhi bilan maslahatlar o‘tkazgandan so‘ng, ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun Oliy Majlisga taqdim qiladi. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida, Prezident Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiritilgan har qanday masala yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin degan qoida ham endi barham topdi.

Bu qilingan ishlar natijasida Prezident Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi vakolatlarining taqsimlanishida yanada mutanosiblik vujudga keldi.

2011-yil 12-dekabrdagi Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi qonunga asosan Prezidentning vakolat muddati yetti yildan besh yilga o‘zgartirildi. Bu demokratik talablar, jahon tajribasiga mos bo‘ldi.

Prezident lavozimi vujudga kelgandan boshlab to hozirgacha: Prezidentning Vazirlar Mahkamasi Raisi, ijro hokimiyati boshlig‘i ekanligining bekor qilinishi, Prezidentning ayrim vakolatlari Senatga o‘tkazilishi, aslo O‘zbekistonda Prezident hokimiyatining susaytirilishni nazarda tutmaydi. Aksincha, islohotlar natijasida Prezidentning barcha hokimiyat tarmoqlari faoliyatini yo‘naltirish, ularning hamkorligini ta’minlash bo‘yicha vakolatlari kuchaydi. Vazirlir Mahkamasi, Bosh vazir mas’uliyatining oshishiga olib keldi. Hokimiyat bo‘linishi prinsipining amaliy ifodasi kuchaydi. Prezidentning barcha hokimiyat tarmoqlarida holiligi (avval u ijro

hokimiyatining boshlig'i sifatida hokimiyat bo'linishida ishtirok etar edi) barcha hokimiyat tarmoqlari mavqeining teng bo'lishini ta'minladi.

O'zbekistonda Prezident lavozimi o'rnatilishi va Prezident I. Karimovning faoliyati tufayli mamlakatimizda amalga oshirilgan quyidagi ishlarni alohida ko'rsatish mumkin.

1. Mamlakat mustaqilligiga erishildi, uni himoyalash mexanizmlari yaratildi.

2. Mamlakat Konstitutsiyasi va u asosida milliy qonunchilik tizimi yaratildi.

3. Mamlakat iqtisodiga bozor munosabatlari tamoyillari kiritildi, iqtisodiy negiz yaratildi.

4. Demokratik prinsiplar asosida hokimiyat organlari tizimi yaratildi. Turli hokimiyat tarmoqlarining hamkorlikda ishlashi ta'minlandi.

5. Milliy, tarixiy an'anamiz, qadriyatlar tiklandi. Ular turmush tarzining hayotiy omillariga aylantirildi.

6. Mukammal ta'lim tizimi yaratildi.

7. Kuchli ijtimoiy himoya tizimi vujudga keldi.

8. O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Bularning real voqea ekanligini mamlakatimizda 22 yildan buyon osoyishtalik, barqarorlik, milliy totuvlik hukm surayotganligidan ham ko'rishimiz mumkin.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hokimiyat tizimidagi o'rni (Prezident maqomi)

Davlatchilik tajribasida Prezident lavozimi keng qo'llaniladi. Ularning davlat hokimiyat tizimidagi o'rni, maqomi har xil. Prezident institutiga xos umumiy xususiyatlar bilan birga, bir guruh davlatlarda yoki alohida davlatlarda Prezidentlikning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Prezidentlikka xos umumiy xususiyatlar ularning respublika shaklidagi davlatga xosligi, ularning saylanishi asosida vujudga kelishi bo'lsa, o'ziga xos xususiyatlari – qanday saylanishi, davlat boshlig'i ekanligi yoki davlat va ijro hokimiyati boshlig'i ekanligi,

vakolat muddatining har xilligi, yangi vakolatlarning kengligi yoki torligidir.

Prezidentning huquqiy maqomiga uning qaysi yo'l bilan saylanishi (xalq tomondanmi, vakillik organlari yoki maxsus organlar tomonidanmi), faqat davlat boshlig'i yoki davlat va ijro hokimiyati boshlig'i ekanligi, davlat boshqaruvning Prezidentlik, parlamentar, aralash shakllari ta'sir qiladi va bular Prezidentning hokimiyat tizimidagi o'rnini aniqlashda ham asosiy mezon bo'ladi.

Umuman, Prezidentning maqomining prezidentlik vakolatining vujudga kelishi va tugashi, vakolatlari, vazifasi, huquq va majburiyati (mas'uliyati), faoliyatining kafolatlarini belgilaydi. Prezidentning maqomi uning qanday vazifaga (davlat boshlig'i, ijroiya hokimiyati boshlig'i, hukumat boshlig'i) egaligiga bog'liq.

O'zbekistonda prezident instituti (lavozimi) joriy qilinar ekan, u yoki bu davlatga o'xshash uchun harakat qilishga yoki prezidentlik eng yaxshi yo'lga qo'yilgan davlatlarning tajribasi shundayligicha olinmadi. Yoki Respublika prezidentlik respublikasi bo'ladi yoki parlamentar respublika bo'ladi, degan maqsadlar qo'yilmadi.

Prezidentlik joriy qilinar ekan, shu lavozimdan foydalanib mustaqillikka erishish, uni saqlash, boshqa davlatlar bilan kelisha oladigan davlat qurish, insonni eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarish va shu maqsadlar yo'lida mamlakatdagi ba'zi kuchlarni birlashtira oladigan, iqtisodiy bozor munosabatining tamoyillari asosida qura oladigan vosita sifatida Prezidentlik tanlandi.

Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrlarida – prezidentlik o'rnatilganda, Konstitutsiya qabul qilinganda Prezidentga keng vakolatlar va shu vakolatlarni ta'minlay oladigan darajada huquqlar berildi. Shuning uchun ham Prezident davlatimiz taraqqiyotining dastlabki bosqichida ham davlat boshlig'i, ham ijroiya hokimiyat boshlig'i va bir vaqtini o'zida Vazirlar Mahkamasining raisi vazifalarini bajardi. Prezident qo'lida dastlabki davrlarda juda katta kuch, vakolat to'plandi.

E'tirof etish mumkinki, Prezident o'ziga berilgan bu vakolatlardan, imkoniyatlardan to'g'ri, ijodkorlik yo'lida foydalandi. Boshqacha qilib aytganda, davlatimiz rivojlanishining dastlabki

bosqichlarida O‘zbekistonda prezidentlik respublikasiga xos xususiyatlar ko‘proq edi va yaqqolroq namoyon bo‘ldi.

2000-yillarga kelib ko‘plab masalalar hal bo‘ldi. Siyosiy partiyalar shakllandi, xalqning ongi, madaniyati, qarashlari o‘sdi, turmush tarzi ijobiy tomonga o‘zgardi, farovonlik rivojlanib bordi. Hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatildi. Bular endi demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etdi. Natijada Prezident zimmasidan ba’zi vazifalar olinishi uchun sharoit yaratildi. Avvalgi bandda aytilganidek, avval Prezident bir vaqtning o‘zida Vazirlar Mahkamasining Raisi bo‘lishi qoidasi bekor bo‘ldi. Keyinchalik Prezidentning ijro hokimiyatining boshlig‘i vazifasi bekor bo‘lib, u faqat davlat boshlig‘i hisoblandi. Prezidentning ayrim vakolatlari Senatga o‘tkazildi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qaror qabul qilish huquqi yo‘q bo‘ldi. Bundan tashqari, Prezident Bosh vazir nomzodini Oliy Majlis palatalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zi mustaqil taqdim qilmay, saylovlarda ko‘p o‘rin olgan siyosiy partiyalar tavsiya qilgan nomzodni Oliy Majlisga taqdim qiladigan bo‘ldi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining talabi bilan, Bosh vazirni lavozimdan ozod qilish masalalarini, viloyat, Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlari talabi bilan hokimlarni vakolat muddatidan avval lavozimdan ozod qilish masalasini hal qilish va nihoyat Qonunchilik palatasi deputatlari tashabbusi bilan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi belgilangan tartibda amalga oshirilganda, Bosh vazirni iste’foga chiqarish kabi Prezidentning vakolatlari vujudga keldi. Bularning hammasi Prezidentning maqomi demokratlashib bora yotganligini, Prezident boshqa siyosiy tuzilmalarning fikri bilan kelishgan holda faoliyat yuritishini ko‘rsatadi.

2007-yil 11-apreldagi Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi qonunga asosan Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritilib, uning 89-moddasi quyidagi tahrirda bayon qilindi: “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi”. Bu norma O‘zbekiston Prezidentining davlat hokimiyati tizimidagi o‘rnini, asosini, Prezidentning maqomini va eng asosiy vazifasini belgiladi.

Shunga asosan, Prezident har qanday davlat hokimiyati tarmoqlaridan holi, ularning birortasi tarkibiga kirmaydi, shunday ekan, hokimiyatning bo'linishi prinsipi unga ta'sir qilmaydi, lekin shu prinsipning amal qilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Prezidenti faqat davlat boshlig'i qilib belgilangan, lekin uning huquqida shu maqomdagi boshqa davlat Prezidentlaridan katta farq ham mavjud.

Prezident ijro hokimiyatiga boshchilik qilmasligi va faqat davlat boshlig'i maqomida bo'lishi, aslida parlamentar respublikaga xos xususiyat va ularda prezident parlament tomonidan yoki maxsus chaqirilgan organ tomonidan saylanadi.

O'zbekiston Prezidenti faqat davlat boshlig'i maqomiga ega bo'lsa-da, Konstitutsiyada unga keng vakolatlar berilgan, u siyosiy hayotda (amaliyotda) ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda Prezident hokimiyati mustaqil, u parlament tomonidan nazorat qilinmaydi, parlament oldida mas'ulligi yo'q. Prezident amaliyotda barcha hokimiyat tarmoqlaridan ustun turadi. Buning eng asosiy sabablaridan biri shundaki, O'zbekiston Prezidenti xalq tomonidan saylanadi va xalqdan to'g'ridan-to'g'ri vakolat oladi.

Prezident barcha hokimiyat tarmoqlaridan ustun, degan fikr quyidagilar bilan isbotlanadi.

Prezident davlat hokimiyat organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlash bilan cheklanmaydi. O'zbekiston Prezidenti qonunchilik, ijro, sud organlarini tashkil bo'lishiga, faoliyatiga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi.

Qonunchilik hokimiyati – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining shakllanishiga, Senatning bir qismi (16 ta senatorni) ni tayinlash va Senat raisi nomzodini taqdim etish bilan ta'sir qilsa, Prezidentning Konstitutsiya qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda, Oliy Majlis faoliyatini, uning palatalarini tarqatib yuborish bilan to'xtatish vakolatining mavjudligi Prezidentning Qonunchilik hokimiyatiga nisbatan ustuvor mavqeini ko'rsatadi. Prezident vakillik hokimiyati hisoblanuvchi viloyat, Toshkent shahar, kengashlarini ham tarqatish yuborishi mumkin.

O'zbekiston Prezidenti Vazirlar Mahkamasini shakllantirish, viloyat hokimlarini (Toshkent shahar hokimini ham)

qonunga asosan tayinlash, lavozimidan ozod qilish, Vazirlar Mahkamasi tarkibini har qanday vaqtda o'zgartirish, Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimlarining qarorlarini bekor qilish orqali ijro hokimiyati faoliyatiga ta'sir o'tkazadi va bu yerda ham Prezidentning ijro hokimiyatiga nisbatan ustuvor maqomini ko'ramiz.

Prezident sudlov ishlariga aralashmagan holda barcha sud tarmoqlarini tashkil qilishda yuqori sudyalarning nomzodini tavsiya qilish, quyi sudlarni tayinlash bilan ishtirok etadi. Bundan tashqari, sud tomonidan jazolangan fuqarolarni afv etish huquqi Prezidentda mavjud.

Bulardan tashqari, Prezident O'zbekistonda faoliyat yuritadigan, lekin biror-bir hokimiyat tizimiga kirmaydigan muassasalar rahbarlarini lavozimga tayinlashda ishtirok etadi. Masalan, Markaziy bank boshqaruvi raisi, Bosh prokuror, Hisob palatasi raisi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi, Milliy xavfsizlik xizmati raisi. Yuqoridagi fikrlar O'zbekiston Respublikasida boshqaruvning aralash shakli mavjudligini, u kuchli prezident hokimiyatiga asoslanganligini ko'rsatadi. Shunga mos ravishda Prezidentga yetarli vakolatlar berilgan.

Konstitutsiyaning 94-moddasiga asosan, O'zbekiston Prezidenti respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Bu ham Prezidentning huquqiy maqomini ko'rsatuvchi omillardandir. Prezidentning O'zbekiston Qurollli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanishi va Qurolli Kuchlarning Oliy qo'mondonlarini tayinlash, vazifasidagi ozod qilishi ham uni maqomini xarakterlovchi omillardandir.

Prezident maqomi deganda, unga yuklatilgan vazifalar, ularni bajarish uchun zarur vakolatlar va shu vakolatlarni amalga oshirishni ta'minlovchi huquqlar hamda Prezident mas'uliyati, uning faoliyatining kafolatlari yig'indisi asosidagi prezidentlik huquqiy holati tushiniladi.

3-§. O'zbekiston Prezidentini saylash tartibi

Barcha mamlakatlarda prezident ma'lum muddatga saylab qo'yiladi. Saylov har xil bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim davlatlarda Prezidentni parlament (xalq vakillari) saylaydi (Italiya, Chexiya, Polshada); ayrim mamlakatlarda faqat prezident saylash uchun maxsus anjuman chaqiriladi (Germaniyada); ayrim mamalakatlarda prezidentni saylovchilar vakili saylaydi (AQShda); ayrim mamlakatlarda prezidentni bevosita xalq saylaydi (Fransiya, Rossiya, Qozog'istonda). Demak, prezident saylovida jahon tajribasida to'g'ridan-to'g'ri saylov yoki pog'onali saylov qo'llaniladi.

O'zbekistonda ham Prezident umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

To'g'ri saylov orqali prezident xalq tomonidan saylanganda u xalqdan vakolat oladi, boshqa xech qanday tuzilma oldida mas'ul bo'lmaydi. Undan tashqari to'g'ri saylov natijasida prezident saylangan mamalkatlarda prezidentning vakolatlari keng bo'ladi, boshqa hokimiyat tuzilmalariga ta'siri kuchli bo'ladi.

Prezidentlik instituti Konstitutsiyaviy huquqda, umuman, jamiyat hayotida muhim institut hisoblanadi.

Shuning uchun Prezidentni saylashning asosiy holatlari, prezident vakolatlari, boshqa hokimiyat tuzulmalari bilan munosabatining asoslari Konstitutsiyada belgilangan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 90-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

Konstitutsiyaning 117-moddasida Prezident saylovi (boshqa vakillik organlari kabi) uning vakolat muddati tugaydigan yilda dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Shuningdek, Konstitutsiyaning bu moddasida har bir saylovchining bir ovozga ega ekanligi, uning xohish-irodasining bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 96-moddasida ham Prezident sayloviga taalluqli holat mavjud. Unga ko'ra prezident o'z vazifasini betobligi tufayli bajara olmasligi tegishli komissiya xulosasi bilan tasdiqlangan vaqtida uch oy ichida saylov o'tkazish kerakligi belgilangan.

Konstitutsiyaning bu normalari Prezidentlik vakolat muddatini, Prezidenlikka saylanuvchiga nisbatan qo'yiladigan talablarni, saylov o'tkazish muddatini, saylov huquqi prinsiplarini belgilangan holda prezident saylash tartibi Qonun bilan belgilanishini ko'rsatib qo'ygan.

Bunday qonun – 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonundir[1]. Bu qonun Konstitutsiya qabul qilinguncha qabul qilingan bo'lib, uning asosida 1991-yil dekabda O'zbekiston Prezidenti saylovi o'tkazilgan. Qonunga keyinchalik bir necha o'zgartirishlar kiritildi.

Qonunda saylov o'tkazishning barcha demokratik prinsiplari o'z o'rnini topgan, u xalqaro saylov standartlariga mos keladi.

Qonun Prezident saylovining umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishini, saylov, saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi, saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish oshkora o'tkazilishi, saylovning moliyaviy ta'minotini, saylov qonunchiligini buzganlik uchun

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. 2007. – 33–46-betlar.

javobgarlik masalalarini belgilaydi va saylov jarayonini mukammal tartibga solish bilan, saylovga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish, natijasini aniqlash, e'lon qilishi masalalarini aniq tartibga soladi.

Prezident saylovi, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov kompaniyasi boshlanishini Prezident vakolati tugashidan kamida uch oy oldin e'lon qilinishi bilan boshlandi.

Undan so'ng saylov okruglari tuziladi, Prezident saylovida har bir viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi bir okrug sifatida belgilanadi va bu haqdagi Markaziy saylov komissiyasining qarori saylovga yetmish besh kun qolganda e'lon qilinadi.

Saylovga oltmish kun qolganda kamida 20 nafar, ko'pi bilan 3000 saylovchi hisobiga saylovchilar uchastkalari okrug saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Istisno tariqasida saylovga besh kun qolganda ham saylov uchastkasi tuzilishi mumkin.

O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida ham saylov uchastkasi tuzish, ularni qaysi okrugga biriktirish masalasini Markaziy saylov komissiyasi hal qiladi.

Prezidentlikka saylovni Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi, uchastka saylov komissiyasi tashkil qiladi. Markaziy saylov komissiyasi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi muassasa, u Oliy Majlis tomonidan tuziladi.

Okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganda rais, rais o'rinbosari, kotib va kamida 6–8 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Uchastka saylov komissiyasi okrug saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida qirq kun qolganda 5–19 nafar a'zodan shu jumladan, rais, rais o'rinbosari, kotibdan iborat tarkibda tuziladi. Agar komissiya 7 nafargacha a'zodan iborat tarkibda tuzilsa, rais va kotib saylanadi. Saylov komissiyasini tuzish tartibi, vakolatlari, ishini tashkil qilish "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunning 12–20-moddalarida belgilangan.

Saylov jarayonining eng muhim mas'uliyatli bosqichi Prezidentlikka nomzod ko'rsatish hisoblanadi. Prezidentlikka nomzod ko'rsatish huquqiga tegishli tartibda saylovgacha olti oy oldin Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan siyosiy partiyalar ega. Sohada islohotlar amalga oshirilgunga qadar nomzod ko'rsatish huquqiga

vakillik hokimiyati organlari va bevosita fuqarolar ham (tashabbuskor tashkilotlar orqali) ega bo'lgan. Hozir bunday huquqqa faqat siyosiy partiyalar ega.

Prezidentlik o'ta muhim, sharafli, mamlakat, xalq taqdirini hal qiluvchi lavozim bo'lganligi uchun Prezident bo'ladigan shaxslar oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar Konstitutsiyaning 90-moddasida, saylov to'g'risidagi qonunning 25-moddasida belgilab qo'yilgan.

Prezidentlikka nomzod ko'rsatish huquqi, ularni ro'yxatga olish, uning uchun taqdim qilinadigan hujjatlar, nomzod ko'rsatish tartibi (imzolar to'plash), nomzodlik maqomidan voz kechish yoki nomzodlikdan mahrum qilish tartiblari Prezident saylovi to'g'risidagi qonunning 24–26-moddalarida belgilangan. Xuddi shuningdek, saylovchilarni ro'yxatga olish va u bilan tanishtirish, ro'yxatdagi kelishmovchiliklarni hal qilish, saylov byulletenlarini tayyorlash, tashviqot-targ'ibot ishlari, kuzatuvchilar faoliyati, ishonchli vakillar faoliyati, nomzodlar huquqlarining kafolatlari qonunning 22, 23, 27–29-moddalarida belgilangan.

Prezident saylovida ham ovoz berish soat 6 dan 20 gacha saylov uchastkalarida maxsus jihozlangan xonalarda uchastka saylov komissiyasi a'zolari, kuzatuvchilar ishtirokida tashkil qilinadi. Saylov uchastkasiga kelish imkoniyati yo'qlarga turar joyida ovoz berish tashkil qilinadi. Saylov kuni boshqa yerda bo'ladiganlar uchun avvaldan saylov varaqalari asosida ovoz berishga imkoniyat yaratiladi.

Saylovchi ovoz berish byulletenini olgach, bu haqda ro'yxatga imzo qo'yib, yashirin ovoz berish kabinasida byulletendagi o'zi xohlagan nomzod ro'parasiga belgi-krestik qo'yish bilan ovoz beradi.

Ovoz berish vaqti tugagach, belgilangan tartibda saylov qutisi ochilib, ovoz berish natijasi aniqlanib, bayonnoma tuziladi va bayonnomaning bir nusxasi 48 soat davomida uchastkada osib qo'yiladi, bir nusxasi okrug saylov komissiyasiga yuboriladi.

Okrug saylov komissiyasi uchastka saylov komissiyasida bayonnomasi asosida natijani aniqlab, bayonnoma tuzib Markaziy saylov komissiyasiga taqdim qiladi.

Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalari bayonnomalari asosida Respublika bo'yicha natijani aniqlaydi.

Ovoz berishda saylovchilar ro'yxatiga kiritilganlarning 33 foizi ishtirok etgan bo'lsa, saylov haqiqiy sanaladi.

Saylovda ikkita nomzod ishtirok etib, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning nisbiy ko'pchilik ovozini olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi.

Saylovda ikkitadan ortiq nomzod ishtirok etgan taqdirda, nomzodlardan birortasi ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pini ovozini ololmagan bo'lsa, eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod ishtirokida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Agar qonunda ko'zda tutilgan sabablar asosida saylovda bitta nomzod qolib, saylovda ishtirok etib, saylovda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini olsa, saylangan hisoblanadi.

Takroriy ovoz berish zaruriyati tug'ilsa, takroriy ovoz berish kunini Markaziy saylov komissiyasi saylov o'tkazilgan kundan e'tiboran bir oy ichida, lekin saylov o'tkazilgan kundan kamida o'n besh kun keyin o'tkaziladigan qilib tayinlaydi. Bu haqda OAVda e'lon qilinadi. Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Takroriy ovoz berishda saylovchilarning ishtirok etish foizi e'tiborga olinmaydi. Qancha saylovchi ishtirok etishidan qat'i nazar, saylov o'tgan hisoblanadi.

Prezident saylovi o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa yoki saylovda bitta nomzod ishtirok etib, yetarli ovoz ololmagan bo'lsa, Markaziy saylov komissiyasi takroriy saylov tayinlaydi. Takroriy saylov asosiy saylov o'tganidan so'ng qirq kun ichida o'tkaziladi. Takroriy saylov ushbu qonun talablari asosida o'tkaziladi. Takroriy saylovni yangi okrug va uchastka saylov komissiyasi tomonidan o'tkazilishi haqida Markaziy saylov komissiyasi qaror qabul qilishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylovda tuzilgan saylovchilar ro'yxati asosida o'tkaziladi.

O'zbekiston Prezidenti Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov natijalari e'lon qilingan kundan e'tiboran kechi bilan ikki oy ichida Oliy Majlis palatalarining qo'shma yig'ilishida qasamyod qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishadi.

Amaldagi Prezident o'z vakolatini yangi saylangan Prezident lavozimiga kirishguncha bajaradi.

Konstitutsiya va qonunlarimizda Prezidentning vakolatini muddatidan avval tugatish hollari ko'zda tutilmagan. Faqat bir holda, Konstitutsiyaning 96-moddasida ko'zda tutilgan holat yuz bersa, Prezident vakolati to'xtatiladi. Unga asosan: "O'zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o'z vakolatlarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'la muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi".

4-§. Prezidentning vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida Prezidentning vazifa va vakolatlari, Prezident hal qiladigan, bajaradigan, amalga oshiradigan ishlar belgilangan. Unga asosan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

8) respublika oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi, tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi; qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xafsizligini ta’mainlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) O‘zbekiston Respublikasi Milliy xafsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xafsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

25) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

Prezidentning vakolatlari Konstitutsiyaning faqat shu moddasidagi ko'rsatilgan vakolatlar bilan cheklanmaydi. Prezident vakolatlari Konstitutsiyaning boshqa moddalarida yoki boshqa qonunlarda ham belgilangan.

Jumladan, Konstitutsiyaning 10-moddasida Prezidentning xalq nomidan ish olib borish vakolati; 83-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligi; 95, 98-moddalarda Oliy Majlisni tarqatib yuborish vakolati ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini oshirish haqida"gi Konstitutsiyaviy qonunga binoan viloyat (Toshkent shahar) xalq deputatlari Kengashlarini tarqatib yuborish huquqi; "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga binoan Senat raisligiga nomzod taqdim etish huquqi; "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi Qonunga binoan Markaziy saylov komissiyasi raisi nomzodini taqdim qilish va hokazolar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zini davlat boshlig'i sifatida bajaradigan vazifalariga va shu vazifalarni bajarish imkoniyatini beradigan vakolatlarga ega. Konstitutsiya va qonunlarda ko'rsatilgan Prezident vakolatlarini maqsad va mazmuniga qarab turlarga bo'lish asosida o'rganilsa, ularni anglash osonlashadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning fuqarolarning huquq va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Kostitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishini ta'minlash borasidagi vakolatlari. Bu vakolatlar, eng avvalo, inson manfaatlarini himoya qilish, ularning erkini, farovon yashashini ta'minlashni nazarda tutadi.

Konstitutsiyaning 93-modda 1-bandida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti: fuqarolarining huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir. deb belgilangan.

Huquqiy demokratik davlatning asosiy sharti fuqarolar manfaati ustuvorligini ta'minlashdir. Bunga Konstitutsiya, qonunlarga rioya qilish orqali erishiladi. Buning uchun juda katta tadbirlar belgilangan va mexanizmlar yaratilgan.

Konstitutsiyaning 93-moddasi 21, 22, 23-bandlaridagi, ya'ni fuqarolarni orden, medal va yorliqlar bilan mukofatlash, fuqarolik va siyosiy boshpana berish masalalarini hal qilish, amnistiya to'g'risida Senatga taklif kiritish, sudlar tomonidan hukm qilinganlarni afv etish vakolatlari ham fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

2. Prezidentning mamlakat suvereniteti, xafsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir vazifa va vakolatlari.

Bu vazifa va vakolatlarga, avvalo, Konstitutsiyaning 93-modda 2-bandiga asosan shu masalalarga doir qarorlarni amalga oshirish bo'yicha zarur choralarni ko'rish vakolatini kiritish mumkin.

Prezidentning bu sohadagi vakolatlari qatoriga, yuqorida tilga olingan 93-moddaning 3, 4, 18, 19-bandlarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari Konstitutsiyadagi (93-moddaning 20-bandi) Prezident Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, degan qoida ham Prezidentning davlat suvereniteti, mustaqilligi, xafsizligini saqlashda tegishli vakolatga egaligini ko'rsatadi. Konstitutsiyaning 93-moddasi 24-bandida ko'rsatilgan Prezidentning Milliy xafsizlik xizmatini tuzish, uning raisini lavozimiga tayinlash va ozod qilish, keyinchalik bu farmonlarni Senat tasdig'iga kiritish vakolati uning xafsizlikni ta'minlashga qaratilgan vakolatlaridandir.

3. Prezidentning ichki va tashqi siyosat sohasidagi vakolatlari. Prezident xalqaro munosabatlarda xalq nomidan ish olib boradi.

Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga davlat boshlig'i sifatida har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi.

Xalqaro muzokaralarda ishtirok etadi, tegishli hujjatlarni imzolaydi, mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi, diplomatik va chet ellarning boshqa vakillaridan ishonch yorliqlarini qabul qilib oladi; O'zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun Senatga taqdim etadi. Tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Mamlakat hayotining eng muhim masalalarini yechish maqsadida referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

4. Prezidentning turli davlat organlari, muassasa va tashkilotlarni tuzish, hokimiyat tarmoqlarini tashkil qilish, ularni bahamjihat ishlashini ta'minlash sohasidagi vakolatlari.

Prezidentga davlat boshlig'i sifatida davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda ularning hamkorligini ta'minlash vazifasi yuklatilgan.

Prezident barcha hokimiyat tarmoqlarini tashkil qilish hamda maxsus organlarning rahbarlarini tayinlash va saylash, markaziy organ va muassasalarni tashkil qilish, tugatish bo'yicha vakolatlarga ega.

Prezidentning bu sohadagi vakolatlariga Senat a'zolarining 16 nafarini tayinlash (Konstitutsiyaning 77-moddasi); Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzod taqdim etish (93-moddaning 9-bandi); Oliy Majlis palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Bosh vazir nomzodini taqdim etish va lavozimidan ozod etish (10-band); Hukumat a'zolarini tayinlash; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish (12-band); Oliy Majlisning Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, Markaziy bank raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etish (13-band); viloyat, tumanlararo, tuman shahar, harbiy va xo'jalik sudlari sudyalarini tayinlash (15-band); Milliy xavfsizlik xizmatini tuzish, uning raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish (24-band); Oliy Majlisni tarqatib yuborish (95-modda) vakolatlari kiradi.

O'zbekston Prezidenti vazirliklar, davlat qo'mitalari, hamda dalat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi (8-band).

Qonunlarga asosan Prezident Senatning navbatdan tashqari majlisini chaqirishni talab qilish, Markaziy saylov komissiyasi raisligiga nomzod taqdim qilish huquqiga ega.

5. Prezident qonunchilik sohasidagi vakolatlari. Bu, avvalo, uning qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligida ko'rinadi (83-modda). Hozirgi kunda amalda bo'lib turgan ko'plab qonunlar Prezident tashabbusi bilan qabul qilingan yoki o'zgarishlar kiritilgan. Prezident Parlamentda qabul qilingan qonunlarni imzolaydi va e'lon qiladi. Zarur bo'lsa qonunga e'tirozlarni ilova qilib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli (93-moddaning 17-bandi).

Prezidentning qonunchilikka parlament qo'shma majlislarida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan qilgan ma'ruzalari orqali kuchli ta'sir qiladi. Ma'ruzadagi holatlar qonunchilikda aks etadi. Yangi qonunlar qabul qilinadi yoki amaldagilarga o'zgartirish kiritishga olib keladi. Parlament palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzada Prezident tomonidan shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek boshqa protsessual majburiy choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini sudlarga o'tkazish, moliyaviy va ma'muriy jazolarni faqat sud tomonidan tayinlash tizimiga o'tish haqidagi va Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi Konsepsiyasida ilgari surilgan fikrlar, Prezident tavsiyalari qonunchiligimizga katta o'zgartirishlar kiritishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd qilingan vakolatlari, birinchidan, Konstitutsiyada, Konstitutsiyaviy qonunlarda va boshqa qonunlarda belgilanganligini; ikkinchidan, bir guruh vakolatlari mustaqil ravishda, boshqa hokimiyat tuzilmalarining ishtirokisiz hal qiladigan vakolatlarga egaligini (senatorlarni tayinlash, ishonch yorlig'ini qabul qilish, diplomatik vakolatxonalarga vakillar tayinlashni tavsiya qilish, fuqarolikka qabul qilish, siyosiy boshpana berish, fuqarolarni mukofotlash va boshqalar); uchinchidan, Prezident hal qilib, keyinchalik Oliy Majlisda tasdiqlanadigan vakolatlarga egaligini (vazirliklar, davlat qo'mitalarini tuzish va tugatish, urush holati, favqulodda holatlar e'lon qilish, Bosh prokurorni, Hisob palatasi raisini tayinlash, Milliy xafsizlik xizmatini tuzish, uning raisini tayinlash va vazifasidan ozod etish); to'rtinchidan, Oliy Majlis yoki uning palatalariga taqdim qilish, tavsiya qilish bilan bog'liq vakolatlarga egaligini (Bosh vazir nomzodini taqdim etish, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi sudyalarini taqdim etish, Markaziy bank boshqaruvi raisi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi, Senat raisi lavozimlariga nomzod taqdim etish); beshinchidan, boshqa hokimiyat tuzilmalari va tashkilotlar bilan maslahatlashib yoki ularning taqdimiga ko'ra hal qiladigan vakolatlarga egaligini (Bosh vazir taqdimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tayinlaydi, siyosiy partiyalar tavsiyasiga ko'ra Bosh vazir nomzodini Oliy Majlisga taqdim

etadi, viloyat (Toshkent shahar) hokimlarini Kengashdagi partiya guruhlari bilan maslahatlashib taqdim etadi; Oliy Majlisni Konstitutsiyaviy sud bilan maslahatlashib tarqatib yuboradi) ko'ramiz.

Prezident bu vakolatlarni farmon, qaror, farmoyish chiqarish bilan amalga oshiradi. Prezidentning Konstitutsiya va qonunlarga zid hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bekor qilishi mumkin.

5-§. Prezidentning mas'uliyati

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, mamlakat taraqqiyotini belgilovchi shart Prezident vakolatlarining ko'p yoki oz miqdorda belgilanishi emas, Prezidentlar qonunlarda belgilangan vakolatlardan mas'uliyat bilan foydalanishdir.

Har bir mamlakatning Prezidenti keng vakolatlarga ega bo'lishi, ijtimoiy hayotning turli jabxalariga samarali ta'sir qilishning keng mexanizmlaridan foydalanish bilan birga, albatta, ma'lum burchlarga, mas'uliyatga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy va siyosiy maydonda. davlat-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchilar orasida markaziy figura bo'lganligi uchun uning mas'uliyati, burchi ham o'z ko'lami, mohiyati, mazmuniga ko'ra juda ulkandir.

Prezidentning mas'uliyati, burchining muqaddasligi, eng avvalo, ularning Prezident qasamyodi matnida aniq belgilanganida, qasamyod matni Konstitutsiyada qoida sifatida mustahkamlab qo'yilganligida hamda Prezident faqat qasamyod qabul qilgandan so'ng lavozimiga kirishishi mumkinligining belgilanishida ham ko'rinadi.

Har bir mamlakatning Prezidenti qasamyodida shu mamlakatning taraqqiyoti, milliy xususiyati, belgilangan ustuvor vazifalari aks etadi.

Prezidentning Konstitutsiyada belgilangan matndagi qasamyodni qabul qilishi, uning ushbu lavozimga kirishishiga faqat tantana baxsh etmay, qasamyod qabul qilish bilan shu lavozimga munosib hisoblangan shaxs o'z zimmasiga sharafli va o'ta mas'uliyatli majburiyat (burch) oladi.

Turli mamlakatlarda Prezidentni saylash tartibining har xilligi, maqomi va vakolatlaridagi farqdan qat'i nazar, Prezident institutidagi umumiylik, Prezident lavozimini xarakterlovchi xususiyat ularning qasamyod qabul qilishi va shu orqali tegishli burchga ega bo'lishidir.

Agar AQSh Konstitutsiyasi to'rtinchi asr yuzini ko'rayotgan eng ko'hna Konstitutsiya ekanligi va unda Prezident qasamyodi belgilanganligini e'tiborga olsak, Prezident qasamyodi uzoq davrdan beri Prezidentlikda e'tirof etib kelinayotgan qoida ekanligini va bu tajriba boshqa davlatlarda ham qabul qilinganligini ko'ramiz.

Har bir mamlakatda belgilangan qasamyod matni mamlakatning asosiy strategik yo'li, ko'zgusidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qasamyodi Konstitutsiyada quyidagi matnda belgilangan:

"O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman" (Konstitutsiyaning 92-moddasi).

Barcha mamlakatlarning Prezidentlari qasamyodi matnida umumiylik mavjud bo'lib, bular:

- xalqqa va Vatanga sadoqat hamda vijdonan xizmat qilish;
- inson va fuqarolar huquq, erkinligini ta'minlash;
- Konstitutsiya va qonunlarni himoya qilish, ularni ta'minlash vazifasini zimmaga olish hisoblanadi.

Bulardan tashqari, turli mamlakatlar Prezidentlari o'z qasamyodlarida yuqoridagilardan tashqari majburiyatlarni yaqqolroq ifodalovchi holatlarni, milliy xususiyatlarni ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodida Prezident zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishi alohida ko'rsatilsa, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti qasamyodida davlatning yaxlitligi, suvereniteti va mustaqilligini, xafsizligini himoya qilish burchi alohida ko'rsatilgan.

Konstitutsiyalarda Prezident qasamyodining matnidan tashqari, qayerda qasamyod qabul qilish ham belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis yig'ilishida, Rossiya Prezidenti

Federatsiyasi Kengashi, Dalat Dumasi a'zolari, konstitutsion sud sudyalari ishtirokida qasamyod qabul qiladi. Bu eng tantanali marosimlardan biri hisoblanib, voqeaga purviqorlik baxsh etadi.

Prezidentning burchlari faqat qasamyod matni bilan chegaralanmagan. Bu faqat Prezident burchlarini kuchaytiruvchi, muqaddasligini ta'minlovchi vositadir. Prezident burchlari Konstitutsiya matnlarida ham uchraydi. Ularda shu narsa aynan burch deb ko'rsatilmasdan, Prezident vakolatini ko'rsatuvchi qoidalar bo'lsada, ba'zi qoidalarning mazmuniga chuqurroq e'tibor berish shu narsa burch ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 1-bandidagi Prezidentning "fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir", 2-bandidagi "O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarini amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radi", degan qoidalar Prezidentga shu sohada burchlarni yuklaydi. Konstitutsiyaning 93-moddasi 18, 19, 24, 25-bandlarida ham Prezidentning burchini ko'rsatuvchi qoidalar mavjud. Konstitutsiyaning 91-moddasi Prezidentning o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emasligini belgilab, Prezidentga ma'lum burch yuklagan.

Bundan tashqari qonunlarda, Prezidentning Parlamentda qabul qilingan qonunlarni belgilangan muddat (o'ttiz kun ichida) ko'rib chiqishi va e'lon qilishini belgilovchi qoidalar ham mavjudki, bular ham Prezidentning burchini keltirib chiqaradi.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahrirda tegishlicha Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun Prezident tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanib, e'lon qilinishi shart. Bu ham Prezidentning konstitutsiyaviy mas'uliyatidir.

Konstitutsiyaning 93-moddasi oxirgi qismidagi, "Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxs-

larga topshirishga haqli emas", degan qoida ham Prezidentning mas'uliyatini keltirib chiqaradi.

Prezidentning eng muhim mas'uliyati Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish bo'lib, Konstitutsiyaning 15-moddasi qoidalari Prezidentga ham tegishlidir. Uning qabul qilgan, qiladigan normativ hujjatlari, Konstitutsiya normalari va qonunlariga zid bo'lmasligi kerak.

6-§. O'zbekiston Prezidenti faoliyatining kafolatlari

Prezidentlik davlat va jamiyat hayotida eng muhim rol o'ynaydigan, hokimiyat tizimida markaziy o'rinda turadigan lavozimdir. Prezident millat faxri, ramzi hisoblanadi. Shuning uchun, Prezident o'z vakolatlarini samarali, hech qanday to'siqlarga uchramay, tazyiqlardan holi olib borishi uchun Konstitutsiya va qonunlarda Prezidentlik faoliyati alohida tartibda muhofaza qilinadi.

Konstitutsiyaning 91-moddasi: "Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi", – degan qoidani o'rnatish bilan Prezident faoliyatini muhofaza qilish asosini yaratgan.

Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham, 2003-yil 25-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan U Prezident faoliyati uchun zarur tartiblar va kafolatlar yaratishni ko'zda tutadi.

Qonunda Prezidentning daxlsizligi, uni muhofaza qilish (qo'riqlash), faoliyatining ta'minoti, uy-joy, tibbiy ta'minoti belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti daxlsizlik va immunitetga egadir. Daxlsizlik uning turar joyiga, xizmat xonalariga, yukiga, shaxsiy va transport vositalariga, yozishmalariga, aloqa vositalariga, tegishli hujjatlariga tatbiq etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini bajarish bilan bog'liq harakatlar uchun jinoiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Prezidentga nisbatan ushlab turish, so'roq qilish, tintuv yoki shaxsiy ko'zdan kechirish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xafsizligini ta'minlash qonun hujjatlarida belgilangan normalar va talablarga muvofiq O'zbekiston Milliy xafsizlik xizmatiga yuklanadi.

Prezidentning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilinishiga, shuningdek uning sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi, shunday holatlar sodir etilgan bo'lsa, qonun bilan jazolanadi.

Prezidentning mehnatiga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Unga muddati o'ttiz olti ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan ta'til beriladi.

Prezident iste'foga chiqqach, umrbod Senat a'zosi bo'lib qoladi.

Prezidentga Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida qarorgohlarga ega. Prezident aloqa vositalarining barcha turi bilan ta'minlanadi. Prezidentga avtotransport, shuningdek mamlakat ichkarisi va chet ellarga qilinadigan safarlar uchun samolyot va vertolyot ajratiladi. Prezidentga bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi va sanatoriya-kurortlarda davolanishi ta'minlanadi. Yuqorida qayd qilinganidek Prezident hayoti, sog'lig'i, sha'ni qonun bilan alohida muhofaza qilinadi. Prezident hayoti, sog'lig'i, sha'ni, obro'siga qarshi qilingan harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Jino-yat kodeksida javobgarlik belgilangan.

Jinoyat kodeksining 158-moddasida bu masala quyidagicha hal qilingan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish –

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti badaniga qasddan shikast yetkazish –

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish, shuningdek matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda uni haqoratlash yoki unga tuhmat qilish –

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

Prezident faoliyatining asosiy kafolati qoidalari eks-Prezident (sobiq Prezident) va uning oila a'zolariga ham tatbiq qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Prezidentlik instituti vujudga kelishining davlat qurilishidagi ahamiyati qanday?

2. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining o'rnatilishi sabablari nima?

3. Prezident lavozimining joriy etilishi qanday masalalarni hal qildi?

4. Prezident lavozimi joriy etilgandan to hozirgacha uning maqomida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

5. O'zbekiston Prezidentining hokimiyat tizimidagi o'rni qanday?

6. Prezidentning maqomi nima?

7. Prezidentning maqomiga nimalar ta'sir qiladi?

8. Prezident saylovi qachon o'tkaziladi?

9. Prezidentlikka nomzodlarga qanday talablar qo'yiladi?

10. Saylov qanday tashkil etiladi?

11. Nomzodlarni kim ko'rsatadi, ular qanday ro'yxatdan o'tkaziladi?

12. Okrug va uchastka saylov komissiyalari qanday tuziladi?

13. Saylov qanday tartiblarda o'tkaziladi?

14. Ovoz berish tartibi qanday, natijalar qanday aniqlanadi?

15. Takroriy ovoz berish, takroriy saylov qachon o'tkaziladi?

16. Prezident qachon vazifasini bajarishga kirishadi?

17. Prezident vakolatlari qaysi qonunlarda mustahkamlanadi?

18. Prezidentning vakolatlarini qanday guruhlarga bo'lish mumkin?

19. Prezidentning mas'uliyati nimalarda ko'rinadi?

20. Prezidentning faoliyati qanday kafolatlanadi?

XXII bob. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi

1-§. O'zbekistonda Parlamentning vujudga kelishi va parlament islohotlari

Rasmiy ravishda saylab qo'yiladigan va qonun qabul qiladigan organ O'zbekistonda mustaqillik davrigacha ham mavjud bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti deb atalardi. Lekin, u tub mohiyati bilan parlamentdan ancha yiroq organ edi. Boshqacha qilib aytganda, formal saylov asosida saylanadigan bu organning ko'rinishi – shakli parlamentga o'xshasada, mazmunan u kommunistik partiyaning xohish-irodasi bilan tashkil qilinadigan va unga xizmat qiladigan organ edi.

80-yillarning oxirida butun Ittifoq hududida mavjud rejimdan norozilik kuchaydi, xalqning o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga intilishi kengayib bordi.

Natijada 1989-yilgi SSSR xalq deputatalari s'ezdi, 1990-yilda O'zbekitson Oliy Sovetiga bo'lib o'tgan saylovlar birinchi marta demokratik usullarda, eng muhimi muqobillik asosida o'tdi. Natijada Oliy vakillik organiga xalq xohish-istaklarini yaxshi his qilgan, o'z fikrini ochiq aytadigan kishilar saylandi.

Shuning uchun, O'zbekistonda parlamentning vujudga kelishini 1990-yilda saylangan Oliy Sovet faoliyati bilan bog'lasa, xato bo'lmaydi.

Ittifoq davrida faoliyat ko'rsatishni boshlagan bu Oliy Sovet O'zbekiston mustaqilligi, jamiyatda demokratiya rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi.

Turli fikrlilik, mustaqil fikr bayon qilish, ittifoq organlari, markazining noto'g'ri xatti-harakatini ochiq tanqid qilish 1990-yilda saylangan Oliy Sovetdan boshlandi. Unda O'zbekistonning mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Ittifoqdan mustaqil ravishda qonunlar qabul qilish tajribasi boshlandi. Prezident tomonidan e'lon qilingan mustaqillik shu Oliy Sovetda rasmiylashtirildi va O'zbekiston mustaqillik yo'liga shu Oliy Sovetni o'z parlamenti sifatida e'tirof etib qadam qo'ydi. Keyinchalik Ittifoq davrida saylangan Oliy Sovet tarqatib yuborilmasdan, uning salohiyatidan vakolat muddati tugaguncha foydalanish to'g'ri yo'l bo'ldi.

Shu Oliy Sovetda mamlakatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyamiz qabul qilindi.

Konstitutsiyamizda oliy qonunchilik organimiz Oliy Majlis o'z tilimizda bayon etildi. Konstitutsiyamizning XXII bobi "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi" deb nomlandi. Unga asosan Oliy Majlis O'zbekiston fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradigan oliy davlat organi deb belgilandi. Vakolat muddati besh yil qilib o'rnatildi. Konstitutsiyaga asosan Oliy Majlis bir palatali strukturada tashkil qilinishi nazarda tutildi.

1993-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi (2003-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi), 1994-yil 22-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida"gi (Oliy Majlisning 2002-yil 12-dekabrdagi qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan) qonunlar qabul qilindi.

1994-yil 25-dekabrda Oliy Majlisga saylov o'tkazildi. Saylov eng demokratik prinsip va talablar asosida o'tdi. Mamlakatda tashkil qilingan 250 ta saylov okrugidan 139 tasida uchtadan, 106 tasida ikkitadan nomzod qo'yilib, saylov o'tkazildi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik asosida o'tdi. Ayrim okruglarda takroriy ovoz berish, takroriy saylovlar o'tkazilib, birinchi marta mustaqillik sharoitida mamlakat parlamenti shakllantirildi. Bu parlament 1995-yil 23-fevraldan o'z ishini boshladi.

Oliy Majlisda davlat hokimiyati vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlik bloki va 69 deputatdan iborat Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi, 47 deputatdan iborat "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 14 deputatdan iborat "Vatan taraqqiyoti" partiyasi fraksiyasi ro'yxatga olindi.

"Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston Parlamenti – Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi"[1], – deb ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

1 Karimov I.A. O'zbekistonnig siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – 6-bet

1995-yilda saylangan parlament – Oliy Majlis O'zbekiston hayotida, xalqlar taqdirida muhim rol o'ynadi. Jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi huquqiy asoslar yaratildi. Parlamentda xalqchillik o'rnatildi. Parlamentda ishlash tajribasi vujudga keldi, aytish mumkinki, u mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatda barqarorlikni ta'minlash kabi muhim vazifalarni bajardi.

Lekin, jamiyatning rivojlanishi islohotlarni doimiy ravishda o'tkazib borishni taqozo etadi. Shuning uchun XX asr oxirida – 2000-yillarda Parlamentni yanada rivojlantirish zarurati vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil may oyida bo'lib o'tgan sessiyasida Prezident Oliy Majlisni ikki palatali tizimga o'tkazish hamda professional parlamentni shakllantirish g'oyasini ilgari surdi. Hayotning, kishilar ongining o'zgarishi parlamentni qayta tashkil qilish va uning davlat hokimiyatini tashkil etishdagi rolini yanada oshirish lozimligi ta'kidlandi.

Parlamentni tashkil qilish masalasi yuzasidan xalqning fikrini bilish maqsadga muvofiq deb topilib, 2002-yil 27-yanvarda referendum o'tkazilib, unga ikki palatali parlamentga o'tish hamda Prezident vakolati muddatini besh yildan yetti yilga o'zgartirish haqidagi masala kiritildi.

2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendumda aholi ikki palatali parlament tuzilishini va Prezidentning vakolat muddatini yetti yil qilib belgilashni ma'qulladi.

Oliy Majlis sessiyasida 2002-yil 4-aprelda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun[1] qabul qilindi. Qonunning 1-moddasida ushbu qonun Konstitutsiyaning moddalariga va amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga asos bo'lishi mustahkamlab qo'yildi.

Qonun respublikada saylov o'tkazish muddatlari, Oliy Majlisning tuzilishini, Qonunchilik palatasi va Senatni tashkil etish tartibi, palatalarning ishini tashkil etish, Prezidentning vakolat muddatini belgilab berdi.

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 123–125-betlar.

Mazkur qonunga asosan Konstitutsiyaning tegishli bob va moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Natijada Oliy Majlis ikki palatadan: yuqori palata – Senatdan va quyi palata – Qonunchilik palatasidan iborat qilib belgilandi. Qonunchilik palatasi doimiy ishlovchi, professional a'zolardan iborat tuzilma, Senat a'zolari senatorlik faoliyatini asosiy ishlash joyidan ajralmagan holda olib borishi belgilandi.

Konstitutsiyada har ikki palataning mutlaq vakolatlari, birgalikdagi vakolatlari, qonunchilik jarayonining konstitutsiyaviy asoslari belgilab qo'yildi.

2004-yilda "O'zbekison Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi va unda Senatni tashkil qilish bilan bog'liq tartiblar belgilandi.

2002-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar[1] qabul qilindi.

2004-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan saylov natijasida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va yangidan saylangan mahalliy vakillik organlari deputatlarining qo'shma majlislarida ko'rsatilgan nomzodlar asosida Oliy Majlisning yuqori palatasi shakllantirildi hamda O'zbekistonda ikki palatali professional parlamentning faoliyati boshlandi.

Shu bilan parlament islohotlari tugagani yo'q, uni takomillashtirish davom etmoqda.

"Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatiga erishishdan iborat"[2] – degan Prezident so'zlari ham buning tasdig'idir. Shuningdek, doimiy asosda

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 127–145-betlar.

2 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 36-bet.

ishlaydigan quyi – Qonunchilik palatasining vakolati va huquqlarini kengaytirish muhimligi ham ko'rsatib o'tildi[1].

Bu ko'rsatmalarga amal qilinganligini, qonunchilik palatasining roli kuchaytirib borilayotganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1. 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan va 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga asosan, Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuv o'tkazilgandan so'ng parlamentda ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim qilish tartibining o'rnatilishi, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalariga Prezidentga Bosh vazirni lavozimidan ozod qilish bo'yicha taklif kiritish huquqining berilishi Qonunchilik palatasining mavqei kengayganligini ko'rsatadi.

2. Prezident Konsepsiyasi va u asosda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan Bosh vazir va Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan bir qismi ovozi bilan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish masalasini ko'tarish huquqining berilishi ham Qonunchilik palatasi mavqei oshib borayotganligini ko'rsatadi.

2-§. Oliy Majlisning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va vazifasi

Oliy Majlis – parlamentning davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini aniqlash uchun, avvalo, uning davlatchilikdagi, xalq hokimiyatini amalga oshirishdagi rolini aniqlash, boshqacha aytganda, shu haqda tushunchaga ega bo'lish kerak.

Parlamentning vujudga kelishi jahon davlatchilik tajribasidagi eng yirik voqea desa bo'ladi. Parlamentning vujudga kelishi, *birinchidan,* ming yillar davomida yashab kelgan davlat hokimi-

1 Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 37-bet.

yatining bir kishi (monarx) qo'lida to'planishiga barham berdi. *Ikkinchidan,* yakka hukmronlikni chegaraladi. *Uchinchidan,* davlat hokimiyatini tarmoqlar asosida amalga oshirish imkoniyatini vujudga keltirdi. *To'rtinchidan,* hokimiyat ishlarida mamlakat aholisi (fuqarolari) ishtirok etishining samarali vositasi vujudga keldi. *Beshinchidan,* davlat, jamiyat faoliyatida vakillik nazorati vujudga keldi. *Oltinchidan,* qonun ishlab chiqish, qabul qilish professionalizm asosida olib boriladigan bo'ldi.

Parlamentizmning vujudga kelishi keyinchalik davlat boshqaruvining eng demokratik, davlat boshqaruvida ko'pchilikning ishtirokini ta'minlaydigan respublika shaklining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir qildi.

Parlamentizmning vujudga kelishi va rivojlanishi inson huquqlarini himoya qilishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda har bir demokratik yo'ldan borayotgan mamlakatlar o'z parlamentini shakllantirish, rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

O'zbekistonning mustaqillikkacha bo'lgan davrini ko'radigan bo'lsak, unda oliy qonunchilik organi O'zbekiston Oliy Soveti hisoblangan. Lekin, u shakli nuqtayi nazaridangina parlament (vakillik) organi bo'lib, mazmuni parlamentdan ancha yiroq edi. Oliy Sovet vujudga kelib butun faoliyat ko'rsatgan davrda biror marta muqobillik asosida saylov bo'lmagan. Uning vakillik xarakteri avvaldan sun'iy ravishda belgilash asosida qurilar edi. Ya'ni, uning tarkibida qancha ishchi, qancha dehqon, qancha ziyoli, qancha ayol bo'lishi, milliy tarkibi avvaldan belgilab qo'yilar, deputatlar mansablariga, lavozimiga qarab o'ringa ega bo'lar edi. Oliy Sovet mustaqil hech narsani hal qilolmas, faqat markaz manfaatiga mos qonunlar qabul qilar yoki partiya ko'rsatmasi, irodasini qonunga aylantirar edi.

O'zbekiston parlamentga mustaqillik tufayli erishdi. Parlamentning tashkil qilinishida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimayatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi", – qoidasiga to'la amal qilishga va Oliy Majlisning faoliyatini konstitutsiyaviy asosda tartibga solishga alohida e'tibor berildi.

Konstitutsiyaning beshinchi bo'limidagi XXII bob "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi" deb nomlanib, uning moddalari Oliy Majlis faoliyatini tartibga soladi.

Oliy Majlis – O'zbekiston Respublikasi Parlamenti bo'lib, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi. Shu bilan birga u oliy davlat vakillik organidir.

Konstitutsiyaning 76-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", – deyilgan.

Eng avvalo, Oliy Majlis – davlat organi. Uni davlat vakillik organi deb yuritilishining sababi, u xalq vakillaridan iborat.

Oliy Majlis ikki palatadan: Qonunchilik palatasi – quyi palata, Senat – yuqori palatadan iborat.

Oliy Majlis palatalarining tashkil bo'lishi, a'zolarining tarkibini ko'radigan bo'lsak, ular aholining keng qatlamlari vakili ekanligiga guvoh bo'lamiz. Oliy Majlis palatalarining deputat va senatorlari orasida erkaklar va ayollar, turli yoshdagi kishilar, turli kasb egalari, olimlar, turli partiya vakillari borligini ko'ramiz. Ular xalq ishonch bildirgan va xalqdan vakolat olgan kishilardir. Ular Oliy Majlis palatalarida xalq nomidan ish ko'radi. Shuning uchun, qonunda Oliy Majlis davlatning vakillik organi, deb belgilab qo'yilgan.

Oliy Majlis – vakillik organi sifatida qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi. U mamlakatda yagona qonunchilik organi. Oliy Majlis qonunchilik organi sifatida qonunlarni qabul qiladi, ularga o'zgartirish kiritadi va zarur hollarda amaldagi qonunlarni bekor qiladi. Qonun qabul qilish bilan ular mamlakat ijtimoiy hayotining huquqiy asoslarini belgilaydi.

Oliy Majlisning Konstitutsiyada qonunchilik hokimiyati amalga oshiradi, deb belgilanishi uning vazifasi faqat qonun qabul qilish bilan cheklanadi, degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Oliy Majlis ham butun dunyodagi parlamentlarga xos boshqa vazifalarni bajaradi.

Oliy Majlisning vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

2) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini, vakolatlarini belgilash;

3) davlat organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash, saylashda ishtirok etish;

4) mamlakat tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish, ularni respublika tarkibidan chiqarish haqidagi masalalar, ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal qilish;

5) qabul qilingan qonunlar ijrosini nazorat qilish, ijro hokimiyati (hukumat) faoliyati ustidan nazorat o'rnatish.

Mamlakatimizda demokratik jarayonlarning rivojlanib borishi ijro hokimiyati faoliyati ustidan vakillik hokimiyati, ya'ni parlament nazoratini kuchaytirishni taqozo etmoqda

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da bu masalaga alohida e'tibor berilgan edi. Shu asosda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar vakillik hokimiyatining hukumat faoliyati ustidan nazoratini, hukumatning. Bosh vazirning parlament oldida mas'uliyatini yanada kuchaytirishni ko'zda tutadi. Bu masalalar xususida keyingi bandlarda alohida to'xtalib o'tamiz.

Oliy Majlisning davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini aniqlashda uning qonunchilik hokimiyatini amalga oshirishi, shu tufayli boshqa har qanday hokimiyat organlarining faoliyatini belgilash, boshqa organlarni tuzishda ishtirok etishi, ijro hokimiyatining parlament oldida mas'ulligiga e'tibor berish lozim. Ana shu narsalar Oliy Majlisning boshqa hokimiyat tuzilmalariga nisbatan ta'sirchan vositalarga ega hokimiyat tarmog'i ekanligini ko'rsatadi.

3-§. Oliy Majlisning tarkibiy tuzilishi va palatalarni tashkil etish tartibi

Butun jahonda parlamentlar bir palatali yoki ikki palatali tuzilishda tashkil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali tuzilishga ega.

Konstitutsiyamizning XXII bobida Oliy Majlisning maqomi, tuzilish tarkibi, tashkil etish tartibi, vakolatlari palatalarning birbiri bilan munosabati, rahbariy va yordamchi organlari, qonunchilik jarayoni tartibga solingan.

Konstitutsiyaning 76-moddasiga asosan: "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil".

Demak, Oliy Majlis, birinchidan, oliy davlat vakillik organi va ikkinchidan, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

U yuqori va quyi – ikki palatadan tarkib topgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining ham, Senatning ham vakolat muddati besh yil, bu Oliy Majlisning vakolati ham besh yil ekanligini bildiradi.

Konstitutsiyaning 77-moddasi Oliy Majlis palatalarini tashkil etish tartibini belgilagan. Unga asosan, Qonunchilik palatasining bir yuz o'ttiz besh deputati bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Qonunchilik palatasining o'n besh deputati O'zbekiston Ekologik harakatidan saylanadi. Shunda Qonunchilik palatasi deputatlarining umumiy soni 150 kishidan iborat bo'ladi.

Konstitutsiyaning bu normasi Qonunchilik palatasini faqat saylov yo'li bilan tashkil qilish tartibini o'rnatadi, shu bilan birga, saylovning ham ikki usulini – umumxalq saylovi va alohida harakat tomonidan saylov o'tkazilishini belgilaydi.

Qonunchilik palatasining deputatlari saylovi Konstitutsiyada vakillik organlari uchun belgilangan muddatda (Konstitutsiyaning 117-moddasi) o'tkaziladi. Bu saylov umumxalq saylovi bo'lib, unda barcha 18 yoshga yetgan (Konstitutsiyaning 117-moddasida ko'rsatilgan holatlardan tashqari) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etadi. Saylov umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasiga saylovlar haqida darslikning "Saylov tizimi" haqidagi bobida batafsil to'xtalganmiz. Shuning uchun bu yerda O'zbekiston saylov tizimida yangi holat, ya'ni Ekologik harakatda o'tkaziladigan saylovlarga birmuncha kengroq to'xtalishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 7[1]-bobi "O'zbekiston Ekologik harakatidan Qonunchilik palatasiga deputatlarni saylash tartibi" deb nomlangan.

Qonun normalariga asosan, O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasining o'n besh deputati mazkur harakatning oliy organi (Konferensiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan muddatlarda saylanadi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish va ularni saylash tartibi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasiga deputatlar sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ochiq hamda oshkora amalga oshiriladi.

Ekologik harakatdan Qonunchilik palatasiga saylanadigan deputatlarga ham umumiy tarzda saylanadigan deputatlarga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. Ya'ni, saylanadigan deputat saylov kuni 25 yoshga to'lgan bo'lishi, O'zbekiston hududida oxirgi besh yil davomida muqim yashagan bo'lishi kerak.

Sodir etgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmaganlar; O'zbekiston Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari; diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputat etib saylanmaydilar.

Qonunchilik palatasiga Ekoharakatdan deputatlar saylash tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2009-yil 17-sentabrda tasdiqlangan "O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish va ularni saylash tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan.

Qonunchilik palatasi deputatligiga Ekoharakatdan nomzod ko'rsatish va ularni saylash harakatning oliy organi – Ekoharakat Konferensiyasi tomonidan amalga oshiradi.

Ekoharakatdan respublikaning har bir ma'muriy hududidan bittadan 14 ta, Markaziy Kengashdan 1 ta, jami 15 ta deputat saylanadi.

Saylovga kamida yetmish besh kun qolganda Ekoharakat Markaziy saylov komissiyasiga saylovda ishtirok etish qarorini, Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tganligi haqidagi hujjatni topshiradi. Hujjatlar taqdim etilgach, Markaziy saylov komissiyasi besh kunlik muddatda Ekoharakatning Konferensiyasini o'tkazishga doir qaror qabul qiladi. Ekoharakatning Konferensiyasi Qonunchilik palatasiga saylov o'tkaziladigan kun, ya'ni dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

Konferensiya o'tkaziladigan kunga kamida o'ttiz besh kun qolganda Ekoharakatning hududiy birlikdagi 14 bo'linmasidan 25 nafardan saylov huquqiga ega shaxslar orasidan delegatlar saylanadi. Delegatlar yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi, har bir ma'muriy hududiy birlik bo'linmasidagi yig'ilishda Markaziy saylov komissiyasi vakillari ishtirok etadi.

Ekoharakat nomzodlar ko'rsatish va ularni saylash bo'yicha o'tkaziladigan konferensiya joyi, vaqti haqida o'n kun avval Markaziy saylov komissiyasini xabardor qiladi, Markaziy saylov komissiyasi esa, konferensiyada ishtirok etish uchun o'z vakilini belgilaydi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish oshkora amalga oshiriladi. Konferensiyada kuzatuvchilar, OAV vakillari ishtirok etadi.

Konferensiyada deputatlikka nomzod ko'rsatish uchun rais va a'zolar tarkibidan 15 kishidan iborat kengash saylanadi. Ular deputatlikka nomzodlarni tanlaydi. Kengash har bir ma'muriy hududdan 3–5 kishi, Kengash Ijroiya qo'mitasidan kamida ikki nafar nomzod tanlab ko'rsatadi. Nomzodlar ro'yxati har bir ma'muriy birlik bo'yicha alohida tuziladi. Nomzodlar ro'yxati Kengash raisi tomonidan konferensiyada o'qib eshittiriladi. Konferensiyada har bir nomzod bo'yicha alohida muhokama o'tkaziladi.

Nomzod ko'rsatish va saylash Konferensiyada yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Yashirin ovoz berish byulletenlari Markaziy saylov komissiyasi tasdiqlagan namunada tayyorlanadi. Byulletenda ovoz berish tartibi ko'rsatiladi. Nomzodlar alohida-alohida muhokama qilingandan so'ng, ularni byulletenga kiritish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Konferensiyada ishtirok etayot-

ganlarning ko'pchiligining ovozini olgan nomzod byulletenga kiritiladi.

Yashirin ovoz berishni tashkil qilish, natijalarni aniqlash uchun olti nafar a'zo, shundan komissiya raisi va kotibdan iborat sanoq komissiyasi tuziladi. Yashirin ovoz berish byulletenining o'ng tomoni yuqori burchagiga sanoq komissiyasining ikki nafari imzo chekib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Ovoz berishdan avval sanoq komissiyasi raisi ovoz berish tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtiradi, komissiya a'zolari hozirligida saylov qutilarini tekshiradi.

Konferensiya ishtirokchilari shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida byulleten olib, ovoz beruvchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi.

Nomzod ro'parasiga belgi-krestik qo'yish bilan ovoz beriladi. Ovoz berish tugagandan so'ng komissiya byulletenlar asosida natijalarni aniqlaydi.

Boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz olgan nomzodlar, agar ularni Konferensiyada ishtirok etayotganlarning ellik foizdan ortiqrog'i yoqlab ovoz bergan bo'lsa, saylangan hisoblanadi.

Agar nomzodlardan birortasi ellik foizdan ko'proq ovoz ololmasa, eng ko'p ovoz olgan ikki nafar nomzod bo'yicha takroriy ovoz berish o'tkaziladi. Bunda boshqa nomzodga nisbatan ko'proq ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputatligiga deputatlar saylovi o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan hollarda O'zbekiston ekologik harakatidan deputatlarning takroriy saylovi o'tkaziladi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputatlarining takroriy saylovini o'tkazish tartibi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Konferensiyada sanoq komissiyasining bayonnomasi asosida deputat saylanganligi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

O'zbekiston ekologik harakati oliy organining vakili O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar ro'yxatini Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi. Ro'yxatga quyidagilar ilova qilinadi:

O'zbekiston ekologik harakati oliy organining mazkur harakatdan Qonunchilik palatasiga deputatlar saylash to'g'risidagi qarori;

O‘zbekiston ekologik harakati oliy organi majlisi bayonnomasidan ko‘chirma, unda O‘zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputati etib saylangan har bir shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, kasbi, lavozimi (mashg‘ulotning turi), ish va yashash joyi ko‘rsatiladi;

saylangan deputatning deputat etib ro‘yxatga olingan taqdirda bajarib turgan ishidan (xizmatidan) bo‘shash to‘g‘risidagi arizasi.

Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston ekologik harakati oliy organining hujjatlarni taqdim etgan vakiliga ularning qabul qilib olingan sanasi va vaqti ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beradi.

Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni yetti kunlik muddat ichida tekshirib chiqadi va ularning ushbu Qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi. Markaziy saylov komissiyasi ro‘yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar va ushbu qonun talablaridan chetga chiqish hollari to‘g‘risida O‘zbekiston ekologik harakati oliy organining vakiliga belgilangan tartibda ma’lum qiladi. Shular asosida Markaziy saylov komissiyasi Ekoharakatdan Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarni ro‘yxatga oladi.

Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasiga saylangan ayrim deputatlarning vakolatlarini haqiqiy emas deb topgan taqdirda, shuningdek deputat chaqirib olingan yoki boshqa sabablarga ko‘ra deputatlik vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan hollarda yangi saylov o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat bo‘lib, u Konstitutsiyaning 77-moddasiga binoan, hududiy vakillik palatasi hisoblanadi va Senat a’zolaridan (Senatorlardan) iborat bo‘ladi. Konstitutsiyaning shu moddasida Senatni shakllantirish tartibi belgilangan. Unga asosan oliy Majlisning Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida

hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida oxirgi besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka va senatorlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunining II bo'limi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish tartibi" deb nomlangan va unda Senatni shakllantirish keng tartibga solingan.

Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat ham saylov, ham tayinlash yo'li bilan shakllantiriladi.

Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylanganidan keyin bir oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyat, tuman, shahar davlat hokimiyati vakillik organining saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan deputati Senat a'zoligiga saylanish uchun nomzod bo'lishi mumkin.

Davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisi, agar unda deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisini chaqirish, Senat a'zoligiga nomzod ko'rsatish, shuningdek ovoz berishni o'tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida Senat a'zolarini saylash tartibi to'g'risidagi nizom Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ovoz berish natijalariga ko'ra boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz olgan Senat a'zoligiga nomzodlar, basharti davlat hokimiyati vakillik organlarining majlisda hozir bo'lgan deputatlarining ellik foizidan ortig'i ularni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, saylangan deb hisoblanadi.

Agar ovoz berish chog'ida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo'lsa, saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoligi uchun ovozlarning zarur miqdorini to'plamagan nomzodlar bo'yicha davlat hokimiyati vakillik organlarining ana shu qo'shma majlisining o'zida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Markaziy saylov komissiyasi davlat hokimiyati vakillik organlari qo'shma majlisilarining bayonnomalari asosida, bu bayonnomalar kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay, Senat a'zolarini ro'yxatga oladi.

Agar saylov davomida, ovozlarni sanab chiqishda, yashirin ovoz berish natijalarini aniqlashda qonun talablari saylov natijalariga ta'sir qilgan tarzda buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa, Markaziy saylov komissiyasi Senat a'zolarining saylovini haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Davlat hokimiyati vakillik organlari qo'shma majlislarining, shuningdek Markaziy saylov komissiyasining Senat a'zolarining saylovi to'g'risidagi qarorlari ustidan qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat berilishi mumkin.

Senat a'zolarining takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi:

a) agar saylov haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

b) agar takroriy ovoz berish natijasida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo'lsa.

Takroriy saylov saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoligi uchun o'tkaziladi

Senat a'zolarining takroriy saylovi Senatga o'tkazilgan asosiy saylovdan keyin ko'pi bilan o'n besh kunlik muddat ichida o'tkaziladi.

Saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoligiga nomzodlar ko'rsatish va takroriy saylov o'tkazish ushbu Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bo'shab qolgan o'rinlarga Senat a'zolarining saylovi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Senat vakolat muddatining tugashiga olti oydan kam vaqt qolganida Senat a'zosining o'rni bo'shab qolsa, bo'shab qolgan o'ringa Senatning yangi a'zosi saylovi o'tkazilmasligi mumkin.

Markaziy saylov komissiyasi Senatni shakllantirish yakunlari to'g'risidagi axborotni va Senat a'zolarining ro'yxatini ularning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, egallab turgan lavozimi (mashg'ulotning turi), ish va yashash joyini ko'rsatgan holda o'n kundan kechiktirmay matbuotda e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan 2004-yil 18-sentabrda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarini saylash tartibi to'g'risida"gi Nizomda Senat a'zolarini saylash bilan bog'liq barcha jarayon va tartiblar belgilab qo'yilgan.

4-§. Oliy Majlis palatalarining tashkiliy faoliyati shakli va ichki tuzilishi

Oliy Majlisning tashkiliy shakli uning faoliyatini amalga oshirish usuli bo'lib, shu orqali palatalar o'zlarining vazifalarini bajaradi, vakolatlarini amalga oshiradi. Palatalar faoliyatining shakli Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan.

Palatalarning ichki tuzilishi har bir palataning tarkibiy tuzilmalari yig'indisidan iborat bo'lib, ular palatalarning ishini tashkil qilishga, palatalarga o'z vazifasini bajarishiga yordam beradi. Palatalarning ichki tarkibiy tuzilmasini tashkil qilish, ularning vazifasi Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan.

Oliy Majlis palatalarining tashkil bo'lishi, tarkibidagi farqlar hamda mustaqil vazifalarining mavjudligi ularning tashkiliy faoliyat shaklida, ichki tuzilishida farqlar, alohida xususiyatlar bo'lishini taqozo etadi.

Shuning uchun palatalarning tashkiliy faoliyat shakli va ichki tuzilishini alohida palatalar misolida yoritish maqsadga muvofiq bo'lib, bu talabalarga mazkur masalalarni oson o'zlashtirish imkonini berishi mumkin.

I. Qonunchilik palatasi.

Konstitutsiya va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunga asosan, Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli uning sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislaridir.

Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishning prinsiplari: masalalarni birgalikda va erkin muhokama qilish, oshkoralik, jamoatchilik fikrini hisobga olish hisoblanadi (bu prinsiplar Senat faoliyatiga ham taalluqlidir).

Qonunchilik palatasining navbatdagi sessiyalari qoida tariqasida sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi. Bu Qonunchilik palatasining doimiy ishlovchi organligidan kelib chiqib o'rnatilgan.

Palataning saylovdan keyingi birinchi sessiyasi saylovdan so'ng ikki oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi va birinchi majlisni Markaziy saylov komissiyasi raisi ochadi hamda palata spikeri saylangunicha majlisga raislik qiladi.

Palataning majlislari, agar ularda barcha deputatlarning kamida yarmi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat raisi, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki boshqaruvining raisi ishtirok etishi mumkin.

Qonunchilik palatasi majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, OAV vakillari taklif qilinishi mumkin.

Palataning majlislari ochiq va oshkora o'tkazilishi, zarur hollarda Palata yopiq majlis o'tkazish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi Senat bilan birga qo'shma majlis ham o'tkazishi mumkin. Qo'shma majlislar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

2011-yilgi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishga asosan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish masalasi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisiga kiritilishi belgilandi.

Qo'shma majlislar unda Qonunchilik palatasi va Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa vakolatli hisoblanadi. Qo'shma majlisda qo'shma qaror qabul qilinishi mumkin. Bunda ham ovoz berish alohida-alohida o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasi qarorlari deputatlar umumiy sonining ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi, shuningdek konstitutsiyaviy qonunlar esa deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasi ichki tuzilishi deganda palata tomonidan tashkil qilinadigan, uning ishiga yordam beruvchi tuzilmalar tushuniladi. Shulardan birinchisi Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlaridir.

Saylovdan keyingi birinchi majlisda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolat muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi

deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

1) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;

7) Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi;

8) Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

Bu vakolatlar Konstitutsiyada ko'rsatilgan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda Spikerning yana boshqa vakolatlari ham ko'rsatilgan (14-modda), jumladan, Qonunchilik palatasida qabul qilingan qarorlarni Senatga yuborish, Spiker o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash va hokazo.

Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan palataning vakolat muddatiga Spiker o'rinbosarlari saylanadi. Qonunchilik palatasidagi fraksiya o'z vakilini Spiker o'rinbosarligiga saylanishida kafolatli huquqqa ega. Ya'ni, har bir fraksiyadan, albatta, Spiker o'rinbosari saylanadi. Spiker o'rinbosarligiga, qoida tariqasida, fraksiya o'z rahbari nomzodini ko'rsatadi. Spiker o'rinbosarlari

deputatlar umumiy ko'pchiligining ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali saylanadi.

Spiker o'rinbosari Spikerning topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi, u yo'qligida uning vazifalarini bajarib turadi.

Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali deputatlar uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

Qonunchilik palatasining tarkibiy tuzilmalaridan biri Qonunchilik palatasi Kengashidir.

Palata faoliyatini samarali tashkil etish, qo'mitalar ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish, kun tartibidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashi tuziladi. Uning tarkibiga Spiker, uning o'rinbosarlari, fraksiyalar va deputatlar guruhlari rahbarlari, qo'mitalarning raislari kiradi.

Kengash palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab to'planadi. Kengash qarori a'zolarning ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasi tarkibida uning deputatlaridan palataning vakolati muddatiga saylanadigan qo'mitalar muhim rol o'ynaydi.

Konstitutsiyaga asosan, Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlar hamda palata tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolati muddatiga deputatlar orasidan qo'mitalarni saylaydi.

Qo'mitalarni saylash tartibi, vakolatlari, ularning ishini tashkil etish, qo'mitalarning majlislarini o'tkazish, qarorlarning yuridik kuchi haqidagi masalalar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 17–21-moddalarida tartibga solingan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi Qonunga asosan, Qonunchilik palatasida qoida tariqasida reglament; budjet, bank va moliya masalalari; iqtisodiy masalalar va tadbirkorlik; qonunchilik va sud-huquq masalalari; mehnat va ijtimoiy masalalar; mudofaa va xavfsizlik masalalari; xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitalari tuzilishi shart. Palata boshqa qo'mitalarni ham tuzishi

mumkin. Qo'mitalarning umumiy soni, qoida tariqasida, o'ntadan oshmasligi kerak.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasida Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan. Komissiya ham palata majlisida deputatlar orasidan tuziladi. Uni tuzish vaqtida nima uchun komissiya tuzilayotganligi, uning vakolatlari belgilab qo'yiladi. Komissiya o'z vazifasini bajargach yoki palata qaroriga asosan faoliyatini tugatadi.

Qonunchilik palatasi tarkibiy tuzilmalarini deputatlar birlashmalari ham tashkil etadi. Palata deputatlari siyosiy, professional va boshqa asoslarga ko'ra fraksiyalar va guruhlar shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishlari mumkin.

Bular orasida fraksiya alohida tartibda tuziladi. Fraksiya siyosiy partiyalardan saylangan deputatlardan partiya manfaatlarini parlamentda ifodalash maqsadida tuziladigan va tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkaziladigan deputatlar birlashmasidir.

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalardan ko'rsatilmagan deputatlar deputat guruhlarini tuzishi mumkin, masalan, Ekoharakatdan saylangan deputatlar. Deputatlarning fraksiya yoki guruhga kirish to'g'risidagi qarori ularning majlislarida ko'rib chiqiladi.

Deputat faqat bitta fraksiya yoki guruhga a'zo bo'lishi mumkin. Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputat faqat shu partiya fraksiyasi a'zosi bo'lishi mumkin.

Qonunchilik palatasining kamida 9 nafar deputati fraksiya tuzishi mumkin. Hozir Qonunchilik palatasida 4 ta partiya fraksiyasi va bitta deputatlar guruhi faoliyat ko'rsatmoqda.

Fraksiya va guruhlarni tuzish, ularning faoliyatini tashkil qilish, vazifa va vakolatlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda va "O'bekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risisda"gi Qonunda belgilangan.

Parlamentdagi ko'pchilik va parlamentdagi muxolifat, fraksiyalarning blokka birlashish masalasi ham Qonunchilik palatasi

faoliyatiga, ichki tuzilishiga bog'liq masaladir. Qonunchilik palatasida ko'pchilikdan iborat fraksiya parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi. Maqsad va vazifalarining yaqinligi, o'xshashligiga qarab fraksiya va deputatlar guruhlari blok tuzishi va bu blok parlament ko'pchiligini tashkil etishi mumkin.

Yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturi yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan fraksiyalar va deputatlar guruhlari o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin. O'zini muxolifat deb e'lon qilgan fraksiya qonunda fraksiyalar uchun belgilangan vakolatlardan foydalanish bilan birga, qo'shimcha quyidagi huquqlardan foydalanadi:

Qonunchilik palatasining mas'ul qo'mitasiga tegishli masala yuzasidan ma'ruzasi bilan bir vaqtda, qonun loyihasining muqobil tahririni kiritish;

muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o'zining alohida fikrini palata yalpi majlisi bayonnomasiga kiritish;

Senat tomonidan rad etilgan qonun bo'yicha kelishuv komissiyasida o'z vakillarining bo'lishi kafolatlanadi.

Muxolifat huquqlari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan kamsitilishi mumkin emas. Qonunlarda fraksiya va deputatlar guruhining faoliyatini tugatish ham ko'zda tutilgan. Fraksiya yoki guruh tashabbusi, qonunchilik palatasining vakolat muddati tugashi bilan fraksiya va guruh tuzish uchun belgilangan miqdordan kam deputatlar tarkibida qolsa, ularning faoliyati tugatiladi. Qonunlarga ko'ra tegishli siyosiy partiya tugatilsa, fraksiya ham tugatiladi.

II. Senat faoliyatining tashkiliy shakli va Senatning tarkibiy tuzilmasi

Konstitutsiya va qonunlarga asosan, Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning majlisidir. Senatning birinchi majlisi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Senat tarkib topgandan keyin bir oydan kechiktirmay chaqiriladi, majlisni Markaziy saylov komissiyasi raisi ochib, Senat Raisi saylanguncha unga raislik qiladi.

Senat doimiy ishlovchi palata emas, uning majlislari zaruratga qarab, lekin bir yilda kamida uch marta o'tkazilishi kerak.

Senatning navbatdan tashqari majlisining o'tkazilishi ko'zda tutilgan bo'lib, u Prezident, Senat Raisi taklifiga binoan yoki Senat a'zolari umumiy sonining uchdan bir qismi taklifi bilan chaqirilishi mumkin.

Senat majlislarida Qonunchilik palatasida qabul qilingan qonunlar ma'qullanadi yoki rad etiladi, shuningdek Senat hujjatlari qabul qilinadi.

Senat majlisi, agar unda senatorlar umumiy sonining yarmidan ko'pi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Konstitutsiya qabul qilish va unga o'zgartirish kiritish, Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilishda senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

Senat va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi Spikeri, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokurori ishtirok etishlari mumkin. Bundan tashqari, Konstitutsiyada (81-modda) Senat majlislarida va uning organlari majlislarida Markaziy bank boshqaruvi raisi ishtirok etishi ham ko'rsatilgan.

Senat majlisiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, OAV vakillari taklif etilishi mumkin.

Senat majlisi ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarur hollarda Senat qarori asosida yopiq majlis o'tkazilishi mumkin. Senat Qonunchilik palatasi bilan birga qo'shma majlislar o'tkazadi. Bu haqda Qonunchilik palatasiga bag'ishlangan qismda batafsil to'xtalib o'tilgan.

Senat ham o'z ichki tuzilmasiga ega.

Senatning birinchi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolat muddatiga Senat Raisi saylanadi.

Birinchi majlisda Senat Raisi bilan birga uning o'rinbosarlari ham saylanadi, o'rinbosarlardan biri Qorqalpog'iston Respublikasi vakili bo'ladi.

Senat Raisi o'z vazifasini bajarishi davrida siyosiy partiyalar va harakatlarga a'zolikni to'xtatib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi:

1) Senat majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Senat qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlar ishi bilan bog‘liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o‘zga tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko‘radi;

7) Senat qarorlarini imzolaydi;

8) Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi (Konstitutsiyaning 86-moddasi).

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunda Senat Raisining yana boshqa vakolatlari ham ko‘rsatilgan, ya’ni Senat ma’qullagan qonunlarni imzolash uchun Prezidentga yuborish, o‘rinbosarlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash va boshqalar (Qonunning 14-moddasi).

Senat Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining ovozi bilan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

Senat Raisining o‘rinbosarlari Raisning topshirig‘iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Rais yo‘qligida uning vazifalarini bajaradi.

Senatning ichki tuzilmasi sifatida Senat Kengashini ko‘rsatish mumkin.

Senat faoliyatini samarali tashkil etish, qo‘mitalar faoliyatini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqishni tashkil etish uchun Senat Kengashi tuziladi. Uning tarkibiga Senat Raisi,

o'rinbosarlari, qo'mitalarining raislari kiradi. Senatda fraksiyalar tuzilmasligi sababli Kengash tarkibida fraksiya boshliqlari yo'q.

Kengash Senat majlislari oraliqlarida, shuningdek zaruratga qarab to'planadi. Uning qarori Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasi kabi Senatning ichki tuzilishida qo'mitalar alohida rol o'ynaydi.

Konstitutsiyaning 87-moddasida Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlar hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun senatorlar orasidan Senatning vakolat muddatiga qo'mitalar saylanishi belgilangan. Konstitutsiyaning shu moddasida zarur bo'lgan vaqtda muayyan vazifalarni bajarish uchun senatorlar orasidan komissiyalar tuzilishi ko'rsatilgan.

Oliy Majlis Senatining ichki tuzilishida Qonunchilik palatasidagi kabi, partiya fraksiyalari, deputat guruhlari, bloklar kabi tuzilmalar yo'q.

Oliy Majlis Senati qo'mitalarini saylash, vakolatlari, ishini tashkil etish, majlislari, qarorlari, Senat komissiyalari haqidagi masalalar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 17–22-moddalarida belgilangan.

5-§. Oliy Majlis palatalarining vakolatlari

Oliy Majlis parlament sifatida o'z vazifalariga va shu vazifalarni bajarish uchun yetarli vakolatga ega.

Oliy Majlisning vakolatlari palatalarning birgalikdagi vakolatlari asosida vujudga keladi. Shuning uchun yuridik adabiyotlarda, shu jumladan Konstitutsiya va qonunlarda ham asosan Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari degan tushuncha ishlatiladi.

Konstitutsiyaning 78-moddasi palatalarning birgalikdagi vakolatlarini belgilab qo'ygan. Unga asosan, Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari quyidagilar:

1) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

2) O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

3) O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;

8) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;

10) O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;

12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivoj-

lanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

17) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilinishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Oliy Majlis palatalarining bu vakolatlari, qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqilib hal qilinadi. Zarur hollarda yuqoridagilar Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlislarida ham ko'rilishi mumkin. Masalan, Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash asosan qo'shma majlisda amalga oshiriladi.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi bu vakolatlarini vazifa va maqsadiga qarab guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Qonunchilik sohasidagi vakolatlar, bu Oliy Majlisning asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Konstitutsiya qabul qilish, unga o'zgartirish kiritish, konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilish va ularga o'zgartirish kiritish palatalarning birgalikdagi vakolatidir.

2. Mamlakatni ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi eng muhim masalalarda referendum belgilash, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish.

3. Davlat qurilishi sohasidagi vakolatlar: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari tizimi va vakolatlarini belgilash; mamlakat tarkibiga yangi tuzilmalarni qabul qilish va chiqarish, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmasini belgilash, markaziy muassasalarni tuzish to'g'risidagi Prezident farmonlarini tasdiqlash, Markaziy saylov komissiyasini tuzish, Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish.

4. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq vakolatlar: davlat budjetini qabul qilish va ijrosini nazorat qilish, soliqlar va boshqa to'lovlarni joriy qilish.

5. Mamlakatning xavsizligini ta'minlash bilan bog'liq vakolatlar: Prezidentning urush holati, umumiy safarbarlik, favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash.

6. Nazorat sohasidagi vakolatlari, bularga: davlat budjetining bajarilishini nazorat qilish, Bosh vazir hisobotini eshitish, Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlarini amalga oshirishda Prezident, Vazirlar Mahkamasi ishtirok etadi.

Konstitutsiya mazmunidan ko'rinib turadiki, Oliy Majlis palatalarida ayrim masalalar Prezident taqdimiga ko'ra hal qilinsa, ayrim masalalar Prezident farmonlarini tasdiqlash orqali hal qilinadi. Bir holatda, ya'ni davlat budjetini tasdiqlash masalasi Vazirlar Mahkamasi taqdimiga binoan hal qilinadi.

Oliy Majlis palatalari birgalikda Oliy Majlisga taalluqli masalalarni hal qilsada, ularning o'zlari hal qiladigan mustaqil masalalar, vakolatlarining borligi palatalarning mustaqilligini ko'rsatadi. Bu xususiyat jahon parlament tajribasida mavjud. Shuning uchun Konstitutsiyaning 79-moddasida Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatida ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik pa-

latasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati maslalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari shular bilan cheklanib qolmaydi. "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Qonun va Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan konsepsiya asosida Konstitutsiyaga kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra, Qonunchilik palatasida eng ko'p o'rin olgan siyosiy partiyalarning Bosh vazir nomzodini ko'rsatish huquqi, palatadagi siyosiy partiyalar fraksiyalariga Bosh vazirni muddatidan oldin vazifasidan ozod qilishni so'rab Prezidentga murojaat qilish huquqi yoki Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqining mavjudligi Qonunchilik palatasining huquqlari ancha kengligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyada Oliy Majlis Senatining ham mutlaq vakolatlari belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 80-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarining raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylash;

5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

9) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

10) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risisdagi hujjatlarni qabul qilish;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Senati a’zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Senatning Konstitutsiyada belgilangan mutlaq vakolatlarini ham guruhlarga bo‘lib o‘rganilsa, ularni tushunish oson bo‘ladi.

1. Senatning o‘z faoliyati bilan bog‘liq vakolatlari. Bular: Senat Raisi, rais o‘rinbosarlari, qo‘mitalar raislari, ularning o‘rinbosarlarini saylash; Bosh prokurorning taqdimiga binoan Senat a’zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish masalasini hal qilish; o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

2. Boshqa markaziy davlat organlari tarkibini tuzish bilan bog'liq vakolatlar. Bular: Prezident taqdimiga binoan Konstitutsiyaviy sudni saylash; Prezidentning taqdimiga binoan Oliy xo'jalik sudini saylash; Prezidentning taqdimiga binoan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisini, Markaziy bank boshqaruvi raisini, chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarni tayinlash va lavozimidan ozod qilish, Bosh prokurorni, Hisob palatasi raisini, Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi Prezident farmonlarini tasdiqlash.

3. Parlament nazorati bo'yicha vakolatlar. Bular: Bosh prokurorning, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, Markaziy bank boshqaruvi raisining hisobotini eshitish.

4. Fuqarolarning huquq va erkinligi bilan bog'liq vakolatlar. Bular: Prezidentning taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish.

Senatning vakolatlariga e'tibor bersak, ularning ayrimlari Prezident taqdimi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar, ayrimlari Prezident farmonlarini tasdiqlash orqali amalga oshiriladigan vakolatlar ekanligini ko'rish mumkin.

Bundan qonunchilik hokimiyati bilan davlat boshlig'i yaqin aloqada bo'lib, davlat boshqaruvi bo'yicha ishlarni hal qilishini ko'ramiz.

6-§. Qonunchilik jarayoni

Konstitutsiyaga asosan, Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Bu degani u qonun qabul qiladi. O'zbekistonda boshqa qonun qabul qiluvchi organ yo'q.

Qonun qabul qilishda Oliy Majlisning har ikkala palatasi ishtirok etadi. Lekin, qonunni tayyorlash, loyihalarni muhokama va qabul qilish Qonunchilik palatasida amalga oshiriladi. Palata nomining o'zi ham qonun qabul qilishda uning roli alohida ekanligini ko'rsatadi.

Qonun qabul qilish alohida va aniq tadbirlarni o'z ichiga oladigan jarayon. Bu jarayon ma'lum bosqichlardan iborat bo'lib, qonunlarda belgilab qo'yilgan.

Qonunchilik jarayonining ayrim masalalari Konstitsiyada ham belgilangan va mos ravishda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risisda"gi Qonunda hamda Senatga taalluqli shunday qonunlar bilan tartibga solinadi.

Qonunchilik jarayoni, odatda, quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- qonunchilik tashabbusi;
- qonun loyihalarini ko'rib chiqishga qabul qilish va loyihani muhokama qilish;
- qonunlarni qabul qilish va ma'qullash;
- qonunlarni imzolash, e'lon qilish.

Konstitutsiyaning 83-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar ko'rsatib qo'yilgan. Unga asosan, qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, bu moddada qonun loyihasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritilishi ham belgilab qo'yilgan.

Qonunchilik palatasiga qonun loyihasini taqdim etgan subyektlar loyihaga quyidagilarni ilova sifatida taqdim qilishi shart:

- qonun loyihasiga uning konsepsiyasi bayon qilingan holdagi tushuntirish xati;
- o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, shuningdek qonun loyihasi kiritilishi bilan bog'liq qonunlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihasi;
- o'zgartirilishi, qo'shimchalar kiritilishi, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi lozim bo'lgan qonunosti hujjatlarining ro'yxati;
- moddiy harajatlarni talab qiladigan qonun loyihalari uchun moliyaviy-iqtisodiy asoslar;

- davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko'paytirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti moddalari bo'yicha o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi.

2013-yil 18-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuniga muvofiq, qonunchilik jarayoni izchil isloh etildi. Jumladan, Qonunchilik palatasining Kengashi huzurida Qonunchilik palatasi devoni xodimlari orasidan uch kishidan iborat tarkibda kiritiladigan qonun loyihalarini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqishni tashkil etish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi guruh tuziladi.

Kelib tushgan qonun loyihalarini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ro'yxatdan o'tkazish, Qonunchilik palatasi Kengashi a'zolarini ular haqida xabardor qilish va ushbu loyihalarni bundan keyin kuzatib borish Muvofiqlashtiruvchi guruh zimmasiga yuklatildi.

Muvofiqlashtiruvchi guruh faoliyatini tashkil etish tartibi Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan nizom bilan belgilanadi.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan birinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar qonun loyihasini kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqining subyekti loyiha matnini o'zgartirish yoki o'zi kiritgan qonun loyihasini chaqirib olish huquqiga ega. Kiritilgan qonun loyihasi, agar ayni shu masala bo'yicha qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan birinchi o'qishda qabul qilingan bo'lsa, qaytarib yuboriladi.

Qonunchilik palatasi Kengashi Muvofiqlashtiruvchi guruhning axborotini eshitib, qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqish uchun mas'ul qo'mitani belgilaydi, unga va bir vaqtning o'zida, fraksiyalarga (deputatlar guruhlariga) qonun loyihasini hamda unga ilova qilingan materiallarni topshiradi.

Mas'ul qo'mita qonun loyihasi bo'yicha barcha fraksiyalardan (deputatlar guruhlaridan) fikrlar va takliflarni to'plab, Qonunchilik palatasi Kengashiga qonun loyihasini Qonunchilik palatasi

ko'rib chiqishi uchun qabul qilish mumkinligi to'g'risida belgilangan muddatda xulosa taqdim etadi.

Qonunchilik palatasi Kengashi mas'ul qo'mitaning xulosasi asosida, fraksiyalarning (deputatlar guruhlarining) fikrlari va takliflarini hisobga olgan holda qonun loyihasini Qonunchilik palatasi ko'rib chiqishi uchun qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Mas'ul qo'mita qonun loyihasini palata kun tartibiga kiritishga tavsiya etsa, palata Kengashi qo'mita xulosasi asosida qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun palata majlisining kun tartibiga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi qonun loyihasini, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqadi.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasi majlislarida birinchi o'qishda ko'rib chiqish chog'ida mazkur qonun loyihasini qabul qilish zarurati, qonun loyihasining konsepsiyasi, uning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek qonunni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va moliyalash manbalari to'g'risidagi masala muhokama qilinadi.

Fraksiyalar (deputatlar guruhlari) qonun loyihasini dastlabki tarzda muhokama qilish yakunlariga ko'ra mas'ul qo'mitaga o'z fikrlari va takliflarini taqdim etadi.

Mas'ul qo'mita fraksiyalar (deputatlar guruhlari), manfaatdor tashkilotlar hamda ekspertlar guruhlarining fikrlari va takliflarini hisobga olgan holda qonun loyihasining dastlabki tarzdagi muhokamasini o'tkazadi va agar Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, qonun loyihasi olingan kundan e'tiboran ikki oy ichida unga:

Qonunchilik palatasi Kengashining qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi qarori loyihasini;

mas'ul qo'mitaning mazkur qonun loyihasini qabul qilish yoki rad etish zarurligi asoslangan xulosasini;

fraksiyalarning (deputatlar guruhlarining) qonun loyihasi bo'yicha fikrlari va takliflarini ilova qilgan holda, Qonunchilik palatasi Kengashi ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasi qo'mitalarida muhokama qilish ochiq qonun loyihasini kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti vakillari taklif etilgan holda o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasi muhokamasiga qonun loyihasining muqobil variantlari kiritilgan taqdirda ular bir vaqtda ko'rib chiqiladi. Qonunchilik palatasi deputatlarining qaror qabul qilish uchun talab qilinadigan eng ko'p miqdordagi ovozini to'plagan qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilingan hisoblanadi. Qonun loyihasining qolgan variantlari Qonunchilik palatasi tomonidan rad etilgan hisoblanadi.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasi majlislarida birinchi o'qishda ko'rib chiqishda uni qabul qilish zarurati, qonun loyihasining konsepsiyasi, uning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek qonunni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar hamda moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi masala muhokama qilinadi. Bunda ma'ruzachi birinchi va keyingi o'qishlarda fraksiyalarning (deputatlar guruhlarining) fikrlari va takliflarini deputatlarga yetkazishi shart.

Fraksiyalarning (deputatlar guruhlarining) qonun loyihasi bo'yicha fikrlari va takliflari hisobga olinishi shart.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasi tomonidan ikkinchi o'qishda ko'rib chiqish chog'ida mas'ul qo'mita ma'qullagan takliflar ham, ma'qullamagan takliflar ham muhokama qilinadi. Qonun loyihasi bo'yicha ovoz berish moddama-modda o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasi muhokama natijalari bo'yicha qonun loyihasini maromiga yetkazish va keyingi o'qishda ko'rib chiqish uchun palataga kiritish muddatini belgilagan holda uni ikkinchi o'qishda qabul qilish yoxud qonun loyihasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Uchinchi o'qishda qonun loyihasi muhokama qilinmasdan to'laligicha ovozga qo'yiladi.

Qonun loyihasi birinchi yoki ikkinchi o'qishda qabul qilingan taqdirda, mas'ul qo'mitaning taklifiga binoan qonunni keyingi o'qish tartib-taomillarini istisno etgan holda qabul qilish to'g'risidagi masala ovozga qo'yilishi mumkin.

Qonun qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Konstitutsiyaviy qonunlar uchdan ikki qism ovoz bilan qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun o'n kun ichida Senatga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Senatga qonun bilan birgalikda qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish chog'ida taqdim etilgan materiallar yuboriladi.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasida muhokama qilish jarayonida Qonunchilik palatasi loyihani umumhalq muhokamasiga qo'yish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Konstitutsiyaga asosan, Qonunchilik palatasi qabul qilgan qonun Senat tomonidan ko'rib chiqilib, ma'qullanishi kerak.

Senatga kelib tushgan qonun ro'yxatga olinadi va Senat Raisi tomonidan qonunni ko'rib chiqadigan hamda uning yuzasidan xulosa tayyorlaydigan qo'mitaga topshiriladi.

Mas'ul qo'mitaning xulosasida qonunni ma'qullash yoki rad etish zarurligi to'g'risidagi tavsiya ifodalangan baho bo'lishi kerak. Qonunni rad etish zarurligi to'g'risidagi xulosada mas'ul qo'mitaning qonunni rad etish zarur deb hisoblashining vajlari bayon etilishi lozim. Mas'ul qo'mitaning xulosasi Senat Kengashiga taqdim etiladi, Kengash qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish-kiritmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Senatning majlisida qonunni ko'rib chiqish ma'ruzachining mas'ul qo'mita xulosasini o'qib eshittirishidan boshlanadi. Ko'rib chiqilayotgan qonun yuzasidan uning muhokamasi jarayonida senatorlar so'zga chiqishlari mumkin.

Qonun Senat tomonidan senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan ma'qullanadi. Konstitutsiyaviy qonunlar bundan mustasno.

Senat tomonidan ma'qullangan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun Senat qarori bilan birgalikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

Senatning qonunni rad etish to'g'risidagi qarorida rad etish vajlari ko'rsatilishi kerak. Unda bir vaqtning o'zida qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish zarurligi to'g'risidagi, shuningdek kelishuv komissiyasi tuzish haqidagi takliflar bayon etilishi mumkin.

Senatning qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risidagi qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida Qonunchilik palatasiga yuboriladi.

Qonunchilik jarayonida Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun Senat tomonidan rad etilganda yoki Senat ma'qullab, Prezidentga imzolash uchun yuborilgan qonunlar Prezident tomonidan rad etilganda qonunni Qonunchilik palatasida qayta ko'rib chiqish tartiblari ham belgilangan.

Senat tomonidan rad etilgan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan e'tirozlar bilan qaytarilgan qonun Qonunchilik palatasi tomonidan bir oylik muddatda qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Mas'ul qo'mita Senat tomonidan rad etilgan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan qonun yuzasidan xulosa beradi.

Mas'ul qo'mitaning xulosasi olinganidan keyin qonunni Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko'rib chiqish masalasi belgilangan tartibda Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibiga kiritiladi.

Agar Qonunchilik palatasi Senat tomonidan rad etilgan qonunni Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- qonunni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda qabul qilish;
- qonunni bundan buyon ko'rib chiqmaslik;
- qonunni avvalgi qabul qilingan tahrirda ma'qullash.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, Senatga ma'qullash uchun yuboriladi.

Bu qonun qabul qilish jarayonida Qonunchilik palatasining huquqlari ustuvorligini, Qonunchilik palatasida o'z fikrini o'tkazishning kuchli vositasi mavjudligini ko'rsatadi.

Qonunchilik bosqichlarida qonunlarni imzolash va e'lon qilish jarayoni mavjud bo'lib, bu Oliy Majlisda qabul qilingan qonunlarning rasmiy kuchga kirishini ta'minlaydi. Konstitutsiyaning 84-moddasiga binoan, qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qounun chilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

Konstitutsiyada, qonunlarda qonun qabul qilish jarayonida Qonunchilik palatasi va Senat o'rtasida vujudga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish tartiblari ham belgilangan bo'lib, bu Kelishuv komissiyasini tuzish orqali amalga oshiriladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin.

Qonunchilik palatasida kelishuv komissiyasini tuzish to'g'risidagi tashabbus Qonunchilik palatasi Spikeridan, shuningdek fraksiyalar va deputatlar guruhlaridan chiqishi mumkin.

Kelishuv komissiyasi tarkibiga nomzodlar yuzasidan Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi tomonidan o'zaro maslahatlashuvlar o'tkaziladi.

Kelishuv komissiyasining Qonunchilik palatasidan va Senatdan ko'rsatilgan tarkibi ularning majlisida tasdiqlanadi.

Kelishuv komissiyasining har bir palatadan saylangan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiyaning hamraislarini saylaydilar.

Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e'tirozini alohida-alohida ovoz berish orqali qabul qiladi.

Kelishuv komissiyasisining qarorlari kelishuv komissiyasi tarkibiga kirgan Qonunchilik palatasi deputatlari va senatorlarning alohida-alohida ovoz berishi orqali qabul qilinadi. Qaror, agar komissiyaning har bir palatadan saylangan a'zolarining ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi.

Kelishuv komissiyasi o'z ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qiladi. Xulosaga qonunga doir o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasining matni ilova qilinadi.

Xulosa Qonunchilik palatasi va Senatdan saylangan kelishuv komissiyasining hamraislari tomonidan imzolanib, tegishincha Qonunchilik palatasi va Senatga topshiriladi.

Kelishuv komissiyasining takliflari qabul qilingan taqdirda qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi kerak. Qonunni qayta ko'rib chiqishda kelishuv komissiyasining bayonnomasida mavjud bo'lgan takliflargina muhokama qilinadi.

Kelishuv komissiyasining loaqal bitta taklifi rad etilgan taqdirda Qonunchilik palatasi kelishuv komissiyasiga yangi takliflarni taqdim etish uchun palata tomonidan ma'qullangan tuzatishlarni inobatga olgan holda ishni davom ettirishni taklif qilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi qonunni kelishuv komissiyasining tahririda qabul qilsa, u ma'qullash uchun Senatga yuboriladi.

Agar kelishuv komissiyasining qonun bo'yicha ishlari yakunlariga ko'ra kelishuvga erishilmasa, qonun Senat tomonidan rad etilgan qonun sifatida qayta ko'rib chiqilishi kerak.

7-§. Deputatlar va senatorlarning huquqiy maqomi

Davlat-huquqiy munosabatlarida, hokimiyatni amalga oshirishda, xalq hokimiyatini ro'yobga chiqarishda deputat va senatorlar alohida o'rin egallaydi.

Deputat va senatorlar vakillik (qonunchilik) hokimiyati organlarida asosiy kuch, figura bo'lishi bilan birga, ular, avvalo, xalq vakilidir. Ular davlat ishlarini hal qilar ekan, avvalo, xalqning xohish-irodasiga tayanadi, xalq istaklarini ro'yobga chiqarishga intiladi.

Shuning uchun, Konstitutsiyaviy huquqda deputat kim, senator kim, ularning huquqiy maqomi qanday degan savol vujudga keladi.

Deputat va senatorlarning huquqiy maqomi to'g'risida maxsus qonunlar mavjud bo'lib, bularga 2004-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi va "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi[1] qonunlarni ko'rsatish mumkin.

Shu qonunga asosan, deputat, bu – Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi, viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga saylangan va saylov to'g'risidagi qonunlarga muvofiq Markaziy saylov komissiyasi, viloyat, shahar, tuman Kengashlariga saylov o'tkazuvchi komissiyalar tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston fuqarosidir.

Senator, bu – Oliy Majlisning Senatiga saylangan va saylov to'g'risidagi qonunga muvofiq Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston fuqarosidir.

Ya'ni, deputat ham, senator ham, birinchi navbatda, O'zbekiston fuqarosi. Fuqaro deputat yoki senator hisoblanishi uchun u qonunlarga asosan saylangan va ro'yxatga olingan bo'lishi kerak.

Shundan keyin fuqaro deputat yoki senator sifatida ma'lum huquqiy maqomga ega bo'ladi.

Deputat va senatorning huquqiy maqomini ularning vakolat muddati, huquq va majburiyatlari, odobi, faoliyatining asosiy kafolatlari tashkil etadi. Shularning yig'indisi huquqiy maqomni keltirib chiqaradi.

---

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari. – T.: 2007. – 217–229-betlar.

Deputat va senatorning maqomi ma'lum muddat amal qiladi, fuqaro shunday maqomga belgilangan muddat doirasida ega bo'ladi.

Deputat vakillik organlarining vakolat muddatiga (Qonunchilik palatasi, viloyat, tuman shahar Kenashlari), senator Senatning vakolat muddatiga saylanadi yoki tayinlanadi. Ularning vakolat muddati – besh yil.

Lekin shu vakolat muddatidan avval ham deputat yoki senatorlarning vakolati tugatilishi mumkin.

Deputatning, senatorning vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatiladi:

- u o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish haqida yozma ariza bergan taqdirda;
- u qonunga ko'ra deputatlik, senatorlik vakolatlarini amalga oshirishiga nomuvofiq bo'lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda;
- unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;
- u chaqirib olingan taqdirda;
- sud uni muomalaga layoqatsiz deb topgan taqdirda;
- u sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bedarak yo'qolgan deb topilgan yoxud vafot etgan deb e'lon qilingan taqdirda;
- u O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotgan taqdirda;
- u vafot etgan taqdirda;
- Oliy Majlis palatalari yoki viloyat, Toshkent shahar Kengashlari tarqatib yuborilganda;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining senator etib saylangan deputati vakolatlarining muddatidan ilgari tugatilishi.

Alohida hollarda deputatning, senatorning vakolatlari tegishincha Qonunchilik palatasining, Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat, senator degan yuksak nomga dog' tushiruvchi hulq-atvor bunday masalani ko'rib chiqish uchun asos bo'lishi mumkin. Deputatning, senatorning vakolatlarini boshqa shaxsga topshirish mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputati palatada doimiy asosda ishlaydi, shu davrda ilmiy-pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa ish bilan shug'ullanishga haqli emas.

Mahalliy Kengash deputatlari deputatlik faoliyatini jamoatchilik asosida, asosiy ishidan ajralmagan holda olib boradi.

Senatorlarning ayrimlari Senatda doimiy asosda ishlashi mumkin, bunday senatorlar ilmiy-pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa ishda ishlashi mumkin emas. Boshqa senatorlar asosiy ish joyidan ajralmagan holda senatorlik faoliyatini bajaradi.

Deputat va senatorlar quyidagi huquqlarga ega:

Deputat, senator tegishincha Qonunchilik palatasining, mahalliy Kengashlarning, Senatning majlisida ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi.

Deputat, senator:

palataning, Kengashning organlariga saylash va saylanishga;

palata va Kengash majlislarida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

palata, Kegash majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga;

qaror loyihalari va ularga tuzatishlar kiritishga;

palata, Kengash tomonidan tuziladigan organlarning shaxsiy tarkibi hamda saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo'yicha fikr bildirishga;

munozaralarda ishtirok etishga, ma'ruzachi va raislik qiluvchiga savollar berishga;

parlament va deputat so'rovi bilan murojaat etishga;

o'z takliflarini asoslab berish uchun so'zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan izoh berishga;

palata va Kengash majlisida raislik qiluvchiga palata majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z nutqi, taklifi yoki mulohazasi matnini topshirishga;

palata va Kengash tarkibidagi o'zi a'zo bo'lgan tegishli organning qaroriga qo'shilmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini palata majlisida bayon qilishga yoki bu haqda tegishincha Qonunchilik palatasining Spikeriga, Kengash raisiga. Senat Raisiga yozma ravishda ma'lum qilishga;

palataga hisobdor yoki uning nazorati ostidagi har qanday organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini palata majlislarida eshitish to'g'risida taklif kiritishga;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek palata va Kengash qarorlarining bajarilishini tekshirish haqida ko‘rib chiqlishi uchun masalalar taklif etishga;

palata va Kengash[1] majlislarining stenogrammalari bilan tanishishga;

fuqarolarning huqulari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonun hujjatlarini buzishning boshqa hollari ma’lum bo‘lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo‘yish choralarini ko‘rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga murojaat etishga haqli.

Bulardan tashqari Qonunchilik palatasi deputati qonunchilik tashabbusi huquqiga, palatadagi deputatlar birlashmalari ishida ishtirok etish huquqiga ega. Shuningdek, mahalliy Kengashlarda tuzilgan partiya guruhlari ishida ishtirok etish huquqiga ega.

Deputat va senatorlarning majburiyatlari, burchlari ham qonunda aniq belgilab qo‘yilgan.

Deputat, senator tegishincha Qonunchilik palatasi, mahalliy Kengashlar va Senat majlislarida (sessiyalarida) shuningdek, ular saylagan organlar (qo‘mita, komissiyalar) tarkibiga a’zo bo‘lsa, ularning ishida qatnashishi, ovoz berishda shaxsan ishtirok etishi shart.

Majlis, sessiya, turli organlar ishida ishtirok etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda deputat, senatorlar tegishlicha Spikerga, Senat Raisiga (qo‘mita, komissiya raislariga) oldindan xabar qilib qo‘yishi shart.

Qonunlarga muvofiq, deputat va senatorlar zimmasiga boshqa majburiyatlar yuklanishi mumkin.

Deputatlar faoliyatida eng muhim institutlardan biri parlament so‘rovi (mahalliy Kengashlarda deputatlik so‘rovi) hisoblanadi.

Deputat, senator davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o‘z nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so‘rovi yuborishga haqlidir.

---

1 Kengash deganda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari nazarda tutilgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari parlament so‘roviga javobni, belgilangan muddatlarda tegishli palataning majlisida beradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga, Oliy xo‘jalik sudi raisiga, Bosh prokuroriga, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlariga yo‘llangan parlament so‘rovi ularning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo‘lishi mumkin emas.

Parlament so‘rovlari bo‘yicha axborot tegishincha Qonunchilik palatasi, Senat majlisida muhokama qilinishi mumkin.

Deputat so‘rovida deputat tegishli hududda joylashgan davlat organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga doir masalalar bo‘yicha tushuntirish berish yoki o‘z nuqtayi nazarini bayon qilinishni talab etib, so‘rov yuborishga haqli.

Mansabdor shaxslar deputat so‘roviga so‘rov olingan kundan o‘n kundan kechiktirmay javob berishlari kerak. Deputat so‘rovi bo‘yicha axborot kengash majlisida muhokama qilinishi mumkin.

Deputat so‘rovi ham parlament so‘rovi singari sud, surishtiruv, prokuratura faoliyatiga tegishli bo‘lmasligi kerak.

Parlament va deputat so‘rovi ijro organlari ustidan vakillik nazoratining muhim va samarali vositasidir.

Deputat va senatorlar maqomida odob va axloq masalasi ham e’tiborga olinadi.

Deputat, senator odob qoidalariga qat’iy rioya etishi lozim. Deputatning, senatorning o‘z maqomidan fuqarolarning, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazadigan tarzda foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Deputatlik, senatorlik odobi buzilgan taqdirda deputatning, senatorning xulq-atvori to‘g‘risidagi masala tegishli palata tomonidan yoki uning topshirig‘iga binoan palataning organi tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkin.

Deputat va senator xalq vakili, shu bilan birga, vakillik hokimiyati organlari vakilidir. Ularning o‘z faoliyatini erkin, hech qanday to‘siqlarsiz, hech kimga qaram bo‘lmasdan amalga oshirishlari uchun ularning faoliyati huquqiy jihatdan, iqtisodiy jihatdan maxsus kafolatlanadi.

Eng avvalo, ularning sha’ni, qadr-qimmati alohida muhofaza qilinadi.

Har bir deputatga, senatorga o'z vakolatlarini moneliksiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoit kafolatlanadi, uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati muhofaza qilinadi.

Deputatning, senatorning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma'muriy, jinoiy yoki o'zga tarzda javobgar bo'ladilar. Deputatni, senatorni haqorat qilish, shuningdek unga nisbatan tuhmat qilish qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Deputatlik, senatorlik vakolatlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish maqsadida deputatga, senatorga, qanaqa tarzda bo'lmasin, ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Deputat, senator oldidagi o'z vazifalarini bajarmaydigan, uning ishiga to'sqinlik qiladigan, bila turib unga yolg'on axborot beradigan, deputat, senator faoliyatining kafolatlarini buzadigan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Deputat va senatorlar daxlsizlik huquqidan foydalanadi.

Deputat, senator o'zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega bo'ladi.

Tegishli palataning, xalq deputatlari Kengashlarining roziligisiz deputat, senator jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Deputatni, senatorni majburiy keltirishga, shuningdek uning uy-joyi, xizmat xonasini, yuki, shaxsiy va xizmat transport vositalarini, yozishmalarini, u foydalanayotgan aloqa vositalarini, shuningdek unga tegishli hujjatlarni ko'zdan kechirishga yo'l qo'yilmaydi.

Deputat, senator tegishli palatada ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi yoki nuqtayi nazarini bayon etganligi uchun hamda o'z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas, shu jumladan vakolatlari muddati tugaganidan keyin ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar shunday hatti-harakatlar munosabati bilan deputat, senator haqorat qilishga, tuhmat qilishga yoki qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, u daxlsizlik huquqidan mahrum qilingan taqdirda javobgarlikka tortiladi.

Qonunchilik palatasi deputatini va senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatasi tomonidan o'n kun ichida hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining deputatni jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi taqdimnomasi Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Qonunchilik palatasining sessiyalari oralig'idagi davrda esa, uning Kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, Qonunchilik palatasi Kengashining ushbu masalaga doir qarori keyinchalik Qonunchilik palatasining sessiyasida tasdiqlanadi. Senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala Senat tomonidan uning majlisida, Senatning majlislari oralig'idagi davrda esa, Senatning Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasining, Senatning yoki palatalar Kengashlarining deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish masalasiga doir qarori darhol O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga yuboriladi.

Deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ish yuritish tamomlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida Qonunchilik palatasiga yoki Senatga ishni tergov qilish, sudda ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatasining deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etishi unga nisbatan jinoyat ishini yuritishni yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni istisno etadigan va bunday ishlarni tugatishga sabab bo'ladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

Mahalliy Kengash deputatlarini daxlsizlik huquqidan mahrum qilish tartibi asosan shunga o'xshaydi. Faqat bu yerda deputatlik daxlsizligidan mahrum qilish masalasi haqidagi taqdimnoma te-

gishli xalq deputatlari Kengashlariga viloyat, tuman, shahar yoki yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan kiritilishi mumkin. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga ruxsatni sessiyalar oralig'ida hokim beradi va bu keyinchalik sessiyada tasdiqlanishi kerak. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi prokurorning taqdimnomasini yuqori turuvchi prokuror chaqirib olishi mumkin.

Deputat, senator o'z vakolatlarini amalga oshirayotganda guvohnomasini ko'rsatib, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga moneliksiz kirish huquqidan, shuningdek ularning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslari tomonidan darhol qabul qilinish huquqidan foydalanadi.

Faoliyati davlat siri hamda qonun bilan qo'riqlanadigan yoki boshqa sirlar bilan bog'liq korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga deputatning, senatorning kirish tartibi qonunda belgilanadi.

Qonunchilik palatasi deputati va Senatda doimiy ishlovchi senatorlarning ishlagan vaqti umumiy ish stajiga avvalgi ixtisosi bo'yicha qo'shib hisoblanadi.

Korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarning rahbarlari o'z vakolatlarini ishlab chiqarish yoki xizmat faoliyatidan ajralmagan holda amalga oshirayotgan Mahalliy Kengash deputatlari va senatorni u o'zining vazifalarini bajaradigan vaqtda, uning ish joyi (lavozimi) saqlangan holda, ishdan ozod qilishi shart. Senatorlik va deputatlik vazifalarini bajarayotgan vaqtda ularning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

Qonunchilik palatasi deputatlari va doimiy ishlovchi senatorlarga har yili o'ttiz olti ish kunidan iborat haq to'lanadigan mehnat ta'tili beriladi, qonun hujjatlarida ko'proq muddatli ta'til nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Har yilgi mehnat ta'tili deputatga, qoida tariqasida, Qonunchilik palatasining sessiyailari oralig'idagi davrda beriladi.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarqatib yuborilgan taqdirda deputatga yoki Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorga ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi hamda ishga joylashish davrida qonunda belgilangan tartibda o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

Barcha deputatlar va senatorlar vakolat muddati davomida harbiy yig'inlardan ozod qilinadilar.

Qonunchilik palatasi devoni, tegishli hokimliklar, Senat devoni tegishincha deputatni, senatorni hujjatlar, zarur axborot va ma'lumot materiallari bilan ta'minlaydi, shuningdek deputatlik, senatorlik faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarning maslahatlarini uyushtiradi.

Qonunchilik palatasi deputatiga, senatorga texnik vositalar, aloqa vositalari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Qonunchilik palatasi deputatiga, senatorga deputatlik, senatorlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar uchun har oyda eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydigan mablag' to'lanadi.

Deputat, senator O'zbekiston Respublikasi hududida havo, temir yo'l, avtomobil yo'lovchilar transportida (taksi va shahar yo'lovchilar transporti bundan mustasno) tekin yurish huquqidan foydalanadi.

Deputat, senator aeroportlar va aerovokzallar, temir yo'l vokzallari hamda stansiyalarining rasmiy shaxslar va delegatsiyalar uchun mo'ljallangan zallaridan tekin foydalanish huquqiga ega.

Deputat, senator o'z guvohnomasini ko'rsatganidan keyin temir yo'l vokzallari va stansiyalarining yotoqli yoki yumshoq o'rindiqli vagonidan, samolyot salonidan navbatsiz joy berishlari shart. Deputat, senator palataning majlisiga borayotganda unga samolyot chiptasi parvozdan kamida ikki soat oldin, boshqa hollarda esa, kamida bir sutka oldin beriladi.

Chiptasida o'rindiqning tartib raqami ham ko'rsatiladigan shaharlararo, shuningdek shahar atrofida qatnaydigan avtobuslarda deputat, senator avtovokzallar va avtostansiyalarning kassalaridan navbatsiz olinadigan tekin chipta bilan yuradi. Qolgan barcha hollarda deputatning, senatorning yo'lovchilar transportida yurishi (taksi va shahar yo'lovchilar transporti bundan mustasno) deputatning, senatorning guvohnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Deputat, senator har bir transport turida amalda bo'lgan normalarga mos qo'l yukini tekin olib yurish huquqiga ega.

Transport tashkilotlari bilan hisob-kitob qilish tartibi qonun hujjatlarida belgilangan.

Mahalliy Kengashlarning deputatlari ham transportdan tekin foydalanishi mumkin. Deputatlar tegishli viloyat, tuman, shahar hududida havo, temir yo'l, avtomobil yo'lovchilar transportida (taksi va shahar yo'lovchilar transporti bundan mustasno) tekin yurish, shuningdek yo'l pattalarini navbatsiz sotib olish huquqidan foydalanadi.

Bularga qo'shimcha ravishda Qonunchilik palatasi deputati va senatorlar Oliy Majlis tegishli palatalari binosida talab darajasida jihozlangan xizmat xonasi (yoki xizmat xonasida ish joyi) bilan ta'minlanadi.

Qonunda Qonunchilik palatasi deputati va doimiy ishlovchi senatorlarga xizmat turar joyi berish ham ko'zda tutilgan.

Deputatga, Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorga, agar ular Toshkent shahrida turar joyga ega bo'lmasa, bergan arizalariga binoan vakolatlari amal qiladigan muddatga oila a'zolari bilan yashash uchun Toshkent shahrida xizmat turar joyi be-riladi.

Deputat, senator o'ziga ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq berilgan hamda o'zi egallab turgan xizmat turar joyini deputatlik, senatorlik vakolatlari tugagan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay bo'shatib berishi shart. Mazkur talabning bajarilmasligi sud tartibida majburiy bajartirishga sabab bo'ladi.

8-§. Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati

Deputatlar qaysi vakillik organlarining deputati bo'lishidan qat'i nazar, saylovchilar tomonidan saylanib, deputat sifatida ro'yxatga olinib, deputatlik maqomiga ega bo'lgach, ularning faoliyati faqat vakillik organlari faoliyati bilan cheklanmaydi.

Butun vakolat muddati davrida o'zlari saylangan saylov okruglarida ham faoliyat yuritadi. Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) saylovchilar bilan uchrashuv, saylovchilarni qabul qilish;

2) o'zlarini nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiyalar (o'zini o'zi boshqarish organlari) bilan aloqa o'rnatish, hamkorlik qilish;

3) okrugdagi turli idora, muassasa, mansabdor shaxslar bilan uchrashib, saylovchilarning orzu-istaklari, talablari bajarilishiga

ko'maklashish va okrugda vakillik organlari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining bajarilishi ahvolidan xabardor bo'lib turish.

Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengash deputatlari o'ziga saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun talablari asosida ko'rib chiqadi, ularni hal etish choralarini ko'radi.

Deputatning muhim burchi – bu saylovchilarni qabul qilishdir. Shuning uchun belgilangan muddatlarda, aniq joylarda bu ish bilan shug'ullanadi.

Mahalliy Kengash deputatlari vaqti-vaqti bilan, lekin yilda kamida ikki marta, Qonunchilik palatasi deputatlari yilda kamida bir marta saylovchilarga o'z faoliyati yuzasidan axborot berib boradi.

Qonunchilik palatasi deputatlariga saylovchilar bilan olib boriladigan ishlar uchun Qonunchilik palatasi reglamentida, mahalliy Kengash deputatlari uchun mahalliy Kengashlar reglamentida belgilangan tartibda kunlar ajrtiladi.

Deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish borasida mahalliy ijro hokimiyati organlariga alohida mas'uliyat yuklangan. Deputatlar iltimosiga ko'ra ijro organlari uchrashuv o'tkazish, saylovchilarni qabul qilish uchun qulay, sharoiti yaxshi binolar, xonalar ajratiladi, uchrashuv vaqti, joyi, uyushtiriladigan joy manzili, vaqti haqida aholini xabardor qiladilar. Uchrashuv va qabullarda ishtirok etish uchun o'z vakillarini ajratadi.

Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati faqat saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, ularni qabul qilish bilan tugamaydi. Deputatlar o'z okruglarida o'zlarini nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiyalar bilan, tuman va shahar Kengashlari deputatlari siyosiy partiyalar yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan ham uchrashuvlar o'tkazadi.

Ularning xohish-istaklarini aniqlab, tegishli vakillik organiga olib chiqadi. Joydagi muammolarni siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan aniqlab, ularning yechimi xususida birgalikda tadbirlar o'tkazadi, zarur hollarda shu masalalarni vakillik organlarida muhokama qilishga kiritadi.

Deputatlarning saylov okrugidagi faoliyati, saylovchilar, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan uchrashuv o'tkazishlari, fuqarolarni qabul qilishlari, saylovchilarga axborot berib turishlari mahalliy Kengashlarning qo'shma majlisida saylangan senatorlarga ham taalluqlidir. Senatorlar senator bo'lib saylangach, ularning mahalliy Kengash deputati ekanligi bekor bo'lmaydi. Ular qaysi mahalliy Kengash deputatligiga saylangan bo'lsa, senatorlik davrida mahalliy Kengash deputati bo'lib qolaveradi. Senatorlar o'zlarini saylagan mahalliy Kengashlar oldida ham, saylovchilar oldida ham mas'uldirlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Parlament qanday organ, uning vujudga kelish ahamiyati nimada?

2. O'zbekistonda parlamentning shakllanishi qachondan boshlanadi?

3. Oliy Majlisning hokimiyat tizimidagi o'rni qanday?

4. Oliy Majlisning vazifalari nimalardan iborat?

5. O'zbekistonda ikki palatali parlamentga o'tishning sabablari nimalardan iborat?

6. O'zbekistonda parlament islohotlarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

7. Oliy Majlisning tarkibiy tuzilishi qanday?

8. Qonunchilik palatasi qanday tashkil qilinadi?

9. Senat qanday tashkil qilinadi?

10. Oliy Majlis palatalarining tashkiliy faoliyati shakli qanday?

11. Qonunchilik palatasining ichki tuzilishi qanday?

12. Senatning ichki tuzilishi qanday?

13. Palatalarning birgalikdagi vakolatlari nimalardan iborat?

14. Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari nimalardan iborat?

15. Senatning mutlaq vakolatlari nimalardan iborat?

16. Qonunchilik jarayoni nima?

17. Qonunchilik bosqichlari nimalardan iborat?

18. Qaysi subyektlar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?

19. Qonun qanday qabul qilinadi?

20. Qonun qanday ma'qullanadi?

21. Qonunni imzolash va e'lon qilish tartibi qanday?

22. Qonun qabul qilish, ma'qullash, imzolashdagi kelishmovchiliklar qanday hal qilinadi?

23. Deputat va senator kim?

24. Deputat va senatorning huquqiy maqomi qanday?

25. Deputat va senatorlarning huquqlari nimalardan iborat?

26. Deputat va senatorlarning majburiyatlari nimalardan iborat?

27. Deputat va senatorlarning vakolat muddati qachon oldindan tugatiladi?

28. Deputat va senatorlarning odobi nima?

29. Deputat va senatorlarning daxlsizligi, daxlsizlikdan mahrum qilish tartibi qanday?

30. Parlament va deputat so'rovi qanday?

31. Deputat va senatorlarning mehnat huquqi qanday himoya qilinadi?

32. Deputatlarning saylov okrugidagi faoliyati nimalardan iborat?

XXIII bob. O‘zbeksiton Respublikasining Vazirlar Mahkamasi

1-§. Vazirlar Mahkamasining hokimiyat tizimidagi o‘rni

Davlat hokimiyati tizimida ijroiya hokimiyati alohida o‘ringa ega. Ijro hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i bo‘lib, o‘z vazifasiga ega. Ijro hokimiyati qonunchilik hokimiyatidan farq qilib, yuqori va mahalliy organlar tizimidan tashkil topadi va quyidan yuqorigacha vertikal asosda bo‘ysunish prinsipida joriy qilinadi. Darslikning bu bobida yuqori ijro hokimiyati organi xususida to‘xtalamiz.

Jahon davlatchilik tajribasida yuqori ijro organi sifatida hukumat e’tirof etiladi. Ayrim mamlakatlarda ijro hokimiyati Prezident va hukumat tomonidan, ayrim mamlakatlarda faqat hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Hukumat yuqori ijro organiga nisbatan ishlatiladigan atama bo‘lib, hukumat turli mamlakatlarda turli nomlar bilan ataladi, masalan: Vazirlar Kengashi, Davlat Kengashi, Vazirlar Mahkamasi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukumat deb ataladi. Uning boshliqlari nomi ham har xil: Hukumat raisi, Bosh vazir, Vazirlar Kengashi Raisi, Kansler va hokazo.

Lekin, barcha mamlakatlarda hukumat kollegial organ sifatida ish yuritadi.

Hukumatning mavqei ham davlat boshqaruv shakllariga qarab har xil. Parlamentar respublikalarda yoki monarxiya davlatlarida hukumatning mavqyei ancha yuqori va mamlakatining ichki va tashqi siyosat yuritishida asosiy o‘rnini egallaydi. Ularning mavqei ham Konstitutsiyada yuqori darajada mustahkamlangan. Masalan, Shvetsiya Konstitutsiyasida “Davlatni hukumat boshqaradi”, – deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, Ispaniya Konstitutsiyasida “Hukumat ichki va tashqi siyosatga rahbarlikni amalga oshiradi, davlat muxofazasi, Qurolli Kuchlar va fuqarolik ishlarini boshqaradi”, – deb mustahkamlangan. Bu shu davlatlarda hukumat rolining naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Prezidentlik va boshqaruvning aralash shaklidagi mamlakatlarda esa, hukumatning roli Prezident hokimiyati ta’sirida ekan-

ligi bilan belgilanadi. Bunday mamlakatlarda davlat hokimiyatida ham, ijro hokimiyatida ham Prezident rolining ustuvorligi mavjud. Hukumat to'laligicha Prezident ta'sirida bo'ladi, Prezidentga nisbatan ta'sir etuvchi hech qanday vakolati yo'q.

Shular asosida xulosa chiqarsak, hukumat ijro hokimiyatini amalga oshirish natijasida davlat va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalariga rahbarlik qiladigan, davlat boshlig'i va parlamentning hujjatlari (qonun, qaror, farmon, farmoyish) ijrosini ta'minlovchi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi davlat hokimiyatining eng kuchli kollegial organidir.

O'zbekistonda hukumat – Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanishi, O'zbekistonning mustaqilligi, Prezident institutining vujudga kelishi bilan bog'liq. Mustaqillik arafasida sobiq Ittifoqning oxirgi yillarida Prezidentlik instituti o'rnatilib, ijro hokimiyatini mustahkamlash jarayonida hukumatni qayta tashkil qilish uchun ham samarali harakatlar amalga oshirildi.

1990–1992-yillarda Prezident lavozimi tashkil qilinib, uning ishlash mexanizmlarni shakllantirish jarayonida Prezident hokimiyati bilan shu vaqtdagi hukumat hisoblanuvchi Vazirlar Kengashi birlashtirildi va Prezident xuzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.

Shu munosabat bilan Prezident farmoni chiqarildi va Vazirlar Mahkamasining tarkibi tasdiqlandi. Shu farmon bilan xalq xo'jaligining turdosh tarmoqlaridan majmualar tuzilib, Vazirlar Mahkamasiga biriktirildi va ularning rahbarlari Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritildi.

Prezident bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining Raisi ham hisoblanadi, buning oqibatida Prezident va Vazirlar Mahkamasi apparati birlashtirildi. Bu shu vaqtdagi to'g'ri yo'l edi.

Shu davrda Vitse-Prezident lavozimi ta'sis qilinib, unga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini yuritish vazifasi yuklatildi. Keyinchalik bu lavozim 1992-yil 4-yanvarda tugatildi va Bosh vazir lavozimi ta'sis etildi. Bosh vazirga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini yo'naltirish, tashkil qilish vazifasi yuklatildi.

Bu o'zgarishlar o'sha paytda amalda bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimchalar asosida rasmiylashtirildi. Konstitutsiyaning 120-moddasi quyidagi tarzda bayon qilindi: "O'zbekiston hukumati Bosh vazirdan, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlaridan, mamlakat vazirlaridan, davlat qo'mitalarining raislaridan, yirik konsernlarning va birlashmalarning rahbarlaridan iborat bo'ladi".

O'zbekiston Respublikasining o'sha paytdagi Konstitutsiyasi respublika hukumati faoliyatini maxsus bobda mustahkamladi. Konstitutsiyaga asosan Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident. Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi ishini tashkil etuvchi, unga rahbarlik qiluvchi lavozim sifatida mustahkamlandi. Vazirlar Mahkamasi tarmog'i ixchamlashtirildi.

2000-yillardan boshlab Respublikada davlat qurilishi va boshqaruv sohasida chuqur islohotlar boshlandi. Hokimiyat bo'linishi prinsipini chuqurlashtirish choralari ko'rildi. Prezident, Parlament, Vazirlar Mahkamasi vakolatlarini qayta taqsimlash zarurati vujudga keldi. 2003-yil 24-aprelda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar asosida Prezidentning Vazirlar Mahkamasi Raisi hisoblanishi haqidagi qoida Konstitutsiyadan chiqarildi. Bu bilan Bosh vazirning mavqei kuchaydi, u endi Vazirlar Mahkamasi raisi bo'lib qoldi. Shu bilan birga uning mas'uliyati ham kuchaydi.

Shundan keyin Vazirlar Mahkamasining mustaqilligini kengaytirish, Bosh vazir maqomini kuchaytirish ishlari davom etdi.

2005-yilda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida Prezidentimiz davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifalar qatorida Bosh vazir va umuman mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga mas'uliyatini kuchaytirishni ham ko'rsatdi[1].

2007-yil 11-aprelda qabul qilingan qonun asosida Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar va shu paytda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konsti-

1 Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 36–37-betlar.

tutsiyaviy qonunda Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatuvchi qoidalar mustahkamlandi.

Ularga asosan, Konstitutsiyadan Prezidentning ijro hokimiyati boshlig'i degan qoida chiqarib tashlandi. Bu Vazirlar Mahkamasini mustaqil ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi organ sifatida faoliyat ko'rsatishiga, Bosh vazir mavqeining, shu bilan birga mas'uliyatining ham oshishiga olib keldi.

Prezidentning ijro hokimiyati boshlig'i vakolatining bekor qilinishi hokimiyatlar bo'linishi prinsipini kengroq qo'llash, barcha hokimiyat tuzilmalarining teng mavqega ega bo'lishi uchun imkoniyat yaratdi.

Prezidentimizning 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirish shu maqsadda Konstitutsiyaga kiritilishi zarur bo'lgan qoidalar batafsil ko'rsatib berildi. Mazkur islohotning amalga oshirilishi Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazirning mavqeini yanada kuchaytirish, shu bilan birga ularning mas'uliyatini oshirishni nazarda tutdi.

Konsepsiya asosida 2011-yil 18-aprelda Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritildi. Uning natijasida Konstitutsiyaning Vazirlar Mahkamasiga taalluqli 98-moddasi yangicha tahrirda bayon qilindi va Bosh vazirning parlament oldida hisob berib turishi tartibi o'rnatildi, bu Vazirlar Mahkamasi faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni nazarda tutdi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi o'rnatildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining mustaqilligi kengaytirildi, masalan, Prezident Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi har qanday masalalar yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin, degan qoida chiqarib tashlandi.

Bularning barchasi Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini yanada aniqlashtirib, bir tomondan, Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazirning mavqeini, vakolatlarini oshirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning mas'uliyatini kuchaytirishga olib keldi.

2-§. Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi va uning tarkibi

Barcha mamlakatlarda hukumat kollegial organ hisoblanadi. Uning tashkil qilinish tartibi, tarkibi va vakolatlari darajasiga davlat boshqaruv shakli (mutlaq monarxiya, konstitutsiyaviy monarxiya, Prezidentlik, parlamentar, aralash boshqaruv shakllari) ta'sir qiladi.

Prezidentlik respublikasida Prezident ijro hokimiyatining ham boshlig'i hisoblanib, hukumatni o'z ixtiyori bilan shakllantiradi. Hukumat faqat Prezident oldida hisob beradi.

Parlamentar respublikalarda parlament saylovlarida ko'pchilik o'rin egallagan partiyaning yetakchisi hukumat boshlig'i lavozimini o'z o'zidan egallaydi. Zarurat bo'lganda bir necha partiya a'zolaridan iborat koalitsion hukumat ham tuzilishi mumkin.

Boshqaruvning aralash shaklidagi mamlakatlarda hukumat Prezident tomonidan parlament ishtirokida shakllantiriladi va hukumat ham Prezident, ham parlament oldida hisob beradi va mas'ul bo'ladi.

O'zbekistonda dastlabki davrlardan hukumat – Vazirlar Mahkamasini shakllantirishda Prezident va Oliy Sovet, keyinchalik Oliy Majlis ishtirok etib keldi. Lekin, ularning hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki o'zgarib borgan.

Dastlab hukumat a'zolari Prezident tomonidan tayinlangan va lavozimdan ozod qilingan, bu masala, albatta, parlamentda tasdiqlanishi belgilangan.

Keyinroq Prezidentning Bosh vazir nomzodini Oliy Majlisga taqdim etishi va lavozimidan ozod etishi tartibi o'rnatildi. Hukumat a'zolari Bosh vazir taqdimiga ko'ra Prezident tomonidan tayinlanib, lavozimidan ozod qilinar edi.

2007-yil 11-apreldagi "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun Vazirlar Mahkamasini shakllantirish, Bosh vazirni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilishning yangi, yanada demokratik tartibni joriy qildi. Uning 4-moddasi "O'zbekiston

Respublikasi Bosh vazirini tayinlash tartibi" deb nomlanadi va unga ko'ra, Bosh vazir nomzodi Oliy Majlis palatalarining mansabdor shaxslari saylanganidan va organlar shakllantirilganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining har biri bilan maslahatlashuv o'tkazilgandan so'ng Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taqdim etiladi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan nomzod Bosh vazir etib tasdiqlangan hisoblanadi.

Ovoz berish vaqtida qo'yilgan nomzod Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, Prezident siyosiy partiya fraksiyalari va deputatlar guruhi bilan maslahatlashuvlar o'tkazgandan so'ng Bosh vazir nomzodini yana bir marta taqdim qilishi mumkin. Palatalar taqdim etilgan nomzodni ikkinchi marta rad etgan taqdirda Prezident Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va Oliy Majlisni tarqatib yuboradi.

Bunday tartibning o'rnatilishi, birinchidan, siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishni, ikkinchidan, shu orqali Qonunchilik palatasining rolini kengaytirishni nazarda tutdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Mamlakatimizda demokratik islohotlarning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da Vazirlar Mahkamasini shakllantirishni, Bosh vazirni lavozimga tayinlashni yanada demokratik, jahon davlatchilik tajribalariga mos tartibini o'rnatish zarurligi haqidagi g'oyani ilgari surdi va bu borada Konstitutsiyaga kiritish zarur bo'lgan o'zgartirish, qo'shimchalarni belgilab berdi. Konsepsiya ko'rsatmalari asosida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritildi. Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqandan keyin o'n kun mud-

dat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinnig a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vaziriga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Konstitutsiyaga kiritilgan bu qo'shimcha va o'zgartirishlarning mazmunidan quyidagilar kelib chiqadi:

Bosh vazir nomzodi, eng avvalo, saylovlarda g'olib chiqqan (ko'p deputatlik o'rnini olgan) siyosiy partiyaga yoki teng miqdorda o'rinlar olgan siyosiy partiyalar tomonidan tanlanib, Prezidentga Oliy Majlisga taqdim etish uchun tavsiya qilinadi.

Prezident Oliy Majlisga siyosiy partiya yoki siyosiy partiyalar tomonidan tavsiya qilingan nomzodni ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun o'n kunlik muddatda taqdim etadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Bosh vazir o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olganda, Bosh vazirga nisbatan belgilangan tartibda ishonchsizlik votumi bildirish orqali Vazirlar Mahkamasini qayta shakllantirish zarurati tug'iladi.

Bunday hol yuz berganda Bosh vazir nomzodi endi siyosiy partiyalar tomonidan tavsiya qilinmay, Prezidentning o'zi nomzodni Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng Oliy Majlis tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim qiladi.

Bosh vazir nomzodi palatalar tomonidan ikki marta rad etilgan taqdirda. Prezident Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va Oliy Majlisni tarqatib yuboradi.

Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartirishlar siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirishni, Qonunchilik palatasi mavqeini kuchaytirishni nazarda tutadi.

Amaldagi Konstitutsiyaga asosan Vazirlar Mahkamasi tarkibi Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i (Vazirlar Kengashi Raisi) O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi tarkibiga lavozimiga ko'ra kiradi.

Oliy Majlis palatalarida nomzodi ko'rib chiqilib, tasdiqlangan Bosh vazir taqdimiga ko'ra Prezident Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi, lavozimidan ozod qiladi.

3-§. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari

Konstitutsiyaga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi shu vazifalarni bajarish uchun tegishli vakolatlarga ega bo'lib, uning vakolatlari "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi[1] (yangi tahriri) Qonunda belgilab qo'yilgan.

Vazirlar Mahkamasi mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

– iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining xuquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– xo'jalik yuritishning yangi shakllari – konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mexnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

– O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini, shuningdek O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

---

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 190–198-betlar.

– boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida, vazirliklar, davlat qo‘mimatalari, idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqadi;

– fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

– fuqarolarning xuquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga ijtimoiy va xuquqiy himoyalanishga bo‘lgan xuquqlarini ta’minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘radi, ijtimoiy ta’minot tizimini takomillashtiradi;

– sog‘liqni saqlash, halq ta’limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko‘maklashadi;

– O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, davlat chegaralari qo‘riqlanishini ta’minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

– davlat borshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o‘tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariyalar va falokatlarning, shuningdek tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko‘radi;

– O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta’minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko‘radi;

– tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

Bu vakolatlarni amalga oshirish mexanizmlari va usullari soha bo‘yicha qonunlarda va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan.

Yuqoridagi qonunda Vazirlar Mahkamasining davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga rahbarligining umumiy masalalari ham belgilab qo‘yilgan. Unga asosan, Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtirib hamda yo‘naltirib boradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari haqidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan ta'minlanadigan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy devoni xodimlari sonini va ular ta'minotiga ajratiladigan mablag'lar miqdorini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlarini hamda ularning boshqaruv a'zolarini, shuningdek vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hay'atlarining a'zolarini tasdiqlaydi.

Vazirlar Mahkamasi zarurat bo'lganda o'z vakolatiga kiruvchi davlat boshqaruvining ayrim masalalarini hal etishni, agar bu masalalarning hal etilishi qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining mutlaq vakolatlariga kiritilgan bo'lmasa, vazirliklar, davlat qo'mitalari va o'z bo'ysunuvidagi davlat boshqaruvi boshqa organlariga berishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini yo'naltirish, muvofiqlashtirish va ularga rahbarlik qilishdan tashqari shu tuzilmalarning faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi va vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarning hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish xuquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi kollegial organ bo'lgani uchun davlat boshqaruvining, xo'jalik va ijtimoiy madaniy qurilishining eng muhim masalalari Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislarini Bosh vazir o'tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qilishga xaqli.

Vazirlar Mahkamasining majlislarini tayyorlash va o‘tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasini Reglamenti bilan belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasi majlislarida hal qilinadigan masalalar doirasi ham qonunda belgilab qo‘yilgan.

Quyidagilar faqat Vazirlar Mahkamasining majlislarida ko‘rib chiqiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetini ishlab chiqish va ijro etish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi aniq maqsadli davlat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O‘zbekiston Respublikasini va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalari;

davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarish xajmi hamda O‘zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzi ko‘lamini oshirish to‘g‘risidagi takliflar;

soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarini belgilash hamda o‘zgartirish to‘g‘risidagi takliflar;

davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish dasturlarining loyihalari hamda xususiylashtirishdan olingan mablag‘lardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi takliflar;

belgilab qo‘yilgan davlat narxlari qo‘llaniladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ro‘yxati;

qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonunlar loyihalari;

davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to‘g‘risidagi takliflar.

Vazirlar Mahkamasi vakolat doirasida qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalari bo'yicha qarorlari Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plamida e'lon qilinadi, keng ommaga darhol yetkazish zarur bo'lgan taqdirda esa ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining boshqa xuquqlari ham mavjud bo'lib, ular boshqa qonunlarda ko'rsatilgan.

4-§. Vazirlar Mahkamasining boshqa hokimiyat tuzilmalari, organlar va tashkilotlar bilan munosabati

Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlariga rahbarlikni amalga oshirar ekan, mavjud barcha turdagi hokimiyat tuzilmalari, davlat organlari, tashkilot, muassasalar bilan hamda nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, tegishli munosabatlar o'rnatadi.

Vazirlar Mahkamasining barcha tashkilotlar bilan munosabati o'zaro hamkorlik qilish, hisob berish, bo'ysundirish, nazorat qilish shaklida bo'lishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Prezidenti bilan munosabati alohida o'ringa ega. Prezident Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qilish huquqiga ega, yuqorida aytilganidek, uni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Prezident va Vazirlar Mahkamasi munosabati hisobdorlikka, ya'ni Prezident oldida hisob berishga mas'ul ekanligiga asoslanadi. Vazirlar Mahkamasi asosiy masalalarni hal qilishda Prezident bilan maslahatlashadi. Prezident Vazirlar Mahkamasining qaror, farmoyishlarini, Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishi mumkin.

Davlat hayotida Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis bilan munosabati alohida ahamiyatga ega.

Yangi shakllantirilgan Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun o'z vakolatlari davridagi faoliyati dasturini taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiton Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining asosiy ko'rsatkichlarini va unga kiritilgan o'zgartirishlarni ishlab chiqadi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Vazirlar Mahkamasi muayyan a'zosining o'zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organi faoliyati masalalari yuzasidan axborotni eshitishlari hamda zarur bo'lganda uni iste'foga chiqarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taklif kiritishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari majlislarida, palatalarning qo'mitalari majlislarida hozir bo'lish va axborot berishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari tomonidan Vazirlar Mahkamasi yoki uning muayyan a'zolari faoliyatiga taalluqli masalalar qo'yilgan taqdirda, Bosh vazir shu masalalar yuzasidan zarur tushuntirishlar olish va tushuntirishlar berishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo‘mitalarining O‘zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko‘rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko‘radi. Tavsiyalar va takliflarni ko‘rib chiqish natijasi haqida hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo‘mitalariga kelishilgan muddatda ma’lum qiladi.

Vazirlar Mahkamasi – hukumat tutgan yo‘lini va dasturiga yoki uning ayrim yo‘nalishlariga qo‘shilmagan siyosiy partiya fraksiyalari yoki deputatlar guruhi hukumatga nisbatan o‘zini muholifot deb e’lon qilishi mumkin.

Konstitutsiyaga kiritilgan oxirgi o‘zgartirishlar asosida Bosh vazir va Qonunchilik palatasidagi ixtiloflar doimiy tus olsa, bu Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirilishiga, u esa Vazirlar Mahkamasining iste’foga chiqishiga sabab bo‘ladi.

Parlament so‘roviga javob berish tartibining mavjudligi ham Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi munosabatlarini ko‘rsatuvchi bir holatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidan, Qonunchilik palatasi deputatlaridan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatidan, Senat a’zosidan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining yoki unga bo‘ysunuvchi davlat yoxud xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatiga doir parlament so‘rovi olgan Vazirlar Mahkamasi yoxud O‘zbekiston Respublikasi Hukumati a’zosi qonun bilan belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatalarining majlislarida og‘zaki yoki yozma javob berishi shart.

Oliy Majlis bilan Vazirlar Mahkamasining munosabati Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis oldida hisobdorligi, mas’ulligi asosiga quriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Respublika hukumati sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan munosabat o‘rnatadi.

Vazirlar Mahkamasi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan o'zaro hamkorlik qiladi, uning O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining hamda Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda xo'jalik va ijtimoiy madaniy qurilish masalalariga doir boshqa hujjatlar qanday bajarilayotganligi haqida ma'lumotlarini eshitadi;

Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining takliflarini ko'rib chiqadi;

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari tomonidan tarmoqlararo va mintaqaviy o'ta muhim kompleks dasturlarni amalga oshirishda Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqlariga rioya etilishini ta'minlaydi, bunda chiqib qoladigan bahsli masalalarni hal etadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarining ijro etilishini o'z vakolati doirasida to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasini iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilishga taalluqli masalalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilayotganda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining fikri hisobga olinadi.

Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Doimiy vakolatxonasi faoliyat ko'rsatadi.

Vazirlar Mahkamasi Respublikadagi barcha mahalliy ijro organlari bilan yaqindan munosabat o'rnatadi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirilishini ta'minlash bilan bog'liq masalalarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilishi talab qilinadigan masalalarga doir takliflarini ko'rib chiqadi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining bajarilish jarayonini nazorat qiladi, ularning amalga oshirilishi yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarini taklif qilish hamda ularning axborotlarini eshitishga haqli;

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlaydi, bunda chiqib qoladigan bahsli masalalarni hal etadi;

hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat devonining soni va namunaviy tuzilmasini belgilaydi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlari ijrosini to'xtatib qo'yish hamda ularni bekor qilishga haqli.

Bu munosabat Vazirlar Mahkamasining rahbarligi, ustunligi mahalliy organlarning Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunishi, uning oldida hisob berishi prinsiplariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan mamlakatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, ularga zarur yordamlar ko'rsatadi.

5-§. Bosh vazirning vakolatlari

Bosh vazirning vakolatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaga asosan, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil qiladi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi.

Bundan tashqari, Bosh vazirning konstitutsiyaviy vakolatlari qatoriga Prezidentga tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasi a'zolarini, viloyat, Toshkent shahar hokimlari nomzodlarini taqdim etish huquqi ham kiradi.

Konstitutsiyada Bosh vazirning Vazirlar Mahkamasining ishi samarali bo'lishi uchun shaxsan javobgar bo'lishi ko'rsatib qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyada yana Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, Prezident farmonlarida, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajarishi belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida Bosh vazirning vakolat, vazifa va majburiyatlari quyidagicha belgilangan:

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi hamda uning samarali ishlashi uchun shaxsan javob beradi.

Bosh vazir:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi;

Vazirlar Mahkamasining qarorlarini imzolaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazir o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Bosh vazir vakolatlari va vazifasini amalga oshirishda Bosh vazirning o'rinbosarlari ma'lum rol o'ynaydi.

Bosh vazirning o'rinbosarlari vazifalar taqsimotiga muvofiq, o'zlari rahbarlik qilayotgan tarmoqdagi ishlarning ahvoli uchun

javob beradilar, tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni, ularning ishini nazorat qilishni amalga oshiradilar hamda ularga topshiriqlar beradilar. Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga kiritilgan takliflarni hamda qaror va farmoyishlarning loyihalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqadilar.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etishda Vazirlar Mahkamasi Rayosati muhim rol o'ynaydi.

Rayosat Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibda tuzilib, Vazirlar Mahkamasining doimiy ishlovchi organi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Bosh vazirning qaroriga ko'ra, Rayosat tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

6-§. Bosh vazirni vazifasidan ozod qilish

1990-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasida Prezident lavozimining ta'sis etilishi, yuqori ijro organlarini qayta tashkil etish bo'yicha Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarda Prezidentga O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetini (hukumatini) iste'foga chiqarish, iste'foni qabul qilish masalasini qo'yish tartibi kiritilgan edi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyada hukumatni iste'foga chiqarish, Bosh vazirni muddatidan oldin vazifasidan ozod qilish masalalari ko'rsatilmagan edi. Bu masala, ya'ni Bosh vazirni muddatidan avval lavozimidan ozod qilish va Vazirlar Mahkamasini iste'foga chiqarish 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda tartibga solindi va shu asosda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunga ham o'zgartirishlar kiritildi.

Konstitutsiyaviy qonunning 5-moddasida Bosh vazirni lavozimidan ozod etish tartibi quyidagicha belgilandi:

"O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan quyidagi hollarda lavozimidan ozod etiladi:

a) Bosh vazirning iste'foga chiqish to'g'risidagi arizasiga binoan;

b) Bosh vazir o'z vakolatlarini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda;

v) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, shuningdek Vazirlar Mahkamasi bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

g) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar yetakchi fraksiyalari qo'llab-quvvatlasa hamda mazkur tashabbus O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatiga ovozga qo'yilganda, tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy soni uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozini olsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan qabul qilingan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirilgan taqdirda.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining lavozimida ozod etilishi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi".

Yuqoridagi qonunga asosan, Milliy qonunchiligimizda birinchi marta qanday hollarda Bosh vazirni lavozimidan ozod etish asoslari va tartibi aniq belgilandi. Bu Bosh vazir mas'uliyatining kuchayishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimidan ozod etiladi.

Bosh vazir qanday holatda vazifasidan ozod etilmasin, bu hukumatning to'la tarkibda iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi. Chunki, hukumat a'zolari Bosh vazir taqdimi bilan Prezident tomonidan tayinlanadi. Yangi Bosh vazir hukumat a'zolarini yangitdan taqdim qiladi. Bu barcha hukumat a'zolari yangilanishi kerak, degan ma'noni bermaydi. Yangi Bosh vazir avvalgi hukumat a'zolari orasidan ham tegishli lavozimlarga nomzodlar taqdim qilishi mumkin. Bunday tajribalar xorijiy mamlakatlar davlatchiligida qo'llaniladi.

2011-yil 18-apreldagi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishda Bosh vazirni muddatidan oldin lavozimidan ozod qilishning tartibi belgilandi. Bu Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibidir.

Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri bilan Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlarining umumiy sonining uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Ishonchsizlik votumi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holda Prezident Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Shunday hol yuz bersa, Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi iste'foga chiqadi.

Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur o'zgartirish asosida yuqoridagi Qonunning 5-moddasi "d" band bilan to'ldirildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Hukumatning hokimiyat tizimidagi o'rni qanday?
2. Hukumat mavqeiga nimalar ta'sir qiladi?
3. O'zbekistonda hukumatning shakllanishi qanday kechgan?

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – hukumati qanday shakllantiriladi?

5. Vazirlar Mahkamasining tarkibi qanday?

6. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari qanday?

7. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari qanday amalga oshiriladi?

8. Vazirlar Mahkamasining boshqa hokimiyat tuzilmalari, organ, tashkilotlar bilan munosabati qanday?

9. Vazirlar Mahkamasining parlament va Prezident oldida mas'ulligi nimalarda namoyon bo'ladi?

10. Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatida qanday rol o'ynaydi?

11. Bosh vazirning vakolatlari qanday?

12. Bosh vazirni vazifasidan ozod etish tartibi qanday?

13. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi qanday?

14. Vazirlar Mahkamasi, Bosh vazir qanday hujjatlar qabul qiladi?

XXIV bob. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari

1-§. Mahalliy davlat organlari tizimi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy miqyosda boshqaruvni tashkil etishga o'ziga xos tarzda yondashilgan, MDH va boshqa sobiq ittifoqdosh respubliklar konstitutsiyalaridan farq qilib, O'zbekiston Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi alohida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tizimi alohida belgilandi. O'zbekistondan boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida mahalliy davlat hokimiyati degan tushuncha ishlatilmagan. Jumladan, Belorussiya Konstitutsiyasida "Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruv", Qozog'iston Konstitutsiyasida "Davlatning hududiy tuzilishi va o'zini o'zi boshqaruv", Qirg'iziston, Rossiya va Estoniya Konstitutsiyalarida "Mahalliy boshqaruv", Turkmaniston Konstitutsiyasida "Mahalliy ijro hokimiyati" alohida bobda, "Mahalliy boshqaruv" alohida bobda berilgan.

Rossiya Konstitutsiyasida davlat hokimiyati federal miqyosda va federatsiya subyektlari miqyosida tashkil qilinib, boshqa barcha quyi bo'g'inlarda tuman, shahar, qishloqlarda mahalliy boshqaruv organlari tashkil qilinadi va faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy miqyosda boshqaruv viloyat, tuman, shaharlarda mahalliy davlat hokimiyati organlariga, qishloq, shaharcha, ovullarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklangan.

Konstitutsiyaga asosan mamlakatimizda mahalliy miqyosda ham ikki turdagi, ya'ni vakillik davlat hokimiyati va ijro hokimiyati organlari mavjud.

Konstitutsiyaning 99-moddasiga binoan "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organi bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar". Bu bilan konstitutsiyaviy asosda mahalliy davlat hokimiyati vakil-

lik organlarining tizimi belgilandi (viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari) va hokimiyatning vakillik organlariga hokimlar boshchilik qilishi belgilandi va bu organ davlat va fuqarolarning manfaatini ko'zlab, vakolatlarni amalga oshirishi mustahkamlandi.

Konstitutsiyada hokimlar qaysi ma'muriy hududlarda faoliyat ko'rsatishi haqida alohida norma bo'lmasa-da, Konstitutsiyaning 99-moddasi mazmunidan ular viloyat, tuman, shaharlarda faoliyat ko'rsatishini bilib olsa bo'ladi, ya'ni hokimliklar viloyatlar, shaharlar va tumanlarda tashkil qilinadi.

Konstitutsiyaning 102-moddasida: "Vakillik va ijro hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi", – degan qoida mahalliy miqyosda vakillik hokimiyati bilan birga ijro hokimiyatining ham o'rnatilganligini ko'rsatadi. Mazkur modda qoidalari yana qaysi ma'muriy hududlarda hokim qanday tartibda tayinlanishi haqida hamda ijro hokimiyatining tizimi haqida xulosa qilish imkoniyatini tug'diradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimini vakillik hokimiyati organlari – xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar tashkil etadi. Ularning har biri o'zining tizimiga ega.

Vakillik hokimiyati organlari, viloyatlar (Toshkent shahar), tumanlar va shaharlarning xalq deputatlari Kengashlaridan, ijro hokimiyati organlari viloyatlar (Toshkent shahar), tuman va shahar hokimlaridan iborat. Bu ikkala ta'rif bir qarashda har ikkala turdagi organlar tizimi bir xil, bir-biriga mos, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Chunki, Konstitutsiyaga binoan xalq deputatlari Kengashlari tuman tarkibiga kiruvchi shaharlar, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda tashkil qilinmaydi. Masalan, Toshkent shahri tarkibidagi birorta tumanda xalq deputatlari Kengashlari, ya'ni vakillik organlari saylanmaydi. Ularda faqat ijro hokimiyati – hokimlar faoliyat ko'rsatadi. Bu vakillik va ijro hokimiyati organlari tizimidagi o'ziga xos xususiyatdir.

Shunday qilib, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga qarab viloyat, tuman va shahar pog'onalarida faoliyat ko'rsatadi. Ular davlat hokimiyatining vakillik organlari va ijro hokimiyati organlari ko'rinishida mavjuddir.

Mahalliy hokimiyat organlarining tizimi deganda viloyat, tuman, shaharlarda tashkil qilinadigan davlat hokimiyatining vakillik organlari – xalq deputatlari Kengashlari va ijroiya hokimiyati organlari – hokimliklar yig'indisi tushuniladi. Bu tizimga kiruvchi vakillik hokimiyati organlari bir-biridan mustaqil, hamkorlik asosida tashkil qilinsa va faoliyat yuritsa, ijro hokimiyati organlari – hokimlar vertikal bo'ysunish asosida tashkil topadi va faoliyat yuritadi.

2-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va vakolatlari

Konstitutsiyaga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlari, mustaqil vakillik va ijro hokimiyati organlariga bo'linsa-da, ularning vazifalari Konstitutsiyada alohida-alohida ko'rsatilmagan. Konstitutsiyada (100-modda) mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga berilgan vazifalar umumiy tarzda bayon qilingan.

Konstitutsiyaning 100-moddasiga binoan, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Bulardan ko'rinib turibdiki, mahalliy davlat hokimiyati organlari vazifalariga ijtimoiy va davlat hayotiga taalluqli barcha masalalarni hal qilish, ularda ishtirok etish kiradi. Faqat mahalliy davlat hokimiyati organlari bu masalalarni o'z hududida amalga oshiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda ularning vakolatlari belgilab berilgan.

Vazifalar alohida-alohida ko'rsatilmasada, vakolatlar aniq belgilangan.

Qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash davlatning eng asosiy vazifasi, bu davlat miqyosida hal qilinadigan masala, bu masalada asosiy yo'nalish davlat tomonidan ishlab chiqiladi, mahalliy hokimiyat organlari esa, davlat strategiyasini joylarda amalga oshishini ta'minlaydi.

Qonuniylik, huquqiy-tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash bir-biri bilan bog'liq hodisa va ijtimoiy munosabatlardir. Qonuniylik bo'lmasa, huquqiy tartibot bo'lmaydi, huquq-tartibot ta'minlanmasa, fuqarolarning xavfsizligi, manfaati buziladi. Bu masalada mahalliy vakillik organlari umumiy vazifalarni hal qilsa, ijro hokimiyati organlari mahalliy vakillik organlarining qarorlarining ijrosini ta'minlaydi. Mahalliy hokimiyat organlarining birgina faoliyati bilan qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligi ta'minanishi mumkin. Masalan, mahalliy hokimiyat organlariga fuqarolarning murojaatlarini ko'rish vakolati berilgan.

Murojaatlarni belgilangan muddatlarda ko'rib, hal qilish, hududdagi boshqa organ va tashkilotlarda murojaatlarni ko'rish ahvolini nazorat qilish qonuniylik bilan bog'liq bo'lsa, unda ko'tariladigan masalalar huquq-tartibotga, xavfsizlikka qaratilgan ham bo'lishining o'zi ham bu maqsadlarning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu vazifani bajarishda hududdagi shu vazifalar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Masalan: sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, Adliya organlari, soliq, bojxona va boshqalar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'z hududida iqtisodiy, ijtimoiy, xo'jalik masalalarida keng doiradagi masalalarni hal qilish vazifasi yuklangan bo'lib, bularga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish vazifasi kiradi. Rivojlantirish vazifasi shu majmuaga kiruvchi tarmoqlarni boshqarishni ham nazarda tutadi. Mahalliy kengashlar hokimlarining taqdimiga binoan hududlarni rivojlantirish istiqbollarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Hududni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilib, qabul qilinadi. O'tish davridagi davlatning bosh islohotchilik vazifasi, joylarda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Har qanday hududda deyarli barcha masalalarni hal qilishda moliya, mablag‘ muhim rol o‘ynaydi. Bu esa, budjetni shakllantirish va undan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining eng muhim vazifalari sifatida Konstitutsiyada ularning mahalliy budjetning mablag‘lari hisoblanuvchi mahalliy soliqlar va yig‘imlarni belgilash, shuningdek budjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilishi belgilangan.

Har bir hududiy tuzilish (viloyat, tuman, shahar) o‘z budjetiga ega va ular mamlakat budjetining bir qismini tashkil etadi. Budjet tegishli hududni rivojlantirish, boshqarishning moliyaviy manbasi hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z hududi budjetini (Respublika budjetidagi ajratmadan tashqari) mahalliy soliqlar va yig‘imlar hisobiga shakllantiradi. 1993-yil 7-maydagi “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi Qonunga asosan mahalliy soliqlar va yig‘imlarga nimalar kirishi belgilab qo‘yilgan. Mahalliy Kengashlarning sessiyalarida muntazam ravishda soliq va yig‘imlarga tegishli masalalar ko‘rib chiqiladi. Ularni ijrosini esa hokimlar amalga oshiradi.

Konstitutsiyada kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalari qatorida ko‘rsatilgan Kommunal xo‘jalik boshqa sohalardan ko‘p tarmoqliligi va asosan hududlarga taalluqligi bilan boshqa sohalardan farq qiladi. Kommunal xo‘jalik bu xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq sohadir. Kommunal xo‘jalikda Respublikadagi fondlarning asosiy qismi jamlangan. Kommunal xo‘jalik tarkibiga turar-joy fondi va u bilan bog‘liq qurilish-ta’mirlov va loyihalash tashkilotlari, yordamchi xo‘jaliklar, ishlab chiqarish texnika bazasi, suv ta’minoti, kanalizatsiya, gazlashtirish va uning ta’minoti, isitish, elektr energiyasi bilan ta’minlash tizimlari, mehmonxonalar va boshqa ko‘plab manbalar kiradi.

Kommunal xo‘jalikning deyarli barcha tarmoqlari budjet bilan hududni rivojlantirish dasturlari bilan bog‘liqdir. Xalq deputatlari Kengashlari hududni budjetini uning ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash bilan, rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash bilan kommunal xo‘jalik tarmoqlari faoliyatiga ham ta’sir qiladi. Kommunal xo‘jalik

idoralari, tashkilotlari rahbarlarini lavozimiga tayinlash yoki lavozimidan ozod qilishda mahalliy hokimiyat organlari ishtirok etadi. Kommunal xo'jalikni boshqarish, kommunal mulkni boshqarishni ham o'z ichiga oladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish vazifasi Konstitutsiyada belgilangan vazifalar qatoriga kiradi. Bu vazifa ona tabiatni asrash, yashab turgan zamin, makonni saqlashga qaratilgan bo'lib, u insonni sog'lig'i, hayoti umuman yer yuzasidagi jonli hayotni davom etishini ta'minlashga qaratilgandir. Hamma mamlakatlarda ham atrof-muhitni saqlashga qaratilgan tadbirlarning salmoqli qismi joylardagi tadbirlar hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan boshlab atrof-muhitni muhofaza qilishga muhim masalalar qatorida qarala boshlandi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, atrof-muhitga ziyon yetkazilishiga va respublikadagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy sohadagi asosiy vazifalardan biridir[1].

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilishning bir qismi bo'lib, u inson salomatligi omilidir. Agar atrof-muhit sog'liqni saqlash yo'lida olib borilayotgan boshqa tadbirlar samarasiz bo'lib qoladi.

Respublikamizda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun[2] qabul qilingan bo'lib, unda mahalliy hokimiyat organlarining vazifasi, vakolatlari ko'rsatib qo'yilgan. Bundan tashqari, ularning vakolatlari "Yer to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risda"gi, qonunlarda ham ko'rsatilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z hududida atrof-muhitni muhofaza qilish vazifasini shu sohani boshqarish va shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar, fuqarolar faoliyati ustidan nazorat olib borish orqali amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yana bir Konstitutsyaviy vazifasi, o'z vakolatlari doirasida normativ hujjatlar qabul qilish, qonun va boshqa hujjatlarni amalga oshirishdir. Mahal-

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 20-bet.

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, 1-son, 38-modda.

liy davlat hokimiyati organlarining qarorlari normativ xarakterda bo'ladi. Chunki, ular shu hududda majburiy kuchga ega bo'ladi.

Konstitutsiyamizning 104-moddasi, hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyligi o'rnatib qo'yilgan. Bu shu hududdagi hokimga bo'ysunmaydigan yuqoriga bo'ysunuvchi tashkilotlarga ham taalluqlidir.

Konstitutsiyamizning 101-moddasida mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish belgilab qo'yilgan ularni respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarning muhokamasida ishtirok etishi ham belgilangan. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda[1] batafsil belgilangan.

3-§. Xalq deputatlari Kengashi – hokimiyatning vakillik organi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uni oldida ko'plab masalalarni hal qilish, avvalgi tuzumda mavjud bo'lgan qanday tuzilmalardan foydalanish qaysi tuzilmalarni umuman yo'q qilish masalasi paydo bo'ldi. Eng avvalo, demokratik tamoyillarga mos keluvchi, taraqqiyotga to'sqinlik qilmaydigan, xalq xohish irodasiga javob beruvchi, davlat hokimiyatini amalga oshira oladigan organlar tashkil qilish zarur edi.

Ayniqsa, mahalliy miqyosda qanday davlat organlari bo'ladi, umuman, mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari bo'lishi shartmi, degan savollarga javob topilishi kerak edi. 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risida"gi Qonun ko'pgina masalalarni hal qildi va kelajakda mamlakatimizda mahalliy darajada qanday organlar bo'lishini, ularni xarakterini belgilab berdi. Unda birinchi marta mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organ-

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 47–54-betlar.

lari ikki turda: vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati ko'rinishida bo'lishi mustahkamlandi. Bu hokimiyat tarmoqlari bo'lishi prinsipini mahalliy miqyosda ham qo'llash oqibati edi. Bu prinsiplar Konstitutsiya qabul qilinishida va mahalliy hokimiyat organlari tizimi faoliyati belgilanishida e'tiborga olindi.

Mahalliy hokimiyat organlarining vazifalari Konstitutsiyada belgilangan bo'lsa, ularning shu vazifalarini bajarish uchun zarur vakolatlari, Konstitutsiyaning 103-moddasi asosida qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasida Xalq deputatlari Kengashining, 25-moddasida Hokimning vakolatlari alohida-alohida mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga "fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash" vazifasi ham kirishi belgilangan. Ular bu vazifani (mahalliy hokimiyat organlari) Adliya organlarining hududdagi bo'limlari faoliyatiga rahbarlik qilish bilan amalga oshirar edilar. 2003-yil 1-sentabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish haqidagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomda Adliya vazirligining hududiy organlari mahalliy hokimiyatdan holi ish olib borishi belgilandi. Shuning uchun fuqarolik holati aktlarini qayd qilishni ta'minlash vazifasi mahalliy hokimiyat vazifasiga kiradi degan qoida muammo bo'lib qoldi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda Xalq deputatlari Kengashi va hokimni vazifasi sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida aloqalarni ta'minlash, aholini hududlarni boshqarishga jalb etishni ta'minlash vazifasi belgilangan.

Konstitutsiyada mahalliy vakilik hokimiyati organi sifatida xalq deputatlari Kengashlari belgilandi (99-modda). Bu degani avvalgi tuzimdagi organ saqlanib qolindi. Faqat uni vazifasi, tarkibi, tashkil qilish tartibi takomillashtirildi. Mahalliy Kengashlar avvalgi tuzimdagi singari partiya qarorlarini hayotga tatbiq qiluvchi organdan, haqiqiy davlat hokimiyati organlariga aylantirildi.

Mahalliy Kengashlar tom ma'nodagi vakillik hokimiyati organi bo'lishi uchun mahalliy miqyosdagi masalalarni hal qilish qobiliyatiga, imkoniyatiga ega bo'ladigan darajada vakolatlar bilan ta'minlandi.

Xalq deputatlari Kengashlarining vakillik xarakterini ularning aholi tomonidan saylanishi, ularning tarkibida aholi xohish-irodasini aks ettiradigan, turli tabaqa vakillarining bo'lishi ko'rsatadi. Mahalliy Kengashlarga saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tishining belgilanishi, saylovlarda o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtirok etishi vakillik xarakterini yanada kuchliroq, yaqqolroq aks ettirdi. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalashi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda, amalga oshirishda ishtirok etishini ko'rsak, ularning ishtiroki xalq deputatlari Kengashlarida vakillik xarakterini yanada yaqqolroq namoyon etadi.

Konstitutsiyaning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir", degan qoida mavjud bo'lib, bu mahalliy davlat hokimiyatiga ham taalluqlidir. Mahalliy davlat hokimiyatining manbasi xalq bo'lib, ular bu hokimiyatni amalga oshirishda undagi o'z vakillari – deputatlar orqali qatnashadi.

Konstitutsiyaning 32-moddasida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtiroki belgilangan bo'lib, unga asosan mamlakat fuqarolari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etadi. Shuning uchun ham saylov yo'li bilan tashkil qilinadigan xalq deputatlari Kengashlari vakillik hokimiyatini to'la ifodalay oladi va xalq nomidan harakat qiladi.

Xalq deputatlari Kengashlarida masalalar ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi, qabul qilinadigan qaror loyihalari xususida deputatlar saylovchilarni xabardor qilib turishi, deputatlarning o'z faoliyati bo'yicha saylovchilarga axborot berib turishi, saylovchilarni muntazam ravishda qabul qilishning uyushtirilishi haqidagi qoidalar va tajribalar, xalq deputatlari Kengashlari ning vakillik xarakterini ko'rsatib, ularni vakillik organlari sifatida namoyon qiladi.

4-§. Xalq deputatalari mahalliy kengashlarini tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli

Konstitutsiyada xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini tashkil qilish, vakolat doirasi va saylash tartibi qonun bilan belgi-

lanadi, degan xavolaki norma mavjud (103-modda ikkinchi qism). Shu konstitutsiyaviy norma asosida 1993-yil yil 2-sentabrda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va 1994-yil 5-mayda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi[1].

Xalq deputatlari Kengashlari bitta yo'l bilan – saylov orqali tashkil etiladi. Xalq deputatlari Kengashlariga saylov ko'ppartiyaviylik asosida, bir mandatli saylov okruglarida, har besh yilda o'tkaziladi. Bu degani saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan barcha siyosiy partiyalar teng imkoniyatlarda qatnashadi. Bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi va ularning vakolati besh yil davom etadi.

Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tadi. Bular saylov huquqining asosiy prinsiplaridir.

Umumiy saylov – 18 yoshga yetgan barcha fuqarolarni millati, jinsi, irqi, dini, kelib chiqishi, ijtimoiy ahvoli, mashg'ulot turi, kasbi, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar saylovda ishtirok etadi. Ya'ni, saylash huquqidan foydalanishdir. Faqat, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydi. Umumiy saylov huquqi mahalliy Kengash deputatligiga saylanuvchilar oldiga ba'zi bir talablarni qo'yadi va ular umumiy saylov huquqiga zid emas, jahon saylov tajribasida qo'llaniladigan talablardir. Jumladan, mahalliy Kengash deputati bo'lib 21 yoshga to'lgan, kamida 5 yil O'zbekiston Respublikasida muqim yashayotgan fuqarolar saylanishi mumkin.

Deputatlikka nomzodlar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;

saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan shaxslar;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati-

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 47–54, 56–70-betlar.

ning, Ichki ishlar vazirligining, Davlat bojxona qo'mitasining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;

diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar.

Sudyalar, prokuratura organlari va hokimiyat ijroiya organlarining mansabdor shaxslari (viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlari bundan mustasno) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'shash to'g'risida ariza berganlari taqdirdagina xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinadilar.

Teng saylov huquqi. Har bir fuqaroni saylovda bir ovozga egaligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kimligidan qat'i nazar teng saylov huquqiga ega. Teng saylov huquqi saylovning barcha jarayonlarida barcha ishtirok etuvchilarga teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda tutadi. Bir saylovchi bitta saylov uchastkasida, ro'yxatga kiritilib, ovoz berishda ishtirok etadi.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi. Xalq deputatlari Kengashining barcha pog'onalari deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita, yashab turgan joyidan saylanadi.

Yashirin ovoz berish. Saylovlarni demokratik, erkin amalga oshirish usuli bo'lib, ovoz beruvchiga biron-bir tarzda ta'sir o'tkazishni cheklaydi. Ovoz beruvchi hech kimni ta'siriga berilmay, o'z ixtiyoriga ko'ra ovoz beradi.

Saylovlar oshkora o'tadi, uning barcha jarayonlari ommaviy axborot vositalari orqali yoritib boriladi. Kuzatuvchilar ishtirokida o'tadi.

Xalq deputatalari Kengashlariga saylovda nomzod ko'rsatish huquqi – Viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashiga siyosiy partiyalar tomonidan, tuman, shahar Kengashlariga siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Saylovlar saylov komissiyalari tomonidan tashkil qilinib, saylovda viloyatlar, tumanlar va shaharlarga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari, okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari tuziladi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylov, ularning vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyining uchinchi o'n

kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. Saylovchilar ro‘yxatiga kiritilgan saylovchilarning kamida 33 foizi ovoz berishda ishtirok etsa, saylov haqiqiy hisoblanadi va ovoz berishda ishtirok etganlarni yarmidan ko‘pining ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tagacha, tuman va shahar Kengashlariga 30 tagacha deputat saylanadi. Bu masala saylov to‘g‘risidagi qonunning 7-moddasida ko‘rsatib qo‘yilgan. Xalq deputatlari Kengashining tarkibi ana shu miqdordadagi deputatlardan iborat bo‘ladi.

Xalq deputatlari faoliyatining asosiy shakli (ish shakli) sessiya hisoblanadi. Sessiyalar tegishli hokim, hokim yo‘qligida esa, uning o‘rinbosarlarini biri tomonidan zaruratga qarab, lekan bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiyalar tegishli Kengash deputatlarining kamida uchdan ikki qismining tashabbusi bilan ham chaqirilishi mumkin. Kengashlarning sessiya chaqirish to‘g‘risidagi qaror bilan deputatlar sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin xabardor qilinadi. Yangi saylangan xalq deputatlari Kengashlari hokim tomonidan saylovdan keyin ko‘pi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi. Kengashlarning birinchi sessiyasini eng keksa deputatlardan biri ochadi. Boshqa sessiyalarni hokim ochadi va olib boradi. Sessiyalarda hokim, u yo‘qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokim topshirig‘iga ko‘ra deputatlarning biri raislik qiladi. Har bir sessiyada hujjatlarni yuritish uchun sessiya kotibiyati saylanadi. Kengash sessilari, ularda deputatlarning uchdan ikki qismi ishtirok etsa haqiqiy sanaladi. Sessiyalar ochiq, oshkora o‘tkazilib, muhokama qilingan masalalar yuzasidan ochiq ovoz berish yo‘li bilan qaror qabul qilinadi.

Sessiya muhokamasiga kiritilgan masalalarni dastlab ko‘rib chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini, O‘zbekiston qonun hujjatlarini amalga oshirishga ko‘maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o‘rnatish maqsadida har bir xalq deputatlari Kengashlari o‘z vakolatlari muddatiga deputatlar orasidan doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi.

5-§. Xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi

Deputatning huquqiy maqomini uning vazifalari, huquqlari va burchlari hamda ular faoliyatining kafolatlari tizimi yig'indisi belgilaydi. Deputatning huquqiy maqomi 2004-yil 2-dekabrdagi "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonun[1] bilan tartibga solinadi.

Deputat – bu tegishli tartibda saylanib, vakolatli saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosidir. Mahalliy Kengash deputatlari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida bajaradi. Xalq deputatlari Kengashlari tizimi viloyat, tuman, shahar Kengashlaridan iborat bo'lganligi sababli, deputatlar ham tegishlicha viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari bo'ladi.

Deputatlar, mahalliy Kengashlarning vakolat muddatiga, ya'ni besh yilga saylanadi. Lekin ularning vakolatlari muddatidan oldin ham, quyidagi hollarda tugatilishi mumkin.

- o'z arizasiga binoan;
- deputatlikka nomuvofiq lavozimga saylangan yoki tayinlangan bo'lsa;
- unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi bo'lsa;
- deputat chaqirib olinsa;
- deputatni sud muomalaga layoqatsiz deb topsa;
- sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilsa;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganda;
- vafot etsa;
- Kengash muddatidan avval tarqatib yuborilsa.

Deputatning deputatlik nomiga dog' tushiruvchi xulq-atvori ham, agar masala Kengashda ko'rilib, xulosaga kelinsa, vakolat muddatidan avval tugatilishi mumkin (3-modda).

---

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2007. – 224–228-betlar.

Deputatning huquqlari Qonunning 5-moddasida batafsil bayon qilingan, unga ko'ra, deputat sessiyada ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovozga ega:

- u, Kengashining barcha domiy, muvaqqat komissiyalari tarkibiga saylanishga;
- sessiyada ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif qilishga;
- kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga;
- Kengash tomonidan saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslar nomzodi yuzasidan fikr bildirishga;
- sessiyalarda munozaralarda ishtirok etishga, raislik qiluvchi va ma'ruzachiga savollar berishga;
- deputat so'rovi bilan murojaat qilishga;
- o'z takliflarini isbotlash yoki ovoz berish sabablarini izohlash uchun so'zga chiqishga;
- raislik qiluvchiga muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z nutqi matnini, taklifi yoki mulohazasi topshirishga;
- o'zi a'zo bo'lgan Kengash komissiyasining qaroriga qo'shilmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini sessiyada bayon qilishga yoki bu haqda yozma xabar qilishga;
- har qanday mansabdor shaxsni sessiyada hisobotini eshitish taklifini kiritishga;
- qonunlar ijro etilishini, Kengash qarorlarining bajarilishini tekshirish to'g'risida masalalar taklif qilishga;
- Kengashi sessiyasi stenogrammalari bilan tanishishga;
- saylovchilar bilan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiya tashkilotlari bilan uchrashuvlar o'tkazishga;
- fuqarolarning huquqlari yoki qonun hujjatlari buzilishi hollari ma'lum bo'lib qolgan hollarda, ularga chek qo'yish talabi bilan tegishli organ va mansabdor shaxslarga murojaat qilishga haqlidir.

Deputat qonunlarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Deputatning ayrim huquqlari, ularni amalga oshirish tartibi, oqibati Qonunda alohida mustahkamlangan. Masalan, Qonunning 8-moddasi "Deputat so'rovi" deb atalgan. Unga asosan deputat so'rovi bu – tegishli hududda joylashgan organ, tashkilot mansabdor shaxslariga asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtayi nazarini bayon qilish talabidir. So'rovga javob so'rov olingan kundan 10 kundan kechiktirmay berilishi shart. So'rov bo'yicha ma'lumot sessiyada muhokama qilinishi mumkin. Deputat so'rovi vakillik organini, deputatni ijro organlari faoliyati ustidan nazoratining ta'sirli, samarali usulidir.

Qonunning 6-moddasida "Deputatning majburiyatlari" belgilab qo'yilgan. Unga asosan, deputat, Kengash sessiyalarida, Kengash tomonidan tuzilgan komissiyalar tarkibiga saylangan bo'lsa, shu komissiyaning majlislarida va uning boshqa tadbirlarida ishtirok etishi shart, deputatlar ovoz berishda shaxsan o'zlari ishtirok etishi shart. Deputatning zimmasida qonunlarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, belgilangan muddatlarda saylovchilarga axborot berish majburiyati.

Deputat maqomi uning faoliyatini alohida kafolatlari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu kafolatlar deputatga o'z faoliyatini hech qanday moneliksiz, mustaqil amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Deputatning sha'ni, qadr-qimmati alohida muhofaza qilinadi, ularga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik belgilangan. Deputat faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qilgan mansabdor shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Deputat daxlsizlik huquqidan foydalanadi. Tegishli xalq deputatlari Kengashlarining roziligisiz deputat mazkur hududda jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Deputat ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi, o'z nuqtayi nazarini bayon qilgani yoki deputatlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Deputatning daxlsizlik huquqidan mahrum etish tartibi qonunning 12-moddasida batafsil belgilangan.

Deputatlik maqomini kafolatlovchi yana bir masala, deputatga deputatlik faoliyatini amalga oshirishga davlat organlari va mansabdor shaxslarning ko'maklashuvidir.

Deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvi, saylovchilarni qabul qilishi uchun yetarli sharoitlarni ijro organlari yaratib beradilar (7-modda). Deputat o'z faoliyatini amalga oshirayotgan vaqtlarda ularning tashkilotlarga hech qanday moneliklarsiz kirishi va rahbarlar tomonidan qabul qilinishi shart (13-modda).

Mahalliy Kengash deputatlari deputatlik faoliyatini ishlab chiqarish yoki xizmat vazifasi bilan qo'shib olib boradi. Shuning uchun ularning deputatlik faoliyatini bajarayotgan vaqtda o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

6-§. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokim maqomi.

Mahalliy miqyosda hokimiyatning vakillik organlari sifatida xalq deputatlari Kengashlari saqlab qolinib (ular avvalgi tuzumda ham mavjud edi), ularning tashkil bo'lishi, faoliyati demokratlashtirildi, tarkibi optimal darajaga keltirildi va ular haqiqiy davlat hokimiyati sifatida huquqiy mustahkamlanib qo'yilgan bo'lsa, ijro hoki-miyati yangitdan tashkil qilindi va yangi institut – hokim lavozimi o'rnatildi. Sobiq tuzum davridagi qonunlarda, umuman, ijro hokimiyati degan (shu jumladan, mahalliy ijroiya hokimiyati) ins-titut, tushuncha yo'q edi. U davrdagi qonunlarda faqat xalq deputatlari Sovetlari davlat hokimiyati organi hisoblanib, ijro organlarini Sovetning organi, deb mustahkamlangan va ijro organlarini ham kollegialchilik (ijroiya komitetlar) asosida ish olib borishini beliglab qo'yilib, yakka boshchilik sotsialistik demokratiyaga zid hodisa deb hisoblangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ijro hokimiyatini tashkil qilish, uni faoliyatini kuchaytirish yo'lidan bordi. Toshkent shahrida ijro organining boshlig'i yakka boshchilik asosida faoliyat ko'rsatadigan hokim bo'lishi maqsadga muvofiq, degan fikr asosida, 1991-yil 29-dekabrda eksperiment tariqasida Toshkent shahar hokimi Toshkent xalqi tomonidan saylab qo'yildi. 1992-yil yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini

qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi qonuniga binoan Respublikaning barcha ma’muriy tuzilmalarida ijro hokimiyatini boshlig‘i sifatida hokim lavozimi tashkil qilinishi belgilandi va joylarda ijro hokimiyati davlat hokimiyati tarmog‘i sifatida e’tirof etildi. Bu g‘oya keyinchalik O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham mustahkamlanib qo‘yildi.

Konstitutsiyaga asosan barcha ma’muriy-tuzilish pog‘onalarida hokim lavozimi mavjud bo‘lib ular vakillik hokimiyati organlarini tegishlicha boshqaradi. Shuningdek, ijro hokimiyatini ham hokimlar boshqaradi (100, 102-moddalar).

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga asosan Hokimlar viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi hisoblanadi (1-modda). Hokim joylardagi mansabdor shaxs sifatida o‘zbek davlatchiligida azaldan qo‘llanilib kelingan va sotsialistik tuzumda yo‘q qilingan lavozim edi.

Hokim lavozimining o‘rnatilishi, ijro hokimiyatida boshqaruv yakka boshchilik prinsipida amalga oshirilishini belgiladi. Yakka boshchilik prinsipi faqat mansabdorga keng vakolatlar va huquqlar berish emas, ularning mas’uliyati kuchli bo‘lishini nazarda tutadi. Shuning uchun hokimlarga o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish imkoniyatini beruvchi vakolat, huquqlar bilan birga kuchli mas’uliyatlar ham yuklangan.

Viloyat, Toshkent shahar hokimi Prezident va tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida, tuman va shahar hokimlari yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobdorligi qonunning 1-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan davlatchilik sohasidagi islohotlar ijro hokimiyati faoliyati ustidan vakillik hokimiyati nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish nazarda tutilmoqda va holatlar qonunlarda aks ettirilmoqda.

“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi[1] Qonunining 7-moddasida “Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputat-

1 Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2007. – 222–224-betlar.

larining viloyat hamda Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish vazifalari" deb nomlanadi va unda Kengashlaridagi partiya guruhlariga hokim lavozimida ishlayotgan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida Prezidentga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi huquqi berildi. Bunday tashabbus yetakchi guruhlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan taqdirda Prezident bu tashabbusni Kengash muhokamasiga tayinlaydi va muhokama natijasiga ko'ra qaror qabul qiladi.

2010-yil 12-noyabrdagi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida Prezident davlat organlari faoliyati ustidan "O'zbekiston Respublikasida jamoat nazorati to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini ochiqligi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilish zarurligini ko'rsatib o'tdi[1].

Hokimning mas'uliyati kuchli bo'lsa, ish yaxshi yo'lga qo'yiladi va natija yaxshi bo'ladi. Hokim institutining eng muhim xususiyati shundaki hokim faqat o'zi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni to'g'riligi, harakati va faoliyatini qonuniyligi uchungina javobgar bo'lmay, Konstitutsiyaning 103-moddasiga asosan o'zi rahbarlik qilayotgan organlarning ham qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

7-§. Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi

Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish Konstitutsiyaviy asosga ega. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hokimlarni lavozimiga tayinlash va ozod qilish tartibiga ham o'zgartirishlar kiritdi.

Avvalgi Konstitutsiya va qonun normalariga asosan:

– viloyatlar va Toshkent shahar hokimi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanib va tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanar edi. Davlat boshlig'i tomonidan tayinlangan shaxsning, Kengashda tasdiqlani-

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini demokratlashtirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 31, 46-betlar.

shi qoidasining o'rnatilganligi bahs-munozaralarga sabab bo'lar edi. Bundan tashqari, Prezident tomonidan tayinlangan hokimni, Kengash tasdiqlamasa, nima bo'lishi ham qonunda ko'rsatilmagan bo'lib bu qonunning bo'shlig'i edi.

Bu holat "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunda mantiqiy to'g'ri hal qilindi va bo'shliq to'ldirildi. qonunning 6-moddasida "Viloyat, Toshkent shahar hokimini tayinlash va tasdiqlash tartibi" deb nomlangan bo'lib, unga asosan: Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Tegishli Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan nomzod hokim lavozimiga tasdiqlangan hisoblanadi, Kengash qaroriga muvofiq Prezident nomzod bo'yicha farmon qabul qiladi, ya'ni saylangan nomzodni tasdiqlaydi.

Ovoz berish vaqtida nomzod Kengash deputatlarining tegishli ovozini ololmasa, Prezident lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega.

Taqdim etilgan nomzod Kengashda uch marta rad etilsa, Prezident Kengashni tarqatib yuborish va hokim vazifasini vaqtincha bajaruvchi tayinlash huquqiga ega. Tarqatib yuborilgan Kengashga uch oy ichida saylov o'tkaziladi.

Konstitutsiyaviy qonunga asosan Konstitutsiyaning 102-moddasiga o'zgartirish kiritildi unda "Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi" deb tayinlash va ozod qilish qonunga havola qilindi. Qonunda esa yuqorida keltirilgan tartib mustahkamlangan. Bunday tartibni o'rnatilganligi Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandiga ham o'zgartirish kiritishga sabab bo'ldi.

Konstitutsiyaning 102-moddasidagi, tuman, shahar hokimlarini tayinlashga taalluqli qoida-normalar o'zgarishsiz qoldi. Unga asosan: tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Konstitutsiyada alohida hollarda, tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod qilish tartibi ham belgilangan. Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandiga binoan: "Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli". Avvalgi bandda viloyat hokimlarini lavozimidan ozod qilish masalasini Kengashidan siyosiy partiyalarning partiya guruhlari ham ko'tarish huquqiga egaligi va shunday holat yuzaga kelganda, hokimni vazifasidan ozod qilish tartibini bayon qilgan edik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida viloyat va Toshkent shahar hokimlarini tayinlashda Bosh vazir ishtirokini belgilovchi norma bo'lishi haqida taklif bildirildi va Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandi "O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi", degan so'zlar bilan to'ldirildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari nima uchun zarur?

2. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi qanday tashkil qilingan?

3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy vazifalari nimalar?

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari qanday?

5. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari qaysi organlar. Nima uchun ular vakillik organlari deyiladi?

6. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari qanday tashkil qilinadi?

7. Mahalliy vakillik organlarining tashkiliy faoliyat shakli qanday?

8. Mahalliy ijro hokimiyatini kim amalga oshiradi?

9. Hokimlarning maqomi qanday?

10. Hokimlar lavozimiga qanday tayinlanadi va ozod qilinadi.

XXV bob. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

1-§. O'zini o'zi boshqaruv va uning demokratik jamiyatdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy davlatchilik an'analariga, qadriyatlariga mos keluvchi va xalqning xohish-irodasini to'la aks ettira oluvchi o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Bunda xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalari chuqur o'rganildi va O'zbekiston sharoiti e'tiborga olindi. Natijada O'zbekistonning o'ziga xos o'zini o'zi boshqarish organlari vujudga keldi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari Konstitutsiyaning 105-moddasiga asosan fuqarolarning yig'inlari hisoblanadi. Ular qishloq, shaharcha, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shahardagi mahallalarda faoliyat ko'rsatib, ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

Konstitutsiyaning shu moddasi holatidan ko'rinib turibdiki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat organlari tizimidan ajratilgan va alohida turdagi hokimiyatni amalga oshiruvchi organdir.

O'zbekiston o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini davlat organlari tizimidan alohida belgilash bilan birga, faoliyati va boshqa tomonlariga mutlaqo yangicha jihatlar kiritdi. Jumladan, deyarli barcha mamlakatlarda (Rossiya, Turkmaniston, Fransiya, Germaniya va hokazo) bu institut mahalliy o'zini o'zi boshqarish deb atalsa, O'zbekiston uni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi deb atadi. Bu shunchaki nomni o'zgartirish emas, masalaning mohiyatini bildiruvchi holatdir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishga nisbatan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish so'zi o'zini o'zi boshqarishni mustaqil demokratik institut sifatida to'laroq ko'rsatadi. Sababi, mahalliy boshqaruv faqat o'zini o'zi boshqaruv orqali emas, davlat organlari orqali ham amalga oshiriladi, ya'ni mahalliy boshqaruvda davlat ham ishtirok etadi. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning asosiy vazifasi mahalliy davlat boshqaruvini amalga oshirishdir.

Shuning uchun O'zbekistonda o'zini o'zi boshqaruvning mahalliy o'zini o'zi boshqaruv emas, fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvi deb nomlanishi masalaning asl mohiyatiga mos keladi va o'zini o'zi boshqaruvning davlat boshqaruvidan holi ekanligini ko'rsatadi.

O'zini o'zi boshqarish fuqarolar faoliyatining bir yo'nalishi, jahon davlatchiligi va jamiyat rivojlanishi tajribasida uchraydigan muhim institut hisoblanadi. O'zini o'zi boshqarish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan bo'lib, bu huquq fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlari orqali amalga oshiriladi.

O'zini o'zi boshqarish, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning tarixiy-milliy xususiyatlariga tayangan holda aholi (jamoa) manfaatidan kelib chiqib, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni mustaqil hal etish maqsadida faoliyat ko'rsatadigan fuqarolar faoliyatining tashkiliy tizimidir.

O'zini o'zi boshqarish tushunchasi bilan o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi bir biridan farq qiladi. O'zini o'zi boshqaruv tashkiliy tizimdan iborat faoliyat bo'lsa, o'zini o'zi boshqaruv organlari shu faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmalar (tashkilot) hisoblanadi.

O'zini o'zi boshqarish faoliyati orqali fuqarolar davlat va jamoat ishlarida ishtirok etadi yoki boshqacha qilib aytganda, o'zini o'zi boshqaruv fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokini ta'minlovchi muhim vositalardan biridir.

Bu Konstitutsiyaning 32-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Unga asosan fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda o'zini o'zi boshqarish orqali ishtirok etadi.

Bizning Konstitutsiyamiz o'zini o'zi boshqarish masalasiga faqat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini faoliyatini belgilash bilan yondashgan.

Aslida o'zini o'zi boshqarish ancha keng faoliyat bo'lib, bir necha harakatlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, referendum (umumxalq ovozi) ham ayrim mamlakatlarning Konstitutsiya va qonunlarida o'zini o'zi boshqarish hisoblanadi.

Yoki jamoat birlashmalari faoliyatini amalga oshirish, davlat tashkiloti, korxona, muassasalardagi jamoatchi tashkilotlar ham o'zini o'zi boshqarish orqali faoliyat olib boradi. O'quv yurtlari-

dagi ota-onalar qo'mitalari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkilotlari ham o'zini o'zi boshqarish ko'rinishidadir.

Shunday qilib, o'zini o'zi boshqaruv aholi tomonidan turli xil Kengash, qo'mita va boshqa tuzilmalar orqali amalga oshiriladi.

O'zini o'zi boshqaruv demokratiyaning bir ko'rinishi bo'lib, xalq hokimyatini ro'yobga chiqarish vositasidir. Jamiyat demokratlashib borgan sari o'zini o'zi boshqarish kuchayib boradi. U fuqarolik jamiyatining asosiy sharti va muhim instituti hisoblanadi.

O'zini o'zi boshqarish faoliyati kollegialchilik, oshkoralik, turli fikrga asoslanib, unda barcha fuqarolar teng asosda ishtirok etadi. Bu o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzishda, ularning tashkiliy tuzulmalar ishida ishtirok etishda ko'rinadi.

Biror-bir yo'l bilan o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida ishtirok etishni cheklash, to'sqinlik qilish mumkin emas.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"[1]gi Qonunda (8-modda) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi ko'rsatilgan va ularning amaliy faoliyati ham shuni ko'rsatadi.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda o'zini o'zi boshqaruv davlat organlaridan mustaqil deb ko'rsatilgani bilan (Rossiya Konstitutsiyasining 12-moddasida, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimyati organlari tizimiga kirmaydi, deb belgilangan), ba'zan bu qoidaga zid holatlar mavjud. Masalan, Rossiyada 50 mingdan ortiq aholi yashaydigan joylarning mahalliy boshqaruv ma'muriyati boshlig'i – o'lka, viloyat ma'muriyati boshlig'i, davlat organi tomonidan tayinlanishi belgilangan.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini aniq bir xil pog'onada mahallalarda tuzilishi va bir xil nomlar bilan atalishi, ularning O'zbekistonning siyosiy tizimida o'zining munosib o'rnini topishiga, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish davrida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga sabab bo'ladi. Albatta, shahar va mahallalarda tuzilgan o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlarida farq bor.

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil, 17-son, 219-modda (Qonun 2013-yil 12-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan).

O‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini ta’minlovchi. ularning ma’naviy tarbiyasiga, ijtimoy himoyasiga ta’sir qiluvchi va boshqa manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shuvchi muhim tuzilmadir.

Keyingi paytda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati yanada faollashdi va kengaydi. Fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga katta umid bog‘lanmoqda. Buni Prezidentimizning “Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma’nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni o‘zini o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”, degan so‘zlaridan ham bilsa bo‘ladi. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar faqat davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish bilan chegaralanmaydi. Bu jamiyatda har bir shaxsning fikri, ovozi e’tiborga olinishi, har bir kishi o‘zini to‘laqonli shaxs, jamiyatning to‘la a’zosi deb his qilishi kerak. Bunda ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli kattadir.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarini tashkil qilishda, shakllantirishda, O‘zbekistonning eng katta yutug‘i ushbu masalani hal qilishga milliy an’analar, qadriyatlarni tiklash, aholining tub manfaatlariga mos keluvchi yo‘lni tanlash nuqtai nazaridan yondashish bo‘ldi. Ya’ni, o‘zini o‘zi boshqarishda asosiy tayanch (makon) qilib mahallar belgilandi.

O‘zbekiston mahallalari kabi kuchli, samarali va ta’sirchan vosita boshqa mamlakatlarda yo‘q. U uzoq davrlardan ijtimoiy hayotda beqiyos o‘ringa ega bo‘lib kelgan. Inson qalbida Vatan tuyg‘usining shakllanishiga, milliy g‘ururning vujudga kelishiga, millatchilik illatlaridan holi bo‘lishga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Mahallalardagi muhit orqali jamoat fikrini to‘laroq aniqlasa bo‘ladi. Demak, ushbu xislat O‘zbekistonga xos xususiyatdir. Bu esa, umume’tirof etilgan demokratiya yo‘llariga mamlakatimizning qo‘shgan hissasidir. Yoki boshqacha qilib aytganda, O‘zbekiston demokratiyani yangi xislatlar bilan boyitmoqda.

Mahallalar faqat eski mahalla o‘rinlarida tashkil qilinib qolmasdan, ularga ko‘p qavatli binolarning qo‘shilishi yoki ko‘p qavatli binolardan iborat mahallalarning tashkil etilishi esa, ayni muddao

bo'ldi. Chunki, bu ko'p qavatli binolarda yashovchilarning hayotiga mahallalardagi ijobiy holatlarni olib kirish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati demokratik jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatini kuchaytirmoqda. Bu esa, asosiy maqsad – fuqarolik jamiyatini qurishga ko'maklashadi. "Biz islohotlarni chuqurlashtirish, demokratik tub o'zgarishlar yo'lidan olg'a siljish, hayotimizda asl demokratik qadriyatlar qaror topayotgani to'g'risida gapirganda, avvalo, fuqarolik jamiyati asoslariga o'tish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish muassasalarini butun choralar bilan kengaytirishni nazarda tutamiz. Bu barcha islohotlarning asosiy mohiyati va bosh mantiqidir", – deb ta'kidlandi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'rtinchi sessiyasida.

O'zini o'zi boshqarish muassasalari va ular faoliyatining kengayishi esa, bevosita mahallalarning mavqeini kuchaytirish bilan bog'liq.

Mahalla boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lmagan, faqat O'zbekistonga xos, davlat bilan fuqarolarni bog'lovchi muhim ko'prikdir. Uning faoliyati natijasida davlat bilan fuqarolar o'rtasida alohida munosabat vujudga keladi.

Fuqarolik jamiyati qurilar ekan, bu jamiyat faqat fuqarolarning jamiyat va davlat ishlaridagi ishtirokini ta'minlash bilan chegaralanmaydi. Jamiyat azolarini jamiyatning to'la qonli a'zosi bo'lish uchun imkoniyat yaratilishini nazarda tutadi.

Bu o'z ichiga siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy masalalarni oladi. O'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar fuqarolarining davlat va jamiyat hayotida ma'lum mavqyega ega bo'lish uchun asos yaratadi. Bunga esa tarbiya, ijtimoiy muhofaza choralarini kuchaytirish ham kiradi. Demak, o'zini o'zi boshqarish organlari yoki mahallalarning vazifasi, aholini davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish bilan cheklanib qolmaydi. Ularning muhim vazifasi har bir shaxsning ongini, ma'naviy kamolotini oshirish uchun, millatchilik, mahalliychilik kabi salbiy jihatlarni yo'qotish uchun ish olib borishi va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'anlarga, Vatanga, davlatga, boshqa fuqarolarning manfaatiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdir.

O‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahallarning faoliyati, bundan so‘ng ham takomillashtirilib, vazifalari kengayib boradi.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini, yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zoro yaqin munosabatlarini ta’minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi”[1].

Hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri – davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga katta umid qilinmoqda.

2-§. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining vazifalari va vakolatlari

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari eng qadimiy institutlardandir. Ular sobiq Ittifoq davrida ham mavjud bo‘lgan va shu davrda o‘zbek milliy an’analari, qadryatlarini yo‘qolib ketmaganligiga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli katta bo‘ldi.

Mustaqillik qo‘lga kiritilganidan keyinesa, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruviga juda katta umidlar qilindi va ularning yuqori roli hisobga olinib, fuqarolarnig o‘zini o‘zi boshqarish organlariga konstitutsiyaviy maqom berildi.

Konstitutsiyaning 105-moddasida “Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ularning tarkibidagi mahallarda hamda shahardagi mahallarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi”, – deb belgilab qo‘yildi.

Konstitutsiya normasining mazmuniga e’tibor bersak, birinchidan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bu fuqarolar yig‘inidir. Ikkinchidan, fuqarolar yig‘ini doimiy ishlovchi organ, faqat ular har ikki yarim yilda raislarni (oqsoqollarni), rais maslahatchilarini saylashadi. Uchinchidan, fuqarolar yig‘ini shaharcha va qishloqlarda shuningdek, shahardagi mahallalarda faoliyat

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 45-bet.

ko‘rsatadi. Fuqarolar yig‘ini faoliyat ko‘rsatadigan hudud uchta – shaharcha va qishloqlar, uning mahallalari, shahar mahallalari.

Shaharcha va qishloqlarda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkil qilinishi munosabati bilan Konstitutsiya qabul qilingunga qadar qishloq va shaharchalarda faoliyat ko‘rsatgan davlat hokimyati organlari – qishloq va shahar xalq deputatlari Kengashlari va ularning ijroiya qo‘mitalari faoliyati ko‘rsatmaydigan bo‘ldi. Natijada qishloq va shaharchalarda avvallari davlat hokimiyati organlari bajarib kelgan ishlarni bajarishni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z zimmasiga oldi. Bu o‘zini o‘zi boshqarishga bo‘lgan katta hurmat va ishonch bo‘lib, hokimiyatni amalga oshirishda fuqarolarning bevosita ishtirokini yanada kengaytiradi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati, vazifasi, 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun[1] bilan tartibga solinadi.

Qonunlarda va boshqa dasturiy hujjatlarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yuklatilgan vazifalarni bir necha guruhga bo‘lib ko‘rsatish mumkin. Bular:

1. Fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqini amalga oshirishda ko‘maklashish;

2. O‘z hududlarida ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini, ijtimoiy muhofazani hal qilish, ommaviy madaniy tadbirlarni o‘tkazish, axloqiy-tarbiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanish.

3. Davlat hokimyati organlariga O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini, Prezident va hukumat hujjatlarini, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarishda yordamlashish.

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etishi ularning konstitutsiyaviy huquqidir. Ana shu huquqni amalga oshirishda fuqarolarga o‘zini o‘zi boshqarish organlari turli yo‘llar orqali yordam beradi, jumladan: mahalliy hokimyatning vakillik organlariga nomzod ko‘rsatish; aholini vakillik organlarining sayloviga ishtirok etishga jalb qilish; tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib borish; aholini saylov bo‘ladigan joy, vaqt haqida xabardor qilish, fuqarolar

1 Qarang: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil, 17-son, 219-modda.

yig'ini raislariga sayloviga fuqarolarni jalb qilish va saylovlarda ishtirok etish uchun tegishli sharoitlar yaratish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xududlarida xo'jalik ishlari, kichik biznes, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholini ish bilan ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya ishlari bilan shug'ullanadi. Turli madaniy tadbirlar va boshqalarni o'tkazish bilan aholini huquqiy bilimini o'stirish, huquqiy madaniyatini shakllantirishga ta'sir qiladi. Ularning eng muhim vazifalari insonlarni, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash,axloqiy fazilatlarini, eng yaxshi urf-odatlarimizni ular ongiga singdirish hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari muhim vazifalaridan yana biri yuqorida tilga olingan davlat organlariga qonun va boshqa qonun hujjatlarini boshqarilishini ta'minlashda ko'maklashuvidir. Mahalla fuqarolariga o'z burchlarini, majburiyatlarini, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ekanligini tushuntiradi va ta'sir qiladi.

Fuqarolik jamiyatini shakllanishi, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bu ishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtiroki zarur bo'lib qolmoqda, yoki boshqacha aytganda ijro hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish shakllaridan biri fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati bo'lib, bu ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning muhim vazifalariga aylanmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yuqorida qayd qilingan vazifalarini amalga oshirish uchun, qonunlarda yetarli vakolatlar, huquqlar belgilangan. Faqat shuni alohida qayd qilish keraki, bu huquqlarning bir qismi fuqarolar yig'ini, bir qismi fuqarolar yig'ini Kengashi, bir qismi fuqarolar yig'ini raisi tomonidan amalga oshiriladi. Bu masala Qonunning 11, 12, 13, 14-moddalarida mustahkamlangan.

Qonunda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari bilan shaharcha, qishloqcha va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolat-

lari alohida-alohida ko'rsatilgan. Chunki, ularning vakolatlarida ma'lum farqlar bor. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan, shaharcha, qishloq, ovul va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini:

fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning hamda taftish komissiyasining raislarini va a'zolarini saylaydi;

fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) maslahatchilarining va fuqarolar yig'ini kengashi devonining miqdor tarkibini belgilaydi, fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) taqdimiga ko'ra fuqarolar yig'inining mas'ul kotibini tasdiqlaydi;

fuqarolar yig'ini kengashi va fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

fuqarolar yig'inining faoliyat dasturini va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlashga, tegishli hudud doirasida obodonlashtirishga, ko'kalamzorlashtirishga va sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, ushbu maqsadda markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan davlat mablag'laridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi;

har chorakda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari hamda taftish komissiyasi raislari, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari, fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisining hisobotlarini eshitadi;

tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, yerlardan foydalanish

va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov bo'yicha uchastka saylov komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga, shuningdyek referendum o'tkazish bo'yicha uchastka komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni referendum o'tkazish bo'yicha tegishli okrug komissiyalariga taqdim etadi;

xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi;

to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar beradi;

har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadi, fuqarolar yig'inlarining murojaatlari ko'rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

atrof muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

o'z mablag'larini shakllantiradi, fuqarolar yig'ini mol-mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, moliyaviy mablag'larning sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli hududda tadbirkorlik faoliyati subyektlarini, shu jumladan sartaroshxonalar, poyabzal ta'mirlash va tikish bo'yicha ustaxonalar, xalq hunarmandchiligi sexlarini va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi

boshqa tashkilotlarni tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi (ularning faoliyatini tugatadi);

ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, tegishli hududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sanitariya jihatdan tozalash, kam ta'minlangan oilalarga ularning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda, shuningdek kommunal xizmatlari haqini to'lashda yordam ko'rsatish uchun ixtiyoriylik asosida jismoniy shaxslardan mablag' yig'ish, yuridik shaxslarning mablag'laridan shartnoma asosida foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

atrof muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi;

guzarlar barpo etish masalalarini ko'rib chiqadi;

ma'muriy-hududiy birliklar, mahallalarning chegaralarini o'zgartirish, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa obyektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish haqida tegishli tumanlar, shaharlar davlat organlariga iltimosnomalar kiritadi;

yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish tuman, shahar komissiyasiga o'z vakilini yuboradi;

har bir dehqon xo'jaligini xo'jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo'jaligining tarkibi to'g'risidagi, xo'jalik boshlig'i yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs haqidagi, shuningdek dehqon xo'jaligining tashkiliy-huquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda) to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib qo'yadi;

kommunal to'lovlar undirilishini ta'minlash, issiqlik va elektr energiyasidan, issiq va sovuq suvdan tejamli foydalanish bo'yicha tadbirlar o'tkazishda, tegishli hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, uylar va hovlilarni namunali saqlashga doir ishlarni ixtiyoriylik asosida tashkil etishda shartnoma asosida ko'maklashadi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, banklar, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan yoshlarga, shu jumladan ularga nikoh tuzishda va to'y tadbirlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatadi;

tegishli hudud doirasida joylashgan (yashayotgan) tadbirkorlik faoliyati subyektlari, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyektlari tomonidan kreditlar olinishida belgilangan tartibda kafil bo'ladi.

Shaharcha, qishloq, ovul va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Shahardagi mahalla, shuningdyek tarkibida mahallalar tuzilmagan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'ini ushbu moddada nazarda tutilgan vakolatlardan tashqari, fuqarolar yig'ini hududi bo'yicha nazarda tutilgan xarajatlardan kelib chiqqan holda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va voyaga yetmagan bolalari bo'lgan muhtoj oilalarga, ikki yoshga to'lmagan bolalari bor ishlamaydigan onalarga, shuningdek budjet tashkilotlarida ishlaydigan onalarga hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nafaqalar tayinlash to'g'risidagi masalalarni hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini shaharchadagi, qishloqdagi va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi, ularning markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan davlat mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi.

Qonunning 12-moddasida, shaharchadagi, qishloqdagi va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari berilgan. Unga asosan shaharchadagi va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'ini:

fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning hamda taftish komissiyasining raislarini va a'zolarini saylaydi;

fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) maslahatchilari va fuqarolar yig'ini kengashi devonining miqdor tarkibini belgilaydi, fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) taqdimiga ko'ra fuqarolar yig'inining mas'ul kotibini tasdiqlaydi;

aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, ushbu maqsadda markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan davlat mablag'laridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi;

har chorakda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning hamda taftish komissiyasining raislari, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari, fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisining hisobotlarini eshitadi;

tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

moliyaviy mablag'larning sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

tegishli hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tadbirlar rejalarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, banklar, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan yoshlarga, shu jumladan ularga nikoh tuzishda va to'y tadbirlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatadi;

tegishli hudud doirasida joylashgan (yashayotgan) tadbirkorlik faoliyati subyektlari, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyektlari tomonidan kreditlar olinishida belgilangan tartibda kafil bo'ladi;

fuqarolar yig'ini hududi bo'yicha nazarda tutilgan xarajatlardan kelib chiqqan holda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va voyaga yetmagan bolalari bo'lgan muhtoj oilalarga, ikki yoshga to'lmagan bolalari bor ishlamaydigan onalarga, shuningdyek budjet tashkilotlarida ishlaydigan onalarga hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nafaqalar tayinlash to'g'risidagi masalalarni hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Shaharchadagi, qishloqdagi va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'ini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini barcha aholi yoki ularning vakillaridan iborat bo'lib, ularni tez-tez to'plash imkoniyati yo'q. Shuning uchun ularning ayrim vakolatlarini doimiy organlari fuqarolar yig'ini kengashi va fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi.

Qonunning 13-moddasiga asosan fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar yig'inlari oralig'idagi davrda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining kengashi shakllantiriladi.

Fuqarolar yig'ini kengashi tarkibiga fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, mas'ul kotib, fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasining rahbari kiradi.

Fuqarolar yig'inining kengashi:

fuqarolar yig'inini (fuqarolar vakillarining yig'ilishini) chaqiradi;

fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar ishini muvofiqlashtiradi, homiylik tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi tadbirlarni o'tkazadi;

fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) taqdimiga ko'ra fuqarolar yig'ini kengashining devonini shakllantiradi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlariga ularning saylovchilar bilan uchrashuvlarini uyushtirishda, fuqarolarni qabul qilishda, ular o'z saylov okruglarida boshqa vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashadi;

ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport tadbirlarini va boshqa tadbirlarni, shuningdek muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishda, tegishli hududning, suv ta'minoti manbalarining, turar joylarning, ta'lim muassasalarining sanitariya va ekologiya holati, yong'inga qarshi xavfsizlik talablariga, hayvonlar saqlashni veterinariya-sanitariya qoidalariga,

savdo qoidalari va fuqarolarga xizmat ko'rsatish madaniyatiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda tegishli davlat organlariga ko'maklashadi;

xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning jamiyat hayotidagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi;

ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqiga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan chora-tadbirlarni ko'radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqadi;

yosh avlodni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi;

o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksa fuqarolarga patronaj yordami shu maqsadda ajratilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ko'rsatilishiga ko'maklashadi;

tegishli hududda yashovchi fuqarolar bandligini ta'minlashga, shu jumladan kasanachilikni tashkil etishga ko'maklashadi;

tegishli hududdagi aholining obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, bolalar sport maydonchalarini jihozlash, moddiy madaniy meros obyektlarini yaroqli holda saqlash, dafn etish joylarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va yaroqli holda saqlashga doir ishlarda ixtiyoriylik asosida qatnashishini tashkil etadi, ana shu maqsadlarda tuman, shahar ijro etuvchi hokimiyat organi ajratadigan moddiy mablag'lardan va boshqa vositalardan, o'z mablag'laridan foydalanadi, jamoatchilik yordamini (hasharni) uyushtiradi, ko'riklar va tanlovlar o'tkazadi;

issiqlik va elektr energiyasidan, issiq va sovuq suvdan tejamli foydalanish va ularning behuda sarflanishini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadi;

dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga ko'maklashadi;

tegishli hududda jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta'minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga

olishni tashkil etishda, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ishlarda va ularning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashadi;

uy-joy fondidan foydalanish va uning saqlanishini ta'minlashda fuqarolarga ko'maklashadi;

aholidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'z vaqtida tushishiga ko'maklashadi;

fuqarolar tomonidan kommunal xizmatlar haqini to'liq va o'z vaqtida, hisob-kitobini banklar orqali amalga oshirgan holda to'lashlarini kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan birgalikda uyushtiradi va nazorat qiladi. Aholi kommunal xizmatlar haqini to'liq to'lashini ta'minlaganligi uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tkaziladigan mablag'larni belgilangan tartibda kam ta'minlangan oilalarga kommunal xizmatlar haqini to'lashda yordam berish, fuqarolar yig'inlari organlarining xodimlarini rag'batlantirish uchun, shuningdek obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga oid ishlarni o'tkazishga ishlatadi;

fuqarolarni tabiiy ofatlarga qarshi kurashga va ularning oqibatlarini tugatishga jalb etishga ko'maklashadi;

fuqarolarni fuqaro muhofazasiga doir tadbirlarni o'tkazishga jalb etishga, harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni xabardor etish hamda mudofaa ishlari bo'limlariga chaqirishni tashkil qilishga ko'maklashadi, shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarida ularning shaxsiy-birlamchi hisobi yuritilishini ta'minlaydi, mudofaa ishlari bo'limi bilan kelishgan holda harbiy hisobni yuritish bo'yicha xodimni tasdiqlaydi;

"Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasining rahbarini tayinlaydi va tuzilmaga a'zolar qabul qiladi;

fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisini tayinlaydi;

bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksa fuqarolarni, pensionerlar va nogironlarni aniqlaydi;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy-mehnat reabilitatsiyasi va jinoyatchilikning oldini olishga doir tadbirlarni ijtimoiy moslashuv markazlari bilan birgalikda amalga oshiradi.

Fuqarolar yig'inining kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qonunning 14-moddasi fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) vakolatlarini belgilagan, unga asosan:

fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli):

fuqarolar yig'inini (fuqarolar vakillarining yig'ilishini) chaqiradi;

fuqarolar yig'iniga – mas'ul kotibining, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar hamda taftish komissiyasi raislari va a'zolarining nomzodlarini, shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'ini kengashiga – harbiy hisobni yuritish bo'yicha xodimning nomzodini tasdiqlash uchun taqdim etadi;

fuqarolar yig'ini va uning organlari tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirishiga, shuningdek qarorlarni ijro etishga doir ishlarni tashkil etadi;

davlat organlarida, shu jumladan sudda, yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fuqarolar yig'inining manfaatlarini ifodalaydi, fuqarolar yig'ini nomidan shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi;

fuqarolar yig'ini mablag'larini qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi;

tegishli hududda maslahat markazlari ishini tashkil etadi;

egasiz mol-mulkni, meros tariqasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tgan mol-mulkni, shuningdek davolash muassasalarida turganligi munosabati bilan vaqtincha bo'lmagan yolg'iz shaxslarning mol-mulkini, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida yoki vasiylik va homiylikda turgan, oilaga tarbiyaga topshirilgan yetim bolalarning, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning mol-mulkini saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risida yoki fuqaroni ruhiy holati buzilganligi

(ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqida sudga ariza beradi;

kam ta'minlangan oilalarning, yetim bolalarning, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning, shuningdek tabiiy ofatlardan va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan jabr ko'rgan fuqarolarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

mahalliy davlat hokimiyati organlariga yangi dafn etish joylarini barpo etish va mavjud bo'lganlarini rekonstruksiya qilish haqida takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoatchilik ishlarini tashkil etadi, yetim bolalar, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organlariga taqdim etadi, shuningdek bunday bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko'maklashadi;

ichki ishlar organlarining profilaktika bo'yicha tegishli inspektori bilan birgalikda "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tegishli hududda bayram kunlari va muhim sanalar bilan bog'liq ommaviy tadbirlar o'tkazilishini tashkil qiladi;

ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining, diniy qarashlarni majburan singdirish hollarining oldini olishga doir ishlarni tashkil etadi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etadi;

fuqarolar yig'inining mas'ul kotibi, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, harbiy hisobni yuritish bo'yicha xodimning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

fuqarolarni qabul qilishni amalga oshiradi, ularning arizalari, takliflari va shikoyatlarini ko'rib chiqadi;

fuqarolarga ularning oilaviy va mulkiy ahvoli to'g'risida ma'lumotnomalar hamda hujjatlar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar berilishini ta'minlaydi;

fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini

bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga va boshqa korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarga taqdimnomalar kiritadi;

tegishli davlat organlaridan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, moddiy madaniy meros obyektlari haqida ma'lumotlar so'raydi va oladi.

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) belgilangan namunadagi guvohnomaga ega bo'ladi. Fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) guvohnomasi namunasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bundan tashqari, qonunda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) ning o'limni qayd qilish va ishonchnomalarni tasdiqlash vakolati qonunning alohida moddasida (15-modda) belgilab qo'yildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin egallamoqda. Jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga, xususan, oilaviy tadbirlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish maqsadida maslahat markazlari tashkil etish huquqi berildi.

Maslahat markazlari:

tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan, tegishli hududda yashovchi fuqarolarni iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslarini o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etadi, shuningdek ularga tadbirkorlik faoliyati subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma'lumot beradi;

bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek hunarmandlarga biriktirilishiga ko'maklashadi;

tegishli hududda yashovchi fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini

davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi;

tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati subyektlariga, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar, preferensiyalardan foydalanishda, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida kredit olish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi.

Maslahat markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa faoliyatni ham amalga oshirishi mumkin.

Maslahat markazi to'g'risidagi nizom fuqarolar yig'ini tomonidan tasdiqlanadi.

Shuningdek, fuqarolar yig'inlarida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuziladigan komissiyalar qonun yo'li bilan aniq qilib belgilandi. Ular:

yarashtirish komissiyasi;

ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;

xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;

voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;

tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya;

ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiya;

jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiyadir.

3-§. Fuqarolar yig'inini tashkil etish

Fuqarolar yig'ini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir. Ularni tashkil etish konstitutsiyaviy asosga ega. Bu institut mamlakatdagi demokratik institutlar tizimida yetakchi mavqega ega. Uni tashkil qilish, faoliyati demokratik prinsiplarga asoslanadi. Qonunda bu prinsplar alohida moddada mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, quyidagilardir:

1. Qonuniylik prinsipi – barcha masalalar qonun asosida amalga oshirilishi, qonun oldida barchaning tengligi, qonun ustuvorligida ko'rinadi. O'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalashdek muhim vazifani bajaradi.

2. Insonparvarlik prinsipi – inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi prinsipi, bu shaxs manfaati, fuqaro manfaati ustun qo'yilishida, fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmati joyiga qo'yilishida, yoshlarning axloqiy tarbiyasiga, oilada yaxshi muhit bo'lishiga e'tiborda ko'rinadi.

3. Demokratizm prinsipi – Fuqarolarnig o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etishda, faoliyatida hududdagi barcha aholi to'liq ravishda ishtirok etadi. Masalalar ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Fuqarolar yig'ini organlari tarkibiga saylash va saylanishda hamma teng huquqqa ega. Fuqarolar o'z hohish-irodasini erkin bildira oladi, buning uchun ular hech qanday ta'qiblarga uchramaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida fuqarolarning ishtiroki, fuqarolarning jamiyat ishlarida ishtirokining boshlang'ich va shu bilan birga eng muhim bosqichidir. Bu demokratiya maktabi hisoblanadi.

4. Oshkoralik prinsipi – barcha masalalar aholi yoki ularning vakillari ishtirokida kollegial ravishda hal qilinishi, ko'riladigan masalalar haqida xabarlarning oldindan tarqatilishi, qabul qilingan hujjatlarni barchaga yetkazishda ko'rinadi. Fuqarolar yig'ini faoliyatidan barcha xabardor bo'lib turadi.

5. Ijtimoiy adolat prinsipi – hududdagi barcha fuqarolarning manfaati, ularning ish joyi, mulkiy ahvolidan qa'ti nazar teng himoya qilinishida, yordamga muhtojlarga alohida yordam qilinishida, ularni qo'lab-quvvatlash choralari ko'rilishida namoyon bo'ladi.

6. Mustaqillik prinsipi – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolati doirasida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni: obodonlashtirish, atrof- muhitni saqlash, hududda turli xil xizmatlar ko'rsatish masalalarida mustaqil qaror qabul qiladi. Ularning vakolatlariga taalluqli masalalarni hal qilishga hech kim va hech qanday organ aralashmaydi.

7. Jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam prinsipi – o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati jamoatchilikka asoslanadi. Unga tegishli ko'p masalalar jamoatchilik asosida haq olinmasdan amalga oshiriladi. Mahalla hududida yashovchi barcha fuqarolar o'z imkoniyatiga qarab, xolisona fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida ishtirok etadi, ularni moddiy tomondan qo'llab-quvvatlaydi.

8. Ijtimoiy sheriklik prinsipi – o'z faoliyatini yuritishda o'zini o'zi boshqarish organlari davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar bilan yaqindan aloqada bo'ladi.

9. Mahalliy urf-odatlar va an'analarni hisobga olish prinsipi – mahalliy urf-odatlar, an'analar sobiq tuzum davrida ancha zarbalarga uchragan bo'lsa, ularni tiklashda, ulardan jamiyat, inson manfaatlari yo'lida foydalanishda o'zini o'zi boshqarish organlari muhim rol o'ynaydi. O'zbek xalqining umumiy qadriyatlaridan tashqari alohida hududlarda o'ziga xos urf-odatlar, an'analar mavjudki, ularni hisobga olish taraqqiyotimizga ijobiy ta'sir qiladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi mamlakatning butun hududida amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalar o'zini o'zi boshqarishning hududiy birligi, makonidir.

Bu birliklarni tuzish, tugatish, shuningdek chegaralarini o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning tegishli organlari fikrini xisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Mahallani tuzish, qo'shib yuborish va tugatish, shuningdek uning chegaralarini belgilash va o'zgartirish o'zin o'zi boshqarish organlari tashabbusi bilan mahalliy davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'inida shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida doimiy yashayotgan, voyaga yetgan shaxslar qatnashadilar.

Fuqarolar yig'ini organlari quyidagilardan iborat:

fuqarolar yig'ini Kengashi;

fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar;

fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi;

tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma'muriy komissiya (bundan buyon matnda ma'muriy komissiya deb yuritiladi).

Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi va ma'muriy komissiyani saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlari ta'minlangan holda yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Komissiya tarkibiga ko'rsatilgan shaxs, agar fuqarolar yig'inida (vakillar yig'ilishida) hozir bo'lganlarning yarmidan ko'prog'i uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, saylangan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), (bundan keyin faqat rais deyiladi) yig'in kengashi tomonidan zaruratga qarab, lekin yilning har choragida kamida bir marta chaqiriladi. Fuqarolar yig'ini xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining, tuman, shahar hokimining yoki o'n sakkiz yoshga to'lgan va mazkur hududda doimiy yashovchi fuqarolarning kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

Fuqarolarning yig'ini fuqarolar yig'inida qatnashish huquqiga ega bo'lgan barcha aholining yarmidan ko'prog'i hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir.

Fuqarolar yig'inini olib borish uchun rayosat saylanadi. Yig'inni fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) yoki raisning maslahatchilaridan biri olib boradi. Barcha masalalar bo'yicha qarorlar ochiq yoki yopiq ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Har bir yig'inda yig'in o'tkazilgan sana, hozir bo'lgan fuqarolar soni, kun tartibi va qabul qilingan qarorlar ko'rsatilgan holda bayonnoma yuritiladi. Fuqarolar yig'inining bayonnomasi va qarorini fuqarolar yig'inining raisi va mas'ul kotibi imzolaydilar. Rais yo'qligida, fuqarolar yig'inining bayonnomasini raisning maslahatchilaridan biri va mas'ul kotib imzolaydi.

Fuqarolar yig'inini chaqirishning imkoni bo'lmagan taqdirda, fuqarolar vakillarining yig'ilishi o'tkaziladi. Yig'ilishga hovlilar,

uylar, ko‘chalar, mahallalar, mavzelar, dahalardan fuqarolarning namoyondalari vakil qilinadilar. Vakillik normasini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish ishlari bo‘yicha tegishli tumanlar va shaharlar muvofiqlashtirish kengashi belgilaydi.

Fuqarolar vakillarining yig‘ilishi unda vakillarning kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lgan taqdirda vakolatlidir va bunday yig‘ilish ushbu Qonunda fuqarolar yig‘inlarini o‘tkazish tartibiga nisbatan qo‘yiladigan talablarga muvofiq o‘tkaziladi.

Fuqarolar yig‘inida shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlarning vakillari o‘z faoliyatlariga doir masalalar bo‘yicha maslahat ovozi bilan ishtirok etishga haqlidir.

Fuqarolar yig‘ining qarorlarini bajarish va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolar yig‘inlari oraliq davrdagi joriy faoliyatni amalga oshirish uchun fuqarolar yig‘ining raisi, uning maslahatchilari, fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalarning raislari va yig‘ining mas’ul kotibidan iborat tartibda fuqarolar yig‘ining kengashi tuziladi.

Fuqarolar yig‘ini kengashining majlisi fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) tomonidan, zaruratga qarab, lekin oyida kamida bir marta o‘tkaziladi.

Fuqarolar yig‘ini kengashining majlisi, agar uning ishida Kengash a’zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi. Qaror, agar uni fuqarolar yig‘ini kengashining hozir bo‘lgan a’zolaridan yarmidan ko‘prog‘i yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilingan hisoblanadi.

Fuqarolar yig‘ini kengashining qarori ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

4-§. Fuqarolar yig‘ini raisini saylash

Fuqarolar yig‘ini raisi va uning maslahatchilarini 2,5 yilga saylanish va saylash tartibi qonunlar bilan belgilanishi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 105-moddasida, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Shu asosda va shu masalani hal qilish uchun 2004-yil 29-avgustda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"[1] qonun qabul qilingan. Ushbu Qonun 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan bo'lib, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) va uning maslahatchilari saylovini yanada demokratik ruhda o'tkazishni ta'minlashga hissa qo'shdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etilishi, ishchi guruh maqomining takomillashuvi, nomzodlarga qo'yilgan talablarning kuchaytirilganligi va Oliy Majlis Senati tomonidan saylov byulletenlarining ishlab chiqilishi shular jumlasidandir.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilarini saylashda tegishli hududda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqiy hamda milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy hamda ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadirlar.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilarini saylashda fuqarolar yig'inining har bir ishtirokchisi bir ovozga ega.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovida fuqarolarning ishtirok etishi ixtiyoriy hamda erkindir. Fuqarolarga ularni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida, shuningdek ularning o'z xohish-irodasini erkin bildirishiga ta'sir ko'rsatishga hyech kim haqli emas.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilarini saylash huquqiga saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovida ishtirok etishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovida fuqarolarning ishtirok etish huquqlarini biron bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.

---

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2007. 198-203 betlar.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish ochiq va oshkora amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi tashkil etilayotganda hamda o'tkazilayotganda fuqarolar yig'ini o'tkaziladigan kun, vaqt va joy to'g'risida fuqarolar xabardor etiladi, fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari vazifasiga ko'rsatilgan nomzodlardan, ovoz berish yakunlaridan voqif qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari sayloviga tayyorgarlik jarayonini hamda saylov qanday o'tayotganligini yoritib boradi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari fuqarolar yig'ini tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa fuqarolar vakillari yig'ilishi tomonidan ikki yarim yil muddatga saylanadi.

Davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga ko'maklashishlari, zarur hollarda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta'minlashlari shart.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovini o'tkazish muddatlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar hamda shaharlar hududida tegishincha fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar komissiyalari tuziladi.

Komissiyalar tegishli davlat hokimiyati vakillik organining qarori bilan fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish davri uchun tuziladi.

Komissiyalar tarkibiga, qoida tariqasida, fuqarolar yig'inlarining, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari kiritiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilari vazifasiga nomzodlar komissiyaga a'zo shaxslar orasidan ko'rsatilgan bo'lsa, ular komissiya tarkibidan chiqariladi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish uchun fuqarolar yig'ini yoki uning kengashi qarori bilan saylov davri uchun fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi tuziladi.

Ishchi guruhi tarkibiga, qoida tariqasida, fuqarolar yig'inining, tegishli hududda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari kiritiladi. Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari ishchi guruhi tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilari vazifasiga nomzodlar ishchi guruhiga a'zo shaxslar orasidan ko'rsatilgan bo'lsa, ular ishchi guruhi tarkibidan chiqariladi.

Fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chaqiriladi va o'tkaziladi.

Fuqarolar vakillarining yig'ilishiga hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzelar va dahalardan ularda yashovchilarning umumiy yig'ilishi qarori bilan saylanadigan namoyandalar vakil qilinadilar. Vakillik normasini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha tegishli tuman yoki shahar muvofiqlashtirish kengashi belgilaydi.

Fuqarolar yig'ini raisi vazifasiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda yashovchi aholining fikrini hisobga olgan holda ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolar yig'ini raisi vazifasiga ko'rsatilgan nomzodlarga doir hujjatlar tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga saylovdan kamida o'n kun oldin topshiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi vazifasiga nomzodlar, qoida tariqasida, oliy ma'lumotli bo'lishi va saylov kuni tegishli hududda doimiy yashab turgan bo'lishi, shuningdek tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar fuqarolar yig'ini raisi vazifasiga saylanish uchun nomzod etib ko'rsatilishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi maslahatchilarining miqdoriy tarkibi hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzelar va dahalardan vakillikni hisobga olgan holda fuqarolar yig'ini tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi maslahatchilari vazifasiga nomzodlar fuqarolar yig'ini ko'rib chiqishi uchun fuqarolar yig'ini raisi tomonidan taqdim etiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilarini saylash ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish shakli to'g'risidagi qaror fuqarolar yig'ini tomonidan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi bo'yicha ovoz berish natijalarini aniqlash uchun fuqarolar yig'ini tomonidan kamida uch kishidan iborat tarkibda sanoq komissiyasi saylanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilari saylovi ochiq ovoz berish orqali o'tkazilayotganida ovoz berish har bir nomzod bo'yicha takliflarning kelib tushish tartibiga qarab, qo'l ko'tarish yo'li bilan o'tkaziladi.

Ovozlar sanoq komissiyasi tomonidan, fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilari vazifasiga har bir nomzod bo'yicha sanab chiqiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilari saylovi yashirin ovoz berish orqali o'tkazilayotganida fuqarolar yig'ini ishtirokchilariga sanoq komissiyasi tomonidan ovoz berish byulletenlari beriladi.

Yashirin ovoz berish byulleteniga fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilari vazifasiga nomzodlarning familiyasi, ismi, otasining ismi alifbo tartibida kiritiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilarini saylashda yashirin ovoz berish byulletenlarini berish bevosita ovoz berishdan oldin boshlanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilarini saylash byulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasi yoxud xonasida to'ldiriladi. Ovoz beruvchi o'zi qarshi ovoz berayotgan nomzodlarning byulletendagi familiyasini o'chiradi.

Ovoz beruvchi to'ldirilgan ovoz berish byulletenini saylov qutisiga tashlaydi.

Saylov qutilari ovoz berish tugaganidan keyin sanoq komissiyasi tomonidan ochiladi.

Ovozlarni sanash natijalari bo'yicha sanoq komissiyasi tomonidan bayonnoma tuziladi.

Fuqarolar yig'inida hozir bo'lgan fuqarolarning yarmidan ko'pining ovozini olgan nomzod fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchisi vazifasiga saylangan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi yakunlari bo'yicha fuqarolar yig'ini qaror qabul qiladi hamda mazkur qaror fuqarolar yig'inida raislik qiluvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.

Fuqarolar yig'ini bayonnomasi ikki nusxada tuzilib, bitta nusxasi saylov yakunlarini umumlashtirish uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga taqdim etiladi.

Tuman va shahar komissiyalari fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovi yakunlariga doir umumlashtirilgan ma'lumotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat yoki Toshkent shahar komissiyasiga topshiradi.

Agar fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovida fuqarolar yig'inida ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarning yarmidan kami ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi. Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi fuqarolar vakillarining yig'ilishlarida o'tkazilgan taqdirda, agar yig'ilishda fuqarolar vakillarining uchdan ikki qismidan kami ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchilari saylovi chog'ida yo'l qo'yilib, oqibat natijada ovoz berish yakunlariga ta'sir qilgan qoidabuzarlik tufayli saylov sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchisi vazifasiga ikki nafardan ortiq nomzod ko'rsatilgan va ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa, fuqarolar yig'ini eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod bo'yicha takroriy ovoz berishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Takroriy ovoz berish ushbu Qonunning talablariga rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan nomzod, basharti uni

yoqlab berilgan ovozlar soni unga qarshi berilgan ovozlar sonidan ko'p bo'lsa, fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchisi vazifasiga saylangan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchisi takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi:

avvalgi saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

takroriy ovoz berish fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchisi saylanganligini aniqlash imkonini bermasa;

fuqarolar yig'inida fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchisi vazifasiga ko'pi bilan ikki nafar nomzod ko'rsatilgan hamda ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchisi takroriy saylovi ushbu Qonunning talablariga rioya etilgan holda ko'pi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchisi vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan bo'lsa, tegishli fuqarolar yig'inlarida ushbu Qonunning talablariga rioya etilgan holda yangi saylov o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi natijalari asosida fuqarolar yig'ini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolar yig'ini kengashini shakllantiradi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va fuqarolar yig'ini taftish komissiyasini, shuningdek ma'muriy komissiyani saylaydi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi natijalari yuzasidan fuqarolar yig'ini qabul qilgan qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Raisning vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatiladi:

u o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilganda;

fuqarolar yig'ini qaror qabul qilganda;

u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda.

5-§. O'zini o'zi boshqarish organlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabati

O'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimyati organlari tizimiga kirmaydi, shunday ekan ularning aloqasi, munosabati hamkorlikka asoslanadi.

"Mahaliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi shu masalani tartibga solgan bo'lib, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashi va tegishli hokimlar, o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, ularning faoliyatini yo'naltirib turadilar deb munosabat asosi mustahkamlangan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mahalliy davlat organlari munosabati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonun bilan belgilangan vazifalarini bajarish sharoitida vujudga keladi.

Eng avvalo fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mahalliy hokimiyat organlarining munosabatini, eng avvvalo o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil qilishda mahalliy hokimiyat organlarining ishtirok etishida ko'rishimiz mumkin.

Shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish hamda ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining iltimosnomalari asosida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi. (Qonunning 6-moddasi, 3-bandi)

Fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), kengashi tomonidan zaruratga ko'ra lekin har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Xalq deputatlari tegishli kengashi yoki hokimning tashabbusi bilan ham fuqarolar yig'ini chaqirilishi mumkin. Bu yerda ham o'zini o'zi boshqarish organi bilan mahalliy davlat hokimiyati organi o'rtasida ma'lum munosabat mavjudligini ko'ramiz.

Tegishli hududlarda fuqarolar yig'inini o'tkazish imkoniyati bo'lmasa (bu aholi ko'pchiligini yig'ish joy masalalari bilan bog'liq),

fuqarolar vakillarini yig'ish Qonunning 21-moddasida belgilangan. Vakillik normasini fuqarolar yig'inining raislari va ularning maslahatchilari saylovini o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya belgilaydi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, aholining hammasini to'plab, yig'in o'tkazish ancha murakkab va hamma vaqt ham uni tashkil qilishning iloji yo'q, shuning uchun vakillar yig'ilishini o'tkazish ancha qulay va maqsadga muvofiqdir. Vakillar yig'ilishi vakolatli bo'lishida, ularning vakillik me'yori to'g'ri aniqlanishi katta ahamiyatga ega. Bu ish esa mahalliy hokimiyat ixtiyoriga berilgan.

Fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) ma'lum vaqtlarda, zaruratga qarab chaqirilsa, joylarda o'zini o'zi boshqarish faoliyati fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari tomonidan amalga oshiriladi. Rais, uning maslahatchilari fuqarolar yig'ini (yig'ilish) tomonidan saylanadi, lekin ularni saylash tuman va shahar hokimi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Rais va uning maslahatchilarini saylashda fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) hamda hokimlar ishtirok etadi va bu ular o'rtasida ma'lum munosabatlarni vujudga keltiradi. Tuman va shahar hokimi lozim topsa, har qanday vaqtda rais va uning maslahatchilarini muddatidan ilgari qayta saylashni taklif qilishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini raisi doimiy ishlovchi bo'g'in, u ko'pgina davlat organlari bajaradigan vazifalarni bajaradi. Shuning uchun, tabiiy ravishda rais o'z mahkamasiga ega. Uning miqdori, rais o'z vazifasini to'liq bajarishga imkoniyat yaratib berishi shart.

Apparat miqdorini belgilash, fuqarolar yig'ini ixtiyorida, lekin bu masala ham hokim bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Apparatni belgilashda har ikki tomon – fuqarolar yig'ini va hokim ishtirok etadi, natijada bu borada ma'lum munosabat vujudga keladi.

Har qanday organning faoliyat ko'rsatishida moddiy imkoniyatlar muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, rais, uning apparati belgilangan miqdorda haq olib faoliyat yuritadi. Shu masalada ham mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida munosabat vujudga keladi. O'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy

mablag'larini bir qismini xalq deputatlari Kengashlari tomonidan ajratilgan byudjet mablag'lari tashkil etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etishda mahalliy hokimiyat organlari ishtirok etar ekan, ular ma'lum darajada, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini nazorat qiladi. Nazoratning samarali bo'lishini o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunga va boshqa huquqiy hujjatlarga zid qarorlarini Kengashlar va hokimlar tomonidan bekor qilish tartibini o'rnatilishini ta'minlaydi. Bu qoida ham ma'lum munosabatlarni vujudga keltiradi.

Endi o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalaridan kelib chiqadigan munosabatlarni tahlil qilaylik.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendum o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi", – deb mustahkamlangan. Bu moddani mazmunidan ko'rinib turibdiki, o'zini o'zi boshqarish instituti – bu fuqarolik jamiyati va davlat ishlarida ishtirok etishni ta'minlovchi muhim vositadir.

Respublikaning quyi ma'muriy-hududiy bo'linishlarida davlat hokimyati mahalliy organlari tuzilmasiga shu joylarda avvallari dalat organlari bajarib kelgan vazifalarni o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklanishi, bu joyda hokimiyatga taalluqli masalalar ham shu organlar ixtiyoriga o'tganligini ko'rsatadi. O'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarni jamiyat va davlat ishlarida ishtirokini ta'minlash bilangina cheklanmay, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirishga ko'maklashadilar ham. Buni turli organlarga saylovlarda, referendumlarda ishtirok etishda, ma'lum vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzish huquqiga egaligida ko'ramiz.

Fuqarolarning deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqi ham o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshadi. "Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatlariga nomzodlar siyosiy partiyalarning tegishli tuman, shahar organlari tomonidan hamda fuqarolar yig'inlarida (vakillarning yig'ilishi) ko'rsatiladi".

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarning bu huquqlarini ro'yobga chiqarish, amalga oshirishga ko'maklashar ekan, o'z navbatida tuman va shahar hokimyati vakillik organlarini tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, natijada mahalliy vakillik organi bilan o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida tegishli munosabat vujudga keladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari nomzod ko'rsatish huquqiga egaligi ma'lum ma'noda, vakillik organlarini faoliyatini fuqarolar tomonidan nazorat qilib turishini ta'minlaydi. Chunki ko'rsatilgan nomzod (u saylangan taqdirda) nomzodini ko'rsatganlar oldida muntazam hisob berib turadi, zarur hollarda esa, o'zini o'zi boshqarish organi o'zi ko'rsatgan deputatning vakolat muddatidan avval chaqirib olish masalasini ko'tarishi mumkin. Bu qoida nazoratni samarali bo'lishini ta'minlaydi. Deputat bilan o'zini o'zi boshqarish organi o'rtasida doimiy aloqani mavjudligi, mahalliy vakillik organi bilan o'zini o'zi boshqarish organi o'rtasidagi munosabatlarning "ko'prigidir" Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun holatlariga asosan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining, ularning faoliyati ustidan fuqarolar nazorat qilishining ma'lum mexanizmi o'rnatilgan bo'lib, buni ta'minlashda o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida tegishli munosabatlarni vujudga keltiradi.

O'zini o'zi boshqarish organlariga fuqarolar manfaati, huquqlarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashish borasida berilgan vazifalardan biri, rais qonunlarda ko'rsatilgan hollarda davlat hokimiyati vakillik va boshqaruv organlarida, sud idoralarida, korxona, tashkilot va muassasalar bilan bo'ladigan munosabatlarda fuqarolar manfaatini himoya qilishdir. Fuqarolar o'z manfaatini yakka tartibda himoya qilishdan ko'ra, o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokida himoya qilishi, bu ishni natijasi yaxshi bo'lishiga ko'proq imkoniyat tug'diradi. O'zini o'zi boshqarish organlariga turli davlat organlarida fuqarolar vakili bo'lishi huquqining berilishi, fuqarolar huquqlarining to'la amalga oshishi borasidagi kuchli kafolatlardandir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-xo'jalik, madaniy tadbirlar davlat organlari va tegishli hududdagi mahalliy organlar tomo-

nidan amalga oshiriladi. Quyi ma'muriy-hududiy bo'linishlarda bu vazifalar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi va bunda o'z-o'zidan tegishli munosabatlar vujudga keladi. Ijtimoiy-xo'jalik, madaniy tadbirlarning ma'lum qismini fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) amalga oshirsa, ma'lum qismini oqsoqol, ba'zi tadbirlarni esa, ular birgalikda amalga oshiradi. Ana shu tadbirlarni amalga oshirish jarayonida albatta mahalliy hokimiyat organlari bilan munosabatlar vujudga keladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'zining faoliyat dasturini hamda o'z faoliyati uchun zarur xarajatlar ro'yxatini o'zi belgilaydi va tegishli hududni obodonlashtirish va uning sanitariya holatini yaxshilashga doir tadbirlar rejasini tasdiqlaydi. Bunda ular o'zlarining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqadi, mablag'larning bir qismi esa, tuman, shahar Kengashlari tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan iborat bo'ladi. Obodonlashtirish, sanitariya holatlarini yaxshilash tadbirlarini o'tkazish byudjetga bevosita bog'liq. Fuqarolar yig'ini raisi esa, hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida fuqarolarning ishtirok etishini tashkil qiladi.

O'zini o'zi boshqarish organlari o'z hududini ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirishda qator tadbirlarni amalga oshiradi, jumladan aholini, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxona, tashkilot va muassasalarning mablag'larini ixtiyoriy ravishda birlashtirish choralarini ko'rib, bu xususda qarorlar qabul qiladi. Rais o'z hududidagi egasiz mol-mulkni, shuningdek davlatga meros tarzida o'tgan mol-mulkni saqlash va tasaruf etish choralarini ko'radi hamda qishloq joylardagi dehqon xo'jaliklarining oilaviy mulk taqsimotlarini ro'yxatga oladi.

Fuqarolarning yig'inlari (yig'ilishlari) qonunda belgilangan tartibda shu hududda kichik korxonalar, kooperativlar, ustaxonalar, xalq hunarmanchiligi sexlarini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi, bu juda muhim masala bo'lib, bir tomondan aholini ish bilan ta'minlash vazifasi hal qilinsa, ikkinchi tomondan shunday tashkilot, korxona yoki ustaxonalarning tegishli hududda bo'lishi, o'zini o'zi boshqarish organlari byudjetiga tegishli mablag'lar tushishiga olib keladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yer munosabatlari sohasida tegishli vazifalarni bajaradi va bu sohadagi yig'inlar bilan raislarning vakolatlari alohida-alohida belgilangan. Shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) raisning shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun ajratilib beriladigan yer uchastkalari to'g'risidagi taqdimnomasini, raisning korxonalarga, muassasalarga, fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berish va bu subyektlarning yerlariga egalik qilish, ulardan foydalanish huquqlarini to'xtatib qo'yish to'g'risidagi, shuningdek qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalarining va tashkilotlarining egaligidagi yerlar tarkibiga kirmaydigan, shaharchalar va qishloq aholisi punktlari chegarasidagi yerlarni olib qo'yish to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlaydi. Yuqoridagi masalalar rais tomonidan hal qilinadi, lekin ular yig'inda tasdiqlanadi. Bundan tashqari rais tegishli hududdagi yerlarni ishlatilishi va muhofaza etilishi ustidan nazorat qiladi, imorat qurish qoidalariga, xonadonlarga tutash joylarning orasta bo'lish, jonivorlarni saqlashga doir veterinariya qoidalari bajarilishi ustidan jamoat nazoratini tashkil qiladi.

Aholini me'yorida turmush kechirishini, sog'lig'ini ta'minlash, qadriyatlarni hurmatlash borasida mahalliy davlat organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari birgalikda ko'plab vazifalarni bajaradi. Aholi punktlari, suv ta'minoti inshootlari, uy-joylar, maktablar va boshqa muassasalarning sanitariya holati ustidan nazorat qilish ishlariga ko'maklashadi. Rais qabristonlar, birodarlik qabristonlari va boshqa mozorlarni saranjom saqlash yuzasidan jamoatchilik ishlarini tashkil etadi. Rais soliq, sug'urta va boshqa xildagi to'lovlarni o'z vaqtida tushishiga ko'maklashishi bilan mahalliy budjetning shakllanishiga hissa qo'shadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jumladan rais jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlari va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat mudofaasi ishlariga yordam berish borasida salmoqli ishlarni amalga oshiradi. Bu maqsadda ular tegishli hududlarda yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazishni tashkil etadi, zarur bo'lganda tabiiy ofatlarga qarshi kurashga va ularning oqibatini tugatishga fuqarolarni jalb qiladi. O'z hududida

jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashda tegishli organlarga yordam beradi. Ayniqsa, keyingi paytda mahallarga katta umid bog'lanmoqda. O'zin o'zi boshqarish organlarining mamlakat mudofaasi bilan bog'liq vazifalarga, ularning harbiy xizmatga majbur shaxslar va chaqiriluvchilarni harbiy komissariatga chaqirilayotganidan xabardor etishni tashkil qilish, aholini fuqaro mudofaasiga bog'liq tadbirlar o'tkazishga jalb etsh kiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tegishli hududda moddiy va manaviy yordamga muhtoj aholiga turli yordam ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etadi, ularning bu boradagi vazifalari, davlat va jamoat organlariga nogironlar, boquvchisidan mahrum bo'lgan oilalar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar, shuningdek tabiiy ofatdan jabr ko'rgan fuqarolarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarni yaxshilash to'g'risida takliflar kiritish, ota-onasiz qolgan bolalarni tegishli muassasalarga yoki ishga joylashtirshga ko'maklashish hisoblanadi.

Rais o'z hududida turli ommaviy va madaniy tadbirlarni uyushtirish bilan davlat organlariga yordam beradi. Ular aholi o'rtasida turli mavzuda ma'ruza va suhbatlar tashkil qiladi, kino xizmati muntazam bo'lishiga, kitob savdosi rivojiga, gazeta va jurnallarni tarqatilishiga yordam beradi. Aholi ommaviy dam olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun chora tadbirlar ko'radi. Bayram kunlari va shonli sanalar munosabati bilan ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazishni tashkil qiladi.

Rais o'z hududidagi fuqarolarni qabul qilib, ularni taklif, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Murojaat ularning vakolat doirasidagi masalalarga taalluqli bo'lsa, o'zlari shu masalani hal qiladi yoki shu masalada qaysi organlarga murojaat etishni fuqarolarga ko'rsatib beradi. O'zini o'zi boshqarish organlari o'z hududdidagi fuqarolarga, ularning shaxsini, oilaviy va mulkiy ahvolini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar beradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar yig'inining ko'cha va maydonlar, aholi punktlari tarkibiy qismining nomini o'zgartirish, uylarni raqamlab chiqish xususida tegishli organlarga takliflar kiritadi. Bunda ham mahalliy hokimiyat

organlari bilan o'zini o'zi boshqarish organi o'rtasida o'zaro munosabat yaqqol ko'rinadi.

O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining ma'lum qismi qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, hukumat qarorlari va boshqa davlat organlarining hujjatlari bajarilishiga yordam berishdir. O'zini o'zi boshqarish organlari bu vazifani ko'rgan vaqtda uch holatga e'tibor berishi kerak. Biprinchidan, qonun, qaror va boshqa hujjatlarni bajarishga ko'maklashish maqsadida fuqarolarni birlashtirish yoki ularni shu ishga jalb qilish, ikkinchidan, qonun va yuqori davlat organlari hujjatlarini amalga oshirishda mahalliy davlat organlariga yordam berish. Uchinchidan, qonun va boshqa hujjatlarni bevosita o'zlari bajarish, ana shu uch holatdan o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mahalliy hokimiyat (ularning sutrukturasi) o'rtasida tegishli munosabatlar vujudga keladi.

Hozirgi kunda ekologik, sanitariya masalalariga taaluqli qonun me'yorlarini, davlat organlarin qarorlarini bajarishga aholini jalb qilmasdan turib to'la erishib bo'lmaydi. Shuningdek, huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish ishlariga ham aholi keng jalb qilinganda, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Ana shu vazifalarni hal qilish maqsadida o'zini o'zi boshqarish organlari turli komissiyalar tuzishi va ularning faoliyatida aholi faol ishtirok etishi mumkin.

Ba'zi sohalarda nazorat o'rnatish huquqi orqali ham aholi qonun va qarorlarni bajarilishi ishlariga jalb etadi, masalan: oqsaqol o'z hududida umumiy ovqatlanish, bozorlar, savdo muassasalarida qoidalarga rioya qilinish hamda fuqarolarga turli xizmat ko'rsatish ustidan imorat qurish qoidalariga rioya etish, xonadonlarga tutash joylarning orasta bo'lishi, jonivorlarni saqlashga oid veterenariya qoidalarini bajarish ustidan jamoat nazoratini tashkil qilar ekanlar, bu ishlarga aholini keng jalb qiladi, shu maqsadda har xil komissiyalar tuzadi.

Fuqarolarning davlat organlariga qanday masalalarda yordam berishi, ko'maklashishi qonun me'yorlarida u yoki bu shaklda o'z ifodasini topgan.

Aholi istiqomat joylari, suv ta'minoti manbalari, uy-joylar, maktablar, maktabgacha yoshdagi bolalar va boshqa muassa-

salarning sanitariya holati doimo davlat organlari nazoratidadir. Ayniqsa, bu bizning issiq iqlimimizda, yan'ni yoz paytlarida juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qonunda rais shu vazifani bajarishda davlat organlariga ko'maklashishi belgilangan.

Har bir davlatning iqtisodiy qudratini ta'minlovchi vositalardan biri, aholidan tushadigan soliqlardir. Soliqlar va yig'imlar turi, miqdori tegishli davlat organlar tomonidan belgilanadi, lekin soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida tushishini ta'minlashga o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni rais ko'maklashadi.

Hozirgi kunning eng muhim muommolaridan biri, jamoat tartibini saqlashni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashdir. Bu narsani tegishli darajada hal qilmay turib, huquqiy davlat qurib bo'lmaydi, bozor iqtisodi munosabatini o'rnatish ham mumkin emas. Shuning uchun bu masalaga huquqni muhofaza qiluvchi organlari yondoshmoqda, lekin masala shu darajada jiddiyki, uni faqat davlat organlariga tayanib hal qilish mumkin emas, u ishga keng jamoatchilik faol jalb qilinishi kerak. Bu xususda ham o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatidan keng foydalaniladi, ya'ni qonunga asosan ular tegishli organlarga jamoat tartibini saqlashda, jinoyatchilikning ildizini quritishga ko'maklashadi.

Shuningdek, rais o'z hududida voyaga yetmaganlarni nazoratini tashkil qilar ekan, ota-onaning qaramog'isiz qolgan bolalarni tegishli muassasalarga joylashtirishga, aholi ommaviy ravishda dam oladigan joylarini tashkil qilishga, sport inshootlari tarmog'ini rivojlantirishga ko'maklashuvini bir tomondan fuqarolarga nisbatan ko'rsak, ikkinchi tomondan davlat organlariga nisbatan ko'ramiz.

Ana shu ko'maklashuv jarayonida maxalliy hokimiyat organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida tegishli munosabatlar vujudga keladi.

Rais ko'pgina hollarda, qonun va boshqa yuqori davlat organlari hujjatlarini o'zi bajaradi. Bunga misol qilib, o'zini o'zi boshqarish organlarini bayram kunlari va shonli sanalar munosabati bilan ommaviy tadbirlarni tashkil qilish, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishi va boshqalarni aytishimiz mumkin, bu ishlarda ham mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zini o'zi boshqarish organi o'rtasida munosabat vujudga keladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga juda ko'p masalalarida hokimiyat idoralariga takliflar kiritish huquqi belgilangan bo'lib, bu ham o'z navbatida o'zaro munosabatlar tizimida ma'lum munosabatlarni vujudga keltirib chiqaradi. Masalan, rais davlat organlariga boquvchisidan mahrum bo'lgan oilalar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar, shuningdek tabiiy ofatlardan jabr ko'rgan fuqarolarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritadi. Bu takliflar hokimiyat idoralarida ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Qonunning 7-moddasida belgilangan "Davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan belgilangan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi", degan qoida davlat organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari munosabatining huquqiy asosidir.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririda:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashishi;
- fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan o'limni qayd etish va ishonchnomalarni tasdiqlash;
- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirilishi haqida yangi qoidalar ko'zda tutilgan bo'lib, bu o'zini o'zi boshqarish organlari bilan davlat organlari munosabatini kengaytirishni va davlat hokimiyati vazifalarini o'zini o'zi boshqarish organlariga asta-sekin o'tkazib borishni nazarda tutadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. O'zini o'zi boshqaruv nima?

2. Mahalliy boshqaruv nima?

3. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari qaysi organ?

4. O'zini o'zi boshqaruv organlari qanday tuziladi?

5. O'zini o'zi boshqaruv organlarining huquqini kim belgilaydi?

6. O'zini o'zi boshqaruv organlari vazifalariga nimalar kiradi?

7. O'zini o'zi boshqaruv organlari vakolatlariga nimalar kiradi?

8. Vakolatlari qanday bajariladi?

9. O'zini o'zi boshqaruv organlari qanday tashkil qilinadi?

10. Fuqarolar yig'ini Kengashi vazifalari nima va qanday tuzi-ladi?

11. Fuqarolar yig'in raisi qanday lavozim va uning vakolat-lariga nima kiradi?

12. Rais va uning maslahatchilari qanday saylanadi?

13. Fuqarolar yig'ini va mahalliy hokimiyat organlari mu-nosabatlari nima asosiga qurilgan?

14. Qanday munosabatlarni bilasiz?

XXVI bob. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati

1-§. Sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i. Sud-huquq islohotlari

Sud hokimiyatning alohida tarmog'i sifatida barcha demokratik mamlakatlarda e'tirof etilgan. Sobiq tuzumda sud sotsialistik tuzum himoyachisi sifatida namoyon bo'lib, undan har qanday demokratik chiqish va harakatlarni jazolash vositasi sifatida foydalanilgan.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab, sudlarni alohida mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatida vujudga keltirish uchun harakatlar boshlandi.

"Sud hokimiyati isloh qilinmoqda, u qonunlar ustunligini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlashi lozim"[1] – deb mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlarida e'tirof etgan edi Respublika Prezidenti.

O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasini tayyorlashda sud hokimiyatini mustaqil hokimiyat sifatida o'rnatishga alohida e'tibor berildi. Jahon mamlakatlari tajribasi o'rganildi. Sud hokimiyatini tashkil etish davlat hokimiyatini tashkil etishning ajralmas qismi deb qaraldi.

"Davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi vakolatlarning taqsimlanish prinsipi asosida amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlatning uchta asosiy tayanchidir"[2] – degan g'oya Konstitutsiyaning 11-moddasida asosiy prinsip sifatida mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekiston mustaqilligi, davlat hokimiyatining jahon tajribasida qo'llab kelingan prinsiplarini qo'llash natijasida Konstitutsiyada sudni totalitar tuzum, undagi hukmron partiya manfaatiga xizmat qiluvchi vositadan fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi, huquqiy davlatning muhim vositasiga aylantirish uchun imkoniyat vujudga keldi va Konstitutsiyada mustahkamlandi.

---

1 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 5-bet.

2 Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1992. – 41-bet.

Lekin Konstitutsiya yoki boshqa qonunlarda masalani belgilashning o'zi muammoni hal qilmas edi. Sudning haqiqiy hokimiyat organiga, mustaqilligiga, fuqarolarning huquqlari himoyachisiga aylanishi uchun katta ishlarni amalga oshirish zarur edi. Buning uchun sud-huquq sohasini isloh qilish zarurligi belgilandi va bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirib borildi. Uning natijasida sud hokimiyatining nazariy asoslari, huquqiy asoslari shakllanib, kuchayib bordi.

Eng avval sud hokimiyati o'zi nima, degan savolga javob berish lozim edi, chunki, shu asosda sudning hokimiyat tizimidagi o'rnini aniqlash, u haqda aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumlarining birida sud hokimiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi: "Sud hokimiyati – bu sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy .huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatidir"[1].

Bu ta'rif to'la sud hokimiyati vazifalarini qamrab olmagan bo'lsa-da, dastlabki urinishlardan bo'lganligi uchun uni ijobiy baholash mumkin. Albatta, sud hokimiyatiga ta'rif berishda (Konstitutsiyaviy sud) qonunlarning Konstitutsiyaga mos kelishi (Konstitutsiya himoyasini), fuqarolar huquqi, sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish sudlarning asosiy vazifasi ekanligi e'tiborga olinishi kerak.

Sud hokimiyatining shakllanishida 1993-yil 6-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi qonunlar muhim rol o'ynadi.

Sud hokimiyatini mustahkamlash, uning mustaqilligini ta'minlash masalasi doimiy ravishda davlat boshlig'ining e'tiborida bo'ldi. Deyarli barcha asosiy ma'ruzalarida davlat boshlig'i bu masala xususida to'xtalib o'tdi.

---

1 O'zbekiston Oliy Sudi Plenumi qarorlari to'plami. 1991–1997. – T.: Sharq, 1997. – 5–6-betlar.

1996-yil 29-avgustdagi Oliy Majlis sessiyasidagi ma'ruzasida Prezident sud islohotlariga alohida to'xtalib, shu munosabat bilan nimalar qilish kerakligini ochiq ko'rsatib berdi[1].

Islohotlar doirasida olib borilgan ishlar natijasida sudlarning huquqiy asoslari takomillashdi, qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

Sudlarning mustaqilligini ta'minlash borasida tashkiliy ishlar ham amalga oshirildi.

1997-yil 12-sentabrda Prezident tashabbusi bilan O'zbekistonda sudyalar qurultoyi chaqirilib, unda O'zbekiston sudyalari Assotsiatsiyasi ta'sis etildi va nizomi tasdiqlandi. Unda Assotsiatsiyaning eng muhim vazifasi Respublikada sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, deb belgilab qo'yildi. Bu uyushma tashkil bo'lganidan boshlab sud islohoti bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi sudlar tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan sudlar ixtisoslashtirildi. Fuqarolik sudlari vujudga keldi. Bu ham sud hokimiyatini mustahkamlash, ularning mustaqilligini ta'minlash yo'lidagi katta tadbir bo'ldi.

Sudlarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligining sudyalikka kadrlar tayyorlash, tavsiya qilish vakolatiga barham berildi. Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida 1999-yil 30-iyundagi Prezident farmoyishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida sudyalarni tayinlash va lavozimidan ozod qilish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 4-maydagi Farmoniga ko'ra, bu komissiya "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy Malaka Komissiyasi"ga aylantirildi[3].

---

1 Qarang: Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. – T.: O'zbekiston, 1996. – 34–36-betlar.

2 Bu haqda qarang: O'zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar davri. – T.: Adolat, 2002. – 19–20-betlar.

3 O'sha manba.

Sudyalar mustaqilligini ta'minlashda 2001-yil 22-sentabrda hukumat qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Sud qarorlari va boshqa organlar qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash Departamentining tashkil etilishi muhim voqea bo'ldi. Bu sudlarning iqtisodiy tomondan mahalliy davlat organlariga qaramligiga barham berdi.

Prezident 1999-yil 14-apreldagi Oliy Majlis sessiyasidagi ma'ruzasida sud-huquq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish masalasiga alohida to'xtaldi va shu maqsadda advokaturani kuchaytirish, uning maqomini prokuraturaga tenglashtirish, sud jarayonida prokuror bilan advokatning teng asosda ishtirokini ta'minlash, sudyalar har ishda tomonlarning fikrini xolisona baholab, qaror chiqarishi zarurligi, shundagina kishilar sudni jazolovchi organ emas, fuqaro manfaatlarini himoya qiluvchi organ, deb qarashi mumkinligini bayon qildi[1].

2000-yil 22-yanvarda Oliy Majlis sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida Prezident mamlakatimizda olib borilishi kerak bo'lgan yetti muhim vazifani (yo'nalishni) ko'rsatar ekan, beshinchi vazifa sifatida "Sud-huquq sohasida qilinadigan ishlarni ko'rsatib berdi"[2]. Bu yerda sud islohotlari, amaldagi kodekslar, qonunlar, me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish bilan qo'shib olib borilishi zarurligi ko'rsatildi.

Shundan so'ng, jinoyat qonuniga, ma'muriy qonunchilikka, protsessual qonunchilikka ko'pgina o'zgartirishlar kiritildi. Jazo tizimi erkinlashtirildi.

Oliy Majlisning 2002-yil 29-avgustda bo'lib o'tgan sessiyasida Prezident mamlakatimizda olib boriladigan eng muhim islohotlarni belgilab berar ekan, oltinchi ustuvor yo'nalish – bu sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirishdan iborat, deya ta'kidlab, qilinishi zarur bo'lgan ishlarni aniq ko'rsatib berib, qayerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar[3]ligini, qayd qilgan edi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 29–30-betlar.

2 Qarang: Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000, 29–30-betlar.

3 Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston. 2002, – 13, 14, 28, 29-betlar.

Prezidentning 2005-yilda bo'lib o'tgan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida bayon qilingan ko'rsatmalarning sud-huquq sohasini isloh qilish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati kattadir.

Ma'ruzada sud-huquq tizimini isloh qilish va liberallashtirishga alohida e'tibor berish qayd qilinar ekan, o'tgan yillar davomida sud-huquq tizimi qurilmasining mutlaqo yangi Konstitutsiyasi amalda joriy qilinganligi e'tirof etildi. Sud-huquq sohasidagi islohotlar natijasida:

- sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilganligi;
- sud ishlarini apellatsiya va kassatsiya tarzida ko'rish institutlarining joriy etilganligi;
- tergov-surishtiruv va kishilarni hibsda saqlash muddatlarining qisqarganligi, ishlarni sudda ko'rib chiqishning qat'iy muddatlari belgilanganligi;
- sud sohasida kadrlarni tanlash va tasdiqlashning samarali va demokratik mexanizmi yaratilganligi;
- sud qarorlarining ijrosi kuchayganligi (bunda departamentning roli);
- prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini cheklash bo'yicha qonun normalariga o'zgartirishlar kiritilganligi;
- sud jarayonida prokuror va advokat huquqlarining tenglashtirilganligi alohida qayd etildi.

Shu bilan birga, sudlarning vakolatini kengaytirish, mustaqilligini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Jumladan:

- prokuratura vakolatlarining bir qismini sudga o'tkazish;
- shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek boshqa protsessual majburiy choralarni qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini sudlarga o'tkazish kerakligi;
- jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlash zarurligi va boshqalar[1].

---

1 Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 43–49-betlar.

Bularning hammasi qonunchilikda o'z ifodasini topdi. Natijada fuqarolarni ushlab turish, hibsga olishga sanksiya berish vakolati sudlarga o'tkazildi, jazolar tizimidan o'lim jazosi butunlay chiqarib tashlandi.

Sudya kadrlarni tanlash, tavsiya qilish masalasini yanada takomillashtirish uchun 2006-yil 17-martda Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. 2012-yil 2-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va 2012-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilindi. Bu esa, sud tizimi xodimlarining lavozimiga tayinlanishi va ularni ijtimoiy muhofaza tizimini takomillashishiga olib keldi. Jumladan, sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlar zaxirasini shakllantirish ishlari Komissiya tomonidan adliya, prokuratura, sud va ichki ishlar organlari ishtirokida amalga oshiriladi.

Sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlar zaxirasiga tayyorgarlik ko'rgan, katta hayotiy tajribaga, benuqson obro'-e'tiborga ega yuqori malakali yuristlar orasidan o'ttiz yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotli, yuridik ixtisosligi bo'yicha ish staji kamida besh yil bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari kiritilishi belgilandi.

Mamlakat Prezidentining "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" sud-huquq tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish yo'llarini, chora-tadbirlarini belgilab berdi. Konsepsiyada olib borilgan tadbirlar sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorat va ta'siridan chiqarish imkonini berganligi alohida ta'kidlandi.

Islohotlar natijasida fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish

imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta'minlash bo'yicha katta ko'lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sudlarda ish ko'rishdagi o'zgarishlarga muvofiq, apellyasiya instansiyasi ishni yangitdan ko'rib chiqishga yubormasdan, uni o'zi xolisona ko'rib chiqishi mumkin bo'ldi. Prokuror va advokat tengligi ta'minlanib bormoqda. Islohotlarning eng muhim natijasi bu qonunchilikni yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyiliga muvofiqlashtirish bo'ldi. Eng muhimi, "Habeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuraturadan sudga o'tganligi prinsipial qadam bo'ldi.

Konsepsiyada qo'lga kiritilgan yutuqlarni sanab o'tish bilan cheklanmay, kelajakda sud hokimiyatini yanada kuchaytirish, sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash uchun qilinadigan aniq ishlar (tadbirlar) belgilab olindi[1].

2-§. Sud hokimiyatining tizimi va vazifasi

Sud hokimiyati tizimining alohida hamda umumiy vazifalari mavjud, tegishli vakolatlarga ega alohida sud organlarining tizimidan iborat. Sud organlari qonunchilik va ijro hokimiyatidan farq qilib, alohida maqsadda tuzilgan sud organlaridan hamda Oliy va mahalliy sud organlaridan iborat va ularning barchasi birlashib, yagona sud hokimiyatini tashkil qiladi.

Konstitutsiyaning 107-moddasida sud hokimiyatini amalga oshiruvchi sud organlari tizimi belgilangan. Unga asosan "O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat

1 Bu haqda qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 15–28-betlar.

ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinolyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat".

Sud hokimiyati tizimi quyidagi ko'rinishda aniq ko'rinadi.

I. Sud hokimiyatining mustaqil tarmog'i O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi hisoblanadi. Uning faoliyati Konstitutsiyadan tashqari maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi.

Konstitutsiyaviy sud faqat markazda (Respublika miqyosida) tuzilishi bilan (quyi tuzilmalarda yo'q), vazifa va vakolatlariga qarab, tarkibiy tuzilishiga ko'ra sud hokimiyatining boshqa ikki tarmog'i umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlaridan farq qiladi.

Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi. Boshqacha qilib aytganda, u Konstitutsiyaning asosiy himoyachisidir.

Konstitutsiyamizning 109-moddasiga asosan Konstitutsiyaviy sudga yana quyidagi vazifalar yuklangan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi:

1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

3) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko‘rib chiqadi.



Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyati, vakolatlari, ish yuritish, tashkil bo'lish tartibi, tarkibi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

II. Sud hokimiyatining tarkibiga kiruvchi ikkinchi tarmoq sudi – bu umumiy yurisdiksiya sudlaridir. Bu sud tarmog'i o'z tizimiga ega, uni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi boshqaradi. Konstitutsiyaning 110-moddasiga asosan "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega".

Konstitutsiyaning bu normasi tegishli sud tizimini, unda Oliy sudning o'rnini, qisqa qilib aytganda, sudning vazifa va vakolatlarini belgilab qo'ygan. Umumiy yurisdiksiya sudlari tizimini quyidagi ko'rinishda aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Bu sudlarning vazifa va vakolatlari "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda keng berilgan.

Qonunning 2-moddasida sudning vazifasi belgilangan, unga asosan sud – "O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan"[1].

Ko'rinib turibdiki, biror yerda sudga jazolash vazifasi yuklanmagan u faqat fuqaro va muassasalarning huquqlarini himoya qiladi. Sudga bunday vazifa yuklanishi huquqiy davlatga xos xu-

1 Sudning bu vazifasi xo'jalik sudlariga ham taalluqlidir.



susiyatdir. Qonunda sudlarning vakolatlari, tarkibi, ish yuritish shakli va prinsiplari batafsil belgilab qo'yilgan.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirishdir.

III. Xo'jalik sudlari. Fuqarolik, jinoyat ishlarini ko'ruvchi sudlar avvalgi tuzumda ham mavjud bo'lib, shu tuzum uchun xizmat qilgan bo'lsa, xo'jalik sudlari O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi natijasida vujudga keldi va sud hokimiyatining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan amalga oshiriladi. (Konstitutsiyaning 111-moddasi).

Xo'jalik sudlarining vujudga kelishiga bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish maqsadimiz, tadbirlarimizni rivojlantirish zarurati sabab bo'ldi. Xo'jalik sudlari tizimi respublikaning Oliy Xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar xo'jalik sudlari va Toshkent shahar xo'jalik sudidan iborat.

Odil sudlov organlari tizimidan farq qilib, xo'jalik sudlari tumanlarda va shaharlarda tashkil qilinmaydi.

Xo'jalik sudlarining vazifasi umumiy yurisdiksiya sudlarining vazifasi bilan bir xil, ya'ni "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasi bu sudga ham tegishli.

Sud hokimiyati organlariga, Konstitutsiyada yana boshqa vazifalar ham yuklangan. Konstitutsiyaning 44-moddasida: "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi", – deb belgilangan. Bu bir tomondan sudlarga fuqarolar murojaatlarini ko'rish mas'uliyatini yuklasa, ikkinchi tomondan sudni fuqaro huquqlari va erkinliklarining eng kuchli, samarali vositasi, kafolati sifatida namoyon qiladi.

Bu bilan sudlar fuqarolar huquqlarini davlatdan ham himoya qiladi.

Shunga alohida e'tibor berish kerakki, sudlar nafaqat qonunchilikni ta'minlaydi, ular qonun yaratishda, qonunchilik jarayonida ham faol qatnashadi. Konstitutsiyamizning 83-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Ular Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonun loyihalarini kiritish, qonunlarga o'zgartirish kiritish takliflari bilan chiqish huquqiga ega.

3-§. Sudlarni tashkil qilish tartibi

Boshqa hokimiyat organlari kabi sud hokimiyati organlari tizimini tashkil etish, vakolatlarini belgilash Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlariga kiradi (Konstitutsiyaning 78-moddasi 5-bandi).

Bu bandda sudlarni tashkil etish tartibi deganda sud organlariga sudyalarni saylash yoki tayinlash masalasi ko'rinadi. .

Sud hokimiyat tarmog'i bo'lib, ma'lum sud organlaridan iborat bo'lsa, sud organlari asosan sudyalardan iborat bo'ladi.

Sud hokimiyati tizimiga kiruvchi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va uning quyi pog'onadagi organlari, Oliy xo'jalik sudi va uning quyi pog'onadagi sudlari turli yo'llar: saylash va tayinlash yo'li bilan vujudga keladi.

Konstitutsiyada sud hokimiyatining tizimida birinchi bo'lib Konstitutsiyaviy sud ko'rsatilgan. Shuning uchun avval shu sud a'zolari (sudyalar)ning lavozimga saylanishini ko'rib chiqamiz.

Qonunga asosan Konstitutsiyaviy sud – Konstitutsiyaviy sud Raisi, Rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylangan sudyani qo'shgan holda sudning yana besh a'zosidan iborat tarkibda tashkil topadi.

Konstitutsiyamizning 80-moddasi 2-bandiga binoan Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi. Konstitutsiyaning 93-moddasi, 13-bandida sud raisi, sudyalarni Senatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etishi huquqi belgilangan (Oliy sud raisi, sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi, sudyalari ham Prezident tomonidan taqdim qilinishi Konstitutsiyaning shu moddasida belgilab qo'yilgan).

Konstitutsiyaga asosan, Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan sud raisi, rais o'rinbosari, sudyalardan iborat tarkibda saylanadi. Sudyalarning bittasi, albatta, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili bo'lishi shart. Bu Konstitutsiyaviy sud raisi o'rinbosari va sudyalarga qo'yiladigan Konstitutsiyaviy talab hisoblanadi. Qonunda Konstitutsiyaviy sud sudyalari oldiga yana shaxsning yuksak ma'naviy fazilat va zarur malaka egasi bo'lishi talabi qo'yiladi.

Bundan tashqari, Konstitutsiya va qonunga asosan, Konstitutsiyaviy sud sudyalari deputat bo'la olmaydilar, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishi va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud sudyasi Prezident oldida qasamyod qabul qiladi. Sudyaning vakolatlari quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- u jinoiy javobgarlikka tortilganida;
- sudyalik lavozimiga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullanganda;
- sudyaning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan u bedarak yo'qolgan deb hisoblanganda.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari quyidagi hollarda Oliy Majlis Senatining qarori bilan muddatidan ilgari tugatiladi:

- sudyalik qasamyodini buzganda;
- iste'foga chiqish to'g'risida iltimos qilganda;

- unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan sudning ayblov hukmi bo'lsa;
- sudya ogohlantirilgandan yoki uning vakolatlari to'xtatilganidan keyin ham o'z vazifasiga to'g'ri kelmaydigan faoliyatni davom ettirsa;
- uzoq davom etadigan kasallikka uchrasa;
- fuqarolikni yo'qotsa.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z vakolatlari davrida almashtirilmaydi. Konstitutsiyaviy sudyalar daxlsizlik huquqidan foydalanadi, ya'ni ular Senatning roziligisiz, uning majlislari o'rtasida Senat Kengashining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi yoki sud tomonidan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Sudyalarga nisbatan jinoiy ish faqat Bosh prokuror tomonidan qo'zg'atiladi. Sudyani majburiy keltirish, ushlab turish, shahsiy ashyolari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat binosini ko'zdan kechirish, tintuv qilish mumkin emas.

Umumiy yurisdiksiyali sudlari va xo'jalik sudlari raislari, o'rinbosarlari, sudyalarni saylash (tayinlash) tartibi ularga qo'yiladigan talablar deyarli o'xshash. Shuning uchun bu yerda ularni alohida ajratib ko'rsatishga hojat yo'q.

Bu sudlar markaziy (oliy) va hududiy sudlarga bo'lingani uchun ularning tashkil bo'lishida farq bor.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudini Konstitutsiyaning 80-moddasi 3, 4-bandlariga binoan, Oliy Majlisning Senati saylaydi. Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi raisi va ularning sudlari nomzodlari Konstitutsiyaning 93-moddasi 13-bandiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladi.

O'zbekiston Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi: Rais, raisning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, sudlov hay'atlarining raislari, sudyalardan iborat bo'ladi.

Viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlari (shu jumladan, fuqarolik va jinoyat sudlari) O'zbekiston Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari, Jo'qorg'i Kenges raisining O'zbekiston Prezidenti bilan kelishilgan taqdimno-

masiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan saylanadi yoki tayinlanadi.

Bu darajadagi sudyalarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Prezident huzurida tuzilgan Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy Malaka komissiyasi yordam beradi. Shu komissiya tavsiyasi asosida Prezident sudyalarni lavozimga tayinlaydi hamda lavozimdan ozod etadi.

Umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudlari sudyalari bo'lib saylanuvchi nomzodlar oldiga ham qonun bir necha talablarni qo'yadi.

O'ttiz yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lu-motga, yuridik ixtisos bo'yicha kamida uch yillik mehnat stajiga ega bo'lgan hamda malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo'lib kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo'lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo'lgan va ushbu moddadagi talablarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud sudyasi bo'lishi mumkin.

Harbiy sudlar sudyalariga "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, harbiy ustavlar, harbiy xizmatchilar uchun belgilangan, shuningdek ushbu Qonunda nazarda tutilgan huquqiy va ijtimoiy himoyalash choralari tatbiq qilinadi.

Bu yerda sudlarning darajasiga qarab turli talablar qo'yilgan, lekin hammasida ham oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish talabi bor.

Sudyalar qasamyod qabul qiladi. Qasamyod yuqori sud organida qabul qilinadi.

Sudyalarning mustaqilligi alohida kafolatlanadi. Shu asosda: sudyaga nisbatan hurmatsizlik uchun javobgarlik; sud ishlariga aralashishga yo'l qo'yilmaslik, sudyalarning daxlsizligi; sudyalarning vakolatini to'xtatish va vakolatlarini muddatidan ilgari tugatishning alohida tartibi belgilanishi; sudyalarning intizomiy javobgarligi; sudyalarning moddiy ta'minoti; sudya va uning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash choralari "Sudlar to'g'risida"gi (yangi tahrirda) Qonunda belgilangan.

Umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlari sudyalari ham boshqa haq to'lanadigan ishlarda ishlay olmaydi va siyosiy partiyalarga a'zo bo'lmaydi.

4-§. Sudlar faoliyatining asosiy prinsiplari

Bu prinsiplar sudlarni tashkil etish (saylash, tayinlash) va sud faoliyat yuritishida qo'llaniladigan, amal qiladigan asosiy g'oyalardir. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, konstitutsiyaviy, ya'ni Konstitutsiyada ko'rsatilgan prinsiplar, ikkinchisi boshqa qonunlarda belgilangan, mustahkamlangan prinsiplardir.

Konstitutsiyaviy (asosiy) prinsiplar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mustaqillik va faqat qonunga bo'ysunish prinsipi.
2. Demokratizm prinsipi.
3. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmasligi.
4. Sudyalarning deputat bo'la olmasligi, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'la olmasligi hamda boshqa haq to'lanadigan lavozimlarni egallay olmasligi.
5. Sudyalarning daxlsizligi.
6. Sudda ishlarning oshkora ko'rilishi.
7. Sud hujjatlarining hamma uchun majburiyligi.
8. Sud ishlari yuritishni aholi tiliga mos olib borish.
9. Ayblanuvchining himoya bilan ta'minlanish huquqi.

1. Sudning mustaqilligi, faqat qonunga asosan ish ko'rishi, to'laligicha sudyalarga ham taalluqlidir. Sudning mustaqilligi deganda sudyaning mustaqilligi yoki aksincha tushuniladi.

Sudning mustaqilligini ta'minlovchi eng asosiy va boshlang'ich qoida Konstitutsiyaning 106-moddasida belgilangan, unga asosan, "O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi". Bu uning mustaqilligini belgilovchi asosiy qoida va prinsipdir. Olib borilgan sud islohotlari natijasida sudning ijro hokimiyatiga bog'liqligiga butunlay barham berildi.

Prezidentning ijro hokimiyatiga boshchilik qilish vakolati bekor qilingach, sud hokimiyatining ijro hokimiyatiga bog'liqligi butunlay barham topdi.

Sud hokimiyatining ta'sirchan bo'lishi eng avvalo sudning, sudyaning mustaqilligiga bog'liq.

Sudyalar mustaqildir. Sudlar har qanday siyosiy partiyalardan holi hisoblanadi. Ular hech bir organga yoki mansabdor shaxsga bo'ysunmaydi. Sudyalar faqat qonunga bo'ysunadi. Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sudlarning ishiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Agar shunday holatlar bo'ladigan bo'lsa, u holda aybdorlar javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 236-moddasida sud ishlarini hal etishga aralashish, ya'ni ishni har tomonlama, to'la va xolisona o'rganishga to'sqinlik qilish maqsadida sudyaga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazish uchun javobgarlik belgilangan.

Sudyalarning mustaqilligini ta'minlashga sud faoliyatining boshqa prinsiplari, jumladan, daxlsizlik prinsipi ham ta'sir qiladi.

Sudyalarning mustaqilligi Konstitutsiyaning 108-moddasida hamda 112-moddalarida belgilangan qoidalar orqali ta'minlanadi. 112-moddaga ko'ra, sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi, bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Shunday

hol ro'y bersa, qanday javobgarlik belgilanishini avvalroq ko'rib chiqqan edik.

Sudning mustaqilligi shundayki, quyi sudlar yuqori sudlarga bo'ysunmaydi. Faqat yuqori sudlar quyi sudlarning qonun doirasida qaror, hukm chiqarishini nazorat qiladi.

2. Demokratizm prinsipi. Demokratizm eng avvalo Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi sudyalarining ma'lum muddatga Senat tomonidan saylab qo'yilishida ko'rinadi. Sudlarning ish yuritishida, sud jarayoni ishtirokchilarining teng huquqliligi ham demokratizmning ifodasidir. Quyi sudlar sudyalari Prezident tomonidan tayinlanar ekan, nomzodlarni tanlashdagi erkinlik, oshkoralik, tegishli talabga javob beruvchilarni sudyalik lavozimiga rezervga qo'yish, ularni tanlov asosida tanlab olib, Prezidentga tayinlash uchun tavsiya qilish, tanlov komissiyasi tarkibida turli davlat organlari, ilmiy tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari vakillarining bo'lishi demokratizmning namoyon bo'lishidir.

3. Favqulodda sudlarni tuzishga yo'l qo'yilmasligi. Bu masala Konstitutsiyaning 107-moddasida belgilangan. Sudlov ishlari faqat Konstitutsiyada belgilangan tizim doirasidagi sudlar tomonidan olib boriladi. Ular esa, qonuniy shakllantirilgan va sudyalar tegishli vakolatlarga ega. Boshqa tarzda sudlarni tuzish qonunsiz hisoblanadi.

Bu qoida bekorga o'rnatilmagan. O'tmishda favqulodda tuzilgan organlardan xalqimiz jabr ko'rgan. Oktabr revolyutsiyasidagi so'ng Rossiya Federatsiyasida, keyinchalik SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekistonda "Favqulodda komissiya", "Uchlik" deb ataluvchi qatag'on davrining qurollari xalq boshiga ne kunlarni solmadi. Bunday favqulodda tuzilmalar ham tergov, ham jazolovchi organ bo'lib, xalq boshiga cheksiz kulfatlarni soldi. Shuning uchun favqulodda sudlar tuzish odil sudlov prinsipiga ziddir, bu qoida Konstitutsiyada belgilab qo'yildi.

4. Sudyalar faqat shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi professional xizmatchi bo'lishi. Ular sudyalik faoliyati davomida deputat bo'la olmaydi, shuningdek siyosiy partiyalar va harakatlar a'zosi bo'lishi ham mumkin emas, shuningdek haq to'lanadigan boshqa lavozimlarda ishlashi ham mumkin emas. Bu

qoida ularning o'z faoliyatini adolat prinsiplarida, hech kimning ta'siriga berilmay bajarishlari uchun o'rnatilgan. Sudyalarning deputat bo'la olmasligi saylov qonunlarida ham belgilab qo'yilgan.

Sudyalar faqat ilmiy va pedagogik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

5. Sudyalarning daxlsizligi. Bu prinsip sudyalar mustaqilligini ta'minlash, ishni xolisona ko'rishga imkon yaratish, ularni ortiqcha, chetdan bo'ladigan xurujlardan, ta'sirlardan saqlashning yana bir vositasi, sudyalar daxlsizligining Konstitutsiya va qonunlarda belgilanishidir.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasida Konstitutsiyaviy sud sudyasining daxlsizligi belgilanib unga asosan, Konstitutsiyaviy sud sudyasi tegishli organlarning roziligisiz javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bundan tashqari sudyalarni majburiy keltirish, ushlab turish, tintuv kilish mumkin emas. Ularga nisbatan jinoiy ish faqat Respublika Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atiladi.

"Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 70-moddasi ham sudyalar daxlsizligiga tegishli bo'lib, uning qoidalari sudyaning dahlsizligini, turar joyga, xizmat binosiga, foydalanadigan transportga, aloqa vositalariga, xat-xabarlarga, unga tegishli ashyo va hujjatlarga taalluqli ekanligini qayd qilgan.

Shu modda qoidasiga asosan sudyalarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularga Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi raislari va Adliya vaziri tomonidan belgilangan ro'yxat bo'yicha o'q otish qurollari berilishi mumkin.

Zarur holda sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratiladi.

Sudyalarga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atiladi.

Sudyalar tegishli Oliy sud yoki Oliy xo'jalik sudi plenumining roziligi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Tegishli malaka hay'atining roziligisiz ma'muriy javobgarlikka ham tortilmaydi.

Sudyaning turar joyiga, xizmat xonasiga transportiga kirish, ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish ashyolarni olish, telefonda so'zlashuvlarini eshitish, shaxsiy tintuv qilish, uning hujjatlari

va ashyolarini ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar prokurorining ruxsati yoki sudining qarori bilan amalga oshiriladi.

6. Sudda ishlarning oshkora ko‘rilishi. Konstitutsiyaning 113-moddasida “Hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi”, – deb mustahkamlangan. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Oshkoralik prinsipi sudlarda muhim ahamiyatli ishlarni ko‘rishda ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etishida ham ko‘rinadi. Suddagi qabul qilingan qaror va hukmlar haqida OAVda xabarlar berib boriladi.

7. Sud hujjatlarini bajarishning hamma uchun majburiyligi. Konstitutsiyaning 114-moddasida: “Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir”, deyilgan. Bu sud hujjatlariga kuchli maqom berilganligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 232-moddasida sud hujjatini ijro etmaslik uchun javobgarlik belgilangan. Unga asosan sud hujjatini bajarishdan bo‘yin tovlashni ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin davom ettirish, shuningdek sud hujjatining ijro etilishiga to‘sqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

2001-yil 22-sentabrda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “Adliya vazirligi huzurida Sud qarorlarini ijro etilishi, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta’minlash Departamenti” tashkil etilishi ham sud faoliyatining shu prinsipini yanada yaxshiroq ta’minlashni nazarda tutgan.

8. Sudlarda ish yuritish tilini tanlash prinsipi. Sud ishlarida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquqlari har jihatdan ta’minlanadi. Buning uchun Konstitutsiya va qonunlarda yetarli qoidalar mavjud. Buni sud yuritishda amal kiladigan prinsiplar ham ko‘zda tutadi.

Fuqarolar huquqini ta’minlashda muhim vosita bu sud ish yuritishda til tanlash masalasidir.

Konstitutsiyaning 115-moddasida, fuqarolar ta'minlovchi vositalardan biri sifatida, sud ishlari yuritilgan til masalasi hal qilingan. Unga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlarini olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi", – deb belgilangan. Demak, sud ishlarini yuritishda hech qanday tilga imtiyoz berilmaydi.

9. Ayblanuvchini himoya bilan ta'minlanish huquqi. Bu prinsip Konstitutsiyaning 116-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra, ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday boskichida malakali yuridik yordam olish huquki kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Ayblanuvchining huquqini himoya qilishni kuchaytirish, uning uchun himoyachini sud jarayonida prokuror bilan teng huquq asosida qatnashishini ta'minlashga, sud-huquq islohotlari davomida alohida e'tibor berildi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida mamlakat Prezidenti "Sud-huquq sohasida"gi vazifalarni ko'rsatar ekan, *"Sud jarayonida ayblov va himoyaning tengligi ta'minlanmog'i va buning uchun advokatura idoralarining mavqeini ko'tarish darkor"*[1], – deb qayd qilgan edi.

Shundan keyin mamlakat qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi va himoyachi mavqei kuchaytirildi, natijada fuqarolarning sudda himoya bilan ta'minlanish prinsipi kuchaydi.

Yuqorida to'xtalib o'tilgan prinsiplar Konstitutsiyaviy prinsiplar bo'lib, sudlar faoliyatida qo'llaniladigan yana boshqa prinsiplar

1 Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. – 30-bet.

ham mavjud va ular qonunlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda, Qonun va sud oldida tenglik, sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi Qonunda kollegiallik prinsiplari mustahkamlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sud hokimiyati nima?
2. Sud hokimiyatining hokimiyat tizimidagi o'rni qanday?
3. Sud-huquq islohotlarining maqsadi nima?
4. Islohotlarda qanday vazifalar belgilangan?
5. Sudning vazifasi nima?
6. Sud tizimi qanday?
7. Sud hokimiyati tarmoqlarining tizimi qanday?
8. Konstitutsiyaviy sud qanday tashkil qilinadi?
9. Umumiy yurisdiksiya sudlari qanday tashkil qilinadi?
10. Xo'jalik sudlari qanday tashkil qilinadi?
11. Sud faoliyatida qanday prinsiplarga amal qilinadi?
12. Sud-huquq islohoti natijasida sudlarning fuqarolar huquqini himoya qilish vazifasi qanday kuchaydi?
13. Prokuraturaning qanday vakolatlari sudga o'tkazilgan?

XXVII bob. Prokuratura organlari

1-§. Prokuraturaning davlat organlari tizimidagi o'rni

Prokuratura organlari alohida vazifa bajaruvchi davlat organidir.

Parlamentning Angliyada, Prezident instituti AQShda vujudga kelgan deyilsa, Prokuratura Fransiyada XIV asrda tashkil etilgan. Rossiyada prokuratura Pyotr I davrida vujudga kelib, keyinchalik Turkiston Rossiya tarkibiga qo'shib olingan davrda, so'ng O'zbekiston SSSR tarkibiga kirgach, prokuratura organlari faoliyati ta'siri mavjud bo'lgan. Prokuratura organlari davlatning va barcha fuqarolarning manfaatini qo'riqlaydigan organ deb ta'rif etilsa-da, u asosan davlatni, shu davlatdagi hukmron sinflarning manfaatini himoya qilgan. Prokuraturaning hokimiyat manfaatidan kelib chiqib o'ta jazolovchi organ bo'lganligini xalqimiz 80-yillarda o'z boshidan kechirgan.

Sobiq tuzim davrida prokuratura organlarining tuzilishi, huquqiy maqomi ittifoq (markaz) manfaatlariga mos ravishda tashkil qilinar edi. U o'ta markazlashgan usulda tashkil qilinar edi. Respublika prokurori, viloyatlar prokurorlari Ittifoq Bosh prokurori tomonidan tayinlanar, tuman, shahar prokurorlari, Bosh prokurorning roziligi bilan Respublika prokurori tomonidan tayinlanar edi.

Respublika rahbariyatining Respublika prokuroriga nisbatan hech qanday ta'sir vositalari yo'q edi. Shuning uchun ular to'la ittifoq manfaatini himoya qilar edi.

Ayniqsa, 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab respublikadagi prokuratura organlari rahbarligiga Rossiyadan kadrlarning yuborilishi, O'zbekistonda qonuniylik, fuqarolar huquqlarini ta'minlashni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Mahalliy sharoitni bilmaydigan, bilishga harakat qilmagan prokuraturaning "kelgindi" rahbar xodimlari istagancha o'zbek xalqini tahqirladi.

Faqat mustaqillik sharofati bilan bunday noinsoniy voqealarga barham berildi va O'zbekiston o'z prokuratura organlarini o'zi xohlagancha tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Prokuratura organlari hokimiyatning alohida tarmog'ini tashkil qilmay, turli mamlakatlarda biror-bir hokimiyat tarmog'i tarkibida faoliyat yuritadi. AQShda prokuratura Adliya organlari (ijro hokimiyati) tizimiga kirsa, Italiyada sud organlari tizimiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasida prokuratura alohida maqomga ega. Konstitutsiyada prokuratura uchun alohida bob mavjud. Demak, u qonunchilik hokimiyatiga ham, ijro hokimiyatiga ham, sud hokimiyatiga ham kirmaydi. Prokuratura uchun Konstitutsiyada maxsus bob ajratilishi unga konstitutsiyaviy maqom berib, unga katta umid bog'langanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Prezidenti "Prokuratura – qonun himoyasida turgan organ. U huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilishida, huquqiy islohotlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi", – deb prokuratura organlari faoliyatiga yuksak baho bergan va uning o'rnini ko'rsatib bergan edi.

Prokuraturaning davlat organlari tizimidagi o'rnini ularning alohida vazifasi borligi, o'zining alohida ish uslubiga egaligi va har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib ish olib borishi belgilaydi. Bu Konstitutsiyaning 120-moddasida qonuniy belgilanib, unga asosan: "O'zbekistan Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradi".

Konstitutsiya va qonunda prokurorlarni mustaqilligini ta'minlovchi bir necha qoidalar belgilab qo'yilgan. Shu 120-moddada "Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar" degan qoida bo'lib, u prokurorlarning siyosiy partiya va siyosiy harakatlar ta'siriga tushib qolmasligiga qaratilgandir.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda ham prokurorlarning mustaqil faoliyatini ta'minlashga qaratilgan qoidalarni yetarlicha uchratish mumkin. Ularda prokurorga tazyiq o'tkazish, unga boshqacha yo'llar bilan ta'sir qilishga urinish, daxlsizligiga tajovuz qilish mumkin emasligi ko'rsatilgan. Qonunning 5-moddasi oltinchi qismida "Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga eri-

shish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi", deb ko'rsatilgan.

Qonundagi prokuraturaning mustaqilligini ta'minlovchi yana bir vosita prokuratura organlari xodimlarining daxlsizligiga qaratilgan alohida moddaning mavjudligidir. 49-moddada "Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi. Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi" – deb belgilanib, prokuror xodimlarning huquqlari alohida muhofazaga olingan.

Qonunning 50-moddasidagi prokuratura organlari xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minotini alohida belgilovchi qoidalar ham prokuror mustaqilligini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Qonunning 51-moddasi bilan prokuratura organlari xodimlari va ularning oila azolarini ijtimoiy himoyalash masalasi hal qilingan. Unda ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, ish faoliyatini davom ettirish imkoniyatini bermaydigan darajada sog'lig'ini yo'qotganda ularni moddiy ta'minlash masalasi boshqa xodimlarga nisbatan o'zgacha hal qilingan.

Prokuraturaning Prezident va Oliy Majlis oldida mas'ulligi ham ularning maqomini, davlat organlari tizimidagi o'rnini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning 80-moddasi 12-bandiga binoan, Oliy Majlisning Senati O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobotlarini eshitadi. Hisobotlar har yili taqdim etiladi.

O'zbekiston Bosh prokurori Respublika Prezidentiga:

- qonuniylik va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida – muntazam ravishda;
- o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida – zudlik bilan;
- prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida – har olti oyda axborot taqdim etadi.

2-§. Sud-huquq islohotlarining prokuratura organlari maqomiga ta'siri

Mamlakatimizda olib borilgan sud-huquq sohasidagi islohotlar prokuratura organlariga ham ta'sir qildi.

Mustaqillikka erishilib, taraqqiyot yo'li belgilanar ekan, eng muhim vazifalar qatorida " – barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish. Qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi"[1], deb belgilandi. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda prokuratura organlarining bevosita ishtiroki zarur edi.

Shundan kelib chiqib, prokuratura maqomi O'zbekiston Konstitutsiyasida alohida XXIV bobda mustahkamlandi va Konstitutsiya qabul qilingandan keyin (1992-yil dekabrda) "Prokuratura to'g'risida" Qonun qabul qilindi.

Yangi jamiyat qurishning boshlanishi, har kim va har bir narsa qonunga bo'ysunishi lozim bo'lgan huquqiy davlat qurish maqsadi, jamiyatda qonun boshqaruvning asosiy va ko'p qirrali vositasiga aylanishi zarurligi, bu huquqni muhofaza etuvchi organlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi anglanib, shu organlar, jumladan prokuratura to'g'risidagi qonunlarni takomillashtirish zarurati ko'zga tashlanayotganligi Prezident tomonidan e'tirof etilganidan[2] so'ng "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirishga jiddiy kirishildi.

O'zbekiston XXI asrga mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishni amalga oshirish maqsadi bilan kirdi. Endi barchaning qonun asosida yashashga o'rganishi muhim bo'lib qoldi. Sud-huquq sohasiga tegishli islohotlar chuqurlashib borar ekan, uning natijasida advokatura tizimini kuchaytirish va uning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ular-

1 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 17-bet.

2 Qarang: Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – 18-bet.

ning vakolatlari va maqomini prokuratura maqomiga tenglashtirish uchun qonunchilik sohasida ham, amaliy ishlar sohasida ham ko'pgina chora-tadbirlar ko'rilayotganligi – Prezident ma'ruzasida qayd qilindi[1].

Prezidentning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida 2002-yil 22-yanvarda so'zlagan ma'ruzasida ham "Sud jarayonida ayblov va himoyaning amalda tenglik ta'minlanmog'i va buning uchun advokatura idoralarining mavqeini ko'tarish darkor"[2]ligi qayd qilindi.

Shundan so'ng "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritildi, qonun 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi.

Prokuratura faoliyatini takomillashtirishga 2000-yilning ikkinchi yarmidan yanada katta e'tibor berildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisida Prezident prokuratura maqomiga taalluqli jiddiy mulohazalarni bayon qildi.

Unda huquqiy davlat qurishda sudyaning rolini oshirish qonuniy jarayon ekanligi munosabati bilan prokuratura vakolatlarining bir qismini sudlarga o'tkazish hozirgi zamonning mantiqiy talabi ekanligi qayd qilindi va bu, eng avvalo, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, daxlsizligini cheklash bilan bog'liq masala ekanligi ko'rsatildi. Shulardan kelib chiqib, Prezident "Boshqa demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek boshqa protsessual majburiy choralarni qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak, deb o'ylayman"[3], – deb o'ta muhim masalani o'rtaga tashladi. Prezidentning bu takliflari keyinchalik qonunchilikda o'z ifodasini topdi.

Prokuratura organlarining huquqiy maqomiga Prezidentimizning Oliy Majlis palatalarining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisida so'zlagan ma'ruzasidagi ko'rsatmalar ta'sir qiladi.

---

1 Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 15, 20, 29-betlar.

2 Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. – 30-bet.

3 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 47-bet.

Ma'ruzada qayd qilinishicha:

- hozirgi vaqtda mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda;

- jinoyat va jinoyat protsessual qonunchilikni yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo'nalishga aylandi;

- dastlabki tergov bosqichida sud nazorati kuchaytirildi;

- "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining prokuraturadan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi;

- sud qarorlarini ijrosini to'xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokuraturalarining esa, tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi;

- yangi tahrirda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarildi.

Amalga oshirilgan mazkur islohotlar, birinchi navbatda, prokuraturaning sud jarayonidagi ishtirokini cheklab, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarini amalga oshirilishini, prokuraturaning inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'uliyatini oshirishni ta'minlaydi.

Prezident ma'ruzasida, shuningdek, sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llaniladigan barcha choralarni prokuraturadan sudga o'tkazish; birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini prokurorga yuklash; prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o'rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi ko'rsatildi[1].

---

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi – T.: O'zbekiston, 2010. – 18–27-betlar.

Bu ko‘rsatmalar amaliyotda o‘z o‘rnini tezda topa boshladi. 2011-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari sifatida “Markazda va joylardagi davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni ta’minlash” belgilandi. Bu nazorat doirasiga, albatta, prokuratura organlari ham kiradi.

Shuningdek, qarorda Adliya vazirligi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida “davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari, shu jumladan prokuratura organlarining norma ijodkorligi, huquqni qo‘llash amaliyotida tizimli ravishda tekshiruvlar, o‘rganishlar o‘tkazadi” degan qoida mustahkamlanib, vazirlikning prokuratura organlariga nisbatan huquqi belgilab qo‘yildi.

3-§. Prokuratura organlarining vazifa va vakolatlari

Prokuratura barcha davlat organlari, korxona, tashkilot, muassasa va fuqarolarning qonunlarga aniq va bir hilda amal qilishini nazorat qiluvchi davlat organi hisoblanib, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir qatorda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlaydi. Prokuratura organlari hodimlari sudda davlat ayblovini quvvatlaydi. Prokuratura ayrim mamlakatlarda sud tarmog‘ida, ayrim mamlakatlarda ijro hokimiyati (adliya) tarmog‘ida, ayrim mamlakatlarda esa, mustaqil tuzilma sifatida faoliyat ko‘rsatadi[1].

Bu butun jahon miqyosida prokuratura organlarining tashkiliy-huquqiy shaklida, vazifa va funksiyalarida umumiylik, o‘xshashlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, O‘zbekistonda prokuratura mustaqil tuzilma sifatida faoliyat yuritadi va konstitutsiyaviy maqomga ega.

---

1 Qarang: Юридический словарь. – М.: “Olma”, 2004, – С. 456–457.

Konstitutsiyada prokuratura organlarining maqomi ularning vazifa va funksiyalari umumiy tarzda, aniq belgilangan. Konstitutsiyaning 118-moddasida prokuratura respublika hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi deb belgilab qo'yilgan. Ya'ni, prokuraturaning bosh vazifasi butun mamlakat hududida davlat tomonidan qabul qilingan barcha qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilish hisoblanadi va bu bilan qonuniylik, qonun ustuvorligi ta'minlanashga ko'maklashdi.

Konstitutsiyada prokuraturaning umumiy vazifasi belgilangan bo'lsa, 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda uning asosiy vazifalari aniqlashtirilgan[1].

Qonunning 2-moddasi O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifasi, deb nomlanadi. Unda, belgilanishicha prokuraturaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qonun ustuvorligini ta'minlash;
- qonuniylikni mustahkamlash;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish;
- huquqbuzarlikning oldini olish va profilaktika qilish.

Shu vazifalarni bajarish uchun u tegishli yo'nalishlarda faoliyat yuritadi va aniq vakolatlarga ega.

Prokuratura organlari faoliyatining yo'nalishlari:

Birinchi yo'nalish – vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va boshqa organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlarning ijrosi;
- qurolli kuchlarda, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish.

Ikkinchi yo'nalish – tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonun-

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9–10-son, 168-modda.

larning ijro etilishi ustidan nazorat olib borish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

Uchinchi yo'nalish – jinoyatlar ustidan dastlabki tergov olib borish;

To'rtinchi yo'nalish – sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish va qonunlarga zid hujjatlarga protest keltirish.

Beshinchi yo'nalish – soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qop-lashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat o'rnatish.

Oltinchi yo'nalish – ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borish.

Yettinchi yo'nalish – qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Ko'rinib turibdiki, prokuratura organlari faoliyati ko'p qirralidir. Ularni amalga oshirish uchun prokuraturaga yetarli vakolatlar berilgan.

Jumladan, Prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni takdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish, shuningdek qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Prokuratura organlari o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari mazkur organlarning talabiga muvofiq bepul beriladi.

Prokurorning talablari ustidan shikoyat qilinishi ularning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Prokuratura organlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar.

Prokuror fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi.

Prokuror o'ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini zarur hollarda tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga ega.

Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan fuqaroning ariza va shikoyati yoki yuridik shaxsning murojaati yuzasidan qaror qabul qilinganidan keyin prokuratura organlarida ular bo'yicha ish yuritish tugatiladi, yangi ochilgan holatlar bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun prokuror muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, ishchi guruhlar tashkil etadi, zarur axborot, shu jumladan, statistika ma'lumotlarini talab qilib oladi, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tegishincha O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etish huquqiga ega.

Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli quyi organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etishga haqli.

Prokurorning qonunlar ijrosi ustidan nazorati; fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorati; jinoyatchilikka qarshi kurashishni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorati; ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorati bo'yicha vakolatlari hamda sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlari "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda batafsil belgilab qo'yilgan.

Prokuratura organlari o'z vazifalarini erkin, hech kimning ta'sirisiz olib borishi uchun prokuratura xodimlarining daxlsizligi ham qonunda belgilangan. Unga asosan, prokuror yoki tergovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi.

Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi.

Shuningdek, qonunda prokuratura xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti masalalari, prokuratura organlari xodimlarini hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash choralari belgilangan.

Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi bor tayinlanayotgan shaxs qasamyod qabul qiladi.

Prokuratura xodimlari ham sudyalar kabi deputat bo'la olmaydi, siyosiy partiya va harakatlar a'zosi bo'la olmaydi va boshqa haq to'lanadigan ishda ishlay olmaydi.

Prokuratura organlari faqat qonuniylikni mustahkamlash bilan shug'ullanmasdan, qonunlarning vujudga kelishi, takomillashuvida, ya'ni qonunchilik jarayonida ham ishtirok etadi. Konstitutsiyaning 83-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

4-§. Prokuratura organlarining tizimi, xodimlarni lavozimga tayinlash, prokuratura ishini tashkil qilish

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 119-moddasida prokuror O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishlarida: Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda, tumanlarda, shaharlarda faoliyat ko'rsatishi belgilanib, prokuratura tizimining konstitutsiyaviy asosi o'rnatilgan.

Prokuratura yagona va markazlashgan asosda tashkil etiladigan organ hisoblanadi.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida "Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi", – deb prokuratura tizimining o'ziga xosligi belgilangan.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday qarorlarini o'zgartirish, bekor qilish huquqiga egaligi, shuningdek, o'z bo'ysunuvidagi boshqa prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgarligini o'rnatilganligi prokuratura tizimining markazlashganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi prokuratura organlari tashkil qilinadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi.
3. Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturasi.
4. Tumanlar va shaharlar prokuraturalari.
5. Viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi transport prokuraturasi.
6. Tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.
7. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'limlari.

Barcha prokurorlarning vakolat muddati besh yil.

Prokuratura tizimi shunday ko'rinishga ega.



Konstitutsiyaga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi (93-moddaning 12-bandi), bu haqdagi Prezident farmoni Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi (80-moddaning 6-bandi).

Bosh prokuror o'rinbosarlari ham Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi[1]. Qoraqalpog'iston

1 Konstitutsiyaga 2011-yil 18-aprelda kiritilgan o'zgartirishga asosan Bosh prokuror o'rinbosarlarini tayinlash haqidagi farmonni ham Senat tomonidan tasdiqlash tartibi bekor qilindi.

Respublikasi prokurori O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlarning prokurorlari, Toshkent shahar prokurori, tuman va shahar prokurorlari, ularga tenglashtirilgan prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Barcha prokurorlarning vakolat muddati besh yil.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura tizimiga kiruvchi barcha prokurorlar faqat tayinlash yo‘li bilan lavozimni egallaydi. Bu prokuratura organlarining boshqa davlat organlaridan farqini ko‘rsatuvchi xususiyat hamdir.

Respublika Bosh prokurorini tayinlashda va lavozimidan ozod etishda Prezident va Oliy Majlisning Senati ishtirok etadi: unda Prezidentning Bosh prokurorni tayinlash hamda lavozimdan ozod etish haqidagi farmonini Senatda tasdiqlash bilan masala rasmiylashtiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston tarkibidagi mustaqil respublika bo‘lgani uchun, respublika prokurori Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan tayinlanadi, bunda nomzod Respublika Bosh prokurori bilan kelishiladi. Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga ham ma’lum talablar qonun asosida qo‘yiladi.

Prokuratura organlarida prokurorlar, tergovchilar va ish o‘rganuvchilar lavozimiga oliy yuridik malumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo‘lgan, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog‘lig‘i imkon beradigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan shaxslar tayinlanadi.

Prokuratura organlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilishi lozim.

Prokuratura organlari xodimlari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, o‘qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo‘sh vaqtda shug‘ullanishi mumkin.

Prokuratura organlari ma'lum prinsiplar asosida tashkil qilinadi va faoliyat yuritadi. Bu prinsiplar birlik (yagonalik), markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.

Birlik (yagonalik) – prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Markazlashganlik – yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga xaqlidir, shuningdek u o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir.

Qonuniylik – prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga ko'ra qilinishidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mustaqillik – prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi.

Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Oshkoralik – viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida har yili axborot beradilar.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, prokuratura organlari faoliyatida kollegialchilik prinsipi ham qo'llaniladi. Muhim masalalarni hal qilish, maslahatlashish uchun Bosh prokuror huzurida hay'at tuzilib, uning tarkibi Bosh prokuror taklifiga ko'ra Respublika Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Prokuratura qanday organ?

2. Prokuratura qaysi hokimiyat tizimi tarkibiga kiradi?

3. Sovet Ittifoqi davrida prokuratura qanday rol o'ynagan?

4. O'zbekiston mustaqilligi prokuratura organlarining tuzilishiga, mavqeiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

5. Sud-huquq islohotlari prokuratura maqomiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

6. Prezident konsepsiyasida prokuratura haqida qanday ko'rsatmalar bor?

7. Prokuratura va Adliya vazirligi munosabati qanday?

8. O'zbekiston Respublikasida prokuraturaning vazifasi nimalardan iborat?

9. Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari qanday?

10. Prokuraturaning asosiy vakolatlari nimaga qaratilgan?

11. Prokuratura tizimi qanday?

12. Prokurorlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish tartibi qanday?

13. Prokuraturada ishlovchi xodimlarga qanday talablar qo'yiladi?

14. Prokuratura xodimlarining daxlsizligi qanday himoya qilinadi?

15. Prokuratura faoliyatining prinsiplari qanday?

XXVIII bob. Moliya va kredit

1-§. O'zbekistonning moliya va pul-kredit tizimi

Konstitutsiya nafaqat siyosiy tizim, hokimiyat tizimi va ular bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soladi, u iqtisodiy tizim va u bilan bog'liq munosabatlarni, davlat iqtisodining asosiy manbalari: moliya tizimini, pul-kredit tizimini, soliq tizimining asoslarini ham tartibga soladi.

Moliya tizimini, pul-kredit tizimini, soliq tizimini, budjet masalasi, bank tizimini tartibga solish zamonaviy Konstitutsiyalarga xos xususiyatdir.

Hech qanday davlatning yetarli mablag'i bo'lmasa, mablag' keladigan manbalari bo'lmasa, demokratiya o'rnatish, aholining farovon turmush tarzini ta'minlash u yoqda tursin, tez orada davlat barbod bo'ladi.

Jahonda bo'lib o'tgan iqtisodiy inqirozlar moliya tizimini, soliq tizimini, bank tizimini juda ehtiyot bo'lib, iqtisodiyot qonunlariga amal qilib tashkil etish zarurligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishib, o'z taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, samarali va ishonchli moliya, pul-kredit, soliq, bank tizimini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi va ularning asoslarini Konstitutsiyada mustahkamladi. Har qanday davlatning mustaqillik belgilaridan biri ham o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega bo'lishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXV bobi moliya va kredit tizimiga bag'ishlanib, 122-moddada: "O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega", – deb belgilab qo'yilgan. O'zining moddiy mazmuniga ko'ra davlat moliyasi pul mablag'lari jamg'armasini aks ettiradi.

Moliya bir nechta bog'liq bo'lgan bo'g'inlar (institutlar) va organlarni o'z ichiga oluvchi tizimdir. Ularning har biri davlat pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash, ulardan foydalanish bo'yicha yuzaga keladigan muayyan ijtimoiy munosabatlar doirasini aks ettiradi va shu boisdan ular bir-biridan farq qiladi. Turli moliyaviy bo'g'inlar (institutlar) majmui O'zbekiston Respublikasi moliya tizimini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimi quyidagilardan tashkil topgan:

- davlat budjeti, uning tuzilmasiga kiruvchi respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar;
- davlat maqsadli jamg‘armalari va budjetdan tashqari jamg‘armalar;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar va iqtisodiyot sohalari moliyasi;
- kredit (davlat krediti va bank krediti);
- mulkiy va shaxsiy sug‘urta.

O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimining har bir bo‘g‘ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo‘ljallangan turli pul jamg‘armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o‘ziga xos vazifalarni bajaradi.

O‘zbekistonning davlat budjeti moliya tizimining markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, uning yordamida davlatning markazlashtirilgan pul jamg‘armasi tashkil etiladi. Davlat budjeti moliya tizimining boshqa bo‘g‘inlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tarkibiy qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar hisoblanadi. Mahalliy budjetlar bozor islohotlarining barcha bosqichlarida davlat tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatning Davlat budjetida davlat maqsadli jamg‘armalari ham to‘plangan bo‘lib, ular yordamida O‘zbekiston fuqarolarining pensiya ta’minoti, xususiylashtirish jarayonlarini rivojlantirish, aholini ish bilan band etish va boshqa masalalar hal etiladi.

Kredit yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh turgan mablag‘larini kredit resusrlariga jalb etish, ularni qaytarish va foizlar to‘lash sharti bilan foydalanuvchilarga berish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos moliyaviy munosabatlar majmuidir.

Davlat krediti vaqtincha davlat tasarrufiga tushadigan va iqtisodiyotni rivojlantirish, budjet taqchilligi va boshqa ehtiyojlarning ustuvor yo‘nalishlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan qo‘shimcha pul mablag‘larining to‘planishini ta’minlaydi. Davlat kreditida davlat – qarz oluvchi, yuridik va jismoniy shaxs-

lar esa, qarz beruvchi (kreditor)lar sifatida namoyon bo'ladi. Davlat krediti vositasida yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etish turli shakllarda, avvalo davlat zayomlari, pul majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorining yuzaga kelishi sharoitlarida davlat kreditining muhim shakli yuridik shaxslar orasida joylashtiriladigan davlat qisqa muddatli zayomlari hisoblanadi.

Pul tizimi – bu respublikada pul muomalasini reja asosida tashkil qilishdagi shakl va usullarni huquqiy normalar bilan tartibga solishdir. Pul tizimi rasmiy pul birligini, har xil turdagi davlat pul belgilarini, muomalaga pul chiqarish tartibi va uni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyulda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – "So'm" muomalaga kiritildi.

2-§. Davlat budjeti va uning tarkibiy qismlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 122-moddasining ikkinchi bandi O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekistonning Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlaridan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

2000-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan bizning respublikamizda birinchi marta budjetga oid qonun, ya'ni O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risidagi"gi Qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida budjetga oid barcha masalalar mazkur qonunga asosan hal qilinadi. Davlat budjeti loyihasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tayyorlanadi. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga topshiriladi. Vazirlar Mahkamasi loyihani keng muhokamadan o'tkazib, ma'qullagandan so'ng,

joriy yilning 15-oktabriga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim qiladi. Qonunchilik palatasi Davlat budjeti loyihasini joriy yilning 15-noyabridan kechiktirmay qabul qiladi va ko'rib chiqish uchun Senatga yuboradi. Davlat budjeti bo'yicha karor Senat tomonidan joriy yilning 15-dekabridan kechiktirmay qabul qilinadi.

O'zbekiston Davlat budjeti to'g'risidagi qonun bir yilga mo'ljallab qabul qilinadi va 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti – bu davlat hokimiyati vakillik organi tomonidan tasdiqlanadigan markazlashgan pul fondlarining tashkil topishi, taqsimlanishi va foydalanishning asosiy moliyaviy rejasi bo'lib, davlatning barcha vazifalari va funksiyalarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning Davlat budjeti ikki qismdan: daromadlar va xarajatlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat budjeti ijrosini nazorat qilishni amalga oshirish chog'ida:

- turli darajadagi budjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi;
- turli darajadagi budjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan axborotlar oladi.

Budjet mablag'lari oluvchidan budjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlarni talab qilib oladi:

- qonun hujjatlariga muvofiq banklardan budjet mablag'lari xarajati to'g'risida ma'lumotlar oladi;
- Budjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini o'z vakolatlari doirasida taftish qiladi va tekshiruvdan o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat budjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Respublika budjetidan moliyalashtirilgan budjet mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi shu vazirlik tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan hamda mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

Tumanlarning, shuningdek respublika (Qoraqalpog'iston), viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarning moliya organlari shahar, tuman budjetining hisobot davridagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishli hokimliklarga hamda yuqori moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organi tegishli budjetlarning hisobot davridagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va tegishli hokimlarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

3-§. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi

Har qanday mamlakatda davlat budjetining manbalaridan biri soliq hisoblanadi. Sotsialistik rejali tizimda soliqning o'ziga xos xususiyatlari, bozor munosabatlari asosida jamiyatdagi soliqning, soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab to'g'ri soliq siyosati olib borishga alohida e'tibor berildi.

"Soliq tizimi ham bozor infrastrukturasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uni hali chinakamiga tashkil qilishga to'g'ri keladi. Soliq xizmati faqat soliq to'plash idorasigina bo'lib qolmasdan, balki tadbirkorga ularning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda hamda moliya intizomiga rioya qilinishida ko'maklashish, kerak"[1], – deb Prezident soliq tizimini yaratish zarurligini va uning iqtisodiyotdagi o'rnini ko'rsatib bergan edi.

1 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992 – 57-bet.

O‘zbekistonning soliq tizimi qanday bo‘lishi haqida davlat boshlig‘i alohida ko‘rsatmalar bergan. “Bilamizki, soliqlar davlat budjeti bilan mahalliy budjetlarni to‘ldirishning asosiy manbaidir. Soliqlar keng qamrovli, ayni paytda har bir soha, tarmoq va korxonaga alohida qayishqoq va sharoitga moslashuvchi bo‘lishi zarur.

Soliqlarning miqdorlarini turli yo‘llar bilan oshira borish davlatga va jamiyatga naf keltirmasligini anglab olishimiz kerak, deb o‘ylayman. Soliqlar daromadlarning bir qismigagina solinishi, ayni vaqtda xalq xo‘jaligi va aholiga kerakli mahsulot hamda mollarni ko‘proq va yaxshiroq ishlab chiqa-rishga intilayotgan tashkilotlarni va kishilarni har jihatdan rag‘batlantirish lozim”[1], degan so‘zlar mamlakatimiz soliq tizimining maqsad va mazmunini belgilab bergan.

O‘zbekiston davlati zarur pul mablag‘lari fondlarini tashkil qilishda va turli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishda soliqlardan foydalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasiga binoan “O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi”.

Soliq tizimi deganda, O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda mavjud bo‘lgan, belgilangan tartibda soliqqa tortishning muhim shart-sharoitlari majmui tushuniladi.

Soliqqa tortishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi:

- soliqqa tortish tamoyillari;
- soliqlarni belgilash va joriy qilish tartibi;
- soliqlar tizimi;
- soliqlarni budjet darajalari o‘rtasida taqsimlash tartibi;
- soliq nazoratini amalga oshirish shakli va usullari;
- soliq to‘lovchilarining huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari;
- soliq munosabatlari ishtirokchilarining yuridik javobgarligi.

Demak, soliqqa tortishning muhim shart-sharoitlari yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi.

---

1 Karimov I.A. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 30-bet.

Soliq tizimi tushunchasi soliqlar tizimidan farq qiladi.

Soliqlar tizimi – bu tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy birlikka ega bo'lgan alohida soliqlar yig'indisidir.

Hozirgi paytda O'zbekiston soliqlar va majburiy to'lovlar tizimida "Soliq kodeksi" 23-moddasiga asosan quyidagi soliqlar va majburiy to'lovlar turlari belgilangan:

1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

3) qo'shilgan qiymat solig'i;

4) aksiz solig'i;

5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus soliqlar;

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar;

7) mol-mulk solig'i;

8) yer solig'i;

9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

10) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi, gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlarga esa, quyidagilar kiradi:

1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar;

- yagona ijtimoiy to'lov;

- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:

- respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

3) davlat boji;

4) bojxona to'lovlari;

5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Bulardan qaysilari umumdavlat soliqlari va majburiy to'lovlar bo'lishi, qaysilari mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'lishi kodeksning shu moddasida belgilab qo'yilgan.

Soliqlarni joriy qilish – bu hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasida "Soliqlarni joriy qilishga fakat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi haqli", – deb yozib qo'yilgan.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'lishi uchun quyidagi elementlar bo'lishi shart:

soliq solish obyekti;
soliq solinadigan baza;
stavka;
hisoblab chiqarish tartibi;
soliq davri;
soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
to'lash tartibi.

Soliq qonunida bu elementlarning bo'lmasligi yoki noaniq ifodalanishi soliq munosabatlarida chalkashliklarni yuzaga kelishiga, qonun oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq bajarilmasdan qolishiga sabab bo'ladi.

Qonunchilikkka asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari mahalliy soliqlarni joriy etish huquqiga ega. Bu mahalliy hokimiyat organi o'z huquqini amalga oshirishi va davlatning yuqori vakolatli organi tomonidan ilgari belgilangan soliqlarni biror turini amalga kiritishi yoki bunday huquqdan voz kechishi mumkin. Bundan tashqari ular soliq to'plamidan imtiyozlarini ham belgilash huquqiga ega.

4-§. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi

Bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Moliya tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi.

Bank tizimining yuqori, ya'ni birinchi pog'onasi O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki bo'lib, u bank tizimiga rahbarlik qiladi, bank sohasidagi qoidalarni o'rnatadi, tijorat banklarini nazorat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining davlat organi sifatidagi huquqiy maqomi avvalo O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan. Konstitutsiyaning 124-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi”, – deyilgan.

Davlat organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki o‘z vakolatlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar tomonidan ijro etilishi majburiy bo‘lgan normativ hujjatlarni qabul qiladi. Markaziy Bank to‘g‘risidagi Qonunning 7-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining me’yoriy hujjatlari agar Markaziy Bank tomonidan chiqariladigan normativ huquqiy hujjatlar turli yuriqnomalar, qoidalar, tartiblar va ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki bir qator funksiyalarni amalga oshiradi. Bunday funksiyalarga:

a) iqtisodni pul-kredit tartibiga solish;

b) banklar faoliyatini tartibga solish;

d) bank nazorati;

e) valyutani tartibga solish;

f) to‘lov tizimini tashkil qilish va boshqarish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki davlat organi sifatida boshqa davlat organlaridan farq qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining boshqa davlat organlaridan birinchi farqi shundaki, u iqtisodiy mustaqil tashkilot hisoblanib, sarf-xarajatlari o‘z foydasi hisobidan qoplanadi. Ya’ni, Markaziy Bank, bevosita xo‘jalik faoliyatini amalga oshiradi va foyda ko‘radi. Natijada shu foyda evaziga o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Boshqa davlat organlarining faoliyati esa, Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining boshqa davlat organlaridan ikkinchi farqi shundaki, u faqat Oliy Majlisga hisobot beruvchi tashkilotdir. Boshqa davlat organlari Vazirlar Mahkamasi boshqaradigan davlat organlari tizimiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining mustaqilligi birinchi navbatda uning pul-kredit siyosatiga ijro organlaridan, avvalo Vazirlar Mahkamasidan mustaqilligini ta’minlashga yo‘naltirgan.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasini turli tijorat banklari tashkil qiladi. Bu – universal, ya'ni bank operatsiyalarining hamma turlarini bajaradigan va ixtisoslashgan, ya'ni iqtisodning aniq tarmoqlariga xizmat ko'rsatadigan yoki bank operatsiyalarining ba'zi bir turlarini ko'p bajaradigan banklar; filiallarga ega bo'lgan va filiallari mavjud bo'lmagan banklar; O'zbekiston banklari, chet el sarmoyasi ishtirokidagi banklar va chet el banklarining sho'ba banklari va hokazo banklardir.

Tijorat bankining aniq ta'rifi katta amaliy ahamiyatga ega. Tijorat bankining ta'rifi bank nomidagi tashkilot yoki subyekt nima o'zi, uning huquqiy maqomi qanday, uning vakolatlari nimadan iborat, u xo'jalik muomalasida qanday ishtirok etadi va shu kabi muhim huquqiy savollarga javob beradi.

Respublikaning moliya va kredit tizimi qandayligi mamlakatning taraqqiyotiga katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ularni takomillashtirishga doimo e'tibor beriladi. Bank va moliya tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirishda iqtisodiy islohotlarning roli muhim ekanligi Oliy Majlis palatalarining 2005-yildagi qo'shma majlisida alohida ta'kidlandi hamda bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi[1].

5-§. Moliya-bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash

Moliya-bank tizimining mamlakat va fuqarolar hayotidagi roli muhim ekanligi sababli mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab moliya-bank tizimini rivojlantirishiga, barqaror institutga aylantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Bu tadbirlar orasida milliy valyutani mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Shu maqsadda respublikada valyuta birjasi tashkil etilgan va u faoliyat ko'rsatmoqda.

Hukumat milliy valyutani mustahkamlash maqsadida budjet va pul-kredit siyosatini keskinlashtirish, iste'mol bozorini

1 Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 85 bet.

to'ldirish, eksportni kuchaytirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish, pul aylanmasini tezlashtirish va muomaladagi naqd pulni kamaytirish yuzasidan to'rtta dastur ishlab chiqib, qabul qildi[1].

2000-yilning boshlaridan moliya va bank tizimini mustahkamlashga yana e'tibor kuchaytirildi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 22-yanvarda bo'lib o'tgan birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida Prezident bu masala xususida shunday dedi: "Bank tizimini tubdan musthkamlash, bu soha-dagi islohotlarni chuqurlashtirish, banklarning kredit berish imkoniyatlarini va ustav kapitalini bo'sh mablag'lar jalb qilish hisobiga kengaytirish talab etiladi"[2].

Mazkur yig'ilishda Prezident iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalarini ko'rsatib, "to'rtinchi ustuvor vazifa – bank va moliya tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish"[3] kerakligini ta'kidladi.

Ishlar natijasida,

Qat'iy pul-kredit siyosatini o'rnatish; inflatsiya darajasining barqarorligini ta'minlash; milliy valyuta va uni almashuv kursi mustahkamligini saqlashda moliya-bank tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish asosiy vazifa qilib belgilandi.

Prezident ko'rsatmalari asosida banklarni kapitallashtirish; ularning nizom va aylanma fondlarini ko'paytirish; mablag'larini investitsiya maqsadlariga, birinchi navbatda, real iqtisodiyotga yo'naltirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'rildi.

Shuningdek, Yurtboshimizning nutqida "bank aylanmasidan hali-beri chetda qolayotgan salmoqli moliya mablag'lari va pul oqimlarini ushbu tizimga jalb qilish uchun aniq va qat'iy choralar ko'rish" lozimligi[4] ta'kidlandi.

---

1 Qarang: Karimov I.A O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – 33–34-betlar.

2 Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. – 18-bet.

3 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 85-bet.

4 O'sha joyda. – 86-bet.

2010-yilga kelib moliya-bank tizimini rivojlantirish, barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qonunlar hamda ularga kiritilgan o'zgartirishlar mazkur munosabatlarning huquqiy asoslarini ta'minlab kelmoqda. Bularga misol qilib "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarni, Soliq kodeksida ko'rsatilgan o'zgartirishlarni ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiyotda, moliya va bank tizimida olib borilgan islohotlarning to'g'riligi, hayotiyligi jahon moliyaviy inqirozi davrida o'zini ko'rsatdi. "Sizlarga yaxshi ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya-bank tizimi o'zining barqaror va ishonchli ekanligini isbotladi"[1], – deb ma'lum qildi O'zbekiston Prezidenti.

Shu bilan birga, xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish va shuning hisobiga moliya-bank sohalariga xususiy kapitalning jalb qilinishi muhim vazifalardan, deb belgilandi. Demak, moliya-bank tizimining bundan keyingi rivojlanishi xususiy kapitalning ishtiroki, uni jalb qilishga bog'liqdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Respublikaning moliya tizimi nima?
2. Moliya tizimida pul-kredit tizimining o'rni nimadan iborat?
3. Davlat budjeti nima?
4. Davlat budjetining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. Budjet to'g'risidagi hujjat qanday vujudga keladi?
6. Soliq tizimi nima?
7. Soliqlar qanday joriy qilinadi?
8. Bank tizimi nima?
9. Moliya-bank tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati qanday?

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2010. – 49–50-betlar.

XXIX bob. Mudofaa va xavfsizlik

1-§. Milliy xavfsizlik – taraqqiyot garovi

Har bir mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash asosiy masala bo'lib, bunda davlat asosiy rolni o'ynaydi.

"O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini mustahkamlash, uning hududida barqarorlikni ta'minlash, mamlakatimizning jahon xo'jaligi tizimida va jahon hamjamiyatida munosib joyni egallashiga erishish – davrimizning asosiy vazifasidir"[1], – deb bu masalaning ahamiyatini ko'rsatib bergan edi Prezidentimiz.

Shuning uchun, dastlabki yillardan boshlab milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish, uning asosini yaratuvchi qonunlarni yaratish ishlari amalga oshirildi. Milliy xavfsizlik masalasida yagona davlat siyosati bo'lishiga, barcha siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, harbiy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarning uyg'unlashgan tizimini yaratishga erishish yo'lidan borildi.

Milliy xavfsizlik ko'p jihatdan Vatanimiz mudofaa qudratining asosi – mamlakatning iqtisodiy qudratiga bog'liq. Shuning uchun iqtisodiy qudratni rivojlantirish ishlari to'xtovsiz olib borildi.

Mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlashning asosi yoshlar ekanligiga hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berildi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida jahondagi mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatildi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo'ljallangan strategiyasi tamoyillari 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning sessiyasida aniq bayon qilib berildi.

1996-yil 24-aprelda Oliy Majlis sessiyasida "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonun muhokamaga qo'yildi. 1997-yil avgust oyida bo'lib o'tgan Oliy Majlis sessiyasida esa, Respublikaning milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilindi. Milliy xavfsizlik endi faqat

1 Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston. 1995. – 57–58-betlar.

davlat xavfsizligini ko'zda tutmay, shaxs huquq va erkinliklarini; jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini; davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suveriniteti, hududiy yaxlitligini saqlashni ham ko'zda tutadi.

Prezidentimizning: "Demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ma'naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishining asosiy sharti va garovi – mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va ko'z qorachig'iday asrashdir"[1] – degan so'zlari mamlakatimiz xavfsizligining ahamiyatini yanada to'laroq ko'rsatadi.

Mamlakat milliy xavfsizligini saqlashda davlatning olib boradigan tashqi siyosati ham muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli milliy xavfsizlikni saqlash bilan bog'liq davlatimizning tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari 2005-yildagi Oliy Majlis Palatalarining qo'shma majlisida Prezident tomonidan ko'rsatib o'tildi.

Ma'ruzada O'zbekiston tashqi siyosatining mazmuni, maqsadi bitta – u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaatidir, deb alohida qayd qilindi. Hamda O'zbekistonning xavfsizligi Markaziy Osiyodagi tinchlik va barqarorlikka, qo'shni davlatlardagi ahvolga bog'liqligi, O'zbekistonning xavfsizligini ta'minlash yo'lida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligi e'tirof etildi.

Xavfsizlik va uning ta'minlash usullaridan bo'lgan mudofaa ahamiyati yuqoriligi e'tiborga olinib, shu masalalarning asoslari Konstitutsiyaviy tartibda mustahkamlangan.

O'zbekiston Konstitutsiyasi mudofaa va xavfsizlikka alohida XXVII bobni ajratgan.

O'zbekistonning davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish konstitutsiyaviy normada o'z ifodasini topgan (125-modda).

Mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash doimo ustuvor masalalardan bo'lib kelgan.

---

1 Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. – 35-bet.

O‘zbekiston Prezidenti ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to‘qqizinchi sessiyasida jamiyat hayotidagi muhim ustuvor yo‘nalishlarni ko‘rsatar ekan: “Ikkinchi ustuvor yo‘nalish. Bu – mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashdan iborat”[1], – deb qayd qilgan edi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, mudofaa va xavfsizlik faqat davlat va mamlakat xavfsizligi, chegaralar daxlsizligi uchun emas, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligi, normal turmush kechirishini ta’minlash uchun ham zarur.

“Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, mudofaa yaxlit bir tizim bo‘lib (Qonunning 2-moddasi), u aniq prinsiplar asosida tashkil qilinadi.

Mudofaa sohasidagi O‘zbekiston siyosati prinsiplari quyidagilardan iborat:

- boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tashqi tajovuzlarning oldini olish;
- xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etish;
- harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolar xususiyatiga mosligini ta’minlash;
- yalpi qirg‘in qurollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, egallashni, saqlashni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish;
- Qurolli Kuchlarning mamlakatga beriladigan har qanday tajovuzni daf etishga doimiy tayyor turishi;
- mudofaani yetarli darajada bo‘lishi;
- harbiy xizmatni sharafli ekanligini ta’minlash.

Mamlakatda mudofaa ishlarini tashkil qilish, xavfsizlik, xavfsizlikni saqlashga e’tibor hech vaqt va hech qanday holda susaytirilmasligi kerak.

Hozirgi davda mamlakatimiz xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘dirayotgan narsa – bu terrorizm bo‘lib qolmoqda. Uning mudhish ishlaridan bir necha marta aziyat chekildi va qurbonlar berildi.

---

1 Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. – T.: O‘zbekiston. 2002. – 19-bet.

Shuning uchun bu xavfga qarshi kurash yo'llari haqida Prezident o'zining bir necha nutqlarida to'xtalgan[1].

Mamlakat mudofaasi, xavfsizlikni tashkil etish birgina davlatning ishi emas. Albatta, bunda davlat asosiy rol o'ynaydi. U mamlakatdagi barcha kuchlarni mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashga safarbar qiladi. Shu maqsadda fuqarolar mudofaasi tashkil qilinadi. Bu ishga fuqarolar o'rgatiladi, ko'niktiriladi.

O'zbekistonda "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"[2] maxsus qonun mavjud bo'lib, unda fuqarolar muhofazasini tashkil etish bilan bog'liq barcha masalalar huquqiy jihatdan hal qilingan.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda mavjud xavf-xatarni oldindan aniqlash, uni bartaraf etish choralarini oldindan ko'rib qo'yish juda katta foyda keltiradi. Shuning uchun mamlakatimizda xalqaro masalalar, bo'lajak xavf-xatarlarni o'rganish, tadqiq qilish maqsadida yetarli tuzilmalar tashkil qilingan.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda mamlakat Prezidenti huzurida tuzilgan maslahat organi – Xavfsizlik kengashi katta rol o'ynaydi. U milliy xavfsizlik bilan bog'liq barcha masalalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, shunga mas'uldir.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda mamlakatning Milliy xavfsizlik xizmati alohida rol o'ynaydi. Bu xizmatni, Konstitutsiyaning 93-moddasi 24-bandiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalar xususida chiqarilgan Prezident farmonlari Oliy Majlis Senatiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

2-§. Mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashda Qurolli Kuchlarning o'rni

Sobiq Ittifoq davlati – SSSR o'zining ko'plab salbiy jihatlari bilan birga, eng kuchli qurolli kuchlarga ega davlat edi. Uning

1 Qarang: Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. – T.: O'zbekiston, 2004.

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005-yil, 5–6-son, 151-modda.

qismlari butun ittifoq hududida, jumladan, O'zbekiston hududida ham joylashtirilgan bo'lib, SSSR tugatilganidan so'ng Qurolli Kuchlarda ham boshqaruv, intizom barbod bo'lib, turli tahdidlar kuchayib borayotgan vaqtda O'zbekistonning o'z mudofaa vazirligini va joylarda qo'mondonlik tuzilmalarini shakllantirish o'z vaqtida qabul qilingan va to'g'ri bo'lgan qaror edi.

Chunki, mustaqillikni saqlash xavfsizlikni saqlash bilan bog'liq bo'lib, ularni saqlashda Qurolli Kuchlar asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Undan keyingi muhim qadam Qurolli kuchlarning mavjudligi, vazifasining Konstitutsiyada mustahkamlanishi bo'ldi. Natijada Qurolli kuchlar Konstitutsiyaviy institut hisoblandi. Bu ham ularning ahamiyatini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning 125-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi", – deb qayd qilingan. Bu bilan nima uchun qurolli kuchlarni tashkil qilish kerakligi va ularning vazifasi aniq belgilangan. Demak, Qurolli Kuchlarning Konstitutsiyaviy vazifasi:

- davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini;
- aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishdir. U shu maqsadda tuziladi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaga asosan qabul qilingan "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunda Qurolli Kuchlarga urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish vazifasi ham yuklatilgan. (Qonunning 6-moddasi).

Qurolli Kuchlar davlat tomonidan tashkil qilinadigan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar, qismlar va boshqa harbiy tuzilmalardan iborat bo'ladi.

Qurolli Kuchlar va uning tarkibiy qismlari o'z faoliyatini qonuniylik, markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar safarbarlikka doimo tayyor hamda harbiy intizomga rioya etish asosida tashkil etiladi.

Ularning faoliyatidagi bu prinsiplar mamlakat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Qurolli Kuchlar ularning tarkibiy qismlari o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun, ularning ixtiyoriga harbiy obyektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog‘lar, harbiy texnikaning barcha zarur turlari va boshqa harbiy ashyo, mol-mulk berib qo‘yiladi va ular davlat mulki hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 126-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega”, – deb ko‘rsatilgan. Bu Qurolli Kuchlarning tarkibiy qismlari, ularga zarur qurol-yarog‘, texnika ashyolar hamda eng muhimi, Qurolli Kuchlarda xizmat qiluvchi tarkib O‘zbekiston mudofaa ehtiyojidan kelib chiqib belgilanishini anglatadi.

Qurolli Kuchlarda muddatli va muddatsiz xizmat o‘tovchi shaxslar faoliyat ko‘rsatadi. Fuqarolar Konstitutsiyada belgilangan burchini o‘tash uchun Qurolli Kuchlar safiga muddatli xizmatga chaqiriladi. Bundan tashqari, Qurolli Kuchlarda doimiy maosh olib ishlovchilar ham mavjud. Ular asosan zobitlar va boshqa xodimlardir.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrlarida iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, Qurolli Kuchlar uchun eng zarur va yuksak malakali zobitlar tayyorlashga mo‘ljallangan bir qancha harbiy o‘quv yurtlari tashkil qilindi, armiyani texnik jihatdan jihozlashning samarali choralari ko‘rildi, harbiy salohiyatni yetarli darajada ta’minlash uchun zarur mablag‘ ajratildi. Mamlakatimiz harbiy doktrinasi mudofaani ta’minlash va xavfning oldini olish xarakterida tuzildi[1].

O‘zbekiston XXI asrga Qurolli Kuchlarni, chegara qo‘shinlarini va ichki qo‘shinlarni yagona davlat siyosati asosida bosqichma-bosqich isloh qilish maqsadi bilan kirdi.

Islohotlarning maqsadi – mamlakat tinchligi va osoyishtaligini saqlashga va ishonchli himoya qilishga qodir, tezkor, har jihatdan yaxshi ta’minlangan Qurolli Kuchlarni shakllantirish hisoblanadi.

Shu maqsadda mamlakat hududida harbiy-ma’muriy birliklar – harbiy okruglar tuzildi. Soni va tuzilishi, professional tarkibi jihatidan eng maqbul armiya tuzish vazifasi belgilandi va u amal-

1 Qarang: Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 71-bet.

ga oshirildi. Qurolli Kuchlarning qo'shilma va qismlari qaytadan joylashtirildi. Bular:

birinchidan, qo'shinlarni boshqarish samaradorligining ancha oshirilishiga;

ikkinchidan, ularning eng muhim strategik yo'nalishlarda ishlashiga;

uchinchidan, hududiy mudofaaning haqiqiy tizimini shakllantirishga imkon berdi.

Qurolli Kuchlar sonini qisqartirish barobarida son va tuzilishi, professional tarkibi jihatidan eng maqbul armiya tuzish ishlari olib borildi.

Armiyani mustahkamlash – ularni zamonaviy qurollar bilan ta'minlash bilan bevosita bog'liq, shuning uchun bu borada yetarli ishlar olib borildi.

Qurolli Kuchlarni mustahkamlash bo'yicha olib borilgan va olib borilayotgan ishlardan chegara qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlari ham chetda qolgani yo'q. Chunki, ular ham mamlakat xavfsizligini ta'minlashda o'z o'rniga ega.

Bulardan tashqari, xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rganib, Qurolli Kuchlarni tashkil etish, uning quyi bo'g'inlaridan tortib, yuqori bosqichlarigacha boshqarish tartibi tubdan qayta ko'rib chiqildi va tizimli choralar belgilandi[1].

3-§. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va Qurolli Kuchlarni boshqarish

Konstitutsiyaning 126-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlashuchun yetarli darjada Qurolli Kuchlariga ega", – deb belgilangan.

"Mamlakatimiz sarhadlarining daxlsizligi va hududiy yaxlitligini saqlash, el-yurtimizning osuda hayotini ishonchli himoya qilishga qodir, zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta'minlangan, yaxshi tayyorlangan va bugungi kun talablariga to'liq javob beradigan, son jihatidan ixcham va harakatchan Qurolli Kuchlarni

1 Bular haqida qarang: Karimov I.A. O'zbkiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 44–46-betlar.

vujudga keltirish – O'zbekistonimizning buyuk kelajagini barpo etish yo'lidagi eng muhim vazifalarimizdan biridir"[1], – deb bu masalaning mohiyatini ko'rsatib bergan edi Prezidentimiz.

O'zbekistonda hozirgi kunda Qurolli Kuchlarning qat'iy tizimi barpo etildi va u Konstitutsiyaning 126-moddasida belgilangan darajaga mos keladi.

Qurolli Kuchlar o'z ichiga Mudofaa vazirligi va Chegara qo'shinlari bo'linmalarining, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining maxsus qismlarini, shuningdek boshqa idoralarning harbiy tuzilmalarini oladi. Ya'ni, yuqoridagi bo'linma va tuzilmalar birlashib, Qurolli Kuchlarni tashkil etadi.

O'tgan yillar davomida davlatning mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi siyosatini amalga oshiruvchi Mudofaa vazirligi, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita, Ichki ishlar vazirligi va boshqa Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi davlat organlari, tashkilotlarning maqsad va vazifalari qaytadan ko'rib chiqilib, yanada aniqlashtirildi. Mamlakatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilishga tegishli qarorlar ishlab chiqadigan va ularni amalga oshiradigan yangi tuzilma – Qurolli Kuchlarning birlashgan shtabi tuzilishi mudofaa sohasida muhim voqea bo'ldi.

Mamlakat xavfsizligini saqlashda faqat kuchli Qurolli Kuchlar bo'lishining o'zi kifoya emas. Qurolli Kuchlar samarali, vakolatli boshqarilgandagina, ular o'z oldiga qo'yilgan vazifani to'la bajara oladi. Shuning uchun mamlakatimizda Qurolli Kuchlarni boshqarishga alohida e'tibor beriladi.

O'zbekistonda mudofaa va xavfsizlikning muhim ahamiyatidan kelib chiqib, Qurolli Kuchlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchilik qiladi. Konstitutsiyaning 93-moddasi 20-bandiga asosan, Prezident O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi. U Konstitutsiyaning shu moddasiga binoan Oliy bosh qo'mondon sifatida Qurolli Kuchlarning Oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifalaridan ozod etadi, Oliy harbiy unvonlarni beradi.

1 Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 2002. – 32-bet.

Prezidentning mudofaa sohasidagi vakolatlari (Oliy bosh qo'mondon) "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida belgilangan.

Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga rahbarlikni o'z bo'ysunuvidagi qurolli kuchlarning tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari amalga oshiradi.

Masalan, Mudofaa vaziri, Ichki ishlar vaziri, Milliy xavfsizlik xizmati raisi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bojxona qo'mitasi raisi.

O'zbekiston Mudofaa vazirligi tinchlik davrida faqat o'z tasarrufidagi qo'shinlarni boshqarishga rahbarlik qilsa, urush davrida Mudofaa vaziri bir paytning o'zida Oliy bosh qo'mondon o'rinbosari hisoblanadi.

Qurolli Kuchlar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga tezkor va kundalik rahbarlikni Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi boshlig'i amalga oshiradi.

Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi yagona qo'mondonlik organi hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarni boshqarishda harbiy okruglar alohida o'rin tutadi, harbiy okrug alohida yo'nalishlarda Respublika xavfsizigi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy harbiy-ma'muriy birlik hamda umum qo'shin tezkor strategik birlashmadir.

Mudofaa sohasidagi O'zbekiston hukumatining, Mudofaa vazirligining, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunning 9, 10, 12, 13, 14-moddalarida belgilab qo'yilgan.

Mudofaa sohasida, Qurolli Kuchlarni tashkil qilishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham ishtirok etadi, ya'ni davlat organlariga o'z vazifalarini bajarishga ko'maklashadi (Qonunning 15-moddasi).

Mudofaa va xavfsizlik masalasi o'ta muhim masala ekanligi sababli u O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston XXI.asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraq-

qiyot kafolatlari" asarida barqarorlik hamda taraqqiyot kafolatlari va shartlaridan biri sifatida ko'rsatilgan[1].

Unda ta'kidlanishicha, davlatning mudofaa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi. Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Harbiy qurilish sohasidagi maqsad professional armiyani, o'z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta'lim olgan, o'z xalqiga, ona zaminiga sadoqatli bo'lgan, o'z Vatanining sha'ni va qadr-qimmatini oxirigacha himoya qila oladigan jangchilarga ega bo'lgan armiyani bosqichma-bosqich vujudga keltirishdan iborat. Maqsad miqdor jihatdan uncha katta bo'lmagan, lekin yaxshi shaylangan, zamonaviy qurollar va harbiy texnika bilan bekamu ko'st qurollangan, O'zbekistonning xavfsizligini mustaqil ravishda va puxta ta'minlashga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlarni shakllantirishdir[2].

O'zbekiston Prezidentining bu so'zlarida mudofaaning ahamiyati, unda Qurolli Kuchlarning roli va Qurolli Kuchlarni takomillashtirish hamda undan ko'zlangan maqsad aniq ko'rsatib berilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mudofaa va xavfsizlikning ahamiyati qanday?

2. Qurolli Kuchlarning vazifasi, tarkibi qanday?

3. Qurolli Kuchlarga qanday rahbarlik qilinadi?

4. Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilishda Prezidentning o'rni qanday?

5. Qurolli Kuchlarni mustahkamlash qanday yo'llar bilan olib boriladi?

6. Qurolli Kuchlarni isloh qilish bo'yicha qanday ishlar olib borilgan?

7. Mamlakat xavfsizligi va mudofaasini ta'minlashda yoshlarning o'rni qanday?

8. Mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashda jamoatchilik qanday ishtirok etadi?

---

1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston. 1997. – 151–170-betlar

2 O'sha joyda. – 163-bet.

MUNDARIJA

Kirish 3

BIRINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI VA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ 7

I bob. Konstitutsiyaviy huquqning umumiy tasnifi 7
1-§. Konstitutsiyaviy huquq tushunchasi 7
2-§. Konstitutsiyaviy huquqning predmeti 10
3-§. Konstitutsiyaviy huquq – huquqning yetakchi sohasi 12
4-§. Konstitutsiyaviy huquq – huquq tarmog'i 14
5-§. Konstitutsiyaviy huquq normalari, institutlari, munosabatlari va ularning subyektlari 16
6-§. Konstitutsiyaviy huquq manbalari 19
7-§. Konstitutsiyaviy huquq tizimi 21
8-§. Konstitutsiyaviy huquq – fan sifatida 23
9-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining vazifasi va rivojlanishi 26
10-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi 27

II bob. Konstitutsiyaviy nazariya asoslari 30
1-§. Konstitutsiya va davlat 30
2-§. Konstitutsiyaning ta'rifi mazmuni va mohiyati 34
3-§. Konstitutsiyaning prinsiplari va xususiyatlari 37
4-§. Konstitutsiyaning amal qilishi va uni himoyalash 42
5-§. Konstitutsiya – qonunchilik asosi 45
6-§. Konstitutsiyalarning turlari 46

III bob. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi va takomillashuvi 49
1-§. Konstitutsiyaning yaratilishiga bo'lgan zarurat 49
2-§. Konstitutsiyaviy komissiya va uning faoliyati 52
3-§. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi va unini qabul qilinishi 55

4-§. Konstitutsiyada jahon konstitutsiyaviy tajribalari va milliy qadriyatlarning aks etishi 58
5-§. Konstitutsiyaning tuzilishi..... 62
6-§. Konstitutsiyamizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati va tartibi 65

IKKINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYAVIY TUZUMI PRINSIPLARI..... 72

IV bob. Davlat suvereniteti va uning konstitutsiyaviy asoslari 72
1-§. Suverenitet tushunchasi..... 72
2-§. O'zbekiston – Respublika shaklidagi davlat 76
3-§. Davlat va fuqaro munosabatlari 79
4-§. Davlat suverenitetining amaliy ifodasi va mamlakat chegarasi hamda hududining daxlsiz va bo'linmasligi..... 81
5-§. Davlat tili, boshqa millatlarning tili, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishi..... 83
6-§. O'zbekistonning davlat ramzlari. Poytaxti..... 86

V bob. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari 90
1-§. Hokimiyat tizimida davlat hokimiyati..... 90
2-§. Davlat hokimiyatining manbai va davlat hokimiyatini amalga oshirish..... 92
3-§. Davlat hokimiyati tizimining bo'linishi prinsipi 95
4-§. O'zbekiston xalqi. Xalqning jamiyat va davlat hayotida ishtiroki. Xalq nomidan ish olib borish..... 98
5-§. Siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi..... 102
6-§. O'zbekistonda demokratiya prinsiplari va shakllari 104
7-§. Davlat o'z faoliyatida tayanadigan prinsiplar..... 107

VI bob. Konstitutsiya va qonunning ustunligi..... 110
1-§. Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda ularning tan olinishi va bajarilishi shartligi 110
2-§. Barchaning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishi zarurligi 113
3-§. Konstitutsiya normalarini talqin etish va uning qonun hamda boshqa normativ hujjatlar bilan munosabati..... 116

VII bob. Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari 119
1-§. Tashqi siyosat yuritish davlatning muhim vazifasi 119
2-§. O'zbekiston – xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti 121
3-§. Tashqi siyosat prinsiplarining Konstitutsiyada mustahkamlanishi 123
4-§. Ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish 125

UCHINCHI BO'LIM. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI 128

VIII bob. Shaxs va fuqarolikka taalluqli umumiy qoidalar. Fuqarolik 128
1-§. Shaxsning huquqiy maqomi 128
2-§. Fuqarolik tushunchasi. Yagona fuqarolik 130
3-§. Fuqarolikka ega bo'lish 133
4-§. Fuqarolikning to'xtatilishi 136
5-§. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish 138
6-§. O'zbekistonda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqini ta'minlash 141
7-§. Fuqarolik masalasi bilan shug'ullanuvchi davlat organlari 142

IX bob. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari 146
1-§. Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi 146
2-§. Yashash huquqi. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi 147
3-§. Shaxsni aybdor deb topish. Sudda himoya bilan ta'minlanish huquqi 150
4-§ Har kimning sha'ni, obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joy daxlsizligi huquqi, yozishma va so'zlashuvlarni sir saqlanish huquqi 152
5-§. Yashash joyini erkin tanlash huquqi 153
6-§. Fikrlash, so'z, e'tiqod erkinligi. Axborot olish, tarqatish, hujjatlar bilan tanishish huquqi 154
7-§. Vijdon erkinligi 157

X bob. Siyosiy huquqlar 160
1-§. Siyosiy huquqlar tushunchasi 160
2-§. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish huquqi 161
3-§. Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi 163
4-§. Jamoat birlashmalariga birlashish va ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi 165
5-§. Vakolatli organlarga murojaat etish huquqi 166

XI bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar 169
1-§. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasi 169
2-§. Mulkdor bo'lish huquqi 170
3-§. Mehnat qilish huquqi. Majburiy mehnatning taqiqlanishi 171
4-§. Dam olish huquqi 173
5-§. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi 174
6-§. Tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi 176
7-§. Bilim olish huquqi 178
8-§. Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi 181

XII bob. Huquq va erkinliklarning kafolatlari 183
1-§. Huquq va erkinliklar kafolatlari tizimi 183
2-§. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda milliy huquq tizimining o'rni 184
3-§. Huquq va erkinliklarning davlat tomonidan ta'minlanishi 186
4-§. Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish. Sudga shikoyat qilish huquqi 187
5-§. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlarini himoya qilish 189
6-§. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi 191

XIII bob. Fuqarolarning asosiy burchlari 194
1-§. Asosiy burchlar tushunchasi 194
2-§. Konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarish. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish 195
3-§. Tarixiy, ma'naviy va madaniy meroslarni avaylab-asrash 196
4-§. Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish 198

5-§. Soliq va yig'imlarni to'lash 199
6-§. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish va harbiy xizmatni o'tash 200

TO'RTINCHI BO'LIM. JAMIYAT VA SHAXS 203

XIV bob. Jamiyatning iqtisodiy negizlari 203
1-§. Iqtisodiy negiz tushunchasi 203
2-§. Mulk shakllari, ularning teng huquqliligi 205
3-§. Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan muhofaza etilishi 208
4-§. Iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi 210
5-§. Iste'molchilar huquqlarining ustunligi 214
6-§. Mulkka egalik qilish va mulkdan mahrum qilish asoslari 215
7-§. Umummilliy boyliklar va ulardan foydalanish hamda muhofaza qilish 217

XV bob. Jamoat birlashmalari 220
1-§. Jamoat birlashmalarining tizimi, turlari, vazifasi 220
2-§. Siyosiy partiyalarning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki 223
3-§. Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi faoliyat yurituvchi birlashmalar tuzishning taqiqlanishi 227
4-§. Davlat va jamoat birlashmalari munosabati 229
5-§. Kasaba uyushmalarining jamoat birlashmalari tizimida tutgan o'rni, vazifasi 232
6-§. Davlat va diniy tashkilotlar munosabati 234
7-§. Jamoat birlashmalarining faoliyatini cheklash, taqiqlab qo'yish va tarqatib yuborish 237

XVI bob. Oilaning konstitutsiyaviy asoslari 240
1-§. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini 240
2-§. Oilaning jamiyat va davlat himoyasida bo'lishi 241
3-§. Nikoh tuzish asoslari 243
4-§. Ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyati 245
5-§. Ota-onasizlarga davlat g'amxo'rligi 247
6-§. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyati 249

XVII bob. Ommaviy axborot vositalari 251
1-§. Jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o'rni 251
2-§. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi va qonunga muvofiq ishlashi 253
3-§. Ommaviy axborot vositalarining mas'uliyati 255
4-§. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida senzuraga yo'l qo'yilmasligi 257

BESHINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIY VA DAVLAT TUZILISHI 259

XVIII bob. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi 259
1-§. Davlat tuzilishi shaklining umumiy tasnifi 259
2-§. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi 261
3-§. Ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil etish, tugatish tartibi 262
4-§. Shaharlarning maqomi, ularni turkumlash 265

XIX bob. Qoraqalpog'iston Respublikasi 268
1-§. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi 268
2-§. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston qonunlarining munosabati 270
3-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi va chegaralarini o'zgartirish tartibi 272
4-§. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining o'zaro munosabati. Nizolarni hal qilish tartibi 275

OLTINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTONDA DAVLAT HOKIMIYATINI TASHKIL ETISH 278

XX bob. Saylov tizimi 278
1-§. Demokratik jamiyatda saylovlarning ahamiyati 278
2-§. Saylov tizimi va saylov huquqi 281
3-§. Fuqarolarning saylov huquqi, saylov huquqi prinsiplari 284
4-§. Saylov senzlari. Saylovda ishtirok etmaslik asoslari. Saylovlarda erkinlik 288
5-§. Saylov jarayoni va unda ishtirok etuvchi subyektlar 292
6-§. Saylov o'tkazish muddatlari va saylov kampaniyasining boshlanganligini e'lon qilish 297
7-§. Saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish 299

8-§. Saylovlarni moliyalashtirish. Bo'shab qolgan o'rinlarga deputat va senatorlar saylash 310
9-§. Deputat va senatorlarni chaqirib olish 312

XXI bob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 319
1-§. O'zbekistonda Prezidentlik institutining vujudga kelishi va rivojlanishi 319
2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hokimiyat tizimidagi o'rni (Prezident maqomi) 324
3-§. O'zbekiston Prezidentini saylash tartibi 329
4-§. Prezidentning vakolatlari 334
5-§. Prezidentning mas'uliyati 341
6-§. O'zbekiston Prezidenti faoliyatining kafolatlari 344

XXII bob. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 347
1-§. O'zbekistonda Parlamentning vujudga kelishi va parlament islohotlari 347
2-§. Oliy Majlisning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va vazifasi 351
3-§. Oliy Majlisning tarkibiy tuzilishi va palatalarni tashkil etish tartibi 354
4-§. Oliy Majlis palatalarining tashkiliy faoliyati shakli va ichki tuzilishi 362
5-§. Oliy Majlis palatalarining vakolatlari 371
6-§. Qonunchilik jarayoni 377
7-§. Deputatlar va senatorlaning huquqiy maqomi 386
8-§. Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati 395

XXIII bob. O'zbeksiton Respublikasining Vazirlar Mahkamasi 399
1-§. Vazirlar Mahkamasining hokimiyat tizimidagi o'rni 399
2-§. Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi va uning tarkibi 403
3-§. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari 407
4-§. Vazirlar Mahkamasining boshqa hokimiyat tuzilmalari, organlar va tashkilotlar bilan munosabati 411
5-§. Bosh vazirning vakolatlari 415
6-§. Bosh vazirni vazifasidan ozod qilish 417

XXIV bob. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari 421
1-§. Mahalliy davlat organlari tizimi 421
2-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va vakolatlari 423
3-§. Xalq deputatlari Kengashi – hokimiyatning vakillik organi 427
4-§. Xalq deputatalari mahalliy kengashlarini tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli 429
5-§. Xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi 433
6-§. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokim maqomi 436
7-§. Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi 438

XXV bob. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari 442
1-§. O'zini o'zi boshqaruv va uning demokratik jamiyatdagi o'rni 442
2-§. O'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalari va vakolatlari 447
3-§. Fuqarolar yig'inini tashkil etish 461
4-§. Fuqarolar yig'ini raisini saylash 465
5-§. O'zini o'zi boshqarish organlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabati 472

XXVI bob. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati 483
1-§. Sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i. Sud-huquq islohotlari 483
2-§. Sud hokimiyatining tizimi va vazifasi 489
3-§. Sudlarni tashkil qilish tartibi 494
4-§. Sudlar faoliyatining asosiy prinsiplari 498

XXVII bob. Prokuratura organlari 505
1-§. Prokuraturaning davlat organlari tizimidagi o'rni 505
2-§. Sud-huquq islohotlarining prokuratura organlari maqomiga ta'siri 508
3-§. Prokuratura organlarining vazifa va vakolatlari 511
4-§. Prokuratura organlarining tizimi, xodimlarni lavozimga tayinlash, prokuratura ishini tashkil qilish 516

XXVIII bob. Moliya va kredit 521
1-§. O'zbekistonning moliya va pul-kredit tizimi 521
2-§. Davlat budjeti va uning tarkibiy qismlari 523
3-§. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi 525
4-§. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi 528
5-§. Moliya-bank tizimini barqaror rivojlanishini ta'imlash 530

XIX bob. Mudofaa va xavfsizlik 533
1-§. Milliy xavfsizlik – taraqqiyot garovi 533
2-§. Mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashda Qurolli Kuchlarning o'rni 536
3-§. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va Qurolli Kuchlarni boshqarish 539

O.T. HUSANOV

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

Muharrirlar: A. Omonov, G. Ortiqxo'jayeva
Texnik muharrir: A. Ahmedov
Kompyuterda sahifalovchi: Sh. Rasulov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti. Nahsr. lits. AI № 228, 16.11.12.
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.
Telefonlar: (371) 236-05-97, 233-81-53.
Faks: (371) 233-84-80, 233-67-65.
Web-sayt: www.adolatnashr.uz
E-mail: info@adolatnashr.uz
adolatnashr@inbox.uz

Bosishga ruxsat etildi 18.10.2013.
Qog'oz bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$. "Antiqua" garniturasi.
Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 34,5.
Nashriyot hisob tabog'i 33,75. Adadi 2000 nusxa.
30-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.

"SHARQ" NMAK qoshidagi "Nafis bezak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.